RAVSHAN RAJABOV

JAHON TARIXI

II Q I S M
QADIMGI YUNONISTON, RIM

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 5110600 Tarix o‘qitish metodikasi ta’lim yo‘nalishi talabalari (o‘quvchilari) uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

YANGI ASR AVLODI
Toshkent
2020

UO‘K: 94(100) (075)
KBK: 63.3 (0)
R – 17
Rajabov, Ravshan
Jahon tarixi / Ravshan Rajabov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. – 656 b.

ISBN 978-9943-20-748-6

O‘quv darsligi Jahon tarixi fanining yangi dasturi bo‘yicha 2015-yildagi nashri asosida qayta ishlanib, fanning yangi ma’lumotlari bilan to‘ldirilgan. Darslik ikki bo‘limdan iborat: qadimgi Yunoniston va Rim tarixi. Darslikda qadimgi Yunoniston va Rim tarixida sodir bo‘lgan asosiy voqea-hodisalar, g‘arbda ilk davlat va jamiyatlarning paydo bo‘lishi, ularning gullab-yashnashi va so‘nish davri milodiy V asrgacha yoritilgan. Qadimgi sivilizatsiyaning iqtisodiy-ijtimoiy tuzilmalari, siyosiy davlat tashkilotlari, madaniyatlarining asosiy sohalari tahlil qilinadi.

Darslik oliy o‘quv yurtlari tarix fakulteti talaba va o‘qituvchilari, maktab va litsey o‘quvchilariga hamda jahon tarixi va madaniyatini o‘rganuvchi mutaxassislar va erkin izlanuvchilarga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:
M. RAHIMOV,
tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:
X. RAUPOV,
tarix fanlari nomzodi, dotsent
X. QURBONOV,
tarix fanlari nomzodi

ISBN 978-9943-20-748-6
© Ravshan Rajabov, «Jahon tarixi». «Yangi asr avlodi», 2020-yil.

I BO‘LIM

I BOB
QADIMGI YUNON TARIXIGA KIRISH

Gay Sallyutsiy Krisp (mil. avv. 86 – 35-yillar) o‘zining «Katilina fitnasi» asarida shunday yozgan edi: «Mening fikrimcha, afinaliklarning turli sohada qilayotgan ishlari ajoyib va tahsinga sazovordir. Biroq afinaliklarning noyob qobiliyatga ega yozuvchilari borligi tufayli, ular afinaliklarning o‘zlari munosib bo‘lgandan ham ortiq shon-shuhrat olib keldilar».

Janubi-Sharqiy Yevropada joylashgan Bolqon yarim orolining janubiy qismi, unga yaqin bo‘lgan Ioniya, O‘rtayer va Egey dengizi orollarida joylashgan Yunoniston hududida (121,99 ming km.kv.)qadimgi yunonlar mil. avv. I ming yillikda Yevropa sivilizatsiyasining ilk poydevorini bunyod etdilar. Zamonaviy demokratiyaning ilk unsurlari Attika viloyatida, Yunonistonda qadimgi Afina shahar-davlatida paydo bo‘lgan deb aytiladi. Qadimgi Yunon va Rim sivilizatsiyasi ham hozirgi Yevropa sivilizatsiyasining poydevoridir. Qadimgi Yunon tarixi xilma-xil adabiyotlar orqali bizgacha yetib kelgan. Shuning uchunmi yoki boshqa sabablar bilanmi qadimgi Yunon tarixi Yevropa tarixiy adabiyotida batafsil va atroflicha yoritilgan. Bu manba va adabiyotlarda qadimgi Yunon shahar-davlatlari tarixi, ulardagi davlat boshqaruvining demokratiya, tiraniya shakllaridagi tartib-qoidalari, Yunon shahar davlatlarining siyo-

siy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy hayoti to‘g‘risida ma’lumot beriladi.

Qadimgi Yunon tarixi bo‘yicha manba va adabiyotlar yaxshi saqlanib qolgan va ular atroflicha tadqiq va tahlil etilgan. Qadimgi davrdayoq yunonlar o‘z tarixlari to‘g‘risida boshqa xalqlar bilan olib borgan yozishmalari orqali juda ko‘p ma’lumotlarni yetkazganlar. (Гай Саллюстий Крисп. Заговор Катилины, стр. 39. Историки Рима. Переводы с латинского. Изд.худ-лит. 1970 г.) Antik davr yozuvchilari ya’ni Qadimgi Yunon-Rim yozuvchilari ishonchli manbalar yetmay qolganda yunon tarixini yoritishda mifologiyadan ham unumli foydalanganlar. Hatto qadimgi manba va adabiyotlarning ko‘pchiligida voqea-hodisalar bayoni mifologiya syujetlari bilan aralashib ketadi. Bu holni barcha qadimgi Yunon yozuvchilarning matnlarida kuzatishingiz mumkin. Lekin fanda ma’lumki, mifologiya ishonchsiz manba. Mil. avv. XI – IX asrlarda yunon urug‘-qabilalari tarixini yoritishda yetarli ma’lumotlar to‘qima bo‘lmagani uchun Yevropa tarixchilari bu davr tarixini mifologik manbalar (Iliada va Odisseya dostonlari) asosida yoritadilar. Lekin mifologiyadagi ma’lumotlar qanchalik darajada haqiqatga to‘g‘ri kelishini bilish mumkin emas. Mifologik manbalarni tanqidiy tahlil qilishda aniq manbalar taqchil bo‘lgani uchun ularning ma’lumotlari qanchalik haqiqatga to‘g‘riligini aniqlab bo‘lmasligi sababli ular ishonchsiz manba hosoblanadi.

Insoniyat sivilizatsiyasining beshigi, besh ming yillik tarixga ega bo‘lgan Sharq sivilizatsiyasi yunon madaniyati shakllanishida muhim o‘rinni egalladi. Sharqning ilm-fan, madaniyat va boshqa sohalarda erishgan ulkan yutuqlari mil. avv. I ming yillik boshlarida shakllanayotgan yunon madaniyatiga

katta ta’sir qildi. Yunonlar mil. avv. VIII – VII asrlarda Kichik Osiyo orqali ilk bor sharq madaniyati bilan tanishdilar va uni o‘rgandilar. Bu davr yunon madaniyatining o‘choqlari Yunonistonda emas, Sharq dunyosining gavjum chorrahasi bo‘lgan Kichik Osiyo va unga yaqin Egey dengizi orollarida edi. Dastavval, Kichik Osiyoning g‘arbiy qirg‘og‘ida vujudga kelgan yunon tayanch nuqtalari bo‘lgan Milet, Halikarnas shaharlari va Lesbos, Samos orollari sharqning ko‘p ming yillik boy madaniyatidan rang oldi va sharq madaniyat yutuqlarini Yunonistonga tarqatishda muhim o‘rinni egalladilar.

Mil. avv. VIII asrda yunonlar Finikiyaning alifboli yozuvini o‘zlashtirib o‘z fonetikalariga moslashtirdilar. Mil. avv. V asrdan yunon yozuvini chapdan o‘ngga qarab yozish rasm bo‘ldi. Yunon alifbosining bir necha asrlar davomida shakllanishi mil avv.4 asrda tugallandi.

Ilk bor yunonlar qadimgi sharq bilan Kichik Osiyo orqali tanishdilar. Kichik Osiyo yunonlarning sharq madaniyati va ma’naviyati yutuqlarini o‘zlashtirishda asosiy tayanch nuqta bo‘ldi. Shu sababli yunon mifologiyasining ildizlari qadimgi sharqda Xett[1] podshohligi rivoyatlariga borib taqaladi. Xett qabilalari rivoyatlarining syujetlari Kichik Osiyoga mil. avv. I ming yillikda kelib o‘rnashgan evbeylik yunonlar tomonidan o‘zlashtirilgan va Yunonistonga olib ketilgan. Yunonlar Xett e’tiqodi ilohlarini ham Yunonistonga olib ketadilar. «Iliada» dostonining muallifi shoir Daret mil. avv. XI asrda Kichik Osiyodagi Frigiyada yashagan edi. Zardushtiylik e’tiqodi g‘oyalari bo‘lgan to‘rt unsur: olov, suv, tuproq, havo mil. avv. VI asrda Efesda yashagan yunon faylasufi Geraklitning olam tuzilishi to‘g‘risidagi tadqiqi paydo bo‘lishi-

[1] Kichik Osiyodagi qadimgi davlat.

ga turtki bo‘ldi. Yunonlar Bobil va Misrning astronomiya, matematika va boshqa aniq va tabiiy fanlarda bir necha ming yillar davomida to‘plagan yutuqlarini o‘zlashtirdilar.

G‘arb tarixiy adabiyotida mil. avv III-I asrlardagi Old Osiyo madaniyatida yunon madaniyatining go‘yoki kuchli ta’sirini o‘tkazgani «ellinizm» va «ellinlashgan Sharq» iboralari bilan ifodalangan tushunchalar orqali keng yoritiladi. Yoki Old Osiyoda yunon madaniyatining yutuqlari Aleksandriya, Pergamdagi ilm markazlarida ishlagan yunon olimlari yozgan asarlar bilan qayd etiladi. Bepoyon Osiyo hududida 5 ming yil davomida shakllangan va uzoq ming yilliklarda mukammallikka erishgan sharq madaniyatining mil. avv. birinchi ming yilligida shakllanishni boshlagan va atigi 400 yillik tarixga ega bo‘lgan yunon madaniyati ta’siri ostiga tushib qolishi haqiqatdan yiroq. Mil. avv III asrda ilm-fan o‘choqlari bo‘lgan Aleksandriya, Antioxiya va Pergam shaharlariga kelgan yunon olimlari qadimgi sharqda ilm o‘chog‘i bo‘lgan ibodatxonalarda 5 ming yil davomida to‘plangan sharqning boy ilmiy merosini o‘rganish va sharqning noyob qo‘lyozmalarni yunon tiliga o‘girish bilan shug‘ullanganlari haqiqatga yaqin. Bu tarjima qilingan qo‘lyozmalar yunonlarning aniq va tabiiy fanlar sohasidagi asarlari paydo bolishiga olib keldi.

Ushbu darslikda manba va tarixiy adabiyotlarga tayangan holda Qadimgi Yunon va Rim siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy hayoti va madaniyatining asosiy lahzalari bayon qilinadi.

QADIMGI YUNONISTON

«Hozir Ellada deb atalayotgan mamlakat faqat yaqin vaqtdan boshlab o‘troq aholiga ega bo‘ldi; qadimda esa u yerda qabilalarning ko‘chishi yuz bergan bo‘lib, har qanday qabila uzoq vaqt davomida ko‘p sonli kelgindilar bosimi ostida o‘z yerini tashlab ketdi. Hozirda mavjud bo‘lgan savdo o‘sha vaqtda bo‘lmagan edi, dengiz va quruqlikda qabilalararo muloqot yo‘q edi. Aholi yerlariga faqat o‘zlariga yetarli yemish uchun ishlov berdilar».

Fukidid

1. Geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va aholisi.
2. Tarixiy asarlar. Manbalar.
3. Moddiy manbalar.
4. Yunon tarixini davrlashtirish.

1. Geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va aholisi. Yunoniston geografik jihatdan 3 qismga bo‘linadi: 1. Fessaliya va Epir, shimolda Moli va Pagasey ko‘rfazlari; 2. Janubdan Korinf va Saronika bilan cheklangan markaziy qism; 3. Peloponnes yarim orolidan iborat janub. Yunonistonning shimoliy qismida Fessaliyani Epirdan Pind tog‘lari zanjiri ajratib turadi. Qadimda bu ikki viloyat yunon madaniyatining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Chunki shimoldan janubga tomon yunon qabilalari ilk bor shu yerga qadar siljib kelgan.

Fessaliyada Qadimgi Yunon afsonalari paydo bo‘ldi. Uning janubidagi Sperxa daryosi vodiysidagi axey Ftiotidasi axil va mirmidon qabilalari vatani. Fessaliyadan afsonaviy Yason uzoq Kolxidaga oltin mo‘yna uchun jo‘nab ketgan. Dodonda Sella kohinlari muqaddas dub daraxtining barglari shitirlashiga qarab fol ochganlar. Epir yunon madaniyatiga aloqasi bo‘lma-

gan yovvoyi o‘lka bo‘lib, uni Markaziy Yunoniston bilan faqat xaon, tesprot, moloss va oresta kabi epir qabilalari joylashgan Axeloy daryosi bog‘lab turgan.

Fessaliya barcha tomondan tog‘lar bilan o‘ralgan bo‘lib, bu yerdagi ikki tekislikni fessaliyalik bosqinchilar ishg‘ol qilganlar. Ular mahalliy aholini qaram penestlarga aylantirganlar. Qisman ularni vodiydan tog‘larga siqib chiqarganlar. Fessaliyaning g‘arbiy qismida g‘alla va chorvachilik rivojlangan. U yerda qulay qirg‘oq va qo‘ltiqlar yo‘q. Shimoliy Yunonistonni Markaziy Yunonistondan dengiz va Oyta tog‘lari orasida yotgan Fermopil daryosi ajratib turadi.

Markaziy Yunonistonda tog‘lik qabilalar joylashgan. Egey dengizi qirg‘og‘ida, Evbey oroli qarshisida Opunt lokrlari, Parnas (2450 m) va Kifris tog‘larida joylashgan vakiy qabilalari urug‘chilik tuzumida hayot kechirganlar. Markaziy Yunonistonga boradigan yo‘l ustida Elateya shahri paydo bo‘lgan. Delfa qadimgi yunonlarning diniy markazi vazifasini o‘tagan. Parnasdan shimolda eng kichik yunon viloyati – Dorida (185 kv.km) joylashgan. Ko‘rinishidan, doriylar mil. avv. XII – XI asrlarda bu yerga o‘rnashganlar. Fokidadan g‘arbda agra, evitan nomli illir qabilalari yashagan tog‘li va ozroq unumdor vodiyga ega bo‘lgan Etoliya viloyati joylashgan.

Shimolda Epir bilan tutashgan Abrakiy qo‘ltig‘igacha bo‘lgan Akarnaniya hududida illir qabilalari yashagan. Janubda 3000 kv. km hududni egallagan Beotiya viloyati birdaniga 3 dengiz bilan tutashgan. Markazi Fiva bo‘lgan Beotiyada g‘allachilik, chorvachilik va baliqchilik rivojlangan. Vaqt o‘tishi bilan Fiva Afina kabi kuchli shahar davlatga aylanadi. Beotiyani janubdan Parnas tog‘lari o‘rab turadi. Bolqon yarim orolining markazida tuprog‘i dehqonchilikka noqulay bo‘lgan Attika viloyati joylashgan. Qadimgi

Attikada suv tanqis bo‘lsa-da, marmar, kumush konlari mavjud bo‘lib, zaytun daraxti o‘stirilgan.

Salamin oroli Afinaning dengizga chiqadigan yo‘lidagi darvoza bo‘lgan. Afina bu orol uchun qo‘shni Megara va Egina shaharlari bilan uzoq davom etgan urushlar olib borgan. Faqat Eginaning urushda yengilishi oqibatida Salamin oroli afinaliklar qo‘liga o‘tgach, Afinaning dengiz savdosiga yo‘l ochdi. Korinf va Saronik qo‘ltiqlari orasidagi tog‘lik hududda Megara shahri joylashgan. Korinf qo‘ltig‘idan so‘ng, Peleponnes yarim oroliga o‘tish mumkin. Uning markazida Arkadiya balandligi turadi. Lakoniya va Messeniya viloyatlari yarimorol g‘arbida joylashgan. Bu viloyatlarda g‘alla ekilgan. Messeniyadan shimolda joylashgan Elida viloyatidagi Alfey va Kladey daryolari qo‘shilish joyida Olimpiada shahri joylashgan. Bu shaharchada mil. avv. 776-yildan boshlab ellin shaharlari o‘rtasida ilk bor iloh Zevs sharafiga Olimpiya o‘yinlari o‘tkazilardi. Olimpiya o‘yinlari har 4 yilda bir marta o‘tkazilgan. Elida viloyatidan shimolda Axaya viloyati joylashgan.

Yunonistonning iqlimi yumshoq, harorati 16 °C ni tashkil etardi. Qadimda landshafti hozirgidan farq qilgan. Qalin o‘rmonlar ko‘p bo‘lib, tuproq hozirgidek toshloq edi, unumdor yerlar ham oz bo‘lgan. Mil. avv. VI asrgacha Attikada faqat bug‘doy va tariq ekilgan. Lekin yetishtirilgan g‘alla juda qimmatga tushgan. Italiya va Shimoliy Qoradengiz bo‘yidan g‘allani tashib kelish yo‘lga qo‘yilganidan so‘ng yunonlar ekin yerlariga g‘alla o‘rniga uzum va zaytun ekishni boshlaganlar.

Qadimgi Yunonistonda metall xomashyosidan faqat mis ko‘p bo‘lgan. Qadimda mis qazib chiqarilgan Xalkida hududi nomi ham «mis» degan ma’noni bildiradi. Beotiya va Lakoniya viloyatlaridan sifati past temir, Tasos va Sifnos orollaridan mil. avv. VIII – VI asrlardan boshlab kumush qazib olingan. Mil.

avv. VI asrda Attika viloyatida Lavrion kumush koni ochilgan. Bu konlardan olingan daromad mil. avv. V asrda Afinada kemalar qurishga va uni Yunonistonda yetakchi shahar-davlatga aylanishi hamda boshqa yunon shahar-davlatlariga boshchilik qilishiga shart-sharoit yaratgan. Afinada tog‘-konchilik sohasi mavjud bo‘lgan. Konlarning chuqurligi 100 m ga yetgan. Hamma joyda toshloq yerlar ko‘p bo‘lgan. Tosh juda yuqori baholangan. Marmarning vatani Pentelikon Afinadan bor-yo‘g‘i 10 km uzoqlikda joylashgan. Mashhur Parfenon va Propiley inshootlari pentelikon marmaridan bunyod etilgan.

Egey dengizi havzasida mil. avv. III – II ming yilliklarda yunon bo‘lmagan, kelib chiqishi haligacha aniqlanmagan leleg, pelasg va kariy urug‘-qabilalari yashagan. Mil. avv. II ming yillik boshlarida Egey dengizi havzasida axey qabilalari paydo bo‘ldi. Ular o‘z davlat va jamiyatlarini qurdilar. Axeylar bilan mahalliy leleg, pelasg, kariy va minoylar o‘rtasida murakkab munosabatlar yuzaga keladi. Mil. avv. I ming yillik boshlarida axeylar tog‘li Arkadiya, Krit oroli va Kichik Osiyoning ayrim hududlarida yashar edilar.

Mil. avv. XII asrda Dunay ortidan Bolqon yarim oroliga doriy qabilalarining migratsiyasi boshlanib, ular bir necha asr davomida Yunoniston va Egey dengizi havzasiga o‘rnashdilar. Doriylar guruhiga eoliylar, ioniy qabilalari kirgan. 1. Doriylar asta-sekin – Peloponnes yarim orolining katta qismi, Krit va Rodos orollari, Kariya va Kichik Osiyoda o‘rnashdilar; 2. Ioniylar – Attika hududi, Egey dengizining markaziy orollari va Kichik Osiyodagi Ioniya viloyatini egalladilar; 3. Eoliylar – Beotiya, Fessaliya, Etoliya, Lesbos oroli va Kichik Osiyodagi Eolida orolida qo‘nim topdilar.

Doriylar hosildor yerlarga ega bo‘lgan Fessaliya va Beotiyani, Arkadiyadan tashqari Peloponnes yarim

orolining katta qismini egalladilar. Tuprog‘i unumdor bo‘lmagan toshloq Attika viloyati doriylar e’tiborini tortmadi. Bu viloyatga doriylar bosib olgan viloyatlardan aborigen aholi kelib o‘rnashdi. Doriylar 400 yil davomida mil. avv. XII asrdan VIII asrgacha urug‘chilik tuzumida yashab, qisman dehqonchilik, chorvachilik va terimchilik bilan shug‘ullanib, qirg‘oqlarda esa dengiz qaroqchiligi bilan yashaganlar. Mil. avv. VIII asrdan doriylarda urug‘chilik munosabatlari rivojlanib, mil. avv. VIII – VI asrlarda ilk shahar-davlatlarini shakllantirdilar.

Keyinroq Yunon qabilalari o‘zlarini ellin va vatanlarini Ellada deb atay boshladilar. Bu atamaning paydo bo‘lishi taxminan Fukidid yashagan mil. avv. V asrga to‘g‘ri keladi. Yunon urug‘laridan birining boshlig‘i bo‘lgan Ellin va uning o‘g‘illari Yunonistonning shimolidagi Ftiotida hududini bosib olganlaridan keyin kuchayib ketganlar, ularni qo‘shni urug‘-qabilalar yordamga chaqira boshlaganlar. Ana shu qabila nomidan ellada va ellin atamalari kelib chiqqan. Fukidid (mil. avv. 460 – 396) bu xalqni ellin va ellada deb atalishi to‘g‘risida shunday yozadi: «Hozir Ellada deb ataladigan mamlakat faqat yaqin vaqtdan boshlab o‘troq aholiga ega bo‘ldi; qadimda esa u yerda qabilalarning ko‘chishi yuz bergan va har qanday qabila ko‘p sonli kelgindilar bosimi ostida o‘z yerlarini tashlab ketgan. Haqiqatda, hozirda mavjud bo‘lgan savdo o‘sha vaqtda bo‘lmagan edi, dengiz va quruqlikda har qanday qabilalararo muloqot yo‘q edi. Ular o‘z yerlariga faqat o‘zlariga yetarli yemish uchun ishlov berdilar» (Историки античности. Фукидид. История книга первая. Москва. Издательство Правда. 1989. стр. 205.). Ellin, ellada atamalari yunon urug‘-qabilalarining uzoq asrlar davomida urug‘-qabilachilik tartib-qoidalarining buzilishi va ilk shahar-davlatlar paydo bo‘lish jarayoni barobar sodir bo‘lganini ko‘rsatadi.

2. Tarixiy asarlar. Manbalar. Qadimgi Yunoniston tarixiga oid manbalar ko‘pligi va yaxshi saqlanib qolganligi bilan boshqa hududlar tarixidan farq qiladi. Qadimgi davrda voqea-hodisalarni yilma-yil qayd etib borgan kishilar – logograflar (yunoncha logos – hikoya, grafo – yozish yoki yozuvchi) deb atalgan. Logograflar mil. avv. VII – VI asrlarda yashaganlar. Ular o‘sha davrda yunon qishlog‘ va shahar hududlarida yuz bergan voqea-hodisalarini hech qanday izoh bermay tasvirlab, tarixni afsonalar bilan aralashtirib bayon qilganlar. Afsona-rivoyatlarga tarixiy voqealar deb qarab, unga ishonganlar. Logograglardan miletlik Gekateyni, mitilenalik Gellanik, Kadi, Evgeon, Deiox, Damokl va boshqalarni misol tariqasida keltirish mumkin. Fukidid Gerodotni ham logograflar safiga qo‘shadi. Logograflarning asarlaridan ayrim parchalar keyingi antik mualliflari asarlari orqali bizgacha yetib kelgan. Mil. avv. VI asrning ikkinchi yarmida yashagan miletlik logograf Gekatey o‘z asarida qadimgi Yunonistonning geografik xaritasini chizadi. Uning asarlaridan bizgacha ayrim parchalar yetib kelgan.

Mil. avv. VI – V asrlarda Yunonistonda tarixiy ma’lumot beradigan matnlar paydo bo‘lgan. Bu davrda yashagan tarixiy asarlar mualliflaridan Gerodot, Fukidid va Ksenofontni ko‘rsatish mumkin. Gerodot (mil. avv. 484 – 431\ 25) Kichik Osiyoning janubi-g‘arbidagi Kariya viloyatidagi Galikarnas shahrida tug‘ilgan. U qarindoshi Paniasid bilan Galikarnas shahri tirani Ligdamidga qarshi siyosiy kurashga qatnashadi. Natijada, Paniasid o‘ldirilib, Gerodot Galikarnasdan qochib ketadi. Gerodot Misr, Mesopotamiya, Eron, Shimoliy Qoradengizbo‘yi, Sitsiliya va Egey orollariga safar qiladi. Afinada Perikl bilan yaqinlashadi, janubiy Italiyadagi Furiya shahriga ko‘chib boradi. Gerodotni vafot etgan joyi noma’lum.

Gerodot Misr, Mesopotamiya va Eronga sayohat qilib, bu mamlakatlarda ko‘rgan va eshitganlarini yozib borgan. Uning qo‘lyozmalari mil. avv. III asrda Aleksandriyalik olimlar tomonidan 9 jildga keltiriladi.

Gerodot asari dunyodagi birinchi tarixiy asar emas, albatta. Gerodotgacha 5 ming yillik tarixga ega bo‘lgan sharq sivilizatsiyasi davrida qadimgi sharq mamlakatlarida ko‘plab tarixiy asarlar yaratilgan, lekin ular bizgacha yetib kelmagan yoki ayrim matn va parchalargina saqlanib qolgan. Mil. avv. I asrda rimlik siyosiy arbob va notiq Sitseron o‘zining «Qonunlar to‘g‘risida»gi traktatida Gerodotni tarixning otasi deb atagan. Bu ibora hozirgacha kitobdan kitobga ko‘chib yuradi. Gerodotning asari 2 qismga bo‘linadi: birinchi qismida Ahmoniylar davlatining asta-sekin yuksalishi, ikkinchi qismida yunon-fors urushlari to‘g‘risida hikoya qilingan. Uning hikoyalari tizimga solinmagan bo‘lib, asar ilmiy mazmunga ega emas.

Gerodotning kichik zamondoshi Fukidid (mil. avv. 460\51 – 396-yillar) frakiyalik bo‘lib, Afinada yashadi. Fukidid Afinada strateg etib saylangan. Harbiy yurishlarda qatnashadi, Afina uning faoliyatini salbiy baholashi natijasida u Afinadan umrbod quvg‘in qilinadi. Ko‘rinishidan Frakiyada yashab, o‘zining Tarix asarini yozadi. Uning asari mil. avv. III asrda Aleksandriyalik olimlar tomonidan 9 jildga bo‘linib, kitobga, bob va paragraflarga ajratilgan. Ushbu 9 kitob Fukididga tegishli ekanligi to‘g‘risida aniq ma’lumotlar mavjud emas. Fukidid Peloponnes urushi tarixini o‘ziga ma’lum bo‘lgan ma’lumotlar asosida tahlil qiladi. Bu ilmiy-tarixiy tanqidchilikning boshlanishi edi.

Mil. avv. V asrda yashagan Ksenofont (tug‘ilgan vaqti taxminan mil. avv. 430-yillar atrofida – vafoti 460-yillardan keyin) afinalik boy zodagon oilasidan bo‘lib, yaxshi ma’lumotga ega bo‘lgan. Ksenofont Kichik Osiyo satrapi shahzoda Kayxisrav qo‘shini-

da yollanma askar bo‘lib xizmat qiladi. Shahzoda Kayxisrav akasi fors podshohi Artakserks II bilan taxt uchun kurash boshlagan. Kayxisrav mil. avv. 401-yilda Kunaks yonidagi jangda Artakserks qo‘shinidan yengildi va o‘zi jangda halok bo‘ldi. Shundan so‘ng, Ksenofont Spartaga harbiy xizmatga kirdi. Sparta podshohi Agesilay bilan do‘stlashdi. Afina xalq yig‘ini Ksenofontni xoinlikda ayblab, umrbod Afinadan quvg‘in qiladi.

Faylasuf Suqrotning shogirdi bo‘lgan Ksenofont ustoziga «Suqrot to‘g‘risida esdaliklar«, «Suqrot apologiyasi» asarlarini bag‘ishladi. Falsafiy ruhdagi «Bazm» va «Domostroy» asarlarini yozadi. Ksenofont siyosiy jihatdan zodagonlar boshqaruviga moyil bo‘lgan. U Sparta podshohi Agesilayning tarjimayi holini yozib, Ahmoniylar sulolasining asoschisi Kayxisrav to‘g‘risida «Kayxisravning tarbiyasi» nomli asarini yaratadi. Ksenofontning «Anabasis» asari ahamoniy shahzoda Kichik Kayxisravning Eron taxti uchun o‘z akasi podshoh Artakserksga qarshi mil. avv. 401-yilda isyon ko‘tarib, uyishtirgan harbiy yurishiga bag‘ishlangan.

Ksenofontning «Yunon tarixi» asari, yunon shahar-davlatlarining o‘zaro urushlariga bag‘ishlangan. Asarning birinchi va ikkinchi jildi Peloponnes urushining tugallanish davri, Afinaning taslim bo‘lishi, «o‘ttiz tiran» boshqaruvi va bu tiranlarning ag‘darilishiga bag‘ishlangan. III – VII jildlar Peloponnes urushlaridan keyin boshqa bir yunon shahri Fivaning qisqa muddatli yuksalish davrida yunon shahar davlatlari o‘rtasidagi keskin munosabatlar, Fivaga qarshi turgan Sparta yetakchiligida ittifoqchilar bilan Fiva o‘rtasida mil. avv. 362-yilda Mantineya yonidagi jang tavsifi bilan tugallangan. Bu jangda Ksenofontning o‘g‘li Grill ham halok bo‘lgan. Ksenofont voqea-hodisalarni Sparta davlati manfaati nuqtayi-nazaridan bayon qilgan.

Plutarx (mil. avv. 46-120-130-yillar atrofida vafot etgan) qadimgi Beotiya viloyatining Xeroneya shaharchasida tug‘ilgan. U yaxshi ma’lumotga ega bo‘lib, falsafiy, tarixiy va diniy yo‘nalishlarda asarlar yozgan. Plutarxning «Qiyosiy tarjimayi hollar» asari qadimgi Yunon-Rim siyosiy arboblarining qiyosiy tarjimayi hollariga bag‘ishlangan. Bizgacha Plutarx yozgan 46 tarjimayi hollar yetib kelgan. Imperator Trayan yozuvchiga homiylik qilgan.

Mil. avv. IV asr oxirida Arastu (Aristotel) va uning shogirdlari tomonidan «Politiya» asari yozilgan. Asarda yunon polislari, O‘rtayer dengizi qirg‘oqlaridagi yunon koloniyalari to‘g‘risida ma’lumot beriladi. Asar juda ko‘p bo‘limlardan iborat bo‘lsa-da, bizgacha uning faqat «Afina politsiyasi» qismi yetib kelgan. Mil. avv. IV asrning ikkinchi yarmida yashagan yozuvchi Efor Yunonistonning umumiy tarixi haqida yozgan. Uning bu asari ayrim parchalari boshqa asarlarida saqlanib qolgan. Unda yunon tarixini doriy qabilalarining kirib kelishidan boshlab bayon qilgan. Yunonlarning g‘arbiy o‘rtayer dengizi girg‘oqlari va sharqqa ko‘chishini ham yoritgan.

Mil. avv. V asrda yashagan faylasuf va yozuvchi Stobey o‘zining «Antologiya» kitobida bir necha yuz yunon shoir, yozuvchilari to‘g‘risida ma’lumot beradi. Mil avv. 445 – 380-yillarda yashagan afinalik notiq Lisiyning bizgacha yetib kelgan nutqlari parchalarida o‘sha davrda yunon shahar-davlatlarining og‘ir iqtisodiy-ijtimoiy tushkunligi to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud. Afinalik mashhur notiqlar Demosfen (mil. avv. 384 – 322) va Isokrat (mil. avv. 436 – 338) ning nutqlarida o‘zlari yashagan davrda Afina shahar-davlatida kechgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud.

Rimlik tarixchi Kvint Kursiy Ruf taxminan mil. avv. I asr yoki milodiy I asrda yashagan, lekin ko‘pchilik

olimlar u Imperator Klavdiyning (milodiy 41 – 54-yillar) zamondoshi bo‘lgan deb hisoblaydilar. U «Makedoniyalik Aleksandr tarixi» nomli 10 jildli asar yozadi. Aleksandr shaxsidagi o‘ch olishdagi shafqatsiz faoliyati, gumonsirash jihatlari ko‘rsatiladi. Aleksandrning yurishlari bosqinchilik, qaroqchilik deb baholanadi. Asarning I-II jilddan boshqa barcha jildlari saqlanib qolgan. Sitsiliyalik Diodor (mil. avv. I asr) ning «Tarixiy kutubxona» asarida yunon shahar-davlatlari bilan makedoniyalik Filipp II o‘rtasidagi murakkab munosabatlar tavsiflanadi. Milodiy III asrda yashagan rimlik yozuvchi Yustin mil. avv. I asrda yashagan yozuvchi Pompey Trogning «Filipp tarixi» asarining qisqartma varianti muallifi hisoblanadi. Bu asar bizgacha yetib kelmagan. Faqat parchada Filipp II hayotining so‘nggi yillaridagi voqealar bayon qilinadi. Mil. avv. I asrning ikkinchi yarmi – milodiy I asrda yashagan geograf Strabonning «Geografiya» asarida geografiya to‘g‘risidagi ma’lumotlardan tashqari turli mamlakatlar va xalqlarga tegishli tarixiy faktlar mavjud.

Mil. avv. III – II asrlarda Yunoniston hududi Makedoniya davlati tarkibiga kirgan. Bu davrning taniqli yozuvchilardan biri Timey o‘z asarida Bolqon Yunonistoni va g‘arbiy Yunon tayanch nuqtalari haqida ma’lumot beradi. Yunon yozuvchisi Polibiy (mil. avv. 200 – 120) o‘zining «Umumiy tarix» asarida O‘rtayer dengizi havzasi tarixini yoritadi. Asarda Yunoniston, Salavkiylar davlati va Makedoniyani Rimning ekspansiyasiga qarshi kurashi hamda bu mamlakatlarning ichki ahvoli tasvirlanadi. Bizgacha asarning uchdan bir qismi yetib kelgan.

Ma’lumki mifologik manba ishonchsiz hisoblanadi. Qadimgi yunon yozuvchilarining asarlarida tarixiy voqea-hodisalarni bayon qilish turli mifologik syujetlar, rivoyatlar bilan chambarchas sodir bo‘ladi. Bu

rivoyatlarda afsungar-folbinlar, ilohlar ishtirok etadi va voqealar rivoji tarixiy shaxslarning faoliyat-harakatlari o‘zgartirib yuboradi. Shu sababli Qadimgi Yunon yozuvchilarining asarlarini tadqiq va tahlil qilish jarayonida uydirmadan tarixiy haqiqatni sinchkovlik bilan ajratib olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mifologik manbalarni boshqa ishonchli yozma tarixiy manbalar bilan qiyosiy taqqoslash yo‘li bilan tarixiy haqiqatni yuzaga chiqarish kerak bo‘ladi.

Memuar asarlar. Memuar odatda, davlat va jamiyat hayotida o‘z vaqtida sezilarli rol o‘ynagan shaxslar tomonidan o‘z hayot faoliyatining ahamiyatli jihatlarini aks ettiradigan yozuvlardir. Memuarlar o‘sha davrdagi jamiyat hayotini tasavvur qilishga yordam beradi. Lekin ko‘pincha memuarda muallifning subyektiv qarashlari o‘z aksini topadi. Polislarning yemirilishigacha yunonlar tarix va adabiyotga oid asarlarni ko‘pincha memuar shaklda yozishgan. Mil. avv. IV asrdagi eng yirik memuar asar Ksenofontga tegishli. Ksenofont o‘z memuarida asosan harbiy sohaga oid ma’lumotlarni beradi. Mil. avv. III – I asrlarda memuar va tarjimayi hol ko‘rinishidagi asarlar yozish odat tusiga kirdi. Bu davr siyosatchilaridan Pirra va Arata eng yirik tarixiy asarlar mualliflari hisoblanadilar. Ular asarlarida Yunonistondagi ayrim shaharlar kirgan «Axey ittifoqi» to‘g‘risida keng ma’lumotlarni yozib qoldirishgan.

Xatlar. Qadimgi yunon shahar-davlatlarida yozilgan xatlar bizgacha yetib kelgan. Xatlar ochiq va yopiq shakllarda yozilgan. Platon va Isokrat yozgan ochiq xatlarida falsafiy muammolar haqida fikr yuritilgan. Yunon shahar davlati muammolariga oid faktlar u yoki bu siyosatchi nomidan yozilgan. Ularda asosan siyosiy va maxfiy ma’lumotlar yozilgan.

Poeziya, tragediyalar. Qadimgi Yunon tarixining manbalaridan biri Iliada va Odissey poemalari. Hozirgi tadqiqotchilarning fikricha, Iliada poemasining mual-

lifi Kichik Osiyodagi frigiyalik shoir Daret bo‘lgan. Har ikkala poema mil. avv. XI – IX asrlar ijtimoiy-iqtisodiy hayoti to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar beradi. Yunon she’riy adabiyoti mil. avv. IX – VIII asarlarda shakllana boshlagan. Qadimgi yunon dramaturglari Evripid, Esxil va Sofokl 300 ga yaqin tragediya yozganlar, ulardan bir qismi yaxshi saqlanib qolgan. Yunon tragediyalarining deyarli barchasi mifologik syujetlarga asoslangan. Shoir Gesiod o‘zining «Mehnat va kunlar» asarida mil. avv. VII asrdagi yunon jamiyatining ijtimoiy ziddiyatlari haqida yozadi. Yunon madaniyatida satirik janr-komediya ham shakllandi. Aristofanning komediyalari qadimgi yunon ijtimoiy hayoti to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar beradi.

Yozuvlar. Yunon tarixini o‘rganishda qadimgi davrdan qolgan yozuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Dastlab yo‘g‘ochga, yozuv mum surtilgan taxtachalarga uchi o‘tkir metall qalam (stilet) bilan tirnab yozilgan. XIX asrning 70-yillaridan papirus topilmalarni o‘rganish natijasida yangi «papirologiya» faniga asos solindi. Yunon jamiyatiga yozuv uchun papirusning kirib kelishi Misr tarixi bilan uzviy bog‘liqdir. Misrda papirus o‘simligidan yozuv uchun qog‘oz tayyorlangan, bu papirus qog‘ozlarning uzunligi 16 metrgacha yetgan. Yozuv yozilgandan so‘ng papirus o‘rab qo‘yilgan. Papirus qog‘ozi tayyorlash alohida kasbga aylangan. Papirus qog‘ozi Misr, Mesopotamiya, Suriya va Kichik Osiyo bozorlarida eng xaridorgir mahsulot bo‘lib, yunonlar ham papirusdan foydalanganlar. Papirus qog‘ozi juda qimmat bo‘lgan. Qadimgi yunon lirik shoirlari Alkey, Safo, Korin, Pindar, Vakximida, mashhur fojianavislar Sofokl, Esxil va Evripid hajviy asarlar muallifi Menandrlar o‘z asarlarini papirusga yozishgan. Papirusga ko‘chirilgan eng yirik asar Arastuning «Afina politikasi» asaridir. Papirusdan rasmiy hujjatlarni yozish uchun ham foyda-

lanilgan. Keyinchalik qog‘oz paydo bo‘lgach, papiruslar o‘z ahamiyatini yo‘qotgan.

Krit orolidan eng qadimgi A chiziqli yozuvda bitilgan matnlar topilgan. Ikkinchi bir B chiziqli xo‘jalik hisobotlaridan iborat yozuvni 1953-yilda ingliz olimlari M.Ventris va J.Chedvik o‘qiganlar. Mil. avv. VIII asrda yunonlar sharqdan 22 harfdan iborat bo‘lgan finikiya yozuvini o‘zlashtirib, alifboli yozuvni yaratdilar. Yunon yozuvi uzoq asrlar davomida shakllanib, 24 harfdan (17 unli, 7 undosh harf) iborat tugallangan yunon alfaviti mil. avv. 403-yilga kelib yuzaga keldi. Keyinchalik Vizantiya ham shu yozuvdan foydalandi. Mil. avv. VIII asrga tegishli ilk yunon yozuvi yodgorliklari Afina, Itaka va Liginadan, mil. avv. VII asrga tegishli yozuvlar Fera, Melos orollari va Egey dengizining janubiy qismidan topilgan.

3. Moddiy manbalar. Shahar qoldiqlari. Qadimgi Yunon tarixini o‘rganishda asosiy manbalardan biri arxeologik topilmalar hisoblanadi. Arxeologlar Bolqon Yunonistoni va Egey dengizi orollaridagi qadimgi ibodatxonalar, saroylar va mudofaa inshootlarini qazib ochdilar. Yunon me’moriy inshootlari qadimgi sharqdagidek ulkan va ulug‘vor bo‘lmasa-da, o‘ziga xos me’morchilik uslubida, kichik hajmlarda qurilgan. Ingliz arxeologi Artur Evans (1851 – 1941) XX asrning birinchi yarmida 40 yildan ko‘proq vaqt davomida Krit orolida Knoss saroyini qazib ochdi. Knoss saroyi katta supa ustida qurilgan bo‘lib, maydoni 1 ga yaqin. Bu saroy Kritning afsonaviy podshohi Minosning qarorgohi bo‘lgan deb faraz qilinadi.

XIX asrning 70-yillarigacha Kichik Osiyodagi Troya shahri to‘g‘risidagi ma’lumotlar faqat afsonalarda mavjud edi. Kichik Osiyoda Hisorli (hisor – turkiy tilda qal’a) tepaligida nemis arxeologi G.Shliman 1870-yillarda yunonlargacha bo‘lgan madaniy o‘choqlardan biri Troya shahri xarobalarini qazib ochishi natijasi-

da Troya shahar-davlati to‘g‘risida aniq ma’lumotlar paydo bo‘ldi. G. Shliman Turkiyada Hisorli tepaligida qadimgi ko‘p qatlamli yodgorlikni qazishni boshlaydi. U Hisorli tepaligidagi qadimgi yodgorlikni qazish jarayonida afsonaviy oltinga boy Troyani topishni maqsad qilib, bu ko‘p madaniy qatlamli yodgorlikning bir necha qatlamlarini buzib tashladi. Yunonistonning janubida mil. avv. II ming yillikka tegishli Miken, Tirinf va Pilos qal’alari o‘rganildi. G.Shliman Yunonistonning janubida Mikena shahri qoldiqlarini o‘rganib, Sherlar darvozasini, shahar poydevorini, Mikena qal’asida axeylarning afsonaviy yo‘lboshchisi Agamemnonning tilla buyumlarga boy qabri hamda boshqa 5 qabrni qazib ochdi.

Yunon tarixiy-madaniy yodgorliklari sirasiga kiradigan bir necha shahar qoldiqlari topilgan. Qadimgi Messeniya viloyatining shimolidagi Elida viloyatida, Alfey va Kladey daryolari qo‘shilish joyida har 4 yilda bir marta Olimpiya o‘yinlari o‘tkaziladigan Olimpiya shaharchasi joylashgan. Bu shaharcha qoldiqlarini nemis arxeologlari Germaniya hukumati ajratgan 800000 marka mablag‘ bilan qazib ochdilar. Nemis arxeologi Kursius rahbarligida 1875 – 1881-yillarda qadimgi Olimpiya shaharchasining maydoni to‘la qazib ochildi. Qazishmalar natijasida, 130 marmar haykal va barelyef (barelyef – bas, fransuz tilida – past figura va buyumlar tasvir yuzasida o‘z hajmining yarmicha bo‘rtib turadi), 13 ming bronza buyumlar, 6 mingta tanga va loy-terrakotadan ishlangan mingga yaqin buyum topilgan. Topilmalar orasida haykaltarosh Peoniyning Nika (G‘alaba) va mashhur haykaltarosh Praksitelning Germes haykallari ham bor.

Hozirgi Yunonistonning janubida qadimda bir-biridan 30 km radiusda joylashgan uncha katta maydonga ega bo‘lmagan Mikena, Tirinf va Pilos sha-

har-qal'alari qurilgan. Bu qal'alar Krit saroylaridan farq qilib, barchasi mustahkam devorlar bilan o'rab olingan. Ulardan eng mashhuri Tirinf qal'asi bo'lib, uning devorlari katta ohaktosh xarsanglaridan qurilib, ba'zilari 12 tonna og'irlikka ega. Devorlarning qalinligi 4,5 m, balandligi 7,5 m bo'lgan. Krit va Axey saroylari simmetrik, bir xil tuzilgan. Pilos saroyi ikki qavatli bo'lib, bir necha o'n xonadan iborat. Qadimgi Yunonistonning markazida Afina, Fiva va Orxomey shaharlarida saroy, qal'a qoldiqlari ochilgan.

Yunon me'morchiligi inshootlari uncha katta bo'lmagan hajmda qurilgan, bu inshootlar mil. avv. III asrdayoq vayrona holatida kelib qolgan. Yunonlar sport inshootlari palestr va gimnaziylar qurganlar. Palestr xususiy sport maktabi bo'lib, bu yerda 12 yoshdan 16 yoshgacha bolalar turli sport mashg'ulotlari bilan shug'ullanganlar. Boy afinaliklarning farzandlari 16 yoshdan keyin gimnaziylarda gimnastika bilan shug'ullanib, siyosat, adabiyot va falsafadan bilim olganlar. Bizgacha Afinaning ikki gimnaziysi saqlanib qolgan. Ulardan biri qahramon Akadem bog'ida, ikkinchisi likiyalik Appolonning dala hovlisida joylashgan edi.

Qadimgi Afinadan 6 km uzoqlikda joylashgan Pirey dengiz portiga olib boradigan qadimgi yo'l xarobasi mavjud. Dengizorti mamlakatlaridan keltiriladigan mahsulotlar Pirey portiga tushirilgan va shu yo'l bilan Afinaga keltirilgan. Bu yo'l Peloponnes urushlari davrida Sparta va uning ittifoqchilari tomonidan buzib tashlangan. Hozirgi kunda faqat uning xarobalari saqlanib qolgan.

Mudofaa devorlari. Qadimgi Yunon shahar-davlatlarining himoya devorlari va boshqa mudofaa-fortifikatsiya inshootlarining bizgacha yetib kelgan qoldiqlari o'rganilgan. Yunon shaharlari uncha katta bo'lmagan. Yunon tarixining qadimgi davriga oid

mudofaa inshootlari Mikena, Tirinf va Afinada yaxshi saqlangan. Yunonlar o‘zga yurtlarda bunyod etgan Xersones, Eley, Metapont va Akrogant shaharlari devorlari asl holicha saqlanib qolgan.

Tangalar. Jahon tarixida mil. avv. VII asrda oltin va kumush qotishmasi elektron deb ataladigan ilk tanga pul Kichik Osiyodagi Lidiya davlatida zarb qilingan. Mil. avv. VI – V asrlarda Kichik Osiyodagi Yunon tayanch nuqtalari Lidiya davlatidan tanga-pul zarb qilishni o‘zlashtirib olganlar. Yunon tangalari mil. avv. V asrda urug‘-jamoachilik munosabatlarining yemirilishi, shaharlar, hunarmandchilik-savdoning rivojlanishi bilan mil. avv. V asrda paydo bo‘lgan. Yunon tangalari qadimgi yunon shahar-davlatlarining iqtisodiyotini o‘rganishda muhim ashyoviy dalildir.

Qadimgi Yunon tangalari temir, mis va kumushdan bo‘lib, tanganing teskari qismida shahar ramzi yoki shahar nomining birinchi harfi tushirilgan. Mil. avv. III – II asrlarda zarb etilgan tangalar mil. avv. V – IV asrlar tangalaridan farq qiladi. Mil. avv. III – II asrlarda zarb etilgan tangalarda hukmdorning tasviri va teskari tomonida esa, yozuv va ramzlar tushirilgan. XVIII asrda Venada o‘tkazilgan qadimgi yunon tangalari ko‘rgazmasida 70000 dona yunon tangalari kolleksiyasi namoyish etiladi.

Pul muomalasidagi tangalardan tashqari, ya’ni teatrga kirish uchun chipta vazifasini o‘tagan bronza va qo‘rg‘oshindan tayyorlangan tesserlar yaxshi saqlanib qolgan. Tesserlar ikki xil vaziyatda ishlatilgan: harbiy sohalarda kiyimlarga taqilgan bo‘lsa, kundalik hayotda teatr va dam olish joylariga kirish uchun ruxsatnoma vazifasini o‘tagan. Bizgacha yetib kelgan tesserlardan eng mashhuri Afinadagi Dionis teatriga kirish uchun ruxsatnoma vazifasini o‘tagan tesserlardir. Ularda asosan yunon harflari yozilgan. Har bir tesserda bitta harf uchraydi.

Ostrakonlar. Afina shahar-davlatida mil. avv. 500-yillar atrofida islohotchi Klisfen demokratik tuzumni himoya qilish, hokimiyatni alohida kishilar tomonidan bosib olinishiga qarshi chora sifatida ostrakizm qoidasini ishlab chiqadi. Xalq yig‘inida Afina demokratik tartib-qoidalariga xavf tug‘diradigan fuqaro aniqlanib, bu fuqaroni Afinadan badarg‘a qilish uchun ostrakizm – ya’ni shu fuqaroning nomi yozilgan sopol parchasi bilan ovoz berish qoidasi yo‘lga qo‘yilgan. Topilgan ostrakonlar mil. avv. V asrga tegishli. Bizgacha yetib kelgan ortrakonlardan birida Afinaning taniqli siyosiy arbobi Femistokl nomi yozilgan. Ostrakizm tamoyili qisqa vaqt davomida qo‘llanilgan.

4. Yunon tarixini davrlashtirish. Qadimgi Yunoniston tarixini besh davrga bo‘lish mumkin:

1. Mil. avv. XI – IX asrlar – yunon – doriy qabilalarining ibtidoiy jamoa davri. Ibtidoiy jamoa munosabatlarining rivojlanishi.

2. Arxaik davr (mil. avv. VIII – VI asrlar). Ibtidoiy jamoa tartib-qoidalarining yemirilishi, polis-davlatlarning shakllanishi, yunonlarning boshqa hududlarga migratsiyasi va ilk yunon tiraniyalari davri.

3. Mil. avv. VI asrning oxiri – mil. avv. V asr. Yunon polislarida iqtisodiy va madaniy yuksalish.Yunon demokratiyasining rivojlangan davri. Bu bosqich fanda klassik davr deb nomlanadi.

4. Yunon polis-davlatlarining tushkunlik davri (mil. avv. IV asr). Bu davrda yunon polislari o‘zaro urushlar girdobida qoldi. Iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy hayot tushkunlikka uchradi.

5. Mil. avv. III asr – mil. avv. I asrlar. Ahmoniylar hukmronligidan so‘ng Makedoniya davlatiunig halokatidan so‘ng Yunoniston Rim davlati tomonidan bosib olingan. Davr oxirida sharqda Frot daryosigacha bo‘lgan hududlar o‘sha davrda sharqning eng qudratli davlati Parfiya tarkibiga kirdi.

EGEY MADANIYATI

«Rivoyatlardan bizga ma'lum bo'lishicha, hukmdorlar ichida Minos birinchi bo'lib flot qurdi va hozirgi Ellin dengizining katta qismi ustidan hukmronlikka erishdi. U Kiklad orolining hokimi bo'ldi va koloniyalarga birinchi bo'lib asos soldi. Koloniyalarning ko'pchiligidan kariyaliklarni haydab yuborib, u yerda o'z o'g'illarini hokim qilib qo'ydi. O'z daromadlarini imkoniyat darajasida oshirish uchun dengiz qaroqchilarini yo'q qila boshladi».

Fukidid

1. Egey dunyosi madaniyati.
2. Krit oroli.
3. Iqtisodiy-ijtimoiy hayot.
4. Krit madaniyati.
5. Miken (axey) madaniyati.
5. Kiklad madaniyati.

1. Egey dunyosi madaniyati. Egey dengizidagi Krit orolida mil. avv. III ming yillikda sharqdan kelgan xalq o'ziga xos ulug'vor sivilizatsiyani yaratgan edi. Krit orolida, Yunonistonning janubi va Egey orollarida topilgan topilmalar asosida Evans bu madaniyatni Kritning afsonaviy podshohi nomi bilan Minoy madaniyati deb nomladi. Yunonistonning janubida axeylarning Tirinf, Pilos va Mikena shaharlari qoldiqlari ochilib, bu Miken madaniyati deb ataldi. Krit Egey havzasi madaniyatlarining madaniy-siyosiy markazi bo'ldi. Fanda Egey dunyosining bu madaniyati Egey yoki Krit-Miken sivililizatsiyasi deb ataldi. Egey havzasidagi bu qadimgi sivilizatsiya uch madaniy birlikdan tashkil topgan: 1. Eng qadimgi Krit – Minoy madaniyati (mil. avv. 3000 – 1200-yillar, markazi Krit);

2. Orollardagi Kiklad madaniyati; 3. Bolqon Yunonistoni janubidagi Miken madaniyati.

Krit-Miken madaniyatini ochilishida nemis olimi G. Shliman (1822 – 1882), ingliz arxeologi Artur Evansning (1851 – 1941) xizmatlari katta bo‘ldi.

Genrix Shliman kambag‘al nemis pastorining o‘g‘li. Non topish uchun o‘spirin Genrix do‘konda yugurdak, kemada yunga (matros kasbini egallash arafasidagi shogird) bo‘lib xizmat qiladi. Og‘ir ahvolga tushib qolganda sadaqa so‘rab yashaydi. Nihoyat, Amsterdamdagi savdo uyiga agent bo‘lib ishga kirganda ishi yurishib ketadi. 1846-yilda Amsterdam savdo uyi ishlari bilan Rossiyaga kelib qolib, shu yerda tijorat bilan mustaqil shug‘ullana boshlaydi. Uddaburon Genrix Shliman Qrim urushi (1853 – 1856-yillar) davrida rus armiyasi ta’minotchisiga aylanadi. Rus armiyasiga selitra, chirigan charm etik va etikka qog‘oz taglik yetkazib beradi. Urushda rus armiyasi yengildi, lekin bu urushdan G.Shliman millionlar orttirib boyib ketdi. Millionerga aylangan G.Shliman Amerika, Afrika, Hindiston, Xitoy va Yaponiyaga sayohat qiladi.

G.Shliman bolaligida Iliada dostonida Troya tasvirini o‘qib, ushbu shahar qoldiqlarini ochishni orzu qilgan edi. U 1861-yilda 42 yoshida Sorbonna universitetining talabasiga aylandi va arxeologiya kursini o‘rgandi. G.Shliman 1870-yil Turkiya hukumatining ruxsati bilan Kichik Osiyoda qadimgi Troya xarobalari bo‘lgan Hisorli tepaligini qazish ishlarini boshladi. Qazishmalar uch yil davom etdi. Hisorli tepaligida 13 madaniy qatlam bo‘lishi Troya uch ming yillikdan ko‘p tarixga ega bo‘lganidan dalolat berar edi. Biroq oltinga boy Troya qoldiqlarini topishni maqsad qilib qo‘ygan Shliman bu madaniy yer qatlamlarini ayovsiz buzib tashladi. Shliman shaharning mil. avv. III ming yillikka tegishli qatlamini Troya shahri deb

hisoblab adashdi. Tarixchi va arxeologlar Shliman ochgan yodgorlikning yoshi mil. avv. III asrga tegishli deb yanglishdilar. Yanada tajribali arxeologlar (R. Virxov) Shlimanning boy topilmalarini tahlil qilib, bu xato fikrdan voz kechdilar. Troyada olib borilgan qazishmalar natijasida katta miqdorda tilla buyumlar topildi. Topilgan qadimgi tilla buyumlarni biror bir muzey sotib olish qobiliyatiga ega emas edi.

G.Shliman Parijda arxeologiya fanini o‘rgangan bo‘lsa-da, faqat tor maqsadni ko‘zlab, bir o‘zi, malakali arxeolog mutaxassislar ko‘magisiz o‘zi bilmagan arxeologik qazish ishlarni olib bordi. Oqibatda Troyadagi fan uchun qimmatli bo‘lgan madaniy qatlamlarni buzib tashladi. Shlimanning o‘limidan (1882) keyin arxeolog Derpfeld va XX asrning 30-yillarida Amerika arxeologik ekspeditsiyasi Troyaning yangi qazishmalarini o‘tkazdilar va bir necha madaniy yer qatlamlarni topdilar.

Shliman janubiy Yunonistonda axeylarning Mikena shahar-qal’asi qoldiqlarini qazib, mashhur «Sherlar darvozasi» deb ataladigan qal’a devori poydevorini ochdi. Qabrlardan tilla topilmalar, axeylarning afsonaviy podshohi Agamemnon qabri mo‘l-ko‘l tilla buyumlar bilan topildi. Shu bilan bir vaqtda u qadimgi Tirinf va Orrxomen xarobalarida ham arxeologik qazish ishlarini olib bordi. G.Shliman noyob topilmalarni tadqiq qilib, uch tilda kitob yozdi. U o‘zining arxeologik qazishmalari bilan Yevropada mashhur bo‘lib ketdi. Qirollar, hatto german kansleri O. Bismark ham Shliman bilan yozishmalar olib borishni o‘zi uchun sharaf deb hisoblay boshladilar. Olim o‘z kolleksiyasini Berlin muzeyiga sovg‘a qildi. G.Shliman Afinaga dafn qilindi.

Ingliz olimi Artur Evans ziyoli oilaning farzandi edi. Oksford muzeyi saqlovchisi, taniqli arxeolog va geolog Jon Evansning o‘g‘li – arxeolog Artur Evans yunon

madaniyatidan bir necha ming yil oldin mavjud bo‘lgan Krit sivilizatsiyasini ochdi. A. Evans Krit orolida yer maydonini sotib olib, 1900-yil 24-martda qazishma ishlarini boshladi. Arxeolog orolda 20 ming kv. metrdan ko‘proq hududni tashkil etgan ulkan saroy qoldiqlarini ochdi. Olim Knoss saroyini 40 yil davomida tekshirdi va ajoyib san’at namunalarini topdi. Saroy bir necha qavatdan iborat bo‘lib, unda devoriy tasvirlari bo‘lgan saroy zallari, turar joylar, qadamjolar, usta xonalar, omborlar, yer osti yo‘llari va cho‘milish havzalari mavjud edi. Omborlarda don, moy qoldiqlari bilan ulkan sopol xum (pifos)lar saqlanib qolgan. Bundan tashqari, katta miqdorda qurol-aslaha, mehnat qurollari, uy-ro‘zg‘or buyumlari va taqinchoqlar topildi. Evans bilan bir vaqtga Krit orolida italyan arxeologlari Fest shahri qoldiqlarini ochdilar.

Egey orollari Amorgos, Paros, Sifnos, Siros, Naksos, Tera va Melosda ko‘pgina madaniy yodgorliklar ochildi. Kritda loy taxtachalarda noma’lum tilda yozilgan yozuvlar topilib, ularni 50 yil davomida hech kim o‘qiy olmadi. Faqat ingliz olimlari Maykl Ventris va Jon Chedvik 1953-yilda bu yozuvlarni o‘qishga erishdilar.

2. Krit oroli. Arxeologiya fani ma’lumotlariga ko‘ra, bundan 130 ming yil oldin Krit orolida neandertallar yashagan. Aftidan, ular sharqdan kirib kelgan. 7 ming yil oldin orolda dehqon va chorvadorlarning ilk manzilgohlari paydo bo‘lgan. Mil. avv. III – II ming yilliklarda Egey dengizi orollarida krit-miken sivilizatsiyasi shakllandi. Bu madaniyat Kritning afsonaviy podshohi nomi bilan Minoy sivilizatsiyasi ham deb ataladi. Krit sivilizatsiyasi hali yunonlar ibtidoiy jamoa davrini boshidan kechirayotgan paytda vujudga kelgan buyuk madaniyat edi. Bu madaniyatning asoschilari yunonlargacha bo‘lgan, o‘z yozuvlari va o‘ziga xos yuksak madaniyatiga ega bo‘lgan xalq edi.

Krit yoki Minoy madaniyati uch davrga: Ilk Minoy (mil. avv. 3000 – 2300/2100-yillar), O‘rta Minoy (2300/2100 – 1600-yillar) va So‘nggi Minoy (1600 – 1200-yillar)ga bo‘linadi. Kritning ilk gullab-yashnash davri va uning Egey dunyosidagi yetakchiligi mil. avv. III – II ming yilliklarga to‘g‘ri keladi. Dastlab orolning janubiy-sharqiy qismi rivojlangan.

Fanda O‘rta Minoy (2300/2100 – 1600-yillar) davrida Kritda «birinchi saroylar» davri deb ataldi. Bu davrda Knoss, Fest va Malliya kabi shahar markazlari rivojlandi. Krit me’morchiligini Kiklad va Yunon sivilizatsiyalaridan ajratib turadigan xususiyati, bu saroylarning ko‘proq sharq dunyosiga xos tarzda an’anaviy hashamatli va ulug‘vor qurilgani hamda saroylardagi nafis freska tasvirlarining yuksak san’at darajasida bo‘lganidir. Sharqdagi kabi Krit me’morchiligida ulug‘vor ibodatxona va podshoh saroyi qurilishi ustivor o‘rinda turgan. Shunga asoslanib, Krit sharq dunyosi bilan juda yaqin madaniy-siyosiy aloqada bo‘lgan deb aytish mumkin. Taxminlarga ko‘ra, o‘rta Minoy davri Kritda yer qimirlashi natijasida halokat bilan tugadi. Mil. avv. XVII asrda Knoss, Fest va Malliya saroylari xarobaga aylandi. Ellik yildan so‘ng, Krit yana qayta tiklandi va bu yuksalish mil. avv. 1400-yillargacha davom etdi.

Kritning Egey dengizidagi yangi yetakchiligi mil. avv. 1700-yildan boshlangan. Bu fanda «Ikkinchi saroylar davri» (mil. avv. XVII asr) deb atalib, **so‘nggi Minoy (1600 – 1200-yillar) davri bo‘ldi.** Bu davrda Krit orolida qudratli davlat tashkil topib, Krit dengiz floti Egey dengizi havzasida cheksiz hukmron bo‘lgan. Krit bilan dengizda raqobat qiladigan biror davlat bo‘lmagan. Orolning mudofaa devorlari bilan o‘rab olinmagani shundan dalolat beradi. Krit savdogarlari xalqaro dengiz savdosini faol yo‘lga qo‘yganlar. Krit Bolqon yarim oroli, Misr, Iberiya (Ispaniya)ga oliy nav

vino va zaytun moyini eksport qildi. Misrdan orolga rangli shisha, fayans; Kipr orolidan mis; Suriyadan otash; Liviyadan qimmatbaho metallar va fil suyagi olib kelingan.

Krit davlat hokimiyati. Taxminlarga ko‘ra, Kritda bir vaqtning o‘zida bir necha davlat mavjud bo‘lgan. Bu davlatlarda podshoh hokimiyati mavjud bo‘lgan. O‘rta Minoy davrida orolning shimoliy qismida (poytaxti Knoss) mustaqil sulola, boshqa bir sulola janubda (poytaxti Fest) hukmronlik qilgan. Podshoh yerning oliy egasi bo‘lib, ishlab chiqariladigan moddiy ne’matlarning katta qismini tasarruf qilgan. Podshoh mamlakatni o‘z a‘yonlari, yaqinlari yordamida boshqargan. Joylarda podshoh noiblari boshqaruv ishlarini amalga oshirganlar. Krit podshohlari oliy dunyoviy hokimiyatdan tashqari, diniy hokimiyatga ham ega bo‘lganlar. Podshoh oliy kohin vazifasini ham bajargan. Fukididning bergan ma’lumotlariga ko‘ra, podshoh Minos har 9 yilda iloh tasviri tushirilgan muqaddas g‘orga borib, uning oldida o‘z podshohlik boshqaruvi to‘g‘risida hisobot bergan va o‘z hukmronligining navbatdagi muddati uchun yorliq olgan.

Knoss saroyi xarobalari qazib ochilganda, podshoh saroyi va podshoh taxti topilgan. Katta zalning ikki tomonida ehtimol davlat ishlarini muhokama qilishga to‘planadigan podshoh kengashi a’zolari o‘tiradigan uzun o‘rindiqlar qo‘yilgan. Devoriy tasvirlarda Krit podshohi odatdagi odamlardan ko‘ra, bo‘yi bir necha marta baland qilib tasvirlangan.

Manbalarga ko‘ra, Kritda podshoh hokimiyati bekor qilinadi. Davlatning oliy o‘rgani xalq yig‘ini bo‘lgan. Har bir shahar o‘z-o‘zini mustaqil boshqargan. Shaharlar o‘z qonunlariga ega bo‘lib, saylab qo‘yiladigan kosma va tit lavozimlaridagi kishilar shahar boshqaruvi va sud ishlari bilan shug‘ullanganlar. Bu

lavozimlarda faoliyat ko‘rsatish ma’lum bir muddat bilan cheklangan bo‘lib, masalan, kosma lavozimiga 10 yilgacha muddatga saylangan. Ma’lumotlarga ko‘ra Kritda shaharlar mukammal qonunlarga ega bo‘lganlar. Bu qonunlarni spartaliklar o‘zlashtirib olganlar. Krit kosmalari sparta gerontlariga to‘g‘ri keladi. Kritda Knoss, Gortina va Kidoniya kabi kuchli rivojlangan shaharlar mavjud bo‘lgan. So‘nggi Minoy davrida Kritdagi butun hokimiyat Knoss shahriga o‘tgan. Orolda eng kuchli bo‘lgan Knoss shahri uzoq vaqt o‘z yetakchiligini saqlab turgan. Knoss shahri orolda boshqa shahar va hududlar ustidan hukmron bo‘lish uchun oroldagi kuchli shahar Gortina bilan ittifoq tuzgan. Keyinchalik orolda Kidoniya shahrining mavqeyi kuchayib, bu shahar yetakchi o‘rinni egallagan.

3. Iqtisodiy-ijtimoiy hayot. Kritning ijtimoiy-siyosiy munosabatlari to‘g‘risida aniq ma’lumotlar yo‘q. Qadimgi Krit jamiyatida qullar bo‘lgani taxmin qilinadi. Kritda qul mehnatidan podshoh xo‘jaliklarida foydalanilgani, xususiy qulchilik mavjud bo‘lgani faraz qilinadi. Mil. avv. III ming yillikga borib taqaladigan Messara vodiysida mavjud bo‘lgan guruhiy qabrlar, Vasilikadan topilgan ikki qavatli uylar jamoa munosabatlarining uzoq vaqt mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi. Knoss saroyining o‘zida bir vaqtda 10 ming kishi yashagan.

Qazilma ishlaridan orolda qishloq xo‘jaligi yaxshi rivojlangani yaqqol ko‘rinadi. Topilgan qishloq qo‘rg‘onlari qoldiqlari yirik yer egaligi va boy dehqonchilik xo‘jaligi mavjud bo‘lganidan dalolat beradi. Fest shahri yonidan topilgan ko‘zaning sirtida odatda pishgan zaytun mevalarini urib tushiradigan panshaxasimon tayoq ko‘tarib kelayotgan bir to‘da dehqonlar mohirona tasvirlangan. Podshoh saroylarining ko‘p sonli xonalaridan hunarmand-

chilik ustaxonalari topilgan. Kritda asosan uch soha: kemasozlik, kulolchilik va qurilish iqtisodiyotning yetakchi sohalari bo‘lgan. Kritliklar mohir me’mor bo‘lib, ko‘p qavatli saroylar, ustaxonalar va omborlar qurganlar. Kulolchilik yuqori darajada rivojlanib, kulollar turli shakldagi buyumlar yasaganlar. Kulollar odam bo‘yidan baland va qalin devorli xumlardan tortib, devori tuxum po‘chog‘idan ham yupqa nafis ko‘zalar yasaganlar. Ko‘zalarda rangli tasvirlar, ayniqsa, gullar, sakkizoyoqlar (dengiz hayvoni) ustalik bilan tasvirlanadi.

Kemasozlar mil. avv. XVI – XV asrlarda suvda uzoq masofaga suzadigan dengiz kemalarini qurganlar. Knoss hukmdorlarining kuchli dengiz floti O‘rtayer dengizining sharqiy qismidan Sitsiliya, Suriyagacha, Misrdan Atlantikagacha suzar edi. Kritliklar Misr, Suriya va Sharqiy O‘rtayer dengizining boshqa shaharlari bilan dengiz savdosini keng miqyosda olib bordilar. Krit hunarmandchilik mahsulotlari namunalari Mesopotamiyadagi Mari shahridan topilgan. Misr devoriy tasvirlarida Krit (Keftiu) elchilari tasvirlanadi. Krit orolida esa, Misr va Suriya hunarmandchilik mahsulotlari topilgan. Italiyaning Sitsiliya oroli va Kampaniya qirg‘oqlaridan topilgan.

Krit sivilizatsiyasining halokati. Mil. avv. XV asr o‘rtalarida Kritning ichki va tashqi ahvoli o‘zgaradi. Krit o‘zining Sitsiliya va Egey havzasidagi mavqeyini yo‘qotadi. Dengiz davlati yemiriladi. Shu vaqtda Fera orolida Kritdan 100 km shimolda (mil. avv. 1470-yil) vulqon otilib, uning natijasida, ulkan to‘lqin – sunami 30 metr balandlikda qirg‘oqdagi shaharlarni yuvib ketgan va gullab-yashnagan Krit shaharlariga shiddat bilan yopirilib kelgan deb faraz qilinadi.

Mil. avv. 1450-yillarda Krit zaiflashdi. Yunonistonning janubida urug‘-qabilachilik tuzumida yashagan axey qabilalari orolga bostirib kirib, Kritning siyosiy

yetakchiligiga chek qo‘ydilar. Egey havzasi ikki asr mobaynida, doriylar kelguniga qadar axeylar hukmronligi ostida qoldi. Axeylar kritliklarga nisbatan madaniy jihatdan hali orqada edilar. Ular Krit san’atining yuqori badiiy qiymatini, go‘zallligini his qilishdan ojiz edilar. Shu sababli, yuksak mazmun, asriy an’analarga ega bo‘lgan yuksak madaniyatni o‘zlashtira olmadilar. Natijada, Krit shaharlari bo‘shab qolib, bir necha ming yillik tarixga ega bo‘lgan bu sivilizatsiyaning ijodkorlari bo‘lgan aholi kambag‘allashib, soni keskin kamaydi. Yuksak madaniyat o‘choqlari bo‘lgan saroylar yemirildi, krit yozuvi unutildi.

4. Krit madaniyati. Kritda Knoss shahridagi bir necha qavatli saroy Kritdagi ulug‘vor inshoot edi. U bir necha marta qayta qurilgan bo‘lib, podshoh oilasi istiqomatgohi, rasmiy qarorgoh va xo‘jalik inshootlaridan iborat edi. Saroyda ko‘plab xona va zal devorlari did bilan bezatilgan. Krit me’morlari qadimgi misrliklarning ulug‘vor va ulkan inshootlariga o‘xshash ibodatxona va saroylarni bunyod etib, inshootlarni ko‘tarib turadigan ustunlar qurish san’atini egalladilar. Krit saroylaridagi ustunlar juda yo‘g‘on, lekin kalta.

Knoss saroyi devoriy tasvirlarida saroy hayoti manzarasi, hashamatli kiyingan ayollar va erkaklar, o‘simlik va hayvonlarning hayotiy ko‘rinishlari mukammal, nafis badiiy usulda tasvirlangan. Krit kulolchiligida badiiy san’atning nihoyatda yuksak darajada shakllangani ko‘rinadi. Sopol idishlarda tabiatning boy manzaralari mohirona tasvirlanadi. Bunday tasvirlar ko‘za (amforalar), zaytun yog‘i va vino saqlanadigan, bo‘yi 2 m gacha bo‘lgan xum (pifos)larning sirtiga chizilgan.

Krit madaniyatining yuqori darajadagi rivojining yana bir dalili, Knoss saroyidagi bizgacha yetib kelgan devorga tushirilgan raqqosa tasvirining bir qis-

midir. Raqqosaning go‘zal qaddi-qomati nafis noziklikda tasvirlanganligidan hayratda qolgan arxeologlar uni shartli tarzda «parijlik ayol» deb nomladilar. Bu raqqosaning sochi o‘ziga xos did bilan ma’lum bir uslubda turmaklangan. Knoss saroylaridan topilgan kohinalarning fayans haykalchalarida uzun yubka, yarim yalang‘och ko‘krak, nozik yelkalarga tushib turgan sochlar tasviri saroyda hukm surgan nozik did, go‘zallik dunyosidan dalolat beradi.

Devoriy tasvir – freska (fresco – italyan tilida toza, ho‘l)lar va Krit xudolar panteonida ayol ma’budalarining oldingi o‘rinda turgani, Krit jamiyati hayotida ayollarning mavqeyi yuqori darajada bo‘lganidan dalolat beradi. Bundan tashqari, gemma (lotincha – gemma – qimmatbaho tosh, muhr.) – qimmatbaho yoki yarim qimmatbaho toshdan bo‘lgan plastinkada tasvir o‘yilgan. Tasvir toshning ichida o‘yilgan bo‘lsa, intaliya, toshning qavariq yuzida o‘yilgan bo‘lsa, kameya deb atalgan. Krit saroylarida gemma muhr sifatida ishlatilgan. Krit gemma va uzuklarida qalqon tutgan ayol, kabutar bilan ma’buda, tog‘ cho‘qqisidagi ma’buda va ikki sher o‘rtasidagi ma’buda tasvirlari juda nafis ishlangan. Bu Kritda badiiy hunarmandchilik san’at darajasiga ko‘tarilganidan dalolat beradi.

Freska tasviriy san’atining gullab-yashnashi «ikkinchi saroylar davriga» (mil. avv. XVII asr) va **so‘nggi Minoy (1600 – 1200-yillar)**ga to‘g‘ri keladi. Freska tasvirlarda Krit orolining saroy va diniy hayoti manzaralari: yosh yigit-qizlarning sayr qilib yurishi, gullar orasidan yurib kelayotgan hokimning tasviri, qo‘shiq aytib raqs tushayotgan raqqosalar, qo‘lida marosim ko‘zalarini ko‘tarib ketayotgan o‘smirlar, Kritda diniy ramz sanalgan ikki yoqlama bolta – labris ushlagan kohina kabi tasvirlar aks ettirilgan. Knoss va Festda yangi saroylar qurilib, uning devorlari ajoyib freska-tasvirlar bilan bezatilgan.

Krit orolining janubidagi Fest qadimda katta madaniyat o‘chog‘i bo‘lgan. Qo‘shni Knoss saroyiga o‘xshash Festda ulug‘vor saroy ansambli – uch qator tosh terilgan hovli, 500 kishilik teatr, ziyoratgoh va ibodatxonalar mil. avv. 2200-yillar atrofida qurilgan. Mil. avv. XVIII asrdagi zilziladan so‘ng Fest saroyi qayta qurilib, kengaytiriladi. Saroy yuksak me’morchilik namunasida bunyod qilingan. Ko‘p sonli xonalar, uzun koridorlarning devorlari toshdan yo‘nilgan plitkalar va freska-tasvirlar bilan bezatilgan. Saroy atrofida shahar joylashgan. Mil. avv. 1470-yildagi zilzila Festni to‘la vayron qilgan.

Kritliklar o‘z yozuvlarini yaratganlar. Knoss saroyida 10 ming taxtachada qadimgi krit yozuvlari topildi. A. Evans bu yozuvlarni 30 yil davomida o‘qishga urindi, lekin o‘qiy olmadi. Olim 1941-yilda vafot qildi. 1953-yilda ingliz olimlari M.Ventris va D. Chedvik A-chiziqli yozuvni o‘qidilar. Bu yozuvlar aks etgan ma’lumotlar Knoss saroyining xo‘jalik hujjatlari edi.

Krit saroyi suv quvurlari va kanalizatsiya bilan ta’minlangan. Ushbu ajoyib sivilizatsiyani sharqdan kelgan qandaydir bir noma’lum xalq yaratgan edi. Krit sivilizatsiyasini zaiflashganidan foydalangan materik Yunonistonida yashagan axeylar bostirib kirdilar va o‘z hukmronliklarini o‘rnatdilar.

5. Miken (axey) madaniyati. Bolqon yarim orolida yashagan urug‘-qabilalarda mil. avv. III ming yillikda ibtidoiy jamoa tuzumi hukm surgan. Gerodotning ma’lumotlariga ko‘ra, bu davrda hozirgi Yunoniston hududida leleg, pelasg va kariy qabilalari yashar edilar. Ularning mehnat qurollari toshdan bo‘lib, ilk mis qurollarini tayyorlay boshlaganlar. Bu qabilalarda jez davri mil. avv. III ming yillik o‘rtalaridan boshlandi. Shu davrdan boshlab, ibtidoiy kichik qishloqlar o‘rnida katta qishloqlar, mustahkamlangan qal’alar paydo bo‘la boshladi. Urug‘chilik muno-

sabatlarining yemirilish jarayoni asta-sekin mil. avv. III ming yillik oxiridan boshlandi.

Yevropa tarixchilarining ma'lumotlariga ko'ra, mil. avv. III ming yillik oxirida Markaziy Yevropa hududidan etnik guruhlar turli yo'nalishlarda ko'cha boshlaydi. Bu etnik guruhlarning bir qismi Bolqon yarim oroliga kirib keladi. Keyinchalik qadimgi yunon yozuvlari kelgindilarni axeylar deb nomladilar. Mil. avv. III ming yillik oxirlarida qabilalarning Bolqon yarim oroliga kirib kelishi yangi davrni boshlab berdi. Mahalliy aholi kelgindilarga qattiq qarshilik ko'rsatadi, axeylar mahalliy aholi bilan ziddiyatli munosabatda bo'lib, qiyinchilik bilan yangi shart-sharoitga moslasha boshlaganlar. Lekin ular uzoq vaqt ibtidoiy jamoa sharoitida yashaganlar.

Yangi etnik birliklar eskilari bilan aralashib, yangi moddiy va ma'naviy madaniyatni vujudga keltiradilar. Taxminan, mil. avv. XVIII asr oxirlarida Bolqon yarim orolida mustahkamlangan kichik-kichik qishloqlar paydo bo'ladi. Bu davrda kulolchilikda, kumushga ishlov berish ishlarida, urf-odat, an'analarda (jumladan, uy ichida, pol ostida yoki devor orasida bolalar qabri) yangi jihatlar paydo bo'ladi. Qabrlarda metall qurollar uchramaydi. Bu davrda Bolqon yarim orolini Kritdan boshqa hududlar bilan aloqalari deyarli yo'q edi. Bu fikrning dalili sifatida qabrlarda Krit ko'zalari, Krit namunasiga taqlid qilib yasalgan sopol buyumlar mavjudligini aytishimiz mumkin.

Mil. avv. 1600-yillar atrofida Kritda yuksak rivojlangan madaniyat mavjud bo'lgan paytda Bolqon yarim orolida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Axeylar II ming yillikning birinchi yuz yilliklarida Bolqon yarim oroli janubiga asta-sekin siljib,o'z manzilgohlarini barpo qila boshladilar. Ehtimol, ular ilk bor kulolchilik charxi, ot qo'shilgan arava va jang aravasini olib kelganlar. Mil. avv. XVI asrda kelgindilarning

mahalliy aholi bilan to‘la assimilatsiyasi tugallanadi. Natijada, yangi samarali iqtisodiyot, zodagonlar (ko‘pincha harbiylar), kohinlar, oddiy jamoatchilardan iborat ijtimoiy guruhlar shakllanadi.

Yunonistonning Axaya davri siyosiy tarixi to‘g‘risida yozma va ashyoviy dalillar deyarli yo‘q. Ba’zi olimlar Mikena boshchiligida yagona Axaya davlati mavjud bo‘lganini yozadilar. Bir necha Axaya davlatlari mustaqil mavjud bo‘lib, ular vaqtinchalik birlashgan bo‘lishlari mumkin. Faqat «Iliada» va «Odisseya» dostonlari ma’lumotlari asosida bu davr voqea-hodisalari to‘g‘risida tasavvur hosil qilish mumkin. Axey manzilgohlari Kichik Osiyoning g‘arbiy va janubiy qirg‘oqlarida paydo bo‘ldi. Bu davrda Rodos va Kiprga axeylar kirib kelishi kuzatiladi.

Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, mil. avv. 1000-yillarning oxirida Kichik Osiyodagi axeylar tomonidan Kipr o‘zlashtiriladi. Sitsiliya va Janubiy Italiyada axey faktoriyalari (tayanch nuqtalari) paydo bo‘ladi. Axeylarning Old Osiyo mamlakatlari qirg‘oq bo‘ylariga kuchli bosqini «dengiz xalqlari» harakati deb nomlanadi. Ilmiy farazlarga ko‘ra, mil. avv. XIII asrda yuz yil davomida doriylar va boshqa xalqlarning Bolqonga kuchli tazyiqi axey sivilizatsiyasining halokatiga olib keldi. Axeylarning bir qismi Attika va boshqa viloyatlar, Egey dengizi orollari, Kichik Osiyoning g‘arbiy qirg‘og‘i va Kipr orolida saqlanib qoldi. Qolgan qismi qirilib ketdi.

Egey havzasida 400 yil davomida bir xil madaniyatning mavjud bo‘lishi uni shartli ravishda «Miken» madaniyati deb atalishiga sabab bo‘ldi. Tarixiy adabiyotda Miken madaniyati Ilk Miken (mil. avv. 1700-yillardan 1550-yillargacha), O‘rta Miken (1550 – 1400-yillar) va So‘nggi Miken (1400 – 1200-yillar) davrlariga bo‘linadi.Hozirgi Yunonistonning markazi va janubida ilk shahar-davlatlar Tirinf, Pilos, Mikena

va Afina shakllana boshladi. Miken (Axey) sivilizatsiyasining gullab-yashnagan davri mil. avv. XV – XIII asrlarni o‘z ichiga oladi. Mikena siyosiy markaz sifatida Yunoniston janubida paydo bo‘ldi.

Mil. avv. XV asrdan Mikenada va hozirgi Yunonistonning boshqa viloyatlarida gumbazli qabrlar qo‘yish rasm bo‘la boshladi. Bunday qabrlarda hokimlar dafn qilingan. Mikenadagi mashhur «Agamemnon qabri» hashamatli va ulug‘vor qilib qurilgan. 5 metrgacha balandlikda bo‘lgan og‘ir eshiklar, usti har biri taxminan 120 tonna keladigan ikki xarsang tosh bilan yopilgan. Qabrlardan ko‘p miqdorda qimmatli buyumlar, qurol-yarog‘lar topilgan. Mikena madaniyatining kulolchilik mahsulotlari Rodos, Kipr, Kichik Osiyo, Misr, Sitsiliya va Janubiy Italiyaga chiqarilgan. Bolqon Yunonistonida mil. avv. 1400-yildan mustahkamlangan qo‘rg‘onlar (Terin, Mikena, Afina, Fiva, Iolik) paydo bo‘ladi. O‘rta Yunonistonda ilk davlat birlashmalari Attika va Beotiya viloyatlarida mil. avv. XIV – XII asrlarda shakllana boshladi.

Janubiy Yunoniston va Peloponnesda Miken madaniyatining markazlari mil. avv. XV – XII asrlarda Mikena, Tirinf va Pilos edi. Ulardan Mikena bu davrda kuchli davlat bo‘lgan. Mifologiyada Troyaga qarshi yunon urug‘-qabilalarining yurishi yo‘lboshchisi Mikenaning afsonaviy podshohi Agamemnon deb aytiladi. Mikenada olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida faqat Mikena madaniyatiga mansub inshootlar qazib ochilgan. 1876-yilda arxeolog G. Shliman Mikenadan qoyaga o‘yilgan shaxta ko‘rinishidagi qabrlarni topdi. Qabrlardan kumush va oltin bilan bezatilgan jez qilich, oltin va kumush qadah, tilla niqob va boshqa buyumlar topildi. Ayrim qabrtoshlarida ov va jang manzaralari tasvirlangan.

Mikena san’ati ko‘p jihatdan Krit madaniyati bilan o‘xshash. Mikena tasviriy san’atida o‘simliklar va

hashamatli kiyingan kishilarning bir xildagi tantanali yurishlari tasviri mavjud. Tasvirlarda statiklik, shartlanganlik hukm suradi. Diniy tasavvurlar to‘g‘risida ma’lumotlar juda kam. Diniy rasm-rusumlar gemma va muhrlarda ifodalangan. Joylardan diniy topilmalar bo‘lgan mehroblar qoldiqlari topilgan. XX asrning 60-yillarida Mikena akropolidan (mustahkamlangan qal’a) diniy marosimlar bajariladigan markaz topildi. Markazdan topilgan topilmalar ichida qo‘llarini yuqoriga ko‘targan 16 ta loy haykalcha, loydan yasalgan ilonlar va mexrob bor. Muqaddas joy yaqinida turar joy binosi bo‘lib, tadqiqotchilarning fikricha, bu binoda bosh kohin yashagan. 1953-yil ingliz olimlari Ventris va Chedvik Mikena saroylaridan topilgan buyumlarda sanoq, hisob-kitoblar to‘g‘risida ma’lumot beradigan loy taxtachalardagi mikena yozuvlarini o‘qidilar.

Mikena mustahkam devorlar bilan o‘rab olingan kichik shahar – qal’a bo‘lib, bu yerda «shaxta-qabr»-lar qurilgan. Miken qal’asining kirish qismidagi darvozaning tepa qismida ikki sher relyef tasviri tushirilgan. Miken shahar-qal’asida hokim saroyi va hokim yoki yo‘lboshchining sag‘analari qazib ochilgan.

Mikenaga qo‘shni bo‘lgan Tirinf axey shahar davlati edi. Axey davlatlaridan yana biri Peloponnes yarim orolining janubiy-g‘arbida Pilos-shahar-davlati bo‘lgan. «Iliada» dostonida Troyaga qarshi yurishga qatnashgan yunon floti ichida eng ko‘p sonli 90 qayiqdan iborat Pilos floti va uning boshlig‘i Pilos hokimi Nestor bo‘lgani aytiladi. Pilos mil. avv XIV – XIII asrlarda bir qadar rivojlangan shahar-davlat bo‘lgan. Pilos, Mikena va Tirinf shaharlari bir-biriga yaqin 30 km. radiusda joylashgan bo‘lib, ular doimo muntazam ixtilof – urushlar girdobida bo‘lganlar. Shu sababli, bu shahar-davlatlar mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan. O‘zaro raqobatda janubda Mikena, o‘rta Yunonistonda Fiva yetakchi davlatga aylangan.

Lekin axey shahar-davlatlari to‘g‘risidagi arxeologik manbalar ma’lumotlaridan tashqari, barcha ma’lumotlar mifologiya va rivoyatlarga asoslangan.

Pilos hokimining saroyi yaxshi saqlanib qolgan. Bu saroy maydoni boshqalarga qaraganda, kichik bo‘lsa-da, uyg‘un tarx etilgan. Saroy devori freskalar bilan, toshdan yasalgan pol geometrik va dengiz mavjudotlari tasvirlari bilan bezatilgan. Xonalarning biridan Pilos davlati va jamiyati, Miken sivilizatsiyasining turli sohalari to‘g‘risida ma’lumot beradigan bir yarim ming loy taxtachadan iborat arxiv topilgan. Tirinf hokimining saroy qal’asi balang va ulug‘vor qurilgan. Qal’a devorlarining og‘irligi 12 tonnagacha bo‘lgan yaxlit ohaktoshlardan bunyod etilgan. Ularning eni 4,5 metrgacha, balandligi 7,5 metrgacha yetadi. Qal’a devorlarining ba’zi joylarida oziq-ovqat va qurol saqlanadigan ombor inshootlari qurilgan.

Qal’aning ichida ikkinchi mudofaa devori tepalikda joylashgan podshoh saroyini himoya qilgan. Saroyga kirish hududi maxsus to‘siq inshootlari bilan himoyalangan. Qal’ada ichimlik suv zaxirasi bilan shahar tashqarisidagi suv manbasiga boradigan yashirin yerosti yo‘li qurilgan. Chunki Tirinf uchun eng xavfli raqib Miken 17 km uzoqlikda joylashgan edi. Tirinf saroyi devorlari ov manzaralari, hashamatli kiyingan xonimlarning aravadagi tasvirlari bilan bezalgan.

Mil. avv. XII asr boshida Sharqiy O‘rtayer dengizining Osiyo qirg‘og‘ida filimstimlar deb atalgan xalqlar o‘rnashdi. Filimstimlarning manzilgohlaridan bu yerda ilgari bo‘lmagan, shu yerning o‘zida ishlab chiqarilgan Mikena sopoliga o‘xshash buyumlar ko‘plab topilgan. Bu vaqtda Bolqon Yunonistoniga shimoldan turli qabila guruhlari migratsiyasi boshlandi. Yodgorliklarda moddiy-ma’naviy madaniyatning tushkunligi ko‘rinadi. Xo‘jalik hayotida temir o‘zlashtirila boshlanadi.

Troya davlati. Mil. avv. II ming yillikda Kichik Osiyoning shimoli-g‘arbida, hozirgi Dardanell (qadimda Gellespont deb atalgan) qirg‘og‘ida yunon bo‘lmagan mahalliy etnoslar barpo qilgan Troya davlati mavjud bo‘lgan. Troya davlati Egey havzasidan Qora dengizga va Kichik Osiyodan Bolqon yarimoroliga boradigan savdo yo‘llarini o‘z nazorati ostida olgan. Bu davlat uzoq asrlar gullab-yashnagan. Troya atrofida Kichik Osiyoning shimoli-g‘arbidagi bir necha kichik davlatlar birlashgan. Troya urushi to‘g‘risida muammoli fikrlar juda ko‘p. Troyaning yoshi Mikenadagi shaxta qabrlaridan yosh jihatdan 600 yil katta bo‘lgan va Bolqon yarim orolidan kelgan qabilalar tomonidan bosib olinishi mumkin emas edi. Troya shahri hududidan arxeologlar olti madaniy qatlamni qazib ochdilar. Mil. avv. 1800-yillar atrofida Troya-VI qatlami paydo bo‘ldi. Mavjud olti madaniy qatlam Troyada hayot uzluksiz davom etganligidan dalolat beradi.

5. Kiklad madaniyati. Kiklad Krit shimolidagi Egey dengizidagi ko‘pgina orollar majmuasidir. Bu orollar joylashuvi aylana shaklini hosil qilgani uchun ularni yunonlar «kikladlar» ya’ni «aylana» deb atashgan. Kiklad orollarida qadimda kariy va leleg xalqlari yashagan. Ularga Krit orolidan ko‘chib kelganlar qo‘shilgan. Aholi uzumchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullangan. Kiklad orollarining Egey havzasidan chekkadagi o‘lkalar bilan olib borgan dengiz savdosi alohida o‘rin tutadi. Orollarda qayiq-kemalar qurish alohida hunarmandchilik sohasiga aylangan. Kema egalari, hunarmandlar va savdogarlar orol ijtimoiy hayotida yetakchi o‘rinni egalladilar. Tadbirkor-uddaburon savdogarlar, boy hunarmand va kemasozlar dengiz savdosining tashkilotchilari edilar.

Kiklad orollari aholisi katta-kichik, pishiq qilib qurilgan bir-ikki qavatli uylardan iborat shahar ko‘rinishidagi kichik manzilgohlarda yashaganlar. Kichik

shaharchalar jamoa asosida xalq yig‘inlari orqali boshqarilgan deb taxmin qilinadi. Shaharchalar odatda dengiz qirg‘oqlarida, port yaqinida qurilgan. Port yaqinida maydon bo‘lgan. Bu maydonda bozor bo‘lib, savdo va boshqaruv ishlari muhokama qilingan. Kiklad orollarida mil. avv. XVI – XV asrlarda Knoss hukmronligi o‘rnatildi. Knossga qaramlik o‘lpon to‘lash bilan cheklanib, Kiklad o‘ziga xos madaniyatni saqlab qoladi. Kiklad madaniyati uch davrga bo‘linadi: 1. Qadimgi Kiklad davri (2700 – 2300-yillar); 2. O‘rta Kiklad davri (2300 – 1500-yillar); 3. So‘nggi Kiklad davri (1500 – 1100-yillar).

Ammo mil. avv. XV asr o‘rtalarida Fera orolida otilgan vulqon Kiklad orollarining halokatiga sababchi bo‘ldi. Dengizda ko‘tarilgan ulkan sunami dengiz qirg‘og‘idagi shaharlarni vayron qildi. Inshootlarni vulqon olovi ichiga soldi. Ko‘plab kishilar halok bo‘ldi. Vulqon otilgandan so‘ng, to‘zib ketgan aholi va vayrona orolchalar Peloponnes va Bolqon Yunonistonining boshqa hududlaridan kelgan axeylar o‘ljasiga aylandi.

XIX asr oxiri XX asrdan Egey dengizi orollarida ham faol arxeologik qazilma ishlar olib borildi. Ingliz arxeologlari Antikoros orolidan jez davri yodgorliklarini topdilar. Shundan so‘ng, Melos, Seros, Spornos, Loros va Naksos orollarida arxeologik qazish ishlari olib borildi. 1932-yil yosh yunon arxeologi Spiridon Marinotos Minos orolining yirik porti Amnissni topdi. Marinotos arxeologik ishlarda Strabonning «Geografiya» asaridan keng foydalandi. 1967-yil arxeologlar Fera orolligidan Akrotir shahrini topishdi. Vulqon kullari ostidan vulqon otilishi oqibatida halok bo‘lgan shahar qoldiqlari topildi. Qazishmalar natijasida, tosh to‘shalgan ko‘chalar, katta inshootlar, uylarning ikkinchi va uchinchi qavatlari va ularga boradigan zinapoyalar saqlanib qolgan. Inshootlar devorlari-

ga ajoyib tasvirlar tushirilgan: ko‘k rangli maymunlar, antilopalar tasviri, kurash tushayotgan ikki bola, ulardan birining qo‘lida maxsus qo‘lqop. Qizil, sariq va yashil rangdagi ot va mox o‘ti bosgan qoyalar, sariq poyalardagi qizil nilufarlar, ularning ustidan uchayotgan qaldirg‘ochlar tasvirlangan. Boshqa tasvirda shaharning ko‘rinishi va ko‘p kemalar suzayotgan dengiz tasvirlanadi. Akrotir shahrida inshootlar vulqon kuli ostida yaxshi saqlanib qolgani uchun arxeologlar Akrotir shahrini Egey Pompeyasi deb atadilar.

Kiklad madaniyati jez davri madaniyati bo‘lib, orollardan jezdan yasalgan mehnat qurollari, sopol buyumlar va zeb-ziynatlar topilgan. Rassomchilikda freska tasvir san’ati yuksak rivojlangan. Kiklad madaniyati yodgorliklarida Kichik Osiyoning ta’siri ko‘rinadi. Bu orol qo‘shni sharq dunyosi bilan yaqin savdo va madaniy aloqalarga kirishgan.

«QORONG‘I ASRLAR» (MIL. AVV. XI – IX ASRLAR). YUNON SHAHAR-DAVLATLARINING SHAKLLANISHI (MIL. AVV. VIII – VI ASRLAR)

«Mening taxminimga ko‘ra, butun mamlakat bu nomda emas edi. Devkalionning o‘g‘li Ellingacha bu nom mavjud emas edi. Qachonki Ellin o‘z o‘g‘illari bilan Ftiotidada hokimiyatni bosib olganidan so‘ng boshqa shaharlar uni yordamga chaqira boshladilar, alohida qabilalar bir-biriga yaqin muloqotda bo‘lgani uchun asta-sekin ellinlar deb atala boshlandilar. Lekin bu nomni umummiqyosda ishlatish faqat yaqindagina iste’molga kirdi».

Fukidid

1. **Mil. avv. XI – IX asrlar: «Qorong‘i asrlar».**
2. **Yunon shahar-davlatlarining shakllanishi (mil. avv. VIII – VI asrlar) va uning o‘ziga xos xususiyatlari.**

3. Shaharlar va pul-tovar munosabatlari taraqqiyoti.
4. Davlat qurilishi.
5. Yunon migratsiyasi.
6. Tiraniya.

1. «Qorong‘i asrlar». Mil. avv. XI – IX asrlar. Mil. avv. XI – IX asrlarda yunon tarixiga tegishli yozma va boshqa manbalar deyarli yo‘qligi sababli tarixchilar bu davrni »Qorong‘i asrlar» deb ataydilar. Boshqa tarixchilar bu davrni Iliada va Odisseya dostonlari asosida o‘rganib, uning muallifi nomi bilan Gomer davri deb ataydilar. Mil. avv. XI – IX asrlarni Gomer davri deb nomlash munozarali. Birinchidan, Yevropa tarixchilari Iliada va Odisseya dostonlari muallifi deb qachon va qayerda yashab ijod qilgani to‘g‘risida aniq ma’lumot bo‘lmagan shoir Gomerni ko‘rsatadilar. Yana boshqa ma’lumotlarga ko‘ra, Iliada dostoni Kichik Osiyodagi Frigiya davlatida mil. avv. XI asrda yashagan shoir Daretning qalamiga mansub bo‘lgan. Plutarxning yozishicha, spartalik donishmand Likurg Kichik Osiyoga qilgan sayohati vaqtida Iliada va Odissey dostonlarini Yunonistonga ilk bor olib kelib, yunonlarni bu asarlar bilan tanishtirgan. Bu davrga oid arxeolologiya va boshqa fanlarning ma’lumotlari deyarli yo‘q edi.

Yunon urug‘-qabilalari bu davrda ibtidoiy urug‘-jamoa tuzumida yashadilar. Doriylar kichik manzilgohlarda ibtidoiy o‘zlashtiruvchi xo‘jalik hayotidan asta-sekin ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o‘tish sharoitida yashaganlar. Shimoldan kelgan etnoslar kelajakda yunon etnosini shakllantirgan doriylar mil. avv. XIII asrda Yunonistonga kirib keldilar.

Ellin va Ellada nomlari keyinchalik doriylar ilk shahar-davlatlarini barpo etib, yunon yozuvi paydo bo‘lgan mil. avv. VIII – VI asrlarda yuzaga keldi.

Fukidid bu to‘g‘risida shunday yozgan: «Meni taxminimga ko‘ra, butun mamlakat bu nomda emas edi. Devkalionning o‘g‘li Ellingacha bu nom mavjud emas edi. Qachonki Ellin o‘z o‘g‘illari bilan Ftiotidada hokimiyatni bosib olganidan so‘ng boshqa shaharlar uni yordamga chaqira boshladilar, alohida qabilalar bir-biriga yaqin muloqotda bo‘lgani uchun asta-sekin ellinlar deb atala boshlandilar. lekin bu nomni umummiqyosda ishlatish faqat yaqindagina iste’molga kirdi[1]».

Mahalliy axeylar Yunonistonning bir necha viloyatlarida yashab qoldilar. Hozirgi Makedoniya va Epir hududida yashagan doriy qabilalari o‘z hududlarini frakiya qabilalari tazyiqi ostida tark etdilar. Bu vaqtda hozirgi Yunoniston hududida yashagan axeylar zaiflashib, shimoldan kelgan doriyning hujumiga bardosh bera olmadilar. Bolqonda axey hududlarini doriylar 100 – 150-yil davomida egalladilar. Mil. avv. XI asr oxirida doriylar butun Shimoliy va O‘rta Yunonistonga o‘rnashib, Peloponnesning katta qismini o‘zlashtirdilar. Attika viloyati toshloq va unumdor yerlari oz bo‘lgani uchun doriylar hujumidan xoli bo‘ldi. Axeylarning bir qismi doriylar tazyiqi ostida Attika hududi va Egey dengizi havzasiga ko‘chdilar. Doriy qabilalari bosib olingan hududlarni o‘zaro bo‘lib oldilar. Messeniyada Kresfont, Argosda Temen boshchiligidagi doriy urug‘lari o‘rnashdilar. Doriylarning yurishi paytida vafot etgan Aristodemning o‘g‘illari – Efrisfen va Proklga Lakonika viloyati berildi. Elida viloyati doriylarning ittifoqchisi etoliyalik Oksilga taqdim etildi. Argosda o‘rnashgan doriylar chegaradosh Sikion, Flius, Trezen va Epidavrni bosib oldilar. Doriy qabilalaridan birining yo‘lboshchisi Alet Korinfni egalladi.

[1] Фукидид. История. Книга первая. стр 206. Историки античности. – Москва: Издательство Правда, 1989.

Yuksak madaniyat va siyosiy-iqtisodiy tuzum va tizimga ega axeylardan farq qilgan holda doriylar ibtidoiy jamoa turmush tarzida va harbiy demokratiya sharoitida yashar edilar. Doriylar axeylarning shaharlarini vayron qildilar. Kelgindi doriylar o‘zlarining eski an’anaviy ibtidoiy jamoa tartib-qoidalari bilan yashashni davom ettirdilar.

«Iliada» va «Odisseya» dostonlari orqali urug‘-qabilachilik tuzumida yashayotgan yunon urug‘-jamoasining uch yuz yillik hayotini oz bo‘lsa-da tasavvur qilish mumkin. Poemalarda axeylarning Troyaga yurishi, shaharning bosib olinishi, Troya urushi qahramonlaridan biri bo‘lgan Odisseyning ko‘pgina sarguzashtlardan so‘ng uyga qaytishi hikoya qilinadi. Shu tarzda, poema axey sivilizatsiyasi gullab-yashnashining so‘nggi davrini tasvirlaydi. Bu dostonlarda o‘tmish voqealari mil. avv. VIII ijtimoiy muhiti nuqtayi nazaridan zamonaviylashtiriladi. Jamoani saylab qo‘yilgan oqsoqol-basiley urf-odat va an’analar asosida boshqargan. Basiley urug‘ mulkini qo‘riqlagan, urug‘doshlarini sud qilgan va urug‘ni afsonaviy asoschisini hurmatlashga bag‘ishlangan marosimlarni boshqargan. Bu davrda yunonlarda ibtidoiy jamoa munosabatlari to‘la hukm surgan. Ayrim paytda urug‘lar o‘zlariga tegishli biror-bir umumiy masalani yechish uchun kattaroq tashkilot-fratriyaga birlashganlar. Fratriyalar birlashib, qabila – filni tashkil qilgan. Bir umumiy ajdoddan kelib chiqqan jamoa fratriya va urug‘ni tashkil etgan. Urug‘ boshliqlari bilan bir qatorda, fil va fratriyaning Iliada va Odisseya dostonlarida filobasiley deb eslatiladigan yo‘lboshchilari bo‘lib, urug‘ boshliqlari ularga o‘z hokimiyatlarining bir qismini berganlar. Bir necha urug‘lar bir qabilaga birlashib, qabilani boshqaruvchi oqsoqol saylangan.

Yunon urug‘-jamoasi kichik qishloqlarda yashagan. Urug‘ jamoasi a’zolari, urug‘ning oqsoqol-

lari ham kichik, qo‘pol qurilgan, poli tuproq, xona o‘rtasida gulxan yoqiladigan uylarda yashaganlar. Jamoa a’zolari dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanganlar. Asosiy ekin tariq edi. Xo‘jalik natural shaklda bo‘lib, savdo ibtidoiy ayirboshlash holatida edi. Iliada va Odisseya dostonlariga ko‘ra qoramol ayirboshlash vositasi bo‘lgan. «Iliada» dostonida katta uch oyoqli jez buyum 12 buqaga, mohir usta 4 ho‘kizga tenglashtiriladi. Mil. avv. XI asrda xo‘jalikda temir o‘zlashtirilib, xo‘jalik hayotini jonlanishi boshlanadi.

Yunonistonda unumdor yerlar juda kam bo‘lgan. Taqchil bo‘lgan unumdor yerlarning asosiy qismini donli ekinlar egallay boshlagan. Bog‘dorchilik, uzumchilik va zaytun daraxtlarini o‘stirish yo‘lga qo‘yilgan. Chorvachilik sohasi va hunarmandchilik rivojlanadi. Mehnat qurollari tayyorlashda temir keng qo‘llanila boshlandi. Jamoada oilalarning birgalikdagi mehnatiga o‘rin qolmadi. Temirdan yasalgan mehnat qurollari mehnat unumdorligini oshirdi. Oila moddiy ehtiyojini o‘z mehnati bilan qondirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Shu sababli, jamoa a’zolari birgalikda mehnat qilib, hosil olinadigan jamoa yerlari jamoani tashkil etgan oilalarga bo‘lib berildi. Endilikda oila o‘ziga ajratib berilgan yet ulushida mehnat qilib yetishtirilgan mahsulotni deyarli hammasiga o‘zi egalik qilish huquqiga ega bo‘ldi. Keyinchalik oilaga ajratib berilgan yerlar xususiy bo‘ldi.

Asosiy iqtisodiy birlik bu mustaqil xo‘jalik yuritish asosida tirikchiligini o‘tkazadigan, tashqi dunyo bilan aloqasi bo‘lmagan, oddiy turmush kechiradigan patriarxal dehqon oilasi bo‘lgan. Har bir oila iqtisodiy mustaqil birlik bo‘lib, ular huquqlarda teng edilar. Jamoada shakllanayotgan urug‘ zodagonlari jamoani o‘z nazorati ostiga olishga urinar edilar. Jamoa tashkilotining vazifasi aholini va hududni qo‘sh-

nilar bosqini va tazyiqidan himoya qilib, jamoaning ichki munosabatlarini tartibga solish bo‘lgan. Hali davlat tashkiloti yuzaga kelmagan edi. Bu dunyoda hali katta yer egalari, yersiz, birovga qaram oilalar, odamlar va jamoa a’zolari yo‘q edi. Temir mehnat qurollarining paydo bo‘lishi, mehnat unumdorligining o‘sishi bilan ko‘plab mayda erkin dehqon xo‘jaligi paydo bo‘ldi. Yunonistonda asosiy ishlab chiqaruvchi mayda dehqon xo‘jaligi bo‘ldi. Jamoaning alohida bir ko‘rinishi sifatida jamoa-polis jamiyat tashkilotining asosiy shakli bo‘ldi. Keyinchalik dehqon jamoasi «polis» ya’ni shahar-davlatga aylandi. Mil. avv. IX asr oxirida yunon viloyatlarining barchasi katta-kichik qishloqlarni birlashtirgan yuzlab kichik polis-jamoalar tashkil topa boshladi.

Mayda yer egalari bo‘lgan dehqonlar o‘rtasida asta-sekin tabaqalanish sodir bo‘ldi. Dehqonlar orasidan uddaburon, tadbirkor va kecha-kunduz mehnat qilib boyib ketgan dehqonlar paydo bo‘ldi. «Odisseya» va «Iliada» dostonlarida, yunon jamoasidagi mulkiy tabaqalanish, urug‘chilik munosabatlarining zaiflashayotgani, basileylar, ya’ni urug‘-qabila yo‘lboshchilari bilan hokimiyatga intilayotgan urug‘ zodagonlari – evpatridlarning jamoadan ajralb chiqayotganini kuzatish mumkin. Lekin qandaydir sabablar qurg‘oqchilik, hosilsizlik va boshqa sabablar bilan kambag‘allashib, yeridan ajralib, qarzdor dehqonlar ham ko‘paydi. Bunday dehqonlar boshqalarga yollanib ishlash yoki boshqa kasblarni egallashga majbur bo‘ldilar. Xo‘jalik rivojlanishi bilan asta-sekin mehnat taqsimoti natijasida dehqonchilikdan hunarmandchilik ajralib chiqadi. Poemalarda temirchi, tosh teruvchi, duradgor va kema yasovchilar to‘g‘risida hikoya qilinadi. Hunarmandchilikning kulolchilik sohasida protogeometrik usul shakllandi. Ozod fuqarolar bilan bir qatorda, qullar ham mehnat qilganlar. Qullar ke-

chagi o‘z yeridan ajralib xonavayron bo‘lgan, qarzga botib o‘zini sotgan kechagi dehqonlar qullarga aylandi. Qulchilik hali xonaki shaklda ko‘rinadi. Ularning soni ko‘p emas edi. Xo‘jayin qul bilan yonma-yon jismoniy mehnat qilishdan hali jirkanmagan. Odisseyning xotini Penelopa kalava yigiradi, otasi Laert yerda ishlaydi. Navsakiya kir yuvadi. Odissey sol, Paris butun bir saroy quradi. Odisseyning xo‘jaligida 50 ta qul bo‘lgan.

Dafn marosimlari o‘zgardi. Endilikda tuproqqa dafn etish o‘rniga jasadni krematsiya qilish (yoqish) rasm bo‘ldi.

2.Yunon shahar-davlatlarining shakllanishi (mil.avv VIII – VI asrlar) va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Qadimgi yunon jamiyatining iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va mafkuraviy tashkilotining asosiy shakli polis edi. Polis – jamoaning alohida ko‘rinishi bo‘lib, dehqonlarni birlashtirgan yerda ishlovchilar jamoasi edi. Yunon polisining asosini, uning taraqqiyoti va shakllanishini belgilaydigan asosiy shartlari quyidagicha edi: Yunon jamoasi a’zosi bo‘lgan dehqon yerga egalik qilish huquqiga ega edi; polis hududida mavjud bo‘lgan dehqon jamoasidagi har bir dehqon yer ulushiga ega bo‘lishi shart edi; yerga egalikning oliy huquqi fuqarolar jamoasiga tegishli edi; Polis tashkilotining ajralmas qismi fuqarolik muassasasi edi; Polis aholisi **to‘la huquqli** fuqarolar, **to‘la huquqga ega bo‘lmagan** va umuman **huquqi bo‘lmagan** aholi toifalaridan iborat edi. Polis jamoasi tarkibiga kirgan fuqarolar iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy huquqlarning majmuasiga ega edilar. Faqat polis fuqarolarigina polis aholisining imtiyozli qismini tashkil etar edi.

Fuqaroning asosiy ramzi ozod kishi mavqeyi edi. Yunon fuqarolik mavqeyini fuqaro ota-onadan tug‘ilishi bilan olar edi. Fuqarolik huquqini boshqa polisdan kelganlarga sovg‘a qilishga faqat polis xalq yig‘i-

ni haqli edi. Oligarxiya hukmron bo‘lgan polislarda fuqarolik mavqeyiga ega bo‘lish uchun fuqaro mulkiy senz, yerga egalik, og‘ir qurol-aslahasi mavjudligi shartlarini bajarishi lozim edi. Polisning iqtisodiy asosini qishloq xo‘jaligi, yerga fuqaroning erkin mehnat qilishi tashkil etar edi. Yerga egalik, dehqonchilik uzoq vaqt polis fuqarosining imtiyozi bo‘lib qoldi. Polis fuqarosidan boshqa hech kim uning hududida yerga egalik qilish huquqiga ega emas edi. Polis fuqarolar jamoasiga tegishli jamoa yerlariga egalik qila olmas edi.

Har bir fuqaroning eng muhum huquqi va bir vaqtning o‘zida majburiyati, bu fuqaroning o‘z polisini himoya etishda shaxsan ishtirok etishi edi. Yunon polisining ajralmas qismi – fuqarolik jamoasida o‘z-o‘zini boshqarish edi. Xalq yig‘ini, kengash, sud va ijroiya hokimiyati lavozimlari fuqaro jamoasining qo‘lida bo‘lib, hech qachon undan ajralmadi Uncha katta bo‘lmagan yunon polislari muntazam qo‘shin saqlash qobiliyatiga ega emas edilar. Shu sababli, uning himoyasi erkaklar zimmasida edi. Qo‘shinning asosini tashkil qilgan og‘ir qurollangan falangani o‘rtahol fuqarolar qatlami – dehqonlar tashkil etar edi.

Polis jamiyatida barcha huquqiy normalar manbasi xalq yig‘inida ishlab chiqilgan qonun edi. Fuqarolarning qonunlarni ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirishdagi ishtiroki ajralmas huquq edi. Lekin bu fuqarolar aholining ozchilik qismini tashkil etgan. Shunday qilib, polis fuqarolik jamoasi a’zolari bo‘lgan shahar va qishloq aholisi uyushgan yopiq jamoani tashkil qilib, o‘z imtiyozlari va huquqlarini qat’iy saqlab, himoya qilar edi.

Polis hududi shahar va uning atrofidagi qishloqlarni o‘z ichiga olgan. Yunon shahar-davlatlari hududi va aholisi soni bo‘yicha har xil bo‘lgan. Umuman

qadimgi yunon shahar-davlatlarining barchasida bor-yo‘g‘i 500-550 aholi yashagan. Eng katta shahar-davlat Sparta hududi 8400 km^2 bo‘lib, aholisi 150-200 ming kishi, Afina hududi 2500 km^2, aholisi 120-150 ming kishi. Hududi 30-40 km^2, aholisi 5-12 ming kishi, ulardan to‘laqonli fuqaro erkak-jangchilar, aholisi 1000 kishidan 2000 ming kishigacha bo‘lgan yunon shahar-davlatlari ham bor edi. Maydoni 30-40 km^2 (5x8 km) aholisi bir necha yuz kishi bo‘lgan polislar ham mavjud bo‘lgan. Shu tarzda yunon polisi mitti davlat bo‘lib, uning hududini 2-3 kunda piyoda aylanib chiqish mumkin edi.

Polis – shahar-davlatning uncha ko‘p sonli bo‘lmagan fuqarolari bir-birlarini yaxshi tanigan, har bir fuqaroning kelib chiqishi va yurish-turishi barchaga ma’lum bo‘lgan polis-davlat hududi markazida shahar bo‘lgan. Qadimgi yunon polis-shahar-davlatlari mil. avv. VIII – VI asrlarda shakllandi. Polisda qishloq aholisining bir qismi hunarmandlar, savdogarlar yashagan, xalq yig‘ini o‘tkaziladigan joy ibodatxona bo‘lgan. Odatda, ilk shaharlar tabiiy port va qulay gavanlar mavjud bo‘lgan dengiz sohilida joylashgan. Shahar-davlatlar 200 yil davomida shakllandi, har bir shaharda asta-sekin mustahkamlangan gala-akropol bunyod qilingan, bu yerda ibodatxona, shahar xazinasi binosi bo‘lgan. Akropol yonida bozor – agora maydoni bo‘lib, bu maydonda bayramlar, sport musobaqalari va xalq yig‘ini o‘tkazilgan. Polis atrofidagi bir necha qishloqlar ham shu shahar-davlat tarkibiga kirgan. Aslida ana shunday qishloqlar kelajakda kichik shahar-davlatga aylangan. Misol uchun, Sparta shahri 5 qishloq asosida shakllangan. Shahar davlat boshqaruvi markazi bo‘lgan. Polisda aholi asosan uzumchilik, zaytun ekini, hunarmandchilik, savdo bilan shug‘ullangan. Aholining ijtimoiy

qatlami asosan, mayda dehqonlar, hunarmand-savdogarlardan tashkil topgan.

Mil. avv. VIII asrdan boshlab shakllana boshlagan yunon shahar-davlatlarida 200 yil davomida o‘z fuqaroligi, qonunlari, hokimiyat organlari, ibodatxona, teatr, xalq yig‘ini o‘tadigan maydon, palestr, gimnaziy va stadion kabi jamoat inshootlari vujudga kelgan. Yunon polislarining barchasi Spartadan tashqari, shahar atrofida birlashgan bir necha qishloq majmuasi edi. Sparta 5 qishloq birlashgan polis edi. Har bir polis vaqt o‘tishi bilan polis tuzilmasi tugallangan shaklni oldi va barqaror fuqarolik siyosiy tashkiloti (demokratiya yoki oligarxiya) shaklida faoliyat ko‘rsata boshladi. Har bir yunon polisi suveren davlatga aylangan.

3. Shaharlar va pul-tovar munosabatlari taraqqiyoti. Mil. avv. VII asrda Yunon shaharlarida savdo-hunarmandchilik tez sur’atlarda taraqqiy qildi. Shaharlar sezilarli darajada o‘sdi. Korinf va Afinada 25 ming, Miletda 70 ming, Sibaris shahrida 50 ming kishi yashar edi. Dengiz bo‘yidagi shaharlar dengiz savdosi bilan shug‘ullangan. Bu kemasozlikning rivojiga sabab bo‘ldi. Mil. avv. VII asrda palubali ko‘p yuk ko‘taradigan kemalar paydo bo‘ldi. 50 eshkakli Finikiya pentekopterlari bilan bir qatorda «Iliada» dostonida eslatiladigan ikki qatorli eshkaklar – diyeralar, uch qatorli – triyeralar paydo bo‘ldi. Mahsulot bilan to‘la kemani endilikda qirg‘oqga tortib chiqarish mumkin emas edi. Shu sababli, mil. avv. VII asrdan port va gavanlar qurilib, langar (yakor)dan foydalanila boshlandi.

Mil. avv. VIII asrda O‘rtayer dengizi savdosi finikiyaliklar qo‘lida edi. Sharq mahsulotlari mo‘l-ko‘l bo‘lib, yunon mahsulotlari yuqori sifatli sharq mahsulotlari bilan raqobat qila olmas edi. Mil. avv. VII asrda yunon savdogarlari finikiyaliklar bilan raqo-

batlasha boshladilar. Yunonlar keramika, gazlama, zaytun va vino eksport qila boshladilar. Pul-tovar xo‘jaligi, savdo o‘lchov birliklari tizimi va yozuvning shakllanishiga olib keldi. O‘lchov birligi va yozuv Finikiya, Bobil va Misrdan o‘zlashtirib olindi. Yunonlar Misrning o‘nlik sanoq tizimidan foydalandilar. Mil. avv. VII asrda ilk bor tanga pul paydo bo‘ldi. Birinchi to‘laqonli tangalar Kichik Osiyodagi yunon bo‘lmagan mahalliy Lidiya shahar-davlatida zarb qilindi. Oltin va kumush aralashmasidan iborat elektron deb ataladigan tanga zarb qilindi. Tangalar uzunchoq shaklda, bir tomonida davlat ramzi, ikkinchi tomonida kvadrat tasviri tushirilgan edi. Kichik Osiyodagi yunon tayanch nuqtalari Lidiyaning tanga-pulini o‘rgandilar. Dastlabki yunon pul birligini 436,5 g og‘irlikdagi mina tashkil qilgan. Bir mina 8,73 g og‘irlikdagi 50 staterga bo‘lingan.

Hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi sababli bu soha bilan shug‘ullanadigan aholi orasidan boy hunarmand-savdogarlar ajralib chiqdi. Ustaxona egalari va savdogarlardan iborat kuchli ijtimoiy qatlam vujudga keldi. Bu qatlam siyosiy hokimiyatdan mahrum edi. Ular siyosiy boshqaruvda hukmron bo‘lgan urug‘ zodagonlarini chetlatishga urindilar.

Pul-tovar munosabatlari, savdoning rivojlanishi, Italiya, Sitsiliya va Qora dengizbo‘yidan arzon g‘allaning import qilinishi yunon polislarida qishloq xo‘jaligining tushkunligi va g‘alla ekadigan dehqonlarning xonavayron bo‘lishiga olib keldi. Bu jamiyatda ijtimoiy tabaqalar o‘rtasida ziddiyatlarni keskinlashtirdi. Tashqi dunyo bilan savdo yo‘lga qo‘yilishi yunonlarning ibtidoiy natural xo‘jalikdan dehqonchilik va hunarmandchilikka o‘tishiga qulay shart-sharoit yaratdi. Hosildor yerlar taqchil bo‘lgani sababli aholining bir qismi o‘zga yurtlarga chiqib ketishga majbur bo‘ldi.

4. Davlat qurilishi. Yunon urug‘ qabilalarida urug‘-qabilachilik munosabatlari uzoq davom etdi. Lekin mil. avv. VIII asrdan ortiqcha mahsulotning paydo bo‘lishi, xususiy mulkni keltirib chiqardi. Joylarda urug‘ qabila oqsoqollari – basileylar hokim, ya’ni podshohlarga aylandilar. Lekin podshoh hokimiyati uzoq davom etmadi. Boshda hokim – podshoh hokimiyati Beotiya, Argos, Elida va Korinfda mil. avv. 584-yilda tugatildi. Faqat birgina Sparta davlatida podshohlik hokimiyati saqlanib qoldi. Hokimiyat boy-zodagonlar – evpatridlar qo‘liga o‘tdi. Qadimgi davrda sud ishlarini urug‘ jamoasining o‘zi bajarar edi. Davlat hokimiyati urug‘dan bu funksiyani tortib oldi. Zodagonlar uzoq vaqt sud hokimiyati, boshqaruvni o‘z qo‘llarida saqlab turdilar. Vaqt o‘tishi bilan ular bir qism hokimiyatni yangi ijtimoiy kuchlarga berishga majbur bo‘ldilar. Yangi ijtimoiy kuchlar bo‘lgan savdo-hunarmandlar tabaqasi zodagon sudyalar hokimiyatiga chek qo‘yish uchun odatdagi huquqni yozishni talab qildi. Jamiyat yana olg‘a qadam tashlab, savdo munosabatlarini muvofiqlashtirishga, majburiy qoidalarini kiritish ehtiyojini tug‘dirdi. Qonunlarning eng qadimgi kodifikatsiyasini Lokrada Zalevk (Italiyadagi yunon shahrida) Katanada Xarond (Sitsiliyadagi yunon shahri)da amalga oshirdi.

Yunon shaharlarida odatdagi huquqni yozish va yangilash barchaning hurmatiga sazovor bo‘lgan «diallakt» murosaga keltiruvchi yoki «aysyumet» – adolatni biluvchi kishilarga ishonib topshirilgan. Yunon an’analariga ko‘ra, «yetti dono»dan 5 tasi Lesbosdagi Mitilena shahrida Pittak, Sirakuzada Diokl, Fivada Filolay, Afinada Drakont va Solon shunday kishilardan bo‘lib, ular sud-qonunchilik masalalari bilan shug‘ullanganlar.

Yangi qonunchilik natijasida, sudyalar mansabdor shaxs sifatida saylab qo‘yiladigan bo‘ldi. Chiqaril-

gan hukmni xalq yig‘inida appelyatsiya (qayta ko‘rib chiqish) qilish mumkin edi. Qadimgi qonunchilikda jazo turi va darajasi aniq belgilanib, sudya o‘zicha jazo belgilay olmas edi. Huquqiy hujjatlarda «qonga-qon», «jonga-jon» olish an’anasi mavjud edi (talion huquqi). Jazo juda og‘ir edi. Drakont qonunchiligida (mil. avv. 622-yil) jinoyatning og‘ir, yengil shakllari yo‘q edi. Faqat Solon bu tushunchani kiritdi. Drakont qonuniga ko‘ra, har qanday o‘g‘rilik uchun o‘lim jazosi belgilangan. Bundan tashqari, qonunda pul jarimasi, qullikka sotish, kaltaklash va fuqarolik huquqidan mahrum qilish ko‘zda tutilgan edi. Qarzini to‘lamagani uchun qarzdor turmaga qamashga hukm qilingan. Drakont qonunlari «fonos dikayos» o‘zini himoya qilish maqsadida odam o‘ldirish jinoyati tushunchasini olib kirdi. Bu holda, aybdor quvg‘in qilinishi yoki pul jarimasi to‘lashi ko‘zda tutilgan. Tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi natijasida, ijtimoiy ziddiyatlarni keskinlashuvi turli yunon shaharlarida siyosiy vaziyatni murakkablashtirdi. Shunday vaziyatlarda hokimiyat tiranlar qo‘liga o‘tdi.

Mil. avv. VIII – VI asrda yunon migratsiyasida Afina qatnashmadi. Attikada mavjud bo‘lgan ozgina hosildor yerlardan qishloq xo‘jaligida unumli foydalanildi. Attika aholisi o‘ziga zarur oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojini qondirgani uchun bu hududda aholi ochlikdan qiynalmadi. Kulolchilik sohasi rivojlanib tez orada Afina o‘zining yuqori sifatli kulolchilik mahsulotlari bilan shuhrat qozondi. Lekin Attikada ham tez orada mulkiy tabaqalanish boshlanib, ijtimoiy ziddiyatlar kuchaydi. Siyosiy hokimiyat urug‘ zodagonlari – evpatridlar qo‘lida edi. Yevpatridlarga qarshi dehqonlar, savdo-hunarmandchilik tabaqalari – demos o‘z huquq va manfaatlari uchun qat’iy kurash boshladi.

5. Yunon migratsiyasi. Mil. avv. I mingyillikning boshlarida ilk bor finikiyaliklar begona hududlarda

o‘zlarining tayanch nuqta (koloniya – manzilgoh)larini barpo qila boshladilar. O‘zga hududlarda finikiyalik savdogarlar tashkil etgan manzilgohlar savdo-sotiq olib boriladigan tayanch nuqtalar bo‘lib xizmat qilgan. Finikiyaliklardan so‘ng yunonlar ham bu jarayonda faol ishtirok etdilar.

Yunon migratsiyasi, asosan, 3 geografik yo‘nalishda bordi: Shimoliy Qoradengiz havzasi; Kichik Osiyoning g‘arbiy qirg‘og‘i va Apennin yarimorolining janubi va Sardiniya, Korsika va Sitsiliya orollarining ayrim qismlari. Yunonlar ilk bor Egey dengizi havzasiga chiqa boshladilar. Ularning boshqa hududlarga ko‘chib borib joylashuvi mil. avv. VIII – VI asrlarga to‘g‘ri keladi. Bu davr g‘arb tarixiy adabiyotida buyuk yunon kolonizatsiyasi deb ataladi. Bu tushuncha g‘arb tarixiy adabiyotida keng qo‘llaniladi. Xo‘jalikda endigina ibtidoiy urug‘chilik munosabatlari yemirilib, xo‘jalik tabiiy holatda bo‘lgan, unumdor yerlar taqchil bo‘lgan Yunonistonda yunonlarni ochlik, nochorlik non izlab o‘zga yurtlarga ko‘chib borishga majbur qildi.

Yunonlarning mil. avv. VIII asrda o‘zga yurtlarga boshlagan, qariyb 200 yil davom etgan ommaviy migratsiyasining bir necha sabablari bor edi. Birinchi sabab, ma’lumki, har qanday jamiyatni yashashini asosi birinchi navbatda moddiy ne’mat yaratishdir. Yunonistonning o‘zida dehqonchilik qilish uchun yaroqli bo‘lgan yerlar deyarli yo‘q edi. Oziq-ovqat taqchilligi qadimgi Yunonistonda aholining tirik qolish, yashash manbalarini izlash uchun boshqa hududlarga ko‘chishiga sabab bo‘ldi. Aholining ko‘p qismi begona hududlarga ko‘chib ketib, yangi yerlarni o‘zlashtirishga majbur bo‘ldi.

Yunon migratsiyasining yana bir sababi mil. avv. VIII asrda arxaik davrning boshlanishida aholi sonining keskin o‘sishi natijasida demografik portlash

yuz bergani. Ekin yerlari taqchilligi yashash manbayi bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlarining taqchilligiga olib keldi. Yunonlarning ommaviy ravishda o‘zga yurtlarga chiqib ketishining ijtimoiy sabablari ham bor edi. Kambag‘allashgan jamoachi dehqonlar o‘zlarining boyib ketgan zodagon (evpatrid) qarindoshlariga qarzdorligi uchun qul bo‘lishni xohlamadilar. Ular o‘zlarining qarzlari uchun garovga qo‘yilgan bir parcha yerlarini ham tashlab ketishga majbur bo‘ldilar. Ular uchun yagona yo‘l boshqa hududlarga ketish edi. Arxaik Yunonistonning qishloqlari bu vaqtda ancha rivojlandi. Temir qurollarning xo‘jalikda keng qo‘llanila boshlanishi dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo rivojlanishiga olib keldi. Ayirboshlash xo‘jalik hayotida sezilarli o‘rinni egallay boshladi. Boshqa joylar bilan mahsulot ayirboshlashni o‘ziga kasb qilib olgan kishilar paydo bo‘ldi. Aholi gavjum bo‘lgan qishloqlar kichik shaharlarga aylana boshladi.

Yunon shahar-qishloqlarida ijtimoiy tabaqalanish kuchaydi. Shahar aholisining turli tabaqalari o‘rtasida ijtiomoiy-siyosiy kurash kuchayib ketdi. Aholi o‘rtasida tabaqaviy ijtimoiy-siyosiy kurash kambag‘alqashshoqlarni o‘zga yurtlarga chiqib ketishining yana bir sababi edi. Ayrim hollarda, siyosiy kurashda yengilgan guruh shaharni tashlab ketishga majbur edi. Shuningdek, savdo-hunarmandchilikning rivojlanishi xomashyoga bo‘lgan ehtiyoj yangi hududlarni izlab topish zaruriyatini tug‘dirdi. Bundan tashqari, arxaik davrda Yunonistonning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlangan viloyatlarida fuqarolarni qarzi uchun qul qilish qonun bilan taqiqlandi. O‘sib borayotgan iqtisodiyot uchun arzon ishchi kuchi – qullarga bo‘lgan talabni qondirish uchun begona hududlardan qullarni olib kelish va dengiz qaroqchiligi kuchaydi. Yunon migrantlari ko‘p hollarda yangi qul bozorlarining tashkilotchilari bo‘ldilar.

Begona joylarda yunonlar o‘z tayanch nuqtalarini ba’zida mahalliy aholi bilan kelishgan holda, ko‘p hollarda mahalliy aholi yerlarini kuch bilan tortib olish bilan barpo qildilar. Dastlab, yunonlar Kiklad, Sporada orollari va Kichik Osiyoning g‘arbiy qirg‘oqlariga borib o‘rnashdilar.

Kichik Osiyo bo‘lg‘usi yunon davlatchiligi va fan-madaniyati rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Yunonlar bu hududda sharqning boy madaniyatini o‘zlashtirib oldilar. Kichik Osiyoda yunonlar Milet, Efes, Smirna, Kolofon, Fokeya va Samos, Xios orollarida manzilgohlarga asos soldilar. Bu manzilgohlar kelajakda muhim savdo o‘choqlariga aylandi. Yunonlarning migratsiyasi boshqa etnoslarning migratsiyasidan farqi – ular mahalliy aholidan ajralgan holda alohida manzilgohlarda yashadilar. Bu yerdagi yunonlar o‘zlarining kelib chiqishlarini Pelepponnes axeylaridan deb hisoblar edilar.

Yunonlar shimoli-sharqiy Afrikaga, ya’ni Misrga ko‘chib bordilar. Mil. avv. VII asrda Misrda yunonlarning tayanch nuqtalari vujudga keldi. Bu yerda yunonlar Navkratis manzilgohini barpo qildilar. Shimoliy Afrikada Liviya qirg‘og‘ida Kirena manzilgohiga asos solindi. Ammo yunonlarning g‘arbga siljishini Karfagen, janubiy-sharqda esa Misr to‘xtatdi. Misr va Karfagen yunonlarning suqilib kirishiga keskin qarshilik ko‘rsatdilar. Shu sababli, yunonlar Nil havzasida birgina Navkratis manzilgohi (mil. avv. VI asr) bilan cheklanishga majbur bo‘ldilar. Bir necha ming yillik an’anaviy, boy madaniyat va davlatchilikka ega bo‘lgan misr xalqi yunonlarga o‘z yerlarini berishni istamadi va o‘zining asriy urf-odat va qadriyatlarga sodiqligini amalda ko‘rsatdi. Misrda Sais sulolasi fir’avni Apriy (Uax-ab-Ra- mil. avv. 589 – 570) yunon savdogarlari va yollanma askarlarga homiylik qilgani uchun misr xalqi Apriyni taxtdan

tushirib, uning o‘rniga harbiy boshliq Yaxmos II (Amasis)ni taxtga chiqardi.

Mil. avv. VII – VI asrlarda yunonlar ko‘chib borgan barcha hududlarda xo‘jalik hayotini yo‘lga qo‘ydilar. Bu manzilgohlar xo‘jalikning bir necha yo‘nalishida rivojlandi. Janubiy Italiyaga ko‘chib borgan yunon dehqonlari qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishga, Qora dengiz bo‘yidagi Milet yunonlari savdoga ixtisoslashgan edi. Janubiy Italiyada Metapont va Sires, Sibaris, Posidoniya kabi yunon manzilgohlari qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanar edi. Bu yerda spartaliklar asos solgan Tarent manzilgohi bu hududdagi boshqa yunon manzilgohlari orasida yetakchi o‘rinni egalladi. Tarent yunonlari Sparta shevasini va boshqaruv uslubini to‘liq saqlab qoldilar.

Sitsiliya orolida Evbey Xalkidasi yunonlari mil. avv. 735-yil atrofida Naksos, Katanu va Leontiano, Zankli (keyingi Messana) hamda Regiy manzilgohlarini barpo qildilar. Shimolda Gaetan qo‘ltig‘ida Qum manzilgohiga asos solindi. Lokrlar Italiyaning Zefir burnida Zefir Lokri (hozir Kap Spartivento)ni, Korinf aholisi Sitsiliyaga vaqt o‘tishi bilan yunon g‘arbini bosh markazi va metropoliya rolini o‘ynagan Sirakuza manzilgohini barpo qildilar. Sirakuza o‘z navbatida, Akr va Kamerina manzilgohini barpo qildi. Megara Gibliya Megarasi va Seluninga, rodosliklar Agrigent manzilgohiga asos soldilar. Shunday qilib, yunon migrantlari Sitsiliyaning sharqiy va janubiy qismini egalladilar. Mil. avv. VII asrda Liguriya qirg‘og‘idagi Rodan daryosi havzasida fokiyaliklar Massiliya (hozirgi Marsel), Janubiy Italiyada Eleya manzilgohlariga asos soldilar.

Yunonlarning janubiy Italiya, Korsika, Sardiniya va Sitsiliya orollari, shuningdek, unga yaqin hududlarga ko‘chishiga etrusklar, finikiyaliklar va boshqa mahalliy aholi qarshilik qildi. Orolning g‘arbida bu

yerga yunonlardan ilgari kelgan finikiyaliklar hukmronlik qilgan. Vaqt o‘tishi bilan yunonlar finikiyaliklarning mulklariga ko‘z olaytira boshladilar. Natijada, orolning g‘arbida Finikiya yerlari qisqarib, faqat Finikiyaning uch nuqtasi: Solunt, Panorm (hozirgi Palermo) va Motiya qoldi.

Mil. avv. VI asrda yunonlarning Italiya va Sitsiliyadagi manzilgohlari oyoqqa turdi. Bolqon Yunonistonidan ko‘ra, bu yerda savdo-hunarmandchilik va dehqonchilik yuqori darajada rivojlanib, Buyuk Yunoniston nomini oldi. Bu tayanch nuqtalarda qishloq xo‘jaligi, savdo-hunarmandchilik yaxshi rivojlandi. Sitsiliya va Italiyadagi yunon manzilgohlaridan g‘alla Yunoniston va Kichik Osiyoga eksport qilindi. Yunonlar ko‘chib borgan hududlarida Yunonistondagidek shahar-davlat boshqaruvini tashkil etdilar. Atrof hududlar, xalqlar bilan savdo-xo‘jalik aloqalarini yo‘lga qo‘ydilar. O‘z urf-odat va tillarini saqlab qolib, o‘z vatanlari bilan aloqani uzmadilar.

Yunon migrantlari o‘zlari o‘rnashgan hududlarda alohida manzilgohlarda yashadilar, mahalliy aholi bilan aralashib ketmadilar. Mahalliy aholi bilan munosabatlar bir tekisda bo‘lmadi, ular mahalliy aholini ochiq ko‘ngilligi va mehmondo‘stligidan foydalandilar va ular bilan o‘zlari uchun foydali bo‘lgan savdo-ayirboshlashni yo‘lga qo‘ydilar.

Yunonlar eng avvalo, sharq dunyosining bir necha ming yillar davomida to‘lagan madaniy-ma’naviy yutuqlarini o‘zlashtirdilar. Finikiya alfavitini o‘zlashtirib, o‘z alifbolarini yaratdilar. Sharq diniy e’tiqodini, astronomiya, matematika va boshqa fanlarda erishgan yutuqlari asosida kelajakda yaratiladigan yunon fani ravnaqini ta’minladilar. Zardushtiylik diniy-falsafiy ta’limotining asosiy g‘oyalari yunon falsafasiga tatbiq qilindi. Sharq falsafasining ezgulik va yovuzlik to‘g‘risidagi g‘oyalari, dunyoning asosi-

ni tashkil etgan olov, suv, tuproq va havo unsurlari to‘g‘risidagi zardushtiylik ta’limoti g‘oyalari yunon faylasuflari Geraklit va boshqa faylasuflar asarlarida o‘z aksini topdi. Yunon migrantlari sharq dunyosi bilan Yunoniston o‘rtasida muntazam madaniy, savdo aloqalarini rivojlantirdilar. Yunonistonga oziq-ovqat mahsulotlarini uzluksiz yetkazib turdilar. Sharqning davlat boshqaruvi, harbiy san’atidagi yutuqlari o‘zlashtirib olindi.

Sharqda Xalkida yarim oroli Evbeydagi Xalkida aholisi tomonidan, Epir qirg‘og‘idagi (hozirgi Korfu) Kerkira oroli korinfliklar tomonidan bosib olindi. Korinfliklar Ambrakiy qo‘ltig‘ida Ambrakiya va Anaktorn; Illiriya qirg‘og‘ida Appoloniya va Epidamn manzilgohlariga asos soldilar. Qoradengiz qirg‘oqlarida Kichik Osiyodagi yunonlarning eng kuchli savdo markazi Miletning fuqarolari o‘nlab manzilgohni barpo qildilar. Abidos, Sinop, Koteo, Kerasun va Trapezund; Qora dengizning shimoli, shimoliy-g‘arbiy qirg‘oqlarida Olviya, Appoloniya, Odessa, Toma, Tira, Feodosiya; Bosforda Kalxidon (megaralilar asos solgan); Qora dengizning Yevropa qirg‘og‘ida Vizantiya, Gerakleya manzilgohlari paydo bo‘ldi. Bu manzilgohlarda o‘rnashgan yunon migrantlarining asosiy mashg‘uloti savdo-hunarmandchilik va dehqonchilik edi. Qoradengiz shimolidagi yunon migrantlari dehqonchilik bilan shug‘ullanib, o‘z vatanlariga g‘alla eksport qildilar.

Yunonlarning o‘zga yurtlarga ko‘chib ketishi va o‘zlari borgan hududlarda tayanch manzilgohlar barpo qilishi qadimgi Yunonistonning keyingi taraqqiyotini belgiladi. Chindan bu oddiy migratsiya emas edi, amalda yunonlar bu hududlarni egallab o‘z vatanlarini iqtisodiy rivojlanishini ta’minladilar. G‘arb va Sharqda yunon migrantlarining ko‘p sonli tayanch nuqtalari barpo qilinishi O‘rtayer dengizi

savdosidan finikiyaliklarning siqib chiqarilishi Yunon shahar-davlatlarini turg‘un, yopiq mamlakatdan rivojlangan mamlakatga aylanishiga olib keldi. Yunonlar sharqning rivojlangan savdo-hunarmandchilik, markazlari bo‘lgan shaharlar – hududlar bilan tanishdilar.

Yunonlar o‘zga yurtlarda boshda yarim yerto‘la, chaylalardan tashkil topgan manzilgohlarda yashaganlar. Bunday manzilgohlar Qrim yarim orolidagi Olviya shahri misolida ko‘rish mumkin. Bo‘lajak Olviya shahri hududiga mil. avv. VI – V asrlarda kelgan yunonlar bir necha asr yashagan yarim yerto‘la shakldagi turarjoylari arxeologlar tomonidan qazib ochilgan. Bu yarim yerto‘lalar tuproq polli, loy o‘choqlar va yerto‘laga tuproq zinapoyadan kiriladi. Manzilgoh uchun tabiiy jihatdan yaxshi himoyalangan joyda, bir tomoni dara bo‘lgan yoki qirg‘oq tanlangan. Vaqt o‘tishi bilan manzilgoh xandaq, tuproq uyumi yoki g‘ov bilan o‘rab olingan. Bu yarim yerto‘lalardan iborat manzilgohlarda yashagan yunonlar mil. avv. V – IV asrlarda yer ustida qurilgan loy-paxsadan qurilgan uylarga ko‘chib o‘ta boshlaganlar. Manzilgohning haqiqiy tayanch nuqta yoki shaharga aylanish jarayoni 200 – 300-yilni o‘z ichiga olgan. Barcha manzilgohlar ham shaharga aylanavermagan, ularning ba’zilari dushman hujumi yoki mahalliy aholining hujumiga uchrab yo‘q bo‘lib ketgan. Boshqa hududlarda ham yunon manzilgohlari ana shu jarayonni boshdan kechirgan.

Yunon tayanch nuqtalarida yashovchi aholining etnik tarkibi kelgindi yunon dehqonlari va mahalliy etnoslar vakillaridan iborat bo‘lgan. O‘zga yurtlarda o‘rnashib qolgan yunonlar savdo-hunarmandchilik va dehqonchilik bilan shug‘ullandilar. O‘z yurtlari bilan savdo-ayirboshlashni yo‘lga qo‘ydilar. Natijada yunon tashqi savdosi paydo bo‘ldi. Asosiy savdo den-

giz orqali olib borildi, bu o‘z navbatida kemasozlik va dengizchilikning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga olib keldi. Tashqi savdoning o‘sishi, hunarmandchilikning taraqqiyotiga olib keldi. Yunonlar xalqaro savdo bilan shug‘ullana boshladilar. Miloddan avvalgi VI asr o‘rtalaridan yunonlar xalqaro savdo yo‘llarini egallashga harakat qila boshladilar. Bu davrda Finikiya va Karfagen savdogarlari xalqaro dengiz savdosida yetakchi edilar, ular uchun yunonlar O‘rtayer dengizi va Egey dengizi havzasida jiddiy raqobatchiga aylandilar. Yunonlar katta foyda keltiradigan qul savdosi bilan ham shug‘ullandilar va qul bozorlarini ochdilar. Shahar-davlatlari iqtisodiyotining barcha sohalarida qul mehnatidan foydalanila boshlandi. Yunon viloyatlari ibtidoiy jamoa davridan chiqib, savdo-hunarmandchilik rivojlangan hududlarga aylandi.

Sirakuza. O‘zga yurtlarda ko‘chmanchilik qilgan yunonlar o‘z manzilgohlarini asta-sekin shahar davlatlarga aylantirdilar. Qulay vaziyatdan foydalanib, ayrim hududlarda kuchayib ketgan yunon shaharlari qo‘shni hududlarni o‘zlariga qaram qilish uchun ekspansiv siyosat yuritdilar (Sitsiliyadagi Sirakuza). Sitsiliya orolidagi yunon-shahar davlatlaridan biri Sirakuzada Geron tiraniyasidan so‘ng demokratik tuzum qaror topdi va mil. avv. V asr oxirigacha davom etdi. Sirakuzaning bu hududdagi raqibi Karfagen mil. avv. 409 – 405-yillarda Sirakuzaga qarshi g‘olibona urush olib bordi.

Sirakuzada og‘ir harbiy siyosiy vaziyat yuzaga kelib, hokimiyatni o‘rta tabaqadan chiqqan harbiy boshliq, 24 yoshli Dionisiy bosib oldi. Dionisiyning tiraniyasi 40 yil atrofida (mil. avv. 406 – 367-yillar) davom etdi. Bu davrda Sirakuza nafaqat Sitsiliyada, balki butun Yunonistonda eng yetakchi davlat birlashmalaridan biriga aylandi. Mohir siyosatchi bo‘lgan Dionisiy mil. avv. 398 – 392-yillarda Karfagen

bilan urushni g‘alaba bilan yakunladi. Natijada Sitsiliyaning katta qismini bosib oldi. Janubiy Italiyadagi Regiy, Kavloniya va Kraton shaharlarini qaram qildi. Hatto Adriatika dengizining shimoli, Illiriya qirg‘oqlariga o‘rnashib oldi. Dionisiy Po daryosining boshida o‘z koloniyalarini barpo qiladi. Sirakuza Sitsiliyani Bolqon bilan bog‘laydigan savdo yo‘li ustidan o‘z nazoratini o‘rnatdi.

Dionisiy davlat boshqaruvida xalq yig‘inining mavqeyini pasaytirdi. Muhim davlat ishlari Dionisiy oldida majlis qiladigan «do‘stlar kengashi»da muhokama qilindi. Tiran harbiy qo‘shinni nihoyat darajada mustahkamladi. Qo‘shin yaxshi qurollantirildi. Qo‘shinning 1/3 qismi yollanma askarlar edi. Harbiy flot 400 kemadan tashkil topdi. Dionisiy nozik ijtimoiy siyosat olib bordi. U barcha ijtimoiy qatlamlarning manfaat-ehtiyojlarini qondirishga harakat qildi. Yersizlarga yer berdi, harbiy o‘ljalarni xayr-ehson qilib, xalq uchun bayramlar uyushtirdi. Sirakuza zodagonlariga mansablar berib, o‘ziga tarafdor qilishga urindi. O‘z muxoliflarini musodara qildi. Dionisiyning hokimiyati merosiy deb e’lon qilindi. Qudratli Dionisiy vafotidan so‘ng uning zaif o‘g‘lining hokimiyati ag‘darilib, Sirakuzada demokratiya qaror topdi. Dionisiyning o‘g‘li Dionisiy II Sirakuzani mil. avv. 357-yilgacha boshqardi. Hokimiyatdan mahrum bo‘lgach, Korinfda yashab, kambag‘allashib tilanchilik qildi va tirikchilik uchun bolalarni o‘qitdi.

Timoleon (mil. avv. 411 – 337-yillar) siyosatchi va sarkarda bo‘lib, demokratiyaning qizg‘in tarafdori edi. U mil. avv. 364-yilda Korinfda o‘z akasi tiran Timofanni o‘ldirishda qatnashdi. Mil. avv. 357-yilda Korinfning koloniyasi Sirakuzaga Dionisiy II ning tiraniyasiga qarshi va Sirakuzani bosib olishga urinayotgan qudratli Karfagen davlatiga qarshi urushga yuborildi. U Sirakuza, Leontina, Kanat shaharlarida

tiraniyani tugatdi. Bu shaharlarni Sirakuza ittifoqiga birlashtirdi. Korinflik fuqarolarning katta qismini Sirakuzaga ko‘chirdi, Karfagen qo‘shinlarini mil. avv. 341-yilda tor-mor qilib, Karfagen bilan tinchlik shartnomasini tuzdi. Shartnomaga ko‘ra, Karfagenning mulklari Sitsiliyaning g‘arbiy qismi bilan cheklandi. Timoleon Sirakuzada demokratiyani qayta tikladi (mil. avv. 352 – 336-yillar). Timoleon vafotidan so‘ng shahar oldidagi xizmatlari uchun Sirakuzada unga haykal o‘rnatildi.

6. Tiraniya. Yunonistonda mil. avv. VIII – VI asrlarda xo‘jalik hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar siyosiy hayotga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Mil. avv. VI asrda arxaik davrning tugashi davrida ba’zi bir polislarda demokratik qurilishning ilk asoslari ko‘rindi.

Savdo-hunarmandchilik ishlab chiqarishining ilk rivoji hukmron tabaqa – katta yer egalari, oqsuyak zodagonlarga qarshi turgan kuchli, ko‘p sonli savdo-hunarmandlar qatlamining paydo bo‘lishiga olib keldi. Ayrim polislarda hukmron zodagon oligarxiya boshqaruvini xalq tomonidan hokimiyat tepasiga chiqarilgan, o‘z shaxsiy hokimiyatini o‘rnatishga erishgan kuchli va faol shaxslar bo‘lgan tiranlarga topshirishga majbur bo‘ldi.

Milet, Efes, Korinf, Sikion, Megara, Afina shaharlari, Samos, Lesbos va Sitsiliya orollarida iqtisodiy o‘sish kuchli edi. Aynan bu hududlarda kuchli, siyosiy faol shaxslar hokimiyatni noqonuniy, zo‘ravonlik bilan bosib oldilar. Hokimiyatni noqonuniy, zo‘ravonlik bilan egallab boshqarish shakli – «tiraniya» paydo bo‘ldi. Tiraniya mil. avv. VII asrda ayrim yunon shaharlari (Korinf, Sikion, Milet, Efes, Afina, Sirakuza, Megara, Argos)da keng tarqaldi. Zodagonlar ichidan chiqqan tiranlar urug‘ zodagonlari va xalq hokimiyatini keskin rad qildilar. Hokimiyatni bosib olgan tiranlar o‘zlarining raqiblari bo‘lgan oqsuyak urug‘

zodagonlariga qarshi shafqatsiz kurashdilar. Chunki bu vaqtda urug‘ zodagonlari jamoa – polisning eng uyushgan hamda boy va qudratli qismi edilar. Shu sababli, tiranlar o‘zlarining shaxsiy hokimiyatlari uchun eng xavfli deb, zodagonlar hokimiyatini hisoblar edilar. Tiranlar o‘z hokimiyatlarini kuch bilan ushlab turgan holda, urug‘ aslzodalarining siyosiy-iqtisodiy hukmronligini zaiflashtirdilar. Aslzodalarning kuch-qudratini zaiflashtirib, demosni kuchaytirdilar va o‘zlari istamagan holda o‘z hokimiyatlari halokati uchun qulay shart-sharoit yaratdilar.

Xalq ommasi orasida mustahkam tayanchga ega bo‘lish uchun tiranlar kambag‘al qatlamlar tirikchilik o‘tkazishi uchun shart-sharoitlar yaratdilar. Xalq ommasi tiranlarni yoqtirmas, lekin hurmat qilar edi. Tiranlar aholini ish bilan band qilish maqsadida yo‘llar, kanallar jamoat inshootlarining qurilishi kabi jamoat ishlarini uyushtirdilar. Savdo-hunarmandchilik va qishloq xo‘jalik sohalarini bevosita qo‘llab-quvvatladilar. Tiranlar madaniyat-ma’rifat, qadimiy urf-odat, an’ana va diniy e’tiqodlarni rag‘batlantirdilar. Ularning hukmronligi davrida yunon polislari iqtisodiy taraqqiyotda ijobiy natijalarga erishdilar (Afina-Pisistrat davrida, Sirakuza-Gelon va Dionisiy davrida). Korinf va Samos shaharlarining gullab-yashnashiga tiranlar sababchi bo‘ldi. Ammo boshqaruvga o‘z qarindosh-urug‘larini qo‘ydilar. Ular o‘z hokimiyatlarining tayanch qismi sifatida yollanma askar qismlaridan foydalandilar.

Lekin tiranlar hokimiyati abadiy bo‘lmadi: hokimiyat o‘rnatilgan shaharlarda oddiy xalq – demos ma’lum darajada kuchga to‘lganidan so‘ng, o‘zlari yoqtirmagan tiranlarni hokimiyatdan yengil ag‘dardilar. Tiraniya urug‘ zodagonlari bilan kurashda yetakchi rol o‘ynab, mil. avv. V asr boshlarida deyarli hamma joyda

yunon shahar-davlatlarini polis oyoqqa turishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib berdi va hokimiyatni topshirib, siyosiy sahnadan tushib ketdi.

Qadimgi yunonlarning ovqati: Asosiy yemish uyda tariq yoki bug‘doy unidan pishirilgan non sabzavot, mevalar: piyoz, sholg‘om, loviya, chechevitsa-yasmiq, olma, nok va anor bo‘lgan. Oziga to‘q odamlar ba’zida mol go‘shti, to‘ng‘iz go‘shti, cho‘chqa va echki go‘shtini iste’mol qilganlar. Ovqat zaytun yog‘ida tayyorlangan. Qahatchilik yillarida yovvoyi sabzavotlar, tipratikan va hatto hasharotlarni yeganlar. Ovqat ochiq havoda tayyorlangan. Vino sevimli ichimlik bo‘lgan.

Kiyim: Erkaklar xiton – ko‘ylak va xlamida – yaktak kiyganlar. Ayol va erkaklar jun va kanopdan tikilgan uzun tizzagacha tushadigan tunika – dekorativ qistirg‘ichlar bilan qistiriladigan kiyim kiyganlar, yomg‘irli havoda og‘ir yoping‘ich, oyoq kiyimi sandal va ba’zida tufli bo‘lgan. Erkaklar sochlarini kalta qirqib yurganlar, ayollarning esa asosan uzun soch qo‘yishi urf bo‘lgan.

Aholining o‘rtacha yoshi 35-40 yosh bo‘lgan. Nimjon va kasalmand bolalar go‘daklik paytidayoq o‘lib ketgan. Ko‘pincha yuqumli kasalliklar butun bir hudud aholisini qirib yuborgan. Mayitlar yerga dafn qilingan yoki krematsiya qilingan. Qabrga u dunyoda foydalanish uchun ro‘zg‘or ashyolari va ozuqa, ichimlik qo‘yilgan. O‘likni uydan qabrgacha yig‘i-sig‘i bilan go‘yandalar kuzatib borgan. Ular o‘z qayg‘ularini bildirish uchun yuzlarini tirnab, sochlarini kesishlari va qora motam kiyimi kiyishlari mumkin bo‘lgan. Qabristonda motam ziyofati uyushtirilsa, idish-tovoq shu yerda sindirilib tashlab ketilgan. Afinada qimmatbaho qabrtosh qo‘yish qonun bilan taqiqlangan. Ayrim podshoh sulolasi uchun ba’zida dafn qilinadigan oltin belbog‘ yoki gulchambar tayyorlangan.

Badavlat yunon ayollari kosmetik buyumlardan keng foydalanganlar. Upani maxsus yasalgan upadon-keramik qutichada saqlaganlar. Atir-upa va paxtadan qilingan matolar sharqdan import qilingan. Qorayish urf bo‘lmagan, chunki qora badan og‘ir ish qiladigan ishchi yoki qulga xos sanalgan.

SPARTA DAVLATI VA JAMIYATI

«Spartada tarbiya yetuk yoshgacha davom etadi. Hech kim o‘zi istaganidek yashash huquqiga ega emas edi. Aksincha, shahar lagerga o‘xshash bo‘lib, shaharda barcha odamlarga yaxshi bo‘lishi uchun turli mashg‘ulotlar va qat’iy turmush tarzi o‘rnatilgan».

Plutarx

1. Sparta davlatining tashkil topishi.
2. Davlat tuzumi.
3. Sparta jamiyati.
4. Spartalik tarbiyasi.
5. Arxaik davr hayotining umumiy manzarasi.

1. Sparta davlatining tashkil topishi. Sparta nomi qanday kelib chiqqani noma’lum. Mil. avv. XI asrda Peloponnes yarim oroliga o‘rnashgan doriylar keyinchalik spartaliklar deb ataldi. Bu atamani yevropalik tarixchilar Bolqon yarim orolining janubida o‘rnashib qolgan doriylarning davlati nomiga sinonim sifatida ishlatdilar. Sparta polisi va davlatchiligining boshlanishi doriylarning Bolqon yarim oroliga bosqinining tugallanish vaqtiga to‘g‘ri keladi. Doriy qabilalari mil. avv. XII – XI asrlarda Peloponnes hududiga o‘rnashdilar va mil. avv. XI – VIII asrlarning birinchi yarmi davomida mahalliy qabilalar bilan hukmronlik uchun uzoq kurash olib bordilar. Mil. avv. X asrda

Peloponnes janubidagi Lakonikada Yevrot daryo vodiysining o‘rta qismidagi unumdor yerlarda Sparta manzilgohi paydo bo‘ldi. Ko‘pchilik doriylar 5 qishloqni birlashtirgan Sparta manzilgohiga o‘rnashdilar. Qadimda Sparta davlatining ilk hududi Lakonika viloyati bo‘lgani uchun Lakedemon davlati, aholisi lakedeomenlar deb ataldi.

Doriylar mahalliy axey aholisining bir qismini qaram qilib, qolgan qismini qirib tashladilar. Sparta davlatining paydo bo‘lishi qisqa vaqt ichida boshqa keng hududlarni bosib olish bilan belgilanardi. Doriylar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning quyi bosqichida, urug‘ munosabatlarining yemirilish arafasida turar edilar. Bu hol, Sparta davlatida urug‘chilik tuzumi qoldiqlarining uzoq vaqt saqlanishi uchun shart-sharoit yaratdi. Peloponnes yarim orolida arxaik davrdan Sparta davlati yetakchi o‘ringa chiqib oldi va bu hududda tashkil topgan shaharlar ittifoqiga boshchilik qildi. Mil. avv. VIII asrda Sparta Janubiy Lakonikaning bir qancha viloyatlari va Kifera orolini egalladi.

Lakonika viloyatiga eng yaqin joylashgan Messeniya unumdor yerlari bilan spartaliklarni o‘ziga tortdi va bu hudud Sparta xavfsizligi uchun muhim ahamiyatga ega edi. Agar Messeniya Sparta tarkibida bo‘lsa, Lakonikaning qalqoni bo‘lishi mumkin edi. Spartaliklar shu sabablar bilan Messeniyani bosib olish uchun 2 marta urush olib bordi. Bu urushlar birinchi va ikkinchchi messen urushlari (mil. avv. 730 – 710-yillar, mil. avv. 645 – 630-yillar) deb ataladi.Birinchi messen urushida (mil. avv. 730 – 710-yillar) messenlar o‘z vatanlarini qattiq turib himoya qildilar. Urushning birinchi 4 yilida messenlar harbiy san’atda spartaliklardan qolishmasliklarini namoyon qilib, janglarda mardlik ko‘rsatdilar va dushmanga kuchli zarba berdilar. Messenlarning qahramon botiri podshoh avlodidan bo‘lgan Aristodem g‘alaba

uchun o‘z qizini o‘z qo‘li bilan ilohlarga qurbonlik keltirdi. Urushda messenlar o‘z podshohlari Efayni yo‘qotdilar, uning o‘rniga Aristodemni podshoh qilib sayladilar. Aristodem 6 yil davomida argivliklar va arkadiyaliklar bilan birga ittifoqdosh bo‘lib, dushmanga qarshi kurashdi. Lekin spartaliklar hujumni bo‘shashtirmadilar, oxir-oqibatda spartaliklarning qo‘li baland keldi. Aristodem o‘zi qurbonlikka keltirgan qizini qabri ustida o‘z joniga qasd qildi.

Messenlar ikkinchi messen urushi (mil. avv. 645 – 630-yillar) davrida yana bir bor spartaliklar zulmidan ozod bo‘lishga harakat qildilar. Ozodlik harakatiga podshoh avlodidan bo‘lgan yosh Aristomen boshchilik qildi. Aristodam boshchiligida messenlar spartaliklarni barcha janglarda mag‘lub etdilar. Sparta ochiq janglarda messenlarni yenga olmagach, xiyonat yo‘liga o‘tdi. Messenlarga yordamga kelgan arkad podshohi Aristokratni sotib olib, uni xoinlik qilishga ko‘ndirdilar. Aristokrat jangning eng qizg‘in hal qiluvchi pallasida o‘z harbiy qismini jang maydonidan olib chiqib ketdi. Messen armiyasi parokanda bo‘lib, spartaliklar to‘la g‘alabaga erishdilar. Urush uzoq davom etdi. Sparta bu urushda g‘olib chiqdi. Qolgan messenlar vatanni tashlab Italiyaga yo‘l oldilar, ular yerda Zankle hududini egallab Messeniya tayanch nuqtasiga aylantirdilar. Aristomen Rodos orolida podshoh Damaget saroyidan panoh topdi va shu yerda vafot etdi.

Zabt etilgan Messeniyaning unumdor yerlari Spartaning kam sonli bo‘lgan to‘la huquqli fuqarolari tomonidan bo‘lib olindi. Mahalliy aholining bir qismi qirib tashlanib, qolganlari huquqsiz qaram ilotlarga aylantirildi. Bir qism messenlar argivlar va arkadiyaliklar mamlakatidan panoh topdi. Kambag‘al messenlar o‘zlarining vatanlarida qolib, spartaliklarga qul – ilot bo‘lishga majbur bo‘ldilar.

Messeniya bosib olinganidan so‘ng, Arkadiyaning janubiy qismidagi bir qancha viloyatlar ham Sparta tarkibiga kirdi. Sparta o‘ziga qo‘shni bo‘lgan hududlarini bosib olgach, mil. avv. VIII – V asrlarda hududining kattaligi va kuchli armiyasi bilan yunon shahar-davlatlari orasida birinchi o‘rinni egalladi. Sparta Peloponnes yarim orolining 1/3 qismini (8000 km kv.) bevosita o‘z hukmronligi ostiga olgan edi.

Spartaning kuchayib ketishi uning shimoli-sharqidagi qo‘shni davlatlar Argos, Arkadiyaning yetarli darajada kuchli bo‘lgan kichik shahar-davlatlarini tashvishga soldi. Kuchli Argos va Arkadiya shahar-davlatlari bilan qarama-qarshilikning kuchayishi Sparta uchun xavfli edi. Shu sababli, Messeniya bosib olinganidan so‘ng Sparta qo‘shnilar bilan munosabatni yaxshilash siyosatini yuritdi. Sparta gerusiyasi bu davlatlar bilan munosabatlarni yaxshilash yo‘liga o‘tdi. Kuchli Argos bilan ham yaxshi qo‘shnichilik munosabatlari o‘rnatildi. Tegeya, boy Sikion, Mantineya, Egina va Elida kabi shahar va viloyatlar Sparta bilan simmaxiya – ittifoq shartnomasini imzoladilar. Spartaning azaliy ittifoqchisi Korinf va undan keyin Megara ham Sparta boshchiligida bu ittifoqqa ko‘ngilli bo‘lib kirdilar. Ittifoq a’zolari bo‘lgan davlatlar o‘z mustaqilliklarini saqlab qoldilar, lekin o‘z tashqi siyosatlarini Sparta siyosatiga muvofiq holda yuritishga majbur bo‘ldilar. Urush bo‘lib qolganda ittifoqchilar umumiy qo‘shin tuzishlari kerak edi. Ittifoq majlisida har bir polis bir ovozga ega bo‘lib, qaror ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilinar edi va har bir shahar-davlat Sparta podshohlari ixtiyoriga o‘z qo‘shinining 1/3 qismini berishga majbur edi. Spartaning ittifoqdagi yetakchilik mavqeyi kuchli bo‘lib, uning ittifoqdagi yetakchiligiga hech kimda shubha yo‘q edi. Bu ittifoq o‘sha davrda Yunonistonda eng kuchli ittifoq bo‘lib, uning yordamida Sparta yunon

shahar-davlatlari orasida o‘zini yetakchi kuchga aylanishini ta’minladi. Lekin bu ittifoq mustahkam emas edi, ittifoqchilar o‘rtasida aloqa zaif bo‘lib, alohida polislar bir-biri bilan urush olib borar, boshqa ittifoqchilar bunga aralashmas edilar.

2. Davlat tuzumi. Mil. avv. IX – VIII asrlarda boshqa yunon-viloyatlarida bo‘lganidek, Spartada ham urug‘-jamoachilik munosabatlari yemirila borib, ijtimoiy ixtiloflar avj olgan. Spartada erkin fuqaro bo‘lgan spartaliklar uchun barcha huquq, erkinlik va imtiyozlar yaratilib, davlat hokimiyati ham faqat spartalik erkin fuqaroga xizmat qildi. Butun hokimiyat periyek va ilotlar ustidan to‘la hukmronligini o‘rnatgan tor doiradagi spartaliklar qo‘lida edi.

Likurg afsonasi. Rivoyatlarga ko‘ra, Sparta davlat tuzumi Likurg islohotlari natijasida shakllangan. Lekin Likurg to‘g‘risida faqat afsonalar yetib kelgan, xolos. Bu shaxs to‘g‘risida qadimgi yunon yozuvchilari ham rivoyatlardan tashqari boshqa manbalardan biror bir ma’lumot topa olmaganlar. Milodiy I asrda yashagan yunon yozuvchisi Plutarx Likurgning afsonaviy shaxs ekanligini shunday tasdiqlaydi: «Umuman olganda, qonunshunos Likurg to‘g‘risidagi hikoyalarning birortasi ham ishonchli emas. Uning kelib chiqishi, sayohatlari, o‘limi, nihoyat, uning qonunlari va siyosiy faoliyati to‘g‘risida turli bir-biriga qarama-qarshi guvohliklar mavjud; ayniqsa, uning yashagan davri to‘g‘risidagi hikoyalarda o‘xshashliklar juda kam», – deydi Plutarx (Избранные жизнеописания, том первый. Ликург и Нума Помпилий, стр. 91-125. – Москва: Издательство Правда. 1987). Plutarx o‘z asarida Likurgga alohida joy ajratib, uning afsonaviy shaxs ekanligini asoslab beradi va Likurg to‘g‘risidagi afsonalariga asoslanib, Sparta turmush tarzini tasvirlaydi. Yevropa tarixchilari miflarga tayanib spartaliklarning turmush tarzi va hayoti tasviri-

ni darslik, o‘quv qo‘llanma va boshqa adabiyotlarga kiritdilar. Afsonaga ko‘ra, spartaliklar yo‘lboshchilaridan biri Evnom xalqning noroziligi vaqtida o‘ldirilgan. Uning o‘g‘li Likurg Spartani tashlab ketishga majbur bo‘ladi (mil. avv.800-yillar atrofi). Likurg Krit oroli va Kichik Osiyoga sayohat qiladi va bu hududlarning davlat tuzumini o‘rganadi. Likurg Kichik Osiyodan hali Yunonistonda ma’lum bo‘lmagan «Iliada» va «Odisseya» dostonlarini olib keladi.

Likurg Spartaga qaytib kelgach, xalq oldida davlat va jamiyatda amalga oshirish kerak bo‘lgan islohotlar to‘g‘risida tantanali e’lon qiladi. Bu o‘zgarishlar aholi ustidan mustahkam davlat hokimiyatini o‘rnatishi, fuqarolarning o‘zaro teng huquqligi va ularni yaxlit bir maqsadga erkin birlashuvini ta’minlashi lozim edi.

Xalq yig‘ini – apella. Sparta davlatining oliy organi xalq yig‘ini – apella bo‘lgan. Apellada 30 yoshga yetgan, yer ulushiga ega bo‘lgan va fiditiya (umumiy ovqatlanish)ga badal to‘laydigan to‘laqonli fuqaro – spartaliklar ishtirok etar edilar. Apella atamasi – «apelladzeyn» so‘zidan olingan bo‘lib, «xalq yig‘inini chaqirish» ma’nosini bildiradi. Apella Knakion daryosi va ko‘prik oralig‘idagi ochiq joyda o‘tgan. Apellani boshda podshohlar, keyinchalik eforlar chaqirganlar. Fuqarolar ochiq joyga to‘planganlar va tik oyoqda turganlar. Kvorum tushunchasi bo‘lmagan. Xalq yig‘ini qonunchilik tashabbusiga ega bo‘lmagan. Gerusiya va Eforlar taklif qilgan eng muhim masalalar yuzasidan qaror chiqarish tasdiqlash yoki rad etish huquqiga ega bo‘lgan. Faqatgina xalq yig‘inigina urush e’lon qilish huquqiga ega edi. Sparta apellasi masalalar qizg‘in muhokama qilinadigan, oddiy fuqaro faol so‘zga chiqadigan Afina xalq yig‘ini – ekklesiyasidan keskin farq qilar edi. Apellada oddiy spartaliklarning ovozi faqat favqulodda

holatlarda eshitilgan. Apellada fuqarolar masalani muhokama qilmas, bahslashmas edilar, faqat ovoz berar edilar. Keyinchalik xalq taklif etilgan qaror yoki qonun loyihalarini inkor qila boshlagani yoki ularga o‘zgartirishlar taklif qilishni boshlaganidan so‘ng podshoh Polidor va Teopomp agar xalq geront va podshohlarning taklif qilgan qonun yoki qaror loyihasini qabul qilmasa, boshqacha aytganda, xalq Spartaga zarar keltiradigan qaror qabul qilsa, oqsoqol va ikki podshoh bu qarorlarni inobatga olmasligi, xalq yig‘ini takliflarini qabul qilmasligi, hatto xalq yig‘inini to‘xtatish, uni yopiq deb e’lon qilishdek qoidani qabul qilishga spartaliklarni ko‘ndirdilar.

Oqsoqollar kengashi – gerusiya. Spartada gerusiya – oqsoqollar kengashi urug‘ jamoa davridan mavjud bo‘lib, fuqarolik, jinoyat va harbiy ish sohalari bo‘yicha keng vakolatga ega bo‘lgan oqsoqollar kengashi edi. Gerusiya tarkibi – 28 oqsoqol-geront va 2 podshoh, jami 30 kishidan iborat bo‘lgan. Gerontlar yetti o‘lchab bir kesadigan, orqa-oldiga qarab ish qiladigan, tajribali odamlar bo‘lgan, shu sababli har bir geront 60 yoshga kirgan bo‘lishi shart bo‘lgan. Sparta fuqarosi faqat halol, oqilona kechirilgan hayoti bilan bu faxrli lavozimga yetishi mumkin bo‘lgan. Yangi geront quyidagicha saylangan: Saylov kuni barcha nomzodlar ketma-ket xalq yig‘ini oldidan o‘tishlari kerak bo‘lgan; alohida belgilangan odamlar yopiq xonada turganlar va nomzodlarni ko‘rmaganlar; agar qaysi nomzodni xalq yig‘ini kuchli olqishlar bilan kutib olsa, shu nomzod geront faxriy lavozimini egallagan. Gerontlar davlat hokimiyatini boshqarganlar. Gerusiyada xalq yig‘inida ko‘riladigan qaror loyihalari tayyorlangan hamda jinoiy ishlar bo‘yicha sud ishlari ko‘rilgan. Gerusiya amalda oliy davlat organi edi.

Eforlar. Efor lavozimi Spartada oliy lavozim bo‘lgan. Besh nafar efor har yili xalq yig‘ini – apellada saylanganlar. Eforlar lavozimi oliy nazorat organi sifatida mil. avv. VIII asr o‘rtalarida paydo bo‘ladi. Eforlar Gerusiya (oqsoqollar kengashi) va apella (xalq yig‘ini) ni chaqirganlar; bu tashkilotlarning ishiga rahbarlik qilganlar; davlat xazinasini boshqarganlar; qo‘shin to‘plashni e’lon qilganlar; harbiy boshliqlarni tayinlaganlar va ishdan bo‘shatdanlar. Sud ishlarini olib borganlar, davlatning tashqi siyosatini boshqarganlar. Eforlar Sparta davlati va jamiyat hayotini nazorat qilar edilar. Eforlar ikki podshoh faoliyatini, fuqarolarning yurish-turishi, qaram aholi periyek va ilotlarning hayoti ustidan nazorat olib borganlar, kriptiya (isyonkor qaram ilotlarni yo‘q qilish uchun olib boriladigan yashirin urush)ni e’lon qilganlar. Shu tarzda, eforlar qo‘lida katta hokimiyat to‘plangan. Lekin efor lavozimi bir yil muddatga saylanish bilan cheklangan. Bu lavozimga qayta saylanish taqiqlangan. Eforlarning keng nazorat vakolatlari va ularning faoliyatida Spartadagi mavjud siyosiy-ijtimoiy tartib-qoida barqaror omil bo‘ldi. Eforlar tashkiloti boshqa yunon polislarida ham mavjud bo‘lgan (Gerakliya, Fera oroli, Kirenaika koloniyasi).

Eforlar xalq yig‘ini – apellaga boshchilik qilganlar. Ular har qanday mansabdor shaxsni ishdan chetlatish, zarurat bo‘lganda chet elliklarni mamlakatdan chiqarib yuborish huquqiga ega edilar. Davlat moliyasi, tashqi ishlar ularning qo‘lida edi. Podshohlar ba’zi umrbod imtiyozlarga (harbiy o‘ljalarning 1/3 qismiga egalik qilish, tantanali dafn qilish va h.k.) ega bo‘lsalar-da, eforlarning kuchli hokimiyati ularni podshohlar bilan bir qatorda qo‘yar edi. Eforlar chiqargan qarorlarga ikki podshoh ham bo‘ysunishlari kerak bo‘lgan. Eforlarning o‘bro‘-e’tibori naqadar kuchli ekani quyidagi odatda ifodalangan: podshoh-

lar ko‘ringanda boshqa spartaliklardan farqli ravishda eforlar o‘z o‘rinlaridan turmaslik huquqiga ega edilar.

Podshoh hokimiyati. Davlat tepasida ashdod va evrionit urug‘lariga mansub bo‘lgan ikki podshoh o‘tirar edi. Ikki podshoh bir xil hokimiyatga ega bo‘lib, har ikki podshoh kelishib boshqarishi, birining hokimiyatni suiieste’mol qilishiga, boshqasi yo‘l qo‘ymasligi kerak edi. Podshohlarning vakolati oliy harbiy qo‘mondonlik va oliy kohin vazifalari bilan cheklangan. Podshohlar oliy kohin sifatida urush va tinchlik vaqtida barcha spartaliklar nomidan tantanali qurbonlik keltirganlar, chet davlatlar bilan muzokaralar olib borganlar va favqulodda holatlarda jinoiy ishlar bo‘yicha sudning oxirgi hukmini chiqarganlar. Podshohlar umrbod hukmronlik qilganlar. Ikki podshoh ham oqsoqollar kengashi (gerusiya) tarkibiga umrbod muddatga kirgan. Podshohlar hokimiyati xalq yig‘ini (apella)ning keng vakolatlari bilan cheklab qo‘yilgan. Podshohlardan biri urush vaqtida qo‘shinga boshchilik qilgan, ammo ular rahbarlikda eforlarning fikrlarini hisobga olishga majbur bo‘lganlar. Podshohlar yoshi 60 yoshdan yuqori bo‘lgan, yigirma sakkiz zodagon-keksadan tuzilgan kengash (gerusiya) majlisiga boshchilik qilganlar. Gerusiya xalq bilan podshoh o‘rtasida muvozanatni saqlab turgan, ya’ni bir tomondan podshohning hokimiyati kuchayib ketishiga qarshi tursa, ikkinchi tomondan olomon hokimiyatining kuchayishiga yo‘l qo‘ymagan.

3. Sparta jamiyati. Sparta davlatini tashkil etgan doriylar to‘la huquqli fuqaro bo‘lib, barcha erkinlik va imtiyozlardan foydalanganlar. Lakonika va boshqa bosib olingan hududlarning aholisi periyeklar deb atalib, ular savdo-hunarmandchilik bilan shug‘ullanganlar, o‘zlariga qoldirilgan yerda ishlab, mahsulotning bir qismini spartaliklarga berganlar. Bundan tashqari

ular harbiy xizmat majburiyatini ham o‘taganlar. Periyeklar fuqarolik huquqiga ega bo‘lmaganlar.

Periyeklardan tashqari Sparta davlatiga qaram bo‘lgan ilotlar davlatga tegishli qullar hisoblanib, spartaliklarga alohida taqsimlab berilgan. Ilot so‘zi aholisi qulga aylantirilgan Gelos shahri nomidan kelib chiqqan deb aytiladi. Ilotlar o‘z yerlaridan olgan hosilning yarmini spartaliklarga berishlari va Sparta podshohlarining dafn marosimiga qora motam kiyimda kelishlari shart edi.

Bundan tashqari, periyeklar turli mayda ishlarni bajarishlari: spartaliklarning umumiy ovqatlanishlarida ularga xizmat qilishi, harbiy yurish vaqtida og‘ir yuklarni ko‘tarishlari, urush vaqtida harbiy lagerni mustahkamlash, urush vaqtida ehtiyoj tug‘ilsa, urushga yengil qurollanib spartaliklarga hamrohlik qilish kabi majburiyatlari bo‘lgan. Charm qalpoq va qo‘y terisidan qilingan bir xil ustki kiyim kiygan ilotlar to‘la huquqli spartaliklardan ajralib turgan. Spartaliklar ko‘pincha yoshlar tarbiyasi uchun namuna sifatida ilotlarni vino ichishga majbur qilib, mast-alast holda so‘kinib, turli xil axloqsiz qo‘shiqlar aytib, raqsga tushishga majbur qilganlar va ularni shu holda yosh spartaliklarga ko‘rsatganlar. Ilotlarga ruhlantiradigan, ozodlik uchun jangga chorlaydigan qo‘shiqlarni aytishga ruxsat etilmagan. Ilotlar ham periyeklar kabi hech qanday siyosiy huquqqa ega bo‘lmaganlar.

Erkin fuqaro bo‘lgan spartaliklar urug‘-jamoasi 9 ming oiladan iborat bo‘lgan. Sparta davlati mavjud ekin yerlarini 9000 ta ulushga bo‘lib, 9 ming sparta oilasiga taqsimlab berdi. Davlat hokimiyati sparta oilasiga shunday yer ulushini bu yerlarda ishlaydigan bosib olingan mahalliy aholi – ilotlar oilasi bilan foydalanishga berdi. Spartalikga ajratilgan yerda qaram ilotlar ishlagan. Ilotlar xo‘jayinlariga hosilning yarmini

berishga majbur edilar. Ilotlar qishloq xo‘jaligi bilan, periyeklar hunarmandchilik bilan shug‘ullanib mahsulotning yarmini davlatga topshirganlar. Faqat oz miqdordagi mahsulot mahalliy bozorga chiqarilgan.

Spartaliklar har xil «yangiliklar»dan o‘zlarini himoya qilib, tashqi dunyodan ajralib yashashga urindilar. Bolqon yarim oroliga ko‘chib kelgan barcha doriylardan faqat Lakonikada o‘rnashib qolgan doriylar urug‘-jamoa tartib-qoidalarini saqlab qoldilar. Bu tartib-qoidalar mil. avv. III asrgacha davom etdi. Spartaliklar an’anaviy ibtidoiy jamoa turmush tarzi tartib-qoidalarini, urf-odat va an’analarini saqlab qolish uchun tish-tirnoqlari bilan kurashdilar. Ibtidoiy jamoa davri an’analarini saqlab qolgan spartaliklarning ongida boshqa yunon polislari aholisiga nisbatan jismoniy va ma’naviy ustunlik his-tuyg‘usi singdirilar edi. Yunon dunyosida spartaliklarni qat’iy intizomi uchun hurmat qilganlar, lekin yoqtirmaganlar.

Spartada ibtidoiy jamoa tartib-qoidalarini saqlab qolishdan maqsad jamoa a’zolari o‘rtasidagi tenglikni saqlab qolish edi. Biror bir spartalik uyida ovqatlanishi mumkin emas edi, barcha spartaliklar uchun umumiy, ya’ni fiditiya yoki sissitiya deb ataladigan birgalikda o‘tirib ovqatlanish tartibi yo‘lga qo‘yilgan. Bir dasturxon atrofida, odatda, 15 kishi o‘tirib ovqatlangan. Umumiy ovqatlanish uchun har bir spartalik har oy ma’lum miqdorda tariq uni, vino, pishloq va anjir yetkazib berishlari kerak bo‘lgan. Ziravorlar uchun har bir fuqaro arzimagan to‘lov – 10 obol to‘lagan.

Eng kambag‘al spartaliklar bu badalni to‘lashdan ozod qilinganlar. Lekin umumiy ovqatlanishdan ishtirok etishdan faqat kim qurbonlik keltirayotgan bo‘lsa yoki ovdan keyin charchoqni his qilgan fuqaro ozod qilingan. Bunday holda u keltirilgan qurbonlikning bir qismini yoki o‘zi ov qilgan hayvonning bir qismini sissitiyaga jo‘natishi kerak bo‘lgan. Umu-

miy ovqatlanish – sissitiya yana bir qoida bilan qo‘llab-quvvatlangan. Bu qoidaga ko‘ra, spartalik biror bir bahona bilan tushlikkacha uyda biror bir taomni tanovul qilishga va umumiy stol atrofida o‘zini biror bir narsani yeyotgan qilib ko‘rsatishga yo‘l qo‘yilmagan. Ta’mi bemaza bo‘lgan ovqatlar qatoriga mashhur «qon va uksus qo‘shib pishirilgan» o‘ziga xos sho‘rva ham bo‘lgan.

Sparta davlat hokimiyati tomonidan «tenglar jamiyati» tartib-qoidalariga raxna soladigan, mulkiy tabaqalanishga olib kelishi ehtimoli bo‘lgan, savdo-hunarmandchilikni cheklaydigan qator qoidalar qat’iy amalga oshirilgan. Spartada katta binolar qurish, zeb-ziynat buyumlari, san’at asarlarini ishlab chiqarish keskin cheklangan. Sparta fuqarolariga xo‘jalik faoliyati bilan shug‘ullanish taqiqlandi. Har bir spartalikka berilgan yer ulushidan bir yilda yetishtiriladigan tariq, vino va yog‘ fuqaroning oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojini qondirgan. Hunarmandchilik bilan periyeklar, dehqonchilik bilan qaram qilingan mahalliy aholi – ilotlar shug‘ullanganlar. Kumush va oltin tanga pullar muomaladan chiqarilib, ularning o‘rniga temir tanga muomalaga kiritilgan. Temir tanga pul boshqa yunon-shahar davlatlarida ishlatilmagan. Pul zarb qilish uchun ishlatiladigan temir qizdirilgan holda uksusga botirib olingan, bunday temir mo‘rt bo‘lib, boshqa hech narsani yasash uchun yaramagan. Bu pulga chet el mahsulotlarini ham, zeb-ziynat buyumlarini ham sotib olish mumkin emas edi. Shu sababli, xorij kemalari Sparta qirg‘oqlariga yaqinlashmagan. Bu tadbirlar savdo-hunarmandchilikni keskin cheklanishiga olib keldi. Faqat qurol-aslaha ishlab chiqarish keng yo‘lga qo‘yilgan. Sparta eski urug‘chilik munosabatlari mazmuniga ega bo‘lgan jamiyat edi.

Jamoa a’zolari orasida tenglikni saqlab qolish uchun boylik to‘plash taqiqlandi. Boy spartalik kam-

bag‘al spartalikdan kiyinish va yeb-ichishda farq qilmagan. Spartaliklar bir xildagi kalta yoping‘ich (plash) kiyar edilar va bu bilan o‘zlarini teng deb hisoblardilar. Spartalik fuqaroning uyi har qanday hashamatdan xoli bo‘lib, faqat zaruriy uy-ro‘zg‘or buyumlarga ega bo‘lgan. Sparta uylarining eshik va tomlari faqat yog‘ochdan bo‘lib, bu uylarni qurishda faqat bir bolta va arra ishlatishga ruxsat etilardi. Yunon dunyosi aholisi sharq dunyosi kabi hashamatli turmush tarzida hayot kechirish uchun yetarli darajada moddiy boylikka ega emas edi. Shu sababdan, butun yunon dunyosi boy-zodagonlari ham hashamatli kiyinish imkoniyatiga ega bo‘lmasa-da, yunon-shahar davlatlarida nisbatan qimmatbaho kiyimlar oz bo‘lsa-da mavjud edi. Spartada hashamatli kiyimlar kiyish qonunga zid edi. Qoidaga ko‘ra, chet ellik Spartaga belgilangan muddatdan ortiq qolmasligi, birorta ham spartalik vatanidan tashqari uzoq yashash huquqiga ega bo‘lmagan.

Spartada harbiy ish. Sparta qo‘shinining soni uncha katta bo‘lmay, 4-5 minggacha piyoda askarni tashkil etgan. Sparta qo‘shini 12 ta harbiy qismga (loxga) bo‘lingan. Harbiy qism tepasida harbiy boshliq (loxak) turgan. Qo‘shinga qo‘mondonlikni ikki podshohdan biri amalga oshirgan. Podshohga harbiy ishlarda tajribali harbiy maslahatchilar yordam bergan. Oliy qo‘mondonlik ham mavjud bo‘lib, u podshohning harbiy boshqaruvini nazorat qilgan. Qo‘shin tarkibida 300 ta otliq askar bor edi. Otliqlar urush vaqtida podshohlarni qo‘riqlaydigan, tinchlik paytlarda esa mamlakat xavfsizligini ta’minlaydigan o‘ziga xos otliq gvardiyani tashkil etgan.

Sparta jangchilari zich saflanib (falanga) gulchambar bilan bezalgan qizil kiyimda surnay, sadolari ostida jangga kirganlar. Jangda qo‘shinning oldingi qismida ilotlar, periyeklar borgan. Ulardan keyin yosh

spartaliklar, oxirida 60 yoshgacha bo‘lgan keksalar jangga kirishgan. Qayrilgan qilich, uzun nayza, zich saf, falanga va jangchilarning jasorati va mohirligi g‘alabani ta’minlagan. Sparta askarlarini jang maydonida osongina tanib olish mumkin edi. Spartalik askar uzun soch qo‘yib, ochqizil yopingichda bo‘lgan.

Faqat jangda halok bo‘lganlar qizil kiyimda tantanali dafn etilgan. Jangda dushmanga orqa o‘girish mumkin bo‘lmagan, qalqonni yo‘qotish, jang maydonini tashlab ketish og‘ir jinoyat hisoblangan. Qo‘rqoq haqoratlanib, obro‘sizlantirilgan. Kimdir jangda qo‘rqoqlik qilib qochsa yoki safni tashlab ketsa, u gimnastika o‘yinlarida, sissitiyalarda qatnashish huquqidan mahrum qilingan. Qo‘rqoq askar hech narsani sotib olishga jur‘at qilmagan, xalqning oldida sazoyi qilingan. Jangda qahramonona halok bo‘lgan askarni o‘z qalqoni ustiga ko‘tarib olib kelganlar. Sparta qalqoni balandligi 2 metr, to‘rtburchak shaklda bo‘lgan. Spartalik onalar o‘z farzahdlarini urushga «qalqon bilan yoki qalqonning ustida qayt» degan qisqa so‘zlar bilan kuzatganlar. Bu jumlalar, g‘alaba bilan qayt yoki jangda jasorat ko‘rsatib, halok bo‘lsang, jasadingni izzat-hurmat bilan qalqon ustida olib kelsinlar ma’nosini bildirgan.

Spartalik erkaklarning barchasi uchun harbiy xizmat majburiy edi. Erkaklar barcha vaqtlarini lagerda harbiy mashqlar bajarish bilan o‘tkazganlar, bo‘sh vaqtlarini ovda o‘tkazganlar. Spartaliklar 7 yoshdan 18-20 yoshgacha harbiy ta’lim olib, 20 yoshdan 60 yoshgacha harbiy xizmatda bo‘lganlar. Harbiy lagerda yashash bayram hisoblangan. Dushmandan tortib olingan o‘lja askarlar ozuqa ratsionini boyitgan.

Sparta shahri devor va boshqa mudofaa inshootlari bilan o‘rab olinmagan, mudofaa faqat shahar fuqarolarining jasoratiga asoslangan. Spartaliklar shaharlarni qamal qilishni bilmaganlar va yoqtirma-

ganlar. To‘g‘ridan-to‘g‘ri jang qilish ularning qoidasi bo‘lgan. Spartadagi fuqaro tarbiyasi fuqarolarning harbiy ishni puxta o‘rganishiga qulay shart-sharoit yaratdi. Natijada, Sparta davlati jangovar qobiliyati yuqori bo‘lgan 4-5 ming kishilik qo‘shinga ega bo‘ldi. Qo‘shin asosan piyodalardan tashkil topgan bo‘lib, faqat 300 kishilik otliq qism mavjud bo‘lgan. Mil. avv. VI – V asrlarda Spartaning 5 ming kishilik qo‘shini yunon shahar-davlatlari orasida eng yaxshi tashkil etilgan, intizomli va kuchli qo‘shin edi.

Sparta Peloponnes urushidan so‘ng qisqa vaqt davomida mil. avv. 404-yildan 379-yilgacha yunon dunyosida yetakchi o‘rinni egalladi. Mil. avv. IV asrning II yarmidan butun yunon dunyosini qamrab olgan ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar Spartaga ham ta’sirini o‘tkaza boshladi. Spartaning harbiy qudrati mil. avv. 371-yilda Fiva bilan urushdagi mag‘lubiyatdan keyin zaiflashdi va tushkunlikka yuz tutdi.

4. Spartalik tarbiyasi. Spartaliklar faqat o‘qish va yozishni bilganlar. Ular ilohiy qo‘shiqlar va jangga kirish oldidan aytiladigan jangovar qo‘shiqlarni yod olganlar. Ibtidoiy jamoa tartib-qoidalaridan biri bo‘lgan bolalarni yoshligidan tarbiyalashga e’tibor qaratishgan. O‘smirlarni bolaligidan qisqa va aniq javob berishga o‘rgatilgan. Yoshi katta va keksalarni hurmat qilish axloqiy ta’limning bir qismi bo‘lgan. Sparta to mil. avv. IV asrning ikkinchi yarmigacha ana shunday tartib-qoidalar asosida yashadi. Qadimiy urug‘-jamoa an’analariga xos turmush tarzi Sparta jamoasining mustahkamligini ta’minladi.

Spartaliklar eski jamoa tartibini saqlab qoldilar, o‘z vaqtlarini doimiy harbiy mashqlar va ovda o‘tkazib, chodirlarda yashar edilar. Har bir spartalik jamoaga sadoqat, o‘rnatilgan azaliy tartib-qoidalarga so‘zsiz bo‘ysunish, katta yoshdagilarga hurmat, mutlaq jasorat ruhida tarbiyalangan. Spartaga kuchli,

shijoatli jangchilar zarur edi. Bolalar jamoaning mulki bo‘lib, ularning tarbiyasi jamoaning majburiyati hisoblangan. Qadimgi urug‘ jamoasida sog‘lom bola tug‘ilishiga katta e’tibor berilgan. Chunki xavfli turmush tarzi, boshqa dushman urug‘-qabilalardan o‘zini himoya qilishning samarasi jamoadagi kuchli va baquvvat erkaklarga bog‘liq edi. Sparta jamoasida bu qadimiy an’ana saqlanib qoldi. Qadimgi urug‘-jamoasidagi go‘dak tug‘ilishi bilan qat’iy ko‘rikdan o‘tkazish odati saqlanib qolgan. Kasal va jismoniy zaif tug‘ilgan go‘daklar ortiqcha yuk hisoblangani uchun ularni jarlikka uloqtirganlar.

Birinchi o‘rinda o‘smir yoshlar tarbiyasida jismoniy tarbiya qo‘yilib, faqat xor qo‘shiqlari, harbiy musiqa, shoir Terpandrning harbiy marshlari o‘rgatilgan. Spartalik bola yoshligidan imkoniyat darajasida qisqa va aniq so‘zlashga o‘rgatilar edi (lakonizm). Sport tayyorgarligida ot sporti va atletika yetakchi o‘rinni egallagan.

Spartalikni tarbiyalash tizimi uch bosqichdan iborat edi:

1. 7 yoshgacha bolalar ota homiyligi ostida. 7 yoshdan so‘ng davlat nazorati ostiga o‘tgan.

2. O‘smirlar 12 yoshdan 15 yoshgacha katta yoshli o‘smir (iryen) boshchiligida maxsus guruhlar (il)ga kirgan.

3. 16-20 yoshlarda o‘qitishning uchinchi bosqichi (iryeniya).

Davlat tarbiyasining birinchi bosqichida 7-12 yoshgacha bolalarni agella («poda»)ga to‘plab, mashqlar va sinovlar muntazam o‘tkazilgan. Bu bosqichda bolalarda kuch va chidamlilikni tarbiyalash asosiy maqsad qilib qo‘yilgan.

Har yili Artemida bayramida bolalarni badani momataloq bo‘lgunicha savalash marosimi o‘tkazilgan. Savalanayotgan og‘riqqa un chiqarmay chidashi,

og‘riqni sezdirmasligi lozim bo‘lgan. Ulardan ba’zilari biror ovoz chiqarmay, inqillamay jon bergan. O‘smirlar 12 yoshdan 15 yoshgacha katta yoshli o‘smir (iryen) boshchiligida maxsus guruhlar (il)ga kirganlar. Ular g‘arib chaylada yarim och, juldur kiyimlarda o‘zlari yig‘ib kelgan qamish ustida uxlab dam olganlar. Bolalar juda oddiy tarbiyalangan. Ular och-nahor, muhtojlikka duchor qilingan. Bolalarning ovqati juda oz va bemaza bo‘lgan, ovqatni ularni o‘zlari topishga majbur qilingan. Bolalar shu sababli, ovqat yetmagan paytda o‘g‘rilik bilan yegulik topganlar, qo‘lga tushganlar esa jazoga tortilgan.

Harbiy mashqlar (qurollarni o‘zlashtirish, zich safda harakat qilish, tez harakatlanish va taktika) harbiy o‘qish, jismoniy chiniqtiradigan mashqlar va ov bilan to‘ldirilar edi. Bu davrda tajribali yoshi kattalar yosh o‘smirlar – ilotlarga nisbatan mensimaslik, nafrat tuyg‘usini shakllantirganlar. Bu o‘qitish davri dala mashqlari (kriptiya) bilan tugallanar edi. Keyinchalik, bu mashqlar sparta jamoasining hukmronligiga xavf soladigan kuchga ega bo‘lgan, erkinlik-ozodlik ruhi so‘nmagan qaram qilingan ilotlarni jismoniy yo‘q qilish marosimi shaklini oldi. Yosh spartaliklar qaram ilotlar yashaydigan va ishlaydigan joylarda izg‘ib yurganlar. Ular ilotlarning suhbatlarini yashirincha eshitishlari, ilotlar ichidan isyonchilik kayfiyatida bo‘lganlarining barchasini o‘z xanjarlari bilan o‘ldirishlari buyurilgan. Eng kuchli va jasur ilotlar maxfiy o‘ldirilgan. Ilotlar 9 ming Sparta oilasiga xavf tug‘dirmasligi uchun bu ish muntazam amalga oshirilgan.

16-20 yoshlarda o‘qitishning uchinchi bosqichi (ireniya) boshlangan. Yosh spartalik yigit yer ulushi egasiga aylanar edi. Bu yer ulushi spartalik yosh fuqaro va uning oilasini boqishi kerak edi. Plutarx spartaliklar tarbiyasi to‘g‘risida shunday yozgan: «Spartada

tarbiya yetuk yoshgacha davom etadi. Hech kim o‘zi istaganidek yashash huquqiga ega emas edi, aksincha, shahar lagerga o‘xshar edi, shaharda barcha odamlarga yaxshi bo‘lishi uchun qat’iy turmush tarzi va mashg‘ulotlar o‘rnatilgan» Plutarx (I-117+)

Ayollar tarbiyasi ham qat’iy va odatiy tarzda bo‘lgan. Ayollarni kuchli, sog‘lom, chiroyli bo‘lishi uchun ularning gimnastika mashg‘ulotiga asosiy e’tibor qaratilgan. Qizlar sog‘lom bolani dunyoga keltirish uchun jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanganlar. Ular yugurish, disk uloqtirish, nayza otish va kurash tushishlari kerak bo‘lgan. Qizlar tantanali marosimlarda raqs tushib, qo‘shiq aytishlari va diniy marosimlarda ishtirok etishlari lozim edi. Ularga ozgina qo‘shiq va raqs o‘rgatilgan. Lekin asosiy maqsad sog‘lom bolani dunyoga keltirish edi. Sog‘lom ona jismonan kuchli va baquvvat bolani dunyoga keltirishi shart edi. Sparta davlati bola tug‘ilishiga mukofot belgilab, farzandsizlik uchun jarimani kiritdi.

Spartada balog‘atga yetgan yigitlarga bo‘ydoq yurishga ruxsat berilmagan. Bo‘ydoqlarning ba’zi bayramlarga qatnashishi taqiqlangan. Ular qishda hokimiyatning buyrug‘i bilan yalang‘och bo‘lib, bozorni aylanib o‘zlari uchun to‘qilgan qo‘shiqni aytishga majbur qilingan. Bo‘ydoqlarga kattalarga ko‘rsatiladigan hurmat ko‘rsatilmagan.

Yosh yigit 20 yoshga yetgach, Sparta («Tenglar jamiyati»)ning to‘la huquqli a’zosi hisoblanar edi. Endi u kattalar bilan birgalikda o‘tkaziladigan ovqatlanish (fiditiya yoki filitiya)larda ishtirok etishi majburiy edi. Fiditiya uchun har bir spartalik har oy ma’lum miqdorda pishloq, arpa, vino, anjir va pul berar edi. Spartaliklar birgalikda o‘tirib, uksus, tuz qo‘shilib, qonda tayyorlangan cho‘chqa go‘shti bo‘tqasini iste’mol qilar edilar.

4. Arxaik davr hayotining umumiy manzarasi. Shahar-davlatlar hududi juda kichik bo‘lib, hosildor yerlar kam bo‘lgan, yer xususiy mulk edi. Yunon shahar-davlatlari aholisi ham ijtimoiy tabaqalash jarayonini boshidan kechirdi. Aholining nisbatan boy tabaqasi savdogarlar, kemasozlar va kema egalari, katta yer-mulkka ega bo‘lgan zodagonlardan iborat bo‘lgan shahar-davlat byudjeti fuqarolarning ko‘ngilli xayr-ehsonlaridan shaklantirilgan. Davlat xazinasi juda kam mablag‘ga ega bo‘lib, davlat hokimiyati juda zaif bo‘lgan. Davlat hokimiyatida lavozimlarga haq to‘lanmagan, Afina shahar-davlatida faqat Perikl davrida lavozimlarga haq to‘lash joriy etilgan. Davlat lavozimini egallagan fuqaro davlat xazinasi yoki o‘z lavozimidan foydalanib boyishi mumkin emas edi.

Yunon shahar-davlatlarining hukmron tabaqalari qadimgi sharqning davlat apparati bilan bog‘langan, hukmron sinflaridan farq qilgan. Boylik xususiy tadbirkorlik, savdo-hunarmandchilik, tadbirkorlik faoliyati bilan orttirilgan. Qadimgi sharqdagidek yunon shahar-davlatlarining hukmron tabaqasi ulkan boylikka ega bo‘lmay, fuqarolarning boshqa tabaqalari orasida boylik jihatdan katta ajralish yo‘q edi. Yunon shahar-davlatlarida 2-3 talant (1 talant 6 ming draxm) mulk katta boylik hisoblanib, 10-15 talantlik mablag‘ga ega bo‘lish katta mablag‘ hisoblangan. Katta boylikka ega bo‘lgan boylar hashamat uchun soliq to‘laganlar. Davlat hokimiyati mulkiy keskinlikni doimo yumshatib, ijtimoiy muvozanatni saqlashga harakat qilgan. Bundan tashqari, o‘sha davrda tadbirkorlik bilan katta boylik jamg‘arish juda qiyin bo‘lgan. Shu sababli, boy-zodagonlarning turmush tarzi oddiy bo‘lib, kiyim-kechak, oziq-ovqat va uy-joylari ham juda kamtarin bo‘lgan va oddiy xalqdan deyarli farq qilmagan. Qadimgi sharqdagi zeb-ziynat, hashamatli ipak-shoyi matolar yunonlarga yot edi.

Taxminlarga koʻra, arxaik davrda yunon oilasining uy-joyi oddiy va bir qavatli edi. Epik matnlarda aytilishicha, erkaklar kalta koʻylak (xiton) kiyib, koʻchaga chiqayotganda ustilariga keng yopingʻich (xlamida) tashlaganlar. Ayollar xiton ustidan hashamatli keng kiyim, kamar bilan tortilgan kamzul (peplum) kiyganlar. Sharqdan erkaklar uchun uzun, yupqa, kanopdan toʻqilgan, tumshuqqacha boradigan xiton (koʻylak) oʻzlashtirib olingan. Sochga tilla toʻgʻnogʻich qistirilgan. Ijtimoiy tabaqalanish kiyinishga ta'sir qilgan. Zodagon yoshlar otliq yurganda, oval plash (xlamida) bilan oʻranganlar. Hunarmandlar esa chap yelka orqali tashlangan kamtar jun yopingʻich (eksomida) bilan cheklanib qolganlar.

Arxaik davrda oila-nikoh munosabatlari ham oʻzgardi. Gomer davrida kuyov kelinni ota-onalariga qimmatbaho sovgʻalar berib, sotib olar edi. Arxaik davrda esa, kelinga sep berish odatga aylandi. Nikohga asos boʻlib, yoshlarning ota-onasi oʻrtasida tuzilgan kelishuv shartnomasi xizmat qilar edi. Tegishli qurbonliklar qilingach, kelinning otasini uyida toʻy tantanalari va ziyofat boshlanar edi. Quyosh botishi bilan kelin kuyovning uyiga kuzatib qoʻyilgan.

Dafn marosimlari ham oʻzgardi. Arxaik davrda dafn marosimida koʻkragiga urib yigʻlaydigan goʻyandalar paydo boʻldi. Yigʻi-sigʻidan soʻng, marhum jasadi yuvib-taralib, xushboʻy yogʻlar surtilgan. Keyingi kun dafn qilish marosimi oʻtkazilib, yigʻi bilan mayit shahar tashqarisidagi qabristonga chiqarib koʻmilgan. Keyinchalik oʻlikning ogʻziga yer osti Aid podshohligida oʻliklarni tashuvchi xarondga toʻlov sifatida tanga qoʻyganlar. Ehtimol, krematsiya ham boʻlgan. Bu haqida Gomer poemalarida eslatiladi. Marhum oʻzining qimmatli buyumlari bilan katta gulxanda yoqilgan. Olovga vino, sut va asal sepish odati bilan marosim tugagan. Yunon uylari loy, xom

g‘ishtdan qurilib, tomi loy cherepitsadan bo‘lgan. Uylarda kichik derazalar bo‘lib, o‘g‘rilarni qo‘rqitish uchun kichik eshikchalar bilan yopilgan. Pol ohak yoki zichlangan qumli bo‘lgan. Uylarga yana qo‘shimcha xonalar qurib borilgan, ko‘chalar egri-bugri bo‘lgan. Uyda mebel deyarli bo‘lmagan. Zaruriy oziq ovqat juda taqchil bo‘lgani sababli kunini o‘tkaza olmagan yunonlar ko‘pincha sharq mamlakatlariga ko‘chgan. Ko‘pincha, yosh yunonlar sharq mamlakatlari Ahmoniylar davlati, Misrda yo‘llanma askar bo‘lib xizmat qilganlar.

Yunonlar dehqonchilik bilan shug‘ullanib, qurg‘oqchilikka chidamli zaytun ekkanlar, zaytun va undan olingan yog‘ ovqatga ishlatilgan, dori-darmon va jinchiroq uchun zaytun yog‘i ishlatilgan. Qishloqda dehqonlar ho‘kizlarni qo‘shga qo‘shganlar, eshaklardan yuk tashishda foydalanganlar.

Demetra dehqonchilik ilohasi bo‘lib (qadimgi yunon tilida dem – yer, metra – ona ma’nosini bildiradi), boy yunonlar uchun asosiy ovqat pishloq, yong‘oq, piyoz, sholg‘om, non, baliq bo‘lgan. Go‘sht faqat bayramlarda yeyilgan. Go‘shtga ehtiyoj xonaki hayvonlarni saqlash, quyon, kaltakesak va mayda qushlarni ovlash bilan ham qondirilgan. Kambag‘allarning ovqati tariq non, arzon baliq, yovg‘on sho‘rva bo‘lgan. Dengizga yaqin aholi uchun baliq asosiy ozuqa o‘rnini bosgan. Qahatchilik yillarida yovvoyi mevalar, tipratikan, hatto chigirtkalarni yeganlar. Asosiy ichimlik uzumdan tayyorlangan vino bo‘lgan. U juda quyuq bo‘lib, suv qo‘shib ichilgan. Ba’zida vinoga qayin daraxti qatroni qo‘shilgan. Natijada, vinoni 3-4 yil saqlash mumkin bo‘lgan. Qizlarni turmushga berish 12 yoshdan boshlangan. Nikoh shartnomasi asosida oila qurilgan. Ajralish hollarida ayollarga o‘z sepi qaytarilgan. Ayollar uzun soch qo‘yganlar, erkaklar sochlarini kalta qirqib yurganlar. Tilla taqinchoqlar

Misr va Kichik Osiyodan keltirilgan. Yunonistonda oltin konlari bo‘lmagani uchun oltin buyumlar qimmat bo‘lib, faqat ayrim boy oilalar ayollariga nasib etgan. Shu sababli, yunon ayollari juda odmi kiyinib, deyarli zeb-ziynat buyumlaridan foydalanmaganlar. Asosiy kiyim jun va kanopdan qo‘lda tikilgan, shoyi va paxta matolar sharq dunyosidan olib kelingan. Juda qimmat bo‘lgani uchun ayrim boy oilalar foydalanganlar. Shisha oyna yunonlarga ma’lum bo‘lmagan, faqat boy ayollar yaxshi silliqlangan bronzadan foydalanganlar.

MIL. AVV. VII – VI ASRLARDA AFINA SHAHAR-DAVLATI

«Solon avvalgidek barcha lavozimlarni boylar egallashi uchun, oddiy xalq ilgari bajarishda qatnashmagan boshqa lavozimlarni oddiy xalq egallashi uchun fuqarolarning mulkini baholashni joriy etdi».

Plutarx

1. Arxaik davr boshlarida Attika.
2. Solon islohotlari.
3. Afinada Pisistrat tiraniyasi.
4. Klisfenning islohotchilik faoliyati.

1. Arxaik davr boshlarida Attika. O‘rta Yunonistonning janubiy-sharqiy viloyatlaridan biri, markazi Afina bo‘lgan Attika viloyati misolida yunon polisining shakllanishini atroflicha ko‘rish mumkin. Yunonistonning markaziy viloyatlaridan biri bo‘lgan Attikaning hududi 2250 km. kv bo‘lib, maydoni bo‘yicha Spartadan keyingi o‘rinda turgan. Dastlab, Attika aholisi kichik qishloqlarda yashagan. Keyinchalik esa, ular qoyatosh bag‘rida joylashgan Afina akropoli markazi bo‘lgan shahar atrofida birlashdilar.

Attikaning qadimgi aholisi bo‘lgan ioniylar va pelasglarga doriylarning ko‘chishi ta’sir qilmadi. Attika doriylar hujumini qaytardi. U yerda doriylar Peloponnesdan haydab yuborgan axeylarning bir qismi panoh topdi. Attikada o‘rnashgan doriylar bu hududda panoh topgan axey zodagonlarini ta’qib qilmadilar.

Attika viloyati mil. avv. VII asrda to‘rt urug‘ yoki qabila (fil)ga bo‘lingan edi. Har bir fil bir necha o‘nlab urug‘lardan iborat bo‘lgan uch fratriyaga bo‘lingan. Attika aholisini urug‘ zodagonlaridan chiqqan yo‘lboshchi basileylar boshqargan. Basileylar hokim, sudya, kohin va harbiy boshliq vazifasini bajarganlar. Boshqa yunon polislarida bo‘lganidek, Afinada ham basileylar huzurida urug‘ zodagonlari yevpatridlar kengashadigan areopag (kengash urush xudosi Aresga sig‘iniladigan joyda o‘tkazilgan) bor edi. Afsonalarga ko‘ra, Afina aholisini birlashtirgan afsonaviy Tersiy aholini uch guruhga bo‘ladi: yer egalari – yevpatridlar, dehqonlar – geomorlar va hunarmandlar – demiurglar.

Attika viloyati 12 urug‘-qabila joylashgan hudud – okruglariga bo‘lingan. Ularning markazlari Afina, Torika, Marafon va Afidna bo‘lgan. Mil. avv. VIII asr davomida xo‘jalik va xususiy mulkchilikning rivojlanishi natijasida, urug‘-qabilachilik munosabatlari yemirila boshladi.

Urug‘-qabila boshqaruvida o‘zgarishlar sodir bo‘ldi, yevpatridlar basiley-yo‘lboshchi (podsho)ning huquqini asta-sekin cheklay boshladilar. Natijada, basileylarga faqat kohinlik vazifasi qoldi va bu lavozimga ham saylov joriy etildi. Faqat yevpatridlar vakillaridan tashkil topgan boshqaruv kengashi areopag (kengash majlisi urush xudosi Aresga bag‘ishlangan binoda o‘tgani uchun kengash areopag nomini oldi) tashkil etildi. Yevpatridlar o‘zlarining orasidan 3 lavozim: arxont (oqsoqol), polemarx, podshohni saylay

boshlaydilar. Arxontlar o‘rtasida ijroiya, harbiy va sud hokimiyati taqsimlangan edi. Keyinchalik mil. avv. VII asrdan saylanadigan lavozimlar soni 9 taga yetdi va ularning vakolati muddati 10 yildan 1 yilga tushirildi. Yil davomida arxont vazifasini bajargan yevpatridlar o‘z o‘rinlarini yangi saylanganlarga bo‘shatib berib, o‘zlari areopagning umrbod a’zolari bo‘lib qolar edilar. Areopag mil. avv. VIII – VII asrlarda eng obro‘li hokimiyat organi bo‘lgan. Yunon viloyatlari va shaharlaridagi katta yer egalari va boshqa zodagonlar o‘zga yurtlarga ko‘chib ketmadilar, ulardan ayrimlari faqat dengiz savdosiga faol qatnashdilar.

Iqtisodiy hayot. Barcha tomonlari dengiz va tog‘lar bilan o‘ralgan O‘rta Yunonistonda joylashgan Attika viloyatini Beotiyadan Parnas va Kiferon tog‘ tizmasi, Megaradan Serat tog‘lari ajratib, Egey dengizining markaziy qismiga kirib borgan. Bu geografik joylashuv Attikaning boshqa viloyatlardan ustunligini ta’minladi hamda bu kichik hududning keyingi taraqqiyotiga ijobiy ta’sir qildi. Attika dehqonchilik uchun qulay bo‘lgan kichik uch vodiydan tashkil topgan. Kumush konlari, marmarning mo‘l-ko‘lligi savdo-hunarmandchilikning ilk taraqqiyotiga yordam berdi. Qulay dengiz gavanlari dengizchilikning rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Mil. avv. VIII asrdan qishloq jamoalarida yer oilalarga bo‘lib berildi. Yer xususiy mulkka aylanib, asosan mayda dehqon xo‘jaligi paydo bo‘ldi. Urug‘ jamoasining yemirilishi boshlandi. Oila asosiy ishlab-chiqaruvchiga aylandi. G‘allachilik, uzumchilik va zaytun daraxtlarini ekish dehqon xo‘jaligining asosiy mashg‘uloti bo‘ldi. Asta-sekin ishbilarmon dehqonlar, urug‘ oqsoqollari mayda dehqonlarning yerlarini turli yo‘llar bilan tortib ola boshladilar. Qarzga botgan kambag‘al dehqonlar yerlaridan ajralib, qarzlari uchun qullikka tushib qoldilar. Yeri bo‘lmagan yoki yeridan ajralgan bir qism dehqonlar

hunarmandchilik bilan shug‘ullandilar. Kulolchilik sohasi, metallga ishlov berish, dengizga yaqin joylarda qayiq yasash va boshqa sohalar rivojlandi. Ikkiuch kishi ishlaydigan hunarmandchilik ustaxonalari paydo bo‘ldi. Bu ustaxonalarning barchasi qishloq va shaharlarda to‘plandi, ayirboshlash kuchayib, savdo sohasining ilk unsurlari paydo bo‘ldi.

Attika viloyatida ham ekin yerlari taqchil edi. Shu sababli Afina shahri va uning atrofidagi qishloqlar aholisi hunarmanchilik-savdo bilan shug‘ullanib tirikchilik o‘tkazishga majbur bo‘ldilar Mil. avv. VIII asrdan VI asrgacha savdo-hunarmandchilik alohida sohaga aylandi. Savdo-hunarmandchilik rivojlanishi bilan boy, o‘rta va mayda hunarmand-savdogarlar tabaqasi paydo bo‘ldi. Natijada, dehqonlar, hunarmand-savdogarlar, yollanib ishlaydigan oddiy xalq demos (xalq) aholining asosiy qismini tashkil qildi. Demos ichidan boy dehqonlar, boy tadbirkor hunarmand-savdogarlar, dengiz qirg‘og‘idagi shaharlarda kema egalari ajralib chiqdi. Oddiy aholi – demos, ya’ni kichik yer ulushiga ega bo‘lgan dehqonlar, hunarmandlar, mayda savdogarlar aholining katta qismini tashkil etib, ular Attika viloyatini dushmandan himoya qilishda ham asosiy harbiy kuchga aylandilar. Boy yer egalari – yevpatridlar bu ko‘p sonli aholi bilan hisoblashishga majbur edilar. Endilikda, demos yunon polis-davlatlarining iqtisodiy-siyosiy hayotida muhim o‘rinni egallay boshladi. Bu yangi qatlam hokimiyatni egallagan urug‘ zodagonlari bilan hokimiyat uchun kurashga kirishdi.

Kilon isyoni. Mil. avv.VII asrning 30-yillarida afinalik zodagon, Megara tiranining kuyovi zodagon Kilon o‘ziga foydali o‘bro‘li kishilar bilan aloqa o‘rnatdi va olimpiya o‘yinlarida g‘olib bo‘lib, o‘z obro‘sini yanada oshirdi. Shuhratparast Kilon Afinada vujudga kelgan og‘ir vaziyatdan foydalanib, hokimiyatni bo-

sib olish, Areopag va arxontlarni hokimiyatdan chetlatishni maqsad qildi. U oddiy fuqarolarga ularning og‘ir ahvolini yengillatishga, jumladan, yerni qayta taqsimlashga va’da berib, oddiy xalqni o‘z tomoniga og‘dirib oldi. O‘z tarafdorlari bilan Kilon Afina akropolini bosib oldi. Lekin oddiy xalq isyonchilarni qo‘llab-quvvatlamadi. Yevpatridlar zodagon Megakl boshchiligida Kilon isyonini bostirdilar. Kilonning o‘zi qochishga ulgurdi, lekin u bilan akropolni egallagan tarafdorlari ushlab olinib qatl etildi.

Drakont qonunlari. Afinada ijtimoiy vaziyat og‘irligicha qoldi. Yevpatridlarning hukmronligiga xavf yo‘qolmadi. Hukmron tabaqa oddiy xalqni tinchlantirish uchun xalqning ahvolini yengillashtiradigan, o‘z manfaatlariga zid bo‘lmagan ma’lum bir o‘zgarishlarni amalga oshirdilar. Areopagning topshirig‘i bilan arxont Drakont mavjud ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarni hisobga olib, mavjud amaldagi an’ana va tartib-qoidalarni umumlashtirib, zamonga moslab yangi qoidalarni ishlab chiqdi. Drakont tomonidan mil. avv. 622-yilda og‘zaki qonunchilikning yozma to‘plamga keltirdi. Qonunlar to‘plami Afinaning markaziy maydoniga maxsus taxtalarda hamma ko‘rishi uchun ilib qo‘yildi. Bu qonunlar to‘plami urug‘ zodagonlarining hokimiyatini zaiflashtirdi, oddiy aholini huquqiy ahvolini yaxshiladi. Qonunlar to‘plami ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismida mavjud huquqiy normalarning ko‘pchiligi va yevpatridlarning imtiyozlarini saqlab qoladigan qoidalar hamda qat’iy qarz huquqi saqlanib qoldi. Ikkinchi qismda yangi zamonga mos vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar hisobga olinib, urug‘chilik jamoasining qoidalaridan biri xun olish taqiqlandi. Jinoiy ishlar turi aniqlashtirildi, jumladan, ataylab va beixtiyor odam o‘ldirish o‘rtasidagi farq aniqlashtirilib, jazolar ham tegishli tarzda o‘zgartirildi. Mulkka egalik huquqi xususiy mulk tu-

shunchasi kiritilib, u qarindoshlar uchungina daxlsiz bo‘lmay, yaqin qarindoshlarga ham tegishli bo‘ldi. Boshqacha aytganda, xususiy mulk va urug‘ mulki huquqiy jihatdan ajratildi. Xususiy mulk daxlsizligini ta’minlash uchun har qanday xususiy mulkka daxl qilishga o‘lim jazosi belgilandi. Misol uchun, bog‘dan olma o‘g‘irlash, yer ulushini bosib olish kabilarga bir xil jazo-o‘lim jazosi belgilandi. Jazolash funksiyasi areopagga berildi. Mil. avv. IV asrda yashagan afinalik notiq Demad Drakont qonunlarini «siyoh bilan emas, qon bilan yozilgan» deb tafsiflagan. Qonun bilan mehnat qilmagan fuqarolar ham jazolangan. Drakont qonunlari bizgacha yetib kelmagan, faqat odam o‘ldirishga tegishli qismlari mil. avv. 409 – 409-yillardagi Afina yozuvlarida saqlanib qolgan.

2. Solon islohotlari. Drakont qonunlari Attika aholisining eng katta muammolaridan biri – qarz masalasini hal qila olmadi. Xususiy mulk huquqiga ega bo‘lgan yevpatridlar o‘z yer-mulklarini kambag‘allashgan kichik yer egalari – dehqonlarning yerlari hisobiga va boshqa yo‘llar bilan yana ko‘paytirdilar. Kambag‘allashgan dehqonlar qarzlari uchun hatto bolalarini ham qullikka sotdilar. Qarzi uchun qul qilinganlarning bir qismi boshqa shahar-davlatlar va hududlarga sotib yuborildi. Afinada yevpatridlar bilan aholining kambag‘al qismi bo‘lgan oddiy demos o‘rtasida ijtimoiy ziddiyatlar kuchaydi. Bozor uchun mahsulot ishlab-chiqarish natijasida, savdo-hunarmandchilik tez rivojlanib, ijtimoiy tabaqalanish kuchaydi. Zodagon-evpatridlar unumdor yerlarni bosib oldilar, oddiy kambag‘al dehqonlarning ahvoli og‘irlashdi. Attika viloyatida dehqonlarni qarzga botish jarayoni kuchayib ketdi va natijada, qarzi uchun qul qilish odatdagi holga aylanib qoldi. Attikadagi bu davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat to‘g‘risida Plutarx shunday hikoya qiladi: «Kambag‘allar bilan

boylar o‘rtasidagi tengsizlik oliy nuqtasiga yetib, davlat favqulodda og‘ir holatda turar edi; tiraniya yuzaga kelgan taqdirdagina tartibsizliklar tugab u o‘zini saqlab qolishi mumkindek ko‘rinar edi. Barcha oddiy xalq boylardan qarzdor edi, ayrimlar yerga ishlov berib hosilni oltidan bir qismini boylarga to‘lar edilar; ularni «gektemorlar» va «fetlar» deb ataydilar; boshqalar boylardan o‘z jismlarini garovga qo‘yib, pul qarz olar edilar; qarz beruvchilar ularni qulga aylantirish huquqiga ega edilar; shu bilan birga, ayrimlar o‘z yurtlarida qul bo‘lib qoldilar, boshqalar begona yurtlarga sotib yuborildi. Ko‘plar hatto o‘z farzandlarini sotishga majbur bo‘ldilar va qarz beruvchilarning shafqatsizligi tufayli o‘z tug‘ilib o‘sgan yurtlarini tashlab, o‘zga yurtlarga qochishga majbur bo‘ldilar. Lekin ko‘pchilikni tashkil etgan va katta jismoniy kuchga ega bo‘lgan kishilar to‘plandilar va bir-birlarini loqayd tomoshabin bo‘lib qolmaslikka undadilar va bir ishonchli kishini yo‘lboshchi tanlab, to‘lov muddatini mutlaqo o‘tkazib yuborgan qarzdorlarni ozod qilish, yerni esa qayta taqsimlash va davlat tuzumini; o‘zgartirishga ko‘ndirdilar». Plutarx. Saylanma: hayot tasvirlari I tom, 168-bet.

Attikada yevpatridlarning og‘ir zulmi ostida qolib, boshqa chorasi qolmagan oddiy aholi – demos o‘z haq-huquqi uchun harakatga keldi. Mil. avv. VII asrning ikkinchi yarmida Attikada ijtimoiy-siyosiy vaziyat keskinlashib ketdi. Zodagon-evpatridlar o‘rtasida hokimiyatni bosib olish uchun kurash boshlandi. Solon (mil. avv. 640 – 559-yillar) Attikaning eng qadimgi oilalaridan birining vakili bo‘lib, uning ajdodi podshoh Kodriy urug‘iga borib taqalar edi. Yevpatrid Solon ancha yerga ega bo‘lib, savdo-hunarmandchilik faoliyati bilan shug‘ullanib, boylik to‘plagan. U harbiy qobiliyatga ega, ma’lumotli bo‘lgan va she’rlar yozgan. Plutarxning hikoya qilishicha, Afinaning uzoqni ko‘ra

oladigan odamlari vaziyatni faqat jinoyatda boylarga sherik bo‘lmagan, kambag‘allarga o‘xshab qashshoq bo‘lmagan, hech qanday aybi bo‘lmagan Solondan hokimiyatni boshqarishni, yani arxont lavozimini egallashni va ixtiloflarga chek qo‘yishni iltimos qilganlar.

Solon mil. avv. 594-yilda arxont lavozimiga saylanib, yuzaga kelgan og‘ir vaziyatdan chiqish va o‘zi mo‘ljallagan islohotlarni boshlash uchun boshda o‘ziga xos siyosat yuritadi: kambag‘allarga yerni taqsimlashga, boylarga esa qarz majburiyatlarini undirishga yashirincha va’da beradi.

Ijtimoiy sohadagi islohotlar. Solon yuzaga kelgan og‘ir ijtimoiy muammolarni bartaraf qilish uchun Afina shahar-davlatida keng miqyosda islohot o‘tkazdi. Eng avvalo, «seysaxteya» (qarzlarni olib tashlash) amalga oshirildi. Afinaning qarzdor bo‘lgan va qulga aylantirilgan, yevpatridlarning yerlarida ijarachi bo‘lib ishlaydigan afina fuqarolari bo‘lgan dehqonlarning qarzlari bekor qilindi va ularning yerlari o‘zlariga xususiy mulk sifatida qaytarib berildi. Chetga qarzi uchun qul qilib sotib yuborilgan afinalik fuqarolar jamoa hisobidan pul to‘lanib, Afinaga qaytarildi. Afina fuqarosini qarzi uchun qul qilish abadiy taqiqlandi. Katta yer egaligi cheklandi. Afina fuqarolarining boy qatlami qo‘lida katta miqdordagi yer to‘planib qolmasligi uchun belgilangan miqdordan ortiqcha yer ulushiga ega bo‘lish taqiqlandi. Yerga egalik qilish me’yori belgilandi.

Solon qonli Drakon qonunlarini bekor qildi, faqat odam o‘ldirgani va boshqa jinoiy ishlar uchun hamda kim kambag‘al bo‘lsa, ayol yoki qulni xafa qilgan bo‘lsa beriladigan jazo kabi qonunlar saqlanib qoldi. Solonning qarori bilan vatan uchun urushda qurbon bo‘lganlarning bolalari davlat hisobidan tarbiyalangan. Yana bir qaror bo‘yicha vatan uchun jonini fido

qilganlar tantanali danf qilingan. Bu qarorlar afinaliklarda vatanparvarlik tuyg‘ulari shakllanishiga xizmat qilgan.

Oila-nikoh munosabatlarida o‘zgartirishlar qilindi. Oila qurishdan maqsad boylik orttirish ilinji bo‘lmasligi uchun qalin berish odati bekor qilindi, kelin faqat uchta gimatiy (kiyim) va uncha qimmat bo‘lmagan ayrim ro‘zg‘or buyumlarini olib kelishiga ruxsat berildi. Solon yengiloyoq ayollarga maxsus uylarda qadimgi ma’lum kasb bilan shug‘ullanishga ruxsat etdi. Faqat buning uchun qat’iy baholar va soliq to‘lash belgilandi. Xiyonat joyida o‘z ayolining o‘ynashini jinoyat ustida ushlab olsa, erga uni o‘ldirish huquqini berdi; agar kimdir ozod ayolni o‘girlab, uni zo‘rlasa 100 draxma jarimaga, qo‘shmachilik qilgan 20 draxma jarimaga hukm qilinadigan bo‘ldi. Oilada qiz va singillarni sotish taqiqlandi. Agar qiz erkak bilan jinsiy aloqada bo‘lgani fosh etilmasa, bundan mustasno edi. Vafot etganlarga nisbatan salbiy gapirishni, ibodatxona sud va davlat binolarida tirik odamni haqorat qilishni taqiqlovchi qonunlarni chiqardi. Bu qonunlarni buzganlar haqorat qilingan odamga va xazina hisobiga jarima to‘lashlari kerak edi.

Xo‘jalik faoliyatini rag‘batlantiradigan qator islohotlar o‘tkazildi. Pul islohoti amalga oshirildi. Savdo-hunarmandchilikni rivojlantirish uchun eskirgan uzunlik va og‘irlik o‘lchov birliklari bekor qilinib, evbey o‘lchov birliklari tizimi joriy etildi. Attikadan mahsulotlarni chetga chiqarish tartibga solindi, chetga faqat zaytun yog‘ini chiqarishga ruxsat berildi, boshqa mahsulot chiqarishga ruxsat berilmadi. Kimki taqiqni buzsa, xazinaga yuz draxma jarima to‘lashi belgilab qo‘yildi. Solon g‘alla tanqis bo‘lgani uchun Attikadan g‘alla chiqarishni taqiqladi. Bu chora-tadbirlar Afina bozorida chayqovchilikni tugatib,

dehqonchilikni rag‘batlantirdi va zaytun moyi, vino eksport qilish uchun qulay shart-sharoit yaratdi.

Fuqarolik berish haqida qonun qabul qilindi. Bu qonunga ko‘ra, kim agarda o‘z shahridan umrbod quvg‘in qilingan bo‘lsa yoki butun uyi bilan Afinaga ko‘chib kelib, hunarmandchilik bilan shug‘ullansa, fuqarolik berishga asos bo‘ladigan bo‘ldi. Solongacha vasiyatlar tuzilmas edi, vafot etgan odamning uyi va puli uning qarindosh-urug‘ida qolar edi. Solon esa, vafot etgan odamning farzandi bo‘lmasa, mol-mulkini qarindoshlari emas, boshqa o‘zining do‘stiga yoki boshqa bir kishiga vasiyat qilish huquqiga ega bo‘lishi to‘g‘risidagi qonunni joriy qildi. Lekin vasiyat qiluvchi vasiyatni tuzish paytida kasal bo‘lmasligi, aqli joyida bo‘lishi, qamoqda bo‘lmasligi, dori yoki biror ayolning ta’siri ostida bo‘lmasligi kerak edi. Vasiyatlar erkinligi to‘g‘risidagi qonun urug‘chilik aloqalarini zaiflashtirdi. Alohida oilalarning iqtisodiy kuchayishiga shart-sharoit yaratdi. Solon Attikada suv va hosildor yer taqchil bo‘lgani uchun ko‘payib borayotgan aholini o‘z tirikchiligini o‘tkazish uchun hunar o‘rganib, hunarmandchilik bilan shug‘ullanishga rag‘batlantirdi. Areopag Solonning topshirig‘i bilan har bir fuqaro qanday mablag‘ hisobiga yashayotganini kuzatish va foydali mehnat bilan mashg‘ul bo‘lmagan bekorchilarni jazolashni topshirdi. Otasi hunar o‘rgatmagan o‘g‘il keksaygan otasiga g‘amxo‘rlik qilish majburiyatidan ozod qilindi. Ortiqcha hashamat, katta xarajat talab qiladigan to‘ylar, qimmatga tushadigan dafn xarajatlari, ko‘p miqdordagi jonivorlarni qurbon qilishni talab qiladigan qurbonlik keltirishlarni taqiqlovchi qonunlar qabul qilindi.

Ijtimoiy-siyosiy sohada yana qator islohotlar amalga oshirildi. Solon Attikaning barcha erkin aholisini daromad miqdoriga qarab, to‘rt toifaga bo‘ldi. Fuqarolarning huquq va majburiyatlari shunday taq-

simlandiki, boy fuqarolar avvalgidek to‘la hokimiyatga ega bo‘ldilar. Shu bilan birga, fuqarolik jamoasida ularga katta majburiyatlar yuklandi. Yangi yuqori tabaqaga mansub bo‘lish yer ulushidan yillik olinadigan daromadga bog‘liq bo‘ldi. Bu yer egasini yerga yaxshi ishlov berib, ko‘p hosil olish imkoniyatini qidirishga majbur qilar edi. Endilikda u yoki bu oqsuyak urug‘ga mansublik emas, balki aynan daromad miqdori, yerga mehnat qilish fuqaroning jamiyatdagi obro‘sini o‘lchovchi mezoni bo‘ldi.

Davlat boshqaruvi islohoti. Sud tizimi isloh qilindi. 30 yoshga yetgan erkin Afina fuqarolaridan sud maslahatchilari – gemey joriy qilindi. Gemey fuqarolar ishi bo‘yicha oliy appelyatsiya huquqiga ega bo‘ldi. Faqat u jinoiy ishlar bo‘yicha hukm chiqara olar edi. Odam o‘ldirish bo‘yicha sud ishi sobiq arxontlar kengashi, areopag qo‘lida qoldi.

Siyosiy huquq mulkiy senz asosida taqsimlandi. Afina jamiyati to‘rt toifaga ajratildi:

1. Pentakosiomedimnlar – bir yilda 500 medimn g‘alla yoki 500 metret (bir metret – 39 litr) zaytun yog‘i oladigan fuqarolar.
2. Suvoriylar (gippeylar).
3. Zevgitlar – ikkita eshak aravaga ega bo‘lgan og‘ir qurolli piyodalar.
4. Fetlar – hunarmandlar.

Faqat birinchi uch toifa amalda davlat lavozimlarini egallashi mumkin edi. Lekin bu toifalarga kirganlarning o‘tmish hayoti qat’iy tahlil qilinar edi. Bu «dokimatsiya» deb atalgan. Dokimatsiyaga ko‘ra, fuqaroning to‘la fuqarolik huquqiga, oila sag‘anasiga egaligi, harbiy majburiyatni o‘tagani, soliqlar to‘lovi va ota-onaga hurmat ko‘rsatishi tekshirilgan. Oliy arxont mansabiga faqat pentakosiomedimnlar da’vo qilishlari mumkin edi. Fetlar polisning bevosita boshqaruvidan chetlashtirildilar.

Xalq yig‘ini – eklessiyada oddiy fuqarolar davlatning umumiy siyosatini belgilashda mansabdor shaxslarni saylashga ta’sir ko‘rsatish, maslahatchilar sudi (gelieya)da ishtirok etib, mansabdor shaxslarning suiiste’mollarini yo‘q qilishlari mumkin edi. Solon fuqarolarning siyosiy faolligiga jiddiy e’tibor berdi. U shunday bir qonunni qabul qildiki, bu qonunga ko‘ra, kimki xalq harakatlari paytida kimningdir tomonini olmasa, u nomussiz deb e’lon qilingan. Bu qonun bilan Solon ko‘ngilchan odamlarning ijtimoiy ishlarga zararli bo‘lgan loqaydligining oldini olmoqchi bo‘ldi. Chunki loqaydlik oqibatida zararli ishlar ustunlikka erishadi. Xalq yig‘inida faqat Afina fuqarolari ishtirok etish huquqiga ega edilar. Biror bir chet ellik o‘lim jazosi tahdidi ostida xalq yig‘iniga kelishga jur’at eta olmas edi.

Solon davrida davlat tuzilmasining yana bir yangi organi – maslahatchilar sudi (gelieya) joriy qilindi. Sudyalar barcha fuqarolardan saylangan. Solon islohotlari polis boshqaruvining demokratik shakllari asosini yaratdi, lekin bu tizim izchil bo‘lmaganligi sababli, zodagonlar hokimiyatini to‘la tugata olmadi. Solon islohotlari Afinadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni tubdan o‘zgartirdi.

Solongacha qorong‘i tunda kengash quradigan jinoyat sudi vazifasini o‘taydigan **Areopag**ni Solon mutlaqo qayta qurdi. Areopag a’zoligiga bir yil muddatdan keyin vazifasini o‘tab bo‘lgan arxontlar tayinlandi. Ya’ni areopag faqat birinchi toifa vakillaridan tashkil topdi. Areopag odam o‘ldirish va boshqa og‘ir jinoiy ishlardan tashqari, qonunlar va diniy marosimlar bajarilishi ustidan nazorat qilish vazifasini bajardi. Shu bilan birga, u kengash va xalq yig‘inining davlat farovonligiga xavf soladigan va mavjud davlat tuzumini buzadigan har qanday qaroriga qarshi e’tiroz bildirishi mumkin edi.

Plutarxning yozishicha, Solon islohotlarini amalga oshirishda festlik Epidemid yashirincha yordam bergan va uning qonunchiligi uchun yo‘l ochib bergan. U diniy urf-odatlarni soddalashtirdi, vafot etganlarga motam tutish tartibini yumshatdi. Qurbonlik keltirishni bevosita dafn paytida amalga oshirishni joriy qilib, ko‘pchilik ayollar amal qiladigan ibtidoiy urf-odatlarni bekor qildi. Solon islohotlari bo‘lg‘usi Afina demokratiyasining kurtagi edi. Arxont va areopagning roli o‘zgarmadi. Polisning urug‘, fillarga bo‘linishi saqlanib qoldi. Islohotlar fillarda urug‘ huquqining yemirilishiga olib keldi.

Qonunlar yog‘och taxtachaga yozilib, shaharning markaziy maydoniga qo‘yildi. Solon o‘zi joriy qilgan qonunlar o‘z kuchida qolishi muddatini 100 yil etib belgiladi. Shundan so‘ng Solon arxont vazifasini topshirib, Sharq mamlakatlari bo‘ylab uzoq sayohatga chiqdi. Solon qonunlari Attikada ijtimoiy-siyosiy vaziyatni bir qadar yumshatdi, lekin to‘la barqaror qilmadi. Turli ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi munosabatlar keskinligicha qoldi.

3. Afinada Pisistrat tiraniyasi. Solon islohotlari barcha ijtimoiy muammolarni yecha olmadi. Solon hokimiyatdan chetlashgach, Afinada ko‘p kishilar hokimiyatni boshqarishga xohish bildirdilar. Afinada uch guruh o‘rtasida: katta yer egalari Likurg boshchiligida, Attika dengiz qirg‘og‘i aholisi Megakl boshchiligida, Attika tog‘li hududlari kichik dehqon – yer egalari manfaatlarini himoya qilgan Pisistrat o‘rtasida kurash boshlandi. Solon islohotlaridan norozi bo‘lgan boy yer egalari Likurg boshchiligida bu qonunlarni o‘z foydalariga o‘zgartirishni talab qildilar. Megakl tarafdorlari esa, Solon qonunlarini aksincha o‘zgartirmaslikni talab qildilar. Afinada bu kurash 30 yil davom etib, tomonlarning goh unisi yoki boshqasini qo‘li baland keldi, bu beqarorlik Attikaning iqti-

sodiyotiga katta zarar yetkazdi. Solonning qarindoshi bo‘lgan Pisistrat shuhratparast kishi bo‘lib, oliy hokimiyatni egallab, nafaqat o‘z shaxsiy manfaatlari, balki xalq manfaatini ko‘zlab oliy hokimiyatni egalladi.

Pisistrat Afinani mil. avv. 560 – 527-yillarda boshqardi. Attikaning kambag‘al mayda yer egalari va yersiz fuqarolari yerlarni qayta taqsimlashga umidvor bo‘lib, Pisistrat tiraniyasini qo‘llab-quvvatladilar. Afina fuqarolari orasida Solon katta hurmat-e’tiborga ega edi. Pisistrat o‘z hokimiyatini mustahkamlash va Afinada vaziyatni barqarorlashtirish uchun o‘z qarindoshi Solondan foydalanishga harakat qildi. U Solonning hurmat-e’tiborini joyiga qo‘yib, o‘z tomoniga og‘dirishga erishdi. Natijada, Solon Pisistratga maslahatchi bo‘lib xizmat qildi. Solonning ko‘pgina qonunlari saqlanib qoldi. Solon vafotidan keyin Pisistratning o‘zi ham bu qonunlarga qat’iy rioya qildi. Aytishlaricha, Pisistratni tiran bo‘lgan paytida odam o‘ldirishda ayblab, areopag sudiga chaqirganlarida u o‘zi kelgan. Arxont va kengash a’zolari avvalgidek saylangan, lekin kengash a’zolarining ko‘pchiligi Pisistrat tarafdorlari edi.

Pisistrat Solon o‘rnatgan davlat organlarining boshqaruv faoliyatini to‘xtatib, Afina shahar-davlatini mutlaq boshqardi. Ichki siyosatda u mayda yer egalari va savdo-hunarmandchilik tabaqalarini qo‘llab-quvvatladi, o‘z raqiblari bo‘lgan zodagonlarni hokimiyatni boshqarishdan chetlatdi va ularni ta’qib qildi. Pisistratning eng ashaddiy dushmanlari – zodagonlar quvg‘in qilinib, ularning yer-mulklari musodara qilindi. Kam yerga ega bo‘lgan dehqonlarga musodara qilingan yerlarning bir qismini taqsimlab berdi. O‘ta muhtoj mayda yer egalariga imtiyozli qarzlar berdi. Qishloq kambag‘allari uchun soliq majburiyatlari yengillashtirdi. Lekin qishloq jamoalarining huquqlari kamaytirildi. Yer egalarini Afi-

naga sudga kelishdan qutqarib, sud ishlarini joyida ko‘rish uchun qishloq joylarida sudyalarni tayinladi. U Attika hududida xavfsizlikni ta’minlash maqsadida fuqarolardan qurollarini tortib oldi va o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun 50 kishidan iborat tansoqchini saqladi. Pisistrat ilk bor fuqarolar daromadiga soliq va dehqonlarga hosilning o‘ndan biri miqdorida soliq joriy qildi. Bu o‘rtahol dehqonlarning moddiy ahvolini og‘irlashtirdi.

Pisistrat Afina dengiz savdosi rivojlanishiga qulay shart-sharoit yaratdi. U Kichik Osiyoda Dardanell bo‘g‘oziga chiqadigan muhim nuqtani bosib olib, Afinaning Qora dengizga boradigan dengiz yo‘llari ustidan nazoratini o‘rnatdi va savdo kemalarini qurishni rag‘batlantirdi. Egey dengizining Frakiya qirg‘og‘ida boy ruda konlari bosib olindi. Lemnos va Imbros orollarida Afinaning hukmronligi o‘rnatildi. Fessaliya va Peloponnesning Argos va Korinf shahar-davlatlari bilan do‘stona aloqa o‘rnatildi. Pisistrat boshqa shaharlarning tiranlari bilan juda yaqin aloqa o‘rnatdi. Hunarmandchilikning eng muhim sohasi – kulolchilik yanada rivojlandi. Afinaning Keramik mahallasida yashaydigan kulollar qizil rangli idish-tovoqlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydilar.

Afinada savdo-hunarmandchilikni rivojlantirish maqsadida bir qancha jamoat inshootlari qurilishini amalga oshirdi. Pisistrat davrida Afina akropolida Afina Pallada, Pifiyalik Apollon ziyoratgohi, Elevsinada ibodatxonalari va yangi bozor qurildi. Pirey porti qurilishi davom etdi, 9-quvurli suv o‘tkazgich barpo etildi, bu suv quvuri milodiy 18-asrgacha ishlatildi. Attikada ishsiz bo‘lgan bir qism aholini jamoat ishlari bilan band qildi, ularga mehnati uchun haq to‘landi. Shoirlar va rassomlarga homiylik qildi. Uning farmoyishi bilan Afinada xalq qo‘shiqchilari to‘planib, ularning so‘zlaridan Gomerning mashhur «Iliada» va

«Odisseya» poemalari yozib olindi. Pisistrat urushda nogiron bo‘lgan askarlarni davlat hisobidan boqish to‘g‘risida qonun qabul qildi. Pisistratning tadbirlari eski urug‘ zodagonlarining mavqeyiga putur yetkazdi. Ularning ko‘p vakillari Afinadan quvg‘in qilindi.

Pisistratning hokimiyati mustahkam emas edi, uning raqiblari Megakl va Likurg quvg‘indan qaytib, Afinada o‘z tarafdorlari yordamida hokimiyatni egalladilar va Pisistrat 554-yilda shahardan quvg‘in qilindi. Lekin tez orada, Megakl va Likurg o‘rtasida ixtilof paydo bo‘ldi. Likurgning kuchli tazyiqi ostida qolgan Megakl Pisistratga o‘z qiziga uylanishni taklif qildi, buning evaziga Pisistratni Afinada yana oliy hokimiyatga qaytishiga yordam berishini aytdi. Bu taklif Pisistrat uchun ayni muddao bo‘ldi, u Megaklning qizi bilan nikohdan o‘tdi. Natijada, Pisistrat Megakl yordamida mil. avv. 550-yilda Afinada yana oliy hokimiyatni qo‘lga oldi. Shundan so‘ng u Megaklning qizi bilan nikohini bekor qildi. Bunday makkorlikdan g‘azablangan va o‘zini haqoratlangan deb hisoblagan Megakl Pisistratning dushmanlari bilan aloqa o‘rnatdi. Bundan xabar topgan Pisistrat Afinadan chiqib ketishga majbur bo‘ldi.

Pisistrat qo‘shni Eretriyada quvg‘inda yashab Afinaga qaytish uchun pul mablag‘i va kuch to‘play boshladi. Faqat 1 yildan so‘ng Pisistrat kuch to‘plab Afinaga qaytdi va o‘zi to‘plagan qo‘shin bilan Afinaga hujum qildi. Pisistrat Pallen yonidagi jangda raqiblari ustidan g‘alabaga erishdi. Afinada hokimiyatni qo‘lga olib, raqiblari bilan kurashni oldini olish uchun o‘z o‘g‘illarini qochoqlar orqasidan yuborib, ularga qaytishni iltimos qilib, ularga hech qanday chora ko‘rmaslikka va’da berdi. Qochoqlar qaytgach, ular bilan kurashdan voz kechdi. Kelgusida raqiblardan xalos bo‘lish uchun o‘ziga raqib bo‘lishi ehtimoli bo‘lgan yoki shubha qilingan zodagonlarning og‘illarini ga-

rov sifatida tashlandiq Naksos orolida ushlab turishga buyruq berdi. Pisistrat umrini oxirigacha (mil. avv. 527-yil) Afinani odillik bilan boshqardi. U doimo fuqarolarning ma'naviy tarbiyasiga alohida e'tibor berdi.

Mil. avv. 527-yilda Pisistratning vafotidan so'ng hokimiyat tinchlik bilan uning katta o'g'li Gippiy qo'liga o'tdi. Gippiy ukasi Gipparx bilan hokimiyatni bo'lishdi. Afinada bayram vaqtida afinalik fuqarolar Aristogiton va Garmodiy o'zlarini haqorat qilgani uchun Gipparxni o'ldirdilar. Shu vaqtdan boshlab, Gippiy hokimiyatni boshqarishda keskin choralarni qo'llashga o'tdi. Shubha ostidagi ko'pgina afinalik fuqarolar qatl etildi, mulki tortib olindi. Chet ellik yollanma askarlarga suyangan Gippiy ularga katta miqdorda haq to'ladi. Afinaning taniqli fuqarolari qo'rqib shahardan qochib ketdilar.

Pisistrat va uning o'g'illariga qarshi muxolifatda Afinaning qadimgi boy zodagon urug'i Alkmeonidlar turar edi. Bu paytda kuchli Ahamoniylar davlatining Kichik Osiyoni egallab, Egey dengizidan Qora dengizga boradigan yo'llarda o'z ta'sirini oshirishi yunonlarga yoqmadi. Fors savdo kemalari Afina dengiz savdosida katta raqibga aylandi. Natijada, Afinaga chetdan g'alla olib kelish vaqtinchalik uzilib qolib, oziq-ovqat mahsulotlari qimmatlashdi. Tabiiyki, bu aholining noroziligini keltirib chiqardi. Buning ustiga Pisistratning o'g'illari siyosiy faoliyatda otalari kabi boy tajribaga va aholi orasida obro'ga ega emas edilar. Ular hashamatli hayot tarziga berilib, bunday hashamatga o'rganmagan afinaliklarning qahr-g'azabini qo'zidilar va bo'shqaruvda zo'ravonlikka ruju qo'ydilar. Bu vaziyatdan, afinalik zodagonlar va Pisistratlar oilasining dushmanlari bo'lgan zodagon Aklmeonidlar oilasi unumli foydalandi. Alkmeonidlar Pisistratning o'g'illaridan hokimiyatni tortib olish uchun faol amaliy harakatni boshladilar. Afina zodagonlari va Alkme-

onidlar qo‘shni Spartani Afinaning ichki ixtiloflariga aralashishga chaqirdilar. Sparta podshohi Klemeon bu taklifni qabul qilib, Sparta qo‘shini bilan Attikaga bostirib kirdi. Afina aholisi spartaliklarga qarshilik ko‘rsatmadi. Tiran Gippiy g‘oliblarga taslim bo‘ldi va quvg‘inga ketdi.Shu bilan Attikada Pisistrarlar oilasining yarim asrlik tiraniyasi tugadi.

4. Klisfenning islohotchilik faoliyati. Pisistrat va uning o‘g‘illari tiraniyasidan so‘ng Afinada turli ijtimoiy qatlamlar o‘rtasida kurash kuchayib ketdi. Pisistrat va o‘g‘illarining 50 yillik (mil. avv. 560 – 510-yillar) tiraniyasi ag‘darilganidan so‘ng yevpatridlarning o‘z hukmronliklarini tiklashga urinishlari Afina demosining keskin qarshiligiga uchradi. Alkmeonidlar urug‘idan bo‘lgan Klisfen toifaviy tuzum sarqitlaridan xoli bo‘lib, Afinaning qudratini yangi tiraniyani o‘rnatish bilan emas, aksincha barcha fuqarolarning huquqlarda to‘la va mutlaq tengligini amalga oshirish bilan ta’minlash mumkin deb hisobladi. Klisfen mil. avv. 509-yilda qo‘shimcha vakolatlar bilan birinchi arxont lavozimiga saylandi. Uning islohotchilik dasturining asosiy maqsadi Solon asos solgan demokratik muassasalarni rivojlantirish va mustahkamlash, demokratiyani oligarxik to‘ntarish yoki tiraniyaning o‘rnatilishidan himoya qilish mexanizmini yaratish edi. Demos qo‘llab-quvvatlagan Klisfen qator islohotlarni o‘tkazdi (mil. avv. 509 – 507-yillar).

Klisfen eng avvalo, demokratiyaning ijtimoiy tayanchi sifatida jamoasini mustahkamladi va kengaytirdi. Klisfen ma’muriy-hududiy islohotni amalga oshirdi. Azaldan mavjud bo‘lgan urug‘-zodagonlari va boylarning hokimiyatini tayanchi bo‘lgan to‘rt sinf (fillar) tugatildi. Klisfen Attika viloyatining geografik tuzilishi bo‘yicha har birining tarkibida 10 dem (jamoa) bo‘lgan 10 fil (okrug)ga bo‘ldi. Fillarga chet elliklar va meteklar birlashtirildi. Shu bilan urug‘ zo-

dagonlari hokimiyati tugatildi. Har bir fil 10 demdan iborat bo‘lib, har bir dem oliy ma’muriy organ Besh yuzlar kengashiga 25 kishigacha a’zo saylagan. Afina ko‘ngilli qo‘shinlari tarkibi ham o‘zgardi. Uning asosiy qismini og‘ir qurollangan jangchi-goplitlar tashkil etdi. Ular ko‘p sonli uchinchi toifa zevgitlardan to‘ldirilgan. Fetlar yengil qurollangan jangchilar va harbiy flot matroslarini tashkil etdilar.

Afina siyosiy ustqurmasida zodagonlar tayanchi bo‘lgan areopagga qarshi turgan To‘rt yuzlar kengashi (Bule) tashkil etildi. Kengash a’zolari to‘rt fildan yuztadan fuqaro saylanadigan, muntazam faoliyat ko‘rsatadigan organ bo‘ldi. To‘rt yuzlar kengashi xalq yig‘inida ko‘riladigan va tasdiqlanadigan masalalarni tayyorlar edi. Xalq yig‘ini (ekklesiya) to‘laqonli barcha vakolatlarga ega bo‘lgan boshqaruv organi bo‘lib, fuqarolarning barcha qatlamlari ovoz berish va uning ishida qatnashish huquqiga ega bo‘ldilar. Xalq yig‘ini muntazam yig‘iladigan bo‘ldi (mil. avv. V asrda yiliga 40 marta yoki 9 kunda 1 marta).

To‘rt yuzlar kengashi endilikda 500 fuqaroni o‘z tarkibiga kiritdi. Har yangi 10 hududiy fildan 50 kishi bu kengashga saylandi. Shu bilan birga, yangi Besh yuzlar kengashi tarkibi (Bule) har yili to‘la yangilandi. Ikki martadan ortiq saylanish mumkin emas edi. Klisfen tub joy aholi huquqiga kelgindi aholi huquqini tenglashtirdi. Endi fuqarolik qadimgi urug‘ filiga mansublik bilan emas, balki eng kichik hududiy birlik – demga mansublik bilan belgilandi. Endilikda har bir fuqaro o‘z ismiga otasining avlodi ismi emas, o‘z demining nomini qo‘shdi. Bu fuqarolik jamoasining barqarorligiga olib keldi.

Yana bir siyosiy yangilik tiraniyaning o‘rnatilishiga qarshi qo‘yilgan ostrakizm qonuni qabul qilindi. Bu qonunga ko‘ra, demokratiya, tenglik va erkinlikka tahdid qiladigan fuqaro Afinadan 10 yil muddat-

ga, keyin besh yil muddatga quvg‘in qilinishi mumkin bo‘lgan. Quvg‘in qilinadigan fuqaroga qarshi 6 ming kishi ovoz berishi kerak bo‘lgan. Bu qonun siyosiy hayotda mil. avv. 487-yildan 417-yilgacha qo‘llanib, shu davrda tiraniyaning uch tarafdori Afinadan haydab yuborilgan. Klisfenning islohotlari urug‘chilik aloqalarining uzilishi va aholining aralashib ketishiga olib keldi. Attika aholisi yashash joyiga qarab hududiy aloqalar bo‘yicha birlashdi. Urug‘ fillari to‘la tugatildi.

Bu vaqtda zodagonlar Isagor boshchiligida hokimiyatni zodagonlarga qaytarish uchun Spartadan yordam so‘radilar. Spartaning kichik harbiy qismi Afinaga kirdi. 700 ta oila quvg‘in qilindi, beshyuzlar kengashi tarqatib yuborildi. Lekin oddiy xalq qurollanib, spartaliklarni Afinadan chiqib ketishga majbur qildilar. Spartaning yangidan tazyiq o‘tkazishidan qo‘rqqan afinaliklar forslardan yordam so‘radilar. Sard shahrida turgan Eron satrapi Klisfen boshchiligidagi Afina elchilarini qabul qildi. U yordam berishga va’da qilib, faqat fors podshohiga yer va suv berishga (qaramlik belgisi) rozi bo‘lishni so‘radi. Elchilar bunga rozi bo‘ldilar. Lekin afinaliklar bu shartnomani rad qildilar. Klisfen Afinaga qaytishi bilan u Afinaga xiyonat qilgan hisoblanib, ostrakizm yo‘li bilan Afinadan quvg‘in qilindi.

Klisfen islohotining ahamiyati shundaki, bu islohotlar urug‘chilik munosabatlari va urug‘ zodagonlarining hokimiyati qoldiqlarini to‘la tugatdi. Afina davlat qurilishiga demokratiyaning to‘la hukmronligini o‘rnatdi. Barcha Afina fuqarolari (Afinada yashayotgan chet elliklar, qullar bundan mustasno) polisning siyosiy hayotida faol qatnashdilar. Ular har qanday davlat lavozimlariga saylanishlari, o‘z fuqarolik jamoalari siyosiy hayotini eng muhim muammolarini yechishda ishtirok etishlari mumkin edi. Barcha yunon polislari orasida Afina shahar-davlati eng ilg‘or va rivojlangan demokratik davlat qurilishiga ega bo‘ldi.

MIL. AVV. V ASRDA YUNON SHAHAR-DAVLATLARI

«Fukidid Perikl davridagi davlat tuzumini aristokratik tuzum sifatida tasvirlaydi, qaysiki faqatgina nomi bilan demokratik aslida birgina yetakchi bo‘lgan kishining hukmronligi edi».

Plutarx

1. **Yunon shahar-davlatlari va Ahmoniylar davlati munosabatlari.**
2. **Afina dengiz ittifoqi.**
3. **Afina shahar-davlatining yunon dunyosidagi mavqeyining kuchayishi**.
4. **Afina shahar-davlatining ijtimoiy-siyosiy hayoti.**

1. Yunon shahar-davlatlari va Ahmoniylar davlati munosabatlari. O‘quv va ilmiy adabiyotlarda Ahmoniylar davlati bilan yunon shahar-davlatlari o‘rtasida mil. avv. V asrning birinchi yarmida bo‘lib o‘tgan bir necha urushlar to‘g‘risida katta o‘rin ajratilib, yunonlarning faoliyati bo‘rttirib tasvirlanadi. Mil. avv.V asrda Old Osiyo va O‘rtayer dengizi sharqiy qirg‘og‘i Ahmoniylar davlati tarkibiga kirdi. Mil. avv. VI asr oxirida Yunonistonda polis tizimining shakllanishi tugadi. Uncha katta bo‘lmagan mustaqil shahar-davlatlar shakllandi. Mil. avv. VI asr oxirida qadimgi Sharqning katta qismini birlashtirgan qudratli Ahmoniylar davlati va yunon dunyosiga o‘zining madaniy-siyosiy ta’sirini o‘tkaza boshladi. Mil. avv. V asr oxirida forslar Kichik Osiyodagi barcha yunon shaharlari va Lidiya podshohligini bosib oldilar.

Kichik Osiyo bilan gavjum savdo-sotiq olib borishga kirishgan yunon shahar-davlatlari dunyoning eng kuchli davlati bo‘lgan Ahmoniylar davlati bilan ham savdo aloqalarini yo‘lga qo‘yishga urindilar.

Ko‘pchilik yunon-shahar davlatlari Ahmoniylar davlati bilan hamkorlik qildi va bu qudratli davlat homiyligida o‘z iqtisodiyoti va tashqi savdosi va xavfsizligini ta’minladi. Kichik Osiyodagi yunon tayanch nuqtalari Ahmoniylar davlati hukmronligini tan oldi va fors davlatining homiyligi ostida sharq dunyosi va Yevropaning boshqa hududlari bilan o‘zi uchun foydali tashqi savdoni yo‘lga qo‘ydi. Yunonistondagi shahar davlatlarning ko‘pchiligi Ahmoniylar davlati bilan tinchlik asosida savdo aloqalarini yo‘lga qo‘yishga intildi. Ko‘p hollarda, yunon shahar-davlatlarining o‘zaro urushlarida ayrim yunon shaharlari Ahmoniylar davlatidan yordam so‘radilar. Mil. avv. 500-yilda Kichik Osiyodagi Milet shahri forslarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tardi. Qudratli fors davlati kuchiga qarshi tura olishiga ko‘zi yetmagan miletliklar yunon-shahar davlatlaridan yordam so‘radi. Lekin forslar bilan savdo aloqalaridan manfaatdor bo‘lgan yunon shaharlari jumladan, Sparta qo‘zg‘olonchilarga yordam bermadi. Faqat Afina shahar-davlati Miletga 20 ta kemani yordam sifatida yubordi. Qo‘zg‘olonchilarning birlashgan kuchlari fors podshohining satrapi Kichik Osiyodagi qarorgohiga hujum uyushtirilib, Sard shahrini ham bosib olib taladilar. Shundan so‘ng Kichik Osiyodagi Vizantiy, Kariya, Likiya va Krit oroli qo‘zg‘olonga qo‘shildilar. Forslar qo‘zg‘olonni bostirish uchun kuchli qo‘shin va flotni ishga soldilar. Boshda kritdagi qo‘zg‘olon bostirildi, keyin Pont va Gellespont qirg‘o‘g‘idagi qo‘zg‘olonlar bostirildi. Qo‘zg‘olonni boshlagan Miletning floti mil. avv. 494-yilda forslar tomonidan bostirilgan.

Yunonlarning boshqa mamlakatlar bilan urushlari siyrak bo‘lgan. Urush yunonlar uchun ba’zida faqat qo‘shni shahar yoki hududlarga bosqinlar uyushtirish va dushman shahrini qamal qilish bilan cheklangan. Dengiz bo‘yida yashagan yunonlar dengizda

va yaqin qirg‘oqlarda aholini talash va dengiz qaroqchiligi bilan shug‘ullanganlar. Yunonlar boshqa hududlarda tayanch nuqtalarni barpo qilishda mahalliy aholining yordami va mehmondo‘stligidan foydalanganlar. Ayrim yunon tayanch nuqtalari sekin-asta (Sirakuza, Tarent) kuchli shahar-davlatga aylanib, mahalliy xalqlarning yerlarini bosib olganlar.

Sarkardalar o‘z askarlarining intizomi, jangovar qobiliyatiga va jang bo‘ladigan joyda qulay o‘rnashishga uringanlar. Jang boshlanishi bilan jangchilarni boshqarish qiyin bo‘lgan. Bir yoki bir necha sarkardaning jangda halok bo‘lishi yoki jang maydonini tashlab qochishi harbiy qismda hujumga o‘tishga qo‘rquv, vahimaga tushishga, to‘s-to‘polonga olib kelgan. Yunon qo‘shinining asosiy qismi ko‘p borsa, ikki-uch minggacha bo‘lgan og‘ir qurollangan piyoda (goplitlar) bo‘lib, ular yelkama-yelka saf tortib (falanga) jang qilganlar. Goplitlar yov hujumiga bardosh berib, safni buzmay tursalar g‘alaba ta’minlangan. Ular nayzalar, zich saflangan qatorlari bilan himoya qilinganlar. Lekin goplitlar vahimaga tushsalar, ularning saflari buzilib, dushmanning goplitlarni yakka-yakka to‘zitib yuborishi oson bo‘lgan.

Fors podshohi Kserks qo‘zg‘olonchilarga yordam bergani sababli Afina va Eretriyani jazolash uchun mil. avv. 492-yilda Yunonistonga yurish boshladi. Shu tarzda yunon-fors urushi boshlandi. O‘quv adabiyotlarida yunon-fors urushlari miqyosi va ahamiyati hamda yunonlarning bu urushda doimo g‘alaba qilganlari to‘g‘risida bo‘rttirib bayon qilinadi. Aslida bu urush harakatlari fors davlati uchun asosiy muammo emas edi. Urush harakatlari uzluksiz davom etmadi, bu urush 5 harbiy yurish kompaniyasiga bo‘linadi. Yunon shahar-davlatlari kuchli Ahmoniylar davlati bilan katta mablag‘ va qurbonliklar, yo‘qotishlar bo‘ladigan urushdan ko‘ra, tinch savdo munosabatlarini

afzal ko‘rar edilar. Fessaliya, Fiva shahar-davlatlari forslarni qo‘llab-quvvatladilar. Yunon yozuvchisi Gerodot yunon shahar-davlatlarining bu urushga munosabati to‘g‘risida shunday yozadi: «Podshohning yurishi to‘g‘risida, go‘yoki u faqat Afinaga qarshi qaratilgan, aslida forslar butun Elladaga qarshi yurdilar degan mish-mishlar yurardi. Ellinlar bu tog‘risida mish-mishlar haqida allaqachon bilar edilar, lekin birgalikda harakat qilish uchun birlasha olmadilar. Ulardan ba’zilari allaqachon fors podshohiga bo‘ysunganlik ma’nosida tuproq va suvni berdilar va shu sababli varvarlar ularga zarar yetkazmaydilar, deb o‘yladilar. Ko‘pchilik ellin shaharlari umuman urushishni istamadilar, lekin forslarga ochiq xayrixoh bo‘ldilar». (Геродот. История. стр. 165. Историки античности. – М., Изд-во Правда, 1989 г.).

Barcha yunon shaharlari o‘z manfaat-ehtiyojlarining ustuvorligi asosida Ahmoniylar davlati bilan hamkorlik qildilar yoki u bilan ixtilofga kirishdilar. Yunon shahar-davlatlar uchun o‘sha davrda umumyunon manfaatlari tushunchasi mavjud emas edi. Chunki yunon shaharlari bir til va madaniyatga ega bo‘lsalar-da, ular o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy-iltimoiy, aloqalar zaif edi. O‘zaro mehnat taqsimoti, umumiy bozor mavjud bo‘lmay har xo‘jalik asosan natural edi. Fivalik, afinalik, spartalik tushunchalari mavjud bo‘lib, bir shahar aholisi ikkinchi bir shaharga borishi yoki o‘zga shaharda turganda uning xavfsizligi kafolatlanmagan edi. Yunon-shahar davlatlarida davlat va xalq manfaati yoki vatanparvarlik tuyg‘usi tom ma’noda shakllanmagan edi. Ayrim yunon oqsuyak zodagonlari va obro‘-e’tiborli fuqarolari, yunon tabiblari Ahmoniylar saroyining doimiy mehmoni (Pavsaniy, Femistokl va boshqalar) edilar. Ko‘pgina yunon shaharlari Ahymoniylar bilan hamkorlik qildilar va bu davlatning homiyligi hamda mablag‘lari

bilan o‘z shaharlarini barqaror rivojlanishini amalga oshirdilar. Yozma manbalarda bu to‘g‘risida ko‘plab ma’lumotlar mavjud.

Mil. avv. V asrning birinchi yarmida ayrim yunon shaharlarining forslar bilan urushi Fukididning «Tarix» kitobida spartalik yo‘lboshchilardan biri, Sparta podshohi Leonidning jiyani, Leonidning kichik yoshli o‘g‘li Plutarxning otalig‘i bo‘lgan Pavsaniyning podshoh Kserks bilan maxfiy hamkorligi to‘g‘risida shunday ma’lumot keltiriladi: «Pavsaniy o‘zining tashabbusi bilan germion trierasini jihozladi va go‘yoki ellinlar ishi bo‘yicha jang qilish uchun Gellespontga keldi, aslida esa fors podshohi bilan maxfiy muzokaralarga kirishish uchun (qisqasi u butun Elladaga hukmronlik qilish uchun bu ishni oldin ham qilgan edi)». Pavsaniy podshoh Kserksga shunday mazmunda maxfiy xat yo‘llaydi: «Agar sizga ma’qul keladigan bo‘lsa, sizning qizingizga uylanaman, Sparta va Elladaning qolgan qismini sizning hukmronligingizga bo‘ysundiraman» (Фукидид. История. Книга первая, стр. 272. Изд-ство Правда. 1989 г.). Peloponnes urushlari davrida ham Afina yo‘lboshchilaridan biri Alkviad ham Afina manfaatlarini dushman Spartaga sotib, o‘z vataniga kulfat keltirgan edi. Bu to‘g‘risida Plutarx o‘zining «Qiyosiy tarjimayi hollar» kitobida batafsil ma’lumot bergan.

Bir necha yunon shahar-davlatlari Afina atrofida birlashib, forslarga qarshi urush harakatlarini olib bordilar. Mil. avv. 483-yilda yunonlar katta dengiz floti qurishga rozi bo‘ldilar. Bu katta mablag‘ni talab qilar edi. Femistoklning boshqaruvi davrida Afina kumush konlaridan katta daromad oldi. Olingan foyda qadimgi odat bo‘yicha fuqarolar yunon-fors urushlari o‘rtasida taqsimlanishi lozim edi. Femistoklning fuqarolarga bu pulni taqsimlashdan voz kechib, mablag‘ni davlat ehtiyojlariga beg‘araz berishni

taklif qildi. Afina harbiy dengiz floti qurish uchun yetarli pul mablag‘iga ega bo‘ldi.

Qudratli Ahmoniylar davlati Egey dengizi havzasida o‘z manfaatlarini himoya qilish maqsadida bir necha harbiy yurishlarni amalga oshirdi. Mil. avv. 490-yili podshoh Kserks buyrug‘i bilan fors qo‘shinlari kemalarda Egey dengizidan o‘tib, Attikaga Afinadan 42 kilometr uzoqlikdagi Marafon tekisligiga kelib tushdi. Shu vaqtda Sitsiliyadagi yunon shahar davlati Sirakuza hokimi Gelon forslarga yordam yubordi. Gerodot bu to‘g‘risida shunday yozadi: «Gelon fors podshohini Gellospontdan o‘tganini bilishi bilanoq… Kos orolidan katta miqdordagi xazinalar ortilgan uchta ellik eshkakli kemaga (fors podshohiga) do‘stona takliflar bilan jo‘natdi» (Геродот. История. стр. 177. Историки античности. – М., Изд-во Правда, 1989 г.). Marafon tekisligida forslar bilan yunon qo‘shinlari o‘rtasida shiddatli jang bo‘ldi. Jangda forslar yengildi. Mil. avv. 480-yilda podshoh Kserks katta qo‘shin va flot bilan Dardanell bo‘g‘ozi orqali kemalardan yasalgan suzuvchi ko‘prik orqali o‘tib, Shimoliy Yunonistonni jangsiz egalladi. Sparta podshohi Leonid boshchilikdagi harbiy qism fors qo‘shinini O‘rta Yunonistonga o‘tkazmaslikka harakat qildi, lekin forslardan yengildi. Fors qo‘shini Attika viloyatini egalladilar.

Salamin oroli yonida yunonlarning birlashgan floti fors floti bilan to‘qnashdi. Afina strategi yoshi endigina 30 dan o‘tgan Femistokl Salamin oroli yonida fors floti bilan jangda o‘zining harbiy qobiliyatini namoyon qildi. Jang yunonlarning birlashgan floti g‘alabasi bilan tugadi.

Mil. avv. 479-yilda fors sarkardasi Mardoniy boshliq fors qo‘shini Afina shahrini ishg‘ol qilib, Beotiya viloyatiga yurish qildi. Fors qo‘shini Asop daryosi qirg‘og‘idagi Plateya shaharchasi yonida yunon-sha-

harlarining birlashgan qo‘shini bilan jang qildi. Jangda fors qo‘shini yengilib, qo‘shin sarkardasi Mardoniy halok bo‘ldi. Mil. avv. 479 – 459-yillarda Egey dengizi orollari va Kichik Osiyodagi bir necha shaharlar Ahmoniylar davlati tarkibidan chiqdilar. Forslar bilan tinchlik shartnomasini mil. avv. 449-yilda Kipr orolida Afina elchisi olimpiya o‘yini g‘olibi Kalliy imzoladi. Shartnomaga ko‘ra yunonlar Kichik Osiyo satrapliklari va Misrning ishlariga aralashmaydi. Forslar esa Egey dengizi va bo‘g‘ozlarga harbiy flotni kiritmaydi. Kichik Osiyodagi yunonlarning tayanch nuqtalari va Egey orollaridagi yunon shaharlari mustaqillikni saqlab qoldilar.

2. Afina dengiz ittifoqi. Yunon polislari forslarga nisbatan turlicha munosabatda bo‘ldi. Fessaliya va Beotiya forslar bilan yaqin aloqa o‘rnatdi. Sparta va Afina forslarga qarshi yunon shaharlari ittifoqini tashkil qildi. Mil. avv. 481-yil yunon shahar-davlatlari forslarga qarshi Ellin ittifoqini tuzdilar. Dastlab ittifoqda Sparta yetakchi rol o‘ynadi. Sparta vakili uning ishiga rahbarlik qildi. Lekin forslarga qarshi harbiy harakatlarda, asosan, flot hal qiluvchi o‘rin egallar edi. Sparta o‘zining flotiga ega bo‘lmaganligi sababli, ittifoqda yetakchi o‘ringa da’vo qila olmas edi. Spartaliklardan rahbarlikni olish uchun Ioniya orollarining Afinaga yordam so‘rab murojaat qilishi bahona bo‘ldi. Afina atrofida bir necha yunon shaharlari birlashib, yangi siyosiy kuch Birinchi Afina ittifoqi (Afina Arxesi)ni tuzdilar. Shu vaqtdan boshlab, Sparta va Afina ittifoqchilari o‘rtasidagi raqobat mil. avv. V asrda Yunonistondagi voqealar rivojiga hal qiluvchi ta’sir o‘tkazdi.

Afina ittifoqi tez orada mustahkam, uyushgan kuchli tashkilotga aylandi. Ittifoqning barcha qatnashchilari to‘la huquqli bo‘lib, uning xazinasi Delos orolidagi Apollon ibodatxonasida joylashgan

edi. Ittifoqchilar kengashiga har bir a’zo davlat bittadan vakil yubordi. Afina ittifoqi 480 talant hajmida mablag‘ belgilanib, har bir ittifoqchi davlat umumiy xazinaga a’zolik to‘lovi (foros)ni amalga oshirar edi. Ittifoq ichida Afinaning harbiy-siyosiy va savdo mavqeyi kuchayib ketdi. Barcha ittifoqchi yunon shaharlari o‘zlarida Afina tosh-tarozi va o‘lchov birliklarini joriy qildi. Umumiy xazina Delosdan Afinaga ko‘chirildi.

Afinaliklar ittifoqchilarning to‘lov badali hisobiga Afinada mashhur Propiley va Parfenon ibodatxonasini qurdilar. Afinaning bunday zo‘ravonligi ittifoqchilarning norozi chiqishlariga sabab bo‘ldi. Ittifoqchilarning chiqishlari afinaliklar tomonidan shafqatsiz jazolandi. Masalan, jazolangan Tasos Afinaga o‘zining barcha kemalarini berish, devorlarini buzish, tovon to‘lash va eski a’zolik badalini to‘lashni davom ettirishga majbur bo‘ldi. Plutarxning yozishicha, «Ittifoqchilar xiroj to‘lovchilar va qullarga aylandilar». Afinaning o‘z ta’sir doirasini yunon dunyosida muntazam ravishda kengaytirib borishi, Spartaning qarshiligiga uchradi. Forslar bilan umumiy g‘alabadan so‘ng har ikki davlat o‘rtasidagi raqobat keskinlashdi. Forslar Egey dengizidan siqib chiqarildi. «Kalliy» sulh shartnomasi (mil. avv. 449-yil) dan so‘ng, forslarning dengiz floti Egey dengiziga kirishdan mahrum bo‘ldi. Eron quruqlikdagi qo‘shinlarini Kichik Osiyo qirg‘og‘idan uzoqda saqlab turish majburiyatini oldi.

Mil. avv. V asrda yunon dunyosining siyosiy va madaniy hayotining markazi Kichik Osiyo va Egey orollaridan Bolqon Yunonistoniga ko‘chdi. Yunon viloyatlari ichida Attika viloyatining roli oshdi. Yunon-fors urushlaridan so‘ng Afinada keskin siyosiy kurash natijasida, Perikl aholining savdogar-hunarmandlar va dehqonlarning qo‘llab-quvvatlashiga erishib hokimiyat tepasiga keldi. Periklgacha Efialt islo-

hot o‘tkazib, zodagonlar tayanch bo‘lgan areopagning siyosiy mavqeyini zaiflashtirgan edi. Areopag ixtiyorida faqat qasddan odam o‘ldirish va diniy an’analarga qarshi jinoyatlarni ko‘rib, sud qilish vazifalarigina qoldi, xolos. Areopagning siyosiy funksiyalari Klisfen joriy qilgan Besh yuzlar kengashi va gelieyga berildi.

Xalqaro savdodan manfaatdor bo‘lgan Afina savdogar-hunarmand va dengizchilari Afinaning yunon shaharlari ustidan yetakchiligini mustahkamlashni talab qildilar. Ular ittifoqchilarga nisbatan qat’iy og‘ir siyosat yuritish, Afinaning yunon dunyosiga boshchilik qilishiga qarshi turadigan har qanday kuchlarga qarshi keskin kurash olib borishni talab qildilar. Afinada zodagon Kleonning Periklga qarshi turishi tugatilgandan so‘ng, demokratik harakat Afina siyosiy hayotida yetakchi o‘ringa chiqdi. Besh yuzlar kengashining ta’siri kuchaydi. Bu kengashda aholining kambag‘al tabaqalarining ishtiroki uchun imkoniyatlar yaratildi. Gelieyada sudyalik vazifasini bajarish uchun yoki Besh yuzlar kengashiga a’zolik uchun ish haqi to‘lashning joriy qilinishi, hatto kambag‘allarga ham qur’a tashlash yo‘li bilan saylanadigan 5 ming sudyadan biri bo‘lish imkoniyatini berdi. Shahar aholisining o‘rta qatlami bo‘lgan zevgitlarga arxont vazifasini bajarishga ruxsat berildi. Tashqi siyosatda Afina yunon dunyosiga hukmronlik qilish uchun faol harakat qildi. Afinaning qo‘shni viloyatlarga tazyiqi kuchayib, Sparta bilan urush harakatlari olib borildi. Mil. avv. 445-yil Sparta bilan 30 yil muddatga tinchlik shartnomasi imzolandi. Ammo tinchlik 14 yilgina davom etdi. Keyin esa Peloponnes urushi boshlanib, uzoqqa cho‘zilgan urush barcha yunon shaharlarini zaiflashtirdi. Urush 27 yil davom etib, ko‘pgina shaharlar vayron bo‘ldi. 10 minglab kishilar qurbon bo‘ldi. Urf-odat va qonunlar poymol qilindi. Yunon dunyosi shundan so‘ng tushkunlikka yuz tutdi.

3. Afina shahar-davlatining yunon dunyosidagi mavqeyining kuchayishi. Yunon-fors urushlaridan so‘ng Afina tez tiklandi. Pirey porti qayta qurilib, o‘sha davrda O‘rtayer dengizidagi eng yirik port hisoblangan Karfagen portiga tenglashdi. Dengiz ittifoqiga yetakchilik qilgan Afina yunon dunyosi dengiz savdosida ham birinchi o‘rinni egalladi. Afina eksporti Shimoliy Qora dengiz va Italiyada Sitsiliya, Apuliya, Etruriyani qamrab oldi. Egina, Korinf, Kerkira va boshqa shaharlar dengiz savdosida Afinaning birinchiligini e’tirof etishga majbur bo‘ldilar. Afinaning zulmiga qarshi norozi bo‘lgan yunon shaharlariga nisbatan Afina jazolash uchun harbiy qismlarni yubordi.

4. Afina shahar-davlatining ijtimoiy-siyosiy hayoti. Qadimgi yunon shahar-davlatlarida jamiyatning taraqqiyotida ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar natijasida, siyosiy sohada turli tuzum va tizimlar shakllandi. Spartada tenglar jamiyati, Sirakuzada tiraniya, Afinada demokratik tartib-qoidalar yuzaga keldi. Afina shahar-davlatida mil. avv. V asrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat keskinlashdi. Afinaning o‘rta qatlamini tashkil qilgan dehqonlar, savdogar-hunarmandlar, yollanib ishlovchilar o‘z haq-huquqlarini talab qilib chiqdilar. Bu ijtimoiy qatlamlar demokratik tuzumning mustahkam ijtimoiy asosi bo‘ldi. Afinaning siyosiy arboblari Solon, Klisfen, Efialt va Perikl o‘zlarini hokimiyat tepasiga keltirgan Afina oddiy fuqarolarining manfaatlarini himoya qildilar.

Afinada siyosat bilan shug‘ullangan Efialt (mil.avv. V asr o‘rtalari) Periklning zamondoshi va safdoshi. U o‘z nutqlarida Sparta bilan aloqani uzishni, mustaqil tashqi siyosat yuritishni, jamiyatda adolatli munosabatlarni ta’minlash hamda zodagonlarning siyosiy tayanchi bo‘lgan areopagning mavqeyini tugatishga chaqirdi. Efialt mil. avv. 462-yilda areopagning funk-

siyalarini cheklash bo‘yicha islohot o‘tkazdi. Areopag ixtiyoriga faqat jinoiy ishlarni ko‘rib chiqish qoldirildi.

Hech qancha o‘tmay Efialt zodagonlar fitnasi qurboni bo‘ldi. Efialtning izdoshi uning ishini davom ettiradi. Perikl Attikadagi Akamantida fili, Xolarga demidagi boy-zodagon Ksantippning o‘g‘li edi. Periklning onasi Agarista taniqli siyosiy arbob Klisfenning qizi edi. Perikl jismonan sog‘lom bo‘lib, faqat boshi uzunchoq va odatdan tashqari katta edi. Shu sababli, haykaltaroshlar Periklni boshida qalpoq bilan tasvirlaganlar. Uning birinchi xotinidan ikki o‘g‘li Ksantipp va Paral bo‘lib, ular Attikada yuqumli kasallik tarqalganda vafot etdilar. Perikl o‘z qonuniy xotini bilan o‘zaro kelishuv asosda ajralib, boshqaga turmushga berib, Aspaziya nomli ayolga uylandi. Aspaziya yengiloyoq ayollar uyining sohibasi bo‘lib, Afinaning taniqli odamlari orasida obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan. Plutarxning aytishicha, Perikl Aspaziyaga davlat ishlarini biladigan aqlli ayol sifatida maftun bo‘lgan. Faylasuf Suqrot ham o‘zining tanishlari bilan bu ayol bilan suhbat qurish uchun uning uyiga borib turgan. Periklning vafotidan keyin Aspaziyaga uylangan, o‘zi past tabaqadan bo‘lgan, chorva mollarini sotuvchisi Lisikl nomli kishi Afinada obro‘li odamga aylangan.

Perikl boshda ostrakizmdan qo‘rqib siyosat bilan shug‘ullanmagan, lekin harbiy yurishlarda o‘z jasoratini namoyon qilgan. Afinaning taniqli siyosiy arboblaridan Aristid vafot etib, Femistokl quvg‘inda, Kimon Yunonistondan tashqarida ushlab turilgan paytda Perikl siyosat maydoniga chiqdi. U xalq orasida tanilish uchun uning mafaatlarini yoqlab xalq yig‘inida nutq so‘zlay boshladi. Plutarxning aytishicha, Afina zodagonlari Periklning taniqli siyosiy arbobga aylanganini ko‘rib, uning ta’siri kuchayib ketishiga qarshi va Afinada to‘la monarxiya qaror topmasligi unga qarshi Alepekalik Fukididni qarshi qo‘ydilar. Fukidid

Afinada xalq yig‘inlarida so‘zga chiqib, Periklga qarshi turdi va turli qarashlar ega bo‘lgan tomonlar o‘rtasidagi muvozanatni qayta tikladi.

Perikl Afinada hokimiyatni 15 yil (mil. avv. 444 – 429-yillar) boshqardi. «Fukidid Perikl davridagi davlat tuzumini aristokratik tuzum sifatida tasvirlaydi, bu tuzum faqat nomi bilan demokratik, aslida yetakchi bo‘lgan birgina kishining hukmronligi edi. Kimon oddiy xalqni o‘ziga moyil qilish uchun kambag‘al afinalik fuqarolarni har kuni tushlikka chaqirdi, keksa qariyalarni kiyintirdi, o‘z bog‘ini mevalaridan odamlar bahramand bo‘lishi uchun bog‘ devorlarini olib tashladi. Shon-shuhratga erishish uchun Perikl Kimonga qarshi kurashib, xalqning e’tiborini qozonishga harakat qildi. Perikl raqibi Kimon kabi boy emas edi. U Kimonga qarshi turish uchun safdoshlaridan birining maslahati bilan ijtimoiy jamg‘armani oddiy xalqqa bo‘lib berishni taklif qildi. Oddiy xalqqa ko‘ngilochar marosim, teatr tomoshalari uchun pul tarqatish, sudyalik va boshqa lavozimlarni bajarish uchun haq to‘lashni joriy qilishni taklif qildi. Perikl shu tarzda xalqning ko‘nglini olishga harakat qildi. Efialtning yordami bilan areopagning ixtiyorida bo‘lgan sud funksiyalari tortib olindi. Kimon Sparta tarafdori va Afina demokratiyasi dushmani sifatida ostrakizm vositasi bilan quvg‘in qilindi.

Perikl davrida saylov huquqi kengaytirildi, qator islohotlar o‘tkazildi. Saylovlarda qur’a tashlash joriy qilindi. Davlat lavozimlariga ilk bor ish haqi to‘lash boshlandi. Bu kambag‘al fuqarolarni ham lavozimlarni egallashlariga imkoniyat yaratdi. Keyinchalik, fuqaroni xalq yig‘iniga qatnashgani uchun haq to‘lash boshlandi. Kambag‘al fuqarolarni teatrga kirishi uchun «teatr puli» berila boshlandi. Perikl Attikada ishsiz yurgan aholini ish bilan ta’minlash va shu bilan birga, Afinani bekorchilikdan har xil no-

jo‘ya ish chiqarishi mumkin bo‘lgan norozi kishilardan tozalash maqsadida Italiyada, Xersones va Frakiyaga bir necha ming kishini ko‘chirish siyosatini amalga oshirdi.

Perikl davrida ittifoqchilarning ittifoq xazinasiga to‘laydigan badal puli hisobiga Afina shahrida bir necha jamoat inshoorlari qurildi. Afina akropolida mashhur Parfenon (ma’buda Afina ibodatxonasi), Propiley (Akropolga bosh kirish darvozasi), Erexteyon (afsonaviy Afina podshohi sharafiga ibodatxona) bunyod qilindi. Afinada mashhur olim va faylasuflar o‘z maktablarini ochdilar. Afina teatri yunon dunyosidagi eng yaxshi teatr hisoblanar edi. Perikl o‘z atrofiga me’mor va haykaltarosh Fidiy, faylasuf Anaksimen, shoir-tragik Yevripid va boshqa san’at va fan arboblarini to‘pladi. Periklning raqiblari Xalq yig‘inida ittifoqchilar mablag‘i hisobiga Afinada inshootlar qurgani uchun qoraladilar: «Ellinlar urush uchun belgilangan majburan berayotgan pullarni biz shaharni olifta ayoldek tillakori qilib, uni minglab talant turadigan qimmatbaho marmar bilan, ilohlar haykallari bilan bezayotganimizni ko‘rib o‘zlari kuchli zo‘ravonlikni boshdan kechirayotganlarini va tiraniyaga duchor bo‘lganlarini tushunadilar». Plutarx (I-294-295). Perikl bunga javoban afinaliklar ittifoqchilarga pul to‘grsida hisobot berishga majbur emas, chunki ularni urushda dushmandan himoya qilmoqdalar deb javob berdi.

Mil. avv. 431-yilda Periklning tashabbusi bilan fuqarolik tog‘risida qonun qabul qilindi. Qonunga ko‘ra, fuqarolik mavqeyiga ega bo‘lish uchun odamning ota-onasi fuqaro bo‘lishlari va qonuniy nikohda bo‘lishlari lozim. Afinalik yigit-qizlar 18 yoshga yetishlari bilan o‘z demlari (Afinaning quyi hududiy-ma’muriy birligi)ning a’zolari yig‘ilishida o‘zining kelib chiqishi va yetuk yoshga yetishganini asoslov-

chi alohida tekshiruvdan o‘tganlar. Bu tekshirishdan o‘tgan o‘smirlar dem a’zolari ro‘yxatiga kiritilib, fuqarolik mavqeyiga ega bo‘lganlar. O‘smirlar 18-20 yoshda dastlab, bir yillik harbiy tayyorgarlikdan o‘tib, bir yil davomida davlat chegaralarini qo‘riqlaganlar. Bu harbiy xizmatdan keyin ular ekklesiya ishida ishtirok etishlari mumkin edi. Afinada qonun chiqaruvchi hokimiyat Xalq yig‘ini – Eklessiya va Besh yuzlar kengashi – Bulega tegishli edi. Eklessiya to‘g‘ridan-to‘g‘ri xalq boshqaruvi organi, bule – vakillik organi edi. Har qanday qonun yoki qaror «Kengash va xalq qaror qildilar» so‘zlari bilan boshlangan.

Eklessiya – xalq yig‘ini. So‘nggi antik mualliflarda xalq yig‘inlari o‘tkaziladigan joy ekklessiya deb atalgan. Bir qator yunon shaharlarida xalq yig‘ini o‘ziga xos nomlangan: apella – Spartada, agora – Delfa, Epidavr, Gela va Akragantda.

Eklessiya – xalq yig‘ini Afina davlat hokimiyatining bosh organi. Xalq yig‘inida 20 yoshga yetgan Afina fuqarolari qatnashgan. Afina xalq yig‘ini Afinaning barcha dolzarb masalalarini ko‘rib chiqqan: moliya masalalari, urush va tinchlik, diplomatlarning hisobotlari, chet davlatlarga elchilar yuborilgan. Xalq yig‘ini vakolatiga Afina fuqaroligiga qabul qilish, meteklar ishi ham kirgan. Boshqa shahar-davlatlarning elchilari qabul qilingan, tuzilgan shartnomalar muhokama qilingan va tuzatishlar kiritilib tasdiqlangan. Eklessiyada yangi qonunlar (nomos) va qarorlar qabul qilingan. Davlat himoyasi, Afinaning kundalik hayotiga tegishli muammolar, jumladan, shaharning oziq-ovqat ta’minoti masalalari ko‘rilgan. Xalq yig‘inida musodara qilish va meros muammolari, diniy e’tiqod va boshqa shaxsiy va ijtimoiy ishlar ham ko‘rilgan. Ba’zi lavozimlar saylangan, saylangan amaldorlarning faoliyati nazorat qilingan, ularning hisoboti tinglangan. Urush vaqtida strateglar xalq oldida o‘zla-

ri o‘tkazgan urush harakatlari to‘g‘risida hisobot berganlar. Harbiy mag‘lubiyat uchun hatto strateglarni o‘lim jazosiga hukm qilinish xavfi kuchli bo‘lgan. Xalq yig‘inlari eklessiyada Besh yuzlar kengashi tayyorlagan qaror loyihalari muhokama qilingan.

Har bir Afina fuqarosi har qanday masalani xalq yig‘iniga qo‘yish huquqiga ega bo‘lgan. Qaror ochiq ovoz berish yo‘li bilan, ya‘ni qo‘l ko‘tarish yo‘li bilan ba’zida yopiq ovoz berish bilan amalga oshirilgan. Yopiq ovoz berishda urnaga qora yoki oq toshchalar, yoki sopol siniqlari tashlangan. Afina fuqarosining xalq yig‘iniga qatnashishi majburiyat emas, balki huquqi edi. Shu sababli, kvorum (yig‘ilish qatnashchilarning qaror qabul qilish uchun zaruriy eng kam soni) tushunchasi mavjud emas edi. Faqat ba’zi o‘ta muhim masalalar bo‘yicha qaror qabul qilish uchun 6 ming kishidan kam bo‘lmagan fuqaroning ishtiroki zarur bo‘lgan. Tanlov erkinligi demokratiyaning asosiy qoidasi: fuqaro masala muhokamasiga ishtirok etmasligi mumkin, lekin boshqa fuqaroning qabul qilgan qonunlarni bajarishga majbur bo‘lgan.

Har bir fuqaro muhokama qilinayotgan masala bo‘yicha o‘z fikrini aytishi, ko‘pchilik qo‘llab-quvvatlasa qaror matniga o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin edi. So‘zga chiquvchilar faqat ko‘rilayotgan mavzudagina so‘zlashlari mumkin edi.

Demokratiyaning eng muhim qoidalaridan biri barcha fuqarolar ega bo‘lgan qonunchilik tashabbusi edi. Qabul qilingan har bir qonun matni marmar taxtaga o‘yib yozilib, ko‘cha, maydon va bozorlarda ko‘pchilik e’tiboriga qo‘yilib, u yoki bu qonun qarorning tashabbuskorini ismi yozib qo‘yilgan. Qonun tashabbuskorligi fuqarolardan mas’uliyat talab qilgan.

Bule – Besh yuzlar kengashiga, Klisfen davrida asos solingan. Besh yuzlar kengashi xalq yig‘ini kun

tarkibida ko‘riladigan masalalarni tayyorlagan. Afina mansabdor shaxslarining ishi ham Besh yuzlar kengashida ko‘rib chiqilgan. Attikaning 10 filining har biri Besh yuzlar kengashi (Bule)ga a’zolik vazifasiga nomzodlarni taklif qilganlar. Har bir fildan 50 kishi qur’a tashlash yo‘li bilan uning a’zoligiga 500 kishi belgilangan. Ular bir yil davomida Bule tarkibida ishlaganlar. Har bir filning vakillari navbat bilan 39 yoki 50 kun navbatchi (pritan) bo‘lganlar. Pritanlar har kuni kengash majlisini chaqirganlar va kengash kun tartibini belgilaganlar. Bule kengashi masalani xalq yig‘ini muhokamasiga olib chiqqan. Kengash davlat moliyasini, jamoat ishlarini, harbiy sohani, tashqi ishlarni, diniy masalalarni nazorat qilgan. Mehnatga haq to‘lanishi qur’a tashlash yo‘li bilan o‘tkaziladigan har yilgi saylovlar afinalik fuqarolarning hayoti davomida hech bo‘lmasa bir marta kengash a’zosi bo‘lish imkoniyatini berdi. Kengash a’zolari kuniga 5 obol ish haqi, pritanlar bir obol ko‘proq olganlar. Kengash yig‘ilishi Bulevteriy deb atalib, u Afina agorasida joylashgan.

Gelie – maslahatchilar sudi. Boshda bu apellyatsiya sudi edi, keyin esa jinoiy ishlar va huquqiy masalalar uchun oliy sud tashkiloti bo‘lib qoldi. Sudyalar Afinaning barcha fuqarolaridan qur’a tashlash yo‘li bilan saylangan. Jami 6 ming sudya, shindan 5 ming maslahatchi va 1 ming zaxira saylangan. Afina sudi 10 palataga bo‘lingan. Bunday ko‘p sudya va sud tashkilotlarining bo‘lishiga sabab bor edi. Ular faqat Afina fuqarolariga tegishli bo‘lmay, balki bu sudda Afinaning barcha ittifoqchilari sudlashuvini amalga oshirish lozim bo‘lgan. Qur’a bo‘yicha saylangan sudyalardan har yili arxontlar tomonidan lavozimni o‘tash uchun tayinlangan.

Afina sudida ishi ko‘rilayotgan fuqaro qaysi palatada uning ishi ko‘rilishini bilmagan. U buni sud

kuni yoki sudyalar kengashi arafasida bilgan. Bunday qoida bo‘lishiga sabab, javobgar pora bera olmasligi kerak edi. Sudda jabrlangan yoki aybdorning o‘zi, ba’zi hollarda uning qarindoshi so‘zga chiqqan. O‘sha vaqtda advokat bo‘lmagan.

Afinada har bir fuqaro qabul qilingan qonun mavjud qonunchilikka zid ekanligi to‘g‘risida shikoyat qilish huquqiga ega bo‘lgan. Ish sudda ko‘rilgan. Agar ayblovchi o‘z fikri to‘g‘riligini isbotlay olsa, qonun bekor qilingan va qonun tashabbuskori jazolangan. Agar o‘z fikrini isbotlay olmasa, shikoyatchining o‘zi jazolangan.

Afinada ijroiya hokimiyat. Afina shahar-davlatida fuqarolar bir yil muddatga lavozimga saylangan. Mansabdor shaxslar qur’a tashlash yo‘li bilan o‘ttiz yoshdan katta barcha fuqarolar oldida saylanar, faqat mansabga qo‘yiladigan nomzodlar afinalik bo‘lishi ustidan nazorat qilingan. Saylangan mansabdorlar faoliyatlari jamoaviy edi. Afinada mansabdor shaxslar katta hokimiyat va obro‘ga ega bo‘lmaganlar. Aksincha, yig‘inlarda so‘zga chiqishni biladigan, qonunlar loyihasini qabul qilishga xalqni ko‘ndira oladigan, hech qanday mansabga ega bo‘lmagan kishilar xalq ishonchiga sazovor bo‘lganlar. Ular demagoglar deb atalgan. Mansabdor shaxslar faqat boshiga mirta gulchambaridan boshqa hech qanday hokimiyat belgisiga ega emas edi. Bu uning hokimiyati cheklanganidan guvohlik berar edi. Ammo katta bo‘lmagan hokimiyatni ham suiste’mol qilish mumkin edi. Shu sababli, qonun bir kishini bir mansabga qayta saylashni taqiqlar edi.

Har bir fildan 10 strateg saylangan. Ular urush vaqtida Afina qo‘shini va flotiga boshchilik qilganlar, tinchlik vaqtida esa Arxont yoki strateg vazifasini har qanday fuqaro bajarishi mumkin degan tushuncha mavjud edi. Chunki barcha mansabdor shaxslar

xalq irodasi va qonunlarini xalq shaharning mudofaa qobiliyatini ta'minlaganlar. Strateglardan tashqari, taksiarx va gipparx harbiy lavozimlari mavjud bo'lgan. Oliy mansabdor shaxslar – arxontlar hokimiyati oila va meros huquqiga rioya qilishga g'amxo'rlik (arxont eponim), sakral vazifa (arxont basiley), sud jarayonlariga raislik qilish (fesmofet) bilan cheklangan edi. Arxont polemarx (qo'shin qo'mondoni) faqat nomigagina qo'mondon bo'lib, amalda u chet elliklar ustidan sud ishlarini amalga oshirar edi. Qurolli kuchlarga urush va tinchlik paytida rahbarlik qilish 10 strategga tegishli edi. Ular qur'a tashlash yo'li bilan emas, balki har bir nomzodga bevosita ovoz berish yo'li bilan saylar edilar. Ko'cha va inshootlarning holatini nazorat qilish uchun 10 astinom saylangan. Bozor va mahsulotlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, sotuvchi va xaridor o'rtasidagi janjallarni 10 ta agranom ajrim qilar edi.

Ijroiya hokimiyati har bir fildan 50 kishi saylanadigan Besh yuzlar kengashi – pritanlar qo'lida edi. Kengash xalq yig'iniga olib chiqiladigan qarorlar loyihasini tayyorlar va mansabdor shaxslar yordamida yig'in qarorlarini bajarar edi. Kengash jamoat ishlarini tashkil qilish, konfiskatsiya qilingan mulkni sotish, davlat saylagan komissiya orqali moliya ishlarini nazorat qilish, kemalar qurilishi va otliq qo'shinlar, Afina doimiy qo'shinining jangovar qobiliyatini saqlash kabi ishlarni amalga oshirar edi. Besh yuzlar kengashi boshqaruv masalalarini tezkor hal qila olmas edi. Shu sababli, har bir fil o'zining 50 vakili – pritanlar orqali davlatni yilning 1/10 qismida idora qilar edi. Pritanlar kun davomida majlis qurganlar, ularning 3/4 qismi tunda qolgan. Kengash chet davlatlar bilan yozishmalar olib borgan, elchilarni qabul qilgan. Har kun pritanlar tarkibidan qur'a tashlash yo'li bilan kengash raisi saylanib, u davlat xazinasining ka-

liti va muhrini olgan. U shu kun xalq yig‘ini bo‘lsa, unga raislik qilgan.

Besh yuzlar kengashi yig‘ilishi va **eklessiya**da «**isogoriya**» – so‘z erkinligiga qat’iy rioya qilinar, «**isotomiya**» – mansablarni egallashda tenglik va «**isonomiya**» – qonunlar oldida tenglik fuqarolarning siyosiy huquqlarining poydevorini tashkil qildi.

Aslida Afinada mil. avv. V asrning so‘ng choragigacha Afinada siyosiy guruhlarning rahbarlari evpatridlardan bo‘lar edi. Siyosiy guruhlar o‘z raqiblarini ochiq siyosiy kurashdan chetlatish metodi sifatida Klisfen kiritgan ostrakizm qoidasidan foydalanar edilar. Yilda bir marta Xalq yig‘inida ostrakizm o‘tkazish zarurati muhokama qilingan. Afina xalq yig‘inida mavjud tartib-qoidalarga xavf tug‘dirgan siyosatchining ismini sopol parchalariga yozib, 10 yil muddatga Attikadan surgun qilganlar. Quvg‘in qilishni yoqlab 6 ming fuqaro ovoz berishi kerak edi. Bu quvg‘in jazo bo‘lmay, quvg‘in qilingan fuqarolik huquqidan va mulkidan mahrum qilinmay, faqat uzoq muddatda siyosiy kurashdan chetlatilar edi.

Meteklar. Tenglik, erkinlik hamma uchun emas edi. Bu faqat Afinaning bor-yo‘gi 14 ming 240 fuqarosi uchun edi. (Yunon shahar-davlatlari orasida Afina Spartadan keyin maydoni va aholisi eng (150 ming kishi) ko‘p bo‘lgan polis edi), qolganlar fuqarolik huquqiga ega bo‘lmagan meteklar va qullar edi. Siyosiy huquqlardan qullardan tashqari, ayollar, boshqa viloyatlardan Afinaga ko‘chib kelganlar va Afinada yashab turib, erkin bo‘lsa-da, fuqaroligi bo‘lmagan **meteklar** mahrum edi. Meteklar 100 mingga yaqin kishini tashkil qilib, ular asosan savdo-hunarmandchilik bilan shug‘ullanar edilar. Ayollar hech qanday huquqlarga ega bo‘lmaganlar. Meteklar qo‘shimcha soliqlarni to‘lash, harbiy xizmat qilish majburiyatlarini o‘tashlari shart edi. Ularga yerga egalik qi-

lish huquqi yo‘q bo‘lib, afinalik ayolga uylanishlari mumkin emas edi. Afina fuqarolari meteklarga dushmanlik ko‘zi bilan qaraganlar. Ammo meteklarning dehqonchilik, savdo va hunarmandchilik sohalaridagi mehnati, ijodkor faoliyati Afinani rivojlanishiga xizmat qildi. Meteklar har yili Afina shahar-davlatida yashash huquqi uchun soliq-meteykion to‘laganlar.

Qullar. Afina shahar-davlatining aholi soni 150-230 ming kishini tashkil etgan. Afina aholisining ancha qismini qullar tashkil etgan. Qullarning ko‘pchiligi qul oilasida tug‘ilgan, boshqalari urushlarda asirga olinganlar yoki dengiz piratlari qurbonlari bo‘lganlar, qarzi uchun qulga aylantirilganlar hamda qul bozorlarida sotib olinganlar. Qulchilikning eng katta omili urushlar edi. Urushlarda ishg‘ol qilingan dushman shahri aholisining bir qismi janglarda qurbon bo‘lgan bo‘lsa, omon qolganlari qaysi tabaqaga mansub bo‘lishidan qat’iy nazar asir olinib, qul bozorlarida sotib yuborilgan. Qulning narxi uning sog‘lomligi va ish qobiliyatiga qarab belgilangan. Xat-savodli, musiqa san’atini egallagan va kasb-hunarga ega bo‘lgan qullar yuqori baholangan. O‘zga yurtlarda xat-savodli, san’atkor yunon qullar yuqori baholangan. Qullar hech qanday ijtimoiy huquqlarga ega emas edilar. Egey dengizidagi Xios oroli uzoq asrlar Egey dengizi havzasidagi eng katta qul bozori bo‘lgan.

Mil. avv. V asr o‘rtalaridan Afinada hunarmandchilik va dehqonchilikda qul mehnatidan foydalanish kuchayib ketdi. Afina olib borgan ko‘plab urushlar natijasida Kichik Osiyo, Frakiya va Illiriyadan qullar olib kelib sotiladigan Xios orolidagi qul bozori iqtisodiyotining ishchi kuchiga bo‘lgan doimiy ehtiyojni qondirdi. Qullarning soni keskin oshib ketdi. Malakasiz qul arzon bo‘lib, hunarga o‘rgatilgan qulning narxi 100-150 draxma belgilanar edi. Perikl davri Afi-

nasida qullarni aniq soni noma'lum. Shahardagi eng boy odamlardan biri Nikiyning Lavrion kumush konlarida ming quli, boy Gipponikning 600 quli bo'lgan. Oddiy hunarmandlarning ustaxonalarida 5 tadan 10 tagacha qul ishlagan. Qalqon yasovchi usta Lisiyning ustaxonasida 120 qul bo'lgan. Boy shaharliklar xo'jaligida 10-20 ta qul mehnat qilgan. Hunarmandchilik korxonalari, konlar, poliz, uzumzor va zaytunzorlarda qullar mehnat qilgan. Afina shahar politsiyachilari, asosan qullardan iborat bo'lgan.

Afina fuqarolari. Ishlab chiqarishda qullarning ko'payib borishi bilan erkin fuqarolar orasida jismoniy mehnat qilish past ish, qulga xos mehnat degan tushuncha keng tarqala boshladi. Arxaik davridayoq boy fuqarolar kundalik og'ir ishga nafratlanib qaraganlar. Mil. avv. V asrga kelib, bunday qarashni kambag'al – hech vaqosi yo'q fuqarolar orasida ham uchratish mumkin edi. Ko'pgina mualliflarning guvohlik berishiga ko'ra, Perikl xalqni kleruxaga, tomoshalarga pul olish, mukofot olishga o'rgatdi; bunday ahmoqona ko'nikma oqibatida xalq o'sha vaqtdagi siyosiy tadbirlar ta'siri ostida kamtarin, mehnatkashdan xalq isrofgar va o'zboshimchaga aylandi. Plutarx (I-291).

Mil. avv. V asrda Afina ijtimoiy hayotida tegishli o'zgarishlar yuz berdi. Jamiyatda yetakchi o'rinni savdo-hunarmand tabaqalari egalladilar. Perikl hunarmand-savdogarlar, dengizchilar, kemasoz ustalar va kemachilar hamda dehqonlardan iborat fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab ichki va tashqi siyosatni olib borishga majbur erdi. Chunki ana fuqarolar tabaqasi Perikl hokimiyatining asosiy tayanchi edi. Afina fuqarolarining asosiy qismini tashkil etgan Attika dehqonlari poytaxtni g'alla bilan ta'minlay olmas edilar. G'allani Qora dengiz bo'yidan yoki Italiyadan olib kelish arzonga tushar edi. Qishloq aholisi ish topishi uchun ko'plab shaharlarga kelib o'rnasha

boshladi. Maqtalgan Afina demokratiyasi qisqa vaqt bo‘lsa-da ana shu fuqarolar manfaatlarini ko‘zlagan holda ish olib bordi. Aholining boshqa tabaqalari perekllar, afinalik ayollar, qullar va boshqa yunon polislarining Afinada turgan fuqarolari hech qanday siyosiy huquqlarga ega bo‘lmadilar. Afina demokratiyasi faqat Afina shahar-davlati hududida fuqarolarning tor doiradagi jamoasi uchun bo‘lib, boshqa hududlarga tarqalmadi va Afinada qisqa muddatda Perikl davrida amal qilib, keyin tezda so‘ndi. Afina fuqarolari soliq to‘lamaganlar, faqat favqulodda vaziyatlardagina, masalan, urush vaqtida alohida soliq – eysfora to‘laganlar.

Afina davlati o‘z fuqarolarining ma’naviy barkamolligiga jiddiy e’tibor bergan. Fuqarolarga teatrga kirish, bayramlarda ishtirok etish imkoniyatlari yaratilgan. Tomoshalarga kambag‘al kishilarning kirishi uchun davlat teorikon – teatrga kirish uchun ikki obol miqdorida pul to‘lovini joriy qildi. Perikl taklifi bilan joriy qilingan nafaqa oddiy fuqaroga teatrga kirish imkoniyatini berdi. Afina davlati mehnat qobiliyatini yo‘qotgan fuqarolar va vatan uchun jonini fido qilgan fuqarolarning bolalari haqida g‘amxo‘rlik qilgan. Afina shahrida fuqaroning jismoniy tarbiyasiga alohida e’tibor berildi

Sport bilan shug‘ullanish Afina fuqarosining jismoniy va ma’naviy barkamol, vatan uchun fidokor odam bo‘lishga xizmat qilishi, fuqaroning o‘z-o‘zini idora qilishga o‘rgatish, adolatli o‘yin qoidasiga rioya qilish, o‘z ruhini ko‘tarishga xizmat qilishi kerak edi. Sport inshootlari ishini tashkil etish va boshqarish xalq yig‘ini tomonidan tayinlangan lavozim – sofronist qo‘lida edi. Afinada fuqarolarni sport musobaqalariga ishtirok etishga, ularning sport bilan shug‘ullanishlariga qulay sharoit yaratishga harakat qildi. Afinada sport mashg‘ulotlari o‘tkaziladigan stadion, gimna-

ziylar va palestrlar qurilgan. Boy afinaliklar uchun gimnaziy va palestrlar alohida edi. Mil. avv. VI – V asr boshlarida sport musobaqalari zodagonlar uchun ko‘ngil ochish edi Afinaliklar boshqa yunonlar kabi ko‘pgina yugurish musobaqalari bilan (mash‘ala yoki boshqa yuk bilan uzun masofaga, to‘la harbiy anjomda yugurish) shug‘ullanganlar. Shu bilan birga, aravalarda poyga, sakrash, nayza va disk uloqtirish, qo‘l jangi, kurash va kamondan otish keng tarqalgan.

MIL. AVV. V ASRNING SO‘NGGI CHORAGI – IV ASRDA YUNON SHAHAR-DAVLATLARNING TUSHKUNLIGI

«Bu yerga butun Yunoniston yig‘ildi va qo‘lida qurol bilan bir-biriga qarshi chiqdi. …Bu jangdan so‘ng oldingi vaqtda o‘zlari ega bo‘lganga qiyoslaganda biror bir yangi shaharga ham, ortiqcha biror hududga ham, hokimiyatga ham ega bo‘lmadilar».

Ksenofont

1. **Peloponnes urushlari.**
2. **Polis tizimining tushkunligi.**
3. **Ahmoniylar davlatining yunon dunyosi bilan munosabatlari.**
4. **Ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar.**

1. Peloponnes urushlari. Yunon-fors urushlaridan so‘ng Yunonistonda iqtisodiyotning umumiy o‘sishi kuzatildi. Polislar o‘rtasida xalqaro savdo rivojlandi. Bu jarayon savdo-hunarmandchilik bilan shug‘ullanadigan polislar o‘rtasida raqobatni kuchaytirdi. Ayniqsa, gavjum savdo-hunarmandchilik, dengiz savdosi bilan shug‘ullangan Afinaning Korinf va Megara bilan raqobati kuchaydi. Afina yunon po-

lislaridagi demokratik tuzumlarni, Sparta esa oligarxiya hukm surgan polislarni qo‘llab-quvvatlashga harakat qildi. Afina va Sparta boshchiligidagi ikki kuchli harbiy-siyosiy ittifoqlar o‘rtasidagi muvozanat buzildi.

Afina va Sparta o‘rtasida mil. avv. 446-yilda tuzilgan 30 yillik tinchlik shartnomasi tomonlar o‘rtasidagi raqobatni yo‘qotmadi. Sparta va Afina o‘rtasida Yunonistonda yetakchilik uchun raqobat mil. avv. 431-yilda Peloponnes ittifoqi va Afina dengiz ittifoqiga kirgan davlatlar o‘rtasida boshlandi. Bu raqobat Peloponnes urushlari deb nom olgan, yunon shahar-davlatlari o‘rtasida qariyb 30 yil davom etgan urushga olib keldi. Pelloponnes urushlari 27 yil davom etib, bu urushni 3 davrga bo‘lish mumkin. 1. Sparta podshohi Arxidam nomini olgan mil. avv. 431 – 421-yillardagi urush harakatlari. 2. Afinaliklarning Sitsiliyadagi Sirakuza shahriga qarshi harbiy dengiz ekspeditsiyasi (mil. avv. 415 – 413-yillar). 3. Spartaliklar o‘rnashib olgan Attikadagi Dekeley qishlog‘i nomi bilan Dekeley urushi (mil. avv. 413 – 404-yillar) deb atalgan urush.

Peloponnes ittifoqi va Afina dengiz ittifoqi o‘rtasidagi bu urush mil. avv. 431-yilda Sparta qo‘shinlarining Attika hududiga bostirib kirishi bilan boshlandi. Afina harbiy kuchlarini boshqargan, katta harbiy ish tajribasiga ega bo‘lgan Perikl quruqlikda mudofaa taktikasini qo‘llash, dengizda esa faol urush harakatlarini olib borishni taklif qildi. Sparta qo‘shinlari Attika hududini talon-taroj qilayotgan paytda aholining barchasi Afina shahriga kirib jon saqladi. Tezda shaharda oziq-ovqat tanqisligi boshlanib, vabo tarqaldi. Urushda katta moddiy zarar va qurbonliklar berib, dushman shahar-davlatlarining talon-tarojiga uchrab, qiyin ahvolda qolgan Attikaning oddiy aholiga norozi bo‘ldi. 15 yil davomida arxont lavozimiga

ketma-ket saylangan Perikl birinchi marta mil. avv. 430-yilda arxont etib saylanmadi. Perikl raqiblari tomonidan sudga tortilib, jarima to‘lashga majbur qilindi. Lekin mill.avv. 429-yilda Perikl sudda o‘zini oqladi va arxont etib saylandi. Ammo u shu yilda yuqumli kasallikdan vafot etdi. Perikl – Afina siyosiy tarixida alohida o‘rinni egallagan siyosiy arbob. U qirq yil davomida Afinaning taniqli siyosatchilari Efialt, Leokrat, Mironid, Kimon, Tolmid va Fukididlar qatorida birinchilikni qo‘ldan bermadi.

Peloponnes ittifoqi va Afina dengiz ittifoqi o‘rtasidagi urush juda og‘ir kulfatlarga, minglab odamlarning mazmunsiz dahshatli qurbonlik keltirishga olib keldi. Mehr-shafqat, insoniylik his tuyg‘ulari o‘rnini vahshiylik, shafqatsizlik, inson ong ostidagi anglanmagan qonga tashnalik, hayvoniy instiktlar egalladi. Mil. avv. 429-yil yoz oyida spartaliklar har yili Attikaga bosqin qilish o‘rniga Fivaning taklifi bilan Plateya shahrini qamal qildilar. Plateyani 400 mahalliy aholi va 80 afinalik himoya qildi. Sparta sarkardasi Arxidam Plateyani ittifoqchi beotiyaliklar bilan birga 2 yil qamal qildi. Ikki yillik qamaldan so‘ng shahar taslim bo‘ldi. G‘oliblar 200 plateyalik va 25 afinalikni qatl qildilar. Ayollar qullikka sotib yuborildi. Plateyadagi binolar ibodatxonadan tashqari butunlay buzib tashlandi, shahar va uning atrofi Fivaga berildi. Urushdan charchagan shahar va hududlarda kuchli norozilik harakatlari yuzaga keldi. Lesbos orolining bosh shahri Mitilena shahri Afina boshliq ittifoq a’zosi bo‘lib, afinaliklarga to‘la tobe bo‘lib qolish, to‘lovga tortilish xavfidan qo‘rqib, ittifoqdan chiqdi. Lesbos orolining aholisi Peloponnes ittifoqiga qabul qilinib, unga yordam va’da qilindi. Bunday xiyonatni Afina kechirmadi. Afina floti Mitilena shahrini qamal qildi. Oziq-ovqat taqchilligi, ochlik shahar aholisini afinaliklarga taslim bo‘lishga majbur qildi. Afina xiyonat

qilgan shaharning barcha erkaklarini qirib tashlash, ayollar va bolalarni qullikka sotib yurishga qaror qildi. Yunon shaharlari urushlar, ixtiloflar girdobiga tushdi. Kerkira orolidagi Kerkira shahri aholisi demokratik va aristokratik oqimlar o‘zaro ixtilofga kirishib, shahar ko‘chalarida bir-birlari bilan ko‘cha jangiga kirishdilar. Ko‘cha janglarida ayollar ham qatnashdilar. Kuchli flot kelishi bilan demokratik kuchlarning qo‘li baland keldi. Demokratlar 7 kun davomida shahardagi zodagonlarni qirg‘in qildilar, zodagonlarning bir qismi Gera ibodatxonasiga qochib kirib, panoh topishga urindi, lekin ular mehrobdan ajratib olinib o‘ldirildi. 500 ga yaqin zodagon Iston tog‘iga qochib jon saqladi. Afina harbiy qismi bu qochoqlarni ushlab Ptixiya oroliga jo‘natdi. Orolda mahalliy aholi bu asirlarni bitta qo‘ymay qirib tashladi.

Periklning o‘limidan keyin turli tabaqalar o‘rtasida kelishmovchiliklar kuchayib, Afinada siyosiy beqarorlik boshlandi. Nikiy boshchiligida tinchlik bitimi tuzish tarafdorlari bo‘lgan betaraflar va Kleon boshchiligida savdo-hunarmandlar manfaatlarini aks ettirgan guruh o‘zaro kurash boshladilar. Kurash oqibatida davlatni boshqarish savdo-hunarmandlar guruhi qo‘liga o‘tdi. Bu guruh ichki va tashqi savdoni rivojlantirishdan manfaatdor edi. Shu sababli, ular Afinaning yunon dunyosida yetakchi mavqeyini ta’minlash uchun faol urush harakatlarini olib borish tarafdori bo‘ldilar. Bu guruhning rahbarlaridan biri Kleon kelib chiqishi hunarmandlardan bo‘lgan ustaxona egasi edi. Kleon ajoyib notiq, shijoatli siyosatchi bo‘lib, Sparta bilan urushni g‘alabagacha davom ettirish tarafdori edi. Kleonni shahar kambag‘allari, savdogar-hunarmandlar va kema egalari qo‘llab quvvatladi. Afina ittifoqiga a’zo shaharlardan a’zolik badali – foros miqdori va favqulodda urush solig‘i – eysfora oshirildi. Bu ittifoqchilarni va Afinaning o‘zi-

da asosiy soliq to‘lovchi boy yer egalarining noroziligiga olib keldi. Kleon Peloponnes qirg‘oqlarida Afina flotining faol urush harakatlarini boshladi.

Afinaliklar mil. avv. 425-yil Messeniyadagi Spartaning Afinaga qarshi urush harakatlarida muhim tayanch nuqta bo‘lgan Pilos hududi va uning qarshisidagi Sifakteriya orolchasini bosib oldilar. Natijada, Spartaning Attikaga hujumlari to‘xtatildi. Spartaliklarning ahvoli og‘irlashib, ular urush harakatlarini shimolga – Frakiyaga ko‘chirdilar. Frakiyadagi bir necha shaharlar Sparta sarkardasi Brasidning nozik siyosati natijasida Afina bilan ittifoqdan chiqib Sparta tarafiga o‘tdilar. Mil. avv. 422-yilda Amfiopol shahri yaqinida katta jang bo‘lib, har ikki tomondan ko‘plab qurbonlar berildi. Kleon boshchiligida jangga kirgan afinaliklar yengildilar. Har ikki tomondagi urushni davom ettirish tarafdorlarining kuchlari zaiflashdi. Natijada, Afina bilan Sparta o‘rtasida 50 yil muddatga tinchlik shartnomasi imzolandi. Bu shartnoma Afina elchisi Nikiy nomi bilan Nikiy shartnomasi deb ataldi.

Ammo bu tinchlik uzoqqa bormadi. Afinada mil. avv. 420-yilda Spartaga qarshi urushni davom ettirish tarafdorlari Periklning jiyani Alkiviad boshchiligida hokimiyatga keldilar va bir necha Peloponnes polislarida Spartaga qarshi fuqarolik chiqishini uyushtirdilar. Sparta esa forslar yordami bilan Kichik Osiyodagi yunon shaharlariga o‘z ta’sirini kuchaytirdi.

Peloponnes urushining ikkinchi bosqichi Attika hududida Dekeley nomli joyni spartaliklar tomonidan bosib olishi bilan Dekeley urushi (mil. avv. 415 – 404-yillar) nomini oldi. Spartaliklar Attika hududida Dekeleyni bosib olishi Attikaning dehqonchilik hududlarini jiddiy xavf ostiga qo‘ydi. Afinadagi 20 ming qullar (aksariyat hunarmandlar)ni spartaliklar

bosib olgan Dekeleyga qochib ketishi Afina iqtisodiyotiga katta zarba berdi. Sparta floti dengizda faol harakat qildi. Bu Afinaning dengiz savdosiga salbiy ta'sir ko'rsatdi va Afina yetakchilik qilgan dengiz ittifoqining yemirilishiga sababchi. Spartaliklar Qora dengizga boradigan yo'llardagi bo'g'ozlarni bosib oldilar. Bu Afinani oziq-ovqat bilan ta'minlashni qiyinlashtirdi. Afinaning yunon dunyosidagi obro'-e'tibori tushib ketdi. Yunonistonda Spartaning gegemonligi o'rnatildi.

Alkiviad Sitsiliyani bosib olish g'oyasini ilgari surdi. Uning fikricha, Sitsiliya Karfagen va Liviyani bosib olishga tayanch nuqta bo'lishi va keyin Italiy va Peloponnes bosib olinishi kerak edi. Uning istilochilik rejalari Afinada keng qo'llab-quvvatlandi. Mil. avv. 415-yil afinaliklar Sitsiliya orolidagi Sirakuza shahriga qarshi harbiy dengiz ekspeditsiyasini uyushtirdilar. Alkiviad bu ekxpeditsiyaga boshchilik qilib Italiyaga langar tashlab, Regiy shahrini ishg'ol qildi va Sitsiliyaga suzib ketdi. Sitsiliyada Katana shahrini bosib olgan bir paytda Afinada Alkiviadga qarshi ikki ma'budani haqoratlash ayblovi qo'yilib, Alkiviadga sirtdan hukm chiqarildi va mol-mulki musodara qilindi. Alkiviad boshpana so'rab Spartaga murojaat qildi va spartaliklar uni qabul qildilar. Shundan so'ng u Afinaga qarshi urushda spartaliklarga yordam berdi. Bu xoinlik Afinaga katta zarar yetkazdi.Spartaning yordami bilan Italiyadagi shahar-davlat Sitsiliyada turgan Afina flotini tor-mor qildi. Natijada, 7000 afinalik asirga olinib, qul qilindi. Afina dengiz flotining Sitsiliyadagi halokati natijasida uning dengiz qudratiga putur yetdi. Afinaning ittifoqchilari bo'lgan bir necha yirik shahar va orollar Afinadan ajralib ketdi. Alkiviad Spartada shuhrat qozondi, unga hasad qilgan obro'li spartaliklarning Alkiviadga qarshi fitnasi oqibatida eforlar Alkiviad-

ga o‘lim hukmini chiqardilar. Alkiviad fors satrapi Tissafern huzuriga qochib ketdi. Tissafern qarorgohida yashagan Alkiviad afinaliklarni endi forslar bilan hamkorlik qilishga chaqirdi. Natijada, mil. avv. 411-yilda Alkiviadning bu taklifi qabul qilinib, fors satrapi bilan aloqa o‘rnatildi.

Afinada hokimiyatni oligarxlar bosib oldilar (mil. avv. 411-yil) va ular tezda Sparta bilan tinchlik o‘rnatish harakatini boshladilar. Yunon polislarida yashirin siyosiy ittifoqlar – geteriyalar tuzilar edi. Geteriyalarni tuzishdan asosiy maqsadlar: saylovlarda o‘zaro yordamni tashkil etish uchun o‘z a’zolarini sudda himoya qilish va diniy muloqot edi. Geteriyalar oligarxiya va demokratiya yo‘nalishlarida tuzilar edi. Afinada mil. avv. 411 – 404-yillardagi oligarxik to‘ntarishlarda geteriya muhim rol o‘ynadi. Sparta o‘z hukmronligini o‘rnatishning tayanchi sifatida geteriyani qo‘llab-quvvatladi.

Ahmoniylar davlati yunon shaharlari o‘rtasidagi urushda tomonlarga yordam berdi. Kariya satrapi, tajribali diplomat Tissafern Kichik Osiyodagi yunon tayanch nuqtalarini fors davlati tarkibiga qaytarish rejasini ko‘zda tutgan holda mil. avv. 412-yil Spartaga yordam ko‘rsatdi. Amalda Sparta floti forslarning mablag‘i hisobiga qurildi va kuchli dengiz floti sifatida Spartaning urush harakatlarida qatnashdi.

Biror bir yunon polisi peloponnes urushlaridan foyda ko‘rmadi. Bu urushlar shundoq ham nochor ahvolda bo‘lgan xo‘jalik hayotini izdan chiqardi. Urush yunon polislarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tushkunligini kuchaytirdi. Peloponnes urushlarining salbiy oqibatlari to‘g‘risida yunon yozuvchisi Ksenofont shunday yozgan edi: «Bu yerda butun Yunoniston yig‘ildi va qo‘lida qurol bilan bir-biriga qarshi chiqdi. Barcha agar jang qilib, kim g‘olib chiqsa, butun Yunoniston ustidan hokimiyatni qo‘lga ola-

di, mag‘lub bo‘lganlar esa unga bo‘ysunadilar. ...Bu jangdan so‘ng biror bir tomon ham biror yangi shaharga ham, ortiqcha biror hududga ham, hokimiyatga ham ega bo‘lmadilar». (Ksenofont, 498)

2. Polis tizimining tushkunligi. Peloponnes urushlaridan yunon polislari ichida eng katta moddiy zarar ko‘rgan Afina bo‘ldi. Afina davlati urushga bir necha ming talant sarfladi, bu kichik bir shahar-davlat uchun afsonaviy mablag‘ edi. Urush oxirida pul mablag‘lari tugadi. Afina o‘zining 150 ming aholisidan 1/3 qismini yo‘qotdi. Yunon oilasida o‘rtacha 1-2 tadan bola bor edi. Aholi soni uzluksiz urushlar natijasida keskin kamayib ketdi. Iqtisodiyotning asosiy tayanchi bo‘lgan va aholining asosiy qismi – o‘rta va mayda dehqon-hunarmandlar katta zarar ko‘rdilar. Xo‘jalik izdan chiqib, Attika dehqonlari xonavayron bo‘ldi. Afinalik savdogar-hunarmandlar boshqa yunon polislarining kuchli raqobatiga bardosh bera olmadilar. Iqtisodiy tushkunlik natijasida ishsizlik, ochlik yuz berdi va ijtimoiy norozilik kuchaydi.

Yunon shahar-davlatlarining Kichik Osiyo, Suriya, Finikiya va Misr bilan savdo aloqalari to‘xtab qoldi. Kuchli dengiz flotidan mahrum bo‘lgan Afina dengiz yo‘llaridan ham ayrildi va dengiz savdosidagi yetakchi mavqeyini yo‘qotdi. Urush tufayli Afina bilan ittifoqda bo‘lgan shahar-davlatlar amalda Afina zulmi ostidagi qaram shaharlar edilar. Shu sababli bu shaharlar Afinaning zaiflashganidan foydalanib, ittifoqdan tezlikda chiqib ketdilar. Afina dengiz ittifoqining yemirilishiga qarshi tura olmadi. Urushgacha kuchli shahar-davlat bo‘lgan Korinf ham bir qism harbiy kemalarini yo‘qotdi va bir necha qishloqlari vayron bo‘ldi.

Spartaning yunon dunyosidagi yetakchiligi. Mil. avv. IV asrning birinchi yarmida forslarning yordami bilan Spartaning Yunonistondagi mavqe-

yi kuchaydi (mil. avv. 404 – 379-yillar). Ahmoniylar davlati Pelopennes urushlarida Spartani qo‘llab-quvvatladi va spartaliklarning harbiy flotini jihozlashga katta mablag‘ bilan yordam berdi. Urush nihoyasida foslarning yordami bilan Sparta quruqlik davlatidan dengiz davlatiga aylandi. Ma’lumotlarga ko‘ra forslar Spartaga harbiy xarajatlar va spartalik harbiy boshliqlarni sotib olish uchun katta miqdordagi badal – 5 ming talant sarflaganlar. Bundan tashqari, spartaliklar urushda harbiy o‘lja va talonchilik bilan katta moddiy boyliklarga ega bo‘ldilar. Sparta rasman butun yunon shahar-davlatlarining yetakchisiga aylandi. Endilikda Sparta yopiq davlat siyosatini zaiflashtirdi. Sparta tashqi dunyo bilan, boshqa yunon shahar-davlatlari bilan uzluksiz aloqani yo‘lga qo‘ydi.

Sarkarda Lisandr urush nihoyasida Ahmoniy shahzoda Kayxisravdan, qaram shaharlardan sovg‘a va tovon sifatida 470 talant naqd pulni Spartaga olib keldi. Spartada an’anaviy turmush tarziga sodiq bo‘lgan fuqarolar bu misli ko‘rilmagan mablag‘ spartaliklarni o‘chko‘zlik, boylik to‘plashga ruju qo‘yishiga sababchi bo‘ladi deb norozilik bildirdilar. Lekin Lisandr va uning tarafdorlari moliyaviy barqaror bo‘lgan taqdirdagina Sparta haqiqiy yetakchi davlatga aylanishini anglab turardilar. Oxir-oqibatda, Lisandr va uning tarafdorlari g‘olib chiqdilar. Spartada ijtimoiy xazina tashkil etildi. O‘z harbiy qismlarini Sparta mag‘lub bo‘lgan yunon shaharlari va Afinaga joylashtirib, shahar boshqaruviga mahalliy zodagonlardan o‘z tarafdorlarini qo‘ydilar. Zodagonlar esa demokratlarga qarshi terror va ta’qib siyosatini o‘tkazdilar.

Sparta yunon shahar-davlatlari orasida eng kuchli davlatga aylandi. U o‘z ittifoqchilari bo‘lgan eng katta shahar-davlatlari – Korinf va Fivaga ham mensimay qaray boshladi. O‘ziga bo‘ysunmagan shahar-davlatlarni jazolash uchun bir qancha chora-tadbirlarni

amalga oshirdi. Mil. avv. 401 – 400-yillarda Elidaning ichki ishlariga aralashdi, Elida atrofida kichik shaharlar birlashuvini tarqatib yuborishni talab qildi. Elida bu talabni bajarishdan bosh tortdi. Sparta Elidaning ta'zirini bermoqchi bo'lib Elidaga bostirib kirib, butun hududni taladi. Yunonlar uchun muqaddas bo'lgan Olimpiya okrugi ham bosqindan chetda qolmadi. Shundan so'ng Fessaliya viloyatidagi Gerakleya va Etey shaharlariga jazo ekspeditsiyasi uyushtirdi. Sparta bu shaharlarda demokratik tuzumni tugatib, zodagon oligarxlar hokimiyatini o'rnatdi va demokratiya tarafdorlarini qatl etdi.

Qator shaharlarda oligarxlar Sparta yordamida hokimiyatni egalladilar. Shu jumladan, Mantiheya, Fliunt, Plateya va Tanagra shaharlari hamda Rodos orolida zodagon-oligarxlar Spartaning yordamida demokratik boshqaruvni tugatib, o'z hokimiyatlarini o'rnatdilar. Spartaning bunday zo'ravonlik siyosatidan qator shaharlar norozi bo'ldilar. Oqibatda, bir necha yunon shaharlari Spartaning zulmiga qarshi birlashib, kuch to'play boshladilar. Tez orada Spartaga qarshi bir necha shaharlar urush ochishga tayyor bo'ldilar. Spartaning Yunonistondagi yetakchiligi xavf ostida qoldi.

3. **Ahmoniylar davlatining yunon dunyosi bilan munosabatlari.** Sparta uzoq davom etgan Peloponnes urushlarida Ahmoniylar davlatidan moliyaviy yordam oldi va bu mablag'ni kuchli harbiy dengiz flotini qurishga sarfladi. Natijada, Sparta urushda Egey havzasida hukmron bo'lgan Afina va uning ittifoqchilari ustidan g'olib chiqdi. Urushdan keyin Sparta Ahmoniylar homiyligi ostida yunon dunyosida o'z hukmronligini o'rnatdi. Mil. avv. 404-yilda Doro II ning o'limi bilan Ahmoniylar saroyida taxt uchun shahzodalar o'rtasida kurash boshlagan ayni bir paytda Misrda forslarga qarshi qo'zg'olon boshlandi.

Spartaliklar taxt uchun kurashda shahzoda Kayxisravni qo‘llab-quvvatladilar. Chunki shahzoda Kayxisrav peloponnes urushlarida Spartani har tomonlama qo‘llab-quvvatlab, moliyaviy yordam ko‘rsatgan edi. Akasi Artakserksga qarshi isyon ko‘targan shahzoda Kayxisrav mil. avv. 401-yilda Kunaks yonidagi jangda yengildi va halok bo‘ldi.

Bu vaqtda fors qo‘shini Misrdagi qo‘zg‘olonni bostirish bilan band bo‘lib, Kichik Osiyo himoyasiz qolgan edi. Sparta Ahmoniylar davlatida yuzaga kelgan beqaror vaziyatdan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishga harakat qildi. Sparta Ahmoniylarga tegishli Kichik Osiyoni bosib olish uchun qo‘shin tortdi. Sparta harbiy qismi Kichik Osiyodagi yunon tayanch nuqtalarini egalladi. Spartaliklar Frigiya va Lidiya satrapliklariga bostirib kirdilar. Sparta sarkardasi Agesilay Lidiyaning poytaxti Sard shahri yonidagi jangda fors satrapi ustidan g‘alaba qozondi. Spartaliklar Kichik Osiyoning boy shaharlarini taladilar.

Sparta Kichik Osiyoni talashga qaror qilib, Agesilay boshliq qo‘shinni boy Frigiya viloyatiga yubordi. Agesilay Frigiyani taladi, katta o‘lja bilan Frigiyani tark etdi. Kichik Osiyodagi savdo-hunarmandchilik markazi bo‘lgan Lidiya satrapligi Sard shahri ham talandi. Ahmoniylarning Kichik Osiyodagi sarkardasi Tissafern Artakserksning g‘azabiga uchradi.

Podshohning onasi Parisatida o‘g‘li Kirning o‘limiga sabab bo‘lgan deb hisoblab, Tissaferndan o‘ch olishga ahd qilgan edi. Parisatida Tissafernga qarshi turli mish-mishlarni tarqatdi. Podshoh Artakserksning buyrug‘i bilan Kichik Osiyo satrapi Tissafern Sparta bosqiniga qarshi tura olmagani uchun qatl etildi.

Bu vaqt ichida forslar Kariyada kuchli flot qurdilar va bu flotga qo‘mondonlikni afinalik Kononga topshirdilar. Spartaning raqiblari Afina va Fiva sha-

harlari forslar bilan muzokara olib borib, Spartaga urush ochdilar. Shu tarzda mil. avv. 395 – 387-yillarda **Korinf urushi** deb nomlangan urush boshlanib ketdi. Bu urush Sparta mag‘lubiyati bilan tugadi. Ahmoniylar yunon-shahar davlatlari o‘rtasida barqaror vaziyatni ta’minlash va Yunon shahar-davlatlari o‘rtasida kuchlar nisbati muvozanatini saqlab turish uchin Spartaning davlat sifatida yo‘q bo‘lib ketishini istamadi. Fors podshohi Afina, Fiva, Argos, Korinf, Megara va boshqa polislar birlashmasining Sparta ustidan to‘la g‘alaba qilishiga yo‘l qo‘ymadi. Podshoh Artakserks spartalik Antalkid vositachiligida urushayotgan tomonlar o‘rtasida sulh tuzishga buyruq berdi. Tinchlik shartlarini amalda forslar ishlab chiqdi. Mil. avv. 387-yilda imzolangan bu sulh shu sababli «podshoh shartnomasi yoki Antalkid shartnomasi» deb ataladi. Tinchlik shartnomasida Spartaning yunon dunyosidagi yetakchiligi rasman tasdiqlandi.

Artakserks II zaiflashib qolgan Spartaga moliyaviy yordam ko‘rsatdi. Qudratli Eron davlatining yunon polislaridagi ta’siri kuchaydi. U polislar o‘rtasidagi nizolarni hal qilishda asosiy hakam sifatida chiqishi odatdagi holga aylandi. Ko‘pgina yunon polislari o‘zaro urushlardan xoli bo‘lish uchun forslarning homiyligini ko‘ngilli qabul qildilar. Ko‘plab yunon siyosiy va jamoat arboblari Ahmoniylar sulolasi saroyi bilan yaqin munosabatda bo‘ldilar va ularning ayrimlari Ahmoniylarga xizmat qildilar. Asrlar davomida ko‘plab yunonlar fors armiyasida yollanma askar bo‘lib xizmat qildilar. Yunonlar fors madaniyati, diniy eti’qodi bilan tanishdilar va o‘zlashtirdilar. Ahmoniylar davlati hukmronligi davrida yunonlarni bu davlatning turli burchaklarida uchratish mumkin edi. Yunonlar sharqning bir necha ming yillik madaniy yutuqlarini o‘zlashtirib, yunon madaniyatini rivojlantirdilar. Mil. avv. IV asr o‘rtalarida na Sparta, na

Afina yoki Fiva yunon-polis davlatlarini birlashtirish qobilyatiga ega emasligi yaqqol ko‘rindi.

Yunon shaharlarining birlashuvi uchun iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy omillar mavjud emas edi. Yunonlarda faqat til va etnik birlik mavjud edi. Lekin bu birlashuv uchun yetarli emas edi. Har bir shahar o‘z iqtisodiy manfaatlariga ega bo‘lib, shaharlar o‘rtasida iqtisodiy aloqalar rivojlanmagan, umumiy bozor va iqtisodiy mehnat taqsimoti yuzaga kelmagan edi. Shu sababli, yunon shahar-davlatlari mil. avv. VIII asrdan VI asrgacha shakllanib, keyin yana mil. avv. III – II asrgacha tarqoq holda qolaverdi. Lekin bu shahar-davlatlar butun tarixi davomida yagona bir davlatga birlasha olmadi. Ular faqat bir necha davlatlar birlashgan ittifoqlarga birlashdilar. Mil. avv III asrda Makedoniya davlati tarkibiga, keyin esa Rim davlati tarkibiga kirdi.

O‘zaro urushlarning davom etishi. Mil. avv. 379-yilda Fivada demokratik kuchlar Pelopid boshchiligida g‘alaba qildilar. Mil. avv. 370-yillar oxirida Fiva Beotiya bilan kuchli demokratik davlat birlashmasini tashkil etdi. Bu davlat kuchli qo‘shinga ega bo‘lib, Sparta va Afina yunon davlatlari bilan bir qatorda turgan yana bir kuchli markaz bo‘ldi. Sparta yunon dunyosida yetakchilik mavqeyini saqlab qolish uchun Fivani kuchayib ketishiga qarab tura olmas edi. Shu sababli u Afina bilan murosaga keldi. Sparta mil. avv. 371-yilda Fivaga qarshi urush boshladi. Lekin qobiliyatli sarkarda Epaminoid boshliq saylanma Sparta armiyasini yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan fivaliklarning armiyasi kutib oldi. Mil. avv. 371-yilda jangda Sparta armiyasi beotiyalliklardan yengildi. Beotiya urushni davom ettirdi va beotiya qo‘shinlarining Peloponnesga bostirib kirishi Spartani davlat sifatida yo‘q bo‘lib ketish xavfini tug‘dirdi.

Ittifoqchilar o‘rtasidagi ixtiloflar oqibatida peloponnes ittifoqi yemirildi, eng avvalo ittifoq tarkibidan Messeniya va Arkadiya chiqdilar. Yangi Arkadiya ittifoqi tuzilib, bu ittifoq Spartaga qarshi turdi. Qobiliyatli sarkarda Epaminondning Sparta ustidan mil. avv. 371 – 362-yillardagi g‘alabalari Fivaning yunon shahar davlatlari orasidagi qisqa muddatli yetakchiligini ta’minladi. Fivaning yunon dunyosiga yetakchiligi ham vaqtinchalik bo‘ldi.

Afina mil. avv. 378-yilda ikkinchi Afina ittifoqini tikladi. Bu ittifoq mil. avv. 370 – 360-yillarda yunon dunyosida nisbatan kuchli ittifoq bo‘ldi. Lekin bu ittifoq vaqtinchalik, qisqa vaqtda mil. avv. 370 – 360-yillar mavjud bo‘ldi. Mil. avv. IV asrning 60-30-yillarida biror bir yunon polisi qandaydir mustahkam birlashuvni tashkil qilish va unga rahbarlik qilish qobiliyatiga ega emas edi. Yunon polislari endilikda o‘zaro kelishmovchiliklarni bartaraf qila olmay qoldilar. Afinalik notiq Isokrat yunon shaharlarini o‘zaro urushlar girdobida qolganini ko‘rib, kuchli Makedoniya homiyligida tarqoq yunon-polislarini kuch ishlatib birlashtirish g‘oyasini ilgari surdi.

Qadimgi yunon shahar-davlatlari o‘z tarixlarining oxirigacha bir davlatga birlasha olmadilar. Har bir yunon shahar-davlati o‘zining tor manfaatlaridan kelib chiqqan holda yashadi. An’anaviy shakllangan boshqaruv tizimi va yunonlarning iqtisodiy-ijtimoiy turmush tarzi va o‘ziga xos mafkura yunon dunyosining birlashuviga yo‘l bermadi. Xo‘jalikning faqat ayrim sohalari, masalan, kulolchilikning rivojlanishi iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga kifoya qilmas edi. Unumdor yerlarning taqchilligi oziq-ovqatning halokatli miqdorda yetishmasligi Yunonistonning o‘sha vaqtdagi 1 millionlik aholisini juda og‘ir ahvolga solib qo‘ygan edi. Aholining ko‘pchilik qismi o‘zga yurt-

larga migratsiya qilib jon saqlab qoldi. Yosh yunon yigitlari yollanma askar sifatida sharq mamlakatlari qo‘shinlari tarkibini to‘ldirdilar. Yunon hududlari o‘rtasida muntazam iqtisodiy aloqalar, umumiy bozor va mehnat taqsimotining shaklanmagani yunon shahar-davlatlarining birlashuvi uchun shart-sharoit yaratmadi.

4. Ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar. Mil. avv. V asr so‘nggida yunon polislari uzoq davom etgan tushkunlik pallasiga kirdi. Fuqarolarning yopiq jamoasiga asoslangan yunon polisida yer mulkchilik munosabatlarida keskin o‘zgarishlar boshlandi. Yerga ishlov berishdan keladigan daromaddan ko‘ra, sudxo‘rlik daromadi o‘sib ketdi. Yer-mulk munosabatlarida o‘zgarishlar yuz berdi. Mil. avv. V asr oxiridan yerning erkin oldi-sotdisi keng tarqaldi. Ko‘pgina fuqarolar nochorlikdan o‘z yerlarini sotishga majbur bo‘ldilar. Natijada bu yerlarni fuqaroligi bo‘lmagan kishilar ham sotib ola boshladilar. Xususiy va jamoa yerini ijaraga berish va garovga qo‘yish keng tarqaldi. Katta-katta yer maydonlari ayrim fuqarolarning mulkiga aylandi. Kambag‘allashgan, yeridan ajralgan fuqarolar o‘z fuqarolik majburiyatlarini bajarmay qo‘ydilar. Ilgari iqtisodiy o‘sish davlatning boyishi bilan birga borar edi. Boy fuqarolar ko‘pgina mablag‘larini fuqarolik jamoasi ehtiyojlariga sarflashni o‘z majburiyatlari deb bilar edilar. Mil. avv. V asrda esa xususiy mulk ayrim kishilar qo‘lida to‘plandi va ular o‘zlarining fuqarolik majburiyatlarini bajarishdan bo‘yin tovlay boshladilar.

Boylarning ko‘pchiligi o‘z mablag‘larini dengiz savdosiga qo‘ydilar. Ular o‘z polislaridan boshqa hududlarda katta-katta yer maydonlariga egalik qila boshladi va ma’lum bir polis fuqarosi bo‘lish ahamiyatsiz bo‘lib qoldi. Yerga egalik munosabatlarda o‘zgarish-

lar yuz berdi. Ilgari shahar davlat hududida yerga egalik qilish to‘laqonli fuqarolikni belgilagan bo‘lsa, endilikda ko‘pchilik afinalik fuqarolar yer ulushiga ega emas edilar. Bu toifa odamlarga nafaqat yeridan ajralib xonavayron bo‘lgan oddiy dehqon fuqarolar, balki pulini foizga qarz beradigan sudxo‘rlar, daromad keltiradigan uy egalari va qul-hunarmandlar bo‘lgan boy odamlar kirar edi. Ko‘pgina boy odamlar, ayniqsa, eski zodagonlarga tegishli bo‘lmagan fuqarolar yer sotib ola boshladilar. Yer egaligi bir necha bo‘linib ketgan yer ulushlaridan iborat bo‘lib, bu yerlar ozod qo‘yilgan qullarga, kambag‘al dehqonlarga ijaraga berilishi yoki qul mehnati bilan ishlov berilishi mumkin edi.

Mil. avv. V asrning oxiridan boshlab Afinada metek va chet elliklarga davlat oldidagi alohida xizmatlari uchun shahar-davlat hududida yer va uyga egalik qilish huquqi sovg‘a qilindi. Bu davrda Spartada ham ijtimoiy tabaqalanish kuchaydi. Davlat mulki bo‘lgan yerlar ayrim spartaliklarning mulkiga aylandi. Yerni xufiya oldi-sotdisi avj oldi. Spartada boylikka ruju qo‘yish kuchaydi.

Mil. avv. IV asrga kelib, asta-sekin Afina fuqarolarining turmush tarzi va dunyoqarashi o‘zgardi. Fuqarolarning ko‘pchiligi dehqonchilik va hunarmandchilikning og‘ir mehnati erkin fuqaro uchun loyiq bo‘lmagan past darajadagi mashg‘ulot, bu mashg‘ulotlar to‘laqonli fuqaro bo‘lmagan metek va qullarga mos deb jismoniy mehnat va u bilan shug‘ullanuvchilarga past nazar bilan qaray boshladilar.

Davlat hokimiyati. Bu davrda yunon polislarida davlat xo‘jaligining mavjud emasligi davlat xazinasiga daromad tushmasligi bilan ko‘zga tashlanadi. Davlat hokimiyati iqtisodiy-moliyaviy jihatdan hech qanday mablag‘ga ega emas edi. Shu sababli davlat

hokimiyati kuchsiz edi. Bundan tashqari, polislarning moliyaviy qiyinchiliklari uzluksiz urushlar, yollanma qo‘shinlarning keng tarqalishi, harbiy ehtiyojlarga xarajatlarning muntazam ravishda o‘sib borishi bilan chuqurlashdi. Agarda ilgari Afina o‘z xarajatlarini ittifoqchilar hisobidan qondirgan bo‘lsa, mil. avv. IV asrda esa, mulkdan olinadigan favqulodda soliq – eysfora bilan qoplay boshladi. Tinchlik vaqtida Afina fuqarolari hech qanday soliq to‘lamas edilar. Xalq yig‘ini eysfora to‘g‘risidagi qarorlarni kambag‘al fuqarolar manfaatlariga zid ekanligi uchun uni istar-istamas qabul qilar edi. Afinaning boy tabaqasiga soliq solishga urinish boylarning noroziligiga olib keldi. Pul mablag‘i va moliyaviy-moddiy resurslarga ega bo‘lmagan davlat hokimiyati zaif va mo‘rt edi. Har qanday iltimoiy-iqtisodiy va siyosiy tushkunliklarni bartaraf qilish davlat hokimiyati uchun juda katta muammo bo‘ldi. Bunday muammolarni hal qilish uchun na kuch, na rag‘bat bor edi. Shu sababli, yunon shahar davlatlarining umri qisqa bo‘ldi. Davlat ayrim boy fuqarolarning xayr-ehsonlariga qaram bo‘lib, ba’zida ayrim xarajatlarni qoplash uchun qarz olar edi.

Yunon shahar-davlatlarining o‘z aholisi juda kam sonli edi. Yunon oilasida o‘rtacha 1-2 bola bor edi. Afina shahar davlatining fuqarolari 12 ming kishini, Sparta fuqarolari soni yanada kam bo‘lib, 8-9 ming kishini tashkil etgan, ko‘pchilik polislarning aholisi 3-4 ming kishidan iborat edi. Ishlab-chiqarishda doimo ishchi kuchi yetishmas edi. Bu muammo qul mehnatidan kehg foydalanishga olib keldi. Qul mehnatidan katta yer egalari xo‘jaligida (20-25 ga yerda 15-20 qul, boy hunarmand ustaxonasida 20-30 qul-hunarmand ishlagan) hunarmandchilik ustaxonalari – ergasteriylarda foydalanildi.

Dehqonchilik, savdo-hunarmandchilik sohalariga fuqaroligi bo‘lmagan aholi qatlami meteklar, ozod qo‘yilgan qullar ko‘plab kirib kela boshladilar. Afina shahar-davlati savdo-hunarmandchilikni rag‘batlantirish,boshqa yunon shaharlaridan tadbirkorlarni jalb qilish uchun meteklarga Afinada yerni ijaraga olishga ruxsat beradigan qonun qabul qilindi. Ko‘pgina meteklar dehqonchilik bilan shug‘ullanish uchun yerlarni ijaraga ola boshladilar. Yunon shahar davlatlarida ozod fuqaro sonidan qullarning soni bir necha marta ko‘paydi. O‘sha davrda yunon-shahar davlatlarining barcha toifadagi aholisi jami bir million kishiga yetmagan.

Afinada davlat qurilishida erkin fuqarolarning mehnati kamaydi. Chunki ularning mehnatiga ham, metek va qullarga ham bir xil miqdorda haq to‘lanar edi. Qullardan qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik, uy-ro‘zg‘or ishlarida foydalanish, boshqa kishilarga yollanma mehnatga berish bilan birga, quldor qulni hunar va savdo bilan mustaqil shug‘ullanishga ruxsat berar edi. Bunday qullar mulk va oilaga ega bo‘lib, alohida yashar edilar. Ular pul to‘plab, o‘z ozodliklarini sotib olishlari mumkin edi. Mil. avv. IV asrda ozod qo‘yilgan qullarning soni o‘sdi va ularning yunon polislari iqtisodiy hayotidagi roli kuchaydi. Huquqiy jihatdan ular meteklarga tenglashtirilib, ijtimoiy jihatdan hunarmand va savdogarlar ommasiga qo‘shildilar. Mehnat va hayot kechirishda turmush tarzining o‘xshashligi fuqaro va fuqaroligi bo‘lmagan kishilarni bir-biriga yaqinlashtirdi.

Mil. avv. V asrda yunon shahar-davlatlarida iqtisodiyot natural holatda bo‘lib, asosan o‘rta va kichik dehqon xo‘jaligi ustivor bo‘ldi. Savdo-hunarmandchilikda ham o‘rta va kichik savdogar va hunarmandlar faoliyat ko‘rsatib, mahsulotning oz qismini

bozorga chiqarar edilar. Natural xo‘jalik sharoitida aholining barcha qatlamlarining iste’mol qobiliyati past bo‘lgani uchun mahsulotni bozorga chiqarish ham sust bo‘ldi. Aholining aksariyati qishloq hududlarida yashar edilar. Mil. avv. IV asrda ahvol o‘zgardi va urushda izidan chiqqan xo‘jalik hayoti tiklandi. Mayda ishlab-chiqaruvchilar kamaydi. O‘rta va katta yer egaligi kuchaydi. Bozor uchun mahsulot ishlab-chiqarish ko‘paydi. Chunki shahar aholisi soni ko‘paydi, savdo-hunarmandchilik rivojlanishi bilan shaharga ko‘chib kelish ham kuchaydi. Qishloq o‘zi va shahar uchun oziq-ovqat va xomashyo tayyorlashni ko‘paytirdi. Shaharda ham hunarmandchilik ustaxonalari qishloq va shahar uchun mahsulot ishlab chiqarishni keskin ko‘paytirdilar. Hunarmandchilik sohalari ko‘paydi.

Yunon shahar-davlatlarida turli ijtimoiy tabaqalar o‘rtasidagi ziddiyatlar kuchaydi. Boylar va kambag‘allar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar davlat hokimiyatining zaiflashuviga olib keldi. Davlat hokimiyatining tabaqalar o‘rtasidagi nizolarni hal qilishga urinishi natija bermadi.

Polisning tushkunligi yollanma askarlarning ko‘payishida ham ko‘rindi. Yer-mulkidan ajralgan, qarzga botib kambag‘allashib qolgan fuqaro qurol-yarog‘ olishga mablag‘ topa olmas, ko‘pincha begonalarning manfaati uchun jang qilishni xohlamas edi. To‘xtovsiz urushlar harbiy texnikaning takomillashuvi, harbiy jang san’atini yaxshi egallagan askarlarni talab qilar edi. O‘z yeridan mahrum bo‘lgan, jismoniy mehnat bilan shug‘ullanishni istamagan, o‘z polislaridan quvilgan kishilar yollanma askarlar safini to‘ldirdilar. Yunonlar Misr, Ahmoniylar davlati va boshqa davlatlar armiyasida ma’lum bir haq evaziga yollanma askar bo‘lib xizmat qila boshladilar.

QADIMGI YUNON MADANIYATI

«Antik davr haqiqiy jahon tarixini ham, psixologiyasini ham, chuqur biografiyani ham yaratmadi. Fukidid va Suqrot bu fikrning tasdig‘i bo‘lib xizmat qiladilar. Biri faqat yaqin o‘tmishdagi xalqlarning cheklangan doirasini bilar edi, boshqasi faqat o‘zi to‘g‘risidagi mushohadaning yuzaki lahzalarini bilar edi».

O. Shpengler

1. Qadimgi yunon madaniyati.
2. Falsafa.
3. Diniy e’tiqod.
4. Sport.
5. Tarix matnlari.
6. Adabiyot va teatr.
7. Ta’lim. Notiqlik san’ati.
8. Me’morchilik.
9. Haykaltaroshlik.
10. Tibbiyot va aniq fanlar.

1. Qadimgi yunon madaniyati. Qadimgi yunon madaniyati Yunonistonda davlat va jamiyatni paydo bo‘lishi va rivojlanishi davrida shakllanib, madaniyatning barcha sohalarida faqat shu davr yunon dunyoqarashi va cheklangan bilim darajasidagi mazmun-mohiyatga ega bo‘ldi. XX asr boshlarida yashagan nemis faylasufi O. Shpengler bu to‘g‘risida shunday fikrni aytadi: «Antik davr haqiqiy jahon tarixini ham, tarix psixologiyasini ham, chuqur biografiyani ham yaratmadi. Fukidid va Suqrot bu fikrning tasdig‘i bo‘lib xizmat qiladilar. Biri faqat yaqin o‘tmishdagi xalqlarning cheklangan doirasini bilar edi, boshqasi – faqat o‘zi to‘g‘risidagi fikrlashning yuzaki lahzalarini bilar edi».

Qadimgi yunon madaniyati birinchi bosqichida (mil. avv. VIII – VII asrlar) qadimgi sharqning bir necha ming yillik boy madaniy yutuqlari ta'siri ostida shakllandi. Yunonlar sharq sivilizatsiyalari bilan o'zlarining Kichik Osiyodagi tayanch nuqtalari orqali tanishdilar. Bu davrda yunonlarning madaniy o'choqlari Kichik Osiyodagi Milet, Samos, Lesbos orollari edi. Ahmoniylar saroyida taniqli yunon siyosat va jamoat arboblari bo'lib, ba'zilari Ahmoniylarga xizmat qildilar. Pavsaniy, Femistokl, Alkiviad va boshqalar fors podshohlari xizmatida bo'ldilar, ularning ba'zilari forslarning urf-odat va an'analarini qabul qildilar, fors tilini o'rgandilar.

Yunonistonning ayrim polislarida vaqti-vaqti bilan o'rnatilgan demokratik tuzum fuqarolarning so'z erkinligini ta'minladi, shaxs huquqini kafolatladi va ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirok etish imkoniyatini berdi. Xalq yig'inida ichki va tashqi siyosatning barcha masalalarini muhokama qilish fuqarolarning o'zligini anglashini rivojlantirdi. Davlatda yuz berayotgan barcha hodisalar fuqaroda mas'uliyat hissini shakllantirdi. Har qanday fuqaro o'zining butun hayoti davomida bir necha marta davlat va jamoat lavozimlarini egallashi mumkin edi. Polisning siyosati uning barcha fuqarolarining ishi edi. Rivojlangan polislarda fuqarolarning asosiy qismi savodli edi. Davlat bayramlari va musobaqalari katta ta'lim va tarbiyaviy ahamiyatga ega edi. Yunon teatri tomoshalari fuqaroda axloqiy va siyosiy sifatlarni tarbiyalash vositasi hisoblanar edi. Shu sababli, davlat barcha fuqarolarni teatr tomoshalarini muntazam ko'rishiga shart-sharoit yaratib, g'amxo'rlik qildi.

Demokratik polislarda notiqlik san'ati rivojlandi: xalq yig'inlarida chiqib nutq so'zlaganda notiq kishilarni o'ziga qaratib, o'z nutqini eshitishga majbur qilishi lozim edi. Sud majlisida fuqaro o'zini himoya

qilishi lozim edi. Shu sababli, fuqaro o‘zining fikrini san’atkorona va mantiqiy asoslash bilan sudyalarni o‘z so‘ziga ishontirishi lozim edi. Bu esa nutq san’atini egallashni talab qildi. Natijada, maxsus fan – ritorika (notiqlik san’ati) paydo bo‘ldi. Fikrlash, mushohada qilish qonunlari to‘g‘risida bilim va tushuncha beradigan mantiq fani shakllana boshladi.

Yunonistonda diniy e’tiqod xizmatchilari qadimgi sharqdagi kabi alohida toifa sifatida shakllanmadi, diniy e’tiqod jamiyat mafkuraviy hayotida qadimgi sharqdagidek hukmron mavqega ega bo‘lmadi. Bu yunonlarga erkin fikr yuritish ruhini berdi va yunon madaniyatining rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Yunonlar uchun xudolar qudratli mavjudotlar timsolida bo‘lsalar-da, lekin ular insonga yaqin va tushunarli edi. Qadimgi yunon odami kohinlar yordamisiz o‘zi e’tiqod etgan xudosiga qurbonlik keltirishi mumkin edi. Qadimgi Sharqda kohinlar toifasi katta mol-mulkka ega bo‘lgan yopiq imtiyozli qatlam edi. Jamiyatning ma’naviy, madaniy va ta‘lim tizimi kohinlar toifasi izmida edi. Yunonlarda esa kohinlar yopiq qatlam sifatida shakllanmadi. Yunon shahar-davlatlarida kohinlik lavozimi saylanadigan va almashtiriladigan edi. Kohinlar alohida toifa sifatida shakllanmagani va ibodatxonalar mol-mulkka ega bo‘lmagani, jamiyatda vijdon erkinligi mavjud bo‘lgani uchun diniy e’tiqod va uning xizmatchilari polis hayotiga ta’sir o‘tkazmadilar. Yunon ibodatxonalari kichik hajmda chiroyli qilib qurilgan edi. Ular qadimgi Sharq ibodatxonalari kabi ulug‘vor va hashamatliligi bilan odamlarni hayratga solmas edi.

Qadimgi yunon madaniyati yunon shaharlarida fuqaro erkinligi, yerga xususiy mulkchilik va iqtisodiy faoliyat erkinligi sharoitlarida rivojlandi. Ko‘chadigan va ko‘chmas mulkka xususiy mulkchilik, davlatning xo‘jalik hayotiga aralashmasligi, tovar-pul

munosabatlarining rivojlanishi – bularning barchasi alohida odamning tashabbusini rivojlanishiga, insonning o‘zida kuch va ishonchini qaror topishiga hamda tanqidiy fikrlashning paydo bo‘lishiga yordam berdi. Chunki tanqidiy mushohadasiz ilmiy progress bo‘lishi mumkin emas edi.

Qadimgi yunon madaniyati taraqqiyoti ikki katta asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi:

1. Ilk yunon madaniyati (mil. avv. VIII – VI asrlar).
2. Klassik yunon madaniyati (mil. avv. V – IV asrlar).

Ilk yunon madaniyati keskin siyosiy kurash, polis davlatlarining shakllanishi hamda boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarning yo‘lga qo‘yilishi asosida rivojlandi. Bu davr madaniyati Sharqning qadimgi sivilizatsiyalari yaratgan boy madaniyat ta’siri ostida rivojlandi. Qadimda yunonlar Sharq madaniyati bilan o‘zlarining Kichik Osiyodagi manzilgohlari orqali tanishdilar. Qadimgi Sharq sivilizatsiyasiga yaqin joylashgan geografik hududlarda Milet, Lesbos, Samos kabi ilk yunon madaniy o‘choqlari vujudga keldi.

Mil. avv. VII asrda yashab ijod qilgan Gesiodning didaktik asarlarida o‘zi yashagan davrning ijtimoiy hayoti va ziddiyatlari aks ettiriladi («Mehnat va kunlar» poemasi).

Badiiy adabiyot, eng avvalo, poeziya janrida rivojlandi. Poeziya siyosat bilan bog‘liq edi. Mashhur shoirlar Feognid, Solon, qisman Arxiloy siyosat bilan faol shug‘ullangan edilar. Hatto Alkey va Safo kabi lirik shoirlar ham siyosatga tan berdilar. Shu davrda Kichik Osiyoda yashagan qul Ezop masallarida adabiyotda mavjud ijtimoiy hayotning haqiqati aks etdi, masallarda ijtimoiy adolat masalasi ko‘tarilgan. Ilk yunon materialistik falsafasi fanining rivojida qadimgi Sharq jamiyatlari yutuqlaridan keng foydalanildi. Yunon madaniyatining asosiy yutuqlaridan biri bu

yunon yozuvining yaratilishi edi. Yunonlar mil. avv. VIII asrda sharqdan finikiya yozuvini o‘zlashtirishlari yunon madaniyati tarixida muhim voqea bo‘ldi. Finikiya yozuvi asosida yunon yozuvining shakllanishi uzoq asrlar davom etdi. Mil. avv. 403-yilda 24 harf (17 unli, 7 unsiz)dan iborat yunon alfavitli yozuvi yuzaga keldi. Dastlab, yunonlar toshga o‘yib yozdilar, keyin mum surtilgan taxtacha, pergament, keyin esa papirus ishlatildi.

Klassik yunon madaniyatining rivojlanishi uchun mil. avv. VI asrda qulay ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy shart-sharoit vujudga keldi. Yunon polislaridagi pul-tovar munosabatlarining rivojlanishi qadimgi yunon madaniyatining gullab-yashnashida muhim o‘rin tutdi. Yunonlar Kichik Osiyo va sharqning boshqa hududllariga o‘rnashib, bu hududlarda bir necha ming yil davomida shakllangan yuksak sharq madaniyati, ilm-fani va ma’naviy yutuqlarini o‘zlashtirib oldilar. Yunonlar sharqning buyuk madaniyatini o‘zlashtirib, aniq va tabiiy fanlarni rivojlantira boshladilar. Sharqning qadimgi sivilizatsiyalari Misr va Bobil astronomiya va matematikada erishgan yutuqlarni yunonlar o‘zlashtirib oldilar. Lekin yunon astronomiyasi va matematikasi hech qachon Misr va Bobil astronomiya va matematika fanlari erishgan darajasiga yeta olmadi. Yunon shaharlarining birortasida observatoriya qurilmadi.

Yunon madaniyati taraqqiyotida uch avlod muhim o‘rin tutadi: Birinchi avlod mil. avv. VI asr oxirida kirib keldi va Afina madaniyatining yuksalishi uchun poydevor qo‘ydi. Esxil va Frinix Attika komediyasiga asos soldi. Haykaltaroshlar Kritiy va Nesiot mil. avv. 476-yil Afina agorasini tiranlarga qarshi kurashchilar – Garmoniy va Aristogiton haykallari bilan bezadilar. Olimpdagi Zevs ibodatxonasini haykallar bilan jihozladilar.

Ikkinchi avlod Perikl davrida eng yaxshi yutuqlarga erishdi. Sofokl tragediyalari, Parfenon va Propileyning yetuk klassik shakllari shu davrda yaratildi.

Uchinchi avlod Peloponnes urushlari davriga mansub edi. Afinaliklarning bu vaqtda boshqa madaniy dunyolar bilan tanishuvi natijasida, ularning siyosiy va diniy qarashlari ma'lum darajada o'zgardi.

2. Falsafa. Ilk yunon falsafasi vakillari miletlik Fales (mil. avv. 624 – 547-yillar), Anaksimandr (mil. avv. 610 – 546-yillar), Kichik Osiyolik Anaksimen tabiat, borliqning mohiyatini tushunishga harakat qildilar. Pifagor maktabining vakillari, shuningdek, Geraklit (mil. avv. 544 – 483-yillar), Empedokl (mil. avv. 483 – 423-yillar) kabi «fiziklar» (fyuzis – tabiat demakdir) tabiatni o'rgandilar. Ular dunyoning asosini qidirdilar. Tabiatning mohiyatini turlicha izohladilar. Fales dunyoning asosi suv, Aniksimandr apeyron (boshlang'ich ibtido), Geraklit esa olov deb qaradi. Demokrit (taxminan, mil. avv. 470-yilda tug'ilgan) borliq cheksiz bo'linma – atomdan iborat degan fikrni aytdi. U dunyoning sababiy bog'lanishi haqida fikr yuritdi. Platon (mil. avv. 427 – 347-yillar) borliq abadiy, o'zgarmas, bo'linmas, uni aql bilan bilish mumkin deb hisobladi. Platon akademiyasida 20 yil ta'lim olgan Aristotel (mil. avv. 384 – 322-yillar) «g'oyalar dunyosi to'g'risida»gi ustozining fikrini tanqid qildi. Aristotel fikricha, borliq jins va tur shaklida mavjud bo'ladi.

Suqrot (tax. mil. avv. 470 – 399-yillar) haykaltarosh Sofroniks va doya ayol Fenaretning oilasida dunyoga keldi. Suqrot falsafasida inson muammosi oldingi o'ringa chiqdi. U insonning o'zini, o'zligini anglashiga jiddiy e'tibor berdi. Suqrot insonni o'rganish falsafaning obyektini tashkil etadi deb hisobladi.

Yunon shaharlarida qonunlarni bilish, axloqiy qadriyatlar, mantiq fani va notiqlik san'atiga pullik o'qitadigan odamlar bo'lib, ular sofistlar deb atalgan.

Suqrot sofistlarni pul evaziga bilim berishlarini, o‘zlari donolikni bilmay donolikdan saboq berganlari va barcha narsani bilishga qilgan da’volari uchun tanqid qildi. Bizning qarashlarimiz nisbiyligini, haqiqatni izlash mumkin emasligini ta’kidlagan sofistlardan farq qilgan holda, Suqrot mutlaq haqiqat mavjud ekanligini, uning tushunchalarini sinchiklab o‘rganish, ulardan barcha tasodifiylarini chiqarib tashlash kerakligini aytdi. Suqrot haqiqatni topganiga da’vo qilmadi, Suqrotning «men hech narsani bilmasligimni bilaman» degan iborasi, o‘z bilimlarining yetarli emasligini anglagan va o‘z bilimlarini takomillashtirgan kishi haqiqiy dono ma’nosini bildiradi.

Suqrot demokratik tartib-qoidalarga salbiy qaradi va davlatni faqat bilimli kishilar boshqarishi lozim deb aytdi. U o‘ta e’tiqodli edi. Suqrotning rafiqasi Ksantippa janjalkash bo‘lib, faylasufga kun bermas edi. Suqrot bu to‘g‘risida shunday yozadi: «Janjalkash rafiqam men uchun go‘yo asov ot kabidir. Asov otni bo‘ysundira olgan chavandoz har qanday tulporni bemalol mina olganidek, men ham Ksantippa bilan murosa qilish vositasida o‘zga kishilar bilan osongina muomala qila olaman». Suqrot 70 yoshgacha umr ko‘rdi, dushmanlari uni demokratik siyosiy tuzumning dushmani deb hisobladilar. Uning dushmanlari Likon, Melit va Anit Suqrotni fuqarolik me’yorlarini va yoshlarni buzishda aybladilar. Afina sudi ana shu ayblov asosida Suqrotni sud qildi va o‘limga hukm qildi. Afinada o‘limga hukm etilgan odam hukmda qanday vositani qo‘llashni tanlash huquqiga ega bo‘lgan. Suqrot sikuta o‘simligidan tayyorlangan zaharni tanlaydi.

3. Diniy e’tiqod. Qadimgi Yunon afsonalariga ko‘ra, dastlab, Yer (Geya) va Xaos, hayotning boshlanishi (Eros) va yer osti dunyosi (Tartar) bo‘lgan. Geya yulduzli osmon Uranni tug‘adi. Uran dunyoning bi-

rinchi hukmdori va Yer ma’budasi Geyaning turmush o‘rtog‘i bo‘ladi. Uran va Geyadan so‘ng xudolarning ikkinchi avlodi – titanlar boshlanadi. Uran o‘z o‘g‘li, dehqonchilik xudosi Titan Kronos tomonidan taxtdan ag‘dariladi. Kronosning bolalari Aid, Zevs, Poseydon, Gestiya, Demetra, Gera bo‘lgan. Olimpning bosh xudosi Zevs osmon va chaqmoq hukmdori, Poseydon yer va dengizni sug‘oradigan namlik xudosi, Aid (Pluton) yer osti dunyosi hukmdori bo‘ladi. Zevsning rafiqasi Gera nikoh homiysi, Gestiya uy o‘chog‘i ma’budasi, Demetra dehqonchilik homiysi deb sig‘inganlar. Zevs va Geradan: o‘smirlik ma’budasi Geba; urush xudosi Ares; temirchi va hunarmandlar homiysi Gefest tug‘iladi.

Yunon mifologiyasida yerni yuvib turadigan daryoning nomi va uning ma’budi Okean deb nomlangan. Okeanning qizi dono Metida Zevsning rafiqasi. U yerning eng chekkasi hayot va o‘limning chegarasi bo‘ladi. Okean Prometeyni Zevs bilan murosaga keltirishga urinadi. Zevsning avlodlaridan tabiatning ilk uyg‘onish xudosi Apollon alohida o‘rinda turadi. U san’at homiysi hamda davolovchi xudo. Apollonning singlisi Artemida ovchilik ma’budasi va yoshlarning homiysi. Germes moddiy mo‘l-ko‘lchilik xudosi, keyin savdo, aldamchi va o‘g‘rilar xudosi, keyinchalik esa, notiqlar va sportchilar homiysi. Dionis (Vakx)ga tabiat kuchlari, uzumchilik va vinochilik xudosi deb sig‘inganlar. Jangovar Afina donolik ma’budasi sifatida shuhrat qozondi.

Yunon diniy dunyoqarashi bo‘yicha xudolar odamlarga o‘xshab azob chekishlari, insoniy his-tuyg‘uga ega bo‘lishlari mumkin edi. Yunonlarning fikri bo‘yicha odamlar va xudolar dunyolari o‘rtasida o‘tib bo‘lmaydigan chegara yo‘q edi. Ularni bog‘laydigan bo‘g‘in sifatida xudolar va yerdagi ayollarning aloqasi natijasida tug‘ilgan qahramonlar (yarim xudolar)

bo‘lgan. Misol uchun, o‘z qahramonliklari uchun xudolar safiga kiritilgan Gerakl shunday edi.

Alohida polislarning homiylari hisoblangan xudolar va qahramonlarga bag‘ishlab ibodatxonalar qurilgan va ko‘p sonli qurbonliklar keltirilgan. Eng qadimgi yunon ibodatxonalari yog‘ochdan qurilgan, keyinchalik hashamatli ibodatxonalar tosh va marmardan qurilgan. Ibodatxonalar xudolar haykallari, mifologik tasvirlar bilan bezatilgan. Afina Akropolida qurilgan Erexteyon afsonaviy ma’bud Erextey, Afina shahri homiysi ma’buda Afinaga, dengiz ma’budi Poseydonga bag‘ishlangan. Ba’zi ibodatxonalar oldida ibodat qilayotgan kohinlar xudolardan kelajak to‘g‘risida bashoratlarni so‘rashlari mumkin edi. Xudo mehrobiga 100 qoramol qurbonlik (gekatomba) keltirilgan. Qurbonlikka hayvonning ichki a’zolari berilib, go‘shti esa polisning barcha fuqarolari uchun bazmda ishlatilgan. Bayram tadbirlarida sport, musiqa, poetik musobaqalar alohida o‘rin tutgan. «Xudolar» ishtiroki bilan tantanali teatr tomoshalari uyushtirilgan. Homiy xudo sharafiga uyushtiriladigan bayram polis-shahar kuch-qudratining namoyishi sifatida polisning barcha fuqarolari birligining eng yuqori cho‘qqisi deb qaralgan.

4.Sport. Yunon me’morchiligi inshootlari uncha katta bo‘lmagan hajmda qurilgan, bu inshootlar mil. avv. III asrdayoq vayrona holatida kelib qolgan. Yunonlar yoshlarning jismoniy barkamol bo‘lishiga katta e’tibor berib, sport inshootlari palestr va gimnaziylar qurganlar. Shu maqsadda, mil. avv.V – IV asrlarda Afinada gimnaziy va palestr (yunon tilida – palaistra – kurashaman so‘zidan)lar keng tarqalgan. Gimnaziylar dastlab sport maydonchalari bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik suzish havzasi, hammomlar bo‘lgan hamda falsafa va adabiyotdan suhbat qilinadigan gavjum joyga aylandi. Palestr xususiy sport maktabi bo‘lib,

bu yerda 12 yoshdan 16 yoshgacha bolalar turli sport mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanganlar. Palestra o‘quv dasturiga yugurish, kurash, sakrash, nayza va disk uloqtirish, suzish va gimnastik mashg‘ulotlar kirgan. Inshootda ochiq maydonchalar, yugurish yo‘laklari, suzish havzasi, gimnastika zallari mavjud bo‘lgan. Palestrlar xususiy – pullik sport o‘quv yurti bo‘lgan. Boy afinaliklarning farzandlari 16 yoshdan keyin gimnaziylarda gimnastika bilan shug‘ullanib, siyosat, adabiyot va falsafadan bilim olganlar. Bizgacha Afinaning ikki katta gimnaziysi saqlanib qolgan. Ulardan biri, qahramon Akadem bog‘ida joylashgan, ikkinchisi, likeylik Appolon dala hovlisida joylashgan. Samos orolida palestr yoshi kattalar uchun xizmat qilgan.

Olimpiya o‘yinlari. Yunon bayramlari ichida eng mashhuri, Peloponnesning shimolidagi Elida viloyatining Olimpiya shaharchasida har 4 yilda Zevs sharafiga o‘tkaziladigan Olimpiya o‘yinlari edi. Birinchi Olimpiya o‘yinlari mil. avv. 776-yilda bo‘lib o‘tgan. Bayramning boshlanishi to‘g‘risida barcha yunonlarga maxsus elchilar – spondoforlar xabar berganlar. Musobaqalar o‘tkazilish vaqtida urushayotgan shahar-davlatlar urushni to‘xtatib, ular o‘rtasida muqaddas sulh – ekexeriya tuzilgan. Olimpiya shaharchasining katta qismi 1829-yilda qazib ochilgan. Bu joyda sportchilar va tomoshabinlar uchun inshootlar, Gera va Zevsga bag‘ishlangan ikki ibodatxona bo‘lgan.

Sportchilar musobaqalardan bir oy oldin tanlov sinovlariga kelganlar. O‘yinlarda faqat ma’lum yoshga yetgan yunon fuqarolari ishtirok etganlar. Mil. avv. 662-yildan bolalar uchun musobaqalar kiritilgan. Varvar va qullar faqat tomoshabin bo‘lishlariga ruxsat berilib, ayollarga musobaqalarga qatnashish va o‘yinlarini kuzatish qat’iy taqiqlangan. Olimpiya

o‘yinlarida o‘tkaziladigan musobaqalarda barcha toifadagi fuqarolar ishtirok etishi mumkin edi. Shahar-davlat hokimlari ham bu musobaqada qatnashib g‘olib bo‘lganlar. Olimpiya o‘yinlarida poyga aravasida siyosiy arboblardan afinalik Alkiviad, Akragant shahri hokimi Feron, sitsiliyalik tiran Gieron II va Dionisiy, makedon podshohi Filipp II bir necha bor g‘olib bo‘lganlar. Makedon podshohi Aleksandr yugurish musobaqasida g‘olib bo‘lgan.

Olimpiya musobaqalari o‘tkaziladigan Elida viloyati fuqarolari ichidan 10 nafar sudya belgilangan. Tayoq bilan qurollangan nazoratchilar (rabdoxlar) o‘yinlarda tartib-intizomni saqlab turganlar. Atletlar qip-yalang‘och bo‘lib kurash tushganlar. Bayramning birinchi kunida ishtirokchilar Zevs mehrobi oldida musobaqa qoidalariga rioya qilishlari to‘g‘risida qasam ichganlar. Ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi kunlar musobaqalar o‘tkazilib, beshinchi kun o‘yinlarning yopilishi, g‘oliblarni taqdirlash marosimi o‘tkazilgan.

Olimpiya o‘yinlariga yugurish, kurash, qo‘l jangi, qoidasiz kurash (pankratiya), beshkurash – pentatlon (uzunlikka sakrash, qisqa masofaga yugurish, nayza va disk uloqtirish), ot chopish va poyga aravalarida yugurish kirgan. Musobaqalar guruhlar bo‘yicha qur’a tashlash yo‘li bilan o‘tkazilgan. G‘oliblar olimpionik faxriy unvonini olib, mil. avv. 752-yildan zaytun novdalaridan gulchambarlarni mukofot sifatida olganlar. G‘oliblar moddiy rag‘batlantirilganlar. G‘oliblar Olimpiyalik Zevs xiyobonida o‘z haykallarini qo‘yish huquqiga ega bo‘lganlar. Buyuk yunon shoirlari Olimpiada g‘oliblari sharafiga madhiyalar to‘qiganlar.

So‘nggi Olimpiya o‘yinlari milodiy 393-yilda o‘tkazilgan. Yunonistonda Olimpiya o‘yinlaridan tashqari, Umumellin o‘yinlaridan Pifiya (4 yilda bir marta Apollonga bag‘ishlangan), Nemeya (Nemeylik Zevsga

bag‘ishlangan) va Istma (Poseydonga bag‘ishlangan) o‘yinlari ham o‘tkazilgan. Yunonlar guruhiy emas, balki shaxsiy sport bellashuvini afzal ko‘rganlar. Ayollarga Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etish, tomoshabin bo‘lish taqiqlangan. Ayollarning ma’buda Gera sharafiga o‘tkaziladigan o‘z o‘yinlari bo‘lib, bu o‘yinlar ham Olimpiya shaharchasida o‘tkazilgan. Yunonlar guruh bo‘lib emas, balki shaxsiy sport bellashuvini afzal ko‘rganlar. Olimpiya o‘yinlarida barcha yunon shahar-davlatlari vakillari ishtirok etgan. Bu shahar davlatlar orasida spartaliklar ajoyib yutuqlarga erishganlar. Mil. avv. 720-yildan 576-yilgacha olimpiya o‘yinlarida 81 g‘olibdan 46 tasi spartalik bo‘lgan.

Sport musobaqalari fuqarolarning jismoniy rivojlanishiga imkoniyat yaratgan va yoshlarni harbiy jihatdan chiniqtirish uchun xizmat qilgan. Fuqaro jismoniy va ma’naviy mukammal rivojlanishi va jang san’atini egallagan bo‘lishlari talab qilingan. O‘z shahrini dushmandan himoya qilish barcha fuqarolarning muqaddas burchi va majburiyati bo‘lgan. Siyosiy arboblar ham urush vaqtida qo‘lga qurol olib oddiy goplit qatorida turib jang qilganlar. Yunonlar bayramlar, o‘yinlarni hamkorlikda tashkil qilish va eng muqaddas ziyoratgohlarni himoya qilish uchun alohida ittifoqlar – amfiktioniyalar tashkil qildilar.

5. Tarix matnlari. Dastlab, yunon shahar-davlatlarida alohida shahar va viloyatlar tarixi mahalliy yilnomalar, shajaralar va rivoyatlar asosida yaratilgan. Bunday matnlarni yaratgan mualliflar logograflar (logos – hikoya) deb atalgan. Bunday mualliflardan miletlik Gekatey va mitilenlik Gellanikni ko‘rsatish mumkin**.** Mil. avv. V asrda ilk bor o‘tmish voqea-hodisalar matnini tuzish va xalq oldida bayon qilish boshlanadi. Mil. avv. V asrda yunonlarda jamiyat taraqqiyotiga bag‘ishlangan ana shunday matnlar paydo bo‘ldi. Uzoq vaqt turli o‘lkalarda bo‘lgan Gerodot

(mil. avv. 485 – 425-yillar atrofida yashagan, Kichik Osiyodagi Galikarnas shahrida tug‘ilgan) ilk bor ko‘rgan va eshitgan voqealarini ma’lum bir tizimga solib, hikoya tarzida bayon qildi. U o‘zi tuzgan matnni Afinada ilk bor xalq oldida o‘qib berdi. Keyinchalik, mil. avv. III asrda Aleksandriya olimlari Gerodot hikoyalarini 9 jilddan iborat kitob holatiga keltiradilar. 9-jildga keltirilgan Gerodot matnlari «Tarix» (yunoncha «Istoriya» – «tasvir» ma’nosini bildiradi) yoki «Muzalar» deb atalib, asosan, yunon-fors urushlariga bag‘ishlangan. Lekin muallif bayon qilish davomida Misr, Eron va skiflar tarixiga ham murojaat qiladi. Gerodot O‘rta Osiyoda qadimda yashagan qabilalar to‘g‘risida ham qiziq ma’lumotlar beradi. Gerodot matnlarida voqea-hodisalarning borishida xudolar ham ishtirok etadi. Yevropa markaz g‘oyasiga qarshi turgan nemis olimi O. Shpengler qadimgi yunon tarixi va tarixiy asarlari to‘g‘risida shunday ta’kidlaydi: «Antik tarix fors urushlarigacha, mazmunan esa yana keyingi davrlargacha mifologik tafakkurning mahsulidir. Sparta davlat qurilishi tarixi ellin davrining, Likurgning uydirmasidir. Likurgning tarjimayi holi batafsil tasvirlanadi, ko‘rinishidan u Taygetning uncha ahamiyatli bo‘lmagan ilohi edi» (О.Шпенглер Закат Европы. Пер. нем.под.ред.А.А. Франковского ОСР Бычков, стр. 14).

Olorning o‘g‘li Fukidid (mil. avv. 460/51 – 396-yillar) boy afinalik oiladan bo‘lib, frakiyadagi oltin konlarini merosga oldi. Siyosiy hayotga faol qatnashdi. Peloponnes urushi davrida strateg bo‘ldi, lekin harbiy ishda xatoga yo‘l qo‘ygani uchun Afinadan quvg‘in qilindi. Fukidid Peloponnes urushiga bag‘ishlangan 8 kitobdan iborat tarixiy asarning muallifi. Uning asari afsonaviy va haqiqiy voqealarni quruq bayon qilishdek, Gerodotga xos bo‘lgan bayon qilishni aksi bo‘lgan bir qadar haqiqiy tarixiy tadqiqot edi. Fukidid

afsonalardan foydalangan bo‘lsa-da yunon voqeligini ham bor tarixiy haqiqatida bayon qildi: «Axir qadimgi davrdan boshlab, dengiz savdosi yanada gavjum bo‘lganda, ellinlar ham varvarlar ham qirg‘oqda va orollarda dengiz qaroqchiligi bilan shug‘ullandilar. Bunday ishlarga o‘z manfaatlari va kambag‘allarga ozuqa izlagan, mablag‘ga ega bo‘lgan kishilar boshchilik qildilar. Ular devorlar bilan himoyalanmagan qishloqlarni taladilar, bu bilan tirikchilik uchun ko‘p miqdorda vositalar topdilar, shu bilan birga, bunday mashg‘ulot o‘sha vaqtda uyatli bo‘lmay, aksincha, sharafli ish hisoblanar edi. Ular bir-birlarini quruqlikda ham taladilar va hozir ham Elladaning ko‘pgina viloyatlarida yashaydigan odamlarda bu o‘ziga xos turmush tarzi mavjud» (Историки античности, том первый. Древная Греция. Фукидид. История. стр. 207. – М.: Изд-во Правда, 1989) O. Shpengler Fukididning tarix yozuvchisi sifatini shunday tushuntiradi: «…Yunonlar Fukidid asosida o‘z tarixlari to‘g‘risida bu tarix deyarli ichki tugallangan lahzada jiddiy o‘ylay boshladilar. Hatto Fukidid, o‘z asarining kirish qismida metodik asoslar, g‘arbiy Yevropacha jaranglasa-da, u tarixni, voqealarni batafsil tasvirlashda o‘ziga kerak bo‘lgan darajada to‘qib chiqarish mumkin deb tasavvur qildi. Bu uning badiiy uslubi edi, biz aynan shuni afsona – ertak yaratishdir deb hisoblaymiz» (О.Шпенглер. Закат Европы). Пер. нем.под. ред.А.А. Франковского ОСР Бычков. стр. 14.

Fukidid tarixchilar ichida birinchi bo‘lib tarixiy voqealarni, ularning harakatga keltiruvchi kuchlari, taraqqiyot yo‘llari bilan o‘zaro aloqada ko‘rishga harakat qildi. Voqealarning sabablarini o‘rganish uchun siyosiy voqelikni ilmiy tahlil qilish usullarini qo‘lladi. Fukidid xudolarni tarix doirasidan chiqardi. U tarixni xudolar emas, balki kishilar o‘z faoliyatlari bilan yaratadilar deb hisoblar edi. Kishilarning «tabi-

ati» hamma vaqt qonun va shartnomalardan kuchliroq bo‘ladi. Kishilarning qiyofasi va uning ko‘rinishlari Fukidid uchun shu davr jamiyatining voqeligini tushunish uchun yetarli edi. Gerodot va Fukidid yunon polislari fuqarolarining o‘z ozodligini himoya qilishi, vatanparvarlik va o‘zini qurbon qilishdek qahramonlik kurashiga murojaat qildilar.

Fukidid an’analarini Ksenofont (mil. avv. 430 – 355-yillar) davom ettirdi. Uning «Anabasis», «Lakedemon politiyasi», «Kiropediya», «Agesilay» va «Daromadlar to‘g‘risida» asarlarida o‘sha davr yunon dunyosining siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy hayoti aks etadi. Efor (mil. avv. 405 – 330-yillar) 30 kitobdan iborat «Tarix» asarida yunon dunyosi, shuningdek, yunon koloniyalari tarixini yoritdi.

Mil. avv. V asrda yunon dunyosida yuz bergan kuchli siyosiy jarayonlarni tahlil qilgan, shu davrning siyosiy arboblari Femistokl va Perikl kabi afinalik demokratiya yo‘lboshchilarini ayovsiz tanqid ostiga olgan siyosiy adabiyotlar yuzaga keldi. Shunday adabiyotlardan biri bo‘lgan «Afinaning boshqaruvi to‘g‘risida» deb nomlangan risola mil. avv. 430-yillar atrofida paydo bo‘ldi. Kritiyning «Lakedemeon politiyasi»da Sparta jamiyati qurilishi ko‘klarga ko‘tarildi, Afina demokratiyasiga salbiy nazar bilan qaraldi.

Yunon mifologiyasi. Yunon mifologiyasi ilohlar va qahramonlar, argonavtlar afsonalari hamda «Iliada» va «Odisseya» dostonlaridan iborat. Bizgacha yunon xalq og‘zaki ijodining namunalari: qo‘shiqlar, ertaklar, rivoyatlar va masallar hamda afsona va rivoyatlar yetib kelgan. «Iliada» va «Odisseya» dostonlari qachon, qayerda vujudga kelgani to‘g‘risida aniq ma’lumotlar yo‘q. Lekin ayrim manbalarda, Iliada dostoni mil. avv. XI asrda Frigiyalik shoir Daret qalamiga mansub ekani, bu doston Likurg tomonidan yunonlarga yetkazilgani haqida ma’lumot beriladi. Bu dostonlar

Gomerga tegishli degan faraz ham mavjud. Gomerning o‘zi bo‘lganmi degan savollar qadimdan antik mualliflar tomonidan qo‘yilgan va keyingi davrlarda ham tadqiqotchilar uchun muammo bo‘lib qolgan. Yevropada XVII asrda «Iliada» va «Odisseya» dostonlari va uning muallifi kimligi masalasini ilmiy asosda tekshirishni XVII asrda fransuz Fransua Obin’yak qo‘ygan. D. Obin’yak «Iliada» haqida dissertatsiya» nomli kitobida «Iliada» dostoni yolg‘iz bir kishining asari emas, balki Troya urushi haqida to‘qilgan turli qo‘shiqlar yig‘indisidan iborat asar. Gomerning tarixiy shaxs ekani juda shubhali degan fikrlarni ilgari surdi. Taniqli nemis olimi Fridrix Avgust Vol’f (1759 – 1824) bu dostonlarni tadqiq va tahlil etib, bir necha nusxalarini solishtiradi. Volfning fikricha, qadimgi davrda yozuv bo‘lmagani uchun dostonlarning yozma nusxalari ham bo‘lmagan. Har ikkala doston ham boshida og‘zaki to‘qilgan. Mil. avv. VI asrda Afina tirani Pisistratning topshirig‘i bilan maxsus komissiya bu dostonlarni yozib olgan. (A.Alimuhamedov Antik adabiyot tarixi, 44 – 45-betlar. O‘qituvchi nashriyoti. – T.: 1969). Volfning tadqiqotlari keyingi asrlarda ham davom ettirildi. Tadqiqotlarning nihoyasiga ko‘ra, «Iliada» va «Odisseya» dostonlari mil. avv. XI – VIII asrlarda Kichik Osiyoda yaratilgan, keyin boshqa hududlarga tarqalgan.

6. Adabiyot va teatr. Yunon madaniyatini ikki davrga bo‘lish mumkin: mil. avv. VIII – VI asrlar arxaik davr madaniyati va mil. avv. VI asrning oxiri – V asrlar klassik madaniyat. Mil. avv. VIII – VI asrlarda yunon madaniyati taraqqiyotida qadimgi Sharq madaniyatining ta’siri kuchli bo‘ldi. Yunonlar o‘zlarining Kichik Osiyo g‘arbiy qirg‘og‘ida tashkil etgan tayanch nuqtalar orqali qadimgi Sharqning boy madaniyati bilan tanishdilar. Bu davrning asosiy madaniy o‘choqlari (Yunonistonning o‘zida bo‘lmay) Kichik

Osiyodagi Milet shahri, Lesbos va Samos orollarida edi. Adabiyotda poeziya janri rivojlandi. Shoirlar Alkey, Arxilox, Feognid, shoira Safolar yunon poeziyasida yorqin iz qoldirdilar.

Lirik poeziya. Qadimgi yunonlar «lirika» iborasi ostida lira musiqa asbobi jo‘rligida ijro etiladigan uncha katta bo‘lmagan hajmdagi poetik asarni tushunganlar. Lirika xalq qo‘shiqlari asosida paydo bo‘lgan. She’rning hajmiga ko‘ra, lirik asarlar elegiya, yamb va meli (melos – melodiya – qo‘shiq). Elegiyaning mavzusi inson ijtimoiy hayotining barcha qirralarini qamrab olgan. Kallin va Tirteyning mil. avv. VII asrdagi elegiyalari vatanparvarlik tuyg‘ulari, Solon va Feognidning elegiyalari ijtimoiy va siyosiy mazmun bilan sug‘orilgan. Spartada Titrtey harbiy marsh – embateriylar bilan nom qozongan. Elegiya bilan bir qatorda kulgili va satirik mazmundagi – yambi poeziyasi rivojlangan. Meli poeziyasining vatani Lesbos bo‘lib, bu orol mashhur shoira Safo va shoir Alkeyning vatani bo‘lgan (mil. avv. VII – VI asarlar). Safoning she’rlarini asosiy mavzusi sevgi-muhabbat bo‘lsa, Alkeyning she’rlarining mavzusi siyosiy kurash bo‘lgan. Xor bilan aytiladigan meli qoshiqlari keng tarqalgan. Yunon adabiyotida kichik shakldagi asarlar – epigramma («ustiga yozilgan») biror bir narsaga bag‘ishlangan.

Yunon tragediyasi. Yunon tragediyasining barcha syujetlari mifologiyalardan olingan. Arxaik davrda lirika keng tarqalgan bo‘lsa, mil. avv. V asrda Afina adabiyoti va poetik ijodiyotning markazi bo‘lgan birlashma Attika tragediyasi bilan mashhur bo‘lib ketdi. Tragediya («Echkilar qo‘shig‘i») vinochilik xudosi Dionisning echki terisi kiygan quvnoq, doimiy hamrohlarini ifodalovchi satirlar aytadigan xor qo‘shiqlaridan kelib chiqdi. Mil. avv. VII asrdayoq butun Yunonistonda shunday «Echkilar xori» yoki satirlar

keng tarqalgan edi. Attika tragediyasining tug‘ilishida Afina tirani Pisistratning umumdavlat bayrami sifatida Buyuk Dionisiy bayramlarini ta’sis etishi muhim o‘rin tutdi. Shoir Fespid mil. avv. 530-yil atrofida Dionis bayramida xor qo‘shiqlariga ilk bor musiqa asboblari jo‘rligida hikoya qo‘shadi. Shu paytdan boshlab drama (yunon tilida – «harakat») tug‘iladi. Aktyor xorga hikoya bilan «javob» berib, xor bilan dialog olib borar edi. Shu tariqa, tragediya dramatik ko‘rinishga aylandi. Tragediyada boshqa ko‘rinish qatnashchilari Dionis to‘g‘risidagi afsona – miflardan sahna ko‘rinishlari o‘ynar edilar. Keyinchalik boshqa afsonalarga navbat keldi. Mil. avv. V asr birinchi yarmida Esxil tomoshabin oldiga ikkinchi aktyorni, Sofokl uchinchi aktyorni qo‘shdi va natijada, qadimgi «Echkilar xori» to‘la dramaga aylandi.

Attika teatrida Dionis sharafiga o‘tkazilgan bayram vaqtida faqat uch kun tomosha ko‘rsatilgan. Birdaniga uch tragediya qo‘yilib, keyin satirik drama yana bir mifologiyadan yengil quvnoq sahnalashtirilgan parcha berilgan. Teatr ochiq havoda, dumaloq maydoncha – orxestrada namoyish qilingan. Tomoshabinlar uchun Akropolning toshloq qiyaligida toshdan o‘rindiqlar (teatron) yo‘nilgan. Tomoshabin o‘tiradigan tosh o‘rindiq teatron deb atalib, teatr so‘zi shundan kelib chiqqan. Ochiq va katta teatrda aktyorlarning imo-ishoralari va kiyimlarini aniq ko‘rib bo‘lmas edi. Shu boisdan, aktyorlar sahnaga uzun, tantanali kiyim va niqoblarda hamda aktyor gavdasini baland qilish uchun baland poshnali oyoq kiyim – koturnada chiqqanlar. Teatr tomoshalari mart oyining oxiri, aprel oyining boshlarida ko‘rsatilgan.

Yunon tragediyasining mil. avv. V asrdagi yuksak parvozi uch buyuk tragik shoirlari – Esxil, Sofokl, Yevripid va Komediograf, Aristofanlar asarlari bilan belgilanadi.

Esxil. Yunon tragediyasining asoschisi Esxil (mil. avv. 525 – 456-yillar) hisoblanadi. Afina yaqinidagi Elevsin shaharchasida tug‘ilgan Esxil 30 yoshida o‘z tragediyalari bilan shuhrat qozonib, 20 yil davomida yunon tragediyasining birinchi darg‘asi bo‘lib keldi. Lekin mil. avv. 468-yil yosh Sofokldan mag‘lub bo‘lib, faqat o‘n yildan keyin «Oresteya» trilogiyasi bilan g‘alaba qildi. Shundan so‘ng, Esxil Sitsiliyaga ko‘chib o‘tib, u yerda vafot etdi. Uning 70 ta tragediyasidan 7 tasi yetib kelgan. Shoirning «forslar» (mil. avv. 472-yil) tragediyasi Salamin jangiga bag‘ishlangan. «Zanzirband Prometey» tragediyasida erkinlik g‘oyasi ilgari suriladi.

Sofokl. Esxildan so‘ng Attika teatrida Sofokl (mil. avv. 496 – 405-yillar) yetakchi o‘rinni egalladi. Sofokl ko‘pgina rassom, faylasuflar hamda Perikl bilan do‘st edi. Sofokl Afina dengiz ittifoqining xazinachisi, strateg lavozimini egalladi. U teatrga uchinchi aktyorni olib kirdi, xor ishtirokchilarini ko‘paytirdi. Sofokl sermahsul ijod qilib, 123 ta komediya yozdi, undan 7 tasi bizgacha yetib kelgan. Shoirning «Shoh Edip», «Antigona», «Fivaga qarshi yetti», «Agamemnon», «Xoeforalar», Yevmenid», «Gerakl», «Avlidadagi Ifigeniya», «Gekuba», «Andromaxa», «Ion», «Yelena», «Edip Kolonda» asarlarida axloqiy va etik muammolar ko‘tariladi. Yunon tragiklari yaratgan tragediyalarning syujetlari va motivlari mifologiyadan olingan bo‘lib, faqat bir necha tragediyalar syujetlari yozuvchilar qalamiga mansub edi.

Yevripid. Yevripid (mil. avv. 480 – 406-yillar) polis mafkurasining tushkunligi davrida ijod qildi. Uning asarlari falsafiy ruhda bo‘lib, u yozuvchilar musobaqasida faqat to‘rt marta g‘olib bo‘ldi, xolos. Yevripidning 90 asaridan 18 tasi saqlanib qoldi. Shoirning «Vakxankalar», «Gerakl», «Medeya», «Ippolit», «Iffegeniya» tragediyalarida insonning chuqur ruhiy dunyosi, his-tuyg‘usini ko‘rsatdi. Bu asarlar jahon teatri sahnasidan tushmay kelmoqda.

Komediya. Attika teatrida tragediyadan tashqari komediya janri shakllandi. Komediyaning nomi «komos» – «olomon», «oda» – «qo‘shiq» so‘zidan kelib chiqqan. Komediya tragediyadan keyinroq paydo bo‘lgan. Aristofan (mil. avv. 445 – 386-yillar)ning komediya janridagi asarlari keng tarqalgan. Qadimda yunonlar uzum hosilini yig‘ib olganlaridan so‘ng, o‘ziga xos karnaval – bayram uyushtirganlar. Bayramda raqs tushib, turli qo‘shiqlarni ijro etib, hazilomuz hajv – kulgili tomoshalar ko‘rsatganlar. Bizgacha yetib kelgan komediyalarning ko‘pchiligi Afinada yashab ijod qilgan Aristofan qalamiga mansubdir. Aristofan 44 komediya yozgan, ulardan 11 tasi bizgacha yetib kelgan. Aristofanning «Tinchlik», «Axaryaliklar», «Lisistrat», «Suvoriylar», «Qurbaqalar» va «Bulutlar» komediyalarida mil. avv. V asr yunon dunyosining siyosiy ziddiyatlari aks etgan. Mil. avv. IV asrda Yunonistonda 15-20 ming kishilik teatrlar qurilishi avj oldi. Afinadagi mashhur Dionis teatri marmardan yarim doira shaklida tepalikda qurilgan edi. Barcha fuqarolar teatr tomoshalariga borganlar. Teatrga kirish uchun fuqarolarga pul berilgan. Yunon teatri ommaviy san’at o‘chog‘iga aylandi. Mil. avv. VI – V asrlarda Kichik Osiyoda yashagan yarim afsonaviy Ezop masal janrida ijod qilib, allegorik obrazlarni yaratdi. Rivoyatga ko‘ra, Ezop ozod qilingan qul bo‘lib, Lidiya hokimi Krez saroyida yashagan. Qadimgi davrda Ezopning bir necha masal to‘plamlari keng tarqalgan.

7. Ta’lim. Yunon shahar-davlatlarida ta’lim-tarbiya tizimi shakllangan. Boy oilalarda bola 7 yoshdan pedagog qo‘liga topshirilgan, ko‘pincha xonadonning sodiq quli bolaga axloqiy qoidalarni o‘rgatgan va unga hamrohlik qilgan. Bolaga grammatikaning asoslari, musiqa va gimnastika o‘rgatilgan. Spartada harbiy maqsadlarni ko‘zlab yoshlarni ta’lim-tarbiyasida jismoniy rivojlantirish asosiy maqsad bo‘lsa, Afi-

nada ta'lim-tarbiya fuqaroning jismi va ruhini uyg'un rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Mil. avv.V asrda yunon ta'lim tizimi Qadimgi Sharqdagidek mukammallashdi. Boshlangich ta'lim bilan birga kasbiy ta'lim unsurlari bo'lgan ilk bor falsafa yo'nalishida Ksenofanning eley maktabi, Parmenid va Pifagor maktablari, Kirenada Krotonning tibbiyot maktabi yuzaga keladi. Birinchi o'qituvchilar – sofistlar va Suqrot paydo bo'ldi. Ular o'z atroflariga bir guruh o'quvchilarni to'plab, 3-4 yil ichida arifmetika, geometriya, taktika va strategiya, mifologiya va shajarashunoslik, tarix va adabiyotdan saboq berdilar. Sofistlar va Suqrotning Qadimgi Sharqdagidek alohida qurilgan maktablarda dars mashg'ulotlarini olib borganlari tog'risida ma'lumotlar yo'q. Suqrotning o'zi hech narsa yozmagan. Uning qarashlari shogirdlari asarlarida yetib kelgan deb aytiladi. Ehtimol, u savodsiz bo'lgan. Notiqlik san'ati rivojlandi: nutq so'zlash san'ati, ritorika, munozara san'ati – evristika, xotirani charxlash – mnemotexnikaga alohida e'tibor berilgan. Sofistlar orasida olimlar ham bo'lgan. Gorgiy notiqlik san'ati to'g'risida, elidalik Gippiy astronomiya va matematikadan o'quv qo'llanmalari yozganlar. Mil. avv.IV asrda oliy maktabning ilk ko'rinishlaridan bo'lgan Isokratning notiqlik maktabi, Platonning mil. avv. 388-yilda ochilgan falsafa akademiyasi yuzaga keldi.

Notiqlik san'ati. Yunon shahar-davlatlarida demokratik tartib-qoidalarning o'rnatilishi, fuqarolarning xalq yig'ini, sud ishlarida faol ishtiroki notiqlik san'atining rivojlanishiga sabab bo'ldi. Sudda so'zlanadigan nutqlar keng qiziqish uyg'otdi. Qadimgi mifologiya qahramonlari hikoyasiga yoki maqtoviga bag'ishlab tuzilgan namunaviy nutqlar keng tarqalgan. Notiqlik san'atiga arzimas haq evaziga o'qitilgan. Afina notiqlik san'ati markazi bo'ldi (mil. avv. V asr).

Afina notiqlari uch yo‘nalishda: siyosiy sud, tantanali nutqlar tuzganlar. Sud nutqi bo‘yicha Lisiy (mil. avv. 459 – 380-yillar) shuhrat qozondi. U Afina fuqarolariga pul evaziga sudda ko‘riladigan ish uchun ayblovchi, oqlovchi nutqlar tuzib berdi. Ikkinchi bir notiq Isokrat (mil. avv. 436 – 338-yillar) bo‘lib, mil. avv. 391-yilda notiqlik san’ati maktabini ochdi. Isokratning bu maktabida notiqlar Demosfen, Giperin, Esxin, Likurg hamda tarix sohasida ijod qilgan Feopomp, Efor va Filistlar yetishib chiqdi.

Isokrat kuchli ovozga ega bo‘lmaganligi sababli, omma oldida kam nutq so‘zlab, u siyosiy targ‘ibot olib bordi. Isokrat Afinada Periklgacha bo‘lgan aristokratik tuzumni maqtab, o‘zining publitsistik to‘plamlarini tarqatdi. Notiq o‘tmishni ko‘klarga ko‘tarib, yunonlarni makedoniyalik Filipp atrofida jipslashib, Sharqda eski dushman – Eron ustiga yurishga chaqirdi. U sharqda yunonlar hosildor yerlarga ega bo‘ladilar, afsonaviy boyliklarni o‘lja olib, boyib ketadilar, yunon shaharlarining qashshoqlik, kambag‘alligi sharq mamlakatlari yerlarini bosib olish hisobiga tugatiladi deb hisobladi.

Suqrotning o‘quvchilaridan biri afinalik siyosiy arbob Demosfen (mil. avv. 384 – 322-yillar) qurolsoz ustaning o‘g‘li bo‘lib, juda erta yetim qoldi, yoshligidan Iseyning notiqlik maktabida ta’lim oldi. U otasining mulkini bosib olgan o‘z vasiylariga qarshi sud jarayonida ilk bor so‘zga chiqdi. Afina xalq yig‘inida Demosfen birinchi bor so‘zga chiqqanda xalq uni hushtak chalib mazax qildi. Shunda uning do‘sti aktyor Satir Demosfenga mimika va diksiyadan saboq berdi. Demosfenning nafasi qisqa va ovozi zaif bo‘lib, notiq uchun bu eng katta kamchilik edi. U notiqlik san’atini egallashga qat’iy ahd qildi va kamchiliklarini tugatishga kirishdi. Dengiz sohilida to‘lqinlarning shovqinini bosib ketadigan darajada nutq so‘zlab mashq

qildi. Baland tepalikka chiqib qattiq ovozda uzun nutq so‘zlashga harakat qildi. Og‘zini mayda toshchalar bilan to‘ldirib toza va aniq so‘zlashga o‘rgandi. Demosfen odamlar bilan har qanday muloqotni to‘xtatib, yashash uchun yerto‘laga ko‘chib o‘tdi. Yerto‘lada katta oyna oldida turib gavda harakatlarini va yuz mimikasini bir necha oy mashq qildi. Uzoq va sabr-toqat bilan qilingan mehnat o‘z natijasini berdi. U Afinadagi antimakedon guruhning murosasiz rahbari edi. Demosfen Afina xalq yig‘inida Makedoniyaning kuchayishi Afina demokratiyasi va mustaqilligi uchun halokatli ekanligini qat’iy ishonch va kuchli ovoz bilan so‘zlangan nutqlarida asoslab berdi.

8. Me’morchilik. Yunonlar qadimgi Misr, Mesopotamiya va Osuriyaning ulug‘vor inshootlar me’morchiligidagi yutuqlarini o‘zlashtirib, o‘zlarining me’morchilik va haykaltaroshlik san’atlarini rivojlantirdilar. Yunonistonda qadimgi Sharqdagidek me’morchilik inshootlari ulkan va hashamatli qurilmadi. Chunki yunon shahar-davlatlari pul mablag‘lari va moliyaviy jihatdan juda kambag‘al edi. Davlat hokimiyati xazinasi ham mavjud bo‘lsa-da juda kam mablag‘ga ega bo‘lgan. Shu bilan birga, ishchi kuchi ham juda kam edi, Yunonistonning aholisi soni million kishiga ham yetmas edi. Hajmi katta jamoat binolari shu sababli bunyod etilmadi. Lekin ulkan bo‘lmasa-da kichik hajmdagi ajoyib me’morchilik inshootlari bunyod qilindi. Xususan, ibodatxonalar, sport inshootlari, portlar, amfiteatrlar va bozor maydonlari qurildi.

Mil. avv. 449 – 444-yillarda Afinaning xalq yig‘inlari va bozor maydoni Agorada olov va temirchilik xudosi Gefestga bag‘ishlangan ibodatxona qurilib, ibodatxona ichida Gefestning bronza haykali qo‘yilgan. Perikl davrida Afina akropolida yigirma yil ichida ulug‘vor inshootlar barpo qilindi. Akropol (yunocha – akropolis, akro-yuqori yoki balanddagi va polis-sha-

har) Qadimgi Yunon shahrining mustahkamlangan qismi urush vaqtida aholi dushmandan yashiriнadigan qal'a. Akropoldagi Parfenon (parfenos – yunon tilida «qiz») ibodatxonasi ma'buda Afinaga bag'ishlangan. Fidiy rahbarligida me'morlar Iqtin va Kallikrat tomonidan mil. avv. 448 – 438-yillar davomida qurilgan. Yunon jamoatchilik inshootlari, jumladan, ibodatatxonalar sharqdagidek ulkan va hashamatli bunyod etilmagan. Yunon me'morchilik inshootlaridan eng kattasi va mashhuri Afina akropolidagi doriy uslubida qurilgan Parfenon ibodatxonasidir. Ibodatxona uzunligi 70 metr, kengligi 31 metr, ustunlarining balandligi 10 metr. Ibodatxona peshtoqida 350 odam gavdasi, 250 hayvon ifodalangan. Venetsiyaliklar 1687-yilda Akropolni qamal qilganda binoga zarar yetgan. Lord Eljinning tashabbusi bilan haykallarning asosiy qismi 1802 – 1803-yillarda britan muzeyiga olib ketilgan. Propiley (Akropolga kirishdagi marmar darvoza), Parfenon qarshisida mil. avv. 421 – 406-yillarda me'mor Filokl bunyod qilgan, mahalliy ilohlarga bag'ishlangan Erexteyon ibodatxonasi Afinaning mashhur inshootlari bo'ldi.

Yunon ibodatxonalari dastlab yog'ochdan qurilgan. Ular tog'ri to'rtburchak shaklda bo'lib, inshootni to'rt tomondan yog'och ustunlar ushlab turgan. Keyinchalik ibodatxonalar toshdan qurilib, ularning tomini tosh ustunlar ko'tarib turgan. Doriy uslubidagi ustun birdan yerdan ko'tarilgan bo'lib, uning ostiga taglik qo'yilmagan. Uning yuqori qismi kapitel deb atalib, juda oddiy, pastdan qaraganda trapetsiya ko'rinishida bo'lgan. Doriy ustuni hech qanday bezaksiz va yo'gon bo'lgan. Mil. avv. V asrda tarqalgan ioniy uslubidagi ustunlar doriy ustuniga qaraganda ingichkaroq va nafis bo'lib, yerdan maxsus tosh taglikdan ko'tarilgan hamda yuqori qismida ikkita chirmovuq tasvir bilan bezalgan. Ioniy uslubidagi ustun-

lar ko‘tarib turgan inshootlar doriy uslubida qurilgan inshootlarga qaraganda murakkab bezaklar bilan ishlov berilgan. Mil. avv. IV asrda keng tarqalgan korinf uslubidagi ustunlar ioniy ustunlarga qaraganda uzun bo‘lib, yuqori qismi – kapitel murakkabroq va uncha katta bo‘lmagan akanfa o‘simligi barglari bilan bezatilgan. Ioniy, korinf va doriy uslublarida qurilgan bu inshootlar me’morchilik san’atining ajoyib namunalari bo‘ldi. Parfenon me’morlari Iqtin va Kallikrat nafislik va ulug‘vorlikni uyg‘unlashtirishga erishdilar. Akropol darvozalarini qurishda me’mor Mnesikl (mil. avv. 438 – 432-yillar) ioniy va doriy ustunlarini yonma-yon qo‘lladi. Ibodatxonaning janubida qiz bola figurasidan yasalgan ustun (boshda Kariya viloyatidagi Artemida ibodatxonasi kohinalari kariatida deb atalgan) bilan almashtirildi.

Akropolda pinakoteka (pinax yunon tilida – yog‘och taxtaga chizilgan kartina, theke – saqlanadigan joy ma’nosini bildiradi) mavjud bo‘lib, bir necha xonalarda yog‘ochga chizilgan rasmlar, loy taxtachalar va boshqalar saqlangan. Attikaning Pentelikon konlarida marmar qazib olish boshlandi va bu me’morchilik san’atining ravnaqiga yo‘l ochdi. Mil. avv. V asrning ikkinchi yarmida Afinadan tashqari, Yunonistonning boshqa viloyatlarida, Janubiy Italiya va Sitsiliyada (Agrigentdagi Zevs ibodatxonasi, Pestdagi olti ustunlik Poseydon ibodatxonasi) me’morchilik inshootlari barpo qilindi.

Dastlab shaharlar rejasiz qurilgan. Shaharlar faqat mil. avv. V asrdan rejali asosda qurila boshladi. Miletlik Gippodam shahar qurilishining rejali tizimini yaratdi. U Kichik Osiyodagi gavjum Milet shahrini qayta tikladi. Afinada Pirey portini, o‘zi asos solgan janubiy Italiyada Furiya koloniyasini qurdi. Shaharlarda akropol (mustahkamlangan qal’a), markaziy maydon, hunarmandchilik mahallalari va minorali

mudofaa devorlari bunyod qilina boshlagan, Teatr va odeon (musiqali chiqishlar uchun yopiq inshoot)lar, stadion va ippodrom, gimnaziy va palestrlar (sport mashqlari o‘tkaziladigan inshoot), pritaniya va bulevteriylar (ma‘muriy bino) qurila boshlandi.

Yunon badiiy an’analari Sharq an’analari bilan qo‘shilib ketdi. An’anaviy doriy va ioniy uslublari bilan keyinchalik paydo bo‘lgan korinf uslubi ko‘proq qo‘llanila boshlandi. Kichik Osiyoda Kariy viloyati markazi Galikarnas shahrida satrap Mavsol sharafiga maqbara qurilgan (me’morlar Satir va Pifey. mil. avv. IV asr). Mavzoley so‘zi shundan kelib chiqqan. Maqbara qurilishida sharq me’morchilik uslubidan unumli foydalanilgan. Inshootning faqat poydevori saqlanib qolgan.

9. Haykaltaroshlik. Mil. avv. V asrdan yunon haykaltaroshligi rivojlanib, noyob haykallar yaratildi. Buyuk haykaltaroshlar Miron, Fidiy va Poliklet-lar yaratgan haykallar insoniyat sivilizatsiyasining mo‘jizalari hisoblanadi. Haykaltaroshlikning qator maktablari yuzaga keldi. Yunon haykaltaroshligining rivojlanishi to‘rtta bosqichga bo‘linadi. Birinchi davr mil. avv. V asrgacha bo‘lib, Miron bilan tugaydi. Shundan so‘ng, yunon haykaltaroshligi g‘oyaviylik va shakllarni eng oliy mukammalligi davriga kiradi. Ikkinchi bosqich – Fidiy va Polikretning ijodi davri. Uchinchi bosqich mil. avv. IV asrdan Makedoniyalik Aleksandrgacha bo‘lgan davr. IV bosqich Aleksandrning o‘limidan mil. avv. II asrgacha. Bu bosqichda Rodos va Pergam maktablari oldinga chiqadi. Yunonistonda mil. avv. V asrning 70-yillaridan boshlab haykaltaroshlik san’ati gullab-yashnadi. Buyuk haykaltarosh Fidiy Afina va Zevs haykallarini yaratdi. Ma’buda Afinaning 12 metrli haykalini yaratishda fil suyagi va oltindan foydalanildi. Ma’buda «Afina» haykali Akropolning eng baland joyiga qo‘yilib, uning

quyoshda yaraqlagan nayzasi uzoqdan ko‘rinib, kemalar uchun mayoq bo‘lib xizmat qilgan. Fidiyning mashhur asarlaridan biri «Olimpiyalik Zevs»ning ulkan haykali (14 metr) Olimpiyadagi Zevs ibodatxonasiga qo‘yilgan edi. U taxtga o‘tirgan holda tasvirlanib, fil suyagidan yasalgan. U ma’buda Afina qalqonida do‘sti Afinaning siyosiy arbobi Periklni va o‘zini tasvirladi. Afinada haykaltaroshning dushmanlari Fidiyni ma’budani haqorat qilishganda aybladilar. Natijada Fidiy qamoqqa hukm qilindi va u yerda vafot qildi. Fidiyning ikki munosib shogirdi Alkmen va Agorakrit Parfenon ibodatxonasi peshtoqi tasvirini ishladilar.

Mashhur haykaltarosh Miron «Diskobol», «Afina va Marsiy» haykallari bilan o‘zining nomini abadiylashtirdi. Uning shogirdi haykaltarosh Dimetriy an’anaviylik va klassikadan uzoqlashib, hayotiy asarlar yaratdi. Haykaltarosh Poliklet esa uning teskarisi bo‘lib, o‘z asarlarida sof go‘zallikni izladi. U tanlovlarda Fidiy bilan raqobatlashdi va uni yengdi. Uning «Zevsning rafiqasi Gera», «Nayza ushlagan o‘smir» haykallari mukammal san’at asarlari bo‘ldi.

Klassik yunon haykaltaroshligining yorqin namoyandalaridan biri argoslik Poliklet edi. Uning «Diodumen» asari noyob san’at namunasi edi. Yunon haykaltaroshlari inson gavdasining uyg‘unligi nuqtasini qidirar edilar. Poliklet ham bu nuqtani izladi. Poliklet qonuniga ko‘ra, haykal tovonining uzunligi gavdaning 1/6 qismini, boshining uzunligi 1/8 qismini tashkil qilishi kerak edi. Bu va boshqa nisbatlarga Dorifor haykalida qat’iy rioya qilingan. Poliklet qonuni keyingi yuz yil davomida haykaltaroshlik san’atida qat’iy nizom sifatida amal qilib keldi. Olimpiyada haykaltarosh Peoniyning «Ma’buda Rika» haykali mil. avv. V asrning noyob san’at asarlaridan biri edi.

Mil. avv. IV asrda polis tizimining tushkunligi davrida haykaltaroshlikda qahramonlik mavzusidan

uzoqlashib, insonning ichki ruhiy dunyosini ko‘rsatish asosiy yo‘nalishga aylandi. Bu davrning mashhur haykaltaroshlaridan **Skopas, Praksitel va Lisipp** (makedoniyalik Iskandarning saroy haykaltaroshi) larni aytish mumkin. Haykaltarosh **Praksitel**ning (mil. avv. 370 – 340-yillar) «Germes chaqaloq Dionis bilan», «Knidlik Afrodita» va «Kaltakesakni o‘ldirayotgan Apollon» haykallarida nafislik, go‘zallik yaqqol aks etadi. Knidlik Afrodita» haykali ayol go‘zalligining timsoli sifatida shuhrat qozonadi. Uning «Erot», «Vino quyayotgan satir», «Dam olayotgan satir» haykallari sevgi va bazmga bag‘ishlangan. Haykaltaroshning «Kaltakesakni o‘ldirayotgan Apollon» va «Germes chaqaloq Dionis bilan» haykallaridagi sirdoshlik va joziba mil. avv. III – II asrlardagi haykaltaroshlik san’atiga katta ta’sir o‘tkazdi. «Praksitelning haykallarida sokinlik motivlari ko‘rinadi. «Dam olayotgan Satir» haykalining yuzdan ortiq nusxalari bizgacha yetib kelgan. «Knidlik Afrodita» haykali esa bizgacha yetib kelmagan. Praksitelning haykallari hashamat buyumlari sifatida boy-zodagonlarning uylariga bezak bo‘ldi. Haykaltarosh boy-zodagonlarning buyurtmalarini bajardi. Praksitel barcha haykallarini marmardan ishladi. Buyuk haykaltaroshning ikki o‘g‘li va nevarasi uning ishini davom ettirdilar. Praksitelning o‘zi ham haykaltaroshning o‘g‘li edi.

Paroslik me’mor va haykaltarosh **Skopas (**mil. avv. 420 – 355-yillar) Attika, Peloponnes va Kichik Osiyodagi yunon shaharlarida ishladi. O‘zi me’mor bo‘lgan Gegeyadagi Afina ibodatxonasini haykallar bilan bezadi. U odamlar va qahramonlar kuchli hissiy tuyg‘ular bo‘lgan ehtiros va aqlsizlik, og‘riq va qiynalishda tasvirladi. Tegeya shahrida Afina ibodatxonasini o‘zi qurib, uning peshtoqini yaralangan askarlar haykallari bilan bezadi. Pergamdagi Galikarnas mavzoleyning sharqiy peshtoqini yunonlarni amazonkalar

bilan olishuvi manzaralari bilan bezatdi. Meleagra va Gerakl haykallarida Skopas jismoniy va ruhiy kuchlarning kulminatsiyasini ko‘rsatdi. Skopasning «Sevib qolgan Arey», «Raqs tushayotgan Menada» va «Afrodita» haykallarida inson ruhining harakati va uning eng nozik va yashirin tuyg‘ularini ifodalashga urinish ko‘rinadi.

Mil. avv. IV asrda yashagan **Lisipp** mashhur haykaltaroshlarning orasida eng mahsuldori va eng so‘nggisi edi. Lisipp marmar va metalldan ilohlar, qahramonlar va yarim ilohlarning 1500 ta haykalini yaratdi. Haykaltaroshning «To‘rt ot qo‘shilgan aravadagi Gelios» va «Tlet» haykallari mashur bo‘ldi. Uning «Istmiyalik Poseydon», «Agiy» va «Gerakl» haykallarida kurash ruhi singdirilgan. Lisipp makedoniyalik Aleksandrning buyurtmasi bilan «Granik yonidagi jang» haykallar guruhini yaratdi. Guruh 35 figuradan tashkil topib, ulardan 26 tasi otliq edi. Makedoniyalik Aleksandrni marmar va bronzada tasvirlash faqat Lisippga ruxsat berilgan edi. Lisipp Aleksandrni turli ko‘rinishda: o‘smir, erkak, jangda va taxtda o‘tirgan holda, ovda va otda tasvirladi. Mashhur haykaltarosh Aleksandrning byustini ham yaratdi. Bu haykaltarosh bir vaqtning o‘zida rassom ham bo‘lib, Aleksandrning bir necha portretlarini chizgan. Lisipp haykaltaroshlik san’atida Poliklet qonunining o‘rniga yangi qonunni tatbiq qildi. Ya’ni uzun, nafis oyoqlar, nozik jussa, uncha katta bo‘lmagan bosh – bu jihatlar haykaltarosh «Apoksiomen» (o‘z badanidagi moyni qirg‘ich bilan qirayotgan o‘smir) haykalida aks ettirdi.

Lisippning zamondoshi afinalik Leoxar yunon haykaltaroshligida mumtoz usulni tiklashga harakat qildi. «Belvederlik Apollon», «Ganimed», «Burgut olib ketgan Zevs» haykallari hamda Galikarnas mavzoleyining g‘arbiy peshtoqi bo‘rtma tasvirlari Leoxarning asari deb faraz qilinadi.

Rodos orolida haykaltaroshlar Agezandr, Afenodor va Polidor mashhur «Laokoon va uning o‘g‘illari» asarini yaratdilar. Sofoklning rivoyatiga ko‘ra, iloh Apollon muqaddas tepalikni oyoqosti qilgani uchun ilohlarni Laokoonni o‘ldirishga yuboradi. Laokoon noqonuniy tug‘ilgan o‘g‘illari bilan birga o‘ldiriladi. Lisippning shogirdi rodoslik Xares Rodos orolida qadimgi dunyoning yetti mo‘jizasidan biri bo‘lgan xudo Geliosning 36 metrlik ulkan haykalini yaratdi (mil. avv. 216-yil). Rodosdagi kuchli zilzila paytida bu haykal buzildi. Uning «Gerakl sher bilan» va «Apoksiomen» haykallari, «Bazm qilayotgan Gerakl» haykalchasi haykaltaroshlik san’atining eng noyob namunalari hisoblanadi.

Yunon tasviriy san’ati taraqqiyotini vazalar tasviri orqali tasavvur qilish mumkin. Bu san’at janrida Sikion maktabi va Afina maktabi shakllangan. Tasviriy san’atda kundalik hayot va mifologiyadan olingan tasvirlar ko‘plab uchraydi. Birinchi bo‘lib, mashhur yunon rassomi tasoslik Poliklet faqat to‘rt rang: oq, qora, qizil va sariqni ishlatgan. Klassik davrda yunon tasviriy san’atining eng mashhur namoyandalaridan biri Polignot ulkan ko‘p shaklli kompozitsiyalar ustasi edi. Afinalik Apollodor tasviriy san’atda yorug‘lik soyasini kashf qildi. U bo‘yoq bilan chizgan ko‘pgina vazalar bizgacha yetib kelgan. Bu davrdagi Zevksid va Parrasiy, Apelles (Iskandarning saroy rassomi) va Nikiylar tasviriy san’at janrida yorqin iz qoldirdilar. Rassomlar tarixiy, harbiy, peysaj va portret janrlarida ijod qildilar.

Kulolchilikda yunonlar haqiqiy san’atkor bo‘lganlar. Qadimgi Afina shahridagi Keramik ko‘chasida kulollar yashagan. Shu ko‘cha nomidan keramika atamasi paydo bo‘ldi. Attika viloyatidagi qizg‘ish-sarg‘ish rangli loy butun Yunonistonda eng a’lo sifatli bo‘lgan. Afina kulollari bu loydan haqiqiy san’at asarlari

hisoblangan kulolchilik mahsulotlari tayyorlangan. Afinalik kulollar boshqa yunon shaharlari kulollarini kulolchilikda orqada qoldirganlar. Afinalik kulollar yasagan kulolchilik buyumlari butun yunon dunyosi va boshqa mamlakatlariga chiqarilgan. Vazalar qora lak bilan qoplangan. Mil. avv. VI asrda qora rangli vazaga tasvir tushiruvchi usta Ekzekiy vazaga Geraklning Triton (yarim odam-yarim baliq) bilan kurashi tasvirini mohirona tasvirlagan.

10. Tibbiyot va aniq fanlar. Mil. avv. V asr ikkinchi yarmida an'anaviy kohinlar tibbiyoti bilan bir qatorda, aniq kuzatishlarga asoslangan shifokorlarning tibbiyoti vujudga keldi. Yunonlar bu davrda sharqning tibbiy bilimlar sohasidagi yutuqlari bilan tanishdilar va uni o'zlashtirdilar. Mil. avv. 400-yilda yunon tabibi Gippokrat (mil. avv. 470 – 430-yillar) ning tibbiyot maktabi paydo bo'ldi. Gippokrat kasallikni o'rganish nazariyasidan ko'ra muhimroq deb uqtiradi. U «Tibbiyotning otasi» sifatida shuhrat qozondi. Gippokratning maktabida tabiblar tajriba, kuzatish usuliga tayanib, tez va to'g'ri tashxis qo'yishga harakat qildilar va davolashda dorivor o'tlar, parhez va gigiyena kabi usullarni keng qo'lladilar.

Yunon tabiblari singan suyaklarni, urushda olingan jarohatlarni davolashni bilar edilar, lekin yuqumli kasalliklarni davolashni bilmas edilar. Asklepiy shifo ma'budi hisoblangan. Tabiblar odamni sog'lig'i uning organizmidagi 4 asosoiy suyuqlik: qon, flegma, qora va sarit o't orasidagi muvozanatga bog'liq deb hisoblaganlar. Apolloniyalik Diogen qon aylanish tizimini yaxshi o'rgandi. Krotonlik Alkmeon kasalliklarning manbayi inson organizmidagi suyaklarning mutanosibligining buzilishi deb ko'rsatdi. O'sha davr tibbiy bilimlari to'g'risida 53 traktatdan iborat «Gippokrat korpusi» deb ataladigan tibbiyot to'plamlari orqali ma'lumot olish mumkin.

Yunonistonda aniq fanlarning rivojlanishi to‘g‘risida ma’lumotlar juda kam. Yunonlar sharq dunyosining bir necha ming yil davomida aniq va tabiiy fanlardan to‘plagan bilimlarni o‘zlashtirdilar.Yunon shaharlarining birortasida ham rasadxona – observatoriya yo‘q edi. Yunonlar matematikani misrliklardan, astrologiyani bobilliklardan o‘zlashtirdilar. Nemis olimi O. Shpengler qadimgi yunonlar aniq fanlar to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lsalarda, lekin bu fanlar bilan shug‘ullanmaganlari to‘g‘risida shunday fikr bildiradi: «Yunon faylasuflari ba’zida eslatadigan biror narsa to‘g‘risida eshitgan bo‘lsalar-da, tajribada sinab ko‘rmadilar. Platon ham Aristotel ham observatoriyaga ega emas edilar. Periklning Afinadagi so‘nggi yillardagi hukmronligi vaqtida xalq yig‘ini har qanday astronomik nazariyalarni tarqatuvchilarga xavf soladigan og‘ir ayblov (eysangaliya) qarorini chiqardi» (О.Шпенглер. Закат Европы. Пер. нем.под.ред.А.А. Франковского. ОСР Бычков. стр. 14).

Afinalik astronom, matematik Meton quyosh soatini yasagani, taqvimni isloh qilgani to‘g‘risidagi ma’lumotlar bizgacha yetib kelgan. Samos orolida tug‘ilgan Pifagor (mil. avv. 540 – 500-yillar) matematika va musiqa bilan shug‘ullangan va mashhur matematik teoremani ochdi. Aytishlaricha, o‘z kashfiyotidan xursand bo‘lib, 100 ho‘kizni qurbonlik keltiradi. U juda katta jismoniy kuch va aqliy qobilyatga ega bo‘lgan va 18 yoshida Olimpiya o‘yinlari g‘olibi bo‘ladi. Pifagor Krit va Misrga sayohat qiladi. Misrning ma’naviy-diniy g‘oyalari uning keyingi faoliyati ijodida katta ta’sir o‘tkazadi. Olim janubiy Italiyadagi yunon shahri Krotonda yashab ijod qiladi. U ilm asosida davlatni boshqarish g‘oyasini ilgari suradi. Knidlik astronom va geograf Evdoks yer shar shaklida ekanini asoslab berdi va uni aylanasini hisoblab chiqishga urindi. Mil. avv. 432-yilda afinalik mate-

matik yangi taqvimni joriy qildi. Aristotel fizika bo‘yicha, Empedokl kimyoviy unsurlar to‘g‘risida asarlar yaratdi. Aristotel zoologiya bo‘yicha o‘z asarida mavjudotlar dunyosini turkumladi. Miletlik Gippodam meteorologiya bilan shug‘ullandi. Mil. avv. IV asrda afinalik Ksenofont harbiy ishga bag‘ishlangan va stunfallik Eney shaharlar mudofaasi to‘g‘risida asarlar yaratdilar.

YUNON YOZUVCHILARINING AFORIZMLARI

Hech ish qilmagandan ma’lum maqsadsiz bo‘lsa ham ish qilgan ma’qul.

Suqrot

Oddiy va vijdonli bo‘lish, aqlli va aldamchi bo‘lishdan afzal.

Sofokl

Ehtiyojni jilovlashning buyuk mevasi ozodlikdir.

Epikur

Nohaqlik qilmagan kishi hurmatga loyiq, boshqalarning nohaqlik qilishiga yo‘l qo‘ymagan kishi ikki marta hurmatga loyiq.

Platon

Sarkardalarning orasidan eng urushqoqlari, eng ayyorlari va eng jasoratlilari bir ko‘zlilari bo‘lishgan, jumladan, Gannibal, Antigon.

Plutarx

Yaramasning sovg‘asidan yaxshilik kutma.

Yevripid

O‘zgalar ustidan hukmronlik qiluvchi odam, avvalo o‘zini boshqara bilishi va vijdonli bo‘lishi lozim.

Demokrit

Tinch-xotirjam yashamoqchi bo‘lgan odamlar muhtojlikda yashashni o‘rganishlari lozim.

Plutarx

II BOB
MAKEDONIYANING YUKSALISHI. MAKEDONIYALIK ALEKSANDR FAOLIYATI

«Aleksandr taqdirning erkasi, tanobi tortilmagan, hissiyotga berilgan, shuhrat orqasidan quvuvchi o‘smir bo‘lgan. Agar u Rim legionlari bilan to‘qnash kelganda edi, uning g‘alabalariga nuqta qo‘yilgan bo‘lar edi».

Tit Liviy

1. **Makedoniyaning yuksalishi. Yunonistonda makedon hukmronligining o‘rnatilishi.**
2. **Ahmoniylar davlati halokati va uning oqibatlari.**
3. **Aleksandr.**
4. **Yunon-makedonlarning sharqqa bosqini.**
5. **Diadoxlar urushi.**

1. Makedoniyaning yuksalishi. Makedoniyaning tarixi to‘g‘risida III asrda yashagan yozuvchilari Mark Yunian Yustin va Pompey Trogning asarlari asosida yozilgan «Filipp tarixi» asarida va Gerodot ma’lumot beradi. Makedoniya Bolqon yarim orolining shimoli-sharqiy qismida joylashgan bo‘lib, uning shimol va sharqdagi qo‘shnilari frakiya qabilalari, g‘arbda

illir qabilalari, janubda fessaliyaliklar edi. Makedoniya uncha baland bo‘lmagan tog‘lar va bir necha kichik hosildor vodiylarda joylashgan edi. Iqlimida dengiz va kontinental iqlimning uyg‘un qo‘shilib ketishi dehqonchilik, chorvachilikni, ayniqsa, yilqichilikning rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Makedoniyada temir, mis, oltin va kumush zaxiralari mavjud edi. Tog‘ hududlarida kema qurish uchun zarur bo‘lgan daraxt navi o‘sgan. Makedoniyada ko‘p etnik guruhlar yashagan. Olimlarning ma’lumotlariga ko‘ra, makedon etnosi mil. avv. V asrda frakiya, illir qabilalari unsurlari asosida shakllangan. Hududda bu vaqtda epir, illir va frakiya etnoslariga tegishli guruhlar mavjud edi. Mil. avv. V asrgacha Makedoniyada yashagan bu qabilalar ibtidoiy jamoa tuzumida yashadilar. Ular kulba va chaylalarda yashab chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanib, hayvon terisidan kiyim kiyganlar. Mamlakat dengizga chiqadigan yo‘lga ega emas edi. Yuqori Makedoniyada mil. avv. IV asrda urug‘-qabilachilik munosabatlari hukm surgan. Quyi Makedoniyada iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy tabaqalanish jarayoni borib, mil. avv. V asrda bu hududda ilk davlat va jamiyat shakllandi. Makedoniya urug‘-qabilachilik munosabatlari, urf-odat va an’analari kuchli bo‘lgan davlat edi.

Doro I Makedoniyaga Qoshni Frakiya va Peoniyani bosib oldi, tog‘li Makedoniya kambag‘al bo‘lgani uchun forslarda qiziqish uyg‘otmadi. Faqat Ahmoniy Doro I ning kuyovi Mardoniy mil. avv. 492-yilda Makedoniyani bosib oldi. **Argead sulolasidan bo‘lgan** podshoh Argetning o‘g‘li Aminta I (mil. avv. 540 – 498) Makedoniyada boshqa qabilalar bilan tenglikda tan olindi. Uning o‘g‘li Aleksandr I hukmronligi davrida Makedoniya yunon-fors urushlariga tortildi. Makedon podshohlari vaziyatga qarab, har ikki tomonni ham qo‘llab-quvvatlaganlar. Makedoniya forslar bilan

hamkorlik qildi. Podshoh Aleksandr I (mil. avv. 495 – 450-yillar) davrida Quyi Makedoniya to‘la birlashtirildi. Yunonlar podshoh Aleksandrga umumyunon Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etishiga ruxsat berdilar. Aleksandr Olimpiya o‘yinida yugurish musobaqasida g‘alaba qozondi.

Podshoh Arxelay (mil. avv. 419 – 399-yillar) pul va harbiy islohot o‘tkazib, podshoh hokimiyatini kuchaytirdi. U Makedoniyaning chekka hududlaridagi yarim mustaqil hokimlarning o‘zboshimchaligini chekladi. Podshoh mamlakatning turli hududlarida bir necha qal’alarni qurib, ularni qo‘shin va oziq-ovqat bilan ta‘minlash qulay bo‘lgan to‘g‘ri yo‘llar bilan bog‘ladi. Poytaxtni Eg shahridan dengizga yaqin Pella shahriga ko‘chirdi. Podshoh Arxelay otliq qismlarni takomillashtirdi va uni zarbdor kuchga aylantirdi. Makedon qo‘shini jangovar qobiliyatini kuchaytirdi.

Peloponnes urushlaridan so‘ng, Makedoniya yunon shahar-davlatlari bilan aloqa o‘rnatdi. Yunonlar uchun Makedoniya qoloq varvarlar mamlakati edi. Podshoh Arxelay uzoqni ko‘zlab tashqi siyosatni olib bordi. Makedoniya Afina shahar-davlati bilan yaqin munosabatda bo‘ldi. Afina yordamida Xalkida va Fessaliyadagi bir necha yunon shaharlari Makedoniya tomonidan bosib olindi. Podshoh Arxelay yunon madaniyatini mamlakatga olib kirdi. Arxelay saroyida shoir va rassomlar Yevripid, Agaton va Zevksis yashadilar.

Arxelay davlat hokimiyatini mustahlkamlash siyosatini olib bordi. Lekin makedon urug‘-qabilalari yo‘lboshchilari hududlarda o‘z hokimiyatlaridan mahrum bo‘lishni istamas edilar. Arxelayning islohotchilik siyosatiga qarshi turdilar. Makedon urug‘ zodagonlarining bir qismi podshoh hokimiyatini mustahkamlanishi, boshqaruvning markazlashuvi hamda yunon shaharlari bilan yaqinlashuvidan norozi bo‘lib, fitna uyushtirdilar. Natijada, Arxelay o‘ldirildi. Makedo-

niya bir necha o‘n yil ichki ziddiyatlar ichida qoldi. Lekin barcha makedon podshohlari urug‘-qabila zodagonlarining hududiy separatizmiga barham berib, podshoh hokimiyatini mustahkamlash siyosatini olib bordilar. Argeadlar sulolasidan bo‘lgan Aleksandr I ning nevarasi Filippning o‘g‘li Aminta II (mil. avv. 393 – 392) Pavsaniyni o‘ldirib, Argeadlar sulolasini qayta tikladi. Aminta vafotidan so‘ng, taxt vorisligi uchun da’vogarlar o‘rtasidagi kurashga Fiva shahar davlati aralashdi. Fiva hokimi Pelopid taxtga Aminta II ning katta o‘g‘li Perdikkani o‘tqazdi. Perdikka III tez orada illirlarga qarshi urushda halok bo‘ldi.

Makedoniya taxtiga Filipp II (mil. avv. 360 – 336-yillar) keldi. Makedon davlatchiligining keyingi rivojlanishida Filipp II katta yutuqlarga erishdi. Fivada yashagan Filipp yunon shaharlarining o‘zaro urushlarini kuzatdi, yaxshi ta’lim oldi. O‘z maqsadi yo‘lida har qanday vositadan foydalanishdan tap tortmadi, o‘z so‘zida turmaslik, qasamxo‘rlik, makkorlik, xoinlik va sotib olish Filipp II ga xos xususiyatlar edi. Filippning «Oltin ortilgan eshak eng baland devordan oshib o‘tadi» iborasi maqolga aylandi. Filipp peoniyalik va frakiyaliklarni muzokaralar va sovg‘a-salomlar bilan o‘z tomoniga og‘dirdi, afinaliklarning do‘stonaligi va yumshoq muomalasi bilan aldadi, urushda g‘alabaga erishish imkoniyati bo‘lsagina jang harakatlarini boshladi. Illir qabilalaridan birining zaifligiga ishonch hosil qilgach, ular bilan urush boshladi. Illiriyaliklar ustidan g‘alabasi bilan Lixnit ko‘ligacha bo‘lgan yerlarni bosib oldi.

Filipp II makedon urug‘-qabilalari o‘rtasidagi nizolarga chek qo‘ydi. Urug‘-qabila yo‘lboshchilari va oqsuyak-zodagonlarning o‘zboshimchaligini cheklashda ham ijobiy natijalarga erishdi. O‘z hokimiyatini butun mamlakat miqyosida rasman bo‘lsa-da tan olinishiga erishdi.

Harbiy islohot. Filipp II harbiy islohot o‘tkazib, makedon falangasini tuzdi. Makedon falangasi og‘ir qurollangan, 16-29 qator saflanadigan 5 metrgacha uzunlikdagi sarissa (nayza) bilan qurollangan piyoda (goplit) jangchilardan iborat bo‘lgan. Orqa safdagilar sarissalarini oldingi qatordagilar yelkasiga qo‘yar edilar. Jang maydonida og‘ir qurollangan jangchilar katta qalqonlar bilan himoyalanib, sarissalarni tikandek chiqarib, dahshatli kuchni tashkil qilar edilar. Makedon zodagonlaridan tuzilgan og‘ir qurolli otliq getayrlar («podshohning o‘rtoqlari») qo‘shinda muhim o‘rin tutgan. Qo‘shin tarkibida turli qamal qurollari bilan ta‘minlangan injener qismlar mavjud edi.

Kambag‘al Makedoniya yaxshi qurollangan bunday armiyani saqlab turish qobiliyatiga ega emas edi. Filipp bunday mablag‘ni topish uchun boy konlar mavjud bo‘lgan Pangey tog‘larini Amfiopolis shahridan tortib oldi. Bosib olingan konlarni jadal o‘zlashtirdi va katta boylik orttirdi. Bu boyliklarga soliq tushumlari va bojlarni qo‘shib bir qismini jangovar armiyani ta’minlashga sarfladi, boshqa qismini har bir yunon shahrida o‘ziga moyil guruhlarni tashkil etish uchun pora berishga sarfladi. Makedoniya qirg‘oqlaridagi boy yunon manzilgohlarini bosib oldi, Afinani munofiqona do‘stlik bilan aldadi va Pidna qal’asini bosib oldi.

Yunonistonda makedon hukmronligining o‘rnatilishi. Mil. avv. IV asr o‘rtalarida Makedoniya Bolqon shimolidagi eng kuchli davlatga aylandi. Mil. avv. IV asr o‘rtalarida Makedoniya kuchli qo‘shin bilan Epir va Frakiyani egalladi. Frakiyadagi oltin konlari yiliga 1000 talant miqdorida beradigan daromadi Makedoniya iqtisodiy kuchining asosini tashkil etdi. Makedoniya yunon shaharlari bilan bevosita chegaraga ega bo‘ldi. Shu vaqtdan boshlab, Makedoniya urushlar girdobida qolib zaiflashgan yunon shahar-

davlatlarining ichki ishlariga faol aralasha boshladi. Makedoniyaning kuchayishi yunon shahar-davlatlarining o‘zaro urushlari natijasida yuz berdi.

O‘zaro urushlar yunon shahar-davlatlarini zaiflashtirib, ular shimoldan kelayotgan xavfning oldini ola olmadilar. Filipp yunon shaharlari o‘rtasidagi ixtiloflardan unumli foydalandi, Makedoniya podshohi Filipp bu urushlarni diqqat bilan kuzatib, o‘ziga foydali bo‘lgan taqdirdagina bu urushlarga aralashdi. Mil. avv. 355-yilda Fivaning yordam so‘rab qilgan murojaatini bahona qilib, Makedoniya Fiva bilan Fokida o‘rtasidagi urushga aralashdi. Fokidani tor-mor qildi va O‘rta Yunonistonga qo‘shin kiritdi. Natijada Makedoniya butun Shimoliy Yunoniston ustidan o‘z nazoratini o‘rnatdi. Tez orada Fessaliya, Xalkidika yarim orolining bir qismi, Frakiyaning janubiy qirg‘og‘i, Bosforgacha bo‘lgan hududlar Makedoniyaga qaram bo‘ldi.Makedoniya endi dengiz davlatiga aylandi. Yunonlarni Qora dengizga chiqish yo‘li Makedoniya qo‘liga o‘tdi.

Yunon davlatlaridan faqat Afina Filipp II ga qarshi tura olishi mumkin edi. Lekin Afinada bu vaqtda o‘zaro ixtiloflar kuchayib, makedon va antimakedon partiyasi shakllandi. Makedon partiyasi (yetakchisi Isokrat) yunonlar Filipp II boshchiligida Eronga qarshi yurish qilib, katta o‘lja olishlarii mumkin, Filipp yunonlar orasidagi o‘zaro kelishmovchiliklarga chek qo‘yadi. Makedoniya bilan birgalikda Kichik Osiyoni bosib olib, Afinada norozilik tug‘diradigan kambag‘al aholini bu hududga ko‘chirish mumkin deb hisobladi. Filipp II Afinada o‘z tarafdorlarini sotib olish uchun oltinni ayamadi. U afinaliklar orasidan bir necha taniqli kishilarni pora berib, o‘z tomoniga og‘dirib olishga erishdi. Evbul, Demokrat, Filokrat, Stratokl va boshqa shunday odamlar afinaliklarni Filippni qo‘llab-quvvatlashga chaqirdilar.

Demosfen boshchilik qilgan antimakedon guruhi Filipp II uchun qat'iy va kuchli raqib edi. Bu vaqtda Afina fuqarolarining siyosiy faolligi o'ta past bo'lib, katta yoshli afinaliklar vaqtlarini turli azartli o'yinlarni oshiq o'ynash va boshqa shunga o'xshash ko'ngilochar ishlarga sarflar edilar. Yoshlar esa uzzukun vaqtlarini nay chaluvchi ayollar va geteralarning uylarida o'tkazar edilar. Xalq uchun jamoa ovqatlanishlari tekin go'sht olish davlatga g'amxo'rlik qilishdan ko'ra afzal edi. Siyosat bilan shug'ullanish bir necha bir-biriga muxolifatda turgan guruhlar qo'lida edi.

Afinadagi antimakedon partiyasi Makedoniya bilan ittifoq yunon shahar-davlatlarini erkinligini yo'qotishga, qaramlikka, demokratiyani yo'qotishga olib keladi deb hisobladilar. Demosfen Afina, Fiva, Korinf, Xios, Evfeya va Vizantiy boshqa yunon shaharlarining birlashgan kuchli antimakedon guruhini tuzdi. U Kichik Osiyodagi fors Makedoniyaga qarshi bo'ladigan urushga tayyorgarlik boshlandi. Mil. avv. 338-yil avgust oyida birlashgan yunon shaharlari va Filipp II qo'shinlari o'rtasida Beotiya (Xeroneya)da hal qiluvchi jang bo'ldi. Demosfenning o'zi oldingi qatorda oddiy askar bo'lib jang qildi. Makedon qo'shinlari birlashgan yunon shaharlari qo'shinlarini tor-mor qildi.

Mil. avv. 337-yilda Filipp II Korinf shahrida umumyunon kongressini chaqirdi. Yunon shaharlaridan faqat Sparta bu kongressga qatnashmadi. Kongressda muhim qarorlar qabul qilindi va yunon shaharlarining ittifoqi tuzildi. Yunon davlatlari makedon podshohi bilan abadiy mudofaa va hujum ittifoqi tuzdilar. Yunon shaharlari o'rtasida o'zaro urushlar taqiqlandi. Yunon shaharlarini Filipp II o'zini yunonlarning yo'lboshchisi deb e'lon qilishga majbur qildi. Kongressda xususiy mulkning daxlsizligi e'lon qilindi, qarzlarni kassatsiya qilish, bi-

rovning mulkini bosib olish va qayta taqsimlash, qullarga erkinlik berish va ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanish taqiqlandi. Filipp II Korinf kongressida yunon shaharlaridan Eronga yurish uchun kemalar va odamlarni berishni talab qildi. Eron bilan urush boshlashga qaror qilindi. Filipp II ning faoliyati Spartadan tashqari, Argos, Arkadiya, Messeniya va Elidaning olqishiga sazovor bo‘ldi.

2. Ahmoniylar davlatining halokati va uning oqibatlari. Filipp II Eronga qarshi talonchilik urushiga jiddiy tayyorgarlik ko‘rishni boshladi. Fops davlati hududi uch qit’aga tarqalgan bo‘lib o‘sha davrda dunyodagi eng katta davlat bo‘lib taraqqiyotning turli bosqichlarida turgan 100 ga yaqin xalqlar va etnik birliklarni birlashtirdi. Ahmoniylar davlati 200 yildan ko‘proq davrda dunyodagi eng katta va qudratli davlat sifatida Old Osiyoda barqaror tinchlik muhitini ta’minlab turdi. Savdo-hunarmandchilik va xalqaro savdo aloqalariga ixtisoslashgan shaharlar davlat hokimiyati homiyligi ostida rivojlandi. Ahmoniylar davrida ilk bor qit’alar, mamlakatlar, hududlar va turli etnoslar orasida savdo, madaniy aloqalar ornatildi. Dunyo tarixida ilk bor g‘arb va sharqning turli hududlarini bog‘lagan bir necha xalqaro savdo yo‘llari fors davlati homiyligi ostida faoliyat ko‘rsatdi. Ahmoniylar davlati xalqaro savdo yo‘llari xavfsizligini ta’minladilar.

G‘arb tarixiy adabiyotida ustuvor bo‘lgan ellin davri va ellinizm tushunchalarida goyoki sharqqa yo‘lni Makedoniyalik Aleksandr yurishlari ochdi degan tushuncha hamda sharq va g‘arb madaniyatining qo‘shilishi natijasida, ellin madaniyati shakllandi degan tushuncha ham hech qanday asosga ega emas. Aksincha, yunon makedonlar bosqini davrida va undan keyin yarim asr davomida xalqaro savdo va madaniy aloqalar uzilib qoldi.

Mil. avv. VIII asrdan VI asrgacha shakllana boshlagan yunon davlatchiligi va jamiyati Sharq madaniyati ta'siri ostida shakllana boshlagan yunon sivilizatsiyasi sharq dunyosining bir necha ming yillik madaniyati bilan Ahmoniylar davrida tanishdi va uning yutuqlarini o'zlashtirdi. Bir necha miing yillar davomida mavjud bo'lgan sharq madaniyati-ma'naviyat, davlatchilik va ijtimoiy tuzumga ega bo'lgan va asrlar davomida ana shu madaniy an'ana va urf-odat, qadriyatlar asosida yashab kelayotgan sivilizatsiya kichik bir hududda endigina shakllangan va hali oyoqqa turmagan madaniyatning ta'siri ostiga tushib qolishi tushunchasi mantiqdan tashqari bo'lib, tarixni soxtalashtirishga olib keladi.

Mil. avv. IV asrning ikkinchi yarmida Ahmoniylar imperiyasi ancha zaiflashgan edi. Ulkan hududlarni o'z nazorati ostida olgan ahmoniylar davlat boshqaruvida ijtimoiy-siyosiy muammolar paydo bo'ldi. Harbiy qo'shin tarkibini to'ldirgan asosiy ijtimoiy qatlam bo'lgan dehqonlarning xonavayron bo'lishi natijasida ular harbiy xizmatdan bosh torta boshladilar. Bu ichki va tashqi xavfsizlikni ta'minlaydigan armiyani jangovar qobiliyatining pasayishiga olib keldi. Oqibatda qo'shin safi yollanma askarlar bilan to'ldirila boshlandi. Bu toifa askarlar ma'lum bir haq evaziga xizmatni o'tar edilar, ular ishonchsiz bo'ib, kutilmagan paytda xiyonat qilishlari mumkin edi.

Satraplar joylarda katta boylik to'pladilar va markaziy hokimiyatga bo'ysunishdan bosh tortdilar. Satrapliklarda separat kayfiyatlar kuchayib, isyonlar, g'alayonlar uzluksiz davom etdi. Saroyda taxt uchun sulola vakillarining ochiq va xufiyaviy kurashlari markaziy hokimiyatni zaiflashtirdi. Tor manfaatlar girdobida o'ralashib qolgan hukmron tabaqa fitna va isyonlar bilan davlat hokimiyatini zaiflashtirdilar. Markaziy hokimiyat zaiflashib joylardagi nazoratni

qo‘ldan chiqardi. Hududlar, satrapliklarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida turli darajadagi ko‘rsatkichlar, hududlar o‘rtasida iqtisodiy aloqalarning zaifligi, xo‘jalikning natural holati markaziy hokimiyatning zaiflashuviga olib keldi va ahmoniylar davlatining yemirilishini jadallashtirdi.

Mil. avv. 360-yillarda satraplarning isyonlari, Finikiya shaharlarining qo‘zg‘olonlari yuz berib, Misrning mustaqillikka intilishi kuchaydi. Eronning so‘nggi qudratli podshohi Artakserks III Ox (mil. avv. 358 – 338) 20 yil davomida yemirilayotgan davlatni bir qadar mustahkamladi. Lekin katta miqdorda moddiy boylikka ega bo‘lgan fors oqsuyak zodagonlari, saroy a’yonlari va satraplar podshohning mutlaq hokimiyatini kuchayishini istamas edilar. Artakserks podshoh hokimiyatini mustahkamlash uchun o‘z aka-ukalari, saroyning fitnachi a’yonlari bilan kurashdi. O‘z hokimiyatini mustahkamlash uchun podshoh oilasining barcha a’zolarini qirg‘in qildi. Lekin o‘zi ham yaqin odami, haram og‘asi asli misrlik Bagoy tomonidan mil. avv. 338-yilda zaharlab o‘ldirildi.

Podshoh Artakserks o‘limidan so‘ng Bagoy miloddan avvalgi 338-yilda Artakserksning yolg‘iz o‘g‘li Aresni taxtga o‘tqazdi. Bagoy kelib chiqishi asli Misrdan bo‘lib, ahmoniylar saroyida xizmat qildi. Haram og‘asi lavozimiga katta boylik orttirib, saroyda kuchli nufuzga ega bo‘ldi. Saroy fitnalari yana davom etdi, ikki yildan keyin Ares ham o‘ldirildi. Bagoy mamlakatni boshqarishda o‘zining mavqeyiga putur yetkazmaydigan zaif bir kishini taxtga o‘tqazishni niyat qildi. U mil. avv. 336-yilda ko‘plarga tanish bo‘lmagan, ahmoniylarga uzoq qarindosh bo‘lgan kichik Armaniston satrapi Qodomonni Doro III nomi bilan taxtga o‘tqazdi. Lekin Doro III Bagoyni hokimiyatdan chetlashtirib, o‘z hokimiyatini mustahkamlashga kirishdi.

Makedoniya esa, bu davrda yunon dunyosida o‘z mavqeyini mustahkamlab, Sharqqa yurishda faol tayyorgarlik ko‘ra boshladi. Filipp II mil. avv. 336-yil Kichik Osiyoning g‘arbiy qirg‘og‘ini bosib olish uchun 10 000 makedon askarini Kichik Osiyoga jo‘natdi. Ammo Sharqqa yurish g‘oyasini amalga oshirish Filipp II ga nasib etmadi. Bu g‘oyani uning o‘g‘li Aleksandr amalga oshirdi.

Mil. avv. 336-yil yozida Filipp II qizining to‘yi bo‘lgan kuni o‘ldirildi. Bunga sabab, Makedon a’yoni Attal yunon zodagoni Pavsaniyning tansoqchisini haqorat qiladi. Haqorat qilingan tansoqchi Filipp IIga himoya so‘rab murojaat qiladi. Shikoyatchi o‘z shikoyatini e’tiborsiz qoldirgani uchun Filipp soqchisiz teatrga kirayotganda uni xanjar sanchib o‘ldiradi.

Afinada Filippning o‘limi shod-xurramlik bilan kutib olindi. Xalq yig‘ini bu hodisani tantanali qurbonliklar keltirish bilan, Pavsaniyni esa gulchambar bilan taqdirlashga qaror qildi. Demosfen Filipp II ning o‘limini eshitib, o‘z qizini o‘limini yettisi chiqmagan bo‘lsa-da enida qordek oppoq yoping‘ich, boshida gulchambar kiyib odamlar oldida paydo bo‘ldi. Demosfen afinaliklarni makedon zulmiga qarshi ruhlantirdi va Afina yana o‘z ozodligini tiklash uchun qurollana boshladi. Fivaliklar ham Demosfen yordamida qurol topib makedon garnizoniga hujum qilib uning katta qismini qirib tashladi. Afnialiklar ham ularga yordam ko‘rsatish uchun qurollana boshladi. Demosfen Kichik Osiyodagi fors sarkardalariga murojaat qilib, ularni Aleksandrga qarshi urush boshlashni so‘radi.

3. Aleksandr (366 – 323). Filippning 20 yoshli o‘g‘li Aleksandr podshoh hokimiyatini egalladi. Hozirgacha Yevropada chop etilgan eng ko‘p badiiy va ilmiy adabiyot Aleksandr faoliyatiga bag‘ishlangan. O‘rta asrlardan boshlab Aleksandr obrazi va tarjimayi holi Yevropada tarixiy va badiiy adabiyotda asosiy o‘rin-

lardan birini egalladi. Xalq og‘zaki ijodiyotida Aleksandrning haqiqiy hayot faoliyatida afsonaviy unsurlar, ilohiylashtirish va ma’naviy barkamol shaxs qiyofasi shakllantirildi. Tarixiy, badiiy adabiyotda va folklorda uning faoliyati ko‘klarga ko‘tarib maqtaldi va ilohiylashtirildi.

Aleksandr to‘g‘risida Qadimgi Yunon va Rim yozuvchilaridan Plutarx, Kvint Kursiy Ruf, Sitsiliyalik Diodor, finiyalik Arrian va rimlik yozuvchi Klavdiy Elian yozib qoldirganlar. Deyarli barcha asarlarda Aleksandrning faoliyati maqtov-olqishlash ruhida yozilgan. Plutarx Aleksandr shaxsi va faoliyatidagi ayrim kamchiliklarni ko‘rsatgan. Elian asarida bu shaxsning nuqson va kamchiliklari keltiriladi. Asarlarda keltirilgan rivoyatlarda Aleksandrni faqat dono, uzoqni ko‘ra biladigan va sal bo‘lmasa avliyoga tenglashtirilib, uning kelib chiqishi xudolarga taqaladi.

Aleksandr faoliyati to‘g‘risidagi eng birinchi va haqiqatga yaqin asar Klitarxga tegishli. Klitarx Aleksandr yurishlarida qatnashib, Aleksandrning o‘limigacha bo‘lgan ma’lumot va har xil rivoyatlarni to‘plagan va tartibga solgan. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Klitarx bizgacha ma’lum bo‘lmagan tarixiy adabiyotlar, yurish kundaliklari va xatlardan foydalangan. Milodiy I asrda yashagan Kvint Kursiy Rufning «Makedoniyalik Aleksandr tarixi» va Arrian (II asr) ning «Anabasis« asarlari qimmatli hisoblanadi. Bu asarlarning asosi Klitarx yozib qoldirgan ma’lumotlar edi. Rimlik tarixchi Kvint Kursiy Ruf «Makedoniyalik Aleksandr tarixi» nomli 10 jildli asarini yozdi. Asarning I-II jildlaridan boshqa barcha jildlari saqlanib qolgan. Asarda Makedoniyalik Aleksandrning faoliyati tanqidiy yoritilgan. Yozuvchi Aleksandrning gumonsirash, ishonmaslik va shafqatsizlik bilan o‘ch olish sifatlarini ta’kidlaydi. K. Rufning asarida ritori-

ka, nasihatomuzlik va statistikaga moyillik mavjud. Arrian asarida janglar tasviri, geografik va etnografik tasvirlar mo‘l-ko‘l. Plutarx asaridagi Aleksandrga bag‘ishlangan qismida nasihatomuz ohang ufuradi.

Mil. avv. III – I asrlardagi Old Osiyo, Yunoniston, Shimoliy Qora dengizbo‘yi hatto O‘rta Osiyo fan-madaniyati taraqqiyoti ellin davri tushunchasi ostida Aleksandr yurishlari bilan bog‘lanadi. Lekin ko‘pincha mumtoz sharq adabiyotida tilga olinadigan Iskandar obrazini tarixiy va badiiy adabiyotni yetarlicha bilmagan kishilar bu Makedoniyalik Aleksandr deb tushunadilar. Aslida, A. Navoiy va boshqa sharq yozuvchi va shoirlari yaratgan obrazlar bu mutlaqo boshqa Iskandar obrazidir. G‘arb adabiyotida Aleksandr obrazi doimo ijobiy va bo‘rttirib ko‘rsatiladi. Aslida Aleksandr kim edi, uning faoliyatida mavjud uydirma va haqiqat qanday? Aleksandrning kelib chiqishi to‘g‘risida ham ko‘pgina noaniqliklar mavjud.

Ilk o‘rta asr Vizantiya adabiyotida «Aleksandr to‘g‘risida roman» poemasida Aleksandr Olimpiadaning misr podshohi Nektanebdan ko‘rgan farzandi ekani aytiladi. Bu poemaning ilk muallifi Aleksandr yurishlarida qatnashgan faylasuf Kallisfen deb ko‘rsatiladi. Kallisfen Aleksandrning ustozi Aristotelning jiyani edi. Yozuvchi Plutarx o‘z asarida Kallisfen mag‘rur, oriyatli va to‘g‘riso‘z hamda notiq bo‘lgan deb yozadi. Bunday odamlarni yoqtirmaydigan Aleksandrning Kallisfenni badarg‘a qilgani va uni fojiali o‘limi to‘g‘risida hikoya qiladi. Bir kuni Aleksandr harbiy yurish vaqtida uyushtirgan bir ziyofatida (bunday ziyofatlar sharqqa yurishda olingan o‘ljalar hisobidan tez-tez uyushtirilgan) Kallisfendan makedonlar o‘z kamchiliklarini tuzatishlari uchun ularga qarshi ayblov nutqini so‘zlashni so‘ragan. Shunda Kallisfen ochiq nutq so‘zlab makedonlarga ko‘p ayb-

lovlar qoyadi. Yunonlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar Filippning yutuqlari va yuksaklikka ko‘tarilishining yagona sababidir deydi va o‘zining haqligiga dalili sifatida shunday iborani keltiradi: «**Ko‘pincha ixtiloflar paytida hurmat-ehtirom yaramasning chekiga tushadi».** Kallisfen Aleksandrning bosha safdoshlariga o‘xshab unga tiz cho‘kib ta’zim bajo keltirmagan.

Plutarx ham Aleksandrning noqonuniy o‘g‘il ekanligi, Filipp bilan rafiqasi Olimpiada va undan bo‘lgan o‘g‘li Aleksandr o‘rtasidagi murakkab munosabatlar to‘g‘risida o‘zining «Qiyosiy tarjimayi hollar» asarida qiziqarli ma’lumotlarni keltiradi (qarang: Плутарх Filipp II ning rafiqasi Olimpiada o‘rtasida munosabatlar Filippning ishqiy sarguzashtlari, uning ko‘p nikohlari sababli yaxshi bo‘lmagan. Plutarx shunday hikoya qiladi: Filipp o‘z safdoshi Attalning jiyani Kleopatrani sevib qoladi va yoshi o‘tgan bo‘lishiga qaramasdan Kleopatraga uylanadi. Nikoh bazmida kelinning tog‘asi Attal shirakayf bo‘lib, makedonlarni ilohlarga duo o‘qib, Filipp va Kleopatradan qonuniy taxt vorisi tug‘ilishini so‘rashga chaqiradi. Bundan Aleksandrning jahli chiqib, Attalga qilich yalang‘ochlab tashlanadi. Filipp ham qilich yalang‘ochlab Aleksandrga tashlanadi. Bu janjaldan keyin Aleksandr Olimpiadani Epirga joylashtirib, o‘zi Illiriyaga ko‘chib o‘tadi. Attal va Kleopatra janjalidan jabr ko‘rgan Pavsaniy Filipp I dan adolat topmay uni o‘ldiradi. Bu jinoyatda eng ko‘p Olimpiadani ayblaydilar. Go‘yoki u g‘azabga mingan yosh yigitni harakatga kelishga qutqulaydi (Плутарх. Избранные жизнеописания, стр. – М.: Изд-во «Правда», 1987 г. стр. 369). Tarixiy adabiyotda Aleksandrning onasi Olimpiada Epir podshohi Neoptolemning qizi ekani aytiladi.

Filipp II o‘g‘lini davlat boshqaruv ishlariga asta-sekin torta boshladi. Aleksandr mil. avv. 340-yilda Shimoliy Yunonistonning tog‘li hududlaridagi qabilalar-

dan birining qo‘zg‘olonini bostiradi. Aleksandrning bosh tarbiyachisi va ustozi yaxshi qilichboz bo‘lgan Leonid bo‘lgan. Filipp II Aleksandrga o‘sha davrda hali mashhur bo‘lmagan faylasuf Aristotel (Arastu) 42 yoshli yunon faylasufi Aristotel ustozlikga chaqiradi. Aristotelning otasi makedon podshohi Aminta II saroyida tabib bo‘lgan. Aristotel yosh Aleksandrga falsafa va davlatni boshqaruv ilmidan saboq beradi.

Aleksandr Filipp II ning o‘limidan so‘ng, Filippga o‘xshab yunon shaharlarini Korinf shahriga to‘plab, o‘zini forslarga qarshi yurishda barcha yunonlarning yo‘lboshchisi deb tasdiqlashga majbur qildi. Barcha yunon shaharlari forslarga qarshi bo‘lajak urushda katta o‘ljalar olish umidi bilan bunga rozi bo‘ldilar. Faqat spartaliklar ularning an’analarida birovga tobe bo‘lishga rozi bo‘lish yo‘qligi, aksincha, ularning o‘zlari boshqalar ustidan yo‘lboshchilik qilishga odatlanganlarini aytdilar. Bosib olingan barcha hududlarda va yunon shaharlarida Filippning o‘limini eshitgan makedon qaramligiga qarshi norozilik harakatlari boshlandi. Aleksandr illirlar, frakiyaliklar, triballar va boshqa shimoli-sharqdagi xalqlarni noroziligini bostirdi. Yunonlardan birinchi bo‘lib fivaliklar zulmga qarshi bosh ko‘tardilar. Fivaliklar Kadma qal’asidagi makedon harbiy qismiga hujum qildilar. Boshqa yunon shaharlarini ozodlik uchun birgalikda kurashga chaqirdilar. Pelloponesda, Arkadiya, Elida va Etoliyada fuqarolar qurollanishni boshladilar.

Lekin Aleksandr tezkor harakat qilib, Fiva shahri oldida paydo bo‘ldi. U boshqa yunon shahar va qishloqlariga saboq bo‘lishi uchun Fiva shahriga nisbatan shafqatsiz choralarni ko‘rdi. Fiva shahri aholisidan 6 ming kishi jangda halok bo‘ldi, tirik qolgan 30 ming fivalik aholi qul qilib sotib yuborildi. Faqat qo‘zg‘olonga qarshi bo‘lganlar, makedonlar bilan bog‘langan bir necha fivalik va kohinlar tirik qoldirildi. Fiva shahri

to‘la buzib tashlandi. Fivaning qarshiligini bostirishda Aleksandrning ittifoqchilari beotiya, fokida va boshqalar ishtirok etdilar. Afina shahri Aleksandrning qahriga uchrashidan qo‘rqmay, bu shaharning jangda halok bo‘lgan fuqarolariga aza ochdi, fivalik qochoqlarni qabul qildi.

3. Yunon-makedonlarning sharqqa bosqini. Aleksandr Eron bilan bo‘lg‘usi urush katta tayyorgarlikni talab qilishini bilar edi. Bu forslarning hushyorligini yo‘qotish uchun Filipp davrida Kichik Osiyoda joylashtirilgan makedon harbiy qismini chaqirib oldi. Ammo Fors davlati mavjud makedon bosqiniga qarshi hech qanday tayyorgarlik ko‘rmadi. Ikki yildan so‘ng mil. avv. 334-yilda nihoyatda puxta tayyorgarlikdan keyin makedon qo‘shinlari Gellespont bo‘g‘ozidan o‘tib, Osiyo hududiga kirdi. Har ehtimolga qarshi, Makedoniyada Antipatr boshchiligida, bir qism askarlar qoldirildi. Qo‘shin 30 ming piyoda, 4 ming otliq, 160 harbiy kemadan iborat edi. Urush e’lon qilish uchun bahona bo‘lib, mil. avv. V asr o‘rtalarida forslarning harbiy yurishi vaqtida go‘yoki forslar yunon ibodatxonalarini oyoqosti qilgani bo‘ldi. Bu bahonadan Aleksandr yunon-makedon kuchlarini birlashtirishda foydalandi. Aslida Aleksandrning asosiy maqsadi sharqning afsonaviy boyliklarini bosib olish edi. Aristobulning ma’lumotlariga ko‘ra qo‘shin ta’minoti uchun Aleksandrning mablag‘i 70 talantga ham yetmagan, oziq-ovqat faqat 30 kunga yetarli bo‘lgan. Onekkritning ma’lumotlariga ko‘ra, Aleksandrning 200 talant qarzi ham bo‘lgan. Aleksandr sharqning boyliklariga ko‘z tikib, tavakkal qilib yurish boshladi.

Aleksandr Kichik Osiyoga qo‘shin tortdi. Yunon-makedohlarning yurishiga qarshi turishi kerak bo‘lgan Kilikiya satrapi Arzam ham xatoga yo‘l qo‘ydi. U Kilikiyaga o‘tiladigan yagona tor darani himoya

qilish chorasini ko‘rish o‘rniga Kilikiyani dushmanga kultepa holida quruq dashtga aylantirib qoldirish uchun butun hududga o‘t qo‘yib, barcha oziq-ovqat, yem-xashak zaxiralarini yo‘q qilib chekindi.

Forslar bilan jang Kichik Osiyoda o‘tish joyidagi Granik daryosi qirg‘og‘ida sodir bo‘ldi (mil. avv. 334-yil). Bu jangda yunon-makedonlar Eronning Kichik Osiyo satraplari qo‘shinlari bilan jang qildilar. Jangda fors satraplari mag‘lub bo‘ldilar. Bu jangdan so‘ng Sard va Gordiy shaharlari ishg‘ol qilindi. Yaxshi mustahkamlangan Sard shahri dengiz bo‘yi hududini himoya qiladigan asosiy qal’a edi. Aleksandr Kichik Osiyo qirg‘og‘idagi yunon shaharlariga kirib bordi va Kichik Osiyoning katta qismini bo‘ysundirdi. Galikarnas va Milet shaharlari forslarga sodiq qolib, makedonlarga taslim bo‘lmay qattiq qarshilik ko‘rsatdi. Galikarnasda qo‘shinga rahbarlik qilgan tajribali sarkarda Memnon kuchli qarshilik ko‘rsatdi. Memnon ko‘p sonli flotga ega bo‘lib, Aleksandrni Yevropadan ajratib qo‘yib, makedonlarga qarshi Yunonistonda qo‘zg‘olon ko‘tarishni rejalashtirdi. Lekin u Mitilenani himoya qilishda halok bo‘ldi. Kichik Osiyoda yunon makedonlar bosib olingan shaharlarda xalq hokimiyatini tashkil etdilar. Qaysiki, bu shaharlardagi zodagonlar forslarni qo‘llab-quvvatladilar.

Podshoh poytaxt Suzadan dushmanga qarshi qo‘shin bilan yo‘lga chiqdi. Bu vaqtda Doro III saroyida panoh topgan edi. Plutarxning aytishicha, makedon Aminta Kilikiya tor tog‘ daralari orqali yunon-makedon qo‘shinlariga qarshi yurihga hozirlanayotgan Doro I ga joyida qolib, keng tekislikda o‘z kuchlarini dushmandan ustunligidan foydalanib jang qilishga maslahat beradi. Doro I Aleksandrni Kilikiyada uzoq qolib ketganini qo‘rqoqlik hisoblab, Aleksandrni o‘zidan qochib qolmasligidan qo‘rqayotganini aytib, uning maslahatiga quloq solmay qarorgohidan

Kilikiya tomon yurishni boshlaydi. Aleksandr bu paytda forslarga qarshi Suriyaga qo‘shin tortdi. Tunda har ikki qo‘shin to‘qnash keldi va ikkalasi ham orqaga qaytdi. Doro I xatoga yo‘l qoyganini tushunib, qo‘shinni tor daradan chiqarib, eski qarorgohga qaytishga harakat qildi. Aleksandr esa jang uchun qulay joyni egallashga harakat qilib jangga tayyorlandi. Mil. avv. 333-yil kuzida Issa shahri yonida yunon-makedonlar Doro III qo‘shinlari bilan to‘qnashdilar. Aleksandrning maqsadi katta o‘lja olish bo‘lgani uchun u talonchilik va qaroqchilik kasbi bilan kun kechiradigan illir va frakiyaliklar fors qo‘shinlarini pul mablag‘lari uchun mas’ul bo‘lgan qimmatbaho kiyimlar va qurol-yarog‘li kishilardan ko‘z uzmaslik va ularni talash vazifasini topshirdi.

Fors qo‘shini jon-jahdi bilan bosqinchilar bilan jang qilsa-da, lekin yengildi. Yunon makedonlari juda katta qiyinchilik bilan g‘alaba qozondilar. Doro III chekindi, qarorgohdagi o‘z oilasini ham olib keta olmadi. Issa yonidagi jangdagi g‘alaba Aleksandrga Suriya va Falastin qirg‘og‘larini bosib olish uchun yo‘l ochdi.

Issa yonidagi jangdan keyin boylikka chanqoq bo‘lgan Aleksandr fors podshohining Damashqdagi xazinasini qo‘lga kiritish uchun harbiy qismni jo‘natdi. Damashqdagi noib Doro III ga xiyonat qilib o‘ziga ishonib topshirilgan Damashqda saqlanayotgan podshoh xazinasini o‘z qo‘li bilan dushmanga topshirdi (2600 talant miqdoridagi tanga-pul mablag‘i, 500 funt miqdoridagi kumush buyumlar). Bundan tashqari 30 ming asir, 7 ming yuk aravalari otlari bilan bosqinchilar qo‘liga tushdi. Bu o‘ljalar Aleksandr qo‘shinlarining ta’minotini ancha yaxshiladi. Lekin xoin yonida bo‘lgan, o‘z vataniga sodiq qolgan bir fors xoinni o‘dirib, uning kallasini podshohga olib keladi. Damashq shahrida marhum fors podshohi

Artaksreksning rafiqasi, Doro III ning ukasining qizi va bir necha oliy darajali saroy ayonlarining oilalari asir olindi. Makedoniyaning yunon shaharlari ustidan hukmronligidan norozi bo‘lgan va fors podshohi huzuriga yordam so‘rab kelgan, Damashqda turgan spartalik va afinaliklar: Afinada xalq o‘rasida katta o‘bro‘-e’tiborga sazovor bo‘lgan zodagon afinaliklardan Aristogiton, Dronid va Ifikrat, o‘z vatani Spartada obro‘li zodagon oilalardan bo‘lgan spartaliklar Pavsipp, Onomastorid, Monim va Kallikratid makedonlarga asir bo‘ldilar.

Finikiyadagi Sidon shahri jangsiz taslim bo‘ldi. Lekin Tir va G‘azo shaharlari bosqinchilarga qattiq qarshilik ko‘rsatdi. Kuchli mustahkamlangan Tir shahri bosqinchilarga qattiq qarshilik ko‘rsatdi. Yunon-makedon qo‘shini 7 oy shaharni qamal qildi. Karfagen yunon-makedonlar Tir shahriga hujum qilgan harbiy yordam berishni va’da qilgan edi. Lekin dushman Tir shahrini qamal qilgan vaqtda, Karfagen shahrini o‘zini sirakuzaliklar qamal qilishni boshladi. Karfagen va’da qilingan harbiy yordamni bera olmadi, lekin uzr so‘rab elchilarni jo‘natdi. Shunga qaramasdan Tir shahri aholisi dushmanga taslim bo‘lmadi. Yunon-makedon qo‘shini Tir shahrini ishg‘ol qilishga katta kuch sarfladi. Doro III ga xiyonat qilib, Aleksandr tomoniga o‘tgan Kipr hokimi Tir qamaliga Aleksandrga yordam uchun kemalar yubordi. Tir shahri ishg‘ol qilinib, aholisining katta qismi qirib tashlandi. Aleksandr Tir shahriga ittifoqchi bo‘lgan Karfagen davlatiga urush e’lon qildi, lekin bu urush keyinga qoldirildi.

Finikiyadagi ikkinchi shahar G‘azoning bosib olinishi yunon-makedonlarga mil. avv. 332-yilda Misrga yo‘l ochdi. Memfis yaqinida bu shahar himoyasi uchun mas’ul bo‘lgan fors harbiysi Mazan Aleksandrga 800 talantni va fors davlatining barcha mol-mulki-

ni topshirdi. Misrda turgan fors qo‘shinlari qarshilik ko‘rsatmadilar, Misrda Doro III yordamidan mahrum bo‘lgan fors satrapi g‘oliblarga taslim bo‘ldi. O‘rtayer dengizi qirg‘og‘ida, Nil daryosi bo‘yida mil. avv. 331-yilda Iskandariya shahriga asos solindi. Bu shahar kelajakda Misrda Ptolemeylar sulolasining qarorgohi va ilm-fan markaziga aylandi. Aleksandr Misrda o‘z hukmronligini mustahkamlash maqsadini ko‘zlab, Memfis shahrida toj kiydi.U Misrni boshqarishni bir qism misrliklarga, bir qism makedonlarga va bir qism yunonlarga topshirdi. Lekin harbiy hokimiyat Memfis shahri va boshqa shaharlarda joylashtirilgan makedon garnizonlari qo‘lida qoldi.

Mil. avv. 331-yil bahoridan Sharqqa yurishning ikkinchi bosqichi boshlandi. Ahmoniylar davlatining Kichik Osiyo, Suriya va Finikiyaning gavjum savdo-hunarmandchilik markazlarini bosib olgan yunon-makedonlar juda katta miqdorda moddiy boyliklarga ega bo‘ldilar. Aleksandr uchun bu mablag‘ sharqqa yurishni davom ettirish uchun katta imkoniyat yaratdi. Podshoh Doro mamlakatni barcha hududlaridan harbiy qismlarni Bobil shahriga to‘plab, hal qiluvchi jangga tayyorlana boshladi. Dajla daryosidan uzoqda bo‘lmagan Gavgamela («tuya uyi») qishlog‘i yaqinida mil. avv. 331-yil 1-oktabr kuni fors qo‘shini bilan yunon-makedon qo‘shinlari o‘rtasida hal qiluvchi jang bo‘ldi. Jang boshlanishida fors qo‘shini dushman qo‘shinining o‘ng qanotini yanchib tashladi. Markazda Aleksandr fors qo‘shinining o‘rtasiga o‘z otliqlari bilan suqilib kirdi. Forslar jang aravalari va fillarni jangga tashladilar. Ammo Doro III Issa yonidagi jangda bo‘lganidek, davom etayotgan jangni yutqazilgan deb hisoblab, chekindi. Ahmoniylar davlatining so‘nggi podshohi Doro III Baqtriyada o‘z yaqinlaridan biri Baqtriya satrapi Bess tomonidan o‘ldirildi.

Aleksandr qo‘shinlari jadallik bilan butun Mesopotamiyani bosib o‘tib, Suza shahri va Ahmoniylar davlatining markaziy hududlariga kirib bordilar. Aleksandr Suza shahridagi Ahmoniylar saroyi xazinasidan 50 ming talant tilla va kumush quymaga ega bo‘ldi. Bobil va boy Suza shahri, Eronnig muqaddas markazi Persepol jangsiz bosib olindi. Suza va Persepol shaharlaridagi Ahmoniylarning boy xazinalari Iskandarning qo‘liga o‘tdi. Mil. avv. 330-yil Persepol saroyini yondirish bilan Iskandar Fors davlati ustidan g‘alabasini ramziy belgiladi. Fors podshohlarining asosiy xazinasi Pasargadda edi. Aleksandr afsonaviy o‘ljaga ega bo‘ldi. Forslarga qarshi urushning maqsadi ham ahmoniylarning asrlar davomida to‘plagan afsonaviy boyliklarini qo‘lga kiritish edi. Plutarxning ma’lumoti bo‘yicha Persepoldagi xazinani olib ketish uchun 10 ming arava, 5 ming tuya kerak bo‘lgan. Faqat quyma tillaning o‘zi 120 ming talant (3144 tonna) bo‘lgan. Juda oddiy turmush tarzida yashagan yunon-makedonlar uchun bu quloq eshitmagan afsonaviy boylik edi.

Aleksandr forslarni o‘z lavozimlarida qoldirdi. Bu makedon qo‘shinida norozilik tug‘dirdi. Girkaniya satrapligining markazi Gekatompl shahrida ittifoqchi yunon polislarining qo‘shinlari rasmiy tarqatildi. Shu bilan birga, yunonlarga Aleksandrning yollanma askarlari sifatida yurishni davom ettirish taklif qilindi. Aleksandr urushni davom ettirishga ahd qildi. Harbiy yurishda har bir yunon makedon askari katta o‘ljalarga ega bo‘ldi, biroq yana urushni davom ettirishni istamadi. Aleksandr qo‘shin qarshiligini qiyinchilik bilan yengib, yana oldinga siljidi. Iskandar mil. avv. 329-yilda Amudaryodan o‘tib, O‘rta Osiyoga kirdi. Bu yerda yunon-makedonlar uch yil davomida mahalliy xalqlarni bo‘ysundirishga urindilar. Spitamen boshchigida sak-massagetlar, so‘g‘dlar bosqin-

chilarga qarshi ozodlik urushi olib bordilar. Bosqinchilar shahar va qishloqlarni vayron qildilar, aholini mol-mulkini tortib oldilar. Spitamen boshchiligida sak-massaget va so‘g‘dlar dushmanga qarshi qattiq turib vatanni himoya qildilar va bosqinchilarni bir necha marta mag‘buliyatga uchratdilar. Lekin mil. avv. 328-yil kuzida Spitamen o‘ldirildi. Aleksandrga qarshi mahalliy aholini qarshilik ko‘rsatishi tugamadi. Noiloj qolgan Iskandar mahalliy zodagonlarni sovg‘a-salom bilan o‘z tomoniga og‘dirib olishga urindi. U So‘g‘d viloyatlarining birini hokimi Oksiartning qizi Roksanaga uylandi. Lekin u g‘arb tarixiy adabiyotlarida aytilganidek, O‘rta Osiyo xalqlarini bo‘ysundira olmadi. Aleksandr askarlari hosildor vodiylar, cho‘l va sahrolardan iborat bu bepoyon hududning Zarafshon vodiysi va Sirdaryo qirg‘oqlarigacha bordi xolos. O‘z vaqtida bu bepoyon hududning ozgina qismi Ahmoniylar davlati nazoratida bo‘lgan edi. Yunon-makedonlar faqat Zarafshon vohasida Marokand (Samarqand) shahrini bosib olgani to‘g‘risida ma’lumot bor xolos.

Rivoyatlarga ko‘ra, Aleksandr O‘rta Osiyoda o‘z tayanch nuqtasi sifatida 12 shahar qurdiradi. Ammo bu shaharlarning xarobalari topilgani yo‘q. Bu afsona albatta. Shahar birdaniga 1-2 yilda yuzaga kelmaydi, o‘sha davr holatiga ko‘ra shaharning qurilishi uchun ulkan mablag‘ va yuz minglab ishchi kuchi kerak bo‘ladi. Qadimgi davrda bir qishloqni shaharga aylanishi uchun yuz yil vaqt ketgan. Aleksandr bunday moliyaviy va odam resurslariga ega emas edi. Dushman yurtida xavf-xatar juda kuchli bo‘lgan bir paytda shahar qurilishi bilan shug‘ullanish tasavvurga sig‘maydi yoki sog‘lom mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi. U o‘z askarlari xavfsizligini ta’minlash uchun tuproqdan ihotalangan yoki xandaqlar bilan o‘rab olingan qarorgoh qurgan bo‘lishi mumkin. Ta-

rixda Aleksandrning O‘rta Osiyoda qurgan tayanch nuqtalardan ikkitasi hozirgi Xo‘jand shahri yaqinida Aleksandriya Esxata (Uzoqdagi Aleksandriya), Afg‘onistonda Hirot shahri yaqinida Aleksandriya Ariya qal’asi ma’lum.

Mil. avv. 327-yilda Iskandar Hinduqush tog‘lari orqali Hindistonga o‘tdi. Bosqinchilarga qarshi mahalliy aholi kurash boshladi. Jang san’atini puxta egallagan yosh jangchilardan tuzilgan harbiy qismlar shahardan shaharga o‘tib, Aleksandr qo‘shinlariga kuchli zarbalar berdilar. Shunda Aleksandr makkorona reja tuzdi. Shaharlardan birida u o‘z vatani himoyachilari bo‘lgan bu o‘glonlar bilan tinchlik shartnomasini tuzdi. Lekin ular shahardan chiqqandan keyin Aleksandr munofiqlarcha yo‘lda ularga hujum qilib, barchasini qirib tashladi. Hind faylasuf olimlari vatanga xiyonat qilib, Aleksandr bilan hamkorlik qilgan mahalliy hokimlarni la’natladilar va xalqni vatan himoyasi uchun jangga chorladilar. Aleksandr bu olimlarning ko‘pchiligini qatl etdi, lekin xalqning qarshiligini sindira olmadi. Shimoliy Hindistondagi Gidas daryosi bo‘yida Iskandar qo‘shinlari Panjob hukmdori Por qo‘shinlari bilan to‘qnashib, o‘zining oxirgi g‘alabasiga erishdi (mil. avv. 326-yil). Iskandarning qo‘shini yurishni davom ettirishni istamaydi va buyruqlarini bajarmay qo‘ydi. Iskandar qo‘shinni yurishni davom ettirishga ko‘ndirishga urindi, ammo qo‘shin ko‘nmadi. Ikki kunlik muzokaralardan so‘ng Aleksandr yon berishga majbur bo‘ldi. Vatanga qaytish to‘g‘risida buyruq berildi. Aleksandr qo‘shinlarining qaytishi ikki yilga cho‘zildi. Qo‘shinning bir qismi dengiz orqali, bir qismi quruqlik yo‘li orqali ortga qaytdi. Qo‘shinning har ikkala qismi mil. avv. 324-yil Bobilda uchrashdi.

Yurishning tugallanayotgan bosqichida Suza shahrida Iskandar makedon va forslarni murosaga

keltirish belgisi sifatida o‘zining 10 ming askarlarini mahalliy aholining qizlari bilan nikoh to‘yini katta tantana bilan o‘tkazdi. Makedonlar fors podshohi Buyuk Kayxusravning maqbarasini talon-taroj qildilar. Suzada Aleksandr yaqin do‘stlari va sarkardalar uchun katta ziyofat uyushtirdi. Ziyofatda Aleksandr spirtli ichimlikni eng ko‘p ichish bo‘yicha bellashuv uyushtirib, g‘olib gulchambar bilan taqdirlanishini e’lon qildi. Promax ismli harbiy 4 oygacha ichimlik ichib g‘olib bo‘ldi, lekin 3 kundan keyin vafot etdi. Undan tashqari 41 kishi mayxo‘rlikdan keyin qaltiroq tutib o‘ldi. Makedoniyaning poytaxti Pellaga qaytishni istamagan Iskandar o‘z davlatining poytaxti qilib qadimgi shahar Bobilni tanladi. U Kaspiy dengizini o‘rganish uchun tekshiruvchi ekspeditsiya tashkil qildi. Arabiston yarim oroli qirg‘oqlarini tekshirishga buyruq berdi.

Aleksandr yurishlari natijasida g‘arbda Adriatika dengizidan sharqda Hindistongacha, shimolda Kavkaz tog‘laridan janubda Nil daryosining o‘rta oqimigacha cho‘zilgan hududda yunon-makedonlarning yurishi sodir bo‘ldi. Bu yurish natijasida savdo-hunarmandchilik markazlari bo‘lgan shaharlar yunon-makedon qo‘shinlari tomonidan talandi va vayron qilindi. Bosib olingan hududlarda xo‘jalik hayoti izdan chiqdi. Minglab aholi urush qurboni bo‘ldi, asirga tushgan yuz minglab kishilar qul qilib sotib yuborildi. Aleksandr hech vaqosiz sharqqa yurishni boshlab, ulkan boyliklarni qo‘lga kiritdi. Qo‘lga kiritilgan o‘ljalar uni yana yangi hududlarga yo‘l ochishga imkon berdi. Katta miqdorda o‘ljalarni qo‘lga kiritgan yunon-makedonlar boshqa jang qilishni istamay yurishdan bosh tortdilar. Aleksandr orqaga qaytishga majbur bo‘ldi. U mil. avv. 323-yil 32 yoshida bezgak kasalidan Bobil shahrida vafot etdi. Aleksandrning safdoshlari hokimiyat uchun kurash

boshladilar, ularning har biri Aleksandrning jasadini o‘zi bilan olib ketishni va bu jasad uning hokimiyatini mustahkamligi garovi deb bildi. Ptolemey mayitni o‘g‘irlab, Misrga jo‘natdi. Uni yo‘lda faqat Perdikka ta’qib qildi. Ptolemey pana-pastqam yo‘llar bilan mayitni Misrga 3 yilda olib keldi. Misrda Ptolemey o‘z davlatining poytaxti sifatida Aleksandriya shahrini tanladi. Aleksandriyada Ptolemey Aleksandr jasadini mo‘miyolab oltin tobutda saqladi, keyinchalik shisha tobutga almashtirildi. Aleksandr jasadining qoldiqlari Vizantiya imperatori Yustinian (532 – 567) davrida yo‘q qilinadi.

5. Diadoxlar urushi. Aleksandr vorisini rasmiy jihatdan tayinlashga ulgurmadi. Uning o‘limi vaqtida makedon taxtiga qonuniy da’vogarlar bo‘lmay, Aleksandrning xotini so‘g‘d malikasi Roksana hali homilador edi. Pergamda Iskandarga asir tushgan fors satrapi Artabazning qizi Barsinadan 4 yoshli noqonuniy o‘g‘li Gerakl qolgan edi. Taxtga Filipp II ning aqli zaif, noqonuniy o‘g‘li Arridey ham da’vo qilishi mumkin edi. Makedoniyada Aleksandrning onasi Olimpiada va bir guruh yaqinlari Roksana agar o‘g‘il tuqsa, uni podshoh deb e’lon qilish, uning go‘dakligi davrida hokimiyatni tajribali sarkarda Perdikka boshchigida davlat kengashiga topshirish lozim deb hisobladilar. Harbiy boshliqlar va saroy a‘yonlarining boshqa bir guruhi Arridey nomzodini yo‘qlab chiqdilar. Obro‘li sarkarda Nearx makedon taxtiga birdan-bir da’vogar Gerakl bo‘lishi mumkin deb hisobladi. Aleksandrning yana bir safdoshi sarkarda Ptolemey Lag boshchiligida yana bir guruh podshohni saylash kerak emas, chunki Aleksandrning o‘g‘illarini onalari sharq ayollari, uning asiralaridir, oqibatda bunday da’vogarlarni taxtga chiqarish hamma vaqt noqonuniy bo‘ladi deb hisobladilar.

Aleksandrning safdoshlari (diadoxlar) u vafot etgan lahzadayoq hokimiyat uchun kurashni boshladilar. Aleksandrning jasadi yotgan xonada sarkardalar o‘rtasida janjal boshlandi. Qo‘shin bu janjaldan xabar topib, Filipp II ning o‘g‘li Arrideydan boshqa biror bir nomzodni ko‘rishni istamasligini e’lon qildi. Sarkardalar qo‘shinni g‘azabidan qo‘rqib shosha-pisha Arrideyni olib keldilar. Askarlar olomoni yig‘ilib, Arrideyni podshoh deb e’lon qildilar va unga podshohlik kiyimlarini kiydirdilar. Sarkarda Meleagr boshliq 300 askar bu qarordan norozi bo‘lib yig‘inni tashlab ketdi. Arrideyning podshoh tojini kiyishi oddiy askarlarning tanlovi bo‘lib, sarkardalarning har biri boshqa fikrda edilar.

Qo‘shinning navbatdagi yig‘inida sarkarda Meleagrga uning raqibi Perdikka tomonidan ixtiloflar sababchisi deb ayb qo‘yildi va u o‘z tarafdorlari bilan qatl qilindi. Notinch qo‘shin Bobil shahriga joylashtirildi, shundan so‘ng sarkardalar davlat boshqaruvini tashkil etish uchun kengash qurdilar. Podshoh oliy hokimiyat egasi deb e’tirof etildi. Qo‘shin sarkardalari o‘rtasida viloyatlar, shaharlar taqsimlandi. Ptolemeyga Misr va unga qo‘shni urug‘-qabilalar; Laomedontga Suriya va Finikiya; Filotga Kichik Osiyodagi Kilikiya; Antigonga Likiya, Pamfiliya va Buyuk Frigiya; Kassandrga Kariya, Menandrga Lidiya; Leonnatga Gellespontga yaqin bo‘lgan Kichik Frigiya; Yevmenga Kapadokiya va Paflagoniya boshqaruvga berildi. Kichik Osiyoning shimoli sharqida bosqinchi makedonlarga bo‘ysunmagan va mustaqilligini saqlab qolgan ahmoniylar satrapi Ariarat makedonlarga qarshilikni davom ettirdi. Evmenga bu bo‘ysunmagan satrapga qarshi urush ochish topshirildi; Pitonga Midiya, Lisimaxga Frakiya (hozirgi Bolgariyadagi hudud) va unga qo‘shni bo‘lgan Pont(Qora dengiz) bo‘yigacha bo‘lgan hududlar berildi. Perdikka podshoh Arridey

huzurida qolib, qo‘shinga boshchilik qilib podshohga hamrohlik qiladigan bo‘ldi. Barcha yangi saylangan hokimlar o‘zlariga ajratilgan harbiy qismlari bilan boshqarishga ajratilgan hududlarga jo‘nab ketdilar. Aleksandrning ana shu safdoshlari (diadoxlar) o‘zlariga berilgan hududlarga qanoat qilmay va boshqalarning mulkiga egalik qilish uchun uzoqqa cho‘zilgan qonli urushlarni boshladilar.

Ahmoniylar davlati halokatidan so‘ng Old va O‘rta Osiyoda siyosiy boshboshdoqlik hukm surdi. Bu ulkan hududda taraqqiyotning turli bosqichlarida turgan yuzlab etnoslar yashar edi. Hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar zaif edi. Shu sababli bu hududlar Ahmoniylar davlat boshqaruvi halokatga uchrashi bilan yana o‘z an’anaviy hayotida yashashni davom ettirdi. Faqat siyosiy-iqtisodiy markazlarda hokimiyatni qo‘lga olgan kishi atrofdagi hududlarga hech qanday qarshiliksiz hokimiyatni egallash imkoniyatiga ega bo‘ldi. Yunon-makedon sarkardalari ana shu vaziyatdan foydalandilar. Va joylarda birin-ketin hokimiyatni osongina bosib oldilar.

Aleksandrning sarkardalari sharqqa yurish davrida katta o‘ljalarga ega bo‘ldilar, o‘zlari yurish qilgan hududlarda tanish-bilish orttirdilar, ana shu obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan odamlar mablag‘ va harbiy qismlarga ega bo‘lgan yunon makedon sarkardalariga hokimiyatni bosib olishga yordam berdilar. Viloyatlarda hokimiyatni egallagan sarkardalar markaziy hokimiyatga, ya’ni podshohga bo‘ysunishni istamadilar, aksincha mustaqil davlat tuzishga intildilar. Qaysiki, Makedoniya davlatchiligi hech qanday davlat boshqaruvi tajribasiga ega bo‘lmay, Filipp II davrida ham markaziy davlat organlari shakllanmagan edi.

Oradan bir oz vaqt o‘tmay Aleksandrning bevasi Roksana o‘g‘il farzand ko‘rdi. Unga Aleksandr deb nom berildi. Hukmdor podshoh Arridey-Filipp III bilan

birga Roksananing o‘g‘li Aleksandr IV nomi bilan podshoh deb e’lon qilindi. Osiyodagi qo‘shinlar qo‘mondoni bo‘lgan Perdikka yana regent etib tayinlandi. Perdikka sarkardalarning joylardagi separatizmini tugatishga harakat qildi. Aleksandrning o‘limidan keyingi ikki yil davomida yunon shahar-davlatlari makedon zulmidan ozod bo‘lishga urindi. Yunoniston va Makedoniya hokimi Antipatr yunon shaharlarining birlashgan qo‘shinlarini tor-mor qilib, bu yerga makedon garnizonlarini joylashtirdi. Mil. avv. 321-yilda boy Misrda o‘rnashib olgan Ptolemey Perdikkaning regentligini tan olmadi. Antigon va Antipatr ham Perdikkaning Misrga yurishiga sovuqqonlik bilan qaradilar. Perdikkaning yaqinlari Salavk va Pifon unga qarshi fitna uyushtirdilar. Perdikka mil. avv. 321-yilda Misrga qo‘shin tortdi, yurish paytida Perdikka Memfis yaqinidagi qarorgohda g‘animlari sotib olgan o‘z suvoriylari tomonidan o‘ldirildi. Shu yili Suriyadagi Triparadis shahrida o‘tkazilgan makedon sarkardalarining kengashida davlat regenti etib Yunoniston va Makedoniyaning hokimi keksa Antipatr saylandi va sarkardalar o‘rtasida hududlar qisman qayta taqsimlandi. Antipatrning buyrug‘i bilan podshohning oilasini xavfsizligini ta’minlash uchun Makedoniyaga ko‘chirildi.

Sarkardalar o‘zlari egallagan hududlarda o‘z hokimiyatlarini mustahkamladilar. Ptolemey Lag Misrda, bir ko‘zli Antigon Kichik Osiyoda, Antipatr va Kassandr Yunoniston va Makedoniyani boshqardilar. Aleksandrning so‘nggi yillaridagi yurishlarida tanilgan sarkarda Salavk Bobilda boshqaruvni o‘z qo‘liga oldi. Aleksandrning shaxsiy tansoqchisi bo‘lgan Lisimax Frakiya va Qoradengiz bo‘gozlari hududini egalladi. Bu o‘zgarishlardan ikki yil keyin mil. avv. 319-yilda Antipatr vafot etdi. U regentlikka voris etib

keksa va tajribali harbiy boshliq Poliperxontni tayinlashga ulgurgan edi.

Ammo yuzaga kelgan bu vaziyat Aleksandrning yaqinlaridan, hokimiyatga ega bo‘lgan yosh sarkardalarni qanoatlantirmadi. Jumladan, Antipatrning bu qaroridan uning o‘g‘li Kassandr ham norozi bo‘ldi. Kassandr otasidan hokimiyat voris sifatida o‘ziga qolishi kerak deb hisobladi. Poliperxontdan regentlikni tortib olish uchun sharqdagi sarkardalar Lisimax, Antigon va Ptolemey o‘zaro ittifoq tuzdilar. Ittifoqchilarning har biri yunon shaharlari va Makedoniya hisobidan o‘z mulklarini kengaytirishni ko‘zladilar. Lisimax, Antigon va Ptolemey Yunonistonda urush boshlab, ularning har biri turli siyosiy guruhlarni o‘z tomoniga og‘dirishga urindi. Poliperxont ham hokimiyatni o‘z qo‘lida saqlab qolish uchun Afinada demokratiya tarafdorlarini hokimiyat tepasiga keltirdi.Demokratlar oligarxlarni qatl etib, mol-mulklarini musodara qildilar. Ittifoqchilar Poliperxontning yollanma qo‘shini ustidan g‘alaba qildilar. Natijada mil. avv. 316-yilda Poliperxont regentlikdan chetlashtirildi. Kassandr butun Yunonistonni egallab oldi va Afinada oligarxlar hokimiyatini tikladi. Lekin Kassandrning kuchayib ketishidan ittifoqchilar tashvishga tushib qoldilar, oqibatda ittifoq tarqaldi. Antigon va Iskandarning sobiq kotibi Yevmen norozi bo‘ldilar. Iskandar bosib olgan hududlarni bir davlatga birlashtirishdek xayoliy orzu qilgan davlatining yaxlitligini saqlab qolishga uringan Yevmen edi. U makedon podshohligining «qonuniy» podshohlari nomidan harakat qildi. Yevmen qator sabablarga ko‘ra, hech qanday hudud va qo‘shinga ega bo‘lmagan birdan-bir sarkarda edi. Lekin Yevmenning qo‘lida Aleksandrning sharq yurishlaridan bosib olgan katta miqdordagi pul mablag‘lari mavjud edi. Yevmen bir necha shaharlardagi ana shu mablag‘lar hisobiga

katta yollanma qo‘shin to‘plab, Bobil va Eronni bosib olishga urindi.

Yevmen diadoxlarning hokimiyatiga xavf solgani uchun diadoxlar unga qarshi birlashdilar. Antigon Bobil va Midiya satraplari Pifon va Salavk bilan Yevmenga qarshi ittifoq tuzdi. Bu ittifoq Yevmenga qarshi urush boshladi. Mil. avv. 316-yilda Gabiyen yonida (Midiya va Eron chegarasi) Yevmen bilan Antigon armiyalari o‘rtasida hal qiluvchi jang bo‘ldi. Yevmenning yollanma qo‘shinlarining xoinligi jangni Antigon foydasiga hal qildi. Yevmen asir olinib, qatl qilindi. Yevmen ustidan g‘alaba Antigonni Osiyodagi viloyatlar ustidan hukmronligini ta’minladi. Antigon Salavkdan Bobilni tortib oldi, Salavk Misrga Ptolemey saroyidan panoh topdi.

Aleksandr oilasining halokati. Mil. avv. 317-yilda Aleksandrning onasi Olimpiada hokimiyatni faqat Roksananing o‘g‘liga qoldirish uchun podshoh Filipp Arridey va uning xotini Evridikani o‘ldirishga buyruq berdi. Shundan so‘ng, uning o‘zi Kassandr tomonidan qatl qilindi. Roksana va Iskandar IV Kassandrning asirligida bir necha yil ushlab turildi. Kassandr Aleksandrning kichik singlisi Fessalonikaga uylangan bo‘lib, o‘zini voris deb hisoblab, podshohlik tojini orzu qildi va bunga erishish uchun bu yo‘lda turgan xavfli raqiblarni yo‘q qilishga kirishdi. Aleksandrning o‘g‘li hozircha hayot ekan, Kassandr o‘zini noqulay sezar edi. Kassandrning buyrug‘i bu bilan Amfipol noibi Roksana va uning o‘g‘lini yashirincha o‘ldirib, ularni dafn qildi (mil. avv. 311 – 310-yillar).

Bir necha yildan so‘ng Kassandr keksayib qolgan Polisperxont bilan maxfiy shart asosida tinchlik shartnomasini tuzdi. Shartga ko‘ra, Polisperxont Aleksandrning Barsinadan bo‘lgan o‘g‘li, taxtga qonuniy da’vogar 17 yoshli Gerkulesni zaharlab o‘ldirishi kerak edi. Polisperxont bu yovuzlikni amalga

oshirib, siyosatdan chetlashdi. Polisperxont qotillik evaziga Etoliya va Epirda o‘ziga berilgan mulklarda qolgan umrini o‘tkazdi. Aleksandrning katta opasi Epir malikasi beva Kleopatra Sard shahrida yashab turgan edi. Malikaning qo‘lini Salavk so‘radi. Bundan xabar topgan Antigon o‘zi uchun xavfli raqib bo‘lgan Salavkni malika bilan nikohiga yo‘l qo‘ymaslik chorasini ko‘rdi. Antigon malikaning kanizaklarini katta pul bilan sotib oldi. Antigonning buyrug‘i bilan malikani o‘z kanizaklari o‘ldirdilar. Shundan so‘ng Antigon kanizaklarni ham qatl qilishni buyurib, malikani favqulodda dabdaba bilan dafn ettirdi.

Sarkardalar (diadoxlar) urushining so‘nggi davri. Kuchayib ketgan Antigonga qarshi Kassandr, Lisimax, Ptolemey va Salavk o‘rtasida ittifoq tuzildi va Antigonga qarshi 14 yil davom etgan urush boshlandi. Antigon bilan Ptolemey o‘rtasida Yunonistonda urush boshlandi. Salavk mil. avv. 312-yilda Bobilni egalladi. Mil. avv. 306-yilda Antigonning o‘g‘li Dimitriy Poliorket (qamal uskunalarini ixtiro qilgani uchun «shaharlarni qamal qiluvchi» laqabini oldi) Afinadan Kassandrning makedon qo‘shinlarini haydab chiqardi. Dimitriy Afina va Megarada o‘z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida bu shaharlar uchun erkinlik va demokratiya e’lon qilindi. Qachonlardir Filipp va uning o‘g‘li Aleksandrdek, Dimitriy ham yunonlarni Korinfga to‘plab, o‘zini Makedoniyaga qarshi yo‘lboshchi deb e’lon qilishga ularni majbur qildi. Dimitriy Kipr yonidagi dengiz jangida Ptolemey flotini batamom yanchib tashladi. Shundan so‘ng o‘zini kuchli deb his qilgan Antigon barchaga xat yozib, o‘zini podshoh deb atashlarini talab qildi. Mil. avv. 306-yilda Antigondan keyinroq Ptolemey, Lisimax, Salavk va Kassandr ham o‘zlarini podshoh deb e’lon qildilar. Bu vaqtda Old Osiyoda va Bolqon yarim orolida Ahmoniylar hukmronligidan so‘ng dav-

lat hokimiyati inqirozga yuz tutgan edi. Sarkardalar o‘zaro urushib, hokimiyat talashayotgan edilar. Old Osiyodagi savdo-hunarmandchilik rivojlangan shaharlar va qishloq joylaridagi dehqonchilik jamoalari o‘z xo‘jalik hayotlari bilan band edilar. Natural xo‘jalikka asoslangan iqtisodiyot davlat hokimiyatiga deyarli muhtoj emas edi. Yuzaga keladigan muammolar urf-odat va an’analarga asoslanib, urug‘-qabila kengashida hal etilar edi.

Ptolemey, Salavk va Lisimax 80 yoshli Antigon va uning o‘g‘li Dimitriyga qarshi ittifoq tuzdilar. Ittifoqchilar bilan birga Salavk 100 jang aravasi va 480 jangovar fillar bilan Frigiyadagi Ips yonida (mil. avv. 301-yil) Antigon va Dimitriyga qarshi jang qildilar. Jangda Aleksandrning safdoshlaridan biri Osiydagi viloyatlar hokimi 80-yoshli Antigon o‘ldirildi. Uning o‘g‘li Dimitriy qolgan-qutgan askarlari bilan qochishga ulgurdi. Lisimax Kichik Osiyoni to‘la egalladi. Salavk Tavr tog‘laridan Hindistongacha bo‘lgan yerlarni Suriya va Finikiya bilan birga egalladi. Mil. avv. 301-yilda Antigon, 297-yilda Kassandr, 284-yilda Dimitriy Poliorket, 281-yilda Lisimax, 283-yilda Ptolemey Lag va 281-yilda Salavk vafot etdi. Aleksandrning eng oxirgi safdoshi Salavkning halokati bilan diadoxlar davri tugadi. Ularning o‘rniga mustaqil davlatlar podshohlari (epigonlar) avlodi keldi.

Aleksandr vafotidan so‘ng, uning eng yaqinlari diadoxlar o‘rtasidagi 40 yillik urush natijasida: Makedoniya (unga bo‘ysundirilgan Yunoniston), Misr (Suriyaning janubiy qismi va Kichik Osiyoning ba’zi viloyatlari) va Salavkiylar davlati (Osiyodagi ayrim viloyatlar) paydo bo‘ldi. Ulardan tashqari, bu davrda bir qancha katta-kichik davlat birlashmalari: Yunon-Baqtriya va Parfiya podshohliklari Pergam, Pont, Vifiniya, Kappadokiya kabi kichik davlatlar tashkil topdi.

MIL. AVV. III – I ASRLARDA OLD OSIYO

«Misrliklar o‘z o‘tmishlari xotiralarini tosh va iyerogliflarda mustahkam saqlaganliklari, bugun bizga to‘rt ming yil o‘tishi bilan, ularning podshohlari hukmronlik yillarini aniq belgilashimiz imkonini berdi; ularning jasadlarini ham abadiylashtirdilar; shu sababli buyuk fir’avnlar – hayratomuz ulug‘likning ramzlari – ajoyib saqlanib qolgan yuz tuzilishlari bilan endilikda bizning muzeylarda saqlanib qolgan, doriylar vaqtidagi podshohlardan esa hatto ismlari ham qolmadi».

O. Shpengler

1. Aleksandr imperiyasi to‘g‘risidagi afsona.
2. Ellinizm tushunchasi.
3. Misr davlati va jamiyati (mil. avv. 323 – 30-yillar).
4. Salavkiylar davlati.
5. Pergam.

1.Aleksandr imperiyasi to‘g‘risidagi afsona. Makedoniyalik Aleksandrning bosqinchilik yurishlari u bosqin qilgan hududlarning xalqlariga behisob kulfatlar keltirdi. Asrlar davomida gullab-yashnagan savdo-hunarmandchilik va madaniyat o‘choqlari xarobaga aylandi. Madaniy-ma’naviy boyliklar yo‘q qilindi. Shaxsan Aleksandrning o‘zi Zardushtiylik e’tiqodining muqaddas kitobi Avestoning katta qismini yo‘q qiladi va qolgan bir qismini o‘zi bilan olib ketadi. Ahmoniylar davlatining poytaxtlaridan biri Suza saroyi talon-taroj qilindi, unda saqlangan xazina va boyliklar minglab aravalarda tashib ketildi. Saroyning devor va ustunlariga qoplangan oltin-kumush bezaklar buzib olindi va noyob san’at namunasi bo‘lgan saroyning o‘zi vahshiyona yoqib yuborildi. Aleksandr yurishlaridan keyingi 40-50 yil ham o‘zaro urushlar, hokimiyat, hududlar uchun kurash Old

Osiyoning iqtisodiy-madaniy hayotini izdan chiqardi. G‘arb tarixiy adabiyotida Aleksandr imperiyasining yemirilishi tushunchasi keng tarqalgan. Aslida Aleksandr imperiyasi bo‘lgan edimi? Ma’lumki, Aleksandr mil. avv. 336-yilda otasining o‘limi tufayli kichik Makedoniya davlatining hokimiga aylandi. Yunon shahar-davlatlari Filipp II davrida o‘z erkinliklarini yo‘qotgan bo‘lsalar-da, mil. avv. 337-yilda Korinf kongressida mustaqil davlatlar deb e’lon qilindi. Aleksandr mil. avv. 334-yildan toki umrini oxirigacha yurishlarda bo‘ldi. Aleksandrning vatani Makedoniyada to‘laqonli davlat boshqaruvi organlari shaklanmagan edi. Aleksandr davlati boshqaruviga tegishli biror bir xo‘jalik yoki huquqiy hujjatlar yoki boshqa yozma manbalar mavjud emas. Ahmoniylar davlati hududlariga qilingan yurishlarida barcha satrapliklar ham bosib olinmadi. Kichik Osiyoda Ahmoniylarning satrapliklaridan biri o‘z mustaqilligini saqlab qoldi. Bosib olingan hududlardagi yunon-makedon garnizonlari faqat vatan bilan aloqalari cheklangan holda amalga oshirildi. Boshqaruv tizimi bir-ikki yilda shakllanmaydi. Aleksandrning o‘zi davlatni boshqarish tajribasiga ega emas edi, u Filipp II o‘limidan so‘ng ikki yil mil. avv. 334-yilda bu talonchilik urushiga chiqib, 10 yil safarda bo‘ldi. Aleksandrning imperiyasi yoki davlati to‘g‘risidagi mavjud tushuncha g‘arb tarixiy adabiyotida yevromarkazchilik g‘oyasi asosida yuzaga kelgan xayoliy davlat yoki imperiya edi.

Yunon-makedonlarning Sharqqa yurishlarida o‘lja uchun ayrim siyosiy-iqtisodiy markazlar bosib olindi xolos. Bu markazlar atrofidagi periferiyalarda yunon makedon askarlarining bittasini ham qadami yetmadi. Va hududlar o‘z mustaqilliklarini saqlab qoldilar. Ahmoniylar davlati halokatidan so‘ng qariyb 50 yil

davomida sobiq ahmoniylar tasarrufida bo‘lgan hududlarda tartibsizlik, beqarorlik hukm surdi. Mahalliy xalqlar hokimiyat uchun kurashayotgan yunon makedonlarning o‘zaro urushlariga aralashmadi.

Imperiya tushunchasi bu hukmron millatning xohish-irodasi yoki davlat hokimiyati orqali qaram mamlakatlar, hududlar uchun qonun bo‘ladi va unga amal qilinadi. Shu sababli tarixiy adabiyotlarda mavjud bo‘lgan Aleksandr imperiyasi yoki davlati tushunchasi ilmiy tadqiqotlarda asoslanmagan.

2. Ellinizm tushunchasi. Ahmoniylar davlatining halokatidan so‘ng Aleksandr yurishlaridan boshlab to mil. avv. II asrgacha Rim Yunoniston va Yaqin Sharqda o‘z hukmronligini o‘rnatganiga qadar bo‘lgan davr g‘arb tarixiy adabiyotida ellinizm davri deb ataladi. Bu davrda savdo-hunarmandchilik, madaniyat o‘choqlari – shaharlar jadal rivojlandi (Iskandariya, Antioxiya, Baqtra va boshqa shaharlar). Bu davrda O‘rtayer dengizining g‘arbiy qismi Sharqning boy qadimgi madaniyati bilan jadal tanishib, uning to‘rt ming yillik to‘plagan madaniy yutuqlarini o‘zlashtirib ola boshladi. Ma’naviy-madaniy hayot, ilm-fan va san’at bu davrda yuksak darajada rivojlandi. Yangi ilm-fan o‘choqlari, oliy maktablar va kutubxonalar paydo bo‘ldi. Fan-texnikada kashfiyotlar, ixtirolar qilinib, nodir asarlar yaratildi. Yangi fan tarmoqlari paydo bo‘ldi. Fanning taniqli arboblari o‘zlarining nodir asarlarini yaratdilar. Ijtimoiy-siyosiy, falsafiy ta‘limotlar shakllandi.

«Ellinizm» tushunchasi tarix fanida birinchi marta XIX asrning birinchi yarmida nemis olimi I. Droyzen tomonidan kiritildi. Droyzen bu tushunchani makedoniyalik Aleksandrning bosqinchilik yurishlaridan keyingi katta tarixiy davrga nisbatan qo‘llaydi va uning mazmunini madaniy soha bilan cheklaydi. G‘arb tarixiy adabiyotida ellin davri deb butun Sharq

dunyosining mil. avv. III – I asrlardagi siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy hayotini ellinlashuvi shakli va mazmunida tasavvur qilishga urinish yaqqol seziladi.

XX asrning 50-yillari boshlaridan ko‘pchilik tarixchilar ellinizm davrini siyosiy-iqtisodiy va madaniy-mafkuraviy sohalarda mahalliy (Sharq) va ellin (G‘arb) madaniyatining sintezi natijasida madaniy taraqqiyotning yangi bosqichga chiqishi deb hisoblaydilar. Bu sintez qadimgi Sharqning ko‘pgina hududlarida, yunon-makedon bosqinlari oqibatida aniq tarixiy vaziyatda amalga oshdi degan tushuncha hukm suradi. Haqiqatda esa, mil. avv. I ming yillikda dunyoda birinchi bor uch qit‘ani birlashtirgan ulkan Ahmoniylar imperiyasi davrida Sharq va G‘arbning madaniy-iqtisodiy aloqalari va madaniyatlar muloqoti boshlangan edi. Aslida yunonlar sharq mamlakatlari tarixiy taraqqiyotida hech qanday o‘zgarish sodir etmadi. Etnik jihatdan yunonlar juda kamchilikni tashkil etib, mil. avv. IV asrda boshlangan yunon shahar-davlatlarining inqirozidan so‘ng boshlangan yunonlarning ommaviy holda o‘z vatanlarini tashlab ketishi keskin tus oldi. Lekin yunonlar sharq davlatlari hududlariga borib joylashgan bo‘lsalar-da, ular etnik jihatdan kam sonli bo‘lib, sharqning ulkan shahar va hududlarida ko‘p sonli mahalliy aholi turmush tarzi, iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga va shuningdek, madaniy-ma’naviy hayotiga sezilarli ta’sir o‘tkaza olmas edilar.

«Misrliklar o‘z o‘tmishlarini xotiralarida tosh va iyerogliflarda mustahkam saqlab, biz bugun to‘rt ming yil o‘tishi bilan, biz ularning podshohlarini hukmronlik yillarini aniq belgilashimiz mumkin; ularning jasadlarini ham abadiylashtirdilar; shu sababli buyuk fir’avnlar – hayratomuz ulug‘likning ramzlari – ajoyib saqlanib qolgan yuz tuzilishlari bilan endilikda bizning muzeylarda saqlanib qolgan, doriylar vaq-

tidagi podshohlardan esa hatto ismlari ham qolmadi» deb ta'kidlagan edi taniqli jamiyatshunos olim O. Shpengler. Bir necha ming yillik madaniyatga ega bo'lgan Misr yunon-makedonlar kelgan paytda o'zining an'anaviy turmush tarzida hayot kechirar edi. Misr sivilizatsiyasi o'z an'analariga sodiq bo'lib, o'ziga xos mukammal davlat boshqaruvi, yuksak madaniyatni yaratib, bu madaniyatni ko'z qorachig'iday asrab yashar edi. Yevropa olimlarining Aleksandr bosqinidan keyingi asrlarda Misr madaniyatida yunon madaniyatini izlashlari befoyda. Aksincha, yunonlar Misrga kelib bu ulug'vor sivilizatsiyaning yutuqlarini o'zlashtirdilar. Asrlar davomida misr ibodatxonalari va fir'avnlar saroylarida saqlangan ilm-fan yutuqlari manbasi bo'lgan qo'lyozmalarni o'qib o'rgandilar va yunon tiliga tarjima qildilar. Ular asosida yunon ilm-fani boyidi. Yunonlarda aniq va tabiy fan sohalarida aksariyat yangiliklar mil avv. IV asrdan boshlab yaratildi.

Misr, Bobil va O'rta Osiyoning ayrim hududlarida hokimiyat tepasiga kelgan yunon-makedon sulolalari va ularning atrofidagi yunon-makedonlar kam sonli bo'lganlari uchun bu hududlardagi ming yillar davomida shakllangan davlat boshqaruvining mukammal siyosiy ustqurmasi va tizimiga hech qanday ta'sir o'tkaza olmadilar. Chunki makedonlarda bu sohada na bilim, na yetarli ko'nikma va na malaka bor edi. Aksincha hukmron sulola tez orada qadimgi sharqning tajribalaridan foydalanib, sharqona davlat boshqaruvi va turmush tarzini o'zlashtirdi. Tez orada sulola sharqning mukammal davlat boshqaruvi tuzilmasi va tizimini o'zlashtirib oldi va bu tuzilma sulolaning uzoq yillar davomidagi hukmronligini ta'minladi. Bosqinchilar mamlakat boshqaruvida ming yillardan beri davom etib kelayotgan an'anaviy,

ma’muriy tizimni saqlab qoldilar. Faqat yuqori lavozimlarda turgan fors va misr amaldorlarini o‘rniga yunon-makedonlar o‘tqazildi.

Dastlab nomlarni podshoh tayinlagan nomarxlar boshqardilar. Hukmron sulola Misr siyosiy-iqtisodiy hayotida muhim o‘rin tutgan diniy e’tiqod-ibodatxonalar va uning vakillari – kohinlar qatlamini nufuzli mavqeyini yo‘qota olmadi. Lekin kohinlar va ibodatxonalar faoliyati davlat nazorati ostida bo‘ldi.

Misrda hukmron sulola atrofidagi kam sonli yunon-makedonlar Sharqning boy madaniy-ma’naviy an’analarini, Misr diniy e’tiqodini qabul qildilar. Makedon sulolasi mahalliy oqsuyak-zodagonlar bilan aralashib ketdi. Sulola sharqning asriy, hayot sinovlaridan o‘tgan urf-odat va an’analarini o‘zlashtirib oldi. Mil. avv. III – I asrlarda fan-madaniyat o‘choqlari Yunonistonda emas, balki Old Osiyodagi Aleksandriya, Pergam va Antioxiya shaharlari bo‘ldi. Bir necha ming yillar davomida to‘plangan Sharq madaniyati, ilm-fani, diniy e’tiqodi yunonlar tomonidan tizimli o‘rganildi. Yuz minglab Sharq qo‘lyozmalari yunon tiliga tarjima qilindi va yunonlar uchun bilim manbayiga aylandi. Misrda ilm-fan o‘choqlari bo‘lgan Misr ibodatxonalarida asrlar davomida to‘planib, kohinlar tomonidan saqlangan qo‘lyozmalar yunon tiliga tarjima qilindi. Barcha qo‘lyozmalar Aleksandriya shahridagi ilm-fan maskani Museyonga to‘plandi. Shu tarzda Sharqning ilm-fani asosida yunon olim va yozuvchilarining aniq, tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasidagi asarlari paydo bo‘ldi. Eratosfen geoografiyasi, Gippokratning tibbiyot asarlarlari va boshqa asarlar yunon tilida paydo bo‘ldi. Yunon yozuvi sharqqa kirib keldi. Poytaxt Aleksandriyada yunon me’morchiligining ayrim namunalarida bir necha inshootlar barpo qilindi. Bu inshootlarda mahalliy misr me’morchiligining an’analari aks etdi. Lekin yu-

nonlar sharq me'morchiligining ulug'vor inshootlari qurilishida qo'llanilgan ulug'vorlik, hashamatlilik va g'oyaviy motivlarni o'zlashtira olmadilar. G'arb olimlari asarlarida mil. avv. III – I asrlarda sharq dunyosidagi davlat va jamiyat hayotini o'rganishda faqat har bir sohada yunon madaniyati, turmush tarzining izini qidirish bilan cheklanib qolish an'anaga va asosiy tadqiqot muammosiga aylanib qoldi. Holbuki, yunon-makedon sulolalari hukmronlik davrida Misr va Mesopotamiya, Suriyada yunon-makedon sulolalari hokimiyatni boshqaruvini qo'lga olgan bo'lsalar-da, mahalliy madaniyat o'z an'ana va tamoyillaridan voz kechmadi, aksincha madaniyatlarning rivojlanishi o'z yo'lida davom etdi. Yevropa markaz g'oyasining tanqidchisi O. Shpengler shunday ta'kidlaydi: «Aleksandriya poeziyasi ham, tasviriy san'atdagi plyuralizm ozgina darajada ham xalqni qiziqtirmaydi».

Hukmron makedon sulolasi atrofida to'plangan kam sonli yunon-makedonlar mahalliy davlatchilik va madaniyat an'analarida zarracha ta'sir kuchiga ega emas edilar. Aksincha sulola davlat boshqaruvida Misrning bir necha ming yillik tajribasiga asoslanib uni boshqardi. Oddiy yunon-makedonlar ham sulolaga yollanma harbiy xizmatni o'tab, mahalliy aholi bilan aralashib ketmadilar. Ular ham kam sonli bo'lib, sulolaga xizmat qildilar.

Makedon sulolalari mahalliy aholiga nisbatan kamsitish siyosatini yuritdilar, ularni davlat boshqaruvidan chetlashtirdilar. Va nihoyat kam sonli kelgindi yunon-makedonlar o'zlari mahalliy aholidan ajralgan holda yashadilar. Misr va Mesopotamiyada faoliyat ko'rsatgan yunon olimlari oz sonli bo'lib, ular yunon madaniyatining emas, sharq madaniyati, ma'naviyatining ulkan yutuqlarini o'rgandilar. Sharqning ilm-fanida erishgan yutuqlari aks etgan qo'lyozmalarni endigina shakllanishi nihoya-

siga yetgan yunon tiliga tarjima qilish bilan shug‘ullandilar. Aleksandriya muzeyonida to‘plangan qo‘lyozmalarning aksariyati mahalliy sharq tillarida yozilgan qo‘lyozmalar edi. Mahalliy olimlar bu qo‘lyozmalarni yunon tiliga tarjima qilishda tarjimonlarga yordam berdilar.

Yunon shaharlari o‘rtasidagi mil. avv. IV asrdan o‘zaro urushlar makedoniyalik Aleksandrning sharqqa ekspeditsiyasidan keyin ham davom etdi. Natijada yunon shaharlarining tushkunligi uzoq vaqt davom etib, ular hech qachon boshqa qayta uyg‘onmadi. Mil. avv. II asrdan Rim periferiyasidagi (chekka) provinsiyasiyalar oddiy va ko‘rimsiz shaharlarga aylanib qoldi. Yunon madaniyati gullab-yashnagan davr hisoblangan mil. avv. VI asrning oxiri – V asrda ham yunon shaharlaridan faqat Afina shahrini fan-madaniyat o‘chog‘i deb ko‘rsatish mumkin. Bu shahar albatta Yunonistonning boshqa shaharlariga ijobiy ta’sir qildi. Lekin gap shundaki, yunon shahar davlatlarida yunon yozuvi, tili, madaniyati, tarqalgan bo‘lsa-da, hech qachon umumyunon birdamligi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy yaxlitlik shakllanmadi. Har bir shahar o‘zining tor manfaatlari uchun boshqasi bilan ziddiyatli munosabatlarda bo‘ldi. Shu sababli umumyunon xo‘jaligi, madaniy-ma’naviy birligi, yagona davlatga birlashish tuyg‘usi shakllanmadi. Aksincha mil. avv. VI asr o‘rtalarida paydo bo‘lgan qudratli Ahmoniylar davlati bilan ayrim yunon shahar-davlatlarini yaqinlashuvi yuz berdi. Kichik Osiyodagi yunon manzilgohlari uchun xo‘jalik hayotini, tashqi dunyo bilan savdo munosabatlarini barqarorligini ta’minlashda yagona kafolatchi sifatida Ahmoniylar davlatiga ko‘z tikdi. Yunon shaharlari birlashuvi uchun Yunoniston hududida til-madaniyat va turmush tarzini o‘xshashligidan boshqa biror bir omil yo‘q edi. Ahmoniylar davlati Kichik Osiyodagi

yunon shaharlari va Bolqon yarim orolidagi ayrim yunon shaharlari bilan yaqin aloqada bo‘lib, ularni tashqi savdo aloqalarini barqaror rivojlanishiga yordam berdi. Filip II ning Yunoniston hududiga harbiy yurishi vaqtida ham ayrim yunon shaharlari va siyosiy arboblari Ahmoniylar davlati bilan hamkorlikdan voz kechmadilar. Filipp II yunon shaharlarini qaram qilgan vaqtda ham bir necha taniqli siyosat arboblari Ahmoniylar saroyidan boshpana topdi. G‘arb tarixiy adabiyotida esa hanuzgacha yunon shahar-davlatlari tarixini yoritishda haqiqatdan chekinish, o‘sha davrdagi vaziyatni xolisona tahlil qilish ko‘rinmaydi.

G‘arb tarixiy adabiyotida ellin davrining uch yuz yillik xronologik davri uch tizimli izchil bosqichga bo‘linadi: birinchi bosqich Aleksandrning Sharqqa yurishlari, diadoxlar urushlari (mil. avv. 334 – 281-yillar)ni o‘z ichiga oladi; ikkinchi bosqich (mil. avv. 280-mil. avv. II asr o‘rtalari) yunon-sharq davlatchiligi, iqtisodiyoti va madaniyatining gullab-yashnagan davri; Ellin davrining yetuklik bosqichi; uchinchi bosqich mil. avv. II asr o‘rtalaridan ellin davlatchiligining oxir-oqibatda yemirilishiga olib kelgan tushkunlik belgilarining yaqqol ko‘rinishi bilan tavsiflanadi. So‘nggi ellin davlati – Ptolemeylar Misrining mil. avv. 30-yilda halokatga uchrashi va uning Rim davlati tarkibiga qo‘shib olinishi bilan belgilanadi. Bu davrda sharqdagi qudratli Parfiya davlati Mesopotamiya, Suriya, Kichik Osiyo va Finikiyani egalladi, g‘arbda Rimning bosqinchilik yurishlari davom etdi.

2.Misr davlati va jamiyati (mil. avv. 323 – 30-yillar).

Ptolemeylar sulolasi boshqaruvi. Mil. avv. 332-yilda Aleksandr Misrni bosib olib navkratislik Kleomenni Misrga noib etib tayinladi. Aleksandr vafotidan so‘ng, uning sarkardalarining birinchi yig‘inida hududlar boshqaruvi taqsimlanganda Misrni boshqarish sarkarda Ptolemey (mil. avv. 323 – 283)

zimmasiga yuklandi. Ptolemey Misrda o‘rnashib, podshoh regenti Perdikkaning mil. avv 321-yildagi hujumini qaytardi va Misrda o‘z hokimiyatini mustahkamlashga kirishdi. Misrda mil. avv, III – I asrlarda hukmronlik qilgan sulolaning asoschisi 44 yoshli Ptolemey I (mil. avv. 323 – 283-yillar) Lag makedon zodagonining o‘g‘li, harbiy boshliq, Iskandarning safdoshi edi. U Aleksandrning keksayib, o‘z ajali bilan vafot qilgan birdan-bir safdoshi edi. Boshqa diadoxlar kabi Lagning o‘g‘li Ptolemey I Soter mil. avv. 305-yil o‘zini Misr podshohi deb e’lon qildi.

Ptolemey Keravn. Ptolemey I o‘zining suyukli rafiqasi Berenikadan bo‘lgan o‘g‘li Filadelfni mil. avv. 285-yilda podshoh deb e’lon qilib, u bilan birgalikda mamlakatni boshqardi. Lekin taxtga Ptolemeyning boshqa rafiqasi Evridikadan bo‘lgan o‘g‘li Ptolemey Keravn (Keravn – yashin) ham da’vo qildi. Keravn Makedoniyada o‘z singlisi Arsinoyaning eri Lisimax saroyidan panoh topdi. Lisimax qayinukasini samimiy qarshi oldi. Keravn esa o‘z oldiga o‘z singlisini o‘ziga moyil qilib unga uylanish va Lisimaxni zaharlab o‘ldirib, makedon taxtini egallashni maqsad qildi. Bu vaqtda aka-singillarning bir-birini sevishi va turmushga chiqishi odatdagi hol edi. Arsinoya o‘z rafiqasidan voz kechmadi va Keravnning da’volarini rad etdi. O‘z rejasi amalga oshmagach Keravn Lisimaxning birinchi xotinidan bo‘lgan o‘g‘li Agafolkni zaharlab o‘dirdi va Salavk saroyiga qochib ketdi. Keravn Salavkni Lisimaxga qarshi gijgijlab, Makedoniyaga qarshi yurish qilishga undadi. Mil. avv. 281-yilda Salavk armiyasi Makedoniyaga yurish qildi. Lidiyadagi Kuropediya yonidagi jangda Salavk armiyasi makedon armiyasi ustidan g‘alaba qildi, Lisimax jangda halok bo‘ldi. Ptolemey Keravn Salavk unga Makedoniya taxtini beradi deb umid qilgan edi. Lekin keksa Salavk Makedoniyani o‘zi boshqarishga qaror qildi.

Keravn bundan g‘azablanib, Gellespontdan o‘tishda Salavkni o‘ldirdi. Shundan so‘ng u Makedoniyaga o‘tib, Lisimaxni o‘ldirgani uchun Salavkdan o‘ch olganini e’lon qildi va makedon askarlarining qo‘llab-quvvatlashiga erishdi. Mil. avv. 281-yilda Keravn Frakiyaga, keyin Makedoniyada hukmdorlikni qo‘lga oldi. Lekin Makedoniya taxtining qonuniy egalari – Lisimaxning o‘g‘illari Filipp va Lisimax hukmdorligi uning uchun katta xavf edi. Singlisi Arsinoya makkor ukasiga ishonmay bolalarini himoya qilishga urindi. Endigina hokimiyatga kelgan Keravn o‘z hokimiyatini mustahkamlash uchun singlisini o‘ziga moyil qilib, unga uylanish uchun bor imkoniyatlarini ishga soldi. Singlisining, o‘g‘illarining xavfsizligini ta’minlashga va’da berib qasam ichdi. Natijada Arsinoya unga turmushga chiqishga rozi bo‘ldi. To‘ydan keyingi bayram kunlaridan birida Keravnning odamlari Arsinoyaning 16 yoshli o‘g‘li Lisimaxni, 13 yoshli Filippni o‘ldirdilar. Arsinoyaning o‘zi zo‘rg‘a qochib qutuldi. Keravn qo‘shni davlatlar bilan tinchlik siyosatini yuritdi. O‘z akasi Ptolemey Filadelfga Misr taxtiga da’vosi yo‘qligini bildirdi va do‘stlik bitimi tuzishni taklif qildi. Epir podshohiga o‘z qizini turmushga berib u bilan bitim tuzdi. Mil. avv. 279-yilda Makedoniyaga bostirib kirgan gall qabilalari mamlakatni taladilar va shu yil bo‘lgan jangda makedon armiyasi tor-mor qilindi, Keravn asir olindi. Gallar bu makkor podshohni kallasini olib, nayzaga suqib gall armiyasi saflari oldidan olib o‘tdilar.

Ptolemey Filadelf (singlisini sevuvchi) (mil. avv. 285 – 247-yillar), Ptolemey III Everget (oliy himmatli) (mil. avv. 246 – 222/221-yillar), Ptolemey IV Filopator (otasini sevuvchi) (mil. avv. 222 – 205-yillar), Ptolemey V Epifan (hozir bo‘lgan xudo) (mil. avv. 205 – 180-yillar) deyarli yuz yil davomida faol tashqi siyosat olib bordilar. Bu yuz yillikda Misr Salavkiylar

davlati bilan Old Osiyoda yetakchilik qilish uchun Ptolemey I Soter (qutqaruvchi) va uning vorislari Ptolemey II Filadelf (singlisini sevuvchi) hukmronliklari davrida raqobatda bo‘ldi. Sulola hokimiyat uchun kurashda ota-ona, aka-uka, o‘qil va qizlarni ayamadi. Axloqiy-ma’naviy aynish, aka-singillar o‘rtasida nikoh, jismoniy yemirilish bu sulolaga xos xususiyat edi. Ptolemeylar Misr zodagonlarining qo‘llab-quvvatlashiga erishib, o‘z hokimiyatlarini mustahkamlashga va mamlakatni 300 yil davomida boshqarishga erishdi. Aleksandrning sarkardalaridan biri bo‘lgan, davlat boshqaruvida hech qanday bilim va amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lmagan Ptolemeylar mahalliy Misr zodagonlari va kohinlari yordamiga tayanib mamlakatni boshqardilar. Ptolemeylar qadimgi Misr davlat boshqaruvining barcha an’analarini o‘zlashtirib, bu an’analarga sodiq qoldilar. Ptolemeylar sulolasi davlat boshqaruvida Misr davlat boshqaruvining bir necha ming yillik boy tajribasiga tayandilar. Davlat boshqaruvi markaziy, mahalliy (nom – viloyatlar, top – tumanlar) va qishloq (kom)lar boshqaruvidan iborat edi. Ptolemeylar qadimgi fir‘avn – podshohning mutlaq hokimiyati, ko‘p tarmoqli davlat apparati, ko‘p sonli amaldorlar, qat’iy markazlashgan davlat hokimiyati va uning mamlakat xo‘jalik hayotiga faol aralashuvini saqlab qoldilar.

Makedon Ptolemey sulolasi podshohlari o‘zlarini fir’avn, xudoning o‘g‘li deb e’lon qildilar va butub hokimiyatni o‘z qo‘llarida to‘pladilar.Vaqt o‘tishi bilan podshohning mutlaq hokimiyati shakllandi. Qadimgi fir’avnlar davrida bo‘lganidek, podshohga Xudo kabi sajda qilish an’anasi paydo bo‘ldi. Hukmdorni tanqid qilish, muxolif fikrlarni bildirish shafqatsiz jazolandi. Ptolemey II Filadelf o‘zining opasi Arsinoyaga uylandi. O‘z tug‘ishgan opasi Arsinoyaga uylanishini ma-

zax qilgan bir shoirni Ptolemey II suvga cho‘ktirishga buyruq berdi.

Podshoh tarmoqlangan muntazam ishlaydigan markaziy davlat apparatiga tayanib, davlatni boshqardi. Markaziy davlat apparatida yuqori lavozimlarni «podshohning do‘stlari va qarindoshlari» – kelgindi yunon-makedonlar egalladilar, lekin podshoh markaziy boshqaruvda mahalliy oqsuyak zodagonlardan ham unumli foydalandi. Moliya va xazinachilik muassasalari boshliqlari muhim mavqega ega edilar.

Qadimgi Misrning ma’muriy hududiy tuzilishi ham o‘zgarmay qoldi. Yangi sulola Misr fir‘avnlaridan mamlakatni hududiy bo‘linishi, nom tizimini meros qilib oldilar. Faqat nomlar sonlari o‘zgarib, ular qayta tashkil qilindi. Mamlakat 42 nomga bo‘linib, ularni boshqaruvchilari shtati markaziy hokimiyat tomonidan tasdiqlangan. Mil. avv. III asr oxiridan nomarxlar qo‘lida hududning moliyaviy sohasigina qoldirilib, ularning oliy ma’muriy hokimiyati harbiy soha bilan boshqa mansabdor strateglarga berildi. Ularning yaqin) yordamchilari ekonom – moliya rahbari va nom devonxonasi mudiri – gramattey turgan. Nomlar bir necha tuman (top)larga, toplar qishloq (kom)larga bo‘linadi. Toparx va komarxlar nomarx tomonidan tayinlandi. Davlat apparatining barcha bo‘g‘inlarida podshohning buyruqlari o‘z vaqtida bajarilishi ustidan nazoratni maxsus nazoratchilar departamenti amalga oshirgan edi. Misr aholisining ko‘pchiligi yunon-makedonlar tashkil etgan Aleksandriya, Ptolemaida va Navkratis shaharlaridagi aholi saylagan mansabdorlar tomonidan boshqarilgan. Ptolemeylar Misrda biror bir yunon shahrini qurmadilar.

Misrning mil. avv. III – II asrlardagi sharqiy chegaralari Old Osiyoda kuchlar nisbatining muvozanatiga bog‘liq holda o‘zgarib turar edi. Misr o‘zining iqtisodiy-siyosiy taraqqiyotining yuksak davri – mil. avv.

III asrda Kirenaika, Kipr, Janubiy Suriya, Finikiya va Kichik Osiyoning janubi-g‘arbidagi yunon shaharlari bilan va Egey dengizining qator orollariga egalik qilgan. Lekin Salavkiylar va Makedoniya bilan bir necha urushlar natijasida mil. avv. II asr boshlarida bu hududlar Misrdan ajralib ketdi.

Ptolemey II faol tashqi siyosat olib bordi. Misrdan ajralib ketgan Kirena va Makedoniya bilan urush qildi. Yunonistonning ichki ishlariga aralashdi. Ptolemey II vafoti vaqtida xazinada 740 000 talant pul bo‘lgan. Appianning guvohligicha, Misrning muntazam armiyasida 200 000 piyodalar, 40 000 otliq, 2000 jangovar fil, 15000 kema, 300 fil bo‘lgan. Finikiya, Keleseriya, Kirena va Kipr Misrning tashqi provinsiyalari bo‘lgan. Mil. avv. III asr o‘rtalarida Misr kuchli harbiy flot va qo‘shinga ega edi. Misrning asosiy raqiblari – Makedoniya, Bobil va Kichik Osiyodagi ba’zi davlatlar bo‘lgan. Misrning mavqeyi Old Osiyoda kuchayib ketdi. Lekin bu vaqtinchalik edi.

Ptolemey III Everget Kirena malikasi Berenikaga uylanib, Kirenani Misrga qo‘shib oldi. Salavkiylar bilan urush olib borib, salavkiylar poytaxti Orontdagi Antioxiya shaharini egalladi. Ptolemey III davrida Misr o‘z qudratini cho‘qqisiga chiqdi. Ptolemey IV Filopator (mil. avv. 222 – 205-yillar) davri Misr tashqi siyosiy yutuqlarining eng oliy nuqtasi bo‘ldi. Shundan so‘ng Misrning turg‘unlik davri boshlandi. Xalqaro vaziyat o‘zgardi, Old Osiyo Rimning tajovuzkor siyosati yo‘naltirilgan joyga aylandi.

Ptolemey V Epifan (mil. avv. 180-yil) o‘limidan so‘ng, tashqi siyosatda qiyinchiliklar tug‘ila boshladi. Sharqda Rimning faol istilochilik urushlari Misrning siyosiy mustaqilligi uchun jiddiy xavf tug‘dirdi. Natijada tushkunlikning uzoq davri boshlandi. Sharqda Parfiya davlati Rimning Yaqin va O‘rta Sharqqa ekspansiyasini to‘xtatish uchun Old Osiyoda faol tashqi

siyosat yuritdi. Salavkiylar davlati zaiflashdi. Misrga rimliklarning tazyiqi kuchaydi. Misrning kuchli iqtisodiyoti, qulay geografik o‘rni rimliklarni o‘ziga jalb qilar edi. Misr rimliklar uchun asosiy g‘alla yetkazib beradigan hududlardan biri edi.

Iqtisodiy-ijtimoiy hayot. Mil. avv. III – I asrlarda Misr Old Osiyo va O‘rtayer dengizi havzasida iqtisodiy jihatdan eng kuchli davlat edi. Ptolemeylar sulolasi bu boy o‘lkani barqaror iqtisodiyotidan unumli foydalandilar. Ptolemey II davrida Misrning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va siyosiy tuzumining yangi davrdagi asosiy belgilari shakllandi. Sulolaning birinchi 100 yillik hukmronligi davrida faol tashqi siyosat olib borib, Misr xavfsizligini ta’minlashga harakat qildilar. Misrning an’anaviy-tarixiy geografik chegaralarini qadimgi davrdagidek hosildor Nil vodiysi tashkil qildi. Mil. avv. III asrda Misr iqtisodiyotida metall qurollar keng tarqaldi. Qishloq xo‘jaligida temir mehnat qurollari paydo bo‘ldi. Bobildan ekin ekadigan moslama (seyalka) olib kelindi. Qishloq xo‘jaligida yangi texnik moslamalar – vino va zaytun yog‘ini olish uchun vintli press (Arximed vinti)dan foydalana boshlanishi dehqonlarning mehnatini yengillashtirdi. Yangi sholi va paxta ekinlari paydo bo‘ldi. An’anaviy tariq donidan tashqari, bug‘doy, kanop va papirus ekiladigan yer maydonlari keskin ko‘paydi. Barcha ekin yerlarining unumdorligi va sifati tahlil etilib, ekin yerlari kadastri tuzildi. Misr boshqa davlatlarga g‘alla eksport qiladigan mamlakatga aylandi.

Misrda bu vaqtda qadimgi davrdagidek sun’iy sug‘orish tizimi mukammal ishchi holatida edi. Fir’avn Nexo boshlagan va Doro I qurilishini davom ettirgan kanal ta’mirlandi va ko‘plab yangi yerlar ochildi. Yer davlat mulki bo‘lib qolaverdi. Davlat yerining katta qismi merosiy ijarachi – kichik yer egalari tomonidan ishlov berilib, ular buning uchun soliq to‘ladilar va

davlat xazinasi hisobiga turli majburiyatlarni o‘tadilar. Bu toifadagi dehqonlar qishloq aholisinig asosiy qismini tashkil etdi. Podshohning yaqinlari, oliy amaldorlar va yunon makedon zodagonlariga davlat yerlari hadya qilindi. Va bunday yerlar xususiylashtirildi. Ptolemeylar o‘z qo‘shinlari safini yunon-makedonlardan to‘ldirdi. Yunon-makedon askarlariga podshoh imtiyozli asosda yer ulushlarni ajratdi, bu yer ulushlari soliqlardan ozod etilib, yer egasi o‘zi xohlagan ekinni ekishi, qul mehnatidan foydalanishi mumkin edi. Bunday yerlar davlat amaldorlarining nazoratidan xoli qilindi. Misrda bu vaqtda ibodatxona yer egaligi katta miqdorda saqlanib qoldi, u ibodatxona yerlariga kichik yer egalari ishlar edi.

Hunarmandchilik. Misrda azaldan mamlakatda mavjud bo‘lgan xomashyo turlaridan tosh(diorit, granit, alebastr, bazalt)dan va papirusdan mahsulotlar ishlab chiqarildi. Misrda o‘stiriladigan kanop va paxtadan to‘qilgan matolar qo‘shni hududlarda bozori chaqqon mahsulotlar edi. Misrliklar rangli shisha ishlab chiqarishda katta yutuqlarga erishdilar. Mil. avv. I asrda misr shishasozlari puflab shisha tayyorlashni yo‘lga qo‘ydilar. Misrning zargarlik va kulolchilik buyumlari tashqi bozorda boshqa hududlar mahsulotlari bilan yuqori darajada raqobatbardosh bo‘ldi. Qishloq xo‘jaligiga qaraganda, bu sohada qul mehnati keng qo‘llandi. Hunarmandchilik mahsulotlari bozor uchun ommaviy ravishda ishlab chiqarildi. Kemasozlik, uy-joy va jamoat binolarining qurilishi, metall va sopol idish-tovoqlar, gazlamalar, mebellar va zargarlik buyumlarini tayyorlash keng rivojlandi. Yuqori sifatli hunarmandchilik mahsulotlari eksport qilindi.

Hunarmandchilik sohasi dalat hokimiyati tomonidan qattiq nazorat ostida bo‘ldi. Barcha hunarmandlar turli soliqlar, to‘lovlar va majburiyatlarga ega edi. O‘simlik yog‘i va pivo ishlab chiqarish davlat mono-

poliyasi edi. Misrda hunarmandchilik korxonalari boshqa mamlakatlardan farq qilgan holda nafaqat shaharlarda, balki qishloqlarda ham keng tarqalgan edi. Yana shuningdek, hunarmandlar o‘z kasblari doirasida birlashmalar birlashuvlariga ruxsat etildi. Mamlakatda yangi gavan va kanallar qurildi. Misr Sharqiy O‘rtayer dengizi va Egey dengizi havzasidan o‘tadigan dengiz yo‘llari ustidan nazorat o‘rnatdi. Aleksandriya porti butun O‘rtayer dengizidagi dengiz savdosiga xizmat qildi. Aleksandriyada 120 metr balandlikdagi mayoq qurilib, bu mayoq kemalarga yo‘l ko‘rsatgich vazifasini bajardi. Misrdan yana bir quruqlik yo‘li Misr tarkibida bo‘lgan Finikiya orqali o‘tib, Damashq orqali Yuqori Mesopotamiya, fors qo‘ltigi va Hindistonga o‘tdi. Ptolemey I Aleksandriya shahrini poytaxtga aylantirdi, bu shaharda qurilish sohasi keng rivojlandi. Mil. avv. II asrga kelib Aleksandriya shahri Sharqiy O‘rtayer dengizining eng katta porti, savdo-hunarmandchilik va madaniy markaziga, Ptolemey II (mil. avv. 283 – 247-yillar) davriga Aleksandriya ilm-fan o‘chog‘iga aylandi. U Aleksandriya shahrida otasi boshlagan muzeyon qurilishini tugalladi. Keyin Ptolemey I otasi boshlagan kutubxonada kitob-qo‘lyozmalar jamg‘armasini 400 000 jildga yetkazdi.

Ijtimoiy qatlamlar. Misrda mil. avv. III asrlarda hukmron qatlamni Ptolemeleylar sulolasi atrofidagi yunon-makedon zodagonlari, mahalliy Misr oqsuyak zodagonlari va nomlardagi boy-badavlat zodagonlar tashkil etdi. Qadimgi fir’avnlar davridagidek hukmron tabaqa davlat hokimiyati bilan yaqin aloqada bo‘lib, podshohdan turli xil imtiyoz va yengilliklar olar edilar. Sulolaga yaqin bo‘lgan kam sonli yunon-makedon zodagonlari vaqt o‘tishi bilan Misrning asriy boy madaniyat, turmush tarzini o‘zlashtirib, mahalliy zodagonlar bilan aralashib ketdilar. Kelgin-

di kamsonli yunon-makedon zodagonlarining mahalliy zodagonlarga tazyiq o‘tkazishga urinishlari doimo kuchli qarshilikka uchrab natijasiz tugadi. Misrning an’anaviy diniy e’tiqodining oliy tabaqa kohinlari alohida qatlamni tashkil etdilar. Hukmron sulola xalq orasida kuchli mafkuraviy ta’sirga ega bo‘lgan bu qatlam bilan murosa qilishga majbur edi. Ibodatxonalar oldida podshohning maxsus vakillari – epistatlar kohinlarning diniy va iqtisodiy faoliyati ustidan nazorat qilib turdilar.

Misr aholisining asosiy qismini qishloqdagi oddiy dehqonlar, podshoh yerlarida ishlaydigan ijarachi kichik yer egalari, hunarmandlar va qullar tashkil etgan. Oddiy aholi og‘ir soliq majburiyatlari yuki ostida yashadi, ba’zida soliq-to‘lovlarning miqdori 200ga yetgan.

Savdo. Yuqori darajali unumdor qishloq xo‘jaligi va yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqaradigan hunarmandchilik ichki va tashqi bozor uchun katta miqdorda mahsulot ishlab chiqarishni ta’minladi. Chet elga rangli shisha, papirus, kanop va paxta matolar, nafis zargarlik buyumlari, qimmatbaho toshlar chiqarildi. Tashqi savdo ustidan Misr davlatining monopoliyasi o‘rnatildi. Ptolemey I savdo-hunarmandchilik, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish maqsadida o‘zining tanga pullari – oltin stater, kumush tetradraxma va mis obollarni zarb qila boshladi. Oltin va kumush qazish, tanga zarb qilish, turli xil pul ayirboshlash davlat monopoliyasiga aylantirildi hamda chet el tanga pullarini ishlatish taqiqlandi. Davlat hokimiyati Misr iqtisodiyoti va tashqi savdosida taqchil va bozori chaqqon mahsulot bo‘lgan qog‘oz vazifasini bajargan papirusni ishlab chiqarishni ham davlat monopoliyasiga aylantirildi.

Misr davlatining halokati. Mil. avv. I asr boshlarida Rimning Old Osiyoda bosib olgan hududlari Misr chegaralarigacha yetib bordi. Misr davlatini o‘zaro ni-

zolar va xalq harakatlari zaiflashtirdi. Ptolemey IX mil. avv. 88-yil Fivada boshlangan qo‘zg‘olonni 3 yildan so‘ng, qo‘zg‘olon markazi bo‘lgan Fiva shahrini buzib tashlash bilan bostirdi. Misr tobora Rimning ta’siri ostiga tusha boshladi. Mil. avv. 70-yillardan Rim davlati Misrning ichki ishlariga faol aralasha boshladi.

Ptolemey sulolasining bir necha vakillari Rim yordami bilan hokimiyatni boshqardilar. Rim senatida bir necha bor Misrni bosib olish masalasi muhokama qilindi. Ammo hali ham kuchli bo‘lgan bu davlatga qarshi senat urush boshlashga jur’at qila olmadi. Ptolemeylar sulolasining so‘nggi vakillari o‘rtasida taxt uchun kurash kuchaydi. Saroy og‘asi Potin podshoh Ptolemey XII ning yoshligidan foydalanib, davlatni boshqardi. Ptolemey XI ning qizi Kleopatra bilan o‘smir podshoh Ptolemey o‘rtasida taxt uchun kurash boshlandi. Bu vaqtda Rimda siyosiy kurash keskinlashib, bu kurashning ishtirokchilaridan biri Pompey bu kurashda yengilib, Misr podshoh saroyi haram og‘asi, amalda davlat boshqaruvchisi Potin Pompeyni o‘ldirdi va uning boshini Yu.Sezarga tortiq qildi. Pompeyning ortidan mil. avv. 48 – 47-yillarda Misrga qo‘shin tortib kelgan Yuliy Sezar Kleopatra bilan uning ukasi Ptolemey o‘rtasidagi taxt uchun kurashga aralashib qoldi. Yu.Sezar Kleopatrani qo‘llab-quvvatladi va mil. avv. 48-yilda Aleksandriya yonidagi jangda Ptolemey qo‘shinlarini yengdi. Aleksandriyaga hujum vaqtida katta fojia yuz berdi. Shahardagi mashhur kutubxona yong‘in ichida qolib, qimmatli qo‘lyozmalardan bir qismi yonib ketdi. Misr taxtiga malika Kleopatra o‘tirdi. Yu. Sezar malika Kleopatraga uylandi va undan o‘g‘il farzand ko‘rdi. Mil. avv. 48-yil Yuliy Sezar 8 oylik urushdan so‘ng, Misrni ittifoqchi davlat sifatida Rimga qo‘shib olish bilan chek-

landi. Oktavian mil. avv. 30-yil mustaqil Misr davlatini tugatib, Misrni Rim provinsiaysiga aylantirdi.

3. Salavkiylar sulolasi davrida Mesopotamiya va Suriya. Salavkiylar davlatining tashkil topishi. Aleksandrning safdoshlaridan biri Salavk I (mil. avv. 312 – 281-yillar katta jismoniy kuchga ega bo‘lgan buqani faqat qo‘li bilan yiqitishi mumkin bo‘lgan). Nikator (g‘olib) mil. avv. 321-yilda satraplar o‘rtasidagi shartnomaga ko‘ra, noib sifatida boy o‘lka Bobilni egalladi. Salavk diadoxlar o‘rtasida hokimiyat uchun kurash natijasida Eron satrapliklari, O‘rta Osiyoning ayrim hududlari ustidan o‘z nazoratini o‘rnatdi. Ammo Osiyoning oliy hokimi Antigon tez orada Salavkdan Bobilni tortib oldi (mil. avv. 315-yil). Antigon bilan boshqa satraplar o‘rtasidagi kuchayib ketgan raqobatdan foydalangan Salavk Misr hukmdori Ptolemeyning yordami bilan mil. avv. 312-yilda Bobilda o‘z hokimiyatini qayta tikladi. Aynan shu yildan boshlab Salavk sulolasining mil. avv. 64-yilgacha davom etgan hukmronligi boshlandi. Salavkiylar davlati turli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasida turgan turli etnos, urug‘-qabila, xalqlarni birlashtirgan, mo‘rt, mustahkam bo‘lmagan birlashma edi. Hududlar o‘rtasida iqtisodiy aloqalar zaif bo‘lib, ularda mehnat taqsimoti shakllanmagan va natural xo‘jalik hukmron edi.

Salavk I (mil. avv. 312 – 281-yillar) qulay geografik Suriyani o‘z davlatining bosh viloyatiga aylantirdi. Orontdagi Antioxiya shahrida, Yuqori Suriya yoki Dajla daryosi yoqasidagi o‘zi qurishni boshlagan Salavkiya shahrida yashadi. Antiox I otasi Salavk I bilan birgalikda mil. avv. 293 – 280-yillarda hokimiyatni boshqardi. Salavk g‘arbda diadoxlar o‘rtasida davom etayotgan urushdan foydalanib, Sharqqa yurish qildi. Yurish davomida u Eron va O‘rta Osiyo satrapliklarini qayta qo‘lga kiritdi. Yurish oxirida Salavk

Hindistonda Maurilar davlatining asoschisi Chandragupta bilan to‘qnashdi. Urush Salavkni ilgari Iskandar davlati tarkibiga kirgan barcha hind mulklaridan voz kechishi, buning evaziga Chandragupta tomonidan 300 jangovar fillarning Salavkga sovg‘a qilishi bilan tugadi. Salavk mil. avv. 305 – 304-yillar atrofida o‘zini podshoh deb e’lon qildi. Shundan sal o‘tgach, Shimoliy Suriyani, mil. avv. 281-yilda Kichik Osiyoning katta qismini bosib oldi. Shu yildayoq u Makedoniyani egallash uchun bo‘lgan yurishda halok bo‘ldi.

Salavkiylar davlati tarkibiga boshida Mesopotamiyaning bir qismi, Kichik Osiyoning bir qismi, Eron, O‘rta Osiyoning ayrim hududlari, Afg‘oniston va Shimoliy Hindiston kirgan. Davlatning poytaxti Suriyadagi Oront daryosi qirg‘og‘idagi Antioxiya edi. Salavkiylar davlati o‘zining gullab-yashnagan davrida Mesopotamiya, Eronning rivojlangan hududlariga egalik qildi.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Bu bepoyon hududda turli iqtisodiy va madaniy taraqqiyot bosqichida turgan, etnik va til jihatidan ola-quroq bo‘lgan xalqlar joylashgan edi**.** Salavkiylar davlatida makedon sulolasi podshohi yaqinlari to‘plangan kam sonli yunon va makedonlar hukmron tabaqaga aylandilar. Yunon-makedonlar oliy hokimiyat lavozimlarini egallab olib, qo‘shinning asosiy qismini tashkil etdilar. Mahalliy zodagonlar hokimiyat boshqaruvida deyarli ishtirok etmadilar. Faqat Bobil shaharlarining fuqarolar ibodatxonalaridagi jamoa ma’lum bir imtiyozlardan foydalandi. Aholi suv taqchilligidan xo‘jaligi izdan chiqib, tushkunlikka tushgan Bobilni tashlab chiqib, yuqori Suriyaga ko‘chib kela boshladi.

Salavkiylar davlati aholisining asosiy qismi jamoachi dehqonlardan tashkil topgan. Bu jamoalar podshoh foydasiga pul va natural majburiyatlarni o‘tar

edi. Jamoachi dehqonlar shaxsan erkin bo‘lgan. Lekin davlat hokimiyati dehqonlarni asta-sekin qaram qila boshladi. Bu esa dehqonlarni yerga biriktirib qo‘yishda o‘z aksini topardi. Davlat yerlari ikki qismga bo‘lingan. Bir qism yerlar podshohning shaxsan o‘ziga tegishli bo‘lsa, ikkinchi qismi shaharlar, mahalliy zodagon-hokimlar, qabilalar va jamoalarga tegishli bo‘lib, podshoh hokimiyati tomonidan nazorat qilingan.

Davlat boshqaruvi. Ma’muriy hududiy tuzilma. Salavkiylar davlatida oliy hokimiyat podshoh qo‘lida edi. Hukmdor qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatini o‘z qo‘lida to‘plab, cheklanmagan mutlaq hokimiyatga ega bo‘ldi. Salavkiy podshohlar Sharq davlat boshqaruvi tizimini to‘la o‘zlashtirib oldilar. Salavkiy podshohlarga xudo kabi sajda qilindi. Podshoh sharafiga ibodatxonalarda qurbonliklar keltirilib,turli marosimlar o‘tkazildi. Podshoh Sharq an’analariga mos qurilgan davlat boshqaruviga tayanib davlatni boshqardi. Kelgindi yunon-makedonlar davlat boshqaruvidagi oliy mansablarni egallaganlar, mahalliy aholi boshqaruvga yaqinlashtirilmagan. Ko‘p sonli amaldorlardan iborat bo‘lgan tarmoqlangan davlat boshqaruvi apparati oliy, o‘rta, quyi bo‘ginlarga bo‘lingan. Oliy mansablarni podshohning qarindoshlari va do‘stlari egallagan. Markaziy apparatda «ishlarni boshqaruvchi», soliq boshqarmasi boshlig‘i va moliya boshqarmasi boshliqlari muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Salavkiylar bosib olingan hududlarni 72 satraplikga bo‘ldilar, undan kichik ma‘muriy birliklar – yeparxiya va giparxiyalar edi. Satraplik boshida satrap (Antiox III davrida strateg) turib, u fuqarolik va harbiy hokimiyat ishlarini amalga oshirgan. Mahalliy aholiga nisbatan kamsitish siyosati yuritildi. Natijada kelgindi sulola va yunon makedonlarga nisba-

tan mahalliy aholida kuchli norozilik va nafrat yuzaga kelib, turli g‘alayonlarga olib keldi. Salavkiylar hukmronligi davrida Old Osiyoda yunon madaniyati g‘arb tarixiy adabiyotida uqtirilganidek tarqalmadi yoki mahalliy madaniyatga sezilarli ta’sir ko‘rsatmadi. Ellin madaniyati tadqiqotchisi Shlyumberje shunday yozadi: «Mesopotamiyada bitta ham yunon shahari topilmadi. Boshqa qadimgi manzilgohlar joylarida yunon binolari topilmadi, lekin yunonlarning ishtiroki to‘g‘risida alohida buyumlar dalolat beradi». Даниэл Шлюмберже. Эллинизированный восток, стр. 29. – Москва: Искусство, 1985.

Salavkiylar davlati tarkibiga kirgan O‘rta Osiyoning ayrim hududlari va Eron Salavk I davrida uning o‘g‘li va merosxo‘ri Antiox I Soter (mil. avv. 281 – 261-yillar) tomonidan boshqarildi. Antiox I Salavkning onasi Spitamenning qizi malika Apama Salavkiylar saroyida katta hurmat-e’tiborga ega edi. Sulola o‘z hokimiyatini mustahkamlash uchun yangi shaharlar va harbiy manzilgohlar barpo etdi, eskilari qayta tiklandi (Marv vohasi devor bilan to‘liq o‘rab olindi).

Salavk I o‘limidan so‘ng mil. avv. 280-yildan boshlab Antiox I (mil. avv. 280 – 261-yillar) Soter (Iloh) otasining davlatni mustaqil boshqarishga kirishdi. Antiox I qo‘shinlari Hindiqush tog‘laridan o‘tib, Hindiston yerlariga bostirib kirdi. U Hindistonda podshoh Bindusara bilan do‘stona munosabat o‘rnatdi. Mil. avv. 277-yilda Antiox I Kichik Osiyoga galat qabilalarining hujumini qaytardi. Antiox II Hindistondagi Maurilar podshohi Ashoki bilan do‘stona aloqa o‘rnatdi. O‘z mamlakatida buddaviylik e’tiqodini tarqalishiga monelik qilmadi.

Xalqaro savdo yo‘llari keshishgan Janubiy Suriya va Finikiyaning boy shaharlari Salavkiylar bilan Misr o‘rtasida an’anaviy ixtilof manbayi bo‘ldi. Har ikki tomon bu hududlar uchun 150 yil davomida besh

marta urush qildi. Mil. avv. 274 – 271-yillarda salavkiylar Misrga qarshi urushga kirdilar, bu birinchi Suriya urushi deb ataladi. Lekin Antiox I qo‘shinlari Ptolemey II tomonidan mag‘lub etildi. Urush tinchlik shartnomasi bilan tugadi. Shartnomani mustahkamlash uchun sulolaviy nikoh tuzilib, Antiox II Ptolemey II ning qizi Berenikaga uylandi (mil. avv. 247-yil).

Mil. avv. 245 – 243-yillarda Misr podshohi Ptolemey III Finikiya va Suriyani bosib oldi. Antiox III buyuk Misr qo‘shiniga qarshi turib, Janubiy Suriya va Falastinni ishg‘ol qildi, lekin bu hududlarda o‘rnashib qola olmadi. Antiox IV davrida salavkiylar qo‘shini (mil. avv. 168 – 167-yillar) Janubiy Suriya va Finikiyani ishg‘ol qildi va Misr hududiga bostirib kirdi. Bu davrda Rim Old Osiyoga suqilib kira boshladi va bu hududdagi davlatlarning ichki ishlariga aralasha boshladi. Old Osiyodagi vaziyatni kuzatib turgan Rim davlati salavkiylarni Janubiy Suriya va Misr hududidan o‘z qo‘shinlarini olib chiqib ketishga majbur qildi. Mil. avv. 263 – 262-yillarda Antiox I Kichik Osiyoda Pergamni mustaqil davlat bo‘lib ajralib chiqishiga qarshilik qila olmadi. Davlat chegaralarini mustahkamlash uchun Kichik Osiyodagi Vifiniya bilan urush olib borildi.

Salavkiylar va O‘rta Osiyo. Antiox II davrida (mil. avv. 261 – 247-yillar) mil. avv. III asr o‘rtalarida davlat hududi qisqardi. Mil. avv. 250-yillar davomida Salavkiylar davlatidan O‘rta Osiyoda Baqtriya, So‘g‘diyona va Parfiya ajralib chiqdi. Kichik Osiyoda Vifiniya, Paflagoniya, Kappadokiya va Galatiya davlatlari, Qora va Kaspiy dengizlari oralig‘ida kichik Armaniston davlati paydo bo‘ldi. Midiyaning shimoliy qismida satrap Atropat Salavkiylar davlatidan ajralib chiqib, Midiya Atropatenasi davlatini tashkil qildi. O‘z vaqtida O‘rta Osiyoni Ahmoniylar davlati ham to‘la bo‘ysundira olmagan edi, baqtriyaliklar, saklar

fors armiyasida ilg‘or otliq qismlarni tashkil etgan edi. Aleksandr ham bu hosildor vodiylar, cho‘l-sahrolar va tog‘lik hududlardan iborat o‘lkani to‘la bo‘ysundira olmadi, faqat bir necha gavjum shaharlarni egalladi. Mil. avv. 312-yilda Aleksandr safdoshlaridan Salavkning chekiga bu hududlar tushdi. Lekin Salavkiylarning bu hududlardagi hukmronligi rasmiy bo‘lib, bu hududlar amalda mustaqil edi. Hozirgi Turkmaniston hududida mahalliy parn-dax yoki sak qabilalarining birining yo‘lboshchisi Arshak (sak botiri) mil. avv. 250-yillarda Parfiya davlatini tuzdi.Parfiya davlatini saklar tashkil etdilar. Bu sak davlati o‘z tili, e’tiqodi, o‘z davlatchiligi, asosini ilg‘or otliq qismlar tashkil etgan armiyasi va o‘z turmush tarziga ega bo‘lgan davlat edi. Parfiya davlati mahalliy etnos va urug‘-qabilalarni birlashtirdi va tez orada kuchli armiya bilan Salavkiylar bosib olgan Mesopotamiya hududlarini qaytarib olishga kirishdi. Parfiya mil. avv. I asrning o‘rtalarida o‘z hokimiyati ostiga Mesopotamiyadan Hindistongacha bo‘lgan bepoyon hududlarni birlashtirib, o‘z taraqqiyotining yuksak cho‘qqisiga chiqdi. Parfiya davlatining tashkil etilishi sharq dunyosining Ahmoniylardan keyin yana o‘z tarixida yangi bir davrni boshlab berishi bilan tavsiflanadi. Parfiya davridan boshlab endi g‘arbning sharqqa ekspansiyasi sustlashdi. Aksincha, sharq g‘arbga tomon uzluksiz siljishni boshladi. Bu siljish milodiy o‘n beshinchi asrgacha davom etdi. O‘rta Osiyodagi ikkinchi bir davlat Yunon-Baqtriya (Yunon-Baqtriya mil. avv. 130-yillargacha, Parfiya davlati milodiy 227-yiligacha yashadi) ham mil. avv. 250-yillar atrofida paydo bo‘ldi.

Podshoh Antiox III buyuk (mil. avv. 223 – 187-yillar) Parfiya va Baqtriyani bo‘ysundirish uchun mil. avv. 212 – 205-yillarda Sharqqa yurish qildi. Yurish davomida xarajatlarni qoplash uchun Antiox III Ekbatanadagi Anaxita ibodatxonasini taladi. Yu-

non-Baqtriya shaharlari ikki yil natijasiz qamal qilindi. Antioxning bu yurishi Salavkiylar davlatining yemirilishini vaqtincha to‘xtatdi. U markaziy hokimiyatni mustahkamladi. Kichik Osiyoning katta qismi bosib olindi va Kelesiriya Misrdan batamom tortib olindi. Kuchayib ketgan Salavkiylar davlati Pergam va Rodosning xavfsizligiga jiddiy xavf sola boshladi.

Salavkiylar va Makedoniya. Salavkiylar bilan Misr Egey dengizi havzasida ham raqobat qildilar. Misr bu hududda bir necha orollar, Kichik Osiyo qirg‘og‘idagi bir necha shaharlarga, Janubiy Frakiyaning bir necha viloyatlariga egalik qilar edi. Misrning bu mulklari salavkiylarning g‘arbiy viloyatlari bilan qo‘shni bo‘lgani uchun bu hududda kuchli raqobat mavjud edi. Salavkiylar markazdan uzoq bo‘lgan Egey havzasida misrliklar bilan raqobat qilishda diplomatik vositalardan foydalandilar. Egey havzasida salavkiylarga qarshi turishda Misrga Makedoniya ittifoqchi bo‘ldi. Makedoniya va salavkiylar hamkorlikda Misrning Egey havzasidagi mulklarini asta-sekin egalladilar. Lekin xalqaro vaziyat o‘zgardi. Rim qudratli Karfagen davlatini mag‘lub etib, Egey havzasida faollashdi. Rim bu havzaga o‘z ta’sirini kuchaytirishga kirishdi. Rim bilan Makedoniya o‘rtasidagi ikkinchi makedon urushida (mil. avv. 200 – 196-yillar) Makedoniya yengildi. Makedoniyaning og‘ir ahvolidan foydalangan Salavkiylar davlati podshohi Antiox III makedoniyaning Egey havzasini va Frakiyadagi mulklarini bosib oldi. Bundan tashqari salavkiylar qo‘shini Bolqon yarim oroliga bostirib kirdi. Natijada ikkinchi Suriya urushi boshlandi (mil. avv. 192 – 188-yillar). Makedoniya bilan urush boshlanib, Antiox III qo‘shini mil. avv. 190-yilda Magneziya yonidagi jangda Misr armiyasidan yengildi. Bu urush natijasida salavkiylar Kichik Osiyodagi barcha mulklarini yo‘qotdilar.

Iqtisodiy hayot. Salavkiylar davlati bir necha tabiiy tarixiy hududlardan tashkil topgan edi: Sharqiy O‘rtayer dengizi qirg‘og‘i, Kichik Osiyo, Mesopotamiya va Eronning bir qismi. Bu hududlarda bir necha ming yil davomida va ayniqsa yaqin o‘tmishda Ahmoniylar davrida shakllangan iqtisodiyot mil. avv. III asrda ham saqlanib qoldi va rivojlandi. Yuqori darajada rivojlangan iqtisodga ega bo‘lgan Suriya, Mesopotamiya va Finikiya shaharlari hamda chorvachilik va ibtidoiy dehqonchilikka ega bo‘lgan urug‘-qabilalar bu hudud va bu davr iqtisodiyotining o‘ziga xos tomonlari edi. Ahmoniylar davrida hunarmandchilik markazlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ichki va tashqi bozorga chiqarish Salavkiylar davrida ham davom etdi. Salavkiylar davlatining qudratini ta’minlagan asosiy manbalardan biri bo‘ldi. Ahmoniylar davrida shakllangan va rivojlangan xalqaro savdo yo‘llari tarmoqlarining katta qismi salavkiylar hududidan o‘tishi edi. Old Osiyoni Bolqon yarim oroli, Hindiston va Xitoy, Arabiston bilan bog‘laydigan savdo yo‘llari iqtisodiyotni barqaror rivojlanishi, sharqning turli xalqlarini mahsulotlar, yangi texnologiyalar va madaniy-ma’naviy yutuqlarni o‘zlashtirishning muhim omili bo‘ldi. Xalqaro savdo salavkiylar davlati xazinasiga ulkan miqdorda mablag‘ olib keldi. Shu sababli salavkiylar savdo yo‘llari xavfsizligini ta’minlash va uning ustidan o‘z nazoratini o‘rnatishga alohida e’tibor berdi. Ahmoniylar davrida xalqaro savdo yo‘llarida qurilgan bekat va karvonsaroylar, yo‘llar salavkiylar tomonidan o‘zlashtirildi. Davlat hokimiyati bir necha katta shaharlarda yuqori sifatli oltin, kumush tanga pul zarb qilishni yo‘lga qo‘ydi. Mahalliy savdo uchun joylarda jez tanga zarb qilindi. Salavkiylar soliq to‘lovini pul shaklida amalga oshirishni yo‘lga qo‘ydilar.

Mahalliy boy-zodagonlar bilan hukmron sulola o‘rtasidagi munosabatlar ziddiyatli bo‘ldi. Salavkiy

podshohlar davlat apparatidagi oliy mansablarini, qo‘shinni sarkarda va zobitlarini yunon-makedonlardan shakllantirdilar. Oliy lavozimlar mahalliy zodagonlar va boshqa tabaqalar uchun ham yopiq edi. Yunon-makedonlar fuqarolik va harbiy hokimiyatda oliy lavozimlarni egallab, katta yer, mulk va moddiy boyliklar, imtiyozlarga ega bo‘ldilar. Mahalliy zodagonlar, katta yer egalari va boy savdogar-tadbirkorlar an’anaviy turmush tarzida yashab, yunon madaniyati, turmush tarzini qabul qilmadilar, G‘arb tarixiy adabiyotida go‘yoki mahalliy boy-zodagonlar yunon turmush tarzi va madaniyatini qabul qilganlari haqida fikri aytiladi. Bunday fikrlar asossiz, chunki yunon turmush tarzi va madaniyatini tashuvchilari bo‘lgan yunon-makedonlar juda ozchilikni tashkil etib, ular hukmron tabaqa sifatida mahalliy aholidan alohida yashadilar. Ular juda ozchilik bo‘lib, barmoq bilan sanoqli bo‘lgan va ko‘pchiligi ilm-fan va madaniyatdan uzoq bo‘lib, mahalliy aholiga past nazar bilan qarar edilar (О.Шпенглер. Закат Европы, стр. 42, ОСР. 2007).

Salavkiylar va Rim. Kichik Osiyodagi Pergam va Egey dengizidagi Rodos oroli Salavkiy podshohi Antiox III ning tazyiqidan shikoyat qilib, Rimdan yordam so‘radi. Bu hududda o‘z ta’sirini kuchaytirish niyatida bo‘lgan Rim uchun bu ayni muddao bo‘ldi. Kuchayib borayotgan Rim uchun yangi kengliklarni egallashda sharqda Salavkiylar davlati asosiy to‘siq edi. Rim aholisi Antiox III saroyiga rimliklarning ashaddiy dushmani mashur Karfagen qo‘mondoni Gannibalni maslahatchi bo‘lib turganidan norozi edi.

Bu vaqtda rimliklar Yunonistonni bosib olishni rejalashtirdilar. Mil. avv. II asr boshlarida Salavkiylar bilan Rim respublikasi o‘rtasida Yunoniston uchun raqobat boshlandi. Mil. avv. 189-yilda Rim bilan bo‘lgan urushda Antiox III qo‘shinlari yengildi. Mamlakat

hududlarida Salavkiylarga qarshi norozilik, qo‘zg‘olonlar boshlandi. Parfiya g‘arbga tomon yurish qilib azaldan yaqin aloqada bo‘lgan Eron, Mesopotamiya, Kichik Osiyoga kirib keldi va Sharqiy O‘rtayer dengiz bo‘ylariga intila boshladi. Salavkiylarning bu hududlarga zulmi tufayli mahalliy aholi Parfiyani qo‘llab-quvvatladi. Midiyada satrap Timarxning salavkiylarga qarshi isyoni bu viloyatni parfiyaliklarning qaramog‘iga o‘tishiga yordam berdi. Midiya qadimdan qo‘shni parfiyaliklar bilan yaqin munosabatda edilar. Tez orada Parfiya qo‘shini Fors va Elam viloyatlarini egalladi.

Antiox III ning o‘g‘illaridan biri shuhratparast Antiox IV (mil. avv. 175 – 164-yillar) Salavkiylar davlatining o‘tmishdagi kuch-qudratini tiklashga urindi. Antiox IV Epifan shijoatli hukmdor bo‘lib, davlat hokimiyatini bir qadar mustahkamlashga erishdi. U mamlakatda san’at va madaniyatga homiylik qildi. Mamlakat ichida bir qadar ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni vujudga keltirib, salavkiylar hududini kengaytirishga harakat qildi. Antiox IV Misrni bosib olish uchun kuchli qo‘shin bilan yurish boshladi. Yo‘lda uni Rimning Misrdagi elchisi Gay Popiliy Lena to‘xtatadi. Aytishlaricha, Salavkiylardan ko‘ra, qudratli bo‘lgan Rim elchisi Antiox IV turgan joyning atrofiga doira chizib, Rimning (Misrga yurishni to‘xtatish) talabi bajarilmaguncha Antiox IV ni doira ichidan chiqib ketishini taqiqlagan. Natijada rimliklarning tazyiqi ostida Misr yurishi to‘xtatilgan.

Salavkiylar davlatining inqirozi. Mil. avv. II asr boshlarida Salavkiylar bilan Rim respublikasi o‘rtasida Yunoniston uchun raqobat boshlandi. Antiox VII Sidet (mil. avv. 138 – 129-yillar) davlatning yaxlitligini tiklashga urinishi uning mag‘lubiyati va halokati bilan tugadi. Bu Bobil, Parfiya va mahalliy sulolalar hokimiyati ostiga o‘tgan Fors va Midiyaning

ajralib ketishiga olib keldi. Mil. avv. I asr boshlarida salavkiylarga qaram bo‘lgan Yahudiya va Kommagen o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritdi. Salavkiylar davlatining yemirilish jarayoni tezlashib ketdi. Salavkiylar taxtida 35 yil ichida 12 podshoh almashdi. Ko‘p hollarda bir vaqtning o‘zida ikki yoki uch podshoh taxtga chiqdi. Natijada bu davlat hududi Suriya, Finikiya va Kilikiyaning bir qismi bilan chegaralanib qoldi. Siyosiy ta’sir vositasi bo‘lgan armiya va flotdan mahrum bo‘lgan Salavkiy hukmdorlari Rim va Parfiyaning qo‘g‘irchoqlariga aylandi. Salavkiylarning so‘nggi vakili Antiox XIII Rim tomonidan tan olindi, lekin 2 yildan keyin Pompey tomonidan taxtdan tushirildi. Mil. avv. 63-yilda Salavkiylar davlatining qoldiqlari Rim armiyasi tomonidan bosib olinib, uning hududida Suriya provinsiyasi tashkil etildi. Sharqiy Pont, Paflagoniya, Galatiya, Kappadokiya, Armaniston va Kommagen rimliklarga vassal bo‘lgan mahalliy hokimlar qo‘lida qoldi.

4. Pergam davlati. Pergamning asosiy hududi Kichik Osiyoning shimoliy-g‘arbiy qismi va Misiya viloyatidan iborat edi. Kichik Osiyodagi Pergamdan Gellespont orqali Bolqon yarim oroliga boradigan yo‘l va Egey dengizidan Qora dengiz bo‘yiga boradigan savdo yo‘llari o‘tgan. Pergam shahri dengiz qirg‘og‘idan 25 km masofada joylashgan edi. Bu davlat Attalidlar davrida dengiz davlatiga aylandi. Attalidlar sulolasi hukmdorlarining faol tashqi siyosati hamda diplomatiyasi sababli, Pergam davlatining hududi mil. avv. II asr boshlarida G‘arbiy Kichik Osiyoning Troada, Lidiya, Kariya va Likiyani qo‘shib olinishi bilan kengaydi. Bu hududlarda qadimdan rivojlangan hunarmandchilik, savdo va qishloq xo‘jaligi rivojlangan edi.

Mil. avv. 287-yil Pergam Salavkiylar davlati tarkibiga kirdi. Makedon zodagoni Attalning o‘g‘li Fileter salavkiylarning noibi edi. U Kichik Osiyodagi Paf-

lagoniya viloyatidagi bir ayolga uylandi. Fileter diadoxlarning o‘zaro urushlari va to‘s-to‘polonlardan foydalanib, Pergam shahri va uning atrofini egallab oldi hamda bu yerda saqlanayotgan Aleksandrning sharqqa talonchilik urushi vaqtidan olingan o‘ljalarni o‘zlashtirdi. Fileter Pergamni 22 yil boshqarib, keyin boshqaruvni jiyani Attalga topshirdi. Salavkiylarga qaram bo‘lgan Pergam noibi hisoblangan Attal I mil. avv. 240-yili Pergamni mustaqil deb e’lon qilib, podshohlik tojini kiydi.

Pergam nisbatan kichik davlat bo‘lgani uchun doimo o‘zidan kuchli qo‘shni davlatlar Salavkiylar, Misr va Makedoniya tahdidi ostida yashagan. Shu sababli Pergam hokimlari Attalidlar nihoyatda ehtiyotkor tashqi siyosat olib borganlar. Ular sharqda Salavkiylarning tajovuzkor tazyiqiga qarshi turish uchun, g‘arbda kuchli ittifoqchi sifatida Rim davlatiga tayandilar. Oxir-oqibat bu siyosat Pergamni Rim respublikasiga tobe bo‘lishga olib keldi. Attal I (mil. avv. 241 – 197-yillar) galatlar ustidan g‘alaba qilib, Rim bilan ittifoq tuzdi. Pergam birinchi (mil. avv. 215 – 205-yillar) va ikkinchi makedon urushida (mil. avv. 200 – 197-yillar) rimliklar tomonida turib ishtirok etdi. Rimliklarning homiyligi yordamida Pergam podshohligi Kichik Osiyodagi Salavkiylarning mulklarini egallab oldi va o‘zining eng qudratli davriga kirdi. Ammo Pergamning yuksalishi uzoq davom etmadi. Rim uchun kichik Pergam davlati xavfli emas edi. Attal II va Attal III hukmronligi davrida Rim uchun Pergam sharq dunyosiga ekspansiya uchun yordamchi bir tayanch nuqta bo‘ldi xolos. Kichik Pergamning ichki va tashqi siyosatini uning qudratli homiysi Rim senati belgilardi.

Pergam Kichik Osiyodagi azaliy hunarmandchilik va savdo markazlaridan biri edi. Osiyo, Afrika va Yevropani bog‘lab turgan xalqaro savdo yo‘llarining

kesishgan nuqtasida joylashgan Pergamda hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo yuqori darajada rivojlandi. Iqtisodiyotda qul mehnatidan unumli foydalanildi. Mashhur pergament – yumshoq buzoq terisidan tayyorlanadigan, yozuv uchun ishlatiladigan pergament ham pergamlik mohir hunarmandlarning kashfiyoti edi. Bu qog‘oz juda nafis va qimmat bo‘lib, bozori chaqqon mahsulot bo‘lgan. Pergam shaharlari dengiz savdosi yo‘llarida turganligi uchun mamlakatning boy xomashyolari (metall, yog‘och, smola – qatron, teri, jun)dan unumli foydalanildi. Pergam hunarmandchilik mahsulotlari, jumladan, pergament qog‘ozi butun Sharq va Egey dengizi havzasi ehtiyojlarini qondirar edi. Qulay iqlim sharoiti qishloq xo‘jaligini uzluksiz rivojlanishiga imkoniyat yaratdi. Pergam atrofdagi hududlar uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetkazib beradigan markazlardan biriga aylandi.

Attalidlar savdo-hunarmandchilikni rag‘batlantirish siyosatini olib bordilar. Pergamda yangi savdo-hunarmandchilik o‘choqlari – yangi shaharlar paydo bo‘ldi. Yangi shaharlar eski shaharlar bilan bir qatorda tezda iqtisodiyot va madaniyat o‘choqlariga aylandi. Attalidlar fan, adabiyot va san’atga homiylik qildilar. Poytaxt Pergamda galatlar ustidan g‘alaba sharafiga hashamatli ibodatxona qurildi. Yevmen II Pergamda mashhur kutubxona binosini barpo qildi. Tez orada bu kutubxonada nodir qo‘lyozmalar to‘planib, olimlar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordilar. Bu ilm o‘chog‘ida filologiya maktabi vujudga keldi. Pergam kutubxonasi haqiqiy ilm-fan markaziga aylanib, mashhur Iskandariya kutubxonasi bilan raqobat qildi.

Pergam tabaqalangan savdogar-hunarmand, dehqonlar va qullardan iborat shakllangan jamiyatga ega edi. Makedoniya va Yunoniston Rimga qaram bo‘lganidan so‘ng Pergamning mustaqilligi xavf ostida qol-

di. Yevmen II ning vorislari davrida Pergam O‘rtayer dengizi havzasidagi dengiz davlati mavqeyini yo‘qotdi. Rimliklarning ta’siri kuchayib ketdi. Rimlik savdogar-sudxo‘rlar Pergam iqtisodiyotiga xo‘jayin bo‘lib oldilar. Pergamning so‘nggi hukmdori Attal III o‘zigacha o‘tgan sulolaning boshqa vakillaridan axloqiy buzuqligi bilan farq qilar edi. U Rim tazyiqiga qarshilik ko‘rsata olmadi, aksincha rimliklarga moyillik siyosatini olib bordi. Rimliklarni mamlakat iqtisodiyotiga xo‘jayinligi pergam jamiyatida kuchli norozilikka olib keldi. Pergamda quyi tabaqalar podshoh Yevmen II ning asrandi o‘g‘li Aristonik boshchiligida qo‘zg‘olon ko‘tardilar. Qo‘zg‘olondan qo‘rqib qolgan keksa Attal III Pergam davlatini Rimga vasiyat qildi (mil. avv. 33-yil). Qo‘zg‘olonni yunon shaharlari aholisi qo‘llab-quvvatlamadi. Boshda Rim legionlari kuchli mag‘lubiyatga uchrab, Rim konsuli asir olindi. Lekin Rim qo‘shini bir o‘z vaqt o‘tib qo‘zg‘olonni shafqatsiz bostirdi. Aristonik mil. avv. 129-yilda rimliklar tomonidan qatl qilindi. Rim senati vasiyat qilingan podshohlik o‘rniga Rimning Osiyo provinsiyasini tashkil etdi.

BOLQON YARIM OROLI, SHIMOLIY QORADENGIZ BO‘YI MIL. AVV. III – II ASRLARDA

1. Makedoniya mil avv. III – II asrlarda.
2. Materik Yunonistoni va orollar.
3. Pont davlati.
4. Skif davlati.

1. Makedoniya. Peloponnes urushlari vaqtida Makedoniya Fors davlatiga qaramlikdan ozod bo‘ldi. Podshoh Filipp II (mil. avv. 350 – 336) davrida Bolqon yarim orolining shimolida joylashgan kichik Makedoniya davlatchiligining shakllanishi o‘z nihoyasiga yetdi. Aleksandr yurishlaridan keyin o‘zaro urushlar

davrida Makedoniya tushkinlikka uchradi. Makedoniyadagi beqaror vaziyat Aleksandr vafotidan so‘ng, qariyb ellik yil davom etdi. Aholining katta qismini sharqqa ko‘chishi (Bolqon yarim oroli aholisi son jihatdan juda kam bo‘lib 1 mlnga yaqin kishini tashkil etgan), urushlarda aholining qirilishi va dehqonlarning xonavayron bo‘lishi mamlakat ahvolini og‘irlashtirdi. Mil. avv. 280 – 277-yillarda Makedoniya galat (kelt) qabilalari hujumiga uchrab vayron bo‘ldi.

Aleksandrning o‘limidan so‘ng makedon taxtini uning sarkardalari ketma-ket egalladilar. Birinchi bo‘lib Antipatr o‘tirdi. Antipatrdan keyin keksa Polisperxont, undan so‘ng Kassandr makedon taxtini egalladi. Kassandrning mil. avv. 298-yilda o‘limidan so‘ng Dimitriy Poliorket, epirlik Pirr, Frakiyalik Lisimax Makedoniyaga egalik qildilar. Ptolemey I Misr taxtini kichik xotinidan bo‘lgan o‘g‘liga berganidan so‘ng, Ptolemeyning boshqa o‘g‘li Keravn Misrdan qochib Lisimax saroyida panoh topdi. Lisimax mil. avv. 282-yilda Salavk bilan Korupediya yonidagi jangda halok bo‘ldi. Salavk Korupediya yonidagi jangdan so‘ng 7 oy o‘tgach, makedon taxtini egallash uchun Makedoniyaga qo‘shin tortdi. Salavk mil. avv. 281-yilda Ptolemey Keravn yuborgan qotil tomonidan o‘ldirildi. Shundan so‘ng Ptolemey Keravn Lisimax qo‘shini yordamida makedon taxtini egalladi. Shundan ikki yil o‘tib galatlar (gallar) Frakiya orqali Makedoniya va Yunonistonga bostirib kirdilar. Ptolemey Keravn ular bilan jangda halok bo‘ldi.

Dimitriy Poliorket. Tushkunlik holatidagi yunon shaharlari Kassandr hukmronligi ostida edi. Aleksandrning safdoshi Antigonning g‘ayratli o‘g‘li Dimitriy Poliorket Afinani Kassandrdan tortib oldi. Afinaliklar Dimitriy va uning otasini o‘z shaharlarining «homiy-ilohlari» deb e’lon qildilar. Dimitriyning haykalini yaratish uchun o‘zaro raqobat qildilar. Iloh si-

fatida Afina ibodatxonasining bir qismini unga qarorgoh qilib berdilar. Dimitriy Peloponnes shaharlarini ozod shaharlar deb e'lon qildi. Buning evaziga Istima o'yinlarida Dimitriy Yunonistonning oliy yo'lboshchisi deb e'lon qilindi.

Dimitriy kayf-safoda, axloqsizlikda hammadan o'tib tushdi. Lekin u yaxshi lashkarboshi, qobiliyatli ixtirochi edi. U tez harakat qiladigan katta kemalar, qamal mashinalarini ixtiro qildi. Shu sifatlari bilan u dushmanlarini hayratga soldi va Poliorket (shaharlarni bo'ysundiruvchi) laqabini oldi. Lisimax va Salavk birlashib, Dimitriyning 80 yoshli otasi Antigonga qarshi qo'shin tortdilar. Dimitriy Poliorket otasiga yordamga keldi, lekin mil. avv. 301-yil Frigiyadagi Ips yonidagi jangda Lisimax va Salavk qo'shinlaridan yengildi. Afina o'z homiysiga yordam bermadi. Dimitriy qo'shin ta'minotiga mablag' topish uchun Xersones shahri va Lisimaxga tegishli viloyatlarni talon-taroj qildi. Misr hukmdori Ptolemey Dimitriy bilan yaqinlashdi. Dimitriy Antioxiyada Ptolemeyning qizi Stratonikaga uylandi. Shundan so'ng Afinaga flot bilan suzib borib, shaharni uzoq qamal va ochlik bilan ushlab turib, shahar himoyasida turgan Tiran Laxaritni taslim bo'lishga majbur qildi. Dimitriy xoinliklari uchun afinaliklardan o'ch olmadi, aksincha, ocharchilikda qolgan shaharga katta miqdorda oziq-ovqat sovg'a qildi.

Dimitriy Afinadan Spartaga yurish qilib, spartaliklar qo'shinini yanchib tashladi, u yunon podshohligini barpo qilishni rejalashtirdi. Shu vaqtda Kassandr vafot qildi. Kassandrning katta o'g'li Antipatr onasi Fessalonikani vorislikka ukasi Aleksandrni tanlaganini uchun o'ldirdi. Akasidan qo'rqib qolgan Aleksandr yordam so'rab Epir podshohi Pirrni chaqirdi. Pirr yetib kelib, aka-ukalarni murosaga kelib, podshohlikni bo'lib olishni taklif qildi. Dimitriy o'z qo'shini

bilan yetib kelganda, Aleksandr uni qaytib ketishga ko‘ndirishga urinib, Dimitriyga Larissa shahrigacha hamrohlik qildi. Aleksandr Dimitriyga ishonmagani, undan ajralishni rejalashtirgani uchun bazmlardan birida Dimitriy Aleksandrni chopib tashlashga buyruq berdi. Makedoniyaliklar shu lahzadayoq Dimitriyni Aleksandrning o‘rniga podshoh deb e’lon qildilar. Antipatr o‘z qaynotasi Lisimax oldiga qochib ketdi. Dimitriyni barcha makedon podshohi deb tan oldi. Dimitriyning eski raqiblari Salavk (uning qaynotasi), Ptolemey, Lisimax va keyinchalik Pirr o‘zaro birlashib Makedoniyaga yurish qildilar. Dimitriy ularga qarshi turdi.

Dimitriyning sharqona hashamati, mutlaq hokimiyati va turmush tarzidan norozi bo‘lgan makedonlar undan voz kechib, Epir podshohi Pirrni makedon taxtiga taklif qildilar. Pirr tezda qo‘shin bilan yetib keldi. Dimitriy o‘ziga sodiq ozgina askarlar bilan o‘g‘li Antigon Gonat qarorgohiga qochdi. Pirr va Lisimax makedon podshohligini bo‘lib oldilar. Dimitriy hech qachon Makedoniyaga qaytmadi. Yunonistonda qo‘shin va flot to‘plab, Dimitriy Osiyoga jo‘nadi. Milet shahrida Ptolemeyning qizlaridan biriga uylandi. Keyin o‘z qaynotasining barcha hududlarini vayron qilib, Kariya va Lidiyaga o‘tdi. Bu hududlarda u podshohlik barpo qilmoqchi edi. Lekin Lisimaxning kuyovi Agafokl Dimitriyga qarshi chiqib, bir necha janglarda uni yanchib tashladi. Chorasiz qolgan Dimitriy kuyovi Salavkka yordam so‘rab murojaat qildi. Salavk Agafoklni chekinishga majbur qildi. Dimitriy yordamga javoban, nonko‘rlik qilib yana qaynotasining mulklariga bosqinchilik yurishi qildi va Salavkning qarorgohiga tunda hujum qildi. Oldindan ogohlantirilgan Salavk xoinona hujumni qaytarish uchun tayyorlanishga ulgurdi. Salavkning taklifi bilan Dimitriyning askarlari uning tomoniga o‘tdilar. Dimit-

riy o‘rmonzor, tog‘larga qochdi, lekin to‘rt tarafdan o‘rab olingach, taslim bo‘ldi. Salavk oliy himmat ko‘rsatib, uni kechirdi. Dimitriyga Suriyadagi Apameya shahrida yashashga, barcha qulayliklardan foydalanishga ruxsat berdi. Lekin uning orqasidan o‘ta qattiq nazorat qilishni buyurdi. Podshohlikdan mahrum bo‘lgan, jo‘shqin faoliyatdan chetlashtirilgan Dimitriy Poliorket bor vaqtini ovda, turli o‘yinlarda, ichkilikbozlikda o‘tkazib, tutqunligining uchinchi yilida 54 yoshda mil. avv. 284-yil vafot etdi. Aleksandrning safdoshi Antigonning o‘g‘li Dimitriy Poliorket, yunon shaharlari yo‘lboshchisi, Makedoniya podshohi, qudratli Ptolemeyning ikki qizining turmush o‘rtog‘i, Salavkning qaynotasi, qobiliyatli sarkarda, shahar qamali mashinalari va katta kemalar ixtirochisi edi.

Antigonlar sulolasi. Aleksandrning safdoshi bir ko‘zli Antigonning nevarasi Antigon Gonat Makedoniyaga (mil. avv. 276 – 168-yillar) hukmronlik qilgan Antigonlar sulolasiga asos soldi. Antigon mil. avv. 280 – 277-yillarda galat (kelt)lar hujumini ikki marta qaytardi. Mil. avv. 276-yilda Antigon Gonat galatlar g‘olibligidan va Makedoniyadagi boshboshdoqlikdan foydalanib, o‘zini Makedoniya podshohi deb e’lon qildi, uning avlodlari Makedoniyani Rim bosib olgunga qadar (mil. avv. 168-yilgacha) boshqardilar. Bu davlat tarkibiga Makedoniya, Yunoniston va Egey dengizidagi bir necha orollar kirdi.

Antigon Gonat (mil. avv. 283 – 239) Epir podshohi Pirrning Makedoniyaga hujumini qaytarib, Makedoniyaning shimoliy chegarasini mustahkamladi. Korinf shahrini egallab, barqaror dengiz aloqasini yo‘lga qo‘ydi. Makedoniyani yunon shaharlariga ta’sirini kuchaytirdi.

Antigon va uning vorislari xo‘jalik hayotini tiklash, mamlakatni siyosiy va harbiy mavqeyini qaytarish uchun qator chora-tadbirlarni amalga oshirdilar.

Yangi shaharlar qurilib, eskilari qayta tiklandi. Bo‘sh yotgan yerlarga aholi ko‘chirildi. Konlar qazildi. Kemasozlik rivojlandi. Qurilish yog‘ochlari bilan qizg‘in savdo qilindi.

Iqtisodiyotning asosini erkin dehqon mehnati yetakchi bo‘lgan qishloq xo‘jaligi tashkil etar edi. Podshohga faqat o‘rmon va qazilma boyliklar tegishli edi. Makedoniyada urug‘-qabilachilik qoldiqlaridan biri bo‘lgan podshoh saylovi saqlanib qoldi: qo‘shin yig‘inida avvalgidek, podshohning taxtga chiqishi odati o‘z ahamiyatini saqlab qoldi. Qo‘shin yig‘ini oliy sudya rolida chiqar edi.

Antigonlar sulolasi uchun Yunonistonda o‘z hukmronligini ta’minlash juda og‘ir siyosiy muammo edi. Diadoxlar urushi davrida yunon shaharlari Makedoniya tazyiqidan ozod bo‘ldlar. Zaiflashib qolgan Makedoniyaning g‘arbiy va shimoliy chegaralariga illiriyaliklar, dardanlar va frakiyaliklarning hujumlari kuchaydi. Antigon Gonat va uning vorislari kuchli armiyani tuzib, mamlakatning kuchli iqtisodiyotiga tayanib, bu muammoni ijobiy hal qildilar. Makedon hokimlari yunon strategik jihatdan qulay joylashgan Korinfni egalladilar va natijada O‘rta Yunonistonning Peloponnes shaharlari bilan aloqasini o‘z nazoratlari ostiga oldilar. Muhim nuqtalar bo‘lgan Pirey porti, Xalkidika va Demetriada shaharlariga Makedon harbiy qismlari joylashtirildi.

Bolqon yarim orolida Makedoniyaning kuchayib ketishidan bezovta bo‘lgan Misr Yunonistonda Axaya ittifoqiga kirgan shaharlar va Afina, Sparta shahar-davlatlarini Makedoniyaga qarshi ittifoqini tashkil etdi. Lekin Makedoniya Xremonid (mil. avv. 266 – 262-yillar) urushida g‘olib chiqdi, yunonlarni qo‘llab-quvvatlagan Misr flotini Kos oroli yonida mag‘lub qildi. Makedoniya yunonlar shahar-davlatlarida o‘z yetakchiligini ta’minlashda yunonlar o‘rtasidagi zid-

diyatlardan unumli foydalandi. Bunday siyosat mil. avv. III asrning ikkinchi yarmida yunon shaharlari ustidan Makedoniyaning hukmronligini ta'minladi.

Birinchi makedon urushi (mil. avv. 215 – 205-yillar) Makedon hukmdori Filipp V (mil. avv. 221 – 179-yillar) ittifoqchilar urushida (mil. avv. 220 – 217-yillar) g'olib chiqdi. Ikkinchi Puni urushi davrida Makedoniya Gannibal bilan Rimga qarshi ittifoq tuzdi va mil. avv. 216-yilda Illiriyada Rimga qarshi urush harakatlarini boshladi. Natijada mil. avv. 215 – 206-yillarda birinchi makedon urushi yuz berdi. Karfagen bilan urushga kirishgan Rim Makedoniya bilan urush harakatlarini keng miqyosda olib bora olmas edi. Shu sababli Rim diplomatiyasi Pergam va Peloponnesning bir necha polislari bilan mil. avv. 212-yilda Makedoniyaga qarshi ittifoq tuzdi. Rimning ittifoqchilari Makedoniyaga qarshi urush harakatlarini boshladilar. Urushda rimliklarning yordamchi harbiy qismi ishtirok etdi. Rimning Karfagen lashkarboshisi Gannibal armiyasi ustidan g'alabasi Makedoniya podshohi Filipp V ni Italiyaga yurish xavfini bartaraf qildi. Urush harakatlari har ikki tomon kuchlarini to'la zaiflashuvi bilan mil avv. 205-yilda tugadi. Birinchi rim-makedon urushida (mil. avv. 215 – 205-yillar) Makedoniya Yunonistondagi yetakchilik mavqeyini saqlab qola oldi. Rim amalda hech qanday zarar ko'rmadi.

Ikkinchi makedon urushi (mil. avv. 200 – 197-yillar) boshlandi. Mil. avv. 205-yilda Misr taxtiga 5 yoshli Ptolemey Epifan o'tirdi. Makedon podshohi Filipp V Salavkiylar hukmdori Antiox bilan zaiflashib qolgan Misrning hududlarini bosib olish uchun ittifoq tuzib, Misrga qarshi urush boshladilar. Filipp V Misrning Kichik Osiyo va Egey dengizi havzasidagi mulklarini bosib oldi.

Mil. avv. 201-yilda qudratli Karfagenni mag'lub etib, G'arbiy O'rtayer dengizi havzasida hukmronlikni

qo‘lga olgan Rim endi o‘z nigohini Bolqon yarim oroliga qaratdi. Bu hududda Rim ekspansiyasiga faqat Makedoniya qarshi tura olar edi. Rim senati sharqda yuzaga kelgan vaziyatdan foydalanishga harakat qildi. Eng avvalo Rim diplomatiyasi Makedoniyaga qarshi ittifoqni yuzaga keltirishga kirishdi. Rim senati Misrni makedon bosqiniga qarshi Rimdan yordam so‘rashga majbur qildi. Rim Misrga qarshi urushga kirgan Salavkiy podshoh Antioxdan Misrga yurishni to‘xtatishga ko‘ndirdi. Filipp V mil. avv. 200-yilda Frakiyada harbiy harakatni boshlab Akarnaniyaning Afinaga qarshi urushda yordam berish to‘g‘risidagi iltimosi bilan Afinaga harbiy ekspeditsiya yubordi. Rim senati Makedoniyaning bu harakatini Rimning ittifoqchisiga qarshi chiqish deb baholadi. Tez orada Rim legionlari tushgan flot Yunoniston qirg‘oqlarida paydo bo‘ldi. Bu davrda manfaatlari bir-biriga zid bo‘lgan yunon polislari Etoliya va Axey ittifoqlariga birlashib, o‘zaro urush olib borar edilar. Makedoniya ham bir necha yunon polislari kirgan ellin ittifoqiga boshchilik qildi va yunon shaharlari ichki ishlariga faol aralashdi. Rim yunon polislarining Makedoniyaga qarshi chiqishlarini qo‘llab-quvvatladi.

Makedoniyaning Kichik Osiyo va Egey havzasidagi gegemonligi Pergam va Rodos uchun xavfli edi. Bu kichik davlatlar Makedoniyaga qarshi tayanch sifatida Rimni tanladilar. Rim senati Makedoniyaga qarshi Pergam, Podos oroli, Etoliya, Afina va Vizantiy kirgan ittifoqni tuzilishiga erishdi. Mil. avv. 200-yilda II makedon urushi (mil. avv. 200 – 197-yillar) boshlandi. Urush 2,5 yil davom etdi. Fessaliyadagi Kinoskefal («itning kallasi») qishlog‘i yonidagi mil. avv. 197-yildagi hal qiluvchi jangda Makedoniya yengildi. Filipp V g‘olibning og‘ir shartlari asosida tinchlik sulhini tuzishga majbur bo‘ldi. Makedoniya rimliklarga o‘sha vaqt uchun ulkan bo‘lgan ming talant tovon to‘la-

di; makedon floti yo‘q qilindi, faqat 5 qo‘riqchi kema qoldirildi; quruqlikdagi makedon armiyasi 40 ming kishidan 5 000 kishigacha qisqartirildi; Makedoniya Rimning ruxsatisiz har qanday urush boshlash huquqidan mahrum bo‘ldi; Makedoniya Yunoniston va Kichik Osiyodagi barcha mulklaridan ajralib, o‘zining tabiiy kichik hududi bilan chegaralanib qoldi.

Makedoniya yunon shaharlarining erkinligini tan oldi. Rim yunon shaharlarini erkinligini rasman etirof etdi, lekin ularning ichki ishlariga faol aralashib, bu shaharlarda o‘ziga foydali bo‘gan aristokratik boshqaruvni qo‘llab-quvvatladi. Spartada rimliklarga qaram bo‘lishni istamagan tiran Nabis qo‘zg‘olon ko‘tardi. Rim yunon shaharlari nomidan mil. avv. 195-yilda Spartaga urush e’lon qildi. Urushda Nabis yengildi va rimliklarning og‘ir shartlarini qabul qilishga majbur bo‘ldi.

Uchinchi makedon urushi mil. avv. 171 – 168-yillar. Filipp V ning o‘g‘li Persey (mil. avv. 179 – 168-yillar) Makedoniyaning avvalgi qudratini qayta tiklash uchun Rimni Bolqon yarim orolidan siqib chiqarishda faol siyosat yuritdi. Persey Rimga qarshi yunon shaharlari bilan ittifoq tuzishga urindi. Ayrim illir va frakiya qabilalari Makedoniyani qo‘llab-quvvatladilar. Rim senati Makedoniyaga qarshi urush e’lon qildi. Makedoniya hududida 40 ming kishilik Rim armiyasi urush harakatlarini boshladi. Shu tarzda III makedon urushi (mil. avv. 171 – 168-yillar) boshlandi. Rim legionlari makedon shahar va qishloqlarini vayron qildilar. Mil. avv. 168-yilda Pidna yonidagi hal qiluvchi jangda makedon armiyasi yengildi. Rim armiyasi bu urushda katta o‘ljalar oldi, makedon podshohi xazinasini, uning saroyidagi san’at asarlari va qimmatli qo‘lyozma kitoblarini Rimga tashib ketdi.

Podshoh Persey asir olinib, Rimga jo‘natildi. Rim senati mustaqil Makedoniya davlatini tugatdi. Ma-

kedoniya hududi to‘rt okrugga bo‘lindi. Makedoniyada urushni tugatib, Rim o‘zining ittifoqchilari yunon shaharlariga qarshi urush boshladi. Ittifoqchilar Makedoniyaga yordam berishda ayblanib qattiq jazolandi. Mil. avv. 148 – 146-yillarda o‘zini Perseyning o‘g‘li deb e’lon qilgan Andrisk Rimga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tardi. Rimliklar bu qo‘zg‘olonni bostirib, ba’zi yunon shaharlarini vayronaga aylantirdilar. Korinf shahri aholisi qul qilib sotib yuborildi. Yunon shaharlari o‘z mustaqilliklaridan abadiy mahrum bo‘ldilar. Makedoniya mil. avv. 146-yilda Rim provinsiyasiga aylantirildi.

2. Materik Yunonistoni va orollar. Mil. avv. IV asrda yunon shahar-davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro urushlar, Makedoniyalik Aleksandr yurishlari oqibatida iqtisodiy-ijtimoiy tushkunlik, urushlarda berilgan qurbonlar, yunonlarning boshqa hududlarga chiqib ketishi – Yunoniston xo‘jalik va madaniy hayotini izdan chiqardi. Natijada Yunoniston chekka hududga aylandi. Yunonistonning madaniy o‘choq sifatidagi shuhratini Afina bir qadar qo‘llab-quvvatlab turdi. Afinada yunon falsafasi o‘qitildi. Afina va Rodosda an’anaviy haykaltaroshlik maktablari o‘z faoliyatini davom ettirdi.

Yunon shahar va qishloqlarida ijtimoiy ziddiyatlar keskinlashdi. Joylarda hokimiyatni tiranlar egallay boshladi. Hududda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat keskinlashdi. Mil. avv. III asrda Yunonistonda yerlarni qayta taqsimlash harakati avj oldi. Argosda iqtisodiy-ijtimoiy ziddiyatlardan ozor chekkan aholi kuchli hokimiyatni o‘rnatishidan umidvor bo‘lib, tiran Aristomaxni, Megalopolda Aristodemni qo‘llab-quvvatladi. Mil. avv. III asr o‘rtalarida Xios va Teri orollarida ham ijtimoiy-iqtisodiy norozilik harakatlari kuchayib ketdi. Antik mualliflarning ma’lumotlariga ko‘ra, og‘ir iqtisodiy-ijtimoiy ziddiyatlar qurshovida qolgan Yu-

noniston aholisining katta qismi bu davrda sharqqa ko‘chadi. Faqat Afina va Korinf shaharlarida ahvol bir qadar yengil bo‘lgan.

Mil. avv. 284-yilda bir necha yunon shaharlari Etoliya ittifoqini tashkil etdilar. Aleksandr va uning vorislari bekor qilgan Axey ittifoqi ham qayta tiklandi (mil. avv. 280-yil). Axey ittifoqi bir necha yunon shahar-davlatlari o‘rtasidagi mudofaa va hujum ittifoqi edi. Bu ittifoqda umumiy tadbirlar belgilanib, yagona pul tizimi kiritildi, lekin ittifoq a’zosi bo‘lgan har bir shahar o‘z mustaqil boshqaruvi va o‘z muassasalarini saqlab qoldi. Yiliga ikki marta ittifoq a’zolari Egeya shahriga to‘planar edilar. Ittifoq boshqaruvidagi oliy lavozim strateg deb ataldi.

Mil. avv. 284-yilda tashkil etilgan Etoliya ittifoqi Axey ittifoqi bilan muntazam dushmanlik munosabatida bo‘ldi. Sparta har ikkala ittifoqni ham zaiflashtirishga harakat qildi. Axey ittifoqi Peloponnesda o‘z hukmronlik mavqeyini tiklash va Spartaning tahdidi sababli Makedoniya bilan yaqinlashdi. Mil. avv. 222-yilda Senlaziya yonidagi jangda Sparta Axey ittifoqidan yengildi. Makedoniyaliklar bu g‘alabadan keyin Spartaga bostirib kirdilar va Spartani Axey ittifoqiga qo‘shilishga majbur qildilar. Axey ittifoqi Rimning Makedoniyaga qarshi urushlari davrida ikki o‘t orasida qoldi. Bu ikki davlatning o‘rtasida kuchlar nisbatiga qarab ish ko‘rishga majbur bo‘ldi. Uchinchi makedon urushida Axey ittifoqi Rim bilan hamkorlik qildi. Lekin rimliklar Axeyning sodiqligidan shubhalanib, mingta axeyaliklarni garov sifatida Rimga jo‘natdi. Garovga olinganlar orasida bo‘lg‘usi tarixchi Plutarx ham bor edi. Makedoniya davlati Rimga qaram bo‘lganidan so‘ng (mil. avv. 268) Axey va Etoliya ittifoqlari ham Rim tomonidan tugatildi.

Sparta. Spartada ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlarni bartaraf etish uchun podshohlar Agis III (mil. avv. 244

– 235-yillar) va Kleomen III (mil. avv. 235 – 221-yillar) islohotlar o‘tkazdilar. Agis III qarzlarni bekor qilishga harakat qildi va qadimgi qonunlarni tiklash asosida Sparta jamiyatini qayta jonlantirishga urindi. Ekin yerlari 700 oila o‘rtasiga yangidan taqsimlandi. Agis Sparta fuqarolari sonini ko‘paytirish uchun qolgan yerlarni 15 ming periyeklarga taqsimlab berishni taklif qildi. U o‘z mol-mulkini ham spartaliklarga hadya qildi. Bu islohotlar natijasida qadimgi Sparta tarbiyasi va urf-odatlari qayta tiklandi, periyeklar hisobiga fuqarolar soni ko‘paydi. Aholining katta qismi islohotlarni qo‘llab-quvvatladi. Sparta qo‘shini kuchayib, Spartaning asosiy raqibi Axey ittifoqiga qarshi g‘olibona urushlar olib borildi. Agisning bu siyosati Sparta zodagonlariga yoqmadi. Ular fitna uyushtirib, islohotchi podshohni bo‘g‘ib o‘ldirdilar.

Spartaning keyingi podshohi Kleomen III (mil. avv. 235 – 221-yillar) Agisning siyosatini davom ettirishga harakat qildi. U dastlab podshoh hokimiyatini kuchaytirishga, eforlarning hokimiyati qudratini zaiflashtirishga harakat qildi. Kleomen Axey ittifoqi bilan navbatdagi urushda g‘olib chiqdi. Spartaga yollanma askarlar bilan kirib, to‘rt eforni qatl etib, efor unvoni va eforlar hokimiyatini bekor qildi. Davlatni boshqarish vakolatlarining katta qismi podshoh qo‘liga to‘plandi. Qarzdorlarning qarzi to‘liq bekor qilinib, yerlar qayta teng taqsimlandi.

Lekin Axey ittifoqi bilan yangi urush oqibatida bu islohotlar nihoyasiga yetmadi. Axey ittifoqi Makedoniyaning yordami bilan Spartaga qarshi urush boshladi va Sparta qo‘shinlarini mil. avv. 222-yil mag‘lubiyatga uchratdi. Kleomen Misrga qochib ketdi va Ptolemey Filopatrdan yordam so‘radi. Filopatr yordam bermadi. Filopatrdan o‘ch olish niyatida Kleomen unga qarshi Misr fuqarolarini gij-gijladi. Lekin hech qanday natijaga erisha olmadi. Podshoh Filopatrning

qo‘liga tushmaslik uchun o‘zini o‘ldirdi. Kleomenning jasadi teriga o‘ralib, dorga osib qo‘yildi. Uning onasi va bolalari qatl qilindi. Sparta tushkunlikka uchrab, oxir-oqibatda mil. avv. 146-yilda o‘z mustaqilligini yo‘qotdi va Rim provinsiyasi tarkibiga kirdi.

Rodos. Mil. avv. III-II asrlarda Rodos oroli xalqaro savdo yo‘lida joylashgani uchun gullab-yashnadi. Rodos orqali Yunonistondan vino, keramika, zaytun yog‘i, Finikiya qizil matosi, Sharq xushbo‘y moylari, qimmatbaho matolar, zargarlik buyumlari, Misr g‘allasi tashilar edi. Vositachilik savdosi Rodosda yiliga 1 mln draxm daromad keltirdi. Rodos orqali 1 yilda 50 mln draxma miqdorida tovar (taxminan hozirgi 500 mln dollar) o‘tar edi. Rodos Bolqon Yarim oroli va Egey havzasini O‘rtayer dengizi, Finikiya portlari va Misr Aleksandriyasi bilan bog‘lagan nuqta edi. Rodos tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishi savdo yo‘llarining xafvsizligini ta’minlash bo‘lib, shu sababli u kuchli harbiy flot saqladi. Dengiz savdo yo‘llari xavfsizligini ta’minlash uchun Rodos dengiz piratlari bilan shafqatsiz urush olib boradi. Rodos kichik davlat bo‘lgani uchun doimiy ravishda biror bir qudratli davlat panohida bo‘lishga harakat qildi. Rodos mil. avv. III asrda qudratli Misr bilan ittifoqqa tayandi. Mil. avv. III asr o‘rtalarida kuchayib ketgan Pergam podshohligiga tayandi. Shu asr oxirida qudratli Rim davlati bilan ittifoq tuzdi.

Rodos dengiz va bo‘g‘ozlarda yetakchilik uchun Makedoniya bilan doimo dushmanlik munosabatlarida bo‘ldi. Shu sababli Rodos Makedoniyaga qarshi urushga kirgan har qanday davlat bilan ittifoqchilik munosabatlarini o‘rnatdi. Ikkinchi rim-makedon urushi davrida (mil. avv. 200 – 196-yillar) Rim tomonida turib, rimliklarning dengiz ta’minotini amalga oshirdi. Makedoniya davlati tugatilganidan so‘ng Rim respublikasi Rodosning savdo, harbiy va siyosiy qud-

ratini zaiflashtirish siyosatini olib bordi. Rim senatining qarori bilan Rodosning qit‘adagi boy mulklari tortib olindi. Uning dengiz savdosidagi monopoliyasini tugatish uchun Delos orolidagi port bojsiz savdo qiladigan port deb e’lon qilindi. Natijada dengiz savdosining bir qismi Delos oroli orqali o‘tib, Rodosning savdo va siyosiy nufuzi keskin qisqardi. Keyinchalik esa Rodos oroli Rimga qaram hududga aylandi.

Rodosda san’at gullab-yashnadi. Mahalliy haykaltaroshlik maktablari shakllandi. Mashhur Lisippning shogirdi haykatarosh Xares Rodosning homiysi xudo Geliosga bag‘ishlab 36 metrli haykalni yaratdi. Bu haykal 12 yil davomida bunyod qilindi (taxminan mil. avv. 304 – 292-yillar). Dunyoning 7 mo‘jizasidan biri sanalgan bu haykal Pergamdagi mavzoley va Galikarnosdagi Artemida ibodatxonasining kichik zamondoshi edi. Shuningdek, Rodosda Lisipp maktabi vakillari «Ilonlar bilan kurashayotgan Laokoon va uning o‘g‘illari» haykallari guruhini yaratdilar.

Rodosda notiq Esxin notiqlik maktabiga asos soldi. Mil. avv. II asr oxiri I asr boshida Rodosda mashhur Sitseronning o‘qituvchisi notiq Molon ta’lim oldi. Rodos homiyligida orollarda ipakchilik va vinochilik markazi, Kosda mashhur tabiblar maktabi faoliyat ko‘rsatdi.

3.Pont davlati. Pont davlati Kichik Osiyoning shimoli-sharqiy qismini egallab, Galis daryosidan g‘arbda Kolxidagacha, janubda Kappadokiya bilan chegaradosh bo‘ldi. Qoradengiz qirg‘o‘g‘iga ega bo‘lish Pont iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir qildi. Qulay yumshoq iqlim va tabiat, uncha baland bo‘lmagan tog‘lar dehqonchilik, uzumchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanish uchun qulay sharoit edi. Mamlakatda temir, mis va kumush xomashyosining mavjudligi iqtisodiy taraqqiyot uchun qulay imkoniyatlar yaratdi. Pont tuz

ishlab chiqarish, kemabop yog‘ochni eksport qilishda yetakchi davlat edi. Ahmoniylar davrida bu viloyatni boshqargan satrap Mitridat (mil. avv. 302 – 266-yillar) Ahmoniylar davlati yemirilgan paytda o‘zini Pont hokimi Ktista (asoschi) deb e’lon qildi. Mamlakat yunon-makedon bosqiniga uchramadi. Pont Sharq davlati bo‘lib, hokmiyat tepasida ham mahalliy sulola turar edi. Mil. avv. III asrda Pont Old Osiyoda katta davlatlar o‘tkazayotgan siyosatdan chekkada turdi.

Mitridatning vorislaridan biri Salavk I ning singlisiga uylandi. Kichik Osiyodan o‘tadigan savdo yo‘llarining markazini egallagan Pont dengiz qirg‘og‘i va qulay iqlim mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlanishini ta’minladi. Pont qo‘shni hudud va mamlakatlar bilan foydali savdo aloqalarini yo‘lga qo‘ydi. Davlat hokimiyati savdo-hunarmandchilikning rivojlanishini rag‘batlantirdi.

Misr, Salakiylar davlati va Makedoniyaning zaiflashuvi Pont davlatini Farnak I (mil. avv 185 – 170-yillar) davrida kuchayishiga olib keldi. Pont Shimoliy Qoradengiz bo‘yidagi muhim savdo nuqtasi Sinop shahrini bosib oldi va bosib olingan hududlar chegarasida yangi bir tayanch bo‘lgan Farnak shahrini bunyod qildi. Qo‘shni Pergam, Vifiniya va Kappadokiya Pontning kuchayib ketishini istamas edilar. Farnak Rim senati bilan aloqa o‘rnatdi va o‘z tashqi siyosatini rimliklar tomonidan qo‘llab-quvvatlanishiga erishdi. Rim boshda Petgam va Vifiniyaga qarshi turgan, kuchayib borayotgan Pont davlatini qo‘shni hududlarning istilochilik yurishlariga xalaqit bermadi.

Farnakning o‘g‘li Mitridat V Everget (mil. avv. 150 – 120-yillar) otasining Pont davlatini mustahkamlash siyosatini davom ettirdi. U diplomatik vositalarni ishlatib, Kappadokiya va Pafllagoniya davlatlarini qo‘shib oldi. Mitridat V Rimga tayanib ish ko‘rdi.

Rimliklarning Karfagen bilan olib borgan 3-Puni urushida (mil. avv. 149 – 146-yillar) rimliklar tomonida turib urushdi. Pergamda Aristonikning (mil. avv. 133 – 129-yillar) qo‘zg‘olonini bostirishda rimliklarga yordam berdi. Lekin Pergam davlati Rimga qo‘shib olinganidan so‘ng Rimning Pont bilan uyg‘un munosabatlari tugadi.

Rimning Kichik Osiyodagi ekspansiyasini davom ettirishda kuchli Pont davlati to‘siq bo‘ldi. Mitridat V ning mustaqil siyosat yuritishga urinishi Rimning tarafdorlarini Pont saroyida fitna uyushtirib Mitridat V ni o‘ldirilishiga olib keldi. Bunga javoban Pont hukmron tabaqalari 12 yoshli podshoh Mitridat VI Yevpator (mil. avv. 120 – 63-yillar) atrofida Rimning tajovuzkor siyosatiga qarshi birlashdi.

Mitridat VI o‘zining qariyb 60 yillik hukmronligini Pont davlatini mustahkamlash va Rim tazyiqiga qarshi kurashda o‘tkazdi. Mitridat VI rimliklarga qarshi mil. avv. 89-yildan 63-yilgacha uzilishlar bilan 36 yil urush olib bordi. Bu urush oxir-oqibatda rimliklarning g‘alabasi bilan tugadi. Mitridat VI kuchli qo‘shin va 200 kemadan iborat harbiy dengiz flotini tashkil etdi. Pont Rimning raqibi, uning sharqqa ekspansiyasiga qarshi turgan qudratli Parfiya davlati bilan Rimga qarshi ittifoq tuzdi. Rimning Pont bilan urushlari Mitridat urushlari deb atalib uch davrga bo‘linadi. Birinchi Mitridat urushi (mil. avv. 89 – 85-yillar) da Mitridat VI Rimning Osiyo provinsiyasini bosib oldi va Kichik Osiyoni Rim bosqinchilaridan to‘la tozaladi. Mitridat Bolqon yarim oroli va Makedoniyaga yurish qildi. Mil. avv. 86-yilda Xeroneya yonidagi jangda Pont Sulla armiyasidan yengildi. Ikkinchi Mitridax urushi mil. avv. 83 – 82-yillarda yuz berdi. Rim legionlari Pont hududiga bostirib kirdi va Mitridat armiyasidan yengildi. Uchinchi Mitridat urushi

mil. avv. 74 – 64-yillarda bo‘lib o‘tdi. Bu urush 10 yil davom etib, Rimning g‘alabasi bilan tugadi. Mag‘lub bo‘lgan mag‘rur Mitridatni barcha yaqinlari va hatto o‘z o‘g‘li Farnak ham tashlab ketdi. Mitridat VI mil. avv. 63-yilda o‘z saroyida o‘zini o‘ldirdi. Pont davlati Rimga qo‘shib olindi.

4.Skif davlati. Shimoliy Qoradengiz cho‘l va dashtlarida turli tillarda gaplashadigan ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi urug‘-qabilalar yashar edi. Bu hududda bir necha yunon shaharlari, Pont, Bosfor va Skif davlatlari tashkil topdi. Mahalliy etnoslar orasida eng kuchlisi skiflar bo‘lib, ular bir necha davlatlarni tashkil etdilar. Mil. avv. III asr o‘rtalarida poytaxti Neapol (hozirgi Simferopol shahri) bo‘lgan kuchli Skif davlati tashkil topdi. Skiflar qo‘shni hududlar, Kichik Osiyo va yunon shaharlari bilan faol savdo aloqalarini olib bordi.

Mil. avv. II asr o‘rtalarida skif davlati kuchaydi. Shimoliy Qoradengiz bo‘yida yunonlar tayanch nuqtalarni barpo qildilar. Ularning bir necha qarorgohlari vaqt o‘tishi bilan shaharlarga aylandi va bu shaharlarning mahalliy aholi bilan munosabatlari murakkablashdi. Yunonlar mahalliy etnoslarning hududlarini zo‘ravonlik bilan egallab oldilar. Mil. avv. III asrda Shimoliy Qoradengiz bo‘yidagi yunon-shaharlari mahalliy Skif davlatining kuchayib ketishiga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qildilar. Jumladan, qo‘shni yunon shahri Xersones kuchli ta’sirga ega bo‘lib, skif davlati kuchayib ketishiga keskin qarshilik qildi. Xersones o‘ziga chegaradosh skif hududlariga tazyiqini yanada kuchaytirdi. Bu Skif davlatining o‘z hududlarini xavfsizligini ta’minlash uchun zarur harbiy choralarni ko‘rishga majbur etdi. Skif qo‘shini Xersones bosib olgan hududlarni yana qaytarib oldi. Skiflar bu hududlarda mudofaa inshootlari, qal’a va qo‘rgonla-

rini barpo etdilar. Xersones skiflarga qarshi Bosfor davlati, sarmat qabilalari bilan ittifoq tuzdi. Sarmat malikasi Amaga skiflarga qarshi Xersonesga harbiy yordam berdi. Xersones skif urug‘-qabilalari o‘rtasiga nifoq solishga urindi.

Mil. avv. 179-yilda Xersones shahri Pont podshohi Farnak bilan Skif davlatiga qarshi ittifoq shartnomasini tuzdi. Skif davlati Xersones va uning ittifoqchilari tug‘dirgan xavfni bartaraf qilish uchun chegaralarni mustahkamladi, mamlakat iqtisodiyotni rivojlantirdi. Lekin mil. avv. II asr oxirida Xersonesning harbiy tazyiqi kuchaydi. Xersones Qrim yarim orolining shimoli-g‘arbini bosib olgan edi. Skiflar bu hududlarni bosqinchilardan ozod qildilar. Xersones qo‘shni Pont podshohi Mitridat VI dan harbiy yordam so‘rab murojaat qildi. Bu yordam evaziga Xersones Pont davlati tarkibiga kirish majburiyatini oldi. Pont va Xersones Skif davlatiga qarshi urush boshladi. Urush mil. avv. 110-yilda boshlanib uch yil davom etdi va 107-yilda tugadi. Pont va Xersonesning birlashgan qo‘shinlari skif podshohi Palakning qo‘shinlarini mag‘lub etdi. Urush natijasida skiflarning Xersonesga qo‘shni bir necha viloyatlari bosib olindi va Pont garnizoni Xersones shahrida qoldirildi. Lekin Xersones shahri Pont bilan shartnomaga ko‘ra endi o‘z mustaqilligini yo‘qotib, Pont davlati tarkibiga kirdi.

Mil. avv. II asrning ikkinchi yarmida podshoh Skilur faol tashqi siyosat yuritdi va uning hukmronligi davrida Olviya shahri Skif davlatida qo‘shib olindi. Olviyaning qo‘shnilar bilan gavjum savdo aloqalari skiflar qo‘liga o‘tdi. Olviyaliklar Pont davlati bilan yashirin aloqa o‘rnatib, yordam so‘radi. Pont armiyasi skiflarga qarshi urushga kirdi va Olviya bosib olinib, shahar Pont davlati tarkibiga kirdi. Skif davlati mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirdi, dehqonchilik

va chorvachilik, savdo-hunarmandchilik rivojlandi. Tashqi savdo o‘sdi. Natijada Skif davlati mil. avv. II asrda kuchayib ketdi. Qo‘shni yunon shaharlari va Bosfor davlati skiflarga o‘lpon to‘lashga majbur bo‘ldi. Skif davlati keyingi asrlarda ham Bosfor davlatining bu hududlarga bosqinchilik urushlariga chek qo‘ydi. Bosfor podshohlari Savromat I (93 – 123-yillar) va Kotiy II (123-yil) skiflarga qarshi urush olib bordilar. Savromat II milodiy 93-yilda skiflar hududiga bostirib kirdi va Tavridani bosib oldi.

Skif iqtisodiyotining asosi rivojlangan qishloq xo‘jaligi (dehqonchilik, chorvachilik) va savdo-hunarmandchilik bo‘ldi. Skif davlatidan g‘alla, chorva mollari, baliq va qullar chiqarilgan. Skif qurol-yarog‘lari yuqori darajada baholangan. Skiflar qo‘shnilar bilan savdo aloqalarini olib bordilar. Hunarmandlar tayyorlagan yuqori sifatli skif qurol-yarog‘larining bozori chaqqon edi. Skif akinagi – xanjar, qilichi va boshqa harbiy anjomlari boshqa mamlakatlar armiyalarida keng qo‘llanilar edi..

Kichik Skif davlati. Dunay daryosining yuqori qismi hozirgi Dobrudjada skiflarning Kichik Skif davlati yuzaga keldi. Bu davlatda dehqonchilik-chorvachilik, hunarmandchilik va savdo rivojlandi. Iqtisodiy rivojlanish natijasida hunarmandchilik savdo o‘choqlari bo‘lgan Istra, Odessos (hozirgi Varna), Tomis (hozirgi Konstansa), Durostor (hozirgi Silistra) shaharlari paydo bo‘ldi. Tarixdan Skifiya davlatining podshohlaridan Atey va Skilur ma’lum. Podshoh Skilur davrida (mil. avv. II asr) mamlakat yuksaldi.

Skif madaniyati. Bir necha asrlar davomida skiflar o‘ziga xos madaniyatni shakllantirdilar. Haykaltaroshlik va tasviriy san’atda mukammal san’at asarlari yaratildi. Skiflar hayvonlarga sig‘inganlar, ular hayvonlarda o‘z urug‘larini boshlab bergan ajdodi

va urug‘ning homiysini ko‘rdilar. Skiflar hayvonlarda g‘ayritabiiy ilohiy kuch mavjud deb bilishgan. Bu hayvon tasvirlari odamlarni qutqarishi, himoya qilishi va kuch-qudrat berishi kerak edi. Shu sababli hayvon uslubi deb atalgan tasviriy san’at uslubi ularda yuksak darajada shakllandi. Rasm-tasvirlar metall, yog‘och, suyak, tosh va gilam-matolarga tushirilgan. Metall, suyak va yog‘ochdan tayyorlangan uy-ro‘zg‘or buyumlari: ko‘za, lagan, qadah, vazalar, harbiy qurollar: qilich, xanjar soplari, egarlar, qalqonlarda skif hayoti tabiiy, yuksak mahorat bilan aks etgan.

Skif haykallari tosh, yog‘och, ohaktoshdan yasalgan. Skif haykaltaroshi harbiy tasvirlarni aniq berib, har bir detalni o‘z o‘rnida uyg‘un tasvirlashga erishgan. Skif haykaltaroshligining namunalari hozirgi Ukraina va Rossiya hududlarida ko‘plab topilgan. Badiiy hunarmandchilik yuqori darajada rivojlanganini bizgacha yetib kelgan bronza, temir, oltin va kumush metallaridan ishlangan zeb-ziynat buyumlari, taqinchoqlar, marosim buyumlari, otlarning egar-jabduqlariga tushirilgan nafis naqshlar va boshqa buyumlar – haqiqiy san’at asarlaridan bilishimiz mumkin. Bu noyob san’at asarlarida skiflarning hayoti, turmush tarzi, dunyoqarashi hamda ma’naviy-madaniy hayoti aks etgan.

Skiflar sag‘ana va maqbaralar qurilishida katta yutuqlarga erishdilar. Shimoliy Qoradengizbo‘yi, Dnepr va Ukrainaning qator viloyatlaridan topilgan qo‘rg‘on, qabrlar ma’lum bir me’moriy uslubda qurilgan. Bu inshootlar ichida marhumlarning jasadlari yonida qo‘yilgan uy-ro‘zg‘or buyumlari, taqinchoqlar, kiyimlar, ot anjomlari va qurol-yarog‘lar noyob san’at asarlaridir.

MIL. AVV. III – I ASRLAR MADANIYATI (ELLIN MADANIYATI)

«O‘rtayer dengiziga ega bo‘lmagan Sharqda Ahmoniylar san’atidan bizgacha birinchi darajali favqulodda yaxshi saqlangan yodgorliklar yetib keldi. Aleksandr yoki diadoxlar davriga tegishli bo‘lgan biror bir yirik inshoot, biror bir san’at asari bizga hozirgacha ma’lum emas. Salavkiylarning yunon me’morchiligidan va Baqtriya me’morchiligidan biz zo‘rg‘a bir necha parcha (fragment)larni aytishimiz mumkin».

Даниэль Шлюмберже

1. Diniy e’tiqod va falsafa.
2. Aniq va tabiiy fanlar.
3. Adabiyot va san’at.

Mil. avv. III – I asrlarning eng muhim merosi madaniyat bo‘lib, bu madaniyat Old Osiyo, Yunonistonga keng tarqalib, Rim madaniyatining rivojlanishiga hamda keyingi davr o‘rta asrlar madaniyatiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Sharq sivilizatsiyasining yutuqlari Rim dunyosi madaniyati, Rimga qaram bo‘lgan boshqa o‘lkalarning madaniy-ma’naviy, siyosiy taraqqiyotida sezilarli o‘rinni egalladi. Miloddan avvalgi birinchi ming yillikdan, ayniqsa, Ahmoniylar davlati davridan boshlab sharq va g‘arbning savdo-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-manaviy aloqalari uzluksiz davom etdi. Ahmoniylar davrida Yevropa dunyosi Misr, Mesopotamiya, O‘rta Osiyo, Hindiston va Xitoy bilan yaqin aloqa o‘rnatdi. Sharq davlatchiligi, davlat qurilishi va tuzilmasi mil avv. III asrdan g‘arb dunyosida keng qo‘llanila boshlandi. Sharq dunyosida to‘rt ming

yil davomida to‘plangan davlat boshqaruvi an’analari (Misr misolida) g‘arb davlatchiligida qo‘llanildi.

Sharq madaniyati, diniy e’tiqodlari Britaniya orollarigacha kirib bordi. Mil. avv. IV – I asrlar madaniyati tadqiqotchisi Daniel Shlyumburje shunday ta’kidlagan edi: Haqiqatan ham qadimgi Sharqning azaliy madaniyat o‘choqlari bo‘lgan Old Osiyo va O‘rta Osiyoda mil. avv. III – I asrlarda hukm surgan makedon sulolalari biror bir ahamiyatga molik inshoot joriy etganlari tarixda ma’lum emas. Faqat bu to‘g‘risida rivoyatlardagina tilga olinadi. Misol uchun Aleksandrning O‘rta Osiyoda 12 shahar qurgani to‘g‘risidagi rivoyat tasdiqlanmagan.

Ilmiy adabiyotda Ellin madaniyati deb nomlangan mil. avv. III – I asrlardagi madaniyat bir xil bo‘lmay, har bir hududda mahalliy barqaror madaniyat an’analari va boshqa madaniyatlar unsurlarining o‘zaro qo‘shilishi natijasida shakllandi. Mil.avv III – I asrlarda O‘rtayer dengizi havzasining madaniy-ma’naviy shakllanishida davlatlarning ulkan hududlari, cheklanmagan podshoh hokimiyatining mavjudligi, shaharlarning amaldagi mustaqilligi o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Bu davrda fan va texnika notekis rivojlandi. Davlat hokimiyati manfaatdor bo‘lgan harbiy ish, kemasozlik, shaharlarni qamal qilish texnikasi va fortifikatsiya sohalarida eng katta yutuqlarga erishildi.

1. Diniy e’tiqod va falsafa. Old Osiyo davlatlarida bir necha ming yil davomida turli xalqlarning diniy e’tiqodlari keng tarqalib, diniy tolerantlik shakllandi. Joylarda diniy e’tiqodning universalligini namoyish qilishga intilib, barcha xudolarga atab ibodatxona – Panteon qurila boshlandi. Ana shunday Panteon Misrda Aleksandriya shahrida qurildi. Mil. avv. III – I asrlarda yunon-rim dunyosiga Sharq diniy tasavvurlarini kirib borishi yanada kuchaydi. Misrda Kichik Osiyo xudosi Serapisga sig‘inish avj oldi. Misr ma’bu-

dasi Isidani yunonlar Demetra sifatida qabul qildilar. Pergamda Frigiya ma'budasi (Kibela – yerning onasi) bosh ma'buda sifatida qabul qilina boshlandi. Ma'buda Kibelaga sig'inish yunon-rim dunyosida keng tarqaldi. Finikiyada mil. avv. II ming yillikda paydo bo'lgan ma'buda Astartaga e'tiqod Old Osiyoda, keyin esa mil. avv. II asrda butun O'rtayer dengizi havzasiga tarqaldi. Kichik Osiyo ma'budlari Sabaziy va Adonisga, Misr ma'budasi Isidaga va ma'budi Osirisga sig'inish yunon-rim hududlarida keng tarqaldi. Isidaga sig'inish keyinchalik xristian e'tiqodiga ham ta'sir etdi. Isidaning qo'lida chaqaloq Gorni ko'tarib turgan tasviri xristian ikonalarida ona ma'buda tasvirida o'z aksini topdi. Sharqda shakllangan sinkretik e'tiqodlar Kichik Osiyo orqali Yunoniston va Makedoniya, keyinchalik esa G'arbiy O'rtayer dengiziga kirib bordi. Sharq ilohlarining barchasi mistik va ekstatik edi. Mitra, Ormuz, Atissa, Isida kabi sharq iloha va ilohlariga tegishli mazmun va ramzlar yunon-rim dunyosidagi iloh va ilohalariga ta'sir qildi. Natijada Zevs, Apollon, Germes va Afroditalar yangi mazmunga ega bo'ldi.

Mil. avv. III – I asrlar madaniyatining tarqalishidagi eng muhim omil an'anaviy va yangi paydo bo'lgan ko'plab bayramlar bo'ldi. Xudolar sharafiga o'tkaziladigan bayramlar bilan bir qatorda homiy podshohlar sharafiga ham diniy markazlar va poytaxtlarda o'tkaziladigan maxsus bayramlar paydo bo'ldi. Misol uchun, ana shunday bayramlardan biri mil. avv. 165-yilda Kichik Osiyodagi poytaxt Antioxiya yaqinida salavkiylar sulolasi hukmdori Antiox IV (mil. avv. 175 – 160-yillar) tomonidan o'tkazilgan bayramni ko'rsatish mumkin. Bu bayramning ochilishida 50 mingga yaqin piyoda va otliq askarlar qatnashgan; jang aravalari va fillar saf tortgan; boshiga oltin gulchambar kiygan 800 o'smir; oltin va kumush billan

bezalgan taxtiravonlarda o‘tirgan 580 ayollar; xudolar va qahramonlarning bezalgan, son-sanoqsiz haykallari; yuzlab qullar oltin va kumush buyumlar va fil suyagini olib borar edilar. Manbada 300 qurbonlik dasturxonlari va minglab boqilgan buqalar ko‘rsatiladi. Bayram 30 kun davom etib, unda turli xil gimnastika o‘yinlari, bellashuvlar va teatr tomoshalari, ming-bir yarim ming kishiga mo‘ljallangan bazmlar va ov uyushtirilgan. Bunday bayramlarni o‘tkazish uchun qilinadigan xarajatlar Sharqdagi savdo-hunarmandchilik markazlari bo‘lgan shaharlar va mahalliy aholidan olinadigan soliqlar va to‘lovlar bilan qoplangan.

Ptolemeylar hukmronligi davrida Misrda qadimgi fir’avnlar davrida bo‘lganidek hukmdorni ilohiylashtirish va sig‘inish an’analari davom etdi. Ptolemey II Filadelf o‘zi va o‘z singlisi Arsinoyaga sig‘inishga farmon berib, o‘zi va singlisi sharafiga ibodatxonalar bunyod etdi. Shuningdek, Misrda Ptolemey III va uning xotini Berenikaga sig‘inish keng yoyildi.

O‘sha davr falsafasida inson shaxsini o‘rganish muammosi birinchi o‘ringa chiqa boshladi. Mil. avv. V – IV asrlarda ikki falsafiy maktab: yangi stoik va epikur maktablari vujudga keldi. Bu falsafiy maktablar inson, shaxs nima, baxt nima degan savollar ustida bosh qotira boshladilar. Afinada stoiklar maktabiga mil. avv. 302-yil kelib chiqishi Kipr orolidan bo‘lgan faylasuf Zenon (mil. avv. 336 – 264-yillar) asos soldi. Bu maktabga ellin davrining ko‘pgina taniqli faylasuflari va olimlari kirgan edi. Stoiklar Afinaning eng gavjum joyi bo‘lmish agorada, naqshin peshayvon – «stoya» (yunonch stoa – portik) ostida va’z aytib, o‘z tinglovchilariga ta’lim berar edilar (Bu maktabning nomi ham shu so‘zdan kelib chiqqan). Stoizm yunon va Sharq nazariyalarining sintezi edi. U keng tarqalgan va shu bilan birga, uzoq yashagan ellin falsafiy maktabi edi. Stoiklar hamma narsani,

shu jumladan, fikr, so‘z, olov va shu kabilarni ham jism deb atar edilar. Butun olamni stoiklar rivojlanib turadigan olov deb hisoblashar edi. Stoiklar barcha odamlar teng degan g‘oyani ilgari surdilar. Ular insonlar tabiat bilan uyg‘un holda yashab, baxt va ilohiylik topadi degan fikrni shakllantirdilar.

Mil. avv. IV asrda Afinada Epikurning falsafa maktabi shakllandi. Faylasuf Epikurning bog‘ida uning do‘stlari va shogirdlari to‘planib, falsafiy suhbatlar qurdilar. Odamlar gavjum bo‘lgan bozor va maydonlarda o‘z ta’limotlarini targ‘ib qilgan stoiklardan farq qilgan holda Epikur tinch va sokin joyda tafakkur qilishni yo‘lga qo‘ydi. Epikurchilar «baxtning mohiyati – azobning yo‘qligidir», «Kimda kam ehtiyoj bo‘lsa, u kishida ko‘p farog‘at bo‘ladi» tushunchalarini ilgari surdilar.

Aleksandrning ustozi faylasuf Aristotel «Afina politiyasi» asarini yozib, davlat boshqaruvining uch shaklini: bir kishining qo‘lidagi hokimiyat – monarxiyani, ozchilik hokimiyati – oligarxiya, uchinchisi ko‘pchilikning hokimiyati demokratiyani ko‘rsatdi. Mil. avv. III asrda yana bir falsafiy maktab – skeptiklar (yunoncha skeptikos so‘zidan – tadqiq etuvchi) maktabi shakllandi. Bu maktabga Arastuning kichik zamondoshi Pirron asos soldi. Skeptiklar atrof dunyoni bilib bo‘lmaydi, uning tabiati to‘g‘risidagi barcha nazariyalar xayol deb hisobladilar. Shuning uchun ular fizika bilan shug‘ullanmadilar. Dunyoning bilish nazariyalarini yaratmadilar. Lekin boshqa maktablar yaratgan nazariyalar tanqidiga e’tibor berdilar. Ular: «barcha narsalarni hech qachon bilib bo‘lmaydi, ular haqida na haqiqatni, na yolg‘onni aytish mumkin emas» deb hisobladilar.

Skeptiklar falsafiy oqimi tibbiyotga ta’sir qildi. Tabiblar kasalliklarning sabablarini bilishlari mumkin emas, faqat bemor kasalligini kuzatish kerak, kasal-

likni kasalda dorilarni sinash bilan davolash zarur degan tushunchaga amal qildilar. Mil. avv. IV asrda falsafada yana bir maktab – kiniklar (bu nom Antisfenning shogirdlari lotincha cynici – siniklar bilan shug‘ullangan Afinadagi Kinosarg – yunoncha kynikoi nomidan kelib chiqqan) paydo bo‘ldi. Bu maktab asoschisi Antisfen bo‘lib, Diogen uning mashhur o‘quvchisi edi. Kiniklar tabiatga qaytish, turmushda qulayliklaridan voz kechishni talab qildilar. Insonning qonun-qoidalari tabiatga qarama-qarshi deb, davlatni tan olmadilar. Ular ko‘chalar, maydonlar va portlarda olomon oldida so‘zga chiqib, mavjud tartib-qoidalarning noto‘g‘riligini asosladilar. Kambag‘allikni nafaqat so‘zda, balki o‘z turmush tarzlari bilan targ‘ib qildilar.

Mil. avv. III – II asrlarda Old Osiyoda Aleksandriya, Antioxiya va Pergam ilm-fan va madaniyat markazlari sifatida shuhrat qozondi. Chunki Old Osiyoda 4 ming yil davomida aniq va tabiiy fanlar sohasida ulkan bilim zaxirasi to‘plangan edi. Yunoniston shaharlari bu davrda tushkunlikka tushib qo‘lgan edi. Shu sababli ilm bilan shug‘ullanishga intilgan yunonlar Old Osiyoga ko‘chib keldilar. Ular Sharq dunyosining to‘rt ming yil davomida aniq va tabiiy fanlar sohasida to‘plagan ulkan bilimlarni o‘zlashtirdilar. Misr, Bobil va boshqa Sharq mamlakatlari ibodatxonalarida to‘plangan yuz minglab ilmiy qo‘lyozma to‘plamlarini yunon tiliga tarjima qilish boshlandi. Yunonlar sharqning ilm-fani asosida o‘z asarlarini yaratdilar. Orontdagi Antioxiya, Aleksandriya va Pergamda ilmiy markazlar va kutubxonalar vujudga keldi. Sharq hukmdorlarining an’anaviy faoliyatini, ya’ni ilm-fan va madaniyatga homiylik qilish, ya’ni Salavkiylar va Ptolemeylar sulolasi siyosatini davom ettirdilar. Misrdagi Iskandariya bilan bir qatorda Orontdagi Pergam, Antioxiya shaharlari o‘sha davrda Old Osiyodagi il-

miy va madaniy markazlar sifatida tanildi. Misrda Aleksandr yurishlaridan oldin mavjud bo‘lgan madaniyat taraqqiyoti davom etdi. Misrda aniq va tabiiy fanlar sohasida to‘plangan bilimlar zaxirasi bo‘lgan yuz minglab qo‘lyozmalar Aleksandriya muzeyoniga to‘plandi va yunon tiliga tarjima qilindi. Qadimdan mavjud bo‘lgan diniy e’tiqodlar davom etdi. Jumladan, mo‘miyolash amaliyoti ham da’vom etdi. Mo‘miyolash amaliyoti milodiy VI asrgacha davom etdi. Ma’lumotlarga ko‘ra qadimda Misrda odamlardan tashqari 70 mln. mavjudot (ibis, it, mushuk, timsoh, lochin, qora qo‘ngiz va h.k) mo‘miyolangan. Misrliklar bu mo‘mioyolarni yevropaliklar kelgan paytgacha saqlab kelganlar. XVIII – XIX asrlarda qadimda mo‘miyolangan 20 tonna mushukni Angliyada ekin yerlarini o‘g‘itlash uchun tashib ketganlar.

Ptolemeylar sulolasi poytaxt Iskandariyada ilm-fan tadqiqoqlariga katta mablag‘ sarfladilar. Iskandariyaga dunyoning turli mamlakatlaridan ko‘plab olimlar ko‘chib keldilar. Ptolemey I Soter Iskandariyada ilmiy markaz – Muzeyonni tashkil qildi. Muzeyon o‘ziga xos haqiqiy ilmiy markaz bo‘lib, bu ilm o‘chog‘ida matematika, fizika, astronomiya, jug‘rofiya va filologiya fanlari bo‘yicha ko‘plab olimlar to‘plandi. Muzeyonda bir necha o‘n ming jildli ulkan kutubxona, botanika bog‘i, zoopark, jarrohlik laboratoriyalari, astronomik rasadxona, olimlar uchun o‘quv zali va yotoqxonalar bor edi. Ilmiy markazda tashkil etilgan kutubxona o‘sha zamonga qadar to‘plangan sharq-yunon donishmandligining asarlarini to‘laroq ravishda o‘z ichiga olgan edi. O‘sha vaqt uchun bu ulkan kutubxonada mil. avv. I asrga kelib 70000 ga yaqin qo‘lyozma-matnlar papirus o‘ramlari mavjud edi. Iskandariya olimlari matematika, tibbiyot, texnika va filologiya fanlari sohasida katta yutuqlarga erishdilar.

2. Aniq va tabiiy fanlar. Museyonda mashhur matematik Yevklid (uning «Boshlang‘ich geometriya»si ko‘p asrlar davomida 1700 marta chop etilgan) ishladi. Arximed yoshligidan bu yerda o‘z faoliyatini boshladi. Iskandariyada geograf Eratosfen, astronomlar Kono va Dosifeylar faoliyat ko‘rsatdilar. Iskandar yurishlari qissasini yozgan Aristobul, harbiy boshliq Nearx yunonlarga boshqa mamlakatlar to‘g‘risida boy ma’lumotlar berdilar.

Mil. avv. III – II asrda Pergida mashhur matematik Apollogiy ishladi. Kirenalik Eratosfen fizik va matematik jug‘rofiyaga asos soldi. Samoslik Aristrax mil. avv. III asrda yerdan oygacha bo‘lgan masofani hisoblab chiqdi. Xuddi shu davrda iskandariyalik Ktesiy qo‘l bilan otiladigan pnevmatik snaryadni kashf qildi. U yana suv soati, turli nasoslarni yaratdi. Mil. avv. III asrda fan taraqqiyoti natijasida sohalar bo‘yicha tabaqalasha boshladi va ilk bor tizimga solindi. Aristotelning shogirdlari va muxlislari bo‘lmish peripatetiklar tarixi bu tabaqalanish va tizimlilik jarayonining yaqqol misolidir. Peripatetiklar falsafa maktabiga rahbarlik qilgan Arastuning vorisi Feofrast faqat faylasufgina emas, balki aniq fanlar sohasida ham tadqiqot olib bordi. Feofrastdan so‘ng, maktabga Straton rahbarlik qildi. u «fizik» laqabini olgan edi. Straton tabiat hodisalarini tadqiq qilishda eksperiment usulini tadbiq etishga intildi. Stratonning shogirdlari orasida Samoslik ajoyib astronom Aristarx Yer va boshqa sayyoralar quyosh atrofida aylanadi, degan farazni ilgari surdi. Lekin ilm-fanning o‘sha vaqtdagi darajasi va u o‘zi kashf qilgan geliosentrik tizimni to‘g‘riligini boshqa olimlarga ishonarli tarzda isbot qila olmas edi.

Iskandariya matematiklaridan birinchisi Yevklid edi. U o‘z davri falsafasining erishgan yutuqlarini tizimga soldi, umumlashtirdi va tugalladi. Uning «Ib-

tido» degan asosiy asari ikki ming yildan oshiq vaqtdan beri boshlang‘ich geometriya darsliklari uchun asos bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Taxt vorisi, bo‘lg‘usi Ptolemey IV Filopatorning tarbiyachisi, Museyon kutubxonasining mudiri kirenalik Eratosfen atoqli geograf, astronom, matematik va faylasuf edi. U yer aylanasi uzunligini ko‘p darajada aniqlab, hisoblab chiqdi va fizik-matematik geografiyaning asoslarini yaratdi. «Geografiya» atamasini ilk bor Eratosfen ishlatdi. Iskandariya birdan-bir fan markazi emas edi. Feofrast Afinada ishlagan. Arximed janubiy Italiyadagi Sirakuzada yashagan. Atoqli injener-ixtirochi bo‘lmish Arximed nazariy mexanika, gidrostatika, sferik geometriya va trigonometriyaning asoslarini yaratgan yirik nazariyotchi olim edi. Olim katta sonlarni hisoblab chiqishning arifmetik metodlarini yaratishda dastlabki qadamlarni qo‘ydi. U atoqli astronom ham edi.

Gerofil qisman Salavkiylar hududida, qisman Iskandariyada ishlagan edi. Iskandariyaning ilm-fan o‘chog‘i bo‘lishi Aristotelni lol qoldirdi. Iskandariya xristian e’tiqodiga yot bo‘lgan eski diniy e’tiqodda bo‘lgan olimlar to‘plangan markaz edi. Matematik olim Feonning qizi olima ayol Ipatiya matematika fani bilan shug‘ullanib shuhrat qozondi. Xristian dini mutaassiblari olima Ipatiyani ta’qib ostiga oldilar va oxir-oqibat olimani olomon bo‘lib o‘ldirdilar.

Mil. avv. II asrda yashagan nikeyalik Gipparx atoqli astronom va geograf edi. U bir qancha astronomik asboblarni takomillashtirdi va ixtiro qildi. Kecha-kunduzning tengligi kashfiyotini Gipparxga nisbatan berdilar. Ammo bu kashfiyot Bobilda qilingan bo‘lishi mumkin. U harakatsiz yulduzlar katalogini tuzdi. Bu katalogda 900 ga yaqin yulduzlar o‘z o‘rnini topgan. Gipparx taqvimni, yerdan oygacha bo‘lgan masofani, yer va quyosh massasi haqidagi bilimlarni

aniqladi. Lekin, ikkinchi tomondan, bu mashhur olim samoslik Aristarxning geliosentrik nazariyasiga qarshi chiqdi va o‘z obro‘yi uchun geliosentrik tizimini mustahkamlab keldi. Lekin bu nazariyaning xatoligini tan olmadi. Gipparx ekvatorni 360 ga taqsimlab, uzunlik va kenglik tushunchasini joriy qildi. Mil. avv. I asrda Geron mexanika bilan muvaffaqiyatli shug‘ullangan edi. Mil. avv. III – II asrlarda Afinadagi Arastu maktabida aniq va tabiiy fanlar o‘rganildi. Feosfrast avvalgi faylasuflarni, Menon tibbiy adabiyotni o‘rgandi. Evdem matematika va astronomiya tarixini yozdi. Feofrast «O‘simliklar tarixi», «O‘simliklar fiziologiyasi» asarlarini yozib, ilmiy botanikaga, uning ustozi Arastu esa zoologiyaga asos soldi. Arastu Likmiyada o‘z o‘quvchilari bilan sayr qilib yurar va ular bilan falsafiy suhbat qilar edi. Shu sababli ular «peripatetiklar» («sayr qilayotganlar») deb atalgan.

Qadimgi Sharq tibbiyoti yutuqlari asosida mil. avv. III asrda tibbiyot ancha taraqqiy qildi. Misrdan anatomiyaning yutuqlari, Misr va Bobildan dori-darmonlar tayyorlash va tatbiq qilishning bir necha ming yillik tajribasi o‘zlashtirildi. Qadimgi Sharqning tibbiyot sohasidagi nazariyasi va amaliyotini yosh yunon tibbiyoti fani va tajribasi bilan birga qo‘shilishi Iskandariyadagi tibbiyot maktabida o‘z ifodasini topdi. Gerofil bu maktabning asoschisi hisoblanadi. U odamning tasviriy ifodasini yaratib, tashxis usullarini aniqladi, dori-darmonlarga katta ahamiyat berdi.

Harbiy soha rivojlandi, qal’a, shaharlar mustahkam inshootlar bilan o‘rab olina boshlandi. Bunga qarshi shaharlarni qamal qilish texnikasining yangi usullari ixtiro qilindi. Qal’alarni qamal qilish uchun mashhur taranlardan tashqari, g‘ildiraklar ustiga o‘rnatilgan maxsus harakatlanuvchi minoralar – geliorlar (shahar olarlar ham) paydo bo‘ldi. Bu moslamalar dushman shahar devorlariga baravar yoki

balandroq qilib yasalar edi. Harakatlanuvchi minora ichida askarlar, zaxira o‘qlari va tosh otuvchi to‘plar joylashtirilgan.

Savdo, dengiz kemalari takomillashtirildi. Kemalar ko‘pincha ochiq dengizga, okeanga chiqar edi. Mil. avv. II asrda yunonistonlik Gippal Hindistonga kemada safar qilganida ilk bor musson shamollaridan foydalandi. Dengizchilikning rivojlanishi mukammal bo‘lgan portlar va savdo sohillarida ombor va boshqa yordamchi binolar qurishni talab qildi.

Ellin me’morchiligida umumiy va xususiy kishilar foydalanadigan binolar ko‘pchilikni tashkil qilar edi. Klassik Yunonistonning me’morchiligida asosiy bino pripter – xususiy uy bo‘lgan. Shaharlar reja asosida qurilib, bir-birini kesishib o‘tadigan to‘g‘ri burchakli tik ko‘chalari bilan chiroyli ko‘rinar edi.

Mil. avv. I asrda Pont podshohligida suv tegirmoni ixtiro qilinib, ishlab chiqarishga tatbiq etildi, bu ixtiro o‘sha davr uchun eng yuqori texnika yutug‘i edi. Kam sonli suv tegirmonlari bilan bir qatorda yuz yillar davomida hayvonlar kuchi bilan aylantiriladigan tegirmonlar, yorg‘ichoqlar va hatto, oddiy o‘g‘irlardan keng foydalanildi. Konchilik ishi texnika jihatidan eng qoloq va mehnatning eng og‘ir sohasi bo‘lib, konlarda qullar, hukm qilingan jinoyatchilar va harbiy asirlar ko‘plab halok bo‘lgan.

3. Adabiyot va san’at. Bu davrda Sharqda, Bobil va Misrda tarixshunoslikning rivoji ko‘zga tashlanadi. Mil. avv. III asrning I yarmida bobillik kohin Beroesning «Xaldeya tarixi» va misrlik kohin Manefonning «Misr tarixi» nomli asarlari yaratildi. Beroes bobil tili va e’tiqodini yaxshi bilgan va keng bilimlarga ega bo‘lgan kohin bo‘lgan. Lekin u yunon tilini yaxshi bilsa-da, tarix kitobini yunon tilida aniq bayon qila olmagan. Har ikkala asar ham yunon tilida bo‘lsa-da, mahalliy manbalar asosida yozilgan edi. Af-

suski, ikkala asardan ham bizgacha faqat ayrim parchalar yetib kelgan. Manefon asarida fir'avnlarning eng qadimgi zamonlardan to Iskandargacha bo'lgan podshoh sulolalarining xronologik ro'yxati berilgan. Manba sifatida qadimgi Misr fir'avnlari maqbaralari devorlarida bitilgan yozuvlar, Misr ibodatxonalari yozuvlari xizmat qildi. Bu yozma manbalar asosida qadimgi Misr tarixi to mil. avv. III asrgacha bo'lgan davri bayon etildi. Tarixchi Apollodor keyinchalik qadimgi Sharqning qudratli davlati bo'lgan va Rimning sharqdagi istilolariga chek qo'ygan qudratli Parfiya davlati va jamiyati tarixini yozdi.

Bu davrda tarix va falsafa sohalaridagi to'plamlarda insonning jamiyatga, o'z davrining siyosiy-ijtimoiy muammolariga munosabati ochib beriladi. Tarixiy asarlarning syujetlari bo'lib, yaqin o'tmish voqealari xizmat qildi. Ko'pincha tarixni yozuvchilar o'z asarlarini badiiy adabiyot chegarasida shakllantirdilar: bayon qilish mohirona fojialashtirildi, kuchli his-tuyg'uga qaratilgan ritorik usullar ishlatildi. Ana shunday usulda Klitarx makedoniyalik Iskandar tarixini, Kallisfen (mil. avv. IV asr oxiri) va Timey (mil. avv. III asr o'rtalari) mil. avv. 280-yildan 219-yilgacha, Kleomen islohotlari tarafdori Filarx (mil. avv. III asr oxiri) tarixini bayon qildilar. Bu usuldan farq qilgan holda boshqa tarixchilardan Ptolemey I (mil. avv. 301-yildan keyin) tomonidan yozilgan Iskandar yurishlari tarixi, kardiylik Gieronim (mil. avv. III asr o'rtalari) diadoxlar urushlari davri tarixini faqat quruq dalillarni qat'iy bayon qilish usulini qo'lladilar.

Bu davrda fan sifatida adabiyotshunoslik kurtaklaridan filologik tanqid klassik mualliflar asarlarini asl nusxalarini qayta tiklash va sharhlash shaklida yuzaga keladi. Filologlar mantiqiy asosda yunon grammatika tizimini ishlab chiqdilar.

Iskandariya museyoni adabiyot sohasida izlanishlarning muhim markazi bo‘lib qoldi. Bu yerda va boshqa joylarda rivoj topgan adabiy oqim «Iskandariya adabiy oqimi» deb nom olgan. Iskandariya shoirlarining boshlig‘i Kallimax edi. U museyon kutubxonasining mudiri va taxt vorisining tarbiyachisi edi. Kallimax kutubxona katalogini tuzdi. Shu bilan birga, Kallimax mifologik, tarixiy va adabiy mavzularda yozilgan, hajmi jihatidan kichik-kichik she’rlar muallifidir.

Kallimaxning kichik zamondoshi Feokrit Iskandariyadagi yunon diasporasidagi eng taniqli yunon shoiri edi. U kichik-kichik lirik-dramatik poema va g‘oyalar muallifi bo‘lib tarixga kirdi. Kallimax o‘z asarlarida qishloq va shahar hayotining tinch manzaralarini ideallashtirgan, cho‘ponlar hamda shaharlik erkak va ayollarning hissiy kechinmalarini madh etuvchi nozik lirikdir.

Iskandariya poeziyasidan tashqari, bu vaqtda komediya janri ham rivojlandi. Bu davr komediyasining asosiy vakili Menandr edi. Misrdan topilgan papirus o‘ramlari tufayli uning komediyalari bizga ma’lum bo‘ldi. Menandr komediyalari syujeti oilaviy, maishiy dramalardan iborat bo‘lib, Menandr komediyalari baxtiyorlik bilan yakun topadi.

Mil. avv. III – I asrlarda tasviriy san’at ajoyib yutuqlarga erishdi. Bu davrda Sharq va Yunon an’analari bilan qo‘shilgan anchagina me’morchilik yodgorliklari bunyod etilgan. Sharqona hashamat va ulug‘vorlikka intilish ularning ko‘plari uchun xos bo‘lgan xususiyatdir. Aleksandr mayog‘i, Pergamdagi Mavsol mavzoleyi va Rodosdagi Gelios haykali ulkan va hashamatli barpo etilgan. Haykaltaroshlik san’ati bu davrda ancha ravnaq topgan edi. Ammo uning mazmuni yunon klassik davri an’analaridan farq qildi. Ma’budalar va qahramonlarning ideallashtirilgan

va umumlashtirilgan haykallari orqaga surilib, tabiiy tarzda gavdalantirilgan va tasvirlangan shaxsning individualligi yaqqol ko‘rsatilgan portretlar oldingi qatorga chiqdi. Bu davrning haykaltaroshlari yaratgan yakka va guruh tarzidagi haykallarda jismoniy va ruhiy azob, kurash, g‘alaba, o‘lim tasvirlab ko‘rsatilar edi. Mil. avv. IV asrda Sikion maktabining portret chizuvchi rassomi mashhur Apelles o‘zining Makedoniyalik Aleksandrning «Roksana bilan to‘yi», «Dengizdan chiqayotgan Afrodita» rasm-tasvirlari bilan shuhrat qozondi.

Rodos oroli aholisi mil. avv. 304-yilda shahar dushman qamalidan ozod bo‘lgani munosabati bilan me’moriy inshoot barpo qilishga qaror qildi. Haykaltarosh Lisippning shogirdi Xares bu inshootni qurish uchun taklif etildi. Xares Rodos homiysi hisoblangan quyosh xudosi Geliosning 36 metrlik bronza haykalini 12 yil davomida bunyod qildi. Bu ulug‘vor haykal uzoq vaqt orolda qad ko‘tarib turdi. Bu qadimgi dunyodagi yetti mo‘jizadan biri edi.

Bu davr haykaltaroshligidagi yangiliklardan biri peyzajni mustaqil tasvirlab, unda yoki uning o‘rtasida asosiy syujetni aks ettirish edi. Bu usul oldingi usulda ma’lum emas edi. Bu davrda sulolalar Sharq dunyosiga xos bo‘lgan hukmdorlarni hashamatli haykallarini bunyod etish an’anasi keng tarqaldi.

Ellin haykaltaroshligida mil. avv. IV asrning mohir ustalariga borib taqaladigan bir necha yo‘nalishni ko‘rish mumkin. Afina va Iskandariyada Praksitelga tegishli san’at asarlari o‘ziga to‘q kishilarning didi va dunyoqarashiga mo‘ljallangan san’at asarlari edi. Afrodita va boshqa ma’budalarning yalang‘och haykallari bu yo‘nalishga xos xususiyatdir. Dramatizmda to‘la Pergam maktabi haykaltarosh Skopasga borib taqaladi. Pergam mehrobining frizi mazkur maktabning ajoyib yodgorligi bo‘lib, unda ma’budlar-

ning gigantlar bilan kurashi tasvirlanadi. Bu Pergam va boshqa ellin davlatlarining jangovar galat (kelt) qabilalari bilan olib borgan og‘ir kurashlarining ramzi edi. Rodosning mashhur haykaltaroshlik maktabiga Asipp asos soldi. Bu maktabda yaratilgan haykallarda asosan baquvvat atletlar tasvirlandi.

Qadimgi Yunoniston tarixi bo‘yicha tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar

1. Боннар А. Греческая цивилизация. – М., 1995.

2. История древней Греции /Под ред. В.И.Кузищина. М., 1986, 2000.

3. Лурье С.Я. История Греции. СПб., 1993.

4. Курциус Э. История Древней Греции. В 5 т. – Минск. 2002.

5. Хаммонд Н.История Древней Греции. – М., 2003.

6. Немировский А. И. История древнего мира. – М., 2000.

7. Куманецкий К. История культуры древней Греции и Рима. – М., 1990.

8. Немировский А.И., Ильинская Л.С., Уколова В.И. История Древнего мира. Греция и Рим. в 2-х. т. – М., Дрофа, 1996.

9. Андреев Ю.В. От Евразии к Европе. Крит и Эгейский мир в эпоху бронзы и раннего железа (III – начало I тыс. до.н.э.). СПб. 2002.

10. Молчанов А.А. Социальные структуры и общественные отношения в Греции II тысячелетия до н.э. – М., 2000.

11. Пендлбери Дж. Археология Крита. – М., 1950.

12. Томсон Дж. Исследования по истории древнегреческого общества. Доисторический эгейский мир. – М., 1958.

13. Лурье С. Я. Язык и культура микенской Греции. – М., Л., 1957.

14. Штоль Г. Шлиман. – М., 1965.

15.Чиглинцев Е.А. Античное рабство как историографическая проблема. – Казан, 2000.

16. Блаватская Т.В. Черты истории государственности Эллады. СПб. 2003.

17. Высокий М.Ф. История Сицилии в архаическую эпоху. Ранняя греческая тирания конца VII – середины V в.до н.э. СПб. 2004.

18. Фролов Э.Д. Рождение греческого полиса. СПб. 2004.

19. Шишова И.А.Раннее законодательство и становление рабства в античной Греции. – Л., 1991.

20. Бузескул В.П. История афинской демократии. СПб. 2003.

21. Дэвис Дж. К. Демократия и классическая Греция. – М., 2004.

22. Карпюк С.Г. Общество политика и идеология классических Афин. – М., 1994.

23. Лосев А.Ф.Платон. Аристотель / А.Ф. Лосев. А.А.Тахо- Годи. – М., 2000.

24. Печатнова Л.Г. История Спарты (период архаики и классики). СПб. 2001

25. Фролов Э.Д.Греция в эпоху поздней классики. (Общество. Личность. Власть). СПб. 2001.

26. Бенгтсон Г. Правители эпохи эллинизма. – М., 1982.

27. Бикерман Э. Государство Селевкидов. – М., 1985.

28. Дройзен И.Г. История эллинизма. В 3 т. СПб. 1997 – 1999.

29. Жигунин В.Д. Международные отношения эллинистических государств в 280 – 220 гг.до. н.э. – Казан. 1980.

30. Маринович Л.П. Греки и Александр Македонский: к проблеме кризиса полиса. – М., 1993.

31. Шахермайр Ф. Александр Македонский. – М., 1984.

32. Эллинизм: Восток и Запад / отв. ред. Е.С. Голубцова. – М., 1992.

33. Эллинизм: экономика, политика, культура / отв. ред. Е. С. Голубцова. – М., 1990.

34. Конноли П. Греция и Рим: энциклопедия военной истории. – М., 2000.

35. Лосев А.Ф. Античная философия истории. СПб. 2000.
36. Суриков И.Е. Проблемы раннего афинского законодательства. – М., 2004.
37. Фролов Э.Д. Факел Прометея. Очерки античной общественной мысли. СПб. 2004.
38. Скржинская М.В. Будни и праздники Ольвии в VI – I вв. до н.э. СПб. 2000.
39. История древнего мира: Восток, Греция, Рим. /И. А. Ладынин и др. – М., 2004.
40. Зеленский Ф.Ф. Эллинская религия. – Минск, 2003.
41. Немировский А.И. Мифы древности: Эллада. – М., 2000.
42. Маринович Л.П. Судьба Парфенона / Л.П.Маринович, Г.А.Кошеленко. – М., 2000.
43. Менар Р. Мифология в древнем и современном искусстве. – Минск, 2000.
44. Альтман М. С. Греческая мифология. – М. – Л., 1937.
45. Блаватский В. Д. Архитектура античного мира. –М., 1939.
46. Блаватский В. Д. Греческая скульптура. – М. – Л., 1939.
47. Борухович В. Г. История древнегреческой литературы. Классический период. – М., 1962.
48. Виппер Б. Р. Искусство Древней Греции. – М., 1972.
49. Вощанина А. И. Античное искусство. – М., 1962.
50. История греческой литературы. – М. –Л., 1946 – 1955, т. I-II.
51. А.Алимуҳамедов. Антик адабиёт тарихи. 44 – 45-бетлар. Ўқитувчи нашриёти. – Т., 1969.

II BO‘LIM

I BOB
QADIMGI RIM
RIM TARIXIGA KIRISH. ITALIYA VA UNING QADIMGI AHOLISI

1. **Apennin yarim orolining geografik o‘rni va tabiiy sharoiti.**
2. **Qadimgi Rim tarixi manbalari.**
3. **Rim tarixi tarixnavisligi.**
4. **Rim tarixini davrlashtirish.**
5. **Apennin yarim orolining qadimgi aholisi.**

1. Apennin yarim orolining geografik o‘rni va tabiiy sharoiti. Apennin yarim oroli g‘arbdan Tirren dengizi, sharqdan Adriatika dengizi bilan o‘ralgan. Janubda Messen qo‘ltig‘i uni Sitsiliya orolidan ajratib turadi. Yarim orolning shimoliy qismini Alp tog‘lari yarim halqa bilan o‘rab oladi. Mil. avv. I ming yillikda Italiyaning shimoliy hududlari mo‘tadil iqlim zonasida bo‘lib, Apennin yarim orolning qolgan hududlari iqlimi iliq va yumshoq edi.Qadimda mamlakatning eng hosildor shimoliy qismi keyinchalik Italiya deb atalgan. Boshda bu nom bilan faqat Klabriyaning janubiy tumanlari aytilgan, yunonlar qadimda bu yerda yashagan xalqning nomi bilan itala deb ataganlar. Italiyaning g‘arbiy qirg‘og‘i qulay buxtalarga boy bo‘lib, dengizchilik va savdoning rivojlanishiga turtki berdi. Mil. avv. V asrda hosildor Po vodiysiga gallar keldilar va bu hududdan etrusklarni siqib chiqardilar. Bu hududni rimliklar «Sizalp Galliyasi»

deb atadilar. Sizalp Galliyasi Sispadan Galliyasi (Po daryosining o‘ng qirg‘o‘g‘i) va Transpadan Galliyasi (daryodan shimoldagi viloyat) ga bo‘linadi.

Italiyaning ko‘pgina qismini tog‘lar egallaydi. Faqatgina 20% hududi tekisliklardan iborat. Etruriya, Kampaniya va Apuliyaning unumdor yerlari, Latsiya tekisligi va Po daryo vodiysi dehqonchilik uchun qulay bo‘lganligi uchun bu yerda tariq, bug‘doy, polba ekilgan. Qadimda bog‘dorchilikda zaytun daraxtlari va uzumchilik bilan shug‘ullanganlar. Qadimgi Italiya suv va o‘rmonlarga boy edi. Qadimda foydali qazilmalar ko‘p emas edi: temir, mis, qo‘rg‘oshin, oltin, kumush, qurilish toshi, marmar, loy, tuz bor edi xolos.

Qadimgi Italiyani geografik jihatdan 3 qismga bo‘lish qabul qilingan:

1. Shimoliy (Liguriya, Alp orti Galliyasi va Venetsiya);
2. O‘rta (Etruriya, Latsiya. Kampaniya, Umbriya, Pitsen va Samniy);
3. Janubiy (Apuliya, Kalabriya, Lukaniya va Bruttiya).

Apennin tog‘lari janubiy-sharqqa tomon cho‘zilib, Arelin tumanida Adriatika dengizigacha yetib boradi. Tog‘lar yarim orolning shimoliy qismini markaziy va janubiy qismidan ajratib turadi. Yarimorolning shimoliy iqlimi o‘rta Yevropa iqlimiga yaqinroq va hosildor bo‘lib, keyinchalik biu qism Italiya deb atala boshlangan. Dastlab bu nom yunonlar Italiya deb atagan aholi yashagan Kalabriyaning janubiy tumanlariga nisbatan aytilgan.

Italiyaning o‘zi Apennin janubidan boshlanadi. Markaziy Italiyaning g‘arbiy qismi madaniyat tarixida o‘z yer tuzilishiga ko‘ra muhim rol o‘ynadi. Bu yerda etrusk (hozirgi Florensiya), markazi Rim shahri bo‘lgan Lotin va Kampaniya (Kapuya va Neapol bi-

lan) tekisliklari yotadi. Bu hududlardan kema to‘xtashi uchun qirg‘oqlari qulay tabiiy portlari bo‘lgan Tibr daryosi oqib o‘tadi. Tibr daryosining yuqorisida doimo kemalar bilan gavjum bo‘lgan Ostiya porti juda erta paydo bo‘ldi. Neapo qo‘ltig‘ida Neapol va Puteola port shaharlari paydo bo‘ldi. Yarim orolda faqat Tibr va Po daryolari kema qatnoviga yaroqli edi.

Latin tekisligi markazida Tibr daryosi va shimoliy-sharqdan Sabin, sharqdan Alban, janubdan Volsk tog‘lari bilan o‘rab turilishi qadimda Lotin qabilalarini qulay tabiiy iqlim sharoitlarda rivojlanishga sabab bo‘ldi. Italiyaning sharqiy qismi tog‘lik bo‘lib, janubga tomon mars, piligrin, marrusen va visten qabilalarining vatani bo‘lgan yovvoyi Sabin tog‘lari cho‘zilib ketadi. Undan so‘ng Samniy tepaliklari yotadi. Janubiy Italiyaning g‘arbiy qismida samniylarga qarindosh tog‘li qabilalar joylashgan tog‘lik hududlar Lukaniya va Bruttiya joylashgan. Janubiy Italiyaning Sharqiy qismida yassi tekisliklarda suvsiz Apuliya va Kalabriya viloyatlari bo‘lib, bu yerda Tarent qo‘ltig‘i orqali Yunonistondan migrantlar kelgan. Vaqt o‘tishi bilan bu hududda Tarent, Regiy, Kroton, Metapont, Posidoniya va Eleya yunon tayanch nuqta-manzilgohlari paydo bo‘lgan, qadimda bu hudud «Buyuk Yunoniston» deb atalgan.

Qadimgi Rim tarixida Sitsiliya oroli muhim o‘rin tutadi. Sitsiliyada mil. avv. II ming yillikda finikiyaliklar kelib, Panorm (hozirgi Palermo) va Lilibey (hozirgi Marsala) shaharlariga asos soldilar. Orolning sharqiy va janubiy hududlariga mil. avv. VIII asrdan boshlab yunonlar kirib kela boshladilar. Qadimdan Italiyada apelsin va limon daraxtlari o‘stirilgan. Italiyaga xurmo va anorni karfagenliklar olib keldilar. Italiya tuprog‘i unumdor bo‘lgani uchun dehqonchilik yaxshi rivojlandi. Ayniqsa, Po vodiysi va Kampaniya viloyatida uzumzorlar mo‘l hosil bergan. Bu hudud a’lo

navli sikurn va falern vinolari bilan mashhur edi. Italiyada qadimda dehqonchilik uchun juda ko‘p botqoq yerlar quritilib, sun’iy sug‘orish ishlari amalga oshirildi. Bu ishning mohir ustasi etrusklar edi. Mamlakatda metall juda kam bo‘lgani uchun u chetdan olib kelingan. Faqat Etruriyadan mis va qo‘rg‘oshin, Elba orolidan temir qazib olingan. Metallga ishlov berishda etrusklar katta yutuqlarga erishdilar.

2. Qadimgi Rim tarixi manbalari. Qadimgi Rim tarixining an’anaviy xronologik chegarasi Rim shahrini barpo qilinishi (mil. avv. 754 – 753-yillar)dan boshlanib G‘arbiy Rim imperiyasining qulashi (476-yil) bilan tugallanadi. Rim tarixini o‘rganishda turli xil manbalar: Rim va Yunon tarixchilarining asarlari, tabiiy, ilmiy va badiiy adabiyot, huquqiy yodgorliklar, arxeologiya, epigrafika, numizmatika va papirologiya ma’lumotlaridan foydalaniladi.

Qadimgi Rim tarixi bo‘yicha moddiy manbalar xilma-xil bo‘lib, Italiyaning paleolit va neolit davridan dalolat beradigan tosh qurollar, sopol idishlar, qoyatosh tasvirlari mavjud. Shimoliy va O‘rta Italiyada etrusk madaniyatiga tegishli bo‘lgan sag‘analar, uy-joy, ibodatxona qoldiqlari topilgan. Rim shahrining o‘zida Palatin, Eskvilin va boshqa tepaliklardan hamda Rim forumidan ko‘p sonli qabrlar, ibodatxona poydevorlari, ona bo‘rining jez haykali va Serviy Tulliy davridagi shahar devori qoldiqlari qazib ochilgan. Italiyaning boshqa shaharlarida ko‘p sonli arxeologik yodgorliklar mavjud. Jumladan, milodiy 79-yilda vulqon otilishi natijasida kul ostiga qolib ketgan Pompeya va Gerkulanum shaharlari arxeologlar tomonidan to‘la qazib ochilgan. Bu shaharlardagi ko‘chalar, uylar va ibodatxonalar to‘laligicha saqlanib qolgan va mil. avv. I ming yillikdan milodiy II asrigacha mavjud bo‘lgan shahar me’morchiligi to‘g‘risida boy ma’lumotlar beradi.

Yozma tarixiy manbalar. Rim tarixi bo‘yicha eng qimmatli manbalardan biri bu yozma adabiyotdir. Rim tarixiy asarlari yilnomalar asosida paydo bo‘ldi. Mil. avv. Vasrda Rimda «pontifiklar jadvali» tuziladi. Oliy pontifik o‘z uyining oldida barcha xalq uchun so‘nggi yillarda sodir bo‘lgan eng muhim voqealar bayon etilgan oq doskani ilib qo‘ygan. Bu yozuvlar hosilsizlik, yuqumli kasalliklar, urushlar, bashoratlar va ibodatxona bag‘ishlovlaridan iborat bo‘lgan. Rim yozuvi mil. avv. VI asrda paydo bo‘ldi. Rim tarixi bo‘yicha eng birinchi rasmiy hujjatlardan kalendar (taqvim)ni ko‘rsatish mumkin. Kalendar Rim kohinlari – pontifiklar tomonidan olib borilib, unda yig‘ilishlar, sud ishlari, boshqa fuqarolik ishlarini amalga oshirish, diniy taomilga ko‘ra ruxsat etiladigan va taqiq etiladigan kunlar belgilab qo‘yilgan. Respublika davridan yil hisobi oliy mansabdor shaxs – konsullar nomi bilan yuritgan. Konsullar ro‘yxati konsul fastlari deb atalgan.

Rim lashkarboshilarining zafar tantanalarini hisobga olib borish zafar fastlari deb nomlangan. Bundan tashqari, Rim kohinlari boshlig‘i Buyuk pontifik har xil tabiat belgilari (quyosh va oy tutilishlari), alohida bayramlar, urushlar, non narxining ko‘tarilishi va boshqalarni yozib borgan. Bu Rim tarixiy hikoyasining ilk janri bo‘lib, yil bo‘yicha yozilgan yozuvlar, annallar (annales) yoki yilnomalar deb atalgan. Bunday yilnomalar mil. avv. V – IV asrlardan tuzilgan. Mil. avv. 320-yildan Buyuk pontifik Publiy Mutsiy tomonidan yilnomalar «Buyuk yilnomalar» nomi bilan 80 kitobda jamlangan. Bu kitoblar Rim shahriga asos solinishidan boshlanib, Rim tarixi bo‘yicha asosiy manba hisoblanadi. Qadimgi Rimda mashhur kishilar sharafiga qisqa yozuvlar (elogiyalar) tuzilgan. Mil. avv. III asrdan Rim xalqaro siyosatda yetakchi rol o‘ynashi bilan uning tarixi to‘g‘risida boy ma’lumotlar to‘plana boshlandi.

Rim tarixidan batafsil yozilgan asarlar mil. avv. II asrdan boshlab paydo bo‘ldi. Polibiy (mil. avv. 205 – 125-yillar atrofi) kelib chiqishi yunon bo‘lib, garovga olinib Rimda 16 yil yashagan. Polibiyning «Umumiy tarix» asari 40 kitobdan iborat bo‘lib, asarda voqealar mil. avv. 221-yildan 146-yilgacha aks ettirilgan. Rim tarixini o‘rganishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Rimdagi fuqarolar urushi davri Gay Sallyustiy Krisp (mil. avv. 86 – 35-yillar) ning tarixiy monografiyalarida aks etdi. Yozuvchining «Katilina fitnasi», va «Yugurta urushi» asarlari, Rim respublikasining so‘nggi davridagi siyosiy arboblar Sitseron va Sezarning asarlari, ilk imperiya davrida Tit Liviyning (mil. avv. 59-milodiy – 17-yillar yashagan) «Shaharga asos solinishidan tarix» asari, milodiy I asrda Velley Paterkulning ham shu nomdagi asarlari yaratildi. Tit Liviyning «Shaharga asos solinishidan tarix» asarida Rimning ichki va tashqi siyosati, diniy hayoti to‘g‘risida boy ma’lumotlar berilgan. Velley Paterkulning ikki jildli asarida Rim butun dunyo markazi sifatida tasvirlangan.

Mil. avv. I asr so‘nggida Rimda yashagan galikarnaslik Dionisiyning «Rim qadimiyatlari» nomli 20 kitobida Rimning ilk etnik, ijtimoiy-siyosiy va madaniy tarixi batafsil tasvirlanadi. Bu kitoblardan 9 tasi to‘la saqlanib qolgan bo‘lib, mil. avv. 442-yilgacha bo‘lgan voqealar bayon qilinadi. Rim tarixshunosligining eng yirik vakili Gay Korneliy Tatsit (milodiy 55 – 120-yillar atrofi) asarlarida milodiy I asrdagi Rim tarixiga oid voqealar va qo‘shni german qabilalari to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar berilgan.

Rim davlati va jamiyatining II – IV asrlar tarixiga oid asarlar to‘la saqlanmagan. Ularning ichida IV asrda tuzilgan «Avgustlar tarixi yozuvchilari», «Imperatorlar tarjimayi hollari» kabi to‘plamlarni ko‘rsa-

tish mumkin. So‘nggi imperiyaning yirik tarixchisi Ammian Martsellin asarlarida tarixiy voqealar milodiy 378-yilgacha bayon qilingan. Qadimgi Rim tarixi bo‘yicha muhim ma’lumotlar yunon mualliflari: Plutarx (mil. avv. II asr), Appian (II asr) va Dion Kassiy (III asr) asarlarida mavjud.

Bundan tashqari, tarixiy voqealarning borishini tiklash uchun Askaniy Pedian (milodiy I asr), Lutsiy Anney Flor (II asr), Evtropiy (IV asr) kabi imperiya davri yozuvchilarining yirik asarlari, har xil kompendiyalar, yozuvchilarning yirik asarlari, xronografiyalar va obzorlarni ko‘rsatish mumkin.

Arxeologiya ma’lumotlari. Rim shahrining arxeologik yodgorliklari qadimgi davr to‘g‘risida boy ma’lumotlar beradi. Bu yerdan topilgan qabrlar, uy-joylar, jamoat binolari, mudofaa devorlari, Rim forumi va suv quvurlari muhim arxeologik manbalar hisoblanadi. Rim shahrining o‘zida Kolizey amfiteatri, qadimgi Rim hammomlari – termalar qoldiqlari, Trayan kolonnasi va Rim devori qoldiqlari, shuningdek, boshqa ayrim inshootlar saqlanib qolgan. Qadimgi Rim iqtisodiyotida muhim o‘rin tutgan Rim shahridagi Ostiya porti to‘la o‘rganilgan. Fransiyaning janubida, Ispaniya, Suriya va Afrika hududlarida qadimgi Rim davriga tegishli me’moriy inshootlar qoldiqlari saqlanib qolgan. Italiyalik arxeologlar hozirgi kungacha bu yodgorliklarni tarixiy-madaniy jihatdan to‘la tadqiq qilib, Rim tarixini qayta tiklashda ilmiy jihatdan qimmatli bo‘lgan 100 ga yaqin tadqiqotlarni e’lon qildilar.

Milodiy 79-yil 24-avgustda Vezuviy vulqoni otilib, Pompey va Gerkulanum shaharlari lava kulining qalin qatlamlari ostida qoldi. 1748-yil Pompey shahrini qazish boshlanib, kul ostida qolgan ko‘chalar, maydonlar va uylar ochila boshlandi. Pompey shahrida teatr binosi, amfiteatr, ibodatxonalar, hammomlar, sport maydonlari va shaharning bosh maydoni – fo-

rum qazib ochilgan. Bu shaharlar vulqon kuli ostida qolgani uchun to‘la saqlanib qolgan. Pompey va Gerkulanum shaharlari qadimgi Rim jamiyati va davlati hayoti to‘g‘risida atroflicha ma’lumot olish va tasavvur hosil qilishga yordam beradi. 1709-yilda quduq qazish vaqtida tasodifan Gerkulanum shahri xarobalari ochilgan. 79-yilda kunduz kuni soat 12 larda vulqon otilgan. Gaz va bug‘ ko‘tarilib, dengiz bo‘yidagi so‘lim Gerkulanum shahri ustini qalin chang – kul qoplab olgan, harorat 325 gradusga ko‘tarilib ketgan. Odamlar qutulish uchun dengiz sohiliga qochganlar, lekin ulgurmaganlar. 1709-yildan boshlab Gerkulanum shahrini qazish boshlanganda birin-ketin qimmatbaho buyumlar, haykallar topila boshlangan. Qazish davomida qadimgi Rimdagi eng hashamatli villalardan biri topilgan. Bu uch qavatli villa Sezarning qaynotasi Kalpurniy Pizonga tegishli bo‘lgan deb hisoblaydilar. Pizon villasidan 1800 papirus o‘rami va haykallar topilgan. Neapol qiroli Karl 18 papirusni 18 ta papirus o‘ramga almashtiradi. Villada Epikur falsafa ta’limotining davomchilari maktabi joylashgan. Papirus o‘ramlari yong‘indan zarar ko‘rib, tarashaday qotib qolgan. Papirus o‘ramlarini bir necha marta o‘qishga harakat qilingan. Lekin ko‘p urinishlar zoye ketgan. Faqat 1999-yilda AQSH ning NASA kosmik tadqiqotlar agentligi mutaxassislarining kashfiyoti bo‘lgan multispektal tasvirlari usulini qo‘llanilishi papiruslar o‘ramlarini o‘qishda inqilobiy qadam bo‘ldi. Villa kutubxonasidagi oxirgi qo‘lyozma mil. avv. 15-yilga tegishli. Hozirgi kunda Neapol shahri kutubxonasida ikki mingta papirus mavjud bo‘lib, ularni ustida italyan, Amerikaning Michigan, Texas, Kaliforniya universitetlari olimlari ish olib bormoqdalar. Villa uch qavatli bo‘lib, mozaika terilgan pollar, devoriy tasvirlar va haykal, byustlar bilan bezatilgan. Keng hovlida basseyn va bog‘ mavjud. Bundan uch

asr oldin Pompey va Gerkulanum shaharlarida boshlangan arxeologik qazishmalar hozirgacha davom etib kelmoqda. Bu qazishmalar natijasida olinadigan ma'lumotlar qadimgi Rim davlati va jamiyati hayoti to'g'risida tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

Fransiya imperatori Napoleon III Yuliy Sezar tarixini yozishda arxeologik manbalar ma'lumotlarini olish uchun Fransiya hududidagi ikki qadimgi gall shahri qoldiqlari Bibrakta va Aleziya qazishga buyruq beradi. Bu shaharlar qoldiqlarini o'rganish XIX asrning 50-yillarida boshlanib, hozirgacha davom etmoqda. Shaharlar qoldiqlaridan Rim tarixiga tegishli juda ko'p topilmalar qazib ochildi. Rimning etrusklar davri, respublika va imperiya davrlari hamda diniy hayotiga tegishli ma'lumotlar qadimgi kohinlar kollegiyasi jadvallari, qabrtosh yozuvlari va nasroniy dini kitoblari hamda nasroniy tarixchilarning asarlarida mavjud.

Yozuvlar. Qadimgi Rim tarixiga oid turli yozuvlar saqlanib qolgan. Saqlanib qolgan moddiy, madaniy yodgorliklarida ular bino devorlari, sopol idishlar, sag'analar va toshlarga bitilgan.

Hujjatli manbalar antik mualliflar asarlari ichida saqlanib qolgan. Rim davlatchiligining eng muhim yozma manbalaridan biri qonunlar to'plami «O'n ikki jadval qonunlari» matnlarining parchalari, huquqshunos va boshqa mualliflar asarlarida mavjud, lekin bunday yodgorliklar juda kam. Tarixchilarning asarlarida Rim davlatining shartnomalari, qonun hujjatlari saqlanib qolgan.

Rimning imperiya davridan imperatorlarga bag'ishlangan yozuvlar, qabr tosh yozuvlari, katta inshootlar devoridagi yozuvlar, imperator farmonlari, senat qarorlari (mil. avv. III yildagi agrar qonun, munitsipiylar to'g'risidagi Yu. Sezar qonuni), Vespasiannning hokimiyati tog'risidagi senat qarori, Antoninlar

davridagi kolonat munosabatlari to‘g‘risidagi hujjatlar, xudolarga murojaat va boshqalar, jami 10 mingga yaqin hujjatlar saqlanib qolgan. Misrning Rim imperiyasining turli bosqichlaridagi hayoti to‘g‘risida ma’lumot beradigan papirus yozuvlari Misrdan topilgan. Rim tarixiga oid manbalardan biri qadimgi tangalar hisoblanadi.

Rim mifologiyasi, falsafa, adabiyot va komediya kabi yozma yodgorliklari bizgacha juda katta hajmda yetib kelgan. Shu bilan birga, Italiyadan tashqari qadimgi Rimga tobe bo‘lgan Yevropaning boshqa hududlarida, Osiyo, Afrikada ko‘p miqdorda me’moriy inshootlar: saroy-ibodatxona, mudofaa inshootlari qoldiqlari, ko‘priklar, portlar saqlanib qolgan.

3. Qadimgi Rim tarixi tarixnavisligi. Rim tarixini o‘rganish uyg‘onish davridan lotin va yunon matnlarini to‘plash va chop etishdan boshlandi. Antik mualliflarning asosiy asarlari XIV – XVI asrlarda izlab topildi. XVII asr oxirida fransuz olimi Abbat Tillemonning 16 tomli «Cherkov tarixi»ning 6 tomi Rim imperiyasi tarixiga bag‘ishlangan. XVIII asrda fransuz olimi Monteske «Rimliklarning buyukligi va halokati to‘g‘risida mushohadalar» asari Rim tarixini tahlil qilishga bag‘ishladi.

(1737-yil boshlarida Rim respublikasi chuqur ijtimoiy-siyosiy tanglik va qonli tashqi urushlar davriga kirdi. Oqibatda respublika tizimi zaiflashdi, demokratik tuzumdan mutlaq hokimiyat tomoniga jadal siljish boshlandi. Agrar masala, Italiya shaharlarining huquqsizligi, oddiy xalq – plebsning ahvoli yomonlashuvi hamda hukmron tabaqalar o‘rtasidagi kurash respublika tuzumi asoslarini zaiflashtirdi. Rim respublikasi o‘z halokati tomon jadal yurishni boshladi.

Italiyadagi vaziyat senat hokimiyatining samarali boshqaruvi yo‘qligi, ichki siyosatning beqarorligi, siyosiy arboblarning o‘sib borayotgan roli, ularning

ochiqdan-ochiq demagogiyasi, kurashning zo‘ravonlik usullarini qo‘llashga tayyorligi yaqqol ko‘rinardi.

Grakxlar va ularning eng faol tarafdorlarining o‘limidan so‘ng, oddiy fuqarolarning himoyachisi populyarlarning zaiflashuvi vaqtinchalik edi. Rim jamiyatidagi qarama-qarshiliklar bartaraf qilinmadi. Begona hududlarda urush harakatlarini olib borayotgan Rim qo‘shinlariga qo‘mondonlik qilayotgan, nobillar homiyligi ostidagi qo‘mondonlarning muvaffaqiyatsizliklari norozilikni kuchaytirdi. Bu jarayon Rimda hukmron tabaqa bilan oddiy xalq o‘rtasidagi ziddiyatlar chuqurlashib, tushkinlikda bo‘lgan davlat hokimiyatining zaifligidan dalolat berar edi. Rim respublikasi mavjud beqarorlikni tugatish imkoniyatiga va kuchiga ega emasligi yaqqol ko‘rinib qoldi.

3. So‘nggi respublika davri (mil. avv. II – I asrlar). Bu davrda klassik qulchilik shakllanib, Rim O‘rtayer dengizi havzasini bosib olib kuchli daylatga aylandi;

4. Ilk imperiya yoki prinsipat (milodiy I – II asrlari) davri. Bu davr Rim imperiyasining oltin davri. O‘rtayer dengizi havzasida qadimgi G‘arb sivilizatsiyasining gullab-yashnashi, iqdisodiyot va madaniyatning o‘sishi bilan belgilanadi;

5. Umumiy tushkunlik. Rim imperiyasining yemirilish xavfi (milodiy III asri). Bu davrda Rim jamiyatining barcha tuzilmalarida kuchli tushkunlik belgilari yaqqol ko‘rinadi va Rim davlatchiligining halokati xavfi tug‘iladi;

6. So‘nggi Rim imperiyasi yoki Dominat (milodiy IV – V asrlari) davri. Bu davr quldorlik jamiyatining yemirilishi, uning bag‘rida feodalizmning ilk belgilarini shakllanishi va G‘arbiy Rim imperiyasining qulashi bilan belgilanadi.

5. Apennin yarim orolining qadimgi aholisi. Arxeologik qazishmalar Italiyada odamlar paleolit

davrida joylashganini tasdiqlaydi. Ilk odamlar dastlab g‘orlarda yashaganlar va ovchilik bilan shug‘ullanganlar. Paleolit odamlariga tegishli tosh boltalar, kremniy qirg‘ichlar, o‘q uchlari va suyak, chig‘anoqdan bezaklar saqlanib qolgan. Arxeologiya ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi paleolitda odamlar vafot etganlarni uncha chuqur bo‘lmagan o‘ralarda dafn qilganlar, o‘liklarga qizil bo‘yoq sepganlar va qabrga mehnat qurollari qo‘yganlar. Neolit davri mil. avv. 4 ming yillikning oxiriga to‘g‘ri keladi. Bu vaqtda odamlar g‘or va daralar bilan birga kulbalarda yashay boshlaganlar va chorvachilikka o‘tishgan.

Apennin yarim orolining turli hududlari va unga yaqin orollarda turli davrlarda madaniy o‘choqlar paydo bo‘lib, o‘zaro ta’sirda bo‘lganlar. Mil. avv. III ming yillikning ikkinchi yarmida eneolit davriga o‘tish boshlanadi. Tosh bilan birga misdan foydalanish boshlanadi. Eneolit manzilgohlari Shimoliy Italiyada (Liguriya), izlari Ymbriyada, Shimoliy Latsiyada va boshqa joylarda topilgan. Eneolit odamlari ov va baliqchilikdan tashqari chorvachilik bilan shug‘ullanganlar. Ular g‘orlar bilan bir qatorda yog‘och va loy shuvalgan aylana, oval va to‘g‘ri to‘rt burchakli kulbalarda yashaganlar. O‘liklarni chuqurlarda dafn etib, ko‘mishdan oldin ularni oxra bilan bo‘yaganlar, mayitlar mo‘miyolangan bo‘lishi mumkin. Qabrga turli buyumlar: qurol, taqinchoq bezaklar qo‘yilgan, ba’zida vafot etgan sharafiga dafn gulxani yoqqanlar. Ilk jez davri madaniyatining izlari Kalabriya va Tirren dengizi qirg‘oqlarida saqlanib qolgan. Mil. avv. 1800-yillar atrofida Apennin yarim oroliga shimoldan yangi qabilalar kelib o‘rnashdilar. Bu qabilalar suvdan ko‘tarilgan ustunlarda o‘rnatilgan yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri qirg‘oqda qurilgan uylarda yashaganlar. Hozirgi italyan tadqiqotchilari bu manzilgohlar qoldiqlarini **Terra-marra** (hozirgi italyan tilida – «qora

unumdor yer») dehqonchilik madaniyati deb atadilar. Terra-marra madaniyati manzilgohlarida jez qurollar, mehnat qurollari, taqinchoqlar va mo‘giz va suyakdan yasalgan buyumlar topilgan. Bu madaniyat vakillari cho‘chqa va qoramol boqqanlar, shu vaqtda Italiyada ot ham paydo bo‘lgan. G‘alla va dukkakli ekinlar ekildi. Uzum va mevali daraxtlar ham shu vaqtda o‘zlashtiriladi. Keyinchalik bu madaniyatning vakillari lotin, samniy va umbr qabilalariga bo‘linib ketdilar. Terra-marra madaniyati odamlari mayitlarni gulxanda yoqqanlar, kul qoldiqlarini maxsus ko‘zalarda saqlaganlar. Bu madaniyat asosan Shimoliy Italiyada rivojlanadi va boshqa viloyatlar, jumladan, Latsiyaga ham ta’sir qilgan.

Temir davriga o‘tish mil. avv. 1000-yillardan oldinroq Sardiniyada kuzatiladi. Mil. avv. birinchi ming yillik atrofida qabilalarning yangi to‘lqini Villan madaniyatini (Shimoliy Italiyada Boloniya yaqinidagi joy nomi bo‘yicha) olib keldilar. Bu madaniyat vakillari ham mayitlarni gulxanda yoqib, kulini maxsus idishlarda saqlaganlar.

Mil. avv. VIII asrda Italiyada ikki til guruhida so‘zlaydigan: lotin-sikull, sabin-umbrlar qabilalar tashkil topdi. Lotin qabilalari dastlab qadimgi Latsiya hududida yashadilar. Tit Liviy o‘z asarida lotin qabilasi nomi qabila yo‘lboshchisi Latin nomidan kelib chiqishini aytgan. Umbrlar Tibrning yuqori qismida qishloqlar bir-biridan ajralgan alohida mustahkamlangan qishloqlarda yashaganlar. Umbrlar Villan madaniyatiga xos belgilarga (mayitlarni yoqish odati) ega bo‘lganlar. Sabell qabilalari turmush tarzida eneolitga borib taqaladigan urf-odatlar, mayitlarni tuproqqa dafn qilish odati saqlanib qolgan. Sabell qabilalari orasida samnitlar ko‘p sonli bo‘lgan. Samnitning bir qismini Kampaniyada o‘rnashgan osk qabilalari bo‘ysundirgan. Natijada osk va samniylar

aralashib kampanlar paydo bo‘lgan va ular Kampaniya viloyatini egallab o‘ziga xos madaniyatni shakllantirganlar. Samniylarning ko‘pchiligi o‘z urf-odat an’analarini saqlab qolib, Apennin tog‘larining o‘rta qismida chorvachilik bilan shug‘ullanganlar. Apuliya, Lukaniya va Bruttiya viloyatlarida ham samniylar yashagan. Samniylar jangovar xalq bo‘lib, harbiy san’atni mukammal egallaganlar, keyinchalik rimliklar samniy harbiy san’atining ko‘p jihatlarini o‘zlashtirganlar. Samnit qabilalari birlashib, samnitlar federatsiyasini tashkil etganlar. Tili umbrlar va sabin qabilalariga yaqin bo‘lgan volklar lotinlardan janubdagi hududda joylashganlar.

Aterna daryosining so‘l qirg‘og‘ida vestin va marrusin qabilalari yashaganlar. Ular ibtidoiy urug‘-jamoachilik tartib-qoidalari asosida yashaganlar. Italiyaning shimolida yashagan ligurlar eng qadimgi tub joy aholi edi. Jez davri boshlarida kelgindi qabilalar ligurlarni Italiyaning shimoliy-g‘arbiga siqib chiqardilar. Sikan va sikunlar Sitsiliya orolida yashganlar, ularning izlari Italiyada ham mavjud. Keyinchalik orolga ko‘chib kelgan finikiyaliklar va yunonlar, sikan va sikunlarni orol ichkarisiga siqib chiqardilar. Apennin yarim orolining bir necha viloyatlarida venetlar, yapig, osk, tuskl, volk va boshqa qabilalar hayot kechirgan. Mil. avv. birinchi ming yillikning o‘rtalarida Apennin yarim oroli aholisining ko‘pchiligini italik xalqlari tashkil etdi. Turli urug‘ qabilalar birlashib bo‘lg‘usi italiklar etnosi shakllana boshladi. Italiklarning tillarida o‘xshashliklar ko‘p bo‘lib, madaniyatlarida ko‘pgina farqlar ham mavjud edi.

Finikiyaliklar ilk bor Italiyada mil. avv. II ming yillikda paydo bo‘ldilar. Mil. avv. X asrda finikiyaliklar Pireney yarim oroli va Sitsiliyaga kirib keldilar. Mil. avv. VII asrda yunonlar Sitsiliya va Kampaniyaga suqilib kira boshladilar. Shu vaqtda Karfagen

davlati kuchayib, mil. avv. VI asrda Sardiniyada o‘z tayanch nuqtalarini barpo qildi. Yunonlar va karfagenliklar o‘rtasida bu hududlar uchun keskin raqobat boshlandi. Mil. avv. VIII asrda Janubiy Italiya va Sitsiliyaga yunonlar tayanch nuqtalarini barpo qila boshladilar. Janubiy Italiyada yunonlarning tayanch nuqtalari Lokri, Sibaris, Tarent va Kroton; Sitsiliyada esa Sirakuza, Gela va Akragantga asos solindi.

G‘arb tarixiy adabiyotida yunonlarning tayanch nuqtalari koloniyalar, ya’ni manzilgohlar deb ataladi. Nima uchun kelgindi yunonlar aborigen aholidan alohida ajralib yashaganlar? Mahalliy aholi kelgindilarni qabul qilmagan. Qadimda urug‘-qabila hududida begona urug‘ yoki etnos yashashi mumkin emas edi. Mahalliy aholi bilan migrantlarning munosabatlari ziddiyatli bo‘lgan. Yunonlarning manzilgohlari bo‘sh yerlarda, odatda, dengiz qirg‘oqlariga yaqin va xo‘jalik yuritishga qulay iqlim sharoiti bo‘lgan joylarda yuzaga kelgan.

Dastlab yunonlar yerto‘la, yarim yerto‘la yoki shox-shabbadan tiklangan chayla yoki kulbalarda yashganlar. Kelgindi yunonlar barpo qilgan tayanch nuqta haqiqiy shahar yoki ko‘p sonli aholi yashagan qishloqqa aylanishi uchun bir necha yuz yillar vaqt o‘tgan. Yunon tayanch nuqtalarida savdo-hunarmandchilik va dehqonchilik gullab-yashnadi. Yunonlar uzumchilik, zaytun daraxti, donli ekinlar ekish, chorvachilik bilan shug‘ullandilar. Yunon shaharlarida hunarmandchilik rivojlanib, Tarent qizil zarbof matosi, Regiy jez buyumlari, Sirakuza kemalari, Qum shahri kulolchilik bilan shuhrat qozondi. Bu tayanch nuqtalarda yashagan yunonlar o‘z vatanlari – Bolqon Yunonistoni, Kichik Osiyo va boshqa hududlar bilan faol savdo aloqalarini yo‘lga qo‘ydilar. Vaqt o‘tishi bilan yunonlar Yunoniston yerlariga

nisbatan hosildor boy o‘lka Janubiy Italiyada barpo etgan koloniyalarni «Buyuk Yunoniston» deb nomlaganlar. Yunon manzilgohlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot keskin ziddiyatli edi.

Mil. avv. I ming yillik o‘rtalarida Po daryosi vodiysida kelt qabilalari o‘rnashdilar. Ular bosh kiyimlarini xo‘roz patlari bilan bezar edilar. Shu sababli, rimliklar ularni gall (lotincha gallus – «xo‘roz») deb atadilar. Mil. avv. III asrda Italiya hududi Rim istilolari natijasida yagona davlatga birlashdi. Natijada bu yerda yashagan turli qabila va xalqlar bir-biri bilan yaqinlashib, romanlashish jarayonini boshdan kechirdi. Mil. avv. I asrga kelib lotin tilida so‘zlashadigan yagona italyan xalqi shakllandi. Shu davrdan boshlab mamlakat Italiya deb atala boshlandi.

ETRUSK DAVLATI VA JAMIYATI

Apennin yarim orolidagi ilk davlat va jamiyatni etrusklar barpo qildilar. Etrusklar bo‘lg‘usi Rim davlati va madaniyati taraqqiyotining ustivor yo‘nalishlarini belgilab berdilar.

1. Etrusklarning kelib chiqishi.
2. Etrusklarning siyosiy tarixi.
3. Etrusklarning ijtimoiy tuzumi.
4. Iqtisodiy hayot.
5. Etrusk madaniyati.

1. Etrusklarning kelib chiqishi. Etrusklar to‘g‘risidagi ilk aniq ma’lumotlar mil. avv. VIII asrga tegishli. Etrusklar, ularning kelib chiqishi to‘g‘risida Gerodot, Strabon, Katta Pliniy va Galikarnaslik Dionisiy o‘z asarlarida aytib o‘tganlar. Ular Etrusklar Kichik Osiyodagi Lidiyadan mil. avv. XIII asrda dengiz orqali Italiyaga kirib kelganlari to‘g‘risida ma’lu-

mot beradilar. De Sanktis Nogarda xett yodgorliklari ochilgandan so‘ng xettlar va etrusklar qarindosh xalq ekanligini aytdi. Uning fikriga ko‘ra, etrusklar Italiyaga Qora dengiz bo‘yi dashtlaridan Dunay, Sava va Drava daryolari orqali ko‘chib kelganlar. XVI asrda etrusk yozuvlarini tadqiq etish boshlandi. Ba’zi tadqiqotchilar etrusk tilining kelib chiqishini Sharqdan izlashni taklif qiladilar.

Tit Liviy o‘zining beshinchi kitobida qudratli etrusk davlati to‘g‘risida aytib o‘tadi. Lotinlar ularni etrusklar yoki tusklar, yunonlar tirrenlar yoki tersenlar deb atadilar. Etrusklar tarixiga tegishli ma’lumotlar sag‘ana, dafn toshlari, qo‘rg‘oshin taxta, ko‘za, muhrlarda bitilgan 11 ming etrusk yozuvlarida mavjud. Yozuvlarning ko‘pchiligi bag‘ishlov, in’om mazmunida bo‘lib, qisqa yozilgan. Etrusklarning yozuvi biror bir Yevropa tiliga yoki tillar oilasiga to‘g‘ri kelmaydi. Ular Kichik Osiyodan kirib keldilar. Demak, ularning tillari Qadimgi Sharq etnoslarining birortasiga to‘g‘ri kelishi mumkin. Kichik Osiyo boshqa Sharq etnoslari uchun Old Osiyo va Yevropaga o‘tadigan asosiy yo‘llardan biridir. Etrusklarning sag‘analari shakli, qurol-yarog‘lari, fol ochish amaliyoti jamiyatni qadimgi Sharq bilan bog‘laydi. Etrusk tilining ba’zi shakllari kavkaz tillariga to‘g‘ri keladi. Yuqoridagilarga asoslanib, etrusklar Sharq xalqlaridan biri bo‘lib, XII asrda Kichik Osiyodan Egey dengizi orqali Apennin yarim oroliga kirib kelganlari har qanday shubhaga o‘rin qoldirmaydi.

Tarixshunoslikda Dempster (1579 – 1625-yillar) etriskologiya fanining asoschisi sanaladi. Puje, Maspero, Nibur va boshqalar etrusklarning kelib chiqishi muammolari bilan shug‘ullandilar. Etrusklardan yirik etrusk shaharlari xarobalari, qal’a devorlari qoldiqlari, zodagonlarning hashamatli qasrlari va sag‘analar bizgacha yetib kelgan.

2. Etrusklarning siyosiy tarixi. Dengiz orqali kelgan etrusklar ko‘rinishidan mahalliy etnoslardan umbriylarni bo‘ysundiradilar. Ular boshida o‘rta Italiyadagi Tibr va Arnus (hozirgi Arno) daryolari oralig‘iga joylashganlar. Rimliklar bu hududni etrusklar nomi bilan Etruriya deb ataganlar. Mil. avv. VIII asrda etrusklar rivojlangan davlat va jamiyatga ega bo‘lib, hunarmandchilik-savdo markazlari bo‘lgan shaharlarni barpo qilganlar. Ular Tirren dengizi va Tibr daryosining quyi oqimi oralig‘idagi hududda Tarkviniy, Sere va Veyya shaharlarini barpo qilganlar. Iqtisodiyot rivojlanishi bilan shaharlar soni ko‘payib borgan. Etrusklar rivojlangan dehqonchilik xo‘jaligini tashkil etdilar.

Etrusklarning Arretiy, Sere, Kluziy, Kortona, Peruziya, Ruselli, Tarkviniy, Veya, Vetuloniya, Volaterra, Volki va Volsiniya shaharlari – jami 12 tasi kirgan Etrusk ittifoqi tuziladi. Ittifoq siyosatiga 12 shahar vakillari 12 luqumondan iborat kengashi rahbarlik qilgan. Luqumonlardan biri ittifoq va kengash rahbari bo‘lgan. Kengash zaruriyat bo‘lganda urush vaqtida ko‘p sonli ko‘ngillilarni to‘plagan, urush vaqtida zodagonlar o‘z askarlari bilan jang aravalarida jang qilganlar. Ularning vakillari Tarkviniy shahridagi ma’buda Voltumna ibodatxonasiga to‘planib, ittifoq ishlarini boshqaruvchi mansabdor shaxslar saylangan. Ittifoqchi shaharlar mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritdilar. Shaharlar o‘rtasidagi aloqalar zaif bo‘lib, ular o‘rtasida kuchli raqobat mavjud edi.

Dastlab etrusk shaharlarini podshohlar, keyinchalik oqsuyak zodagon (luqumon)lar orasidan saylab qo‘yiladigan mansabdor shaxslar boshqargan. Urug‘chilik munosabatlari yemirilishi bilan podshoh hokimiyati ham zaiflashgan. Hokimiyat saylab qo‘yiladigan ikki mansabdor qo‘liga o‘tadi. Bu ikki man-

sabdorning hokimiyat ramzlari chiviq o‘ramiga suqilgan bolta – fassiy, mansabdorning oldida boradigan fassiy ko‘targan 12 tansoqchi – liktor va fil suyagi bilan ziynatlangan taxt bo‘lgan.

Mil. avv. VII asr o‘rtalaridan etrusklar Italiyada istilochilik yurishlarini boshlab, Latsiy va Kampaniyani bosib oldilar. Apennin yarim orolining janubigacha o‘z ta’sirlarini o‘tkazib, Rim shahriga hukmronlik qildilar. Mil. avv. 616 – 509-yillarda Rim shahrini etrusklarning Tarkviniy urug‘idan bo‘lgan podshohlar boshqardilar. Etruriyaning siyosiy, iqtisodiy va madaniy yuksalish davri mil. avv. VI asrning birinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Korsika oroli etrusklarning tayanch nuqtasiga aylandi. Etrusk davlati o‘zining eng qudratli davrida shimolda Alp tog‘laridan janubda Neapolitan qo‘ltig‘igacha bo‘lgan hududlarga egalik qildilar.

Janubiy Italiyadagi yunonlar etrusk viloyatlariga tahdid sola boshladi. Etrusklar yunonlarga qarshi Karfagen davlati bilan ittifoq tuzdilar. Bu vaqtda etrusklarning mulklari shimolda Alp tog‘larigacha, janubda Latsiyaning ba’zi hududlari va Kampaniya kirgan edi. Mil. avv. 535-yilda etrusklar Karfagen bilan ittifoq bo‘lib, Korsika oroli yaqinida Alali yonidagi jangda yunonlarni tor-mor qildilar. Lekin ularning Apennin yarim orolidagi yetakchiligi mil. avv. VI asrning ikkinchi yarmida nihoyasiga yetdi.

Mil. avv. VI asrning ikkinchi yarmidan etrusklar zaiflasha boshladi. Etrusklarning zaiflashuvining bir necha sabablari bor edi. Etrusk shaharlari ittifoqiga kirgan shaharlar o‘rtasida iqtisodiy aloqalar zaif edi. Etrusk shaharlari ittifoqi mustahkam tashkilot bo‘la olmadi. Ittifoqqa kirgan etrusk shaharlari o‘rtasida yetakchilik uchun doimiy raqobat to‘xtamadi. Bundan tashqari ijtimoiy tabaqalar o‘rtasidagi zid-

diyatlar, bosib olingan qaram hududlar aholisining noroziligi etrusklarga salbiy ta'sir qildi. Italiyadagi etnos va hududlar etrusklarning hukmronligiga chek qo'yishga harakat qildilar.

Etrusklar birdaniga yunonlar, rimliklar va keltlarning siquvi ostida qoldi. Yunonlar mil. avv. 524-yilda Kampaniya yonida, mil. avv. 474-yilda Qum yonida etrusk flotini tor-mor qildilar. Janubda Messin qo'ltig'ini mil. avv. 482-yilda yunonlar etrusk kemalari uchun yopdilar. Etrusklar mil. avv. 474-yilda Qum yonidagi jangda yunon flotidan yengildilar. Bu janglarda etrusklarning dengizdagi hukmronligiga chek qo'yildi. Mil. avv. 510-yilda rimliklar so'nggi etrusk podshohi Tarkviniy Mag'rurni shahardan haydab yubordilar. Mil. avv. VI asrning oxirida Latsiya va Italiyaning shimolida etrusklarning ta'siri zaiflashdi. Mil. avv. V asr nihoyasigacha etrusklar Korsika va Elba orollarini yo'qotdilar, jangovar samniylar qabilalari ham Kampaniyani etrusklardan tortib oldilar. Etrusklar shimolda keltlarni hujumini qaytarish uchun og'ir kurash olib bordilar. Oqibatda, davlat hududlari qisqarib bordi.

Rimliklarning etrusklarga qarshi urushlari rivoyat va boshqa ma'lumotlarda saqlanib qolgan. Bir rivoyatga ko'ra, etrusk podshohi Porsenni o'ldirish uchun rimlik o'smir Gay Mutsiy Stsevola etrusklar qarorgohiga kiradi, lekin uni ushlab oladilar. Porsenn Gay Mutsiyni qiynoqqa solib, sheriklarini aytishni talab qiladi. Gay Mutsiy Stsevola og'riq va o'limdan qo'rqmasligini ko'rsatish uchun qo'lini olovga tutadi va qo'li qanchalik kuymasin, miq etib ovoz chiqarmaydi. Etrusklar rimlik o'smirning jasoratiga tan beradilar.

Rim etrusklarning savdo-hunarmandchilik markazlaridan biri bo'lgan Veya shahrini egallash uchun uzoq va holdan toydiruvchi urush harakatlarini olib bordi. Veya shahri mil. avv. 396-yilda rimliklar to-

monidan o‘n yillik qamaldan keyin ishg‘ol etilib, buzib tashlandi. Rim mil. avv. IV asrning birinchi yarmida butun Janubiy Etruriyani bosib oldi. Mil. avv. 265-yilda etrusk shahri Voliniyaning qulashi bilan rimliklar Etruriya istilosini tugalladilar.

Lekin etrusklar madaniyati mil. avv. IV asrgacha Italiyada o‘z yetakchilik mavqeyini saqlab qoldi. Faqat mil. avv. IV asrda Rimning siyosiy yetakchiligi o‘sib borishi bilan mil. avv. III asrdan Rim madaniyati ustivor ahamiyat kasb etdi. Etrusk etnosi yo‘qolib, rimliklar tarkibiga singib ketdi. Mil. avv. I asrda esa etrusk tili va yozuvi unutildi. Lekin etrusklarning davlatchilik tajribasi va etrusk madaniyati Rimning yosh va o‘sib borayotgan madaniyatiga hayotbaxsh ta’sir qildi. Etrusklarning hokimiyat ramzlari, davlat boshqaruvi tizimi va boshqalar rimliklar tomonidan o‘zlashtirilib olingan.

3. Etrusklarning ijtimoiy tuzumi. Etrusklar rivojlangan davlat va jamiyatga ega bo‘lganlar. Urug‘-jamoa tartib-qoidalari yemirilishi natijasida boy oilalar paydo bo‘lgan. Farazlarga ko‘ra, ba’zi etrusk shaharlarining nomi obro‘li etrusk urug‘lari nomlaridan kelib chiqqan. Misol uchun, Tarkviniy shahrining nomi taniqli Tarkviniylar urug‘i, etrusk tilida Tarxna nomidan olingan.

Mehnat taqsimoti, ayirboshlashning rivojlanishi, jamoa tuzumining yemirilishi boy oilalarning hukmronligini yuzaga keladi. Jamiyatning imtiyozli qatlami harbiy – kohinlar (lugumonlar), oqsuyak zodagonlar shakllanadi. Etrusk oqsuyak zodagon (luqumon) lari oliy tabaqaga mansublik belgilari bo‘lgan bo‘yinga taqiladigan tilla sharcha, qizg‘ish rangli tasma bilan hoshiyalangan togada yurishni joriy qilganlar. Etrusklar urushda erishgan g‘alabalarini hashamatli nishonlab, bayram qilganlar. Urushda g‘alabaga erishgan o‘z lashkarboshilarini etrusklar Osmon

ma’budi Tinaga o‘xshatganlar. G‘alabaga erishgan lashkarboshi boshiga oltin toj, egniga qizg‘ish rangdagi, palma tasvirlari bilan bezalgan tunika (ko‘ylak) kiygan, Lashkarboshi qo‘lida eben daraxtidan ishlangan aso bilan oltin aravada ziyoratgohga kirib borgan va qurbonlik keltirgan. Bu an’anani keyinchalik rimliklar aynan o‘zlashtirib olgan.

Etruriyada qulchilik juda erta paydo bo‘lgan. Qulchilikning mavjudligidan etrusk zodagonlarining qo‘rg‘onlarida uyushtiriladigan gladiatorlar janglari guvohlik beradi. Gladiator janglarining kelib chiqishi quyidagicha bo‘lgan: qadimda jangda halok bo‘lgan etrusk yo‘lboshchilari qabri ustida asirga tushgan dushmanni jang qilishga majbur etilganlar. Oqibatda, bunday marosim keyinchalik ko‘ngilochar tomoshaga aylanib borgan. Bunday tomoshani etrusklardan boshqa Italiya shaharlari va keyinchalik rimliklar ham o‘zlashtirib olganlar.

Qullar va qaram odamlardan tuzilgan qurolli guruh bilan luqumonlar qo‘shni viloyatlarga hujum qilganlar. Dengizda qaroqchilik (piratlik) bilan shug‘ullanganlar. Etruriya shaharlarida podshohlar boshda saylab qo‘yilgan. Siyosiy kurash natijasida ayrim shaharlarda podshohlarning o‘rnini saylab qo‘yilgan lodamlar egalladi. Podshoh hokimiyati ramzlari – xivich bog‘lami va unga suqilgan bolta ko‘targan xizmatchilar podshoh oldida borganlar, qizil zey berilgan toga, podshoh o‘tirgichi kreslo rimliklarga etrusklardan o‘tgan. Ko‘rinishidan rimliklar oliy hokimiyat (imperuim) tushunchasini ham etrusklardan o‘zlashtirganlar.

4. Iqtisodiy hayot. Etrusklar xo‘jaligining asosi sug‘orma dehqonchilik bo‘lib, ular toshloq yerlarga suvni kanallar, yer osti suv omborlari orqali yetkazganlar. Boshoqli ekinlar, kanop, zaytun va uzum yetishtirilgan. Etruriyaning yerlari tufdan tashkil topib, toshloq bo‘lgani uchun tez botqoqlangan. Etrusk

dehqonlari toshloq yerlarni botqoqlanishini oldini olish, zax suvlarni qochirish usullarini yuqori darajada o‘zlashtirganlar. Yerlarni botqoqlanishi va qarshi zax suvlarni qochirish uchun ko‘p sonli ishchi kuchi safarbar qilingan.

Etruriya shaharlarining paydo bo‘lishi mil. avv. VIII asrga mansub. Savdo-hunarmandchilik rivojlanib, etrusk hunarmandchilik mahsulotlari chet ellarga chiqarilgan. Etrusklar metallga ishlov berishda yuqori natijalarga erishdilar. Etrusk hunarmandlari yuqori sifatli qurol-yarog‘lar tayyorlaganlar. Volterra shahri hunarmandlari katta ustaxonalarda mahalliy alebastrdan buyumlar ishlab chiqarganlar. Peruziyada ohak, Volsiniyada tuf toshiga ishlov berilgan. Jezdan uch oyoqli diniy marosim idishlari, odam va hayvon haykalchalari, nafis qutichalar, oyna, chiroqlar ishlab chiqarilgan. Rim shahri etrusklar hukmronligi ostida bo‘lib, VII – VI asrlarda bu shaharni etrusk podshohlari boshqargan. Rim shahrida ko‘plab etrusk hunarmandlari yashagan. Etrusk dehqonlari va hunarmandlari o‘z kasblari sirlarini Italiyada boshqa xalqlarga o‘rgatganlar. Etruriya o‘rmonlar, qurilish toshi, gilga boy edi. Etrusklar uchun zarur bo‘lgan mis, qo‘rg‘oshin, qalay xomashyosi mo‘l-ko‘l bo‘lgan. Qo‘shni Elba orolida temir rudasi qazib olingan. Etrusklar ishlagan kulolchilik mahsulotlari qo‘shni hududlarda nihoyatda yuksak baholangan. Boshqa mamlakatlardan fil suyagidan ishlangan hashamatli buyumlari, xushbo‘y yog‘lar, kulolchilik mahsulotlari olib kelingan. Chet elga asosan qurol-yarog‘lar va vino chiqarilgan.

Etrusklar dengiz orqali vositachilik savdosini jadal amalga oshirdilar. Etrusk savdo kemalari Misr, Karfagen, Finikiya, Yunoniston va boshqa Sharq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini o‘rnatganlar. Ular dengiz savdosida Karfagen, Finikiya va mil. avv. VI

asrda yunonlar bilan dengizda raqobat qilganlar. Etrusklar O‘rtayer dengizi havzasi savdosida yetakchi o‘rinni egallaganlar. Etrusklar ichki va tashqi savdo rivojlanishi uchun tanga – pul zarb qildilar.

Qurilish sohasi nihoyatda yuqori darajada rivojlanadi. Etrusk me’moriy inshootchiligida sag‘ana va shaharlar, mudofaa inshootlari va ko‘priklar qurilishi yuqori darajaga ko‘tarilgan. Etrusk shaharlari yagona reja asosida qurilgan. Ikki ko‘cha bir-birini to‘g‘ri burchak ostida keshishib o‘tib, shaharni to‘rt kvartalga bo‘lgan. Ko‘chalar tosh to‘shalgan ko‘prik va trotuarga ega bo‘lgan. Volaterra shahrida saqlanib qolgan qoldiqlar shaharlarda kanalizatsiya mavjud bo‘lganidan guvohlik beradi. Shaharlar tosh devorlar va xandaqlar bilan o‘rab olingan. Ana shunday qat’iy tuzilgan reja asosida aholisi gavjum va boy bo‘lgan Veyi, Populoniya, Kluziy, Belsiniya, Peruziya, Tarkviniya, Vulchi va Sere kabi etrusk shaharlari barpo qilindi. Etrusk ibodatxonalarini qurilishi o‘ziga xos bo‘lgan. Ibodatxonalar ustunlari siyrak bo‘lib, tomlari tik bo‘lgan. Etrusk oqsuyak zodagonlari – luqumonlarning maqbaralari hashamatli va Sharqdagidek ulkan qurilgan. Bu ulkan maqbaralarni qurilishiga ko‘p sonli qullar jalb etilgan. Maqbaralar dastlab bir kamerali, keyinchalik ko‘p kamerali qilib qurilgan. Ularning ichki devorlari yorqin tasvirlar bilan bezatilgan.

Etrusklar Janubiy Italiya, Korsika va Sardiniyani ham o‘zlashtirib, bu hududlarda o‘z tayanch nuqtalarini barpo etdilar. Apennin yarim orolning shimoli-sharqida bunyod etilgan etrusklarning Adriya shahri Adriatika dengiziga o‘z nomini berdi. Mil. avv. VI asrning birinchi yarmi Etruriya iqtisodiy-siyosiy hayotining yuksalish davri bo‘ldi.

5.Etrusk madaniyati. Etrusk madaniyati tarixi uch davrga bo‘linadi: 1. Mil. avv. VIII – VII asrlar;

2. Arxaik davr (mil. avv. VI asr); 3. Klassik davr (mil. avv. V – IV asrlar). Etrusk madaniyatining asosiy yodgorliklari O‘rta Italiyadagi Tibr va Arnus daryolari oralig‘ida rimliklar Etruriya (hozirgi Toskana) deb atagan viloyatda to‘plangan. Etrusklar bir necha yuz yillar davomida o‘ziga xos yuksak rivojlangan madaniyatni shakllantirdilar.

Etrusk me’morchiligi yuksak darajada shakllangan bo‘lib, shaharsozlikda erishgan yutuqlari buning yaqqol dalilidir. Shaharlarda keng ko‘chalar (kengligi 10-15 metr), maydon, kvartallar, mudofaa devorlari, tosh ko‘prik, suv quvurlari va kanalizatsiya inshootlari keng miqyosda bunyod etilgan. Hududda marmar mavjud bo‘lmagani uchun etrusklar haykallarni jezdan ham ishlaganlar. Sag‘analardagi relyef tasvirlar, haykallarni yasashda toshning turli xillaridan foydalanilgan.

Etrusk shaharlarida qal’a inshootlari va ibodatxonalarining barchasi, odatda, tuf va travertindan (toshning bir turi) qurilgan. Inshootlar silliqlangan to‘rtburchak yo‘nilgan toshlardan ko‘tarilgan. Etrusk ustalari me’morchilikda toshning turli jinslarini ham ishlatdilar. Haykaltaroshlar va kulollar jez va loydan unumli foydalandilar. Tosh, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar taqinchoqlarni tayyorlashda kam ishlatilgan. Etrusk me’moriy inshootlarida qadimgi Misr uslubi yaqqol ko‘rinib turadi. Ular qobiliyatli injenerlar bo‘lib, mustahkam ko‘prik va yo‘llarni bunyod qilish qobiliyatiga ega bo‘lganlar.

Etrusklardan dafn marosimlari uchun tayyorlangan turli buyumlar: mayit yoqilgandan keyin uning kuli solingan idishlar, sag‘ana va qabrtosh yozuvlari saqlanib qolgan. Sag‘ana ichidagi tosh tobutning qopqog‘ida er-xotinlarning yoki qo‘lida kosa ushlagan yakka kishining bo‘rtma tasviri tushirilgan. Etrusk nekropollari shahardan tashqarida bo‘lgan. Jahon

san'ati tarixiga mansub etrusklarning mashhur Klyuzi, Cherveteri, Vulchi, Volterra va Mantanoli maqbaralari bo'rtma naqshlar, jez va loydan yasalgan haykallar bilan bezatilgan. Ibodatxonalar va sag'analarga haykallar o'rnatilib, devorlar relyef tasvirlar bilan bezatilgan. Haykaltaroshlikning asosiy xomashyosi tosh yoki loy – terrakota bo'lgan.

Luqumonlarning naqshlar bilan bezatilgan sag'analaridan topilgan dafn ko'zalari, jezdan ishlangan diniy va kundalik buyumlari zargarlik san'atining nafis va yuksak asarlaridir. Etrusk ustalari metallarga ishlov berishda mashhur bo'lib, oynalar, vazalar, oltin va fil suyagidan san'at buyumlari yaratganlar.

Etrusklarning dafn marosimlariga bag'ishlangan tasviriy san'atining gullab yashnashi mil. avv. VI asrga to'g'ri keladi. Bu davrda Tarkviniy shahridagi Monterossi nekropolining ko'p sonli tasvirlari buning misolidir. Etrusk tasviriy san'atida tabiat va peyzaj tasvirlariga keng o'rin berilgan. O'simliklar, daraxtlar va dengiz tasvirlariga ko'proq murojaat qilingan. Mil. avv. IV asr oxirida dafn tasvirlarida qatl, azob chekish syujetlariga keng o'rin berilgan. Rassomlar marhumlarni u dunyoda kutayotgan azob va qiynoqlarni tasvirladilar.

Shuningdek, portret san'ati rivojlangan bo'lib, qabrtoshlarda uchraydi. Torevtika (ilohlarning bronza haykalchalari, dafn marosimi buyumlari, tasvirlar tushirilgan oynalar) san'ati, bukkero uslubidagi keramika, qizil va qora rangli sopol idishlar, metall va oltindan marosim va ro'zg'or buyumlari tayyorlash san'ati yuqori darajada rivojlanadi. Bizgacha Tarkviniy Mag'rur davrida etrusk haykaltaroshi ishlagan afsonaviy Vulchi haykali ma'lum. Shuningdek, etrusklarning jezdan bunyod qilingan noyob haykallari «Kapitoliy ona bo'risi» va «Ximera» (mil. avv. V asr) insoniyat madaniyati tarixida noyob san'at namunalari hisoblanadi.

Etrusklar kohinlik «ilmining» bilag‘onlari hisoblanib, shakllangan diniy e’tiqodga ega edilar. Ularning dini asosida odamlarni qurbonlik keltirish bilan o‘liklarga, ruhlar va devlarga e’tiqod qilishi yotar edi. Etrusklarning oliy xudosi Vertumn hisoblangan. Uning orqasida uchlik oliy samoviy xudolar turadi: Tiniya, Uni va Minerva (rimliklarda – Yupiter, Yunona va Minerva). Ikkinchi uchlik yer osti xudolari Mant, Maniya (uchinchi xudoni biz bilmaymiz, u Rim xudosi Sereraga to‘g‘ri keladi)ga to‘g‘ri keladi. Oliy xudo Tiniyaga hamrohlik qiladigan 12 xudo: jumladan, Setlans – Rim xudosi Vulqon, Maris – Mars bilan, Aplu – Apollon bilan, Sarte – Saturn, Turms – Germes bilan tenglashtirilgan. Etrusk diniy e’tiqodiga ko‘ra, osmon 16 viloyatga bo‘linib, ularning har birida alohida xudo yashaydi. Etrusklar tabiat kuchlariga sig‘inganlar: ayniqsa dengizga sig‘inish keng tarqalgan.

Etrusklar e’tiqodiga ko‘ra, kelajakni oldindan ko‘rish, xudolarni irodasini bilish mumkin. Odamga zarar keltiradigan, yomonlik qiladigan yovuz devlar va odam, uning oilasi va uyiga homiylik qiladigan ezgulik devlari mavjud deb bilishgan. Bu tushuncha zardushtiylik e’tiqodiga ham o‘xshash. Etrusklar bu dunyoda qilgan gunohlari uchun odam u dunyoda javob beradi deb ishonganlar. Misol uchun Kornetodagi sag‘anadagi tasvirda ezgu devning bola ruhi uchun yovuz dev bilan kurashi, o‘lganlarning ruhi yer osti podshohligi darvozasidan o‘tishi va gunohkorlarning ruhi boshidan kechirayotgani tasvirlanadi. Bu tasvirlar qadimgi Misr sag‘analaridagi tasvirlar bilan aynan bir mazmunni ifodalaydi. Ibtidoiy jamoa urug‘-qabilachilik urf-odatlaridan biri odamlarni qurbonlik qilish odati etrusklarda saqlanib qolgan.

Etrusklar dunyodagi eng birinchi dengizchilardan bo‘lib, ularning savdo kemalari O‘rtayer dengizi, Adriatika va Egey dengizlari havzasidagi mamlakatlari

bilan qizg‘in savdo qilgan. Ular kemasozlikni Osiyodan o‘rgandilar, ularning kemalari Osiyo kemalari kabi ellik eshkakli bo‘lgan.

Etrusklar fol ko‘rish va diniy marosimlar o‘tkazish bo‘yicha maxsus kitoblarni yaratdilar. Fol ko‘rishning murakkab tizimi orqali etrusklar xudolarning xohish-irodasini bilish va baxtsizliklarni oldini olish maqsadini qo‘yganlar. Hayvonlarning ichki organlari ayniqsa, jigari orqali fol ochish keng tarqalgan. Etrusklarning Sharqdan o‘zlashtirgan e’tiqodiga ko‘ra, qadimgilar osmonni 40 qismga bo‘lganlarida bo‘lingan qismlarga jigarning ma’lum bir qismi to‘g‘ri keladi. Shu sababli fol ochish uchun 40 bo‘lakka bo‘lingan jigar modeli tayyorlangan. 1877-yilda Pyanchessada o‘tkazilgan arxeologik qazishmalarda topilgan jezdan ishlangan jigar modeli Kichik Osiyo va Mesopotamiyada topilgan jigar modeliga aynan o‘xshash. Ma’lumki, Mesopotamiyada ham qadimda hayvonlarning yuragi, jigari va boshqa a’zolariga qarab fol ochilgan. Italiyaga ko‘chishdan oldin Kichik Osiyoda yashagan etrusklar Mesopotamiya bilan yaqin aloqada bo‘lganlar. Chaqmoq chaqqanda fol ochish qoidalari tasvirlangan va shaharga asos solishda rioya qilinadigan rasm-rusumlar yozilgan matnlar mavjud.

Etrusk tasviriy san’atida qadimgi Kichik Osiyoning ta’siri ko‘rinadi. Tasviriy san’atda etrusklar erishgan yutuqlardan biri realizm an’analariga sodiqlikdir. Etrusk sag‘analarida vafot etgan odamning jismoniy jihatlari realistik ruhda tasvirlangan. Misol uchun, sag‘analardan birida semiz etrusk gavdasi tabiiy berilgan. Etrusk tasviriy san’atida «uzluksiz tasvirlar» deb ataladigan bir syujetning tasviri boshqasining davom etishiga xizmat qiladi.

Etrusk madaniyatining shakllanishida ularning asl vatani bo‘lgan Sharqning qadimgi sivilizatsiyalari ijobiy ta’sir qildi. O‘z navbatida, etrusk sivilizatsi-

yasi keyingi Rim madaniyatining rivojlanishida alohida o‘rin tutadi. Etrusklar bir necha asr davomida Italiyada ilk davlat va jamiyatga asos solib, yuksak o‘ziga xos madaniyatni yaratdilar. Etrusk shaharlari va aholisi hamda kelib chiqishi etrusk bo‘lgan Rim podshohlari Rim shahriga etrusk madaniyatini olib kirdilar. Ko‘p sonli etrusk shaharlari qurshovida shakllangan Rim shahri etrusk an’analarini qabul qildi. Ayniqsa, etrusk me’morchilik an’analari, tasviriy san’ati keyingi Rim-Italiya me’morchiligi va san’atining asosi bo‘lib xizmat qildi. Rimning deyarli barcha me’moriy inshootlarida etrusk san’ati unsurlarini ko‘rish mumkin.

RIM PODSHOHLIK DAVRIDA (MIL. AVV. 753 – 510-YILLAR)

«U (Tarkviniy) podshohlardan birinchi bo‘lib, oldingi podshohlardan meros qolgan barcha ishlarda senat bilan maslahat qilish odatini yo‘q qildi, davlatga xuddi o‘zining uyidek munosabatda bo‘ldi, haqsiz va senatsiz bir o‘zi kim bilan xohlasa urush qildi va murosaga keldi, shartnomalar, ittifoqlar tuzdi va bekor qildi».

Tит Ливий

1. **Rim shahriga asos solinishi**.
2. **Rim urug‘i va oilasi.**
3. **Rim xalqi.**
4. **Boshqaruv.**
5. **Rim podshohlari.**
6. **Serviy Tulliy islohotlari.**

Qadimgi Latsiya viloyati. Markaziy Italiyada Tibr daryosining quyi oqimidan janubdagi boshqa joylarga qaraganda Latsiya viloyatiga aholi kechroq ko‘-

chib kelgan. Arxeologiya ma'lumotlariga ko'ra Alban tog'lari va Rim shahri o'rnidagi arxeologik yodgorliklar mil. avv. I ming yillik boshlari va hatto X asrga tegishli bo'lib, ilk Villan madaniyati bilan aloqasini ko'rsatadi. Taqinchoqlar uslubi, mayitlarni yoqish va ularning kullarini maxsus idishlarda saqlash, kulbalarning shakli ilk Terra-Marra madaniyati bilan aloqani ko'rsatadi. Lotinlar qadimdan dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Asosiy ekin polba, keyinroq uzum bo'lgan. Latsiy tog'i yon bag'irlarida qoramol – sigir, qo'y va cho'chqa boqilgan. Lotinlar umbr-sabell qabilalari kabi urug'chilik tuzumida yashaganlar. Ular himoyalangan qishloqlarda yashaganlar. Shunday manzilgohlar keyinchalik shaharlarga aylangan. Mil. avv. VIII asrda lotinlarning Lavrent, Lanuviy, Laviniy va boshqa 30 ga yaqin shaharlari Alba-Longa shahri boshchiligida Lotin ittifoqiqa birlashganlar. Rivoyatlarga ko'ra, Al'ba-Longa shahrining asoschisi Askaniy-Yul Troya qahramoni Eneyning o'g'li bo'lgan. Lotinlardan boshqa sabinlar, Latsiyaning tog'li hududlarida lotinlarga yaqin bo'lgan ekv, gernika va volsk qabilalari yashagan.

1.Rim shahriga asos solinishi. Afsonaga ko'ra, Troyaning oxirgi qahramonlari lotin qabilasining ajdodi bo'lgan Eney boshchiligida Italiyaga kelib qoladilar. Eneyning avlodlaridan biri podshoh Numitor o'z ukasi Amuliy tomonidan taxtdan tushiriladi. Numitorning o'g'lini o'ldirib, Amuliy uning qizi Reya Silviyadan qonuniy merosxo'r tug'ilishidan qo'rqib, Vesta ibodatxonasiga kohinalikka beradi. Bu ibodatxona kohinalari turmushga chiqmaslikka qasam ichib, butun hayotlarini toat-ibodatga bag'ishlaganlar. Lekin Silviya xudo Marsning o'zidan homilador bo'lib egizak o'g'illar – Romul va Remni dunyoga keltiradi. Podshoh Amuliy egizaklarni gunohdan bo'lgan bolalar deb, cho'ktirishga buyuradi. Qul bolalarni savat-

ga solib, daryoga olib borib, daryoning oqimi bo‘yicha oqizib yuboradi. Tibr daryosi to‘lqinlari savatni qirg‘oqqa chiqarib tashlaydi. Chaqaloqlarni ona bo‘ri o‘z suti bilan boqadi. Keyin esa podshohning cho‘poni topib olib ularni katta qiladi. Egizaklar katta bo‘lgach o‘zlarini podshoh avlodidan ekanliklarini biladilar. O‘limga mahkum qilgan Amuliydan o‘ch oladilar va o‘z bobolarini taxtga qaytaradilar. O‘zlari esa yangi shaharni barpo qilshga kirishadilar.

Lekin aka-ukalar o‘rtasida janjal chiqib, Romul ukasi Remni o‘ldiradi. Yangi shahar o‘z quruvchisi nomi bilan Rim (Roma) deb ataladi. Shaharni paydo bo‘lish sanasi to‘g‘risida qadimda yagona bir fikr mavjud bo‘lmagan. Bir necha sana taklif qilingan. Qadimgi Rim yozuvchisi Varronning Rimga mil. avv. 753 – 754-yillarda asos solingan deb e’tirof etgan sana qabul qilingan. Qadimgi Rim shahri Italiyaning markazida Tibr daryosining chap qirg‘og‘ida, daryoning boshlanishidan 25 km uzoqlikda joylashgan.

Italiyaning kichik bir qabilasi bo‘lgan lotinlar Latsiya viloyatida yashar edi. Qadimgi Rim shahri o‘rnidagi ilk manzilgohlar qoldiqlari mil. avv. X asrga tegishli. Yashash uchun eng qulay, tabiiy tik qiyalik bilan himoyalangan Palatin tepaligida ilk manzilgohlar paydo bo‘ldi. X asrda Al’ba shahridan kelgan lotinlar Palatinga joylashdilar. Qadimgi Rim forumida o‘tkazilgan arxeologik qazishmalar bundan dalolat beradi. Forum o‘rni qazib ochilganda, Palatinga ko‘chib kelganlarning qabrlari topilgan. Bu qabrlar alban qabrlariga o‘xshash bo‘lgani asosida Palatinga Al’badan ko‘chib kelgan lotinlar o‘rnashganlar deb xulosaga kelindi.

Ko‘chib kelganlar o‘z mayitlarini yoqib, kulini maxsus ko‘zalarda saqlaganlar. Mil. avv. IX asrdan Eskvilin, Kvirinal va Vimmal tepaliklarini sabinlar o‘zlashtiradilar. Ular o‘z mayitlarini tuproqqa dafn

qilganlar. Ko‘chib kelganlar qo‘shnilar va yovvoyi hayvonlardan himoyalanish uchun cheti devorlar bilan o‘ralgan to‘rtburchak shakldagi qishloqlarda yashaganlar. Ko‘rinishidan mil. avv. VIII asrdan Palatin, Eskvilin va boshqa tepaliklardagi qishloqlar birlashadi va bu ittifoq Septimontium (Yetti tepalik) ittifoqi deb nom oladi.

Kapitoliyda qal’a barpo qilinib, bu yerda yosh shaharning muqaddas ziyoratgohlari to‘planadi. Shahar asta-sekin boshqa tepaliklarni ham o‘z tarkibiga oladi. Faqat Aventin tepaligi mil. avv. IV asrda qo‘shib olinadi. Tepaliklar o‘rtasidagi botqoqlik o‘rnida qabila yig‘ilishlari o‘tadigan maydon – forum bunyod etiladi. Shahar devor bilan o‘rab olinadi va uning chegarasi pomerium deb nomlanadi. Shu tarzda lotin va sabin qabilalarinig birlashuvidan Rim shahri vujudga keladi.

Har yili lotin jamoalari vakillari hamma uchun umumiy bo‘lgan lotin bayramlarini nishonlash uchun Alban tog‘i tepaligida to‘planar edilar. Barcha lotinlar uchun umumiy xudo ma’buda Diana edi. Palatinda yashagan odamlar mayitlarni dafn qilmasdan gulxanda yoqar edilar. Bu odat Alba-Longadagi dafn marosimiga o‘xshar edi. Bu Rimning ilk aholisining kelib chiqishi Alba shahridan ekanligini tasdiqlaydi. Bir necha o‘n yildan so‘ng, ular qo‘shni tepaliklar Seliy va Eskvilinni egalladilar. Mil. avv. VII – VI asrlarda 285 gektar yerni egallagan Palatin, Seliy, Eskvilin tepaliklaridan tashqari boshqa Kvirinal va Viminal tepaliklari ham qo‘shib olindi. Bu tepaliklar va Palatin o‘rtasidagi bo‘shliq shahar markaziga aylandi. Shu yerda uzoq yuz yilliklar davomida Rim davlat hayoti to‘plangan bosh maydon – Forum Romanum paydo bo‘ldi.

«To‘rt kvartalli» shaharning paydo bo‘lishida etrusklarning roli katta edi. Ular shaharga Roma (Rim)

nomini bergan bo‘lishlari mumkin. So‘nggi Rim tarixchilarining aytishicha, Rimning eng birinchi podshohlaridan biri Serviy Tulliyning kelib chiqishi etrusklardan bo‘lib, uning davrida shahar yanada kengaydi. Kapitoliy va Aventin tepaliklari qo‘shib olinib, mustahkam devorlar bilan o‘rab olingan. Endilikda Rim kuchli shaharga aylandi va tezda Latsiy viloyatida Al’ba-Longadan yetakchilikni tortib oldi. Rim shahri paydo bo‘lishi bilan qo‘shni etrusklar shaharga o‘z madaniy-siyosiy ta’sirlarini o‘tkazdilar. Etrusklarning Tarkviniy urug‘idan bo‘lgan podshohlari Rim shahrini boshqardilar**.**

2. Rim urug‘i va oilasi. Dastlab Rim aholisi 3 urug‘-qabila (Titsiy, Ramn va Lutsern) tribi, 30 kuriya va 300 urug‘, 3000 familiya (oila)ga bo‘lingan. Triblar etnik farqlanmagan qabilalar birlashmasi bo‘lishi mumkin. Kuriya – erkak jangchilarni diniy, harbiy va shakllanayotgan siyosiy tashkilotning asosi bo‘lgan ibtidoiy birlashmasi, gent – podshohlik davrida yemirilayotgan urug‘ jamoasi, familiya – katta patriarxal oila edi.

Urug‘. Ilk Rim jamiyatining asosi urug‘ (gent) edi. Urug‘ a’zolari umumiy mulkka ega bo‘lib, diniy marosimlarni birgalikda bajarar edilar. Bu qadimgi urug‘ jamoa tuzilmasining izlari Rim ismlarida ko‘rinadi. Rim ismlari uch qismdan iborat bo‘lgan: birinchi qism: shaxsiy ism, ikkinchi qism: urug‘ning nomi va uchinchi qism: urug‘ shoxchasi yoki shu odamga tegishli laqab. Misol uchun Gay (shaxsiy nom) Yuliy (urug‘ nomi), Sezar (urug‘ shoxchasiga tegishli laqab). Afrikalik (davlat yiki Rim xalqi oldida ko‘rsatgan xizmati uchun beriladigan faxriy individual laqab), Katta (boshqa Kichikdan farq qilishi uchun ishlatilgan). Bu keyinchalik merosiy bo‘lib o‘tgan. Alohida oilalar o‘z urug‘iga begonalarni qabul qilishi mumkin edi va qabul qilinganlar keyin urug‘ a’zosiga aylanganlar.

Oila. Vaqt o‘tishi bilan Rim jamoasida urug‘chilik aloqalari zaiflashib, oilaviy aloqalar kuchaydi. Rim oilasi (familia) iqtisodiy jihatdan yetakchi o‘ringa chiqib, asosiy xo‘jalik tashkilotiga aylandi. Patriarxal oila tepasida barcha oila a’zolarining hayoti va o‘limi ustidan cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘lgan oilaning otasi («pater familius») turar edi. Ota hokimiyati ostida bo‘lgan oilaning barcha a’zolari agnatlar deb atalgan. Agnatlarga faqat oilaning otasi bilan qondosh aloqada bo‘lganlargina emas, balki asrandi o‘g‘il qilib olinganlar, otaning o‘g‘il va nevaralariga turmushga chiqqan ayollar ham kirgan. Rim oila huquqida agnat tushunchasi bilan bir qatorda, kognat tushunchasi ham mavjud bo‘lgan. «Kognat» deb oila boshlig‘i bilan qondosh aloqada bo‘lgan kishilar aytilgan. Shu tarzda turmushga chiqqan qiz o‘z oilasi a’zolari bilan kognat aloqalarini saqlab qolgan boshqa oilaga agnat bo‘lib o‘tgan.

Rim oilasi ajdodlarning an’ana va urf-odatlarini saqlovchisi edi. Oila juda mustahkam edi. Farzand ko‘rmaslik ham oilani buza olmagan. Farzandsiz oila qarindoshlarining bolalarini asrandi o‘g‘il-qiz qilib olganlar. Rimda er-xotinning ajralishi oson bo‘lsa-da, er-xotinlar ajralmaganlar. Er oila boshlig‘i, xo‘jayini edi. Oila a’zolari biror-bir ayb qilib qo‘ysa, ota oila sudini amalga oshirar, hatto o‘g‘lini qatl qilishi yoki sotib yuborishi mumkin edi. Ayollar oilada izzat-hurmatda bo‘lib, ular erlarining yordamchilari edi. Erga chiqqan zodagon rimlik ayol matrona deb atalgan. Matronalar erlari bilan mehmonga borar, uydagi ziyofatlarga ishtirok etar edilar. Farzandlari ham ularni hurmat qilganlar. Oilada bir xizmatkor bo‘lsa, ona uy yumushlari bilan shug‘ullanmagan. Matronalar ovqat pishirmaganlar, uyni tozalamaganlar, ularning faqat faxrli ishi jundan ip yigirish bo‘lgan. Qadimgi Rimda, odatda, erkaklar o‘z xotinlari va

qizlari jundan to‘qigan tog‘a (keng yoping‘ich shakldagi ustki kiyim) kiyib yurganlar. Zodagon matronalarga yuqori darajada hurmat ko‘rsatilgan. Erkaklar ularga yo‘l berganlar. Matronalarning dafn marosimlari ham hashamatli bo‘lgan. Matronalar oltin va kumush taqinchoq ta’qib yurish huquqiga ega bo‘lganlar (erkaklar, senatorlar va suvoriylar faqat oltin uzuk ta’qib yurish huquqiga ega bo‘lganlar). Ayollar orasida bir marta turmushga chiqqan ayollar alohida hurmatga sazovor bo‘lganlar. Bir marta turmushga chiqqan bunday zodagon matronalar o‘z «Iffat» ibodatxonalariga ega bo‘lganlar. Bu ibodatxonaga turmushga chiqqan bevalar, turmushidan ajrashgan ayollar qo‘yilmagan. Ular erlari ustidan hukm surishni yaxshi ko‘rib, oila or-nomusini saqlashni o‘z burchlari deb bilganlar. Matronalar erlariga buyruq berish, maslahat berishni xush ko‘rganlar. (Mil. avv. I asrda Yuliy Sezarga qarshi fitnada erlari bilan birga ayollar qatnashganlari tarixdan ma’lum).

Farzandlar. Farzandlarga yetarli darajada ta’lim-tarbiya berilgan, ayniqsa mehnat tarbiyasi berilib, ular qishloqda qullar va mardikorlar orasida mehnat qilganlar. Ular xo‘jalik yuritish sirlarini o‘zlashtirganlar. Farzandlar ota-onaning so‘zini ikki qilmaganlar, bir umr oila g‘ururini saqlashga harakat qilganlar. Ular o‘ta sadoqatli bo‘lib, favqulodda vaziyatlarda ota-ona himoyasiga birinchi bo‘lib qalqon bo‘lib turganlar. Otasini o‘ldirgan farzandga shafqatsiz jazo berilgan. Otasini o‘ldirgan farzand sud hukmi bilan kuchuk, ilon, xo‘roz va maymun bilan birga qopga tiqilgan va daryoga uloqtirilgan.

Ilk respublika davrida oqsuyak patritsiylar va boshqa boy odamlar kamtarona va oddiy hayot kechirganlar. Konsul va senatorlar poxol tomli uylarda yashab, uyda to‘qilgan kiyimlar kiyib, loy va yog‘och idish-tovoqlardan foydalanganlar. Chunki bu davrda

xo‘jalik ibtidoiy bo‘lib, yerdan kam hosil olinar, savdo-hunarmandchilik rivojlanmagan edi. Rim hukmron tabaqalarining bunday kamtarona yashashining yana bir sababi – bu o‘sha davrda Rim hali bosqinchilik urushlarini boshlamagan edi.

3.Rim xalqi. Urug‘ a’zolari Rim xalqi (Romanus populus)ni tashkil qildi. Boshda ko‘chib kelganlar hisobidan to‘ldiriladigan Rim fuqarolik jamoasi kuriyalar (Rimda o‘n urug‘ bir kuriyaga birlashtirilgan) bo‘yicha taqsimlangan edi. Ank Martsiy davrida jamoa yer (ager publicus) zaxiralari tugadi. Chetdan ko‘chib keladiganlar endilikda jamoaga qabul qilinmadi va Rimda yopiq jamoa hosil bo‘ldi. Natijada qadimgi Rimda patritsiylar va plebeylar toifalari shakllandi. Rim jamoasining urug‘larga birlashgan to‘laqonli a’zolari asta-sekin jamiyatning imtiyozli qismiga aylandi. Boshda ular Rim xalqini tashkil etdi. Imtiyozli patritsiylar (patricius «zodagon otaning o‘g‘li») jamoa yer jamg‘armasidan foydalanish, kuriya komissiyalarida (comitca – lotin tilida yig‘ilish) ishtirok etish huquqiga ega edilar. Plebeylarning kelib chiqishi to‘g‘risida bir necha qarashlar mavjud. Tarixchi E. Meyernining fikriga ko‘ra, iqtisodiy tabaqalanish asosida plebey va patritsiylar shakllangan. Olim Obersinger fikriga ko‘ra, plebeylar bosqinchi italiklar tomonidan qaram qilingan mahalliy aholi bo‘lgan. Binday plebeylar lotinlar bo‘lib, patritsiylar boshqa qabiladan bo‘lgan istilochilardir, degan.

Ko‘p sonli plebeylar (plebs – lotin tilidagi pleo – to‘ldiraman omma, ko‘pchilikni bildiradi) esa, o‘z urug‘larini saqlab qolib, Rim urug‘chilik tashkilotidan tashqarida bo‘lib, hech qanday huquqlarga ega emas edi. Shu sababli, patritsiy va plebeylar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar bir necha yuz yil davom etdi. Ijtimoiy tabaqalanish jarayonida bir qism plebeylar tadbirkorlik, savdo-hunarmandchilik va dehqonchilik bilan

shug‘ullanib, boyib ketdilar. Kambag‘allashib qolgan plebeylar, xonavayron bo‘lgan fuqarolar hamda ozod qo‘yilgan qullar qudratli patritsiylar homiyligi (patron)ga o‘tib, ularga kliyent (clients – «qaram kishilar») bo‘ldilar. Kliyent o‘z patroni – urug‘ining a’zosi bo‘lib, unga bo‘ysunar edi. So‘nggi Rim podshohlari o‘z shaxsiy hokimiyatini mustahkamlashga qaratilgan siyosat olib bordilar. Podshohlar patritsiylarga qarshi kurashda plebeylardan siyosiy qurol sifatida foydalandilar. Podshoh Serviy Tulliygacha Rim xalqi faqat patritsiylardan iborat edi. Plebeylar va kliyentlar Rim xalqi tarkibiga kirmas edi. Serviy Tulliy islohotlari o‘tkazilishi bilan Rim xalqi – populus iborasi patritsiy va plebeylarni bildiradigan bo‘ldi. Lekin ulardan faqat patritsiylar to‘laqonli fuqaro huquqlariga ega edilar.

Qullar. Podshohlik davrida qullar hali ham kam sonli bo‘lib, oilani kichik a’zosi hisoblanganlar. Qullar, asosan, urushlarda olingan asirlardan kelib chiqqan. Rim urug‘ining alohida vakillari kishilarni o‘z himoyalariga olganlar, bunday kishilar patron deb atalgan. Patronning himoyasidagi kishi kliyent deb atalgan. Kliyentlar himoya evaziga patronga sodiq bo‘lib, unga bo‘ysunishlari kerak bo‘lgan. Patron va kliyent munosabatlari o‘n ikki jadval qonunlarida aks etgan.

Rim jamiyati shakllanishi jarayonida qullarning soni ko‘payib bordi va bu qatlam asosiy ishlab-chiqaruvchi kuchga aylandi. Qullar orasida tabaqalanish jarayoni borib, xo‘jayinlar o‘z qullarini ma’lum haq evaziga ozod qilganlar. Bunday qullar ozod qo‘yilgan qul deb atalgan.

4.Boshqaruv. Kuriya. **Trib.** Podshohlik davrida Rimning to‘la huquqli fuqarolari »Populus Romanus» (Rim xalqi) shahardagi uch etnik unsur: lotin, sabin va etrusklarni aks ettirgan uch trib (qabila)ga

bo‘lingan. Kuriya – erkak jangchilarni diniy, harbiy va shakllanayotgan siyosiy tashkilotning asosi bo‘lgan ibtidoiy birlashmasi. 30 kuriya bo‘lgan. Rimda o‘n urug‘ kuriyani, o‘n kuriya bir trib (qabila)ni tashkil etgan. Rim tarixchilarining ma’lumotiga ko‘ra, Rimning erkin aholisi dastlab 300 urug‘dan iborat bo‘lgan.

Podshohning chaqirig‘iga ko‘ra, ular kuriya yig‘inlari (komissiya)ga to‘planar edilar. Saylov kuriyalar bo‘yicha o‘tkazilgan. Kuriyada qonunchilik takliflarini podshoh va senat kiritgan. Kuriya yig‘inlarida urushlar, tinchlik, diniy e’tiqodga oid qarorlar qabul qilingan. Podshohlar boshqa qabilalar bilan tuzadigan hujjatlar ham kuriyada ko‘rilgan. Podshoh Tull Gostiliy Rim xalqini hayoti to‘g‘risidagi oxirgi qarorni qabul qilish huquqini kuriyaga berdi.

Komissiyalar. Rim shahri aholisi muhim masalalarni hal qilish uchun kuriyalarda yig‘ilgan. Komissiya (comitium) yig‘in yoki yig‘ilgan xalq. Komissiyada ovoz berish qarindoshlik asosida o‘tkazilsa u kuriya komissiyalari deb atalgan. Rimliklarda eng qadimgi yig‘in shakli kuriya komissiyalari bo‘lgan, bunday yig‘inlarda fuqarolar kuriyalar bo‘yicha ovoz berganlar. Agar ovoz berish senz va yosh bo‘yicha o‘tkazilsa, senturiy komissiyalari deb, agar yashash joyi bo‘yicha o‘tkazilsa, tribut komissiyalari deb atalgan. Bu yig‘ilishlar kuriya komissiyalari deb atalgan. Manbalar ma’lumotiga ko‘ra, bir yilda komissiya 194 marta to‘plangan. Yig‘in kuni va muhokama qilinadigan masalalar oldindan jarchilar tomonidan e’lon qilingan. Qadimda rimliklar ham boshqa xalqlar kabi yuz beradigan voqea-hodisalar xudolarning marhamati tufayli qandaydir belgilar orqali odamlarga bildiriladi deb o‘ylaganlar. Shu sababli Rim odatiga ko‘ra, komissiyalar o‘tkaziladigan kundan oldingi kechada qushlarni uchishiga ko‘ra fol ochilib, iloh Yupiterdan

komissiyani o‘tkazish uchun ruxsat so‘ralgan. Kuriya komissiyalari podshoh tomonidan chaqirilgan. Kuriyalarda barcha erkak fuqarolar to‘plangan.

Kuriya komissiyalarida diniy e’tiqod, oila munosabatlariga va jamoaga tegishli barcha ishlar muhokama etilgan va tegishli qarorlar qabul qilingan. Komissiyalarga xalq kuriyalar bo‘yicha to‘plangan, har bir kuriya bir ovozga ega bo‘lgan. Podshohlik davrida kuriya komissiyalarida podshoh saylangan. Kuriyalarda urush e’lon qilish to‘g‘risida qaror qabul qilingan. Komissiyalarda og‘ir jinoyat qilgan fuqarolar sud qilingan. Vasiyatlar bayoni, farzand asrab olish ishlari va jamoa tarkibiga yangi urug‘larni qabul qilish ishlari ham kuriya komissiyalarida ko‘rilgan.

Podshoh hokimiyati. Rim jamoasi tepasida kuriya komissiyalarida (xalq yig‘ini) saylanadigan podshoh turar edi. Podshoh oldida uning hokimiyati ramzi bo‘lgan, bolta ko‘targan 12 liktor borgan. Podshoh oliy harbiy boshliq, kohin va sudya bo‘lib, zaruriyat bo‘lganda bir qancha yordamchilar – kvestorlarga tayangan. Kvestorlar odam o‘ldirish ishlari bo‘yicha sudni amalga oshirganlar. Podshoh mutlaq hukmdor bo‘lmasa-da, etrusklar davrida uning hokimiyati juda kuchli bo‘lib, Rim oilasi («pater familius») hokimiyatini eslatar edi. U umrbod saylab qo‘yilgan. Podshoh qonunlarni qo‘llash huquqiga ega bo‘lib, lekin uni o‘zgartira olmas edi.

Romul davridan Rim podshohi (rex) shaharning sudyasi, bosh kohini va lashkarboshisi bo‘lgan. Rim etrusk davlat hokimiyati ramz va belgilarini o‘zlashtirib oldi. Rim podshohi oltin toj, tilla iplar bilan tikilgan qizil rangli hashamatli kiyim, baland poshnali qizil etik kiyib, qo‘lida burgut tasvirli podshohlik asosini ushlagan. Podshohga qo‘llarida qamchi va bolta ushlagan tansoqchilar hamrohlik qilar edilar. Ular podshohning buyrug‘i bilan aybdor fuqaroni o‘lim

jazosiga tortish yoki tan jazosi berishga doimo tayyor turganlar. Podshoh fil suyagidan yasalgan taxtda o‘tirib, sud ishini amalga oshirgan. Podshoh hokimiyati imperiya (oliy) deb atalar edi. Podshoh o‘z vorisini tayinlash huquqidan mahrum edi. Yangi podshohni xalq saylagan. Podshohlik oxirida podshoh tayinlaydigan lavozimlar paydo bo‘ldi. Podshoh Rimda o‘zi bo‘lmagan vaqtda shaharni boshqaradigan prefektni tayinlagan.

Senat. Antik yozuvchilarning ma’lumotiga ko‘ra Romul maslahat organi sifatida senat (senex – «keksa», «qariya» ma’nosini bildiradi)ni ta’sis etgan. Rim boshqaruvida podshoh bilan bir qatorda ana shu senat turgan. Senatga urug‘larning keksa vakillari – katta patriarxal oila vakillari saylangan. Podshohning o‘limidan so‘ng, vaqtinchalik oraliqda podshoh qo‘yilgan. Shundan so‘ng senat yangi podshohni saylagan, xalq esa kuriya komissiyalarida ovoz berish bilan podshoh hokimiyatini tasdiqlagan. Birinchi podshohlar davrida senator faqat patritsiylar orasidan saylangan. Podshoh Serviy Tulliy senatorlar safiga taniqli plebeylarni ham qo‘shgan. Yangi senatorlar eskilaridan «biriktirilgan» (konscripti) so‘zi bilan farq qilganlar.

Senat dastlab 100, keyinchalik 300 a’zodan iborat bo‘lgan. Senat Rim an’analarini saqlovchi, va podshohning muhim ishlar bo‘yicha maslahatchisi bo‘lgan. Senat a’zolari otalar (patres) deb atalgan. Podshoh vafot etgan taqdirda, senat yangi podshoh saylaguncha o‘z ichidan har besh kunda bir kishini vaqtinchalik podshoh («interreks»)ni tayinlagan. Bu odat keyingi vaqtlarda ham saqlanib qoladi. Rimda oliy mansabdor shaxs – konsul vafot etganda ham bu odat qo‘llanilgan.

6. Serviy Tulliy islohotlari. Podshoh Serviy Tulliyning islohotlari Rim jamiyatini urug‘ jamoa-

sidan davlatga o‘tishida muhim o‘rin tutdi. U harbiy islohot va unga bog‘liq senz (mulk) islohotlarini o‘tkazdi. Bu o‘zgarishlar natijasida kuriyalar bo‘yicha yig‘inlarni ikkinchi darajali qilib qo‘ygan senturiy komissiyalari yetakchi o‘ringa chiqib oldi. Podshohlik davri so‘nggida, mulkchilikning qadimgi shakli bilan Rim polisi yoki civitas – fuqarolik jamoasini shakllanishi tugadi. Serviy Tulliy o‘tkazgan siyosiy islohotlar bu qarama-qarshiliklarni ma’lum darajada yumshatdi. Serviy Tulliy islohoti urug‘chilik tuzumi asoslarini yemirdi.

Podshoh Serviy Tulliy (mil. avv. 578 – 534-yillar) Rimning barcha erkak aholisini (patritsiy va plebeylarni) olti mulkiy toifaga bo‘ldi: 100 000 mis assga teng mulkka ega bo‘lgan I toifa; 75 000 assga teng mulkka ega bo‘lgan II toifa; 50 000 assga teng mulkka ega bo‘lgan III toifa; 25 000 assga teng mulkka ega bo‘lgan IV toifa; 11 500 ass qiymatli mulkka ega bo‘lgan V toifa, VI toifa butun boyligi faqat bolalari bo‘lgan barcha kambag‘allar proletariy (lotincha proles – «avlod»)larni tashkil etdi.

Har bir toifa Rim qo‘shini tarkibiga belgilangan miqdorda senturiy (yuzlik qo‘shin) berishi shart edi: I toifa – og‘ir qurollangan piyodalar 80 senturiy, suvoriylar 18 senturiy, jami 98 senturiy; II toifa – 22 senturiy; III toifa – 20 senturiy; IV toifa – 22 senturiy; V toifa – 30 senturiy yengil qurollangan piyodalarni; VI toifa – 1 senturiy, jami olti toifa 193 senturiy (yuzlik) berishi shart edi.

Xaql yig‘inida har bir senturiy bir ovozga ega edi. Ko‘pchilik senturiy ovozi bilan qaror qabul qilingan. Senz fuqarolarning huquq va burchlari uyg‘unligini ta‘minlashi lozim edi. Rimlik fuqaro qanchalik darajada boy va zodagon bo‘lsa, shuncha darajada umum foydasiga mablag‘ sarflashga majbur edi. Serviy Tulliy xalq yig‘inini yangi ko‘rinishi senturiy komissiya-

larini joriy qildi. Ularda patritsiylar bilan plebeylar ham qatnashdilar. Senturiylarda odamlarning soni bir necha o‘ndan (1 toifa) bir necha yuzgacha (proletar senturiylari) tebransa-da, har bir senturiy ovoz berishda faqat bir ovozga ega edi. I mulk senzi toifasi 193 ovozdan 98 ovozga egalik qilar edi. Shundan xulosa qilgan holda, senturiy komissiyalarida hal qiluvchi ovozga mulkdor fuqarolar egalik qildilar.

Mulkiy senzdan tashqari, yosh senzi ham belgilandi: yoshlarning senturiylari (17 yoshdan 46 yoshgacha) harbiy dala xizmatini o‘tadilar, keksalarning senturiylari (46 yoshdan katta) garnizonlarda xizmat qilar edilar. Rim qo‘shini podshoh qo‘mondonligi ostidagi 4 legiondan tashkil topgan edi. Serviy Tulliy yana ma’muriy-hududiy islohot o‘tkazdi. Rim davlati hududi 21 okrugga (mil. avv. 241-yildan ularning soni 35 taga yetdi) bo‘lindi. Bu okruglar trib deb (ulardan 4 tasi shahar, qolgan 17 tasi qishloq tribi) ataldi.

Senturiy komissiyalari ixtiyoriga kuriya komissiyalarining muhim vakolatlari – qonunlarni qabul qilish, mansabdor shaxslarni saylash, urush e’lon qilish va tinchlik bitimi tuzish kabilari o‘tdi. Serviy Tulliy islohoti demokratik ruhda bo‘lib, u zodagon bo‘lmagan, qobiliyatli oddiy fuqaroga o‘zining mehnati va samarali faoliyati bilan yanada yuqoriroq mulk senziga o‘tish imkoniyatini berar edi. Bu islohot oqsuyak urug‘ zodagonlarining ta’sirini zaiflashtirdi. Serviy Tulliy ibtidoiy jamoa munosabatlarini zaiflashtirdi. Rim shahrini lotin shaharlari ittifoqidagi mavqeyini mustahkamladi. Patritsiy va Plebeylarni bir-biriga yaqinlashtirdi. Islohot davlat hokimiyatini ilk asoslarini mustahkamladi. Serviy Tulluyning islohotlarini yerga muhtoj bo‘lgan oddiy aholi qo‘llab-quvvatladi.

Lekin podshohning bu islohoti senator «otalar»ning qahr-g‘azabiga sabab bo‘ldi. Ular fitna uyush-

tirib, islohotchi podshohni o‘ldirdilar. Uning kuyovi va davomchisi Tarkviniy Mag‘rur islohotchi podshoh Serviy Tulliyning siyosatini davom ettirdi. U hunarmandchilik, savdo va qurilishni rivojlantirishga harakat qildi. Senatni past mavqedagi urug‘ vakillari bilan to‘ldirdi. Amaldagi hokimiyat eski patritsiy urug‘lari qo‘lida saqlanib qoldi. Chunki ular yerning eng ko‘p miqdoriga ega bo‘lib, birinchi tabaqani tashkil etib, senturiy komissiyalarida 95 qarshi ko‘pchilikni 98 ni tashkil qildi.

5.Rim podshohlari. Romul. Rimning ilk aholisini sabin-umbr qabilalari tashkil etgan edi. Rivoyatga ko‘ra Rimning yetti podshohidan birinchisi Romul (mil. avv. 753 – 715-yillar) bo‘lgan. Romul shahar chegaralarini belgilab, shaharni devor bilan o‘rab olishni boshlaydi. Rivoyatga ko‘ra, Romul ilk tartib-qoidalar, qonunni belgilaydi va senatni joriy qiladi. Senatga yuzta oqsoqol saylanadi. Romul Rim aholisini 30 kuriyaga bo‘ladi. 300 kishilik podshoh gvardiyasini tuzib, Veya shahrini bosib oladi. Romulning o‘z mutlaq hokimiyatini o‘rnatishga intilishi urug‘ oqsoqollariga yoqmaydi va u o‘ldiriladi.

Numa Pompiliy. Ikkinchi podshoh Numa Pompiliy (mil. avv. 715 – 673-yillar) sabinlarning Kura shaharchasidan bo‘lib, uning podshohligi davrida Rimda 12 oylik taqvim joriy qilindi. Bayram va ishchi kunlari belgilandi. Hunarmandlar kollegiyasi tuzildi. Numa Pompiliy yangi ilohlarga sig‘inishni joriy qildi va kohinlar kollegiyasini tashkil qildi. Bosh kohin-pontifikka diniy qurbonliklar keltirish va bayramlarni o‘tkazishni topshirdi. Numa podshohligi davrida rimliklar urushlari to‘xtatildi. Ular qo‘shni qabilalar bilan tinchlik munosabatlarini yo‘lga qo‘ydilar. Numa Pompiliy 43 yil podshohlik qildi.

Tull Gostiliy. Uchinchi podshoh Tull Gostiliy (mil. avv. 673 – 641-yillar) Latsiya viloyatining bosh shah-

ri qo‘shni Alba Longa shahri bilan urush olib bordi. Urushda Alba Longa qo‘shini yengildi, shahar aholisi Rim shahriga ko‘chirilib, Alba Longa shahri buzib tashlandi. Shundan so‘ng, Tul Gostiliy sabinlarga qarshi urush e’lon qildi. Urush rimliklarning g‘alabasi bilan tugadi. Seliy tepaligi Rim shahriga qo‘shib olindi. Podshoh alban oqsoqollarini rimlik oqsoqollar tarkibiga kiritdi. Alban yoshlarini Rim qo‘shini safiga qo‘shdi va toifalar yig‘ini o‘tadigan bino – kuriyani qurdi. Tul Gostiliy 32 yil podshohlik qildi.

Ank Marsiy. Keyingi podshoh Ank Marsiy (mil. avv. 641 – 616-yillar) podshoh Numa Pompiliyning nevarasi, uning qizini o‘g‘li edi. Lotinlarning bosh shahri Al’ba Longa bosib olingangach, Rim lotin shaharlariga boshchilik qilishga urindi. Lekin lotin shaharlari Rimga tobe bo‘lishni istamadilar. Shu sababli Ank Marsiy qo‘shni lotin shaharlariga Politoriy, Tellen va Fikanga qarshi urush harakatlarini olib bordi. Bu shaharlar mag‘lub bo‘ldilar, ularning yerlari bosib olindi, aholisi Rimga ko‘chirildi. Ank Marsiy Tibr daryosining boshlanishida Ostiya shahriga asos soldi. Bu shahar kelajakda Rim davlatining eng katta portiga aylandi. Ank 24 yil hukmronlik qildi.

So‘nggi uch podshoh etrusklardan bo‘lgan. Lutsiy Tarkviniy Qadimgi. (mil. avv. 616 – 578-yillar). Lutsiy Tarkviniy etrusklarning Tarkviniy shahriga kelib qolgan bir muhojirning o‘g‘li bo‘lgan. Uning otasi bu shaharda yashab qolib ancha boylik orttirgan. Lutsiy mahalliy oqsuyak zodagon ayolga uylanadi. Bu ayol o‘ta shuhratparast bo‘lib, erini yuqori martabalarda ko‘rishni orzu qiladi. Lekin etrusklar uchun uning eri kelgindi muhojirning o‘g‘li bo‘lib, uni mensimaganlar. Tarkviniy shahrida o‘zining shirin orzulari hech qachon amalga oshmasligini his qilgan bu ayol eriga oliy martaba va shon-shuhratni boshqa joydan izlashga undaydi va Rim shunday shahar ekanligi-

ni eriga uqtiradi. Rafiqasining maslahati bilan Lutsiy Rimga koʻchib keladi. U boyligini foydali tanish-bilish orttirishga sarflaydi. Lutsiy obroʻ-eʼtiborli rimliklar bilan aloqa oʻrnatishga harakat qilib, kerakli odamlarga moʻl-koʻl sovgʻa va hadyalar qildi. Eshigini hamma uchun ochib qoʻyib, mehmondoʻstlik qildi. Lutsiyning saxovatpeshaligi podshoh saroyiga ham tez yetib bordi. Podshoh bilan tanishib, uning barcha topshiriqlarini aʼlo darajada bajarib uning ishonchiga kirdi. Nihoyat Lutsiy podshoh oʻgʻillariga homiy etib tayinlandi. U podshohlik hokimiyatga ega boʻlish ilinjida boʻladi. Rimda xalq yigʻinida podshoh saylab qoʻyilar edi. Podshohning vafotidan soʻng, Lutsiy navbatdagi podshohni saylash uchun xalq yigʻinini chaqirishni tezlatishga undaydi. Yigʻilish sanasi aniq boʻlgach, u marhum podshohning balogʻatga yetgan oʻgʻillarini ovga joʻnatib yuboradi. Lutsiy Tarkviniy yigʻilishda oʻzini podshoh qilib saylashlari uchun xalq oldida alangali nutq soʻzlab koʻpchilikni oʻziga moyil qildi. Natijada xalq bir ovozdan Lutsiy Tarkviniyni podshoh sayladi.

Tarkviniy Qadimgi (mil. avv. 616 – 578-yillar) dastlab lotinlar bilan urush olib bordi. Aniola shahrini qamal bilan ishgʻol qilib katta oʻlja bilan Rimga qaytdi. U Rimda oldingi podshohlar davrida koʻrilmagan katta miqyosdagi oʻyinlarni tashkil etdi. Shu vaqtda birinchi sirk uchun joy ajratildi. Shundan boshlab, har yili Rim oʻyinlari deb ataladigan oʻyinlar oʻtkaziladigan boʻldi. Ikkinchi urush sabinlar bilan yuz berdi, rimliklar bu urushda gʻolib boʻldilar. Shundan soʻng lotin shaharlari bilan urush olib borildi. Tarkviniy bir necha lotin shaharlarini bosib oldi va ular bilan tinchlik shartnomasini tuzdi. Etrusk hunarmandlari Rimga koʻchib keldilar. Tarkviniy etrusk meʼmorchilik anʼanalarini Rimga olib kirdi va keng miqyosda qurilish ishlarini olib bordi. Tepaliklar oʻr-

tasidagi botqoqliklar quritildi. Rim shahrining bosh maydoni Forum paydo bo‘ldi. Rim katta qishloqdan haqiqiy shaharga aylandi. Rim shahrini devori bo‘lmagan joylarida tosh devorlar qurildi, kanalizatsiya o‘tkazildi. Tarkviniy 38 yil podshohlik qildi. Marhum podshoh Ank Marsiyning o‘g‘illari o‘zlarini kamsitilgan deb hisoblab, Tarkviniyni o‘ldirdilar.

Serviy Tulliy. Tarkviniyning kuyovi bo‘lgan, Cho‘rining o‘g‘li Serviy Tulliy (mil. avv. 578 – 534-yillar) taxtni egalladi. Tarkviniy va uning rafiqasi o‘smirligidan Serviyni asrandi o‘g‘il sifatida tarbiyalab, unga o‘z qizlarini turmushga bergan edilar. Barcha podshohlardek, xalq yig‘ini Serviy Tulliyni podshohlik lavozimiga saylamadi. Shu sababli, Serviy Tulliy Rim oqsoqollarining roziligi bilan taxtni egalladi. U o‘z mavqeyini mustahkamlashga harakat qildi. Shu vaqtda kuchli etrusklar bilan Rim o‘rtasida urush harakatlari boshlandi. Serviy Tulliy etrusklarning kuchli qo‘shini ustidan zafar quchib, Rimga g‘alaba bilan qaytdi. Serviy Tulliy Rim shahrini ilk bor tosh devor bilan o‘rab oldi.

Lutsiy Tarkviniy Mag‘rur. So‘nggi Rim podshohi Lutsiy Tarkviniy Mag‘rur (mil. avv. 534 – 509-yillar) Serviy Tulliyning kuyovi bo‘lib, badjahl xotini Serviyaning qutqusi bilan qaynotasini o‘ldirib podshohlik hokimiyatini egalladi. U qonuniy podshohninig tarafdorlari bo‘lgan senatorlarni quvg‘in qildi, xalq tomonidan saylanmay senat tomonidan tasdiqlanmay tansoqchilar himoyasi ostida podshohlik qildi. Tarkviniyning Rimda mutlaq hokimiyatni o‘rnatgani to‘g‘risida shunday ma’lumot beradi: «U (Tarkviniy) podshohlardan birinchi bo‘lib, oldingi podshohlardan meros qolgan barcha ishlarda senat bilan maslahat qilish odatini yo‘q qildi, davlatga xuddi o‘zini uyidek munosabatda bo‘ldi, xalqsiz va senatsiz bir o‘zi kim bilan xohlasa urush qildi va murosaga keldi,

shartnomalar, ittifoqlar tuzdi va bekor qildi». (Тит Ливий. История от основания Рима. стр. 187. – М., Художественная литература, 1970).

Shu sababli Tarkviniy Mag‘rur laqabini oldi.

Taniqli patritsiylarni ta’siri kuchli va obro‘si baland bo‘lgani uchun ularni qatl etdi, oddiy xalqni og‘ir mehnat bilan holdan toydirdi. Uning o‘g‘li patritsiy oilasidan bo‘lgan bir qizni nomusiga tegdi. Sabr kosasi to‘lgan xalq qo‘zg‘olon ko‘tarib, Tarkviniy Mag‘rurni taxtdan ag‘darib, oilasi bilan Rimdan surgun qildilar. Tarkviniyga qarshi qo‘zg‘olonga uning jiyani Lutsiy Tatkviniy Brut boshchilik qildi. Rimning yettinchi va so‘nggi podshohi Lutsiy Tarkviniy Mag‘rur 25 yil hukmronlik qildi. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, bu voqea mil. avv. 510-yilda sodir bo‘ldi. Shundan so‘ng Rimda respublika (lotin tilida rec publica – umum xalq ishi ma’nosini bildiradi) tuzumi o‘rnatildi.

Serviy Tulliy islohotlari asosida Rim shahri prefekti senturiy komissiyalarida konsullar saylovini o‘tkazdi. Rim tarixida birinchi konsullar etib Lutsiy Yuniy Brut va Lutsiy Tarkviniy Kollatin saylandi. Lutsiy Yuniy Brut Tarkviniy Mag‘rurning singlisining o‘g‘li edi. Brut konsulligi yilida bir necha zodagon yoshlar Tarkviniyni podshohlikka tiklash uchun fitna uyushtiradilar. Lekin bir qul bu fitna to‘g‘risida xabar beradi va fitnachilar sudga tortiladi. Ikkinchi konsul va taniqli rimliklar nima qilishni bilmay shoshib qoladilar. Fitnachilar orasida Brutning ikki o‘g‘li va taniqli rimliklarning qarindoshlari ham bor edi. Shunda Brut liktorlarga ishga kirishishni buyurib, o‘g‘illarini savalanib, qatl etilishini bir tomchi ko‘z yoshi to‘kmay kuzatib turadi. Quvg‘in qilingan Tarkviniyni podshohlikka tiklash uchun etrusklar bir necha marta Rimga qo‘shin tortadilar, lekin rimliklar bu hujumlarni qaytaradilar. Janglarning biri-

da Lutsiy Yuniy Brut jangda halok bo‘ladi. Rimliklar birinchi konsulga Kapitoliy tepaligida haykal o‘rnatadilar. Rimda podshohlar shaharga asos solingan kundan boshlab, podshohlik hokimiyati tugatilgan (mil. avv 510-yil) kungacha ikki yuz qirq to‘rt yil hukmronlik qildilar.

Iqtisodiyot. Qadimgi Rim jamiyatini dehqonlar va cho‘ponlar tashkil etar edi. Rivoyatga ko‘ra, Romul fuqarolar o‘rtasida yerni taqsimlagan, har bir fuqaro 2 yuger (1 yuger gektarning 4\1 qismini tashkil etadi) miqdorida yer ulushiga ega bo‘lgan. Bu yer ulushi otadan o‘g‘ilga meros bo‘lib o‘tgan. Rimda yerning sezilarli qismini «ager publikuc» – jamoa foydalanadigan yer tashkil etgan. Ager publikuc vaqti vaqti bilan yerga muhtoj bo‘lgan jamoa a’zolariga taqsimlab berilgan. Plebeylar g‘alla ekish bilan shug‘ullanganlar. Patritsiylarning asosiy boyligi chorva (pecus – mol) tashkil etgan. Rimliklar etrusklardan yerga ishlov berishning samarali usullari va uzumchilikni o‘zlashtirib oldilar. Etrusklarning tajribasidan foydalanib, rimliklar forum atrofida katta yer osti kanalini qurdilar. Rimliklar etrusklardan uyning maxsus shakli bo‘lgan markaziy zalga ega, tomida tuynugi bo‘lgan atriyni o‘zlashtirib oldilar. Rimda etrusklar hukmronligi davrida mahalliy hunarmandchilik va savdo aloqalari rivojlandi. Rimning serqatnov suv yo‘li bilan Tibr daryosining o‘rta oqimida geografik jihatdan qulay joylashgani shaharda savdo-hunarmandchilikning rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Qadimda Italiya hududida asosan ho‘kiz, qo‘y va mis metall ayirboshlash mahsulotlari edi. Rimliklar bir necha asrlar davomida savdo aloqalarini pul o‘rnida hayvon (pekus)ni ayirboshlash yordamida amalga oshirdilar. Dastlab Rim savdo aloqalarini Janubiy Italiyadagi finikiyaliklar va yunonlar bilan olib bordi. Podshohlik davrining oxirida esa, Attika va Karfagen

bilan savdo aloqalarini o‘rnatdi. Eng birinchi savdo shartnomasi Karfagen bilan tuzildi. Savdo-hunarmandchilik bilan plebeylar shug‘ullandilar. Bu soha bo‘yicha Rimdagi Kapitoliy va Palatin o‘rtasida etrusk kvartali «Vikus tuskuss» muhim rol o‘ynadi.

Diniy e’tiqod. Dastlabki Rim dini animistik ko‘rinishda bo‘lib, unda totemizmning bir qancha qoldiqlari saqlanib qolgan edi. Bunga misol qilib, Rim shahrining asoschilari Romul va Remni emizgan ona bo‘ri afsonasini aytish mumkin. Podshohlik davrida Rim yovuzlik va ezgulik ruhlari bilan to‘la edi. Ularni sehrgarlik, qurbonlik va duo-afsunlar o‘qish bilan yumshatish mumkin edi. Rimliklar asosan qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanganliklari uchun tabiat hodisalari va dehqon hamda cho‘ponning barcha ishlariga homiylik qiladigan ko‘pgina xudolarga sig‘inar edilar.

Vervaktor, Vedator va Obarator deb atalgan uch xudo qo‘riq yerni haydashda odamlarga yordam ko‘rsatgan. Yerlarni o‘g‘itlashda xudo Saterkuliniyga qurbonlik keltirilgan. Ekin ekishda Saturin va Semonga, ilk maysalar chiqqanda ma’buda Siga, g‘alla unib chiqqanda ma’buda Segitiyaga murojaat qilar edilar. Begona o‘tlardan ekinlarni Runsinator, g‘allani chirishidan Robig himoya qilgan. Boshoqni yetilishi xudo Laturnaning, gullashi ma’buda Floraning vazifasi bo‘lgan. O‘rimni xudo Messis boshqargan. Uy-joyni Lara va Penat, eshiklarni Yanus, uy o‘chog‘ini ma’buda Vesta himoya qilgan. Har bir oila o‘zining homiy xudosiga ega edi.

Rim e’tiqodi, eng avvalo, barcha diniy urf-odatlarga qat’iy rioya qilish edi. Shu sababli, ko‘p sonli kohinlar mavjud bo‘lib, ular barcha xudolarning nomlari va vazifalarini yaxshi bilar edilar. Kohinlar duolarning rasmiy tasdiqlangan to‘plamlarini tuzganlar. Kohinlar Rim xo‘jalik hayoti uchun muhim

bo‘lgan kalendarni ham joriy qildilar. Qaysi kunda qaysi diniy marosimlarni bajarishni, baxtli va baxtsiz kunni aniqlaydigan kohinlar avgurlar deb atalgan. Avgurlarning maxsus kollegiyasi mavjud bo‘lgan. Kohin-folbin garuspiklar qurbonlikka keltirilgan hayvonlarning ichki a’zolariga qarab fol ochganlar. Kohinlar Rimda saylab qo‘yiladigan mansabdor shaxslar edilar, lekin alohida toifa emas edilar. Kohinlar Rim jamiyati hayotida muhim o‘rinni egallagan.

RIM ILK RESPUBLIKA DAVRIDA

«Davlatda faqat xalq taqdirlash va jazolash hokimiyatiga ega, shuningdek, podshohliklar va ozod davlatlar, umuman olganda butun insoniyat borlig‘i, mukofotlar va jazolashlar bilangina saqlanib turadi».

Tit Λiviy

1. **Rimning Italiyani bosib olishi.**
2. **Mil. avv. VI – III asrlarda Rim jamiyatining toifaviy tuzilishi.**
3. **Mil. avv. VI – III asrlarda Italiya iqtisodiyoti.**

1. Rimning Italiyani bosib olishi. Mil. avv. VI asrda etrusk istilolari urug‘ jamoasining yemirilish jarayoni, Rim jamiyati va davlatchiligining shakllanishini tezlashtirdi. Rimdan etrusk podshohlari haydalgandan so‘ng, qisqa bir davrda Rimning Latsiya viloyatidagi yetakchilik roli pasaydi. Rimliklar hududda yetakchilik uchun mil. avv. V – III asrlarda qariyb ikki yuz yil davomida Apennin orolida turli urug‘-qabilalar, davlatlar va etnoslar bilan urush olib bordilar. Dastlab rimliklar Latsiya viloyatida o‘z yetakchiligini yo‘qotgan etrusklar bilan urush olib bordilar. Etrusklarni Tibrning so‘l qirg‘og‘ida o‘rna-

shib qolishlariga boshqa lotin shaharlarining qarshilik koʻrsatishlari xalaqit berdi. Etrusklarga qarshi kurashda Tuskul shahri yetakchiligida sakkiz lotin shaharining ittifoqi tuzildi. Ittifoq Latsiyada yetakchi rol oʻynadi. Etrusklar ustidan gʻalabadan soʻng Rim bu ittifoq bilan urush boshladi. Mil. avv. 496-yilda Regil koʻli yaqinidagi jangda rimliklar lotinlar ustidan gʻalaba qozondilar, uch yildan soʻng Rim lotin shaharlari bilan ittifoq tizdi. Bu ittifoq mil. avv. V asr davomida saqlanib qoldi. Rim lotin ittifoqida asta-sekin yetakchi mavqega ega boʻldi. Rim tez orada bu ittifoqda bosh qoʻmondonni tayinlash huquqini, tinchlik toʻgʻrisidagi masalani hal qilishda hal qiluvchi qarorni qabul qilish huquqini qoʻlga kiritdi. Rimliklar yangi bosib olingan yerda birinchi boʻlib oʻz fuqarolarini koʻchirib oʻtkazish – ya'ni koloniyalar barpo qilish va urush oʻljasini katta qismini olish huquqiga egalik qildilar. Ittifoqchi shaharlarda boshqaruv Rim an'analariga mos tashkil etila boshlandi, hokimiyat oqsuyak zodagonlar qoʻliga oʻtdi.

Rimliklarning lotinlar bilan ittifoqi etrusklarga qarshi bosqinchilik urushlari olib borish imkonini berdi. Rim bu vaqtda oʻz hokimiyatini qoʻshni viloyatlarga oʻrnatdi. Rim Latsiy viloyatining togʻlik hududlarida yashagan ekv va volsklar bilan urushga kirishdi. Rimning etrusk shahri Veya va uning ittifoqchisi Fidena bilan urushi oʻn yil (mil. avv. 406 – 396)ga choʻzildi. Veya shahri bosib olinib, uning aholisi qullarga aylantirildi, yerlari esa Rimning mulki deb e'lon qilindi. Shu tarzda rimliklar Tibrning oʻng qirgʻogʻida mustahkam oʻrnashib qoldilar va oʻz hududlarini etrusklarning mulklari hisobiga kengaytirdilar. Qoʻshni hududlarni bosib olishi natijasida Rim hududi ancha kengaydi. Urushlar natijasida qoʻshnilar hisobidan Rim shahrining eski 4 tribiga 17 qishloq

tribi qo‘shib olindi. Mil. avv. 396-yilda etrusk shahri Veyaning bosib olinishi bilan triblarning soni 25 taga yetdi. Rim shahri aholisi sonining o‘sib ketishi bilan rimliklar ilk koloniyalarni mil avv. 494-yilda shahardan janubi-sharqda barpo qildilar. Velitra, Suessa, Norba, Signiya shaharlari ana shunday paydo bo‘ldi. Mil avv. 442-yilda rutul qabilasi qaram qilinib, ularning shahri Ardeya lotin koloniyasiga aylantirildi. Mil. avv. 394-yilda volsklar yerida rimliklar Sirseya koloniyasini barpo qildilar.

Gall bosqini. Etrusklarning Po daryo vodiysidagi mulklarini egallagan gall qabilalaridan biri bo‘lgan senonlar yo‘lboshchi Brenn boshchiligida mil. avv. 390-yil Alp tog‘lari orqali bostirib kirib, etrusklarning Kluziy shahrini qamal qildilar. Kluziy shahri Rimdan yordam so‘radi. Rim etrusklarga harbiy yordam bermadi. Lekin rimliklar gallarga o‘z elchilarini yubordilar. Rim elchilari gallardan qamalni to‘xtatishni talab qildilar va bu bilan cheklanmay gallar bilan urushga kirdilar. Rimliklarning bu qilmishidan jahli chiqqan gallar etrusk shahri Kluziy qamalini tashlab, Rimga yurish qildilar. Tibrning irmog‘i Aliyada Rim qo‘shini bilan gallar o‘rtasida jang bo‘lib, bu jangda rimliklar yengildilar. Gallar Rimni urushsiz egalladilar va uni talab, yondirib yubordilar. Rimliklar yana 7 oy Kapitoliyni himoya qildilar. Lekin oxir-oqibatda gallarga oltin bilan katta miqdorda tovon to‘lashga majbur bo‘ldilar. Rivoyatlarga ko‘ra, rimliklar senonlar talab qilgan miqdordagi oltinni taroziga o‘lchab, topshirmoqchi bo‘ladilar. Shunda senonlar yo‘lboshchisi Brenn qilichini tarozi pallasiga tashlaydi. Natijada oltinni miqdori yengil keladi. Bundan g‘azablangan rimliklar o‘z noroziliklarini bildiradilar. Aynan shu vaqtda Brenn «yengilganlarning holiga voy!» degan mashhur jumlasini aytgan. Ayrim lotin shaharlari-

ning harbiy qismlari gall yollanma qo‘shinlari bilan birgalikda volsklarning Rimga qarshi urushida yordam berib Rim hududiga hujum qildilar. Gall bosqini oqibatida Rim shahrining zaiflashuvi qo‘shni lotin, volsk, ekv va etrusklarni Rim zulmidan qutulib, mustaqil yashashga imkoniyat tug‘dirdi. Natijada Lotin ittifoqi (mil. avv. 384-yilda bu ittifoq tarkibida 47 lotin jamoasi bo‘lgan edi) tarqalib ketdi.

Rim o‘zi uchun nihoyatda foydali bo‘lgan bu ittifoqdan voz kecha olmas edi. Shu sababli Rim lotin shaharlarini yana qayta kuch bilan bo‘ysundirishga tish-tirnog‘i bilan kirishdi. Rim mil. avv. 383 – 354-yillarda lotinlarni o‘z ittifoqlari yo‘lboshchisi Rimga qarshi qo‘zg‘olonini bostirishga erishdi. Ittifoqchilarning qo‘zg‘oloni uyushmagan tarqoq edi. Rim o‘ziga qarshi bosh ko‘targan ba’zi lotin shaharlarlari va o‘z koloniyalari Lanuviy, Prenesta, Tuskul, Tibur, Velitra va Sirseyani qayta bo‘ysundirdi. Shu tarzda Lotin ittifoqi faqat 32 yildan keyingina rimliklar tomonidan qayta tiklandi.

Kampaniyaning bosib olinishi. Rim Latsiya viloyatida eng kuchli davlatga aylandi va o‘z chegaralarini mustahkamlabgina qolmay, balki qo‘shni hududlarni bosib olishga kirishdi. Volsklarinig bir qism yeri bosib olinib, mil. avv. 358-yilda uning hududida ikkita yangi trib tashkil etildi. Iiqtisodiy jihatdan Rim rivojlanib, qo‘shni Kampaniya viloyati bilan aloqasi kuchaydi. Kampaniyada samniylarning ta’siri kuchli bo‘lib, bu vaqtda samniylar sabell qabilalarining kuchli ittifoqini tuzgan edilar. Samniylar mil. avv. Vasrdan Kampaniyada o‘z hokimiyatini o‘rnatgan edi. Kapuya shahri ham samniylar qo‘li ostida edi. Kapuyaning katta yer egalari yordam so‘rab Rimga murojaat qildilar va uning hukmronligini tan oldilar. Bu birinchi Samniy urushiga (mil. avv. 343 – 341-yillar) olib keldi.

Lotin urushlari. Rimning Kapuyani bosib olishi va samniylar bilan urushda g‘olib chiqishi Lotin shaharlari bilan Rim o‘rtasidagi munosabatlarni keskinlashtirdi. Lotin shaharlari Rimning bunday kuchayib ketishi o‘zlari uchun yomon oqibatlarga olib kelishidan tashvishlanib, Rim bilan teng huquqli munosabatlarni talab qildilar.

Lotin shaharlari Rim senatidan konsullarni biri lotinlardan bo‘lishi, senatning yarmi lotinlardan bo‘lishini talab qildilar. Rim bu talablarni qabul qilmadi va mil. avv. 340 – 338-yillar lotin urushi yuz berdi. Deyarli barcha lotin shaharlari Rimga qarshi chiqdi. Bu urushda Rim g‘alaba qildi. Rimga yaqin shaharlar Rimga qo‘shib olindi, ularning fuqarolari teng huquqli Rim fuqarolariga aylandilar. Boshqa lotin jamoalari fuqarolik huquqlari va erkinliklarda rimliklar bilan tenglashtirildi. (ular jus kommersii huquqi – savdo olib borish huquqi, mulk olish huquqini oldilar, ba’zilar esa jus konnibi – Rim fuqarolari bilan nikoh shartnomasini tuzish huquqini oldilar). Lekin ularga xalq yig‘inida ovoz berish huquqiga ega bo‘lmadilar. Lotinlar ilgari mavjud bo‘lgan qoida: Rimga ko‘chib o‘tib, senzdan o‘tganlar Rim fuqarolari huquqiga ega bo‘ldilar (Bu jus migrationis – ko‘chib o‘tish huquqi edi). Faqat Tibur va Pereneste shaharlari Rimning ittifoqchilari bo‘lib qoldilar.

Samniy urushlari. Rim-samniy urushlari uch marta bo‘lib o‘tdi. Samniylar O‘rta Italiyaning tog‘li qismida yashab chorvachilik (ko‘pincha yilqichilik) va ovchilik bilan shug‘ullanganlar. Ular temirga ishlov berishga usta bo‘lib, temirdan harbiy qurol-yarog‘larni tayyorlaganlar. Samniylar harbiy ishni yuqori darajada egallaganlar. Chorva mollari uchun zarur bo‘lgan ehtiyoj samniylarni qo‘shni boy Kampaniya viloyatiga siljishga majbur qildi. Natijada samniylar Kampaniya viloyatini asta-sekin egallab oldilar.

Jangovar samniy qabilalari Kampaniyada o‘rnashib, Rim bilan mil. avv. 354-yilda ittifoq tuzgan edilar. Rim patritsiy va dehqonlari samniylarning hududlari va Kampaniyaning unumdor yerlariga ko‘z olaytirdilar. G‘arbiy Kampaniyada Kapuya shahri samniylardan mag‘buliyatga uchrab Rimdan yordam so‘radi. Bu boy hududni egallash niyatida bo‘lgan rimliklar samniylar bilan tuzilgan ittifoq shartlarini buzdilar. Kapuyaning bosib olinishi mil. avv. 343 – 341-yillarda birinchi samniy urushini keltirib chiqardi. Rim uzun nayza va to‘g‘ri to‘rtburchakli qalqonlar bilan qurollangan dovyurak tog‘li qabilalar – samniylar bilan urush boshladi. Rim armiyasi uch jangda samniylar ustidan g‘alaba qozondi va Kampaniyada o‘z hukmronligini o‘rnatdi.

Ikkinchi samniy urushi mil. avv. 327 – 304-yillarni o‘z ichiga oladi. Neapol shahrida zodagonlar va quyi tabaqalar o‘rtasidagi ziddiyatlar kuchayib, Neapol zodagonlari Rimdan yordam so‘radilar, quyi tabaqa samniylarga murojaat qildi. Neapol uchun raqobat ikkinchi samniy urushiga olib keldi. Samnitlarni lukanlar va vestinlar qo‘llab-quvvatladilar. Lotinlar, kampanlar va volsklar Rimga qarshi chiqish uchun qulay vaziyatni kutib turdilar. Rim legionlari tog‘li samniy hududiga bostirib kirdilar. Samniylar Kavdin darasida Rim legionlarini tor-mor qildilar va 2 konsul va 40 ming rimlikni asir oldilar. Samniylar Kavdin darasida asir olingan 40 ming rimliklarni yalang‘och qilib va qurolsiz dalada maxsus qurilgan g‘alaba ramzi bo‘lgan ark – sirtmoq ostidan o‘tkazdilar. Konsullar samniylar bilan shartnoma imzoladilar. Rimliklar faqat bir necha ahamiyatsiz hududlarni qaytardilar. Suvoriylardan 600 kishi tuzilgan shartnomani rimliklar tomonidan bajarilishining garovi sifatida samniylar ushlab turdilar. Rim egallagan shaharlaridan chiqib ketdi.

Lekin senat bu shartnomani bekor qildi va Rim yana urushni davom ettirdi. Rimliklar mil. avv. 316-yilda urushga tub burilish yasadilar. Rim qo‘shini qayta tuzildi, legion har biri 200 askardan iborat 30 manipulga bo‘lindi. Askarlar kalta nayza, kalta qilich bilan qurollantirildi. Bu harakatchan kichik harbiy qism tog‘li samniy viloyatlarida tezkor harakat qilish qobiliyatiga ega bo‘ldi. Natijada urush harakatlarida rimliklarning qo‘li baland keldi. Apuliya va Kampaniya viloyatlari rimliklar tomonidan to‘la egallandi. Mil. avv. 305-yilda samniylarning bosh shahri Bovian rimliklar bosib olganidan so‘ng samniylar urushni to‘xtatdilar. Samniylar mil. avv. 304-yilda tinchlik shartnomasini imzolashga majbur bo‘ldilar. Urush oxirida gernik va ekvlar Rimga bo‘ysundirildi. Qo‘shimcha hududlar Rim tarkibiga kirdi.

Uchinchi samniy urushi (mil. avv. 298 – 290-yillar). Gallar va etrusklar Rim hududiga bostirib kirdilar. Samniylar ham Rimga urush e’lon qildilar. Urush Italiyaning turli hududlarini qamrab oldi. Samniylar gallar bilan birga harakat qilib, Umbriyada etrusklar bilan qo‘shilishlari lozim edi. Rimliklar Etruriyaga bostirib kirishi bilan etrusklar keltlardan ajralib ketdilar. Sentin yaqinidagi jangda (mil. avv. 296-yil) rimliklar samniy-gall qo‘shinlari ustidan hal qiluvchi g‘alabaga erishdilar. Etruriya bilan tinchlik bitimi imzolandi. G‘olib Rim samniylarning mustaqilligiga chek qo‘ydi. Etrusk shaharlari Rim bilan ittifoq tuzishga majbur bo‘ldi. Ko‘pgina hududlar Rim ixtiyoriga o‘tdi. Bosib olingan hududlar aholisi cheklangan Rim fuqaroligi huquqini (**civitas sine suffagrio** – «ovoz berish huquqi bo‘lmagan fuqarolik») oldi. Pisena aholisi ham g‘oliblarga taslim bo‘ldi. Adriatika dengizi sohilida lotin koloniyasi Adriya barpo qilinishi bilan Italiyaning Sharqiy qirg‘og‘ida Rim hukmronli-

giga asos solindi. Endi O‘rta Italiya to‘la Rim qo‘lida edi. Gallar shimolga chekinishga majbur bo‘ldilar.

Rimning samniy urushlari Lotin ittifoqining barcha qatnashchilari uchun og‘ir majburiyat bo‘ldi. Samniy urushidan faqatgina Rim foyda ko‘rdi. Rimliklar samniylardan bir qism yerlarni tortib oldilar. Lotin shaharlari bunday adolatsizlikka chiday olmay, Rim bilan urush boshladilar, lekin bu urushda ular yengildilar. Urush uzoq davom etib, mil. avv. III asr boshlarida tinchlik shartnomasi bilan tugallandi. Rim mil. avv. 493-yilda boshqa lotin shaharlari bilan mudofaa ittifoqi tuzishga erishdi. Bu ittifoq mil. avv. V asr davomida saqlanib qoldi va Rimni bir qancha qo‘shni viloyatlarni bosib olishiga qulay shart-sharoit yaratdi.

Tarent. Samniy urushlaridan so‘ng, rimliklar bevosita Janubiy Italiyadagi yunon shaharlari bilan chegaradosh bo‘ldilar. U yerdagi yunon shaharlaridan eng katta va qudratlisi Tarent shahri edi. Savdo-hunarmandchilik va dehqonchilik rivojlangan Tarent juda boy shahar bo‘lib, rimliklar uchun tayyor xo‘rak edi. Shaharda dastlab aristokratik, so‘ng demokratik boshqaruv tartibi hukm surdi. Hokimiyat boy savdogar va kemachilar qo‘lida edi. Tarentning o‘z qo‘shini bo‘lmay, yunon yollanma askarlari xizmatidan foydalanar edi. Shaharning rimliklar bilan shartnomasi bor edi. Lukanlar Janubiy Italiyadagi Furiya shahriga hujum qildi. Furiya shahri rimliklardan yordam so‘radi. Yordamga kelgan Rim qo‘shini lukanlar hujumini qaytardi, lekin Rim harbiy qismi Furiya shahrida qoldi. Rim kemalari Adriatika dengiziga kirib, Tarent gavaniga kirdilar. Bu tarentliklarga Rim tomonidan mavjud shartnomani buzish hisoblanib, ular Rim kemalarini bosib olib, cho‘ktirib yubordilar. Shundan so‘ng, Tarent Furiya shahriga

hujum qilib, bu shaharda turgan Rim harbiy qismini shahardan chiqarib yubordI.

Mil. avv. 280-yilda Rim Tarentga elchilarni yubordi. Tarent elchilarni yaxshi qabul qilmadi. Rim Tarentni elchilarni haqorat qilishda ayblab, Tarentga urush e'lon qildi. Tarent Kichik Osiyo shimolidagi Epir podshohi Pirrni yordamga chaqirdi. Mil. avv. 280-yilda Pirr 20 jangovar fil, 22 ming piyoda, 3 ming otliqdan iborat armiya bilan Janubiy Italiyaga kirib, Gerakleya va Auskul yonidagi ikki jangda rimliklarni tor-mor qildi. Pirr tez orada tarentliklar bilan ixtilofga kirib, Sitsiliyaga chiqib ketishga majbur bo'ldi. Pirr Sitsiliyada Karfagenning mulklarini bosib oldi. Lekin Pirr bosib olingan hududlar aholisiga zulm o'tkazdi, natijada mahalliy aholi Pirrga qarshi Karfagen bilan ittifoqqa kirishdi. Karfagen armiyasi qo'shini Sitsiliyada paydo bo'ldi. Pirr yana Italiyaga qaytdi.

Mil. avv. 275-yilda esa, Benevent yonida rimliklar Pirr qo'shinlarini yanchib tashladi. Bir necha yildan so'ng Tarent shahri va u bilan ittifoqchi bo'lgan samniylar, lukanlar va Bruttiya shahri aholisi Rim hokimiyatini tan olishga majbur bo'ldilar. Mil. avv. 270-yilda Regiy shahri rimliklarga taslim bo'ldi. Mil. avv. 265-yilda rimliklar etrusklarning diniy markazi Volsiniya shahrini bosib oldilar. Shu bilan Rimning Italiyani bosib olishi tugallandi.

Rimning Italiya hududlari bilan munosabati. Rim 200 yil davomida Italiya hududlariga bosqinchilik urushlarini olib bordi. Mil. avv. IV asr o'rtalarida Rim kuchli qo'shin bilan Italiyaning bir qancha hududlarini egallab oldi. Mil. avv. IV asr o'rtalarida Rim respublikasi faqat Latsiya viloyatida emas, balki butun markaziy Italiyada kuchli davlatga aylandi. Rimning istilolari Lotin ittifoqiga kirgan boshqa shahar-davlatlar bilan munosabatlarning o'zgarishi Rimning boshqa ittifoqchilarga nisbatan ustunligini ta'minladi.

Rim Italiyaga yurish qilganda turli hudud va etnoslarga nisbatan «**bo‘lib tashla, hukmronlik qil**» tamoyilini qo‘lladi. Bir hududni bosib olish uchun ikkinchi bir hudud bilan ittifoq tuzdi. Misol uchun, Tarentga qarshi urushda Karfagen bilan ittifoq tuzdi. Rim Italiya hududida yetakchi o‘rinni egallashi bilan Rim-Karfagen ittifoqi tugadi. Endi Rim g‘arbiy O‘rtayer dengizi havzasida asosiy raqib, sobiq ittifoqchisi Karfagen davlati bilan hal qiluvchi urushga tayyorlana boshladi.

Rim Italiya hududlarini o‘ziga to‘la qaram qilish uchun yetarli darajada harbiy kuch va moddiy resurslarga ega emas edi. Shu sababli, Rim bu hududlarni ta’sir doirasida saqlab turish uchun bosib olingan hududlar va shaharlar bilan turli darajadagi shartnomalar tuzdi. Ular o‘z mustaqilliklarini ma’lum darajada saqlab qoldilar. Hududlarning ko‘pchiligi Rim xalqining mulki deb e’lon qilindi va qaram holatda bo‘lib, rimliklarga turli to‘lov va majburiyatlarni qo‘ydilar. Rim davlati uchun eng avvalo Italiyada faqat Rim shahrining imtiyozli mavqeyini ta’minlash birinchi vazifa bo‘ldi.

Italiyaning ayrim hududlari aholisi cheklangan Rim fuqaroligi (sine suffragio xalq yig‘inida ovoz berish huquqidan mahrum) huquqiga ega bo‘ldi. Bu o‘z-o‘zini boshqarish va jamoa yig‘inlarida ovoz berish huquqidan mahrum bo‘lish demak edi. Shahar ishlarini Rimdan yuborilgan prefekt boshqarar edi. Rimliklar Italiyadagi bosib olingan yerlar aholisini turli huquqlarga ega bo‘lgan toifalarga bo‘ldilar. Faqat Rim fuqarolari bo‘lgan patritsiylar va plebeylar hamda Rimga qo‘shib olingan lotin shaharlari, Rim shahriga doimiy ko‘chib o‘tgan barcha lotinlar huquqlardan foydalanishlari mumkin edi. Rim qonunlari bo‘yicha fuqaro nikoh o‘qitish, mulkini erkin tasarruf qilish, o‘z moddiy manfaatlarini himoyasi

uchun sudga murojaat qilish, yig‘inlarda ovoz berish va mansablarni egallashi mumkin edi. Bu to‘la huquqli fuqarolar Rim triblariga doimiy biriktirilgan edi. Bundan tashqari, Italiyaning turli muhim strategik markazlarida senat qarori bilan barpo qilingan Rim koloniyalarining Rimdan ko‘chirib keltirilgan aholisi to‘la huquqli fuqarolar hisoblandi. Bu koloniyalar o‘z-o‘zini boshqarish huquqiga ega edilar.

Italiyadagi ayrim shaharlar aholisi cheklangan huquqlarga ega fuqarolar toifasi **(«sives sine suffragio»)** bo‘ldilar. Ular Rim odati bo‘yicha nikoh bitimi tuzishlari mumkin edi va o‘z mulklarini tasarruf qilish huquqiga ega edilar, lekin ular Rimda mansablarni egallash va ovoz berish huquqidan mahrum edilar. Bunday cheklangan huquqlarga ega shaharlar munitsipiylar deb atalar edi. Ularning ba’zilari Rimdan yuborilgan prefekt tomonidan boshqarilar edi.

Munitsipiylar aholisi huquqiy mavqelariga ko‘ra, lotin koloniyalari aholisiga yaqin turar va lotin huquqiga ega edilar. Munitsipiylar boshqaruvda avtonom bo‘lib, o‘z tangalarini zarb qilish huquqiga ega edilar. Rimliklar bunday munitsipiylardan yordamchi harbiy qism – kogortalar olish majburiyatini o‘tashni talab qilar edilar. Ozod qilingan qullar Rim qonuni bo‘yicha ochiq nikoh o‘qitishlari mumkin emas edi. Ular faqat tribut komissiyalarida ovoz berish huquqiga ega edilar.

Italiya aholisining **«sotsii»** (ittifoqchilar) deb atalgan toifasi Rim bilan zaif bog‘langan edi. **«Sivitates federat»** huquqidagi ittifoqchi shaharlar Rimga qo‘shinlar bilan yordam berishlari shart edi. Janubiy Italiyadagi ayrim yunon shaharlariga Rimga harbiy flot bilan yordam berish majburiyatini olgan edilar. Ularga Rimning ruxsatisiz shartnomalar tuzish, mustaqil tashqi siyosat yuritish, o‘z tashabbusi bilan urush olib borish taqiqlangan edi.

2. Mil. avv. VI – III asrlarda Rim jamiyatining toifaviy tuzilishi. Qadimgi Rim jamiyatida faqat urug‘ning a’zosi, jumladan, patritsiy urug‘i a’zosi to‘laqonli fuqaro hisoblanar edi. Urug‘ tashkilotidan u yoki bu sabab bilan (nikohsiz tug‘ilgan farzandlar, kelgindilar, ozod qilingan qullarning avlodlari) urug‘dan tashqarida qolganlar urug‘ boshlig‘i «patron»ga qaram bo‘lgan yarim erkin odam «kliyent» bo‘lar edi. Patron kliyentga maslahat, xayrixohlik va mablag‘ bilan yordam bergan, kliyent ham o‘z imkoniyati darajasida patronga xizmat ko‘rsatar edi.

Mil. avv. VI – IV asrlarda Rimning ijtimoiy tuzilmasi murakkab va olaquroq edi. Rim jamiyatida patritsiylar, plebeylar, kliyentlar va qullar toifaviy guruhlar sifatida shakllandi. Bu guruhlarning har biri jamiyat va ishlab chiqarishda o‘z huquq-majburiyatlari bilan alohida o‘rinni egalladilar. Pater-ota ko‘p sonli oilaning, unga kiradigan boshqa qaram kishilar va qullarning xo‘jayini edi. Qadimgi Rimda otalar deb yana oliy boshqaruv organi – senat a’zolarini ham aytar edilar. Patritsiylar Rimning ilk imtiyozli hukmron sinfi – toifasi edilar. Ular barcha fuqarolik huquqlaridan foydalanar edilar. Kuriya komissiyalarida ovoz berib, senat a’zoligiga saylanganlar. Og‘ir qurollangan piyoda qo‘shinda, imtiyozli otliq qo‘shinlarda xizmat qilar edilar. Har bir patritsiy katta oila jamoasi-ko‘p sonli familiya (familias)ning boshlig‘i bo‘lib, bu jamoani ta’minlash uchun jamoa yer jamg‘armasidan katta ulushlarni olish va foydalanish huquqiga ega edi.

Plebeylar. Rim jamiyatining yana bir salmoqli toifasi plebeylar bo‘lib, bu toifa boshda teng huquqli fuqaro sifatida tan olinmagan bo‘lsa-da Rim davlati va taraqqiyotida yetakchi o‘rinni egallar edi. Qadimgi Rim yozuvchisi Tit Liviy shunday yozgan edi: «Mil. avv. IV asr o‘rtalarigacha asosiy magistrat lavozimlari patritsiylar bilan to‘ldirilar edi. Patritsiylar uzoq ibtidoiy

jamoa davri, urug‘chilik jamoalariga borib taqaladigan urug‘ guruhlari (gentes)ga bo‘lingan edilar. Yer egalarining imtiyozli hukmron sinf qatlami bo‘lgan holda urug‘chilik aloqalari muhim o‘rin egallagan bu tuzilmada Rim patritsiylari jamiyatning konservativ unsurlari edilar. Ular yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, xususiy mulkchilik, qulchilik taraqqiyotiga to‘siq edilar. Davlatda faqat xalq taqdirlash va jazolash hokimiyatiga ega, shuningdek, podshohliklar va ozod davlatlar, umuman olganda butun insoniyat borlig‘i, mukofotlar va jazolashlar bilangina saqlanib turadi» (Тит Ливий, История от основания Рима. стр. 50. – М., Художественная литература, 1970).

Ilk Rimning asosiy toifalaridan biri plebeylar edi. Plebeylarning bir qismi qaram kliyentlar sifatida patritsiy urug‘lariga qabul qilingan. Lekin plebeyning ko‘pchiligi tub aholi – patritsiylar ijtimoiy tashkilotidan tashqarida bo‘lib, huquqiy jihatdan erkin bo‘lsalar-da, fuqarolik huquqlaridan mahrum edilar. Plebeylarning asosiy qismi o‘zining avvalgi Vatani va Rimdan tashqarida bo‘lgan urug‘ tashkiloti bilan aloqasini uzgan kelgindi kishilar edi.

Plebeylar kichik yer maydonlarida dehqonchilik qilib, savdo-hunarmandchilik bilan shug‘ullanar edilar. Ularning ko‘pchiligi asosan, Rim atrofidagi qishloqlarda yashab, o‘z jamoa tashkilotlari, o‘zaro yordam tizimiga ega edilar. Plebeylar Rim jamiyatining shakllanayotgan jamoa-dehqon tarkibining asosiy qismini tashkil qilar edilar. Plebeylar orasida tez orada ijtimoiy tabaqalanish yuz berib, boy qatlam ajralib chiqdi. Plebeylarning asosiy ommasi yer ulushi olish va qarzi uchun qullikni bekor qilinishini talab qilgan bo‘lsalar, o‘ziga to‘q plebeylar birinchi navbatda, patritsiylar bilan siyosiy teng huquqlik uchun kurashdilar.

Serviy Tulliy islohotlari natijasida plebeylar Rim ko‘ngillilari tarkibiga kiritildi. Lekin qo‘shindagi bar-

cha boshliq lavozimlari patritsiylar qo‘lida edi. Bundan tashqari, plebeylar patritsiylar ozod etilgan harbiy soliq (tribut) to‘lar edilar. Bu davrda Rim shahrining o‘zida plebeylar va patritsiylar o‘rtasida yer uchun keskin kurash boshlandi. To‘xtovsiz urushlar natijasida xonavayron bo‘lgan, qarzlarga botib qolgan Rim plebey bosib olingan yerlarni taqsimlashda o‘z hissasini talab qildi. Shuningdek, patritsiylarning zo‘ravonligidan qonuniy himoya va o‘z siyosiy huquqlarini kengaytirishni talab qilib chiqdilar. Bu kurash mil. avv. 494-yilda o‘ta keskinlashdi.

Birinchi setsessiya. Tribunatning tashkil etilishi. Og‘ir qarz majburiyatlari, qarz beruvchining zulmi plebeylarni ekvlar bilan urushda ishtirok etishdan bosh tortishlariga olib keldi. Rim plebeylari ijtimoiy adolatsizlikka qarshi norozilik belgisi sifatida mil. avv. 494-yilda Rimdan 4,5 km shimoldagi «Muqaddas toqqa» chiqib ketishga (setsessiya) majbur bo‘ldilar.

Setsessiya va harbiy xavf patritsiylarni yon berishga majbur qildi. Natijada plebeylar plebey yig‘inlarida har yili ikki yoki to‘rt xalq tribuni saylash huquqiga ega bo‘ldilar. Keyinchalik xalq tribunlari soni o‘ntaga yetdi. Tribunlar mansabdor shaxslar bo‘lmay, plebs vakillari sifatida chiqib, uning manfaatlari himoyachisi bo‘ldilar. Xalq tribunlari shahar hokimiyatining faoliyatiga aralashishlari, mansabdor shaxslar va senatning qarorlarini bajarilishini to‘xtatishlari mumkin edi. Komissiyalarda qabul qilingan qarorlarga plebeylar veto (taqiq) qo‘ysa, bu qaror yana ovozga qo‘yilishi mumkin emas edi. Tribunlarning o‘zlari hali faqat plebeylar uchun majburiy bo‘lgan qarorlar qabul qilishlari mumkin edi. Tribunlar faqat plebeylar orasidan saylanib, daxlsizlik huquqidan foydalanar edilar. Xalq tribuniga qarshi bosh ko‘targan kishi qonundan tashqari deb e’lon qilinar edi. Bunday jinoyat qilgan kishini har kim jazosiz o‘ldirishi mumkin

edi. Tribun hokimiyati joriy etilishi bilan plebeylar va patritsiylar o‘rtasidagi kurash to‘xtamadi. Patritsiylar tribunatni tugatish, plebeylar konsul hokimiyatini cheklashga urindilar. Anarxiya, boshboshdoqlik, qurolli to‘qnashuvlar va siyosiy qotilliklar kuchayib ketdi. Har ikki tomon o‘rtasidagi bu kurash mil. avv. 471-yilda qabul qilingan Publiy qonuni bilan yakunlandi. Publiy qonuniga ko‘ra patritsiylar o‘zlarining ozod qo‘yilgan qullari orqali o‘z ta’sirlarini kuchaytirish imkoni bo‘lgan kuriylalar bo‘yicha o‘tkaziladigan saylovlar bekor qilindi. Kuriya saylovlari yangi tashkil etilgan 21 okrug-tribda o‘tkaziladigan saylovlar ovoz berish bilan almashtirildi. Triblarda barcha fuqarolar – patritsiy va plebeylar bir xil ovoz beradigan bo‘ldilar. Triblarda ovoz berishdan ozod qoyilgan qullar mahrum bo‘ldilar va bu patritsiylarning saylovlarga ta’sirini bartaraf qildi. Plebey yig‘inlarining qarorlari senturiylarda ovoz berish bilan tenglashtirildi. Mil. avv. 486-yilda konsul Spuriy Kassiy davlat yerlaridan foydalanish huquqini barcha fuqarolarga, hatto lotin ittifoqchilariga berish to‘g‘risidagi agrar qonunni taklif etdi. Bu qonun loyihasiga zodagonlar va Rimning oddiy kambag‘al fuqarolari ham keskin qarshi turdilar. Oqibatda Spuriy Kassiy halok bo‘lib, qonun loyihasi amalga oshmadi.

XII jadval qonunlari. Rimning oddiy xalqi (plebs) mil. avv. 462-yilda qabul qilingan qonunlarni yozma bayon qilish va konsullar sud ishlarini patritsiy oilalarida saqlanadigan og‘zaki rivoyatlar asosida emas, balki yozma qonunlar asosida amalga oshirishni talab qilib chiqdi. Senat oddiy xalqning bu talabini bajarishdan bo‘yin tovladi, plebeylar tribunlarni saylab, tribunlar 10 yil davomida bu muammoni senatning kun tartibiga qo‘yib keldilar. Senat plebsning talabiga ko‘nishga majbur bo‘lib odatdagi huquq normalarini qonun ko‘rinishida shakllantirish uchun patrit-

siy 10 kishidan iborat komissiya tuzdi. Bu komissiya a'zolari desemvirlar (dekemvirilegibus, sikribundis – qonunlarni yozadigan 10 erkak ma'nosini bildiradi) deb ataldi. Buning evaziga plebeylar tribunatni bekor qilishga rozi bo'ldilar. 451-yilda faqat patritsiylar kirgan birinchi 10 desemvir komissiya saylandi. Bir yil davomida 10 desemvir qonunlarning bir qismini tayyorladilar, bu qonunlar xalq yig'inida tasdiqlanib, 10 mis taxtaga yozib qo'yildi. Mil. avv. 450-yilda yangi desemvirlar saylanib, ularning tarkibiga plebeylar ham kirdilar. Bu desemvirlar yozma qonunlarni tuzishni tugalladilar va shu tarzda 12 jadval qonunlari paydo bo'ldi. 12 jadval qonunlari mavjud eski qonunlarni tubdan o'zgartirmadi. Bu qonunlarga ko'ra ruxsat etilgan qarz foizlari miqdori cheklandi, sudxo'rlik uchun jazo kuchaytirildi. Sudxo'rlik endi o'g'rilikdan ko'ra shafqatsiz jazolandi. Qarzdorlik bo'yicha sud ishlari qat'iy tartibga solindi. Yer egalari va yersiz odamlar huquqlaridagi farqlar tasdiqlandi, patritsiy va plebeylar o'rtasidagi oila – nikoh taqiqi tasdiqlandi. Appelyatsiya triblar bo'yicha yig'ilishdan senturiy yig'ilishlariga o'tkazildi. Endi konsul faqat yozilgan qonunlar asosida sud ishlarini ko'radigan bo'ldi. Barcha qonunlar 12 mis taxtaga yozilib, xalq e'tiboriga havola qilindi. Bu qonunlarga rioya qilishda xalq nazoratini kuchaytirdi.

Plebeylarning siyosiy tenglik uchun kurashi davom etdi. Plebeylarga mil. avv. 445-yildagina tribun Kanuley qonuni asosida patritsiylar bilan nikohdan o'tishga ruxsat berildi. Patritsiy va plebeylar o'rtasidagi nikoh huquqiy kuchga ega bo'ldi. Kanuleyning plebeylardan konsul saylash to'g'risidagi ikkinchi qonun loyihasi rad etildi. Mil. avv. 444-yildan senat qarori bilan 3 tadan 8 tagacha konsul hokimiyati vakolati bilan tribunlar saylana boshlandi. Xalq tribunlari Gay Sekstiy Stolon va Lutsiy Sekstiy Lateran o'n

yil davomida plebeylar manfaatini himoya qilib, bir necha qonun loyihalarini taklif qildilar. Patritsiylar bu qonun loyihalariga qarshi ovoz berib, plebeylarni siyosiy huquqlarga ega bo‘lishlariga qarshi turdilar. Bunga javoban plebey tribunlari komissiya qarorlariga veto qo‘ydilar, natijada bir necha yil magistratlar saylanmay qo‘ydi.

Mil. avv. 367-yilda uch qonun qabul qilindi: birinchi qonun bu vaqtda Rim jamiyatida o‘ta keskin bo‘lgan qarzdorlik masalasiga bag‘ishlandi. Bu qonunga qarz foizlari, qarz hisobiga hisoblandi. Shu bilan birga qarzning qolgan qismi uch yil davomida bir xil miqdorda to‘lab boriladigan bo‘ldi. Ikkinchi qonun har bir fuqaroga Rim jamoa yerlariga 500 yugergacha miqdorda egalik qilish huquqini berdi. Uchinchi qonun konsul hokimiyatini qayta tikladi. Konsul hokimiyatiga ega bo‘lgan harbiy tribunlar o‘rniga konsullar saylanadigan bo‘ldi, ulardan biri albatta plebeylardan bo‘lishi lozim edi. Yangi senzor mansabi joriy qilinib, ularning vazifasi fuqarolarning mulk senzi majburiyatini bajarishini nazorat qilish, keyinchalik senatorlar ro‘yxatini tuzish edi. Senzor hukmi bekor qilinmas, qat’iy edi. Bundan tashqari, ular daromad – xarajatlar to‘lovini nazorat qilar, katta jamoa ishlarini tashkil ettirdilar.

Mil. avv. 367-yilda konsul Sekst Lateran 3 ta muhim qonunning qabul qilinishiga erishdi. Birinchi qonun: qarz foizlarini tartibga soldi; ikkinchi qonun: barcha Rim fuqarolari – patritsiylar va plebeylarga jamoa yerlaridan foydalanishni teng huquqini berdi; uchinchi qonunga ko‘ra: konsullik lavozimini plebeylar ham egallashi mumkin edi. Keyinchalik ikki konsuldan biri plebeylardan saylanishi odat tusiga kirdi. Bir vaqtning o‘zida konsullardan sud ishlari yangi mansabdor shaxs – pretorlarga olib berildi. Pretorlar konsullar kabi senturiy komissiyalarida saylanar edi. Mil. avv. 356-yil ilk bor plebeylardan diktator say-

landi. Besh yildan so‘ng, birinchi plebey senzor, mil. avv. 332-yildan senzorlardan biri muntazam plebey vakillaridan saylanadigan bo‘ldi. Shundan yana o‘ttiz yil o‘tgach, plebeylardan Rimning oliy kohini – pontifik saylanadigan bo‘ldi. Plebeylarning patritsiylarga qarshi to‘laqonli teng huquq uchun so‘nggi kurashi mil. avv. 287-yilgi Gortenziy qonunining qabul qilinishi bilan yakunlandi. Shu davrdan plebey yig‘inlarining qarorlari Rimning barcha fuqarolari uchun senatning tasdig‘isiz majburiy qonunga aylandi.

Nobillar. Rimda patritsiy va plebeylarning ikki yuz yillik ijtimoiy-siyosiy kurashlari mil. avv. III asr so‘nggida nihoyasiga yetdi. Mil. avv. IV asr oxirida eng boy yangi patritsiy va plebey zodagonlaridan iborat yangi nobillar qatlami vujudga keldi. Rim patritsiy va plebeylar orasidan o‘z boyligi, siyosiy-iqtisodiy jihatdan katta mavqega ega bo‘lgan va davlat boshqaruvini monopoliya qilib olgan, uncha katta bo‘lmagan nobillar guruhi davlatning ichki va tashqi siyosatini belgiladi. Nobillarning iqtisodiy tayanchi katta yer egaligi, ko‘p sonli kliyentlar, jumladan, o‘nlab provinsiya va shaharlar edi. Nobillar hokimiyatining amaldagi tayanchi senatda patritsiy urug‘lari bilan bir qatorda Litsiniy va Liviy kabi boy plebey urug‘lari ham muhim rol o‘ynadi.

Nobillar senatorlar toifasining oliy guruhi sifatida, yirik va o‘rta quldor yer egalari, savdogar va moliyachilardan tashkil topgan suvoriylar toifasi bilan birga hukmron qatlam tarkibini tashkil qildi. Qolgan fuqarolar – kichik mulkdorlar, erkin dehqonlar, hunarmandlar va savdogarlardan tashkil topgan plebeyni tashkil etdi. Imtiyozli toifalar va plebeyga qarama-qarshi, hech qanday huquqqa ega bo‘lmagan ko‘p sonli qullar qatlami turar edi.

Patron va kliyentlar. Qadimgi Rimda zodagonlar va qudratli kishilar oddiy va kambag‘al kishilarga oila

otasi sifatida yordam berishi lozim deb tushunilgan. Aslida Rimning ijtimoiy-sinfiy tuzilishi patron – kliyent munosabatlari shakllanishiga sabab bo‘ldi. Homiylik qiladigan odamlar patron deb va ular homiylik qilgan kishilar kliyent deb ataldi. Ilk Rim jamiyatida kambag‘al va siyosiy huquqsiz kishilarning ko‘p sonli qatlami – kliyentlarni tashkil qildi. Kliyent fuqarolik huquqiy qobilyatga ega bo‘lmay uning uchun barcha bitimlarni patron tuzgan.

Ozod qo‘yilgan qullar yoki Rimga ko‘chib kelgan boshqa urug‘ vakillari patritsiylardan himoya va homiylik qidirishga majbur bo‘lib, ularga kliyent bo‘lishlari mumkin edi. Kliyentlar patritsiylarning urug‘iga qaram a’zo sifatida kirib, o‘z homiylari urug‘i nomini oldilar. Kliyentlar patronga hurmat va turli xizmatlar ko‘rsatganlar. Agar patron urushda asir tushib qolsa, kliyent tovon to‘lab uni qutqarib olishi shart edi. Tong-saharda patronni uyiga kelib unga salom berganlar, bayramlarda sovg‘a-salom bilan uni qutlaganlar, patronni jamoa joylariga borishida hamrohlik qilganlar, xalq yig‘inida uning uchun ovoz berganlar. Kliyent hech qachon sudda va xalq yig‘iniga valine’mati – patronga qarshi chiqmagan. O‘z navbatida o‘z kliyentini xafa qilgan patron qarg‘ish-la’natga duchor qilingan. Kliyent vasiyat qoldirmagan bo‘lsa, o‘limidan so‘ng uning mulki patronga meros qolar edi. Agarda kliyent patronga bo‘ysunmasa, sud orqali u qulga aylantirilishi mumkin edi. O‘z navbatida, patron kliyentni boshqalarni tazyiqidan himoya qilishga majbur bo‘lib, sudda uning manfaatlarini himoya qilar edi. Patron kliyentga pul mablag‘i bilan yordam berar edi. Ularga armiyada va davlat xizmatida «yaxshi» ish bergan. Patron qancha kuchli bo‘lsa, uning kliyentlari ham ko‘p bo‘lgan.

Ozodlikka chiqqan qul sobiq xo‘jasining kliyentga aylandi; katta yer egasidan yerni ijaraga olgan dehqon

uning kliyenti hisoblandi; sudda ish yutgan fuqaro o‘z himoyachisining kliyenti hisoblanar edi. Mil. avv. III asrga borib yangi ijtimoiy munosabatlar rivojlanishi bilan kliyentlarning katta qismi o‘z patronlaridan ozod bo‘lib, davlatdan yer oldilar va erkin dehqonlarga aylandilar. So‘nggi Rim imperiyasi davrida kuchli senator – patrisiylarni patronatiga kichik yer egalari, hatto qishloqlar, jamoalar va shaharlar o‘ta boshladi. Kichik yer egalari patronga o‘z yerlarini berib, uni prekariy sifatida qaytarib olib, amaldorlar, sudxo‘rlar va sudyalar zo‘ravonligidan o‘zlarini himoya qildilar.

Qulchilik. Mil. avv. V asrgacha qulchilik xonaki (patriarxal) shaklda edi. Mil. avv. V asrdan qul mehnati xo‘jalikning turli sohalariga kirib bordi. Rimda qarzi uchun qul qilish mil. avv. 326-yildagi qonun bilan bekor qilindi. Natijada, qullar qatlami asosan urushlarda olingan asirlar hisobidan to‘ldirila boshlandi. Qulga buyum sifatida qaralmadi. Inson shaxsi huquqlari kam darajada bo‘lsa-da, saqlanib qoldi. Bu davrda erkin kishi va qullar o‘rtasidagi farq unchalik keskin emas edi.

Qonunlarda mulk huquqi kuchli himoya qilingan edi. Mulkka daxl qilish og‘ir jinoyat hisoblanib, qiynoq bilan o‘lim jazosi berilar edi. Qullar uchun jazo erkin tug‘ilganlarga nisbatan og‘ir edi. O‘g‘rilik qilgan erkin fuqaro kaltaklanar edi, qullar esa savalanganidan so‘ng qoyadan tashlanar edi. Sudxo‘r qarzdorni qul qilish bilan cheklanmay, balki uning hayotiga egalik qilishi ham mumkin edi.

Rim fuqarosi qanday huquqlarga ega edi? 1. Jamiyat hayotida magistratlar rahbarligi ostida davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan yig‘inlarda qatnashish va bu yig‘inlarda ovoz huquqiga egalik saylanadigan davlat lavozimlarini egallash huquqi; hokimiyatning o‘lim hukmi, jismoniy jazo berishi va katta miqdorda jarima to‘lashga majbur qilish hukmlariga qarshi xalqqa

apellyatsiya qilish huquqi; lavozimdagi shaxslarning qarorlarini xalq yig‘inlarida yoki bevosita, yoki tribunat orqali bekor qilish huquqi; fuqaro sha’ni, obro‘yini to‘kadigan barcha jazolar: xivich, qamchi bilan savalash va xochga tortishdan ozod bo‘lish huquqi; armiyada xizmat qilish huquqi. 2. Xususiy hayotda: qonun e’tirof etgan to‘laqonli nikohga kirish; savdo aylanmasiga ishtirok etish; turli xil bitimlar tuzish; vasiyat qilish qobiliyatiga ega bo‘lish; o‘z mulkini tasarruf qilish va vasiyatga ko‘ra mulkka ega bo‘lish; o‘z manfaatlarini himoya qilish shakllaridan foydalanish huquqi. Rim fuqaroligi ma’lum bir majburiyatlarni bajarish ko‘zda tutilgan, ya’ni harbiy-militsiya xizmatini o‘tash; senzga tegishli bo‘lish majburiyati mulkini va daromadlarini hisoblash; tributning favqulodda davlat zaruriyatlari uchun yig‘iladigan alohida soliqni to‘lash va bosib olingan xalqlarning yerlariga egalik qilishdan oqilona foydalanish. Fuqarolik huquqi qonuniy nikohda bo‘lgan Rim fuqarolaridan tug‘ilish bilan, Rim fuqarosi tomonidan asrandi o‘g‘il bo‘lish, erkinlikka qo‘yish va taqdirlash orqali olingan. Rim fuqarosining o‘g‘li tug‘ilishi bilan Rim fuqarosi huquqini olgan.

Tug‘ilishidan Rim fuqarosi huquqiga ega bo‘lmagan Rim davlatining ozod aholisi bu huquqni 25 yil yordamchi qo‘shinda, 26 yil dengiz flotida xizmatni o‘tib iste’foga chiqishlari bilan olganlar. Ozod qo‘yilgan qullar Rim shahrida o‘t o‘chiruvchilar kogortasi tarkibida ma’lum muddat xizmatni o‘taganlaridan so‘ng Rim fuqarosi huquqini olganlar. Boshda Rim fuqaroligi huquqini podshohlar, keyin senturiat komissiyalari, so‘ng tribut komissiyalari va ayrim hollarda Rim lashkarboshilari berganlar. Prisipat davrida imperatorlar shaharlar va qishloq jamoalari aholisiga Rim fuqaroligini hadya etdi. Imperator Karakalla Rim imperiyasida yashovchi barcha ozod kishilarga Rim

fuqaroligi huquqini berdi. Noqonuniy asosda o‘zini fuqarosi qilib ko‘rsatgan kishini Eskvilin maydonida qatl etgan. Rim fuqarosi og‘ir jinoyati uchun urushda dushmanga asir tushganda, dushman tomonga o‘tganda Rim fuqaroligi huquqidan mahrum etilgan.

3. Mil. avv. VI – III asrlarda Italiyaning iqtisodiyoti. Mil. avv. VI – III asrlarda Italiya hududlarining iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti notekis bordi. Etruriya va Kampaniya viloyatlari, Janubiy Italiyadagi yunon koloniyalarining iqtisodiyoti yaxshi rivojlandi. Latsiya viloyati qo‘shni etrusk shaharlari va yunon koloniyalaridan qoloq edi. Italiyaning tog‘li hududlaridagi qabilalar ibtidoiy urug‘ jamoa sharoitida yashar edilar. To‘qimachilik zaif rivojlangan edi. Qul mehnatidan faqat konchilikda, tosh qazib chiqarishda keng foydalanilgan.

Italiyada ommaviy hunarmandchilik sohalaridan biri kulolchilik edi. Bu sohada turli xil idish tovoqlar, suv quvurlari, cherepitsa, xom g‘isht, chiroqlar, etrusk qora rangli «bukkero» bo‘rtma bezakli idishlari mashhur edi. Kulolchilikning eng katta markazlari Kluziya, Arretsiya va Kalax edi. Mil. avv. VI – V asrlarda etrusk shaharlarida savdo-hunarmandchilik gullab-yashnadi. Ayniqsa, metallurgiya va metallga ishlov berish, shuningdek, kulolchilikda etrusklar katta yutuqlarga erishdilar. Etrusk va kampan jez idishlariga Bolqon Yunonistonida ehtiyoj katta edi. Mil. avv. VI – III asrlarda asosiy savdo-hunarmandchilik markazlari Sirakuza, Tarent, Dikearxiya (Puteola), Populoniya, Adriya va Spina edi. Rimning savdo ko‘rsatkichi o‘sdi. Har yili katta diniy bayramlar vaqtida Etruriyaning markazi Volsiniya va Latsiyaning 4 viloyat bilan tutashgan chegarasida savdo yarmarkalari uyushtirilgan.

Mil. avv. VI – III asrlarda tashqi savdo yuksaldi. Savdo asosan suv yo‘li bilan amalga oshirildi. Mil.

avv. VI asrda dengiz savdosiga Rim ham qo‘shildi. Tibr daryosi boshlanishida Rimning Ostiya portiga asos solindi. O‘sha vaqtning eng katta dengiz davlati Karfagen bilan Rim mil. avv. 509, 348 va 279-yilllarda uch marta savdo shartnomalarini tuzdi. Etrusklar va Janubiy Italiya yunonlari, gallar, Bolqon Yunonistoni, Kichik Osiyo bilan savdo aloqalarini o‘rnatdilar. Il va Populoniyadan qazib olingan temir Kampaniya va etrusk shaharlariga yetkazib berilar edi.

Mil. avv. IV – III asrlarda Rim shahrida obodonchilik, qurilish ishlari avj oldi. Senzor va keyin konsul lavozimlarini egallagan. Mil. avv. 292-yilda diktator bo‘lgan Appiy Klavdiy davrida senat ilgarigi xarajatlarda o‘ta tejamkorlik siyosatidan voz kechdi. Katta xarajat talab qilgan qimmat, lekin foydali inshootlar qurdirdi. Italiyaning turli hududlarida a‘lo yo‘llar, jumladan, mashhur Appiy yo‘li, Rimdagi suv quvuri qurildi. Botqoq yerlar quritilib, ekinzorlarga aylantirildi. Appiy Klavdiy huquqshunoslikni ham rivojlantirishga shart-sharoit yaratdi.

Italiya xo‘jaligining yetakchi sohasi dehqonchilik edi. Etruriyada unumdor tuproq, yumshoq iqlim, yuqori agronomiya madaniyati va agrotexnika taraqqiyoti yuqori hosil olishni ta‘minlar edi. Bu yerda bug‘doy, arpa, tariq, polba, Kampaniya va Janubiy Italiyada uzumchilik, zaytun daraxti keng tarqalgan edi. Etruriya g‘allasi Rim va lotin shaharlarini, Buyuk Yunonistondan keltirilgan zaytun yog‘i Latsiya va Etruriyani ta’minlar edi.

Mil. avv. VI – III asrlarda jamoa yer egaligining yemirilishi bilan birga, yerga xususiy mulkchilik kuchaydi. Urug‘ning yerlari kichik ulushlarga bo‘linib, yer ishlov berish uchun qarindoshlar, kliyent va qullarga berilgan. Plebeylar davlatdan berilgan yuger 2 yuger (1 yuger – 25 sotixga teng)dan – 3 yugergacha yerga xususiy yer egasi bo‘lib, dehqonchilik qilgan-

lar. Xususiy va jamoa yerlaridan tashqari, davlat yer jamg‘armasi (ager publikis) mavjud edi. Rim fuqarosi davlat yerini katta bo‘lmagan ijara to‘lovi bilan okkupatsiya (lotincha egallash) qilish huquqiga ega edi. Patritsiylar bu huquqdan unumli foydalandilar. Plebeylar ham yuz yillik kurashlar natijasida «ager publikis»dan foydalanish huquqiga ega bo‘ldilar. Ilk respublika davrida Rim iqtisodiyotining asosi qishloq xo‘jaligi edi. Mayda va o‘rta yer egaligi yetakchi rol o‘ynagan. Mil. avv. IV asrdan patritsiylar jamoa yerlarini («ager publikus») bosib ola boshladilar. Natijada yirik xo‘jalik (imeniye)lar paydo bo‘lib, bu xo‘jaliklarda qullar mehnatidan ko‘proq foydalanila boshlandi.

Boshida qadimgi Italiyada ayirboshlashning keng tarqalgan vositasi bo‘lib, chorva hayvoni (pecus, shundan pulning lotincha nomi – pecunta) ayirboshlash vazifasini bajardi. Eng qadimgi davrdan boshlab Rimda mil. avv. III asrgacha pul sifatida og‘irligi 2-2,5 kg gacha bo‘lgan, ishlov berilmagan mis parchasi (aez rude) yurar edi. Ularni mil. avv. V asrdan og‘irligi 1000 – 1830 gramm bo‘lgan, xudo va hayvonlar tasviri tushirilgan quyma jez parchalari siqib chiqara boshladi. Mil. avv. IV – III asrlarning II yarmidan 327,45 gramm og‘irlikdagi jezdan quyilgan (aes grave) tangalar keng tarqaldi. Mil. avv. IV asrning II yarmidan natural xo‘jalik o‘rniga pul-tovar xo‘jaligi keldi. Rim pul birligi – mis ass paydo bo‘ldi. Dastlab bu tangalar Yunon Moneta ibodatxonasida zarb qilinadi. Shundan «moneta» so‘zi kelib chiqdi.

Mil. avv. III asr oxiridan ass 10 marta yengillashib, 173 grammga keldi. Jez tanganing tressis, dupondiy, semis kabi turlari mavjud edi. Mil. avv. III asrdan Rimda kumush tangalar, jumladan, denariy (4,55 gramm) va sestersiy (1,13 gramm) zarb qilina boshlandi.

RESPUBLIKA DAVRIDA DAVLAT QURILISHI

1. Rim magistraturasi.
2. Plebeylar xalq yig‘ini.
3. Senat.
4. Konsul.
5. Diktator.
6. Senzor.
7. Prokonsul, prokurator.
8. Xalq tribuni. Edillar. Kvestorlar.
9. Kohinlar.

Rimda respublika davlat boshqaruvi tizimi birdaniga shakllanmadi. Uning shakllanishi asta-sekinlik jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan birga bordi. Rim magistratura tizimining tugallangan shakli mil. avv. IV asr II yarmida yuzaga keldi.

1. Rim magistraturasi. Rimda amaldorlar apparati yo‘q edi. Barcha ijroiya hokimiyat saylanadigan lavozimli shaxslarga – magistratlarga tegishli edi. Magistrat – (magister boshliq) so‘zidan olingan. Qadimgi rimliklar hukumat lavozimlari va lavozimni bajarganlar nisbatan magistratus atamasini ishlatganlar. Rimliklar bu atama bilan munisipiy va kolonuyalarda saylangan lavozimdagi kishilarni belgilaganlar. Qadimgi Rimda magistrat – bu amaldor emas, Rim xalqining bir zarrasi, uning huquq va ulug‘vorligini ifodasi bo‘lgan. Magistratning faoliyatining ana shu tushunchasidan hokimiyatning mazmuni va magistratlarning vakolatlari kelib chiqadi. Ular goyoki, xalq tomonidan magistratlarga berilgan bo‘lib, Rim xalqining begonalashtirilgan suverenitetining bir zarrasi edi.

Respublika tuzumi o‘rnatilishi bilan barcha mansablar xalq yig‘inlarida saylangan. Mansablar magistrat deb atalgan. Magistratuta (mansablar) ordinar

(odatdagi) va ekstra ordinar (favqulodda) shakllarga bo‘lingan. Magistrant xalq tepasida turadi. Xalq bilan birga «davlatning ulug‘vorligini» tashuvchisi bo‘ladi. Rim fuqarosi uchun magistrat lavozimini o‘tash xizmat emas, faxr, sharaf edi. Barcha magistratlar bir yil muddatga (diktatordan tashqari) saylangan. Lavozimga saylangan fuqaro o‘z vazifasini ish haqi olmay beg‘araz bajargan. Barcha lavozimlar (diktatordan tashqari) kollegial bo‘lgan. Hokimiyatning umumiy tushunchasi potestas atamasi bilan belgilangan. Qo‘shin oliy qo‘mondonligi, oliy fuqarolik hokimiyati, ma’lum bir diniy funksiyalarni o‘z tarkibiga oladigan Oliy hokimiyat imperium (oliy) nomini olgan.

Magistratni haqorat qilish, Rim xalqining ulug‘vorligini haqoratlash bilan tenglashtirilgan. O‘z lavozimiga turgan vaqtda magistratni javobgarlikka tortish, lavozimidan tushirish mumkin emas edi. Vakolatlarini topshirgandan keyingina sobiq magistratni sudga tortish mumkin edi.

Rim konstitutsiyasiga ko‘ra, «Rim xalqining ulug‘-vorligi» vakili sifatida magistrat alohida ma’muriy va huquqiy mavqega ega edi. Uning faoliyati Rim fuqarosi uchun faxriy vazifa (honor) hisoblanib, undan bosh tortish mumkin emas edi. Lavozim vazifasini bajarish amalga oshirilgan. Barcha lavozimlarga xos bo‘lgan umumiy jihatlar: (diktator, interreks va otliqlar boshlig‘idan tashqari) xalq tomonidan saylangan. Barcha davlat lavozimlari fuqaro uchun faxr bo‘lib, beg‘araz, ya’ni ish haqi olmay bajarilgan; lekin davlat xazinasidan magistratlarga ma’lum bir mablag‘ xizmatdagi xarajatlarni qoplash uchun berilgan (misol uchun edillarga o‘yin va tomoshalarni uyushtirish, senzorlar uchun qurilish ishlarini bajarish uchun). Rim shahridan tashqarida faoliyat uchun magistratlar davlatdan kiyim-kechak, pul mablag‘i, kemalar va h.k. olganlar. Mansablarga haq to‘lanmasligi oddiy

Rim fuqarolarini magistratura lavozimlarini egallashga imkoniyat bermadi. Aksincha, davlat vazifalariga saylanish va uni bajarish uchun fuqaroning o‘zi katta miqdorda mablag‘ga ega bo‘lishi shart edi. Chunki lavozimni bajarish uchun kotiblar, choparlar, qo‘riqchilar, quyi tabaqa xizmatchilarni yollab, ularga ish haqi berish kerak edi. Shu sababli, boy kishigina magistrat bo‘lishi mumkin edi.

Jamoaviylik. Magistraturalar kollegial bo‘lib (2 konsul, 2 pretor, 4 edil, 10 xalq tribuni, 2 senzor va 4 kvestor), bu lavozimlarni bajarish bir yil muddat bilan cheklangan. Lavozimlar har yili qayta saylangan (faqat senzorlar bir yarim yil, diktatorlar yarim yil). Konsullar, pretorlar, kvestor va edillar lavozimga 1-martdan (mil. avv. 153-yilgacha, keyin 1-yanvardan), plebey tribunlari esa, 10-dekabrdan lavozimni bajarishga kirishar edilar. Respublika davrida saylanadigan lavozimga ega bo‘lish uchun nomzodlar quyidagi shartlarni bajarishlari lozim edi: 1.Nomzod komissiyalargacha shaxsan o‘zi ariza berishi lozim edi; 2.Nomzod lavozimni egallash uchun qonunda belgilangan yoshga yetgan bo‘lishi lozim edi; 3.Ko‘rkam, benuqson qaddi-qomatga ega bo‘lishi; 4.Lavozimlarni bajarishda pastdan yuqoriga borish tartibi; 5.Alohida lavozimlarni bajarishda ma’lum bir belgilangan vaqt o‘tishi lozim edi. Lavozimlar juftlikda saylangan, bu lavozimda ishlaydigan kishilar o‘zaro maslahatlashib bir xil qaror qilganlar. O‘z juftligida qabul qilingan qarorga e’tiroz bildirish mumkin bo‘lgan. Barcha lavozimdagilar o‘z ishi uchun mas’uliyat his qilishi lozim bo‘lgan. Fuqaro lavozimni bajarishda mas’uliyatsizligi uchun lavozimni bajarish muddati tugashi bilan xalq yig‘ini sudiga tortilishi mumkin bo‘lgan.

Dastlab sud hokimiyati ikki pretorga tegishli edi. Harbiy qo‘shin ta’minoti (intendant) qismi va harbiy o‘lja to‘rt kvestor (mil. avv. 267-yildan sakkiz kves-

tor), shahar obodonchiligi, ta'minoti, tartibni saqlash, jamoat bayramlarini tashkil etish to'rt edilga tegishli edi. Plebeylarning manfaatini 10 plebey tribunlari himoya qilar edi. Xalq tribunlari triblar bo'yicha plebey yig'inlarida saylangan. Xalq tribuni lavozimi faqat plebeylarga tegishli edi. Dastlab ikki tribun saylangan. Keyin esa, ularning soni 10 taga yetdi. Tribunlarning asosiy vazifasi plebeylarning manfaatlarini himoya qilish edi. Xalq tribunlari diktator va senzordan tashqari barcha magistratlarning faoliyatiga aralashish huquqiga ega edilar. Uning veto (taqiqlayman)si magistratning farmoyishi, xalq yig'ini va senatning qarorini bekor qilgan. Xalq tribunlariga magistratni qamash huquqi ham tegishli edi. Tribunning turar joyi har qanday plebey uchun yashirinish joyi edi. Tribun uyi tun-u kun ochiq bo'lishi lozim edi. Lekin shahar chegarasidan tashqarida tribunlar o'z hokimiyatini yo'qotar edi. Tribunlar senat qaroriga norozilik bildirishlari mumkin edi, lekin dastlab ular senatda so'zlash huquqiga ega emasdilar.

Tribunlarga senat majlisi bo'layotgan bino eshiklari oldida turishga ruxsat berilgan. Keyinchalik ular senatga kirish, munozaralarda ishtirok etish, hatto senat majlislarini chaqirish huquqiga ega bo'ldilar. Tribunlar bilan boshda xalq tribunlari yordamchilari – plebey edillari lavozimi kiritildi. Plebey edillari komissiyalarida saylangan. Rim respublikasi komissiyalari tuzilmasida demokratik an'analar kuchaygan bo'lishiga qaramasdan boshqaruvdagi hal qiluvchi rolni senat va magistratlar o'ynadilar. Bu Rim respublikasi aristokratik mazmunining ifodasi edi.

2.Xalq yig'ini. Rim respublikasida oliy davlat organi – xalq yig'ini hisoblangan. Xalq yig'ini qonunlarni qabul qilish va bekor qilish, urush e'lon qilish va sulh tuzish, oliy mansabdor shaxslar – magistrat (magister – boshliq)larni saylar edi. Shu bilan bir-

ga, u oliy sudning tashkiloti edi. Rim xalq yig‘inlarini demokratik mohiyati va ularning keng vakolatiga qaramay, eng demokratik tribut komissiyalari ham aristokratiya qo‘lida qurol bo‘ldi. Xalq yig‘ini faqat senatda muhokama qilingan, magistratlar kiritgan masalalarnigina muhokama qilar edi. O‘lim jazosiga hukmni xalq chiqargan. Davlatlararo shartnomani tuzish va uni bekor qilish, sulh tuzish xalq yig‘ini ixtiyorida edi. Faqat xalq yig‘ini Rim fuqarosiga o‘lim jazosi berishga haqli edi. Komissiyalar qonunchilik tashabbusi huquqiga ega emas edi.

3.Senturiy komissiyalari. Rimda xalq yig‘inlari yoki komissiyalarning uch ko‘rinishi mavjud edi. Serviy Tulliy islohotlarigacha Kuriya komissiyalari mavjud edi. Serviy Tulliy qurolli xalq yig‘ini – senturiy komissiyalarini kiritdi. Tezda ular Kuriya komissiyalarini siqib chiqardi. Senturiy komissiyalari konsullar tomonidan Rim shahridan tashqaridagi Mars maydonida chaqirilar edi. Barcha Rim fuqarolari 193 senturiy, eng boy I toifa 98, jami senturiylarning yarmidan ko‘p senturiy qo‘yar edi. Ovoz berish senturiylar bo‘yicha o‘tkazilib, har bir senturiy bir ovozga ega edi. Ovoz berish qat’iy qabul qilingan tartibda: dastlab I toifa senturiylari, keyin II, III va hk. ovoz berar edi. Agar taklif qilinayotgan masala bo‘yicha senturiylar ovozining 50% idan ko‘proq ovozi berilsa, ovoz berish to‘xtatilib, taklif qonun kuchiga kirar edi. Bunday ovoz berish tartibi bo‘yicha barcha masalalarni Rim fuqarolarining boy qismi bo‘lgan I toifaning 98 senturiylari hal qilar edi. Bu komissiyalarda pretorlar, konsullar va senzorlar saylanar edi. Ovoz berishning mulk senziga asoslanishi demokratik saylov tizimi tarafdorlarining noroziligiga uchradi.

Rim respublikasi oqsuyak zodagonlar manfaatlariga xizmat qiladigan aristokratik davlat edi. Qonunchilik tashabbusiga ega bo‘lmagan senturiy yig‘i-

lishlarini jamiyatning patritsiy qatlamlarini vakili (konsul, diktator, pretor) chaqirishi mumkin edi. Bu komissiyalarning biror-bir qarori «patres» – senat tomonidan tasdiqlanmasa, kuchga kirmas edi.

Mil. avv. 471-yildan Kuriya va senturiy yig‘inlari namunasidagi plebey yig‘inlari chaqirila boshlandi. Plebey yig‘inlarida qabul qilingan qarorlar «plebitsit» faqat plebeylar uchun majburiy edi. Plebey yig‘ilishlarida dastlab tribut yig‘imi va armiyaga odam olishni ta’minlash ishlari, yo‘llar, suv havzalarini qurish va ularni ta’mirlash sessiyalardan keyin amnistiya, plebey magistratlari, sudxo‘rlik va boshqa ishlar ko‘rilgan. Boshida plebey yig‘inlarida faqat dehqon-plebeylar ovoz berish huquqiga ega edilar.

Mil. avv. 312-yildan esa bu huquqga yerga ega bo‘lmagan plebeylar ham ega bo‘ldilar. Sitseron davridan boshlab plebey yig‘inlari davlat yerlarini fuqarolar o‘rtasida taqsimlash ishlarini ko‘ra boshladilar. Senzorlar tuzgan shartnomalarni bekor qilishlari mumkin edi. Ana shu tarzda plebey yig‘inlari senat va magistratlarning vakolatlariga aralashishlari mumkin edi. Ilk imperiya davrida plebey yig‘inlari mavjud edi, lekin tribun hokimiyatiga ega bo‘lgan imperator tomonidan beriladigan ishlarni korishi mumkin edi.

Mil. avv. 241-yilda senturiy komissiyalari islohoti o‘tkazildi. Endilikda har besh toifadan 70 senturiy qo‘yiladigan bo‘ldi. Ularga suvoriylarning 18 senturiylari, hunarmandlarning 4 senturiy va proletarlarning 1 senturiysi qo‘shiladigan bo‘ldi. Jami 370 senturiy (avvalgi 193 o‘rniga). Patritsiylar va plebeylarning kurashi jarayonida plebeylarning hududiy okrug – triblar bo‘yicha tribut komissiyalari muhim ahamiyatga ega bo‘ldi (Rim hududi hududiy jihatdan 4 shahar va 31 qishloq tribiga bo‘lingan). Tribut komissiyalarida edillar, kvestorlar va plebey tribunlari saylanar edi.

Senturiy komissiyalari quyidagi vakolatlarga ega edi: Senturiat komissiyalarida konsullar, pretorlar, konsul vakolati bilan harbiy tribunlar, sensor va triumvirlar saylangan.

Mil. avv. 287-yilda qabul qilingan Meniy qonunigacha xalq tomonidan saylangan magistratlar senat tomonidan tasdiqlanar edi. Meniy qonuni qabul qilingach, senat xalqning qarorini oldindan ma'qulladi. Komissiyalarda magistratlar taklif qilgan qonunlar tasdiqlanar edi. Komissiyalar sud hokimiyatiga ega bo'lib, jinoyat ishlari sohasida o'lim jazosiga olib boradigan muhim jinoyatlar ko'rilar edi. Ular davlatga qarshi barcha jinoyatlarni ko'rib chiqishlari kerak edi. Davlatga xiyonat, Rim xalqining ulug'vorligini haqoratlash, Rim fuqarosi hayotiga tegishli ishlar faqat shu sudda ko'rilgan. Senturiy komissiyalarining sud ishlari bo'yicha qarorlari bekor qilinishi mumkin emas edi. Senat qarori asosida urush to'g'risidagi qaror ham senturiy komissiyalarida qabul qilingan.

Xalq yig'ini qabul qilgan har qanday qonun barcha fuqarolar va konsullar tomonidan bu qonunga rioya qilish qasami bilan mustahkamlangan. Qonun matni mis taxtaga o'yib yozilib, davlat arxivi – erariyda saqlangan. Imperator Vespasian Rimda yong'in paytida erib ketgan 3 000 ana shunday mis taxtalarini qayta tiklagan. Rim qonunlari ikki ko'rinishda bo'lgan: oliy yuridik kuchga ega bo'lgan xalq yig'ini qabul qilgan qaror yoki qonun, ya'ni Rim xalqining qarori, Rim jamoasining plebey qismining farmon va qarori – plebiscitum. Gortenziy qonuni bo'yicha plebey qarorlari qonun kuchiga tenglashtirildi. Qabul qilingan qonun ushbu qonun loyihasining tashabbuskori bo'lgan oliy lavozim – magistratning urug'i nomi bilan nomlangan.

4.Senat. Antik mualliflarning ma'lumotlariga ko'ra, Romul maslahat organi sifatida Rim urug'lari vakillari – katta patriarxal oila boshliqlari bo'lgan

keksalardan tashkil topgan (senex so‘zidan – «keksa», «oqsoqol») senatni ta’sis etgan. Podshohlik davrida senat podshoh oldidagi davlat kengashi edi. Bu senat podshohning vafotidan so‘ng oraliq davrda yangi podshohni saylagan, xalq uning hokimiyatini kuriya komissiyalarida ovoz berish bilan uning hokimiyatini tasdiqlagan.

Podshohlik davrining oxirida patritsiy urug‘lari oqsoqollari kengashi bo‘lgan senatning funksiyalari o‘zgardi. Mil. avv. 509-yilda podshoh hokimiyati qulagandan so‘ng, senatning davlatni boshqarishdagi mavqeyi kuchaydi. Respublika davrida senat tarkibi 300 senatordan iborat bo‘ldi. Senatorlarni saylash podshohlar ixtiyoridan konsullar, konsul hokimiyatiga ega tribunlar qo‘liga o‘tdi. Ikkala konsulni o‘z vazifasini o‘tab bo‘lganidan so‘ng, senat tarkibiga kirishi an’anaga aylandi. Bu an’ana asta-sekin boshqa magistratlarga ham tarqaldi. Mil. avv. IV asrdan vakolatlari muddati tugagan oliy mansabdor magistratlar senat tarkibiga kirar edilar. Bu jarayon Sulla davrida nihoyasiga yetdi. Qabul qilingan qonunga ko‘ra, senat tarkibi har yili 20 sobiq kvestor bilan to‘ldirilgan.

Senat harbiy ishga, tashqi siyosatga, moliya ishlari va davlat mulkiga rahbarlik qilar edi. Davlat xazinasi senat ixtiyorida bo‘lib, u kirim va chiqim ustidan to‘la nazorat qilgan. Kvestorlar har qanday ehtiyoj uchun ishlatiladigan pul mablag‘ini konsullarning talabidan tashqari faqat senat ruxsati bilan amalga oshirganlar. Rim davlatining eng katta miqdordagi pul mablag‘lari jamoat binolarini ta’mirlash va qurilishiga ajratigan. Har besh yilda bu sohaga bir marta ajratiladigan mablag‘ faqat senatning ruxsati bilan berilgan. Senat hukumat vazifasini amalga oshirdi. Davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan sud ishlari (davlatga xiyonat, zaharlash fitna, yashirin odam o‘ldirish jinoyatlari) senat tomonidan ko‘rilgan. Italiyadagi shahar

yoki alohida odamlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar, jazo, yordam yoki himoya qilish so‘ralgan murojaat ishlarini senat ko‘rgan. Senat diniy e’tiqod ustidan nazorat qilib, favqulodda holat e’lon qilish huquqiga ega edi. Mil. avv. 287-yilgacha har qanday qonun loyihasi senatda muhokama qilinganidan keyingina xalq yig‘ini muhokamasiga olib chiqilar edi. Xalq yig‘inida qabul qilingan qonun faqat senat tasdiqlaganidan keyingina kuchga kirar edi. Shunday qilib, senat o‘ziga kerakli yo‘nalishda xalq yig‘ini faoliyatiga rahbarlik va nazorat qilar edi. U tashqi siyosatga ham rahbarlik qilib, urush e’lon qilgan. Elchilarni qabul qilgan va chet elga Rim elchilarini jonatgan.

Mansabga saylangan magistratlar o‘z faoliyati uchun senat oldida hisobot berar edilar, shu bilan senatning irodasiga tobe edilar. Senat ruxsat bermasa va tegishli mablag‘ ajratmasa Rim lashkarboshilari zafar yurishi tantanasini o‘tkaza olmaganlar. Davlatga xiyonat, fitna, yashirin odam o‘ldirish, zaharlash kabi davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan ishlar senat ixtiyorida edi. Bundan tashqari, Italiyada biror fuqaro, shahar yoki hudud biror bir ixtilofda yordamga muhtoj bo‘lsa senat bu ishlarga mutasaddi bo‘lgan. Chet davlat elchilarini qabul qilish yoki qilmaslik va ularga qanday munosabatda bo‘lish ham uning ixtiyorida edi.

Senatning Rim davlatchiligi va Rimning asrlar davomida g‘arbda qudratli davlat sifatida yetakchi bo‘lishidagi roli va o‘rni beqiyos bo‘ldi. Rim davlatchiligi tizimi va tuzilmasining barqarorligini ta’minlash maqsadida senat Rimning ichki va tashqi siyosatini asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi va davlatni boshqardi. Senat tomonidan Rim jamiyati ongiga Rimning ulug‘vorligi, barcha xalqlar va mamlakatlar Rim manfaatlari uchun xizmat qilishi lozimligi g‘oyasini singdirilishi Rimning tashqi siyosatini agressiv va

ekspansiv mohiyatini ta'minladi. Buyuk davlatchilik g'oyasi Rim jamiyati ongida shovinistik kayfiyatni yuzaga keltirildi. Senat o'zi ishlab chiqqan tashqi siyosat dasturini hayotga tatbiq etilishini qat'iy nazorat qildi va yo'naltirdi. Rimda mutlaq monarxiya o'rnatilishi bilan senatning mavqeyi tushib ketdi va Rim davlatchiligining zaiflashuvi boshlanib, 476-yilda uning halokati bilan tugadi.

Senator. Mil. avv. 312-yil Oviniy qonuniga ko'ra, senatorlar ro'yxatini tuzish senzorlar qo'liga o'tdi. Senatorlar ro'yxati ilgari 1 yilga tuzilgan bo'lsa, endilikda 5 yil muddatga tuzildi. Mil. avv. 9-yildan senat ro'yxati har yili qayta ko'rila boshlandi. Ilk respublika davrida Rim fuqarosining uchinchi avlodi vakili senator bo'lishi mumkin edi. Senatorlar ro'yxati senzorlar tomonidan ilgari magistratura lavozimini egallagan yoki egallab turgan kishilardan ma'lum bir mulk senzi asosida tuzilgan. Senator unvoni umrbod edi. Senatorlarning boylik to'plashga urinishi qoralanar edi. Senatorlarga yirik dengiz savdosi olib borish, 300 amfora (ko'za)dan ko'p joylashadigan kemaga ega bo'lish taqiqlangan edi. Lekin mil. I asr o'rtalaridan bu taqiqlarga rioya qilinmadi.

Prinseps. Senat ro'yxatida birinchi o'rinda turgan kishi prinseps senatus (senat prinsepsi) podshoh davrida bir vaqtning o'zida xalq qo'riqchisi (gustos urbus) bo'lgan. Senatorlar ro'yxati senzorlar tomonidan tuzilgani uchun birinchi navbatda ro'yxat boshida sobiq senzorlardan eng keksasi qo'yilgan. Senator prinseps ba'zida umrining oxirigacha turgan. Odatda, har besh yilda bir marta senat ro'yxati qayta ko'rilganda, ro'yxat boshida kim turishi ko'rib chiqilgan. Senzorlar agar oldingi besh yilda ro'yxat boshida turgan senat prinsepsi bu o'ringa loyiq bo'lsa, u yana besh yil ro'yxatda birinchi bo'lib qolgan. Senat prinsepsi hech qanday hokimiyat va imtiyozga

ega bo‘lmagan. Senat majlisida prinseps ma’ruzachi konsul taklifi bilan birinchi bo‘lib o‘z fikrini bildirishi, o‘z obro‘si bilan ko‘riladigan ishga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan. Prinseps senat nomidan chet davlat elchilarini kutib olgan, diplomatik xat-xabarlarga imzo chekkan. Sulla davridan keyin senat prinsepsi tugatilib, senatorlar o‘zaro kelishuv asosida o‘zlarining orasidan bir kishini ro‘yxatda birinchi o‘ringa qo‘yganlar. Va bu konsulyar yil davomida senat majlisida birinchi bo‘lib so‘zga chiqqan. Mil. avv. 29-yilda senatorlar ro‘yxati qayta ko‘rilganda, Oktavian senatorlar ro‘yxatida o‘z nomini birinchi qo‘ygan.U o‘zining «faoliyati» to‘g‘risidagi yozuvlarida 40 yil davomida senat prinsepsi bo‘lgani to‘g‘risida yozib qoldiradi. Senat ro‘yxatida prinsepsdan keyin senzorlar, keyin konsullar va pretorlar turar edi. Oliy magistratlar: diktator, konsullar va pretorlar senat majlisini chaqirish huquqiga haqli edilar. Senatning qarori senatus konsul (senatus konsultum) yoki dekret (dekretum – qaror) deyilar edi.

5.Konsul. Mil. avv. 509-yildan Oliy ijroiya hokimiyati bir yil muddatga saylanadigan ikki konsul qo‘liga o‘tdi. Dastlab ular pretor (oldinda yuruvchilar) deb atalar edi. Farazlarga ko‘ra, respublikaning birinchi yillarida ijroiya hokimiyatning boshida bir oliy magistrat – pretor bo‘lib, unga o‘rinbosari – kvestor yordam bergan. Plebeylar Muqaddas toqqa birinchi chiqib ketishlaridan so‘ng, ikki pretorning yordamchilari xalq tribunlari va plebey edillari lavozimlari joriy qilindi. Ammo ijroiya hokimiyatga pretorning yagona rahbarligi va u tomonidan hokimiyatni bosib olinish imkoniyati xavfi tug‘ildi. Shuning uchun mil. avv. V asr o‘rtalarida bir oliy magistrat lavozimiga ikki kishi saylanadigan bo‘ldi. Bu oliy lavozim faqat mil. avv. 305-yildan konsul deb atalib, toki G‘arbiy Rim imperiyasining halokatigacha barcha qabul qilgan

unvon bo‘lib qoldi. Konsullar bir xil hokimiyatdan foydalandilar va birgalikda boshqardilar. Konsullar boshqarishda bir-birlari bilan maslahatlashib ish ko‘rganlar. Shuning uchun ular konsullar (consulo – maslahatlashaman so‘zidan olingan) deb ataldilar. Lisiniy va Sekst qonuni bo‘yicha mil. avv. 367-yildan konsullardan biri plebeylardan saylana boshladi. Konsullar oliy mansabdor shaxslar bo‘lib, ularga oliy fuqarolik hokimiyati – imperium majus tegishli bo‘lgan. Bu oliy lavozim faqat mil. avv. 305-yildan konsul deb atalib toki G‘arbiy Rim imperiyasining halokatigacha barcha qabul qiladigan unvon bo‘lib qoldi.

Konsullarni senturiy yig‘inlarida patritsiylar orasidan saylar edilar. Konsul saylovini o‘tkazish uchun maxsus tayinlangan konsul yoki diktator rahbarligi ostida o‘tkazilgan. Saylov o‘tishi bilan u o‘z hokimiyatini topshirgan. Yil boshidan saylangan konsullar ordinar konsul deb atalgan. Vafot etgan yoki bu lavozimdam voz kechganlar o‘rniga saylanganlar suffekt deb atalgan. Podshoh haydalgandan keyin birinchi konsullar shahar prefekti rahbarligida senturiy komissiyalarida saylangan. Konsullar saylovi, odatda, iyul oyida yoki undan oldinroq o‘tkazilgan. Saylangan ikki konsulning har biriga qo‘liga chiviq garamiga tiqilgan bolta bilan 12 liktor hamrohlik qilgan.

Konsullar xalq yig‘inlarini chaqirganlar, xalq yig‘inida ko‘riladigan masalalarni taklif qilganlar xalq yig‘ini qabul qilgan qarorlarni amalga oshirganlar. Ular Senat va komissiyalarni chaqirar edilar hamda qonunchilik tashabbusiga ega edilar. Konsullar hokimiyati faqat biri ikkinchisining qaroriga veto (taqiq) qo‘yishi bilangina cheklangan. Amaliy hayotda esa, konsullar hukmron tabaqalar manfaatlari va Rim davlatining oliy organi-senat bilan hisoblashgan holda o‘z faoliyatlarini amalga oshirganlar. Konsullar senat oldida hisobot berganlar. Rimdan tashqarida

konsul cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘lgan. Shaharda esa konsullarning huquqi ma’lum bir normalar bilan cheklangan. Konsullar ittifoqchilardan nimani zarur deb topsalar shuni talab qilganlar. Harbiy tribunlarni tayinlaganlar va harbiy xizmatga yaroqli bo‘lgan fuqarolarni askarlikka olganlar. Konsullar roziligisiz senat komissiyalari to‘plana olmas edi. O‘zlari esa, o‘z xizmat majburiyati vazifalarini bajarish davrida har qanday sud javobgarligidan ozod edilar.

Xalq tribunlaridan tashqari barcha mansabdor shaxslar konsulga so‘zsiz bo‘ysunganlar. Ular urush vaqtida qo‘shin qo‘mondoni vazifasini bajarganlar. Urushga tayyorlanishda konsullar cheksiz hokimiyatga ega bo‘lganlar. Harbiy qarorgohda harbiylarni jazolash huquqiga ega edilar. Davlat xazinasidan kerakli mablag‘ni olib sarflash huquqiga ega edilar. Konsullik lavozimining bu vakolatlari respublika davriga tegishli. Rimda so‘nggi konsul 536-yilda, Vizantiya imperiyasida 541-yilda bo‘lgan.

6.Diktator. Ekstraordinar magistraturaga diktator lavozimi kiradi. Mil. avv. 507-yilda Rim tarixida ilk bor favqulodda vakolatlar berilgan mansabdor shaxs-diktator saylandi. Diktator hokimiyati podshoh hokimiyatiga o‘xshash edi. Diktatorni rimliklar davlat uchun favqulodda xavf tug‘ilib qolgan paytda, (urush xavfi yoki ichki noroziliklar) yagona boshliqqa ehtiyoj bo‘lgandagina saylar edilar. Diktatorni rasman konsullar tayinlanganlar, amalda esa, uni senat saylar edi. Diktator to‘la hokimiyatga ega bo‘lib, uning farmoyishlariga xalq tribunlari veto (taqiq) qo‘ya olmaganlar. Diktator hokimiyati faqat muddat (faqat olti oygacha) bilan cheklangan. Barcha magistratlar uning qo‘l ostida o‘z vazifalarini bajarganlar. U butun hokimiyatga egalik qilgan. Diktator hokimiyati cheklanmagan edi. Boshda diktator patrisiylardan tayinlangan, plebeylardan birinchi diktator mil. avv.

356-yilda tayinlangan. Diktatorga o‘ziga yordamchi etib otliq qism boshlig‘ini tayinlangan. Diktatorga 24 liktor hamrohlik qilar edi.

7.Senzor. Mil. avv. 443-yildan boshlab senturiy komissiyalarida faqat patritsiylar ichidan ikki senzor saylanadigan bo‘ldi. Ular 5 yilda bir marta 18 oy muddatga saylanar edi. Senzorlar sobiq konsullardan saylangan. Ular Rim fuqarolarini mulk toifalariga kiritib, fuqarolarni trib va senturiyalarga taqsimlash ishini bajardilar. Mil. avv. 312-yildagi Oviniy qonuniga ko‘ra, senzorlar senatorlar tarkibini tekshirib, senatning yangi ro‘yxatini tuzish vazifalari berildi. Davlat moliyaviy boshqaruvida soliq, boj miqdorini aniqlash, jamoat ishlarini tashkil etish senzorlar vakolatiga kiritildi. Mil avv. 339-yildagi Publiy Filon qonuniga ko‘ra, 2 senzorning biri plebeylardan bo‘lishi belgilab qo‘yildi.

Senzorlarning qarorlari xalq tribunlari tomonidan bekor qilinishi mumkin emas edi. Senzorlarga konsul va pretorlarga o‘xshab imperium – oliy hokimiyat tegishli emas edi. Ular qo‘shinga boshchilik qilisha olmasdilar. Senzor lavozimiga obro‘-e’tiborli fuqarolardan saylangan. Ko‘pincha, oldin konsul lavozimini egallagan fuqarolar senzor etib saylanganlar. Mil. avv. I asrda yashagan siyosiy arbob va notiq Sitseron senzorlarni vakolati to‘g‘risida shunday yozgan: Senzorlar Rim xalqini yoshini, soni, avlodi, xizmatchilari va mulki hisobini olganlar. Rim shahri ibodatxonalari, yo‘llari, suv quvurlari, erariy, to‘lovlar tushumi bilan shug‘ullanganlar. Xalqni triblar bo‘yicha taqsimlaganlar, aholini mulki, toifasi va yoshiga ko‘ra bo‘ladi. O‘smirlarni otliq qismlar va piyodalarga bo‘ladi. Oilani farzandsiz qolishini taqiqlaydi. Xalqning axloqi ustidan nazorat qiladi, senatda o‘z obro‘sini to‘kkan kishilarni qoldirmaydi. Senzorlar Rim aholisini umu-

miy ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonini boshqarganlar. Senzorlar rimning yosh fuqarolariga uylanish majburiyatini qo‘yganlar.

Rim fuqarolari quyidagi hollarda senzorlar tomonidan jarimaga tortilgan: a) uylanish majburiyati qo‘yilgan, lekin rad javobini bergan yosh fuqaro jarimaga tortilgan; b)nikoh yoki unashtirishni asossiz buzgan fuqarolar; s)o‘z farzandlari va rafiqasiga nisbatan hurmatsizlik qilgan otalar, farzandlari va rafiqasiga nisbatan ortiqcha yumshoq munosabatda bo‘lgan ota, o‘z ota-onasiga hurmatsizlik qilgan farzandlar; d) tartibsiz yoki hashamatli turmush tarzini olib borgan Rim fuqarosi; e) yerga ishlov berishda loqaydlik yoki qo‘l uchida ishlov berish; f) Rim fuqarosiga to‘g‘ri kelmaydigan kasb-hunar bilan shug‘ullanish, misol uchun teatrda o‘ynash; g) merosga yoki yetimlarni merosdan mahrum qilish, tuzoq qo‘yish. Imperiya davrida sensor lavozimi bekor qilindi.

8.Prokonsul. Prokonsul lavozimi mil. avv. 327-yilda joriy etilgan. Prokonsul senatning Rim shahridan tashqaridagi topshiriqlarini bajargan. Bu lavozimga sobiq konsullar tayinlangan. Mil. avv III asrdan pretor bo‘lmagan kishi ham bu lavozimni egallagan. Prokonsul vakolati bir yil muddat etib belgilangan, ba’zida uzaytirilgan. Rimning bosqinchilik urushlari natijasida provinsiyalar paydo bo‘lishi bilan prokonsul provinsiyalardagi oliy hududiy, ma’muriy va harbiy hokimiyatni egallagan. Milodiy 27-yildan prokonsullar asosan senatga tegishli provinsiyalarni boshqarganlar.

9.Xalq tribuni. Xalq tribuni lavozimi mil. avv. 494-yilda plebeylarning birinchi sesessiyalari vaqtida ta’sis etildi. Qarzdorlik bo‘yicha shafqatsiz qonunchilik oqibatida plebeylar norozilik sifatida qurollanib, oilalari bilan shahardan chiqib ketdilar. Bu jarayon sesessiya, ya’ni ketish deb ataldi. Natijada plebeylar

o‘z manfaatlarini himoya qiladigan xalq tribuni lavozimini kiritilishiga erishdilar.

Tribun lavozimini egallash uchun ma’lum bir yosh talab qilinmas edi. Odatda, tiribunlar ilgari kvestor va plebey edili lavozimlarida ishlar edilar. Bu vaqtda ular 30 yoshda bolar edilar. Xalq tribunlari har yili iyul oyida triblar bo‘yicha o‘tkaziladigan plebey yig‘ilishlarida ozod tug‘ilgan plebeylar orasidan saylangan. Xalq tribuni lavozimiga faqat plebeylar saylanishi mumkin edi. Dastlab ikki tribun saylangan, keyin ularning soni o‘ntaga yetgan. Saylangan tribun 10-dekabrda lavozimni bajarishga kirishgan. Tribunlarning asosiy vazifasi patritsiylarning, davlat hokimiyati organlarida mutlaq hukmronligi sharoitida plebeylarning fuqarolik huquqi va tengligini himoya qilish edi.

Plebey tribunlari lavozimiga saylanishning asosiy maqsadi – patritsiy magistratlari tomonidan suiiste’mollardan himoyani ta’minlash edi. Bu vazifani bajarish uchun xalq tiribunlari shaxsi daxlsiz va muqaddas hisoblanib, bu daxlsizlikni buzgan har qanday aybdor qonundan tashqari e’lon qilinib, uning mol-mulki Serera ibodatxonasiga berilgan. Plebeylar manfaati uchun xalq tribunlari diktator va senzordan tashqari magistratlar faoliyatiga aralashishlari mumkin bo‘lgan. Xalq tribunlari diktator va senzordan tashqari barcha magistratlar faoliyatiga aralashish huquqiga ega edilar.

Xalq tribuni veto (taqiq)si bilan xalq yig‘ini va senat qarorini bekor qilish huquqiga ega bo‘lgan. U hatto magistratni qamoqqa olish huquqiga ham ega edi. Tribunlar plebey yig‘inlarini chaqirish huquqiga ega bo‘lgan. Ular plebey yig‘inlarini chaqirar, unga raislik qilar edilar. Lekin vaqt o‘tishi bilan tribunlar hokimiyati shu darajada kuchaydiki, u hukumat boshqaruviga hech qanday aloqada bo‘lmasa-da, tribunlar hokimiyati patritsiylar va ularning kliyentlarini o‘z ichiga oldi. Boshqa barcha magistratlar hokimiyatidan ustun

bo‘ldi va shunda tribunlar senat va oligarxik unsurlarga qarshi barcha Rim xalqining magistraturasiga aylandi. Tabiiyki, tribunlarga patritsiymi yoki plebeymi har qanday fuqaro yordam so‘rab murojaat qilishi mumkin edi. Imperiya davrida tribunlar shahar boshqaruvida ishtirok etdilar. Imperator Aleksandr Sever davrida tribun lavozimi bekor bo‘ldi.

10.Kvestorlar. Boshda kvestorlar konsullar tomonidan tayinlandilar va ular konsullarning yordamchilari edilar. Mil. avv. 447-yildan boshlab tribut komissiyalari to‘rt kvestorni saylay boshladi. Mil. avv. 409-yildan bu lavozimga plebeylar ham saylandilar. Kvestorlar davlat xazinasini boshqardilar, kirim-chiqim daftarlarini olib bordilar. Davlat arxivining saqlovchilari edilar. Harbiy yurishlarda konsullarga hamrohlik qildilar va qo‘shinning pul mablag‘ini boshqardilar. Hamda harbiy o‘ljani taqsimlash va sotish bilan shug‘ullandilar.

11.Pretor. Mil. avv. 366-yilda Litsiniy – Sekst qonuniga ko‘ra, patritsiylar o‘zlarining oralaridan bir kishini konsulning kichik hamkasbi, uning o‘rinbosari pretorni senturiy komissiyalarida saylashga erishdilar. Mil. avv. 242-yildan sud ishlarining ko‘payishi, kelgindilar oqimining kuchayishi bilan har yili 2 pretor saylanadigan bo‘ldi. Keyinchalik ularning soni oltitaga, imperiya davrida 18 taga yetdi. Pretor oliy magistratlardan biri bo‘lib, u konsulning bir qism funksiyalarini bajargan. Pretorning asosiy faoliyati ichki fuqarolar tinchligi va tartib-qoidalarini saqlash, ya’ni sud ishlarini amalga oshirish edi. Sud ishlari rivojlanishi bilan pretorlar qonunchilik tashabbusida ham muhim o‘rin tutdilar. Mil. avv. 22-yildan pretorlarga barcha o‘yin-tomoshalarni uyushtirish vazifasi yuklandi. Pretor hokimiyatining ramzi uning oldida 6 liktor yurishi, sud ishlari bilan shug‘ullangan vaqtida uning oldida ikki liktor turishi edi. Mil. avv.

337-yildan plebeylar ham pretor lavozimini egallash huquqini olganlar.

12. Plebey edillari. Tribun edili lavozimi mil. avv. 494-yilda xalq tribunlarini himoyachisi va uning yordamchisi sifatida tashkil etildi. Boshida edillar tribunlar tomonidan tayinlangan. Mil. avv. 471-yilda plebey edili plebeylar yig‘inida bir yil muddatga saylanadigan bo‘ldilar. Patritsiy konsullar ko‘p hollarda senat qarorlarini o‘zboshimchalik bilan soxtalashtirar va xalqdan yashirar edilar. Plebey edili lavozimi tashkil etilgach, bunday qonunbuzarlikka yo‘l qo‘ymaslik uchun edillar senat qarorlarini saqlovchlari vazifasini bajardilar. Plebey edillari plebey o‘yinlarini tashkil etishi, tribunlarga bo‘ysinmaganlarni qamoqqa olishi, hukm qilinganlarni jazoni o‘tashi ustidan nazorat qilishni amalga oshirganlar. Edillar shaxsi ham daxlsiz va muqaddas edi. Bu lavozimga boshda 27 yoshga, keyin 37 yoshga yetgan fuqaro saylanishi mumkin edi. Edillar saylovi iyulda o‘tkazilib, lavozimga kelgusi yil 1-yanvarida kirishar edi. Edillarning vakolati Rim shahri doirasida va bir mil atrofida tarqalgan. Ular shahar obodonchiligi bilan ham shug‘ullanganlar. Ularning turar-joylari plebeylar sig‘inadigan ma’buda Serera ibodatxonasi bo‘lgan. Ibodatxonada plebsning arxivi ham bo‘lgan. Mil. avv. 366-yildan ikkita plebey edillidan tashqari ikki qurul edil boshqa patritsiylardan saylana boshlagan. Lekin tez orada bu lavozimga plebeylar ham saylanadigan bo‘ldi. Qurul edillari plebey edillari bilan bitta kollegiyani tashkil qildilar. Ularning vazifasi shaharda tartibni saqlash, shaharni oziq-ovqat bilan ta’minlash to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish va bozorlarni kuzatish, jamoa bayram va o‘yinlarini tashkillashtirish bo‘lgan. Edillar trubut komissiyalarida saylanganlar.

13.Kvestorlar. Kvestor lavozimi (guaesitores – tergovchi, izlovchi, surishtirish olib boruvchilar ma’no-

sini bildiradi) Rimda podshohlik davrida yoki ular haydalgandan keyin paydo bo‘lgan. Boshda kvestorlar konsullar tomonidan tayinlanib, ularga yordamchi bo‘ldilar. Mil. avv. 447-yilda tribut komissiyalari 4 kvestorni sayladi. Mil. avv. 409-yildan kvestor lavozimiga plebeylar ham saylanadigan bo‘ldilar. Kvestorlar davlat xazinasi kirim-chiqimlarini olib bordilar, davlat arxivini boshqardilar, konsullarga harbiy yurishlarda hamrohlik qildilar va armiya xazinasini boshqarib, harbiy o‘ljani taqsimlash va sotish bilan shug‘ullandilar. Davlat xazinasiga to‘lanadigan qarzlar ham kvestorlar tomonidan undirilgan. Kvestorlar chet ellik elchilarni joylashtirish va ularga g‘amxo‘rlik qilish, taniqli odamlarni dafn marosimlarini uyushtirish bilan shug‘ullandilar.

14.Kohinlar. Rimda diniy e’tiqod siyosiy hayotdan ajralmadi. Qadimgi Rimda barcha oliy magistratlar qandaydir bir kohinlik funksiyalarini ham bajarganlar. Kohinlar alohida ijtimoiy qatlam emas edi. Kohinlar kollegiyaga uyushgan bo‘lib, faqat diniy vazifani bajardilar. Pontifiklar kollegiyasi avval uch, keyin olti kishini tashkil qildi. Kollegiya boshlig‘i buyuk pontifik deb atalgan. U diniy marosim, rasm-rusumlarni bajarishda qatnashib, kalendar, ob-havo yozuvlarini olib borgan. Pontifiklar patritsiylar bilan yaqin aloqada bo‘lgan. Magistratlarga diniy masalalar bo‘yicha maslahatlar bergan. Buyuk pontifik mil. avv. III asr oxiridan alohida komissiyalarda saylangan. Pontifiklar kooptatsiya yo‘li bilan tayinlanganlar. Pontifiklar mil. avv. 300-yildagi Ogulniy qonuni bo‘yicha plebeylar ham pontifik lavozimlarini egallashi lozim bo‘ldi. Turli ibodatxona kohinlari flaminlar deb atalgan. Ma’buda Vesta ibodatxonasi kohinlari Rimda katta obro‘ga ega bo‘lganlar. Bashoratchi kohin – avgurlar alohida kohinlar kollegiyasiga kirganlar. Oldinlari avgurlar faqat patritsiylardan saylangan.

SO‘NGGI RESPUBLIKA DAVRI (MIL. AVV. III ASR O‘RTALARIDAN I ASR O‘RTALARIGACHA). O‘RTAYER DENGIZI HAVZASIDA RIM HUKMRONLIGINING O‘RNATILISHI

Karfagen lashkarboshisi Gamilkar Ispaniyaga yurishga ketayotganda 9 yoshli o‘g‘li Gannibal uni ham birga olib ketishni so‘raganda, u ulg‘aygach Rimning dushmani bo‘laman deb qasam ichishini buyuradi.

1. **Rimning agressiv tashqi siyosati. Rim-Karfagen urushlari.**
2. **Illiriya va Makedon urushlari.**
3. **Rimning Old Osiyoga ekspansiyasi.**
4. **Harbiy tashkilot.**

1.Rimning agressiv tashqi siyosati. Rim respublikasining ilk davri (mil. avv. V – III asr o‘rtalarigacha) Rim shahar-davlatining Italiyani bosib olishi bilan tugadi. Bu davrda Rimning shahar-davlatdan hududiy davlatga aylanish jarayoni tugallandi. Respublika davlat boshqaruvining huquqiy negizlari shakllandi. Respublika davlat boshqaruvi tizimi va tuzilmasi shakllandi va amalga tatbiq etildi. Rim respublikasining ijtimoiy-sinfiy tuzilmasi va iqtisodiy tizimi yuzaga keldi.

Rim pespublikasining so‘nggi ikki yuz yili davomida Rim davlati va jamiyati hayotida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Rim mil. avv. III – II asrlarda O‘rtayer dengizi havzasi va Old Osiyoda uzluksiz istilochilik urushlari olib borib, bu havzadagi davlatlar va hududlarni o‘ziga tobe qildi. Rim davlatining uzluksiz istilochilik urushlari o‘zga hudud va xalqlar boshiga ulkan kulfatlar keltirdi. Mustaqil davlatlar tugatildi. Iqtisodiy hayot izdan chiqdi. Bir qism aholi urushlar qurboni bo‘ldi. Bosib olingan hududlarning tirik qol-

gan aholisi asir olinib, Rimga olib kelib qul qilib sotildi. Minglab shahar va qishloqlar vayronaga aylandi. Bosib olingan mamlakatlar hududlari va aholisi ayovsiz talanib, ulkan moddiy boyliklar, qullar Rimga oqib keldi. Bu boyliklar Rim jamiyatini keskin o‘zgartirib yubordi. O‘zga hudud va xalqlarni talash hisobiga olib kelingan ulkan miqdordagi boyliklar Rim jamiyatini axloqiy-ma’naviy aynishiga sabab bo‘ldi. Bu davrda Rimda va jamiyat ichida keskin ixtiloflarni yuzaga keltirib, fuqarolar urushi boshlanib ketdi. Fuqarolar urushi Rim respublikasining zaiflashuvi va oxir-oqibatda halokatiga olib keldi. Bosqinchilik urushlaridan Rimga oqib kelgan moddiy boyliklar mavjud respublika tartib-qoidalarining yemirilishi va Rim jamiyatining aynishiga olib keldi. So‘nggi respublika davri mil. avv. III asr o‘rtalarigacha bo‘lgan davrni I asr o‘rtalarini tashkil etadi.

Uzoq vaqt Rim va Karfagen mil. avv. 509, 348 va 279-yillarda tuzilgan savdo shartnomalari bilan tinchlik munosabatlarini saqlab turdilar. Rim Apennin yarim orolini bo‘ysundirish bilan band bo‘lgan bir paytda, Karfagen Shimoliy Afrikani bosib olish vaqtida ularning manfaatlari to‘qnashmadi. Ammo rimliklar Janubiy Italiyaga suqilib kirishi bilan vaziyat o‘zgardi. Rim respublikasi qudratli davlatga aylanib, O‘rtayer dengizi orollari, jumladan, boy Sitsiliyaga hukmronlik qilishga da’vo qila boshladi. Rim davlati kuchayib, endilikda boshqa davlatlar bilan tashqi siyosatida faqat kuchga tayanish yo‘lidan foydalandi. Boshqacha aytganda, qo‘shni davlatlar va xalqlar bilan davlat yuzaga kelgan yoki mavjud muammoni muzokara-murosa emas, urush yo‘li bilan hal qilish siyosatiga o‘tdi. Bu boshqalarning yerlarini bosib olishga qaratilgan agressiv tashqi siyosat edi. Karfagen Rimning kuchayishi va ekspansiyasidan bezovta bo‘ldi. Har ikki tomon urushga tayyorlana boshladi.

Rimliklar karfagenliklarni punilar deb atar edilar. Shu sababli bu urush Puni urushlari deb nom oldi. Rim va Karfagen o‘rtasida uch marta urush bo‘lib o‘tdi (I urush mil. avv. 264 – 241-yillar, II urush mil. avv. 218 – 201-yillar, III urush mil. avv. 149 – 146-yillar). Har uchala urushda ham rimliklar g‘olib chiqdilar. Karfagenliklar Rim bilan to‘qnashuv arafasida Sardiniya va Korsika orollari va deyarli butun Sitsiliya oroli ustidan hukmronlik qilar edilar.

Rim Italiyani bosib olishni tugallash davrida qudratli dengiz davlati Karfagen manfaatlari bilan to‘qnashdi. Boshda ikki davlatning raqobati uchun asosiy sabab boy Sitsiliya oroli bo‘ldi. Karfagenliklar orolning g‘arbiy qismida qadimdan o‘rnashib, bu yerda Lilibey, Drepana va Panorm tayanch nuqtalarini barpo qildilar. Ammo rimliklar Janubiy Italiyaga suqilib kirishi bilan vaziyat o‘zgardi. Rim respublikasi qudratli davlatga aylanib, O‘rtayer dengizi orollari, jumladan, Sitsiliyaga hukmronlik qilishga da’vo qila boshladi. Karfagen Rimning kuchayishi va uning ekspansiyasidan bezovta bo‘ldi. Har ikki tomon urushga tayyorlana boshladi.

Rim-Karfagen urushlari. I Puni urushi. Rimning Karfagen bilan birinchi urushi mil. avv. 264-241-yillarda bo‘lib o‘tdi. Urush 23 yil davom etib, birinchi Puni urushi deb nom oldi. Karfagen hukmron tabaqalari tashqi siyosat masalasida bir-biriga qarshi bo‘lgan ikki guruhga bo‘lingan edi. Karfagen lashkarboshisi, siyosiy arbob Gannon boshchiligida bir guruh tashqi siyosatning asosiy vazifasi Afrikada Karfagenning mavqeyini mustahkamlash deb hisobladi. Karfagenning taniqli oilasi Barkidlar vakili mashhur siyosiy arbob Gamilbarkar Barka atrofida birlashgan bir guruh magnatlar Karfagen siyosatining asosiy yo‘nalishi – davlatning G‘arbiy Ortayer dengizi havzasidagi mavqeyini mustahkamlash va bu hududda

Rim ekspansiyasiga qarshi g‘olibona urushga tayyorlanish deb hisobladi.

Karfagen bir necha asrlar davomida G‘arbiy O‘rtayer dengizi havzasidagi xalqaro savdoda yetakchi mavqega ega bo‘lgan davlat edi. Kuchayib ketgan Rim G‘arbiy Ortayer dengizi havzasida hukmron bo‘lgan Karfagenni siqib chiqarib o‘z hukmronligini o‘rnatish siyosatini olib bordi. Sitsiliya orolining sharqidagi Sirakuzadan keyin orolda ikkinchi shahar bo‘lgan Messana Italiya savdosi uchun muhim bo‘lgan mustahkam qal’a va qulay gavanga ega edi. Qo‘shni kuchli shahar-davlat Sirakuza Messanani egallashga harakat qildi. Messana Sirakuzaning tazyiqiga qarshi turish uchun Rimga tayanishga qaror qildi va Rimdan Italiya ittifoqiga qabul qilishni so‘rab murojaat qildi. Rim Messanani ittifoqqa qabul qildi va Sirakuzadan Messanaga nisbatan dushmanlik harakatlarini to‘xtatishni talab qildi. Bu vaqtda Karfagen Rimning bu havzada o‘rnashib qolishidan xavfsirab, Sirakuza va Messana o‘rtasidagi ixtilofni hal qilishda vositachilik qildi. Mil. avv. 264-yil bahorida Rim qo‘shini Messanaga jo‘nab ketish uchun yo‘lga chiqqanda Messanadan xabar keldi. Bu xabarda messanaliklar yordam uchun rahmat aytib, endi yordam kerak emasligi, Sirakuza bilan Messana o‘rtasidagi ixtilof Karfagen vositachiligida hal bo‘lgani va Karfagen floti Messana portida turganligi aytilgan edi.

Rim floti Messanaga yo‘l oldi, lekin Karfagen floti Rim flotini qaytishga majbur qildi. Rim floti ikkinchi marta Messana qirg‘og‘iga tushib, Karfagen floti qo‘mondonini asirga oldi. Rim floti Karfagen garnizonini Messanadan chiqib ketishga majbur qildi. Bunga javoban, Karfagen o‘z admiralini qatl etdi va Rimga qarshi urush e’lon qildi. Gannibalning og‘li Annon boshchiligida kuchli Karfagen floti Messanani qamal qlldi. Sirakuza floti ham Karfagenga yordamga

kelib, Messanani quruqlikdan qamal qilishni boshladi. Rimliklar Sitsiliyaga kuchli qo‘shin tushirib, Messana qamalini to‘xtatishga majbur qildilar. Sirakuza rimliklarning faol urush harakatlarini ko‘rib, Rim bilan ittifoqchilik bitimini tuzdi va bu bitimga urush oxirigacha sodiq bo‘lib qoldi.

Mil. avv. 264-yilda Rim legionlari Sitsiliyaga bostirib kirib, karfagenliklar bilan birinchi jangda g‘olib bo‘ldi. Rim legionlari Sirakuza shahrini qamal qildi. Sirakuza g‘olib Rimga 100 talant miqdorida tovon to‘ladi. Rim katta miqdorda moddiy mablag‘ga ega bo‘lib, endilikda Sitsiliyadagi shaharlarni bosib olishni davom ettirdi. Mil. avv. 263-yilda Sitsiliyadagi yirik markazlardan biri Agrigent shahri 6 oylik qamaldan keyin ishg‘ol qilindi. Shahardan katta o‘lja va 25 ming asir olindi. Italiyadagi yunon shaharlari bosib olindi. Lekin Karfagen floti Lipar orolida birinchi dengiz jangida Rimning zaif floti yengildi. Rimliklar kuchli dengiz flotiga ega emas edilar va bu sohada Karfagen bilan raqobatlasha olmas edilar. Karfagen floti dengizda cheksiz hukmron edi. Lipar orollari yaqinida karfagenliklar mil. avv. 260-yilda Rim floti ustidan yengil g‘alaba qozondi. Dengizchilikda dong‘i ketgan karfagenliklar tez yuradigan kemalarga ega bo‘lib, Rim flotiga mensimay qaradilar. Rim qisqa vaqt ichida barcha vositalarni ishga solib, mil. avv. 260-yilda 120 jangovar kemadan iborat harbiy flotga ega bo‘ldi.

Tez orada rimliklar dengizda birinchi g‘alabani qo‘lga kiritdilar. Rimliklar mil. avv. 256-yilda urush harakatlarini dushman hududi Afrikaga ko‘chirishga erishdilar. Rim floti bilan Karfagen floti o‘rtasida jang bo‘lib, bu jangda rimliklar katta talafot berib, g‘alaba qildilar. Mil. avv. 255-yilda Karfagen shahri yaqinida Karfagen armiyasi rimliklarga qaqshatg‘ich zarba berdi. Rim legionlari qo‘mondoni konsul Regiy asir olindi.

Urush cho‘zilib ketdi va urush harakatlari yana Sitsiliyaga ko‘chdi. Har ikki urushayotgan tomonlarning kuchlari zaiflashdi. Mil. avv. 247-yilda Sitsiliyadagi Karfagen qo‘shiniga Gamilkar boshchilik qildi. Gamilkar Barka qobiliyatli harbiy boshliq va haqiqiy davlatparvar odam edi. U Karfagen hukumatining zaifligi, takabburligi, boshqaruv va armiyani ta’minlashga qobiliyatsizligini yaxshi tushunar edi. Gamilkar Sitsiliyadagi Karfagen armiyasini dushman hisobidan ta’minlash asosida uning jangovar qobiliyatini yetarli darajada saqlab turishga erishdi. Natijada Karfagen armiyasi rimliklar ustidan bir necha marta g‘alaba qildi.

Hal qiluvchi jang mil. avv. 241-yilda Sitsiliyaning g‘arbidagi Egat orollari yonida bo‘lib o‘tdi. Karfagen floti batamom tor-mor qilindi. Karfagen hukumati Gamilkarga qanday shartlarda bo‘lmasin, Rim bilan tinchlikka erishish topshirig‘ini berdi. Tinchlik shartnomasiga ko‘ra, Sitsiliya Rimga topshirildi. Karfagenning mustaqilligi tan olindi. Karfagen katta miqdorda tovon to‘ladi, rimlik asirlarni beg‘araz qaytardi. Sitsiliyadan ketadigan Karfagen askarlari uchun ozgina tovon puli belgilandi. Karfagen Rimning ekspansiyasiga qarshi tura olish qobiliyatiga ega emasligini bilgan rimliklar bir qancha vaqt o‘tgach, Korsika va Sardiniya orollarini osongina bosib oldilar.

Urushdan keyin Gamilkar Karfagen hukumatidan o‘z qo‘shiniga xizmatiga yarasha loyiq ish haqi berishni so‘radi va qo‘mondonlikni o‘zidan soqit qildi. Karfagen hukumati qo‘shinga berish kerak bo‘lgan ish haqini qisqartirdi. Shunda hukumatning bunday subutsizligidan g‘azablangan askarlar isyon ko‘tardilar, isyonga qo‘shni Liviya aholisi ham qo‘shildi. Bu isyonga qo‘shilgan Sardiniyadagi Karfagen garnizoni orolda yashaydigan boshqa qabilalarning chiqishlariga Karfagendan yordamsiz qarshi tura olmaganlari

uchun Rimdan Sardiniyani qo‘shib olishni so‘radilar. Rim bu taklifni bajon-u dil qabul qildi. Bu isyon Karfagen davlatini halokatga olib kelishi mumkin edi. Qo‘rqib ketgan hukumat Gamilkardan isyonni bostirishni so‘radi. Gamilkar uch yil ichida bu isyonni bostirib, Karfagen hukumatining mavqeyini mustahkamladi. Karfagen hukumati Rimdan Sardiniyadan voz kechishni talab qildi.

Gamilkar Barka Rimdan o‘ch olishni orzu qilar edi. Karfagenliklar bir necha asrlar davomida o‘zlari egalik qilgan O‘rtayer dengizi g‘arbiy qismidagi xalqaro savdo yo‘lidan deyarli mahrum bo‘ldilar. Xalqaro dengiz savdosidan katta foyda ko‘radigan Karfagenning hunarmand savdogarlari kema egalari va boshqa aholisi Rimning g‘arbiy Ortayer dengizi savdosini o‘z qo‘liga olishidan katta zarar ko‘rdilar. Shu sababli ular Rim bilan urush tarafdorlari bo‘ldilar. Gamilkar Barka ana shu boy savdogar-kemachilar va oligarxiyaga boshchilik qildi. Gamilkar rimliklar bilan kelajakda bo‘ladigan urushga tayyorgarlik ko‘rish uchun Karfagen qo‘shini bilan Ispaniyaga jo‘nadi. U Ispaniyaning tabiiy boyliklarini o‘zlashtirdi. Karfagen qo‘shinining qudratini kuchaytirish maqsadida Ispaniyaning yangi yerlarini bosib olishga harakat qildi. Gazdrubal Afrika urushini 5 yilda tugatib, Ispaniyaga yurish qildi va Karfagenga tegishli yerlarni kengaytirdi. Gamilkar mahalliy iber qabilalarining qarshiligini bostirishga harakat qilib, mil. avv. 229-yil halok bo‘ldi. Qo‘shin o‘z yo‘lboshchisi etib Gamilkarning kuyovi Gazdrubalni sayladi. Gazdrubal o‘zining aqli va ko‘rkamligi bilan Gamilkarni o‘ziga jalb qiladi va uning qiziga uylanadi. Gazdrubal Gamilkarning ishini davom ettirib, Ispaniyada Yangi Karfagen shahriga asos soldi. U ko‘p hollarda kuch bilan emas, aql bilan ish ko‘rib, mahalliy yo‘lboshchilar bilan do‘stlik shartnomasini tuzdi. Yo‘lboshchilarning do‘stligidan foydalanib,

yangi qabilalarni o‘z tomoniga jalb qilgan Karfagen davlati hududini kengaytirdi.

Rimliklar mil. avv. 226-yilda Shimoliy Ispaniyada Karfagenning yutuqlaridan xavfsirab, Ispaniyaga Rim elchilarini jo‘natdilar. Elchilar Gazdrubalni Ispaniyadagi yutuqlariga tan berdilar. Rim bu vaqtda gallar bilan urushda band bo‘lgani va ichki vaziyatlari jiddiyligi uchun Karfagenning Ispaniyada mustahkamlanishiga qarshilik ko‘rsata olmas edi. Shu sababli, Rimliklar Gazdrubal bilan Rim va Karfagen o‘rtasidagi chegaralarni Ebro (Giber) daryosi bo‘ylab o‘tkazish to‘g‘risida kelishib, shartnoma tuzdilar. Shartnomaga ko‘ra, har ikki davlat chegarasi o‘rtasida bo‘lgan Sagunt shahri o‘z mustaqilligini saqlab qoldi. Karfagenliklar Ebro daryosini harbiy maqsadlar bilan kechib o‘tmaslik majburiyatini oldilar. Bu shartnoma Karfagen uchun foydali edi. Gazdrubal Karfagenni 8 yil boshqardi. Lekin qaram qabilalardan biridan bo‘lgan bir kishi o‘z xo‘jasining qatl etilganidan g‘azablanib, mil. avv. 221-yilda ko‘pchilikning oldida Gazdrubalni o‘ldirdi. Gazdrubalning o‘rniga qo‘shin qo‘mondoni etib Karfagen zodagonlarining e’tiroziga qaramay, armiyaning istagi bilan Gamilkarning 25 yoshli o‘g‘li Gannibal saylandi. Gannibal Rimga nafrat ruhida tarbiyalangan yetuk lashkarboshi edi. Aytishlaricha, Karfagen lashkarboshisi Gamilkar Ispaniyaga qo‘shin tushirish oldidan qurbonlik keltirayotganda 9 yoshli o‘g‘li Gannibal otasidan uni o‘zi bilan birga olib ketishni so‘raydi. Shunda Gamilkar qurbongohga yaqin kelib, qo‘lini qo‘yib Gannibal ulg‘aygach, Rimning dushmani bo‘laman deb qasam ichishni buyuradi. Qo‘mondonlik Gannibal qo‘liga o‘tishi bilan Karfagen davlati uchun Rim bilan urush masalasi hal qilindi.

Gannibal otda va piyoda jang qilish san’atini mukammal egallagan. U dovyurak bo‘lib, jangga kir-

ganida jang maydonidan oxirgi bo‘lib chiqar edi. Kecha-kunduzni farqlamaydigan, har qanday qiyinchiliklarni yengib o‘tadigan, oddiy askar kabi harbiy kiyimga o‘ralib, soqchi va askarlar orasida maysa ustida uxlar edi. Askarlarga nisbatan yaxshi muomalada bo‘lib, olingan o‘ljani qo‘shinga mo‘l-ko‘l taqsimlar edi. Shu bilan birga, Gannibal dushmanga nisbatan o‘ta shafqatsiz va makkor edi. U bir ko‘zi ko‘r sarkarda edi.

II Puni urushi (mil. avv. 218 – 201) mil. avv. 218-yilda boshlanib, 17 yil davom etdi. Karfagen rimliklarning Sitsiliya va Sardiniyani egallashini ularning katta xatosi ekanligi, Sardiniyani rimliklar aldov bilan egallaganini tushunib, intiqom olish uchun tayyorlandi. G‘ayratli sarkarda Gannibal urush harakatlarini Rim hududida olib borib, Rim qo‘shinlarini shu yerdayoq tor-mor qilish rejasini tuzdi. Bu rejani amalga oshirish uchun Gannibal qo‘shinlari mil. avv. 218-yil bahorida Pireney yarim orolidan Pireney va Alp tog‘laridan oshib Italiyaga o‘tdi. Gannibal qo‘shinlari tarkibi turli qabila va xalqlardan tuzilgan edi. Afrikadan numidiyiliklar, liviyaliklar, Pireney yarim orolidan luzitanlar, keltiberlar va Italiyaning o‘zidan gallar va Rim zulmidan norozi bo‘lgan xalqlarning harbiy qismlari Karfagen tomonida turdilar. Bu ittifoqchilar ishonchsiz edilar. II Puni urushining keyingi bosqichida Karfagenning yengilishi aniqlashgan vaqtda ko‘pgina ittifoqchilari xiyonat qilib rimliklar tomoniga o‘tdilar.

Bu urushda Karfagenning eng yaqin ittifoqchisi numidiyaliklar bo‘ldi. Numidiya otliq qismlari jang san’atini mukammal egallagan edilar. Lekin ular juda ochko‘z bo‘lib, rimliklarning qarorgohini shipshiydam qilib ketar edilar. Gannibal qo‘shinlari Rim qo‘shinlari ustidan bir necha marta g‘alaba qozondi (mil. avv. 217-yil Tisin daryosi bo‘yida; Trebiy daryo-

si bo‘yida, Trazimen ko‘li bo‘yida). Mil. avv. 216-yili iyun oyi boshlarida Apuliya viloyatidagi Kanna yonida Rimning 90 ming kishilik armiyasi Gannibalning 50 ming kishilik armiyasi bilan to‘qnashdi. Kanna yonidagi jang ilgari bo‘lgan janglarning ichida eng mashhuri edi. Bu jangda Gannibal konsullar Emiliy Pavel va Varronlar boshchiligidagi Rim armiyasi qurshab olinib, yanchib tashlandi. Jangda qariyb 70 ming rimlik halok bo‘ldi. Jang maydonida 6000 ming rimlik, 10000 kishi qarorgohda asir olindi. 70 Rim senatori, yuzlab zobitlar halok bo‘ldi. Faqat Emiliy Pavel qochishga ulgurdi. Rim armiyasining omon qolgan ozgina qismi Kanuziya shahriga kirib yashirindi.

Bu jangning oqibatlari juda yomon bo‘ldi. Gannibalni ko‘ra olmaydigan va uni mablag‘ bilan ta’minlamagan Karfagen hukumati endi Gannibalga yordamga 40 fil, 4000 otliq va piyoda askarlarni jo‘natishga qaror qildi. Samniylar, lukan, girpin, pislarning barcha shaharlari va Janubiy Italiyaning barcha qabilalari Gannibal tomoniga o‘tdi. Janubiy Italiyaning Rimga sodiq qabila va shaharlari endilikda Karfagen tomoniga o‘tdi. Kapuya shahri birinchilardan bo‘lib Rimdan yuz o‘girdi. Faqat Kampaniyadagi azaldan karfagenliklarning raqibi bo‘lgan bir necha yunon shaharlari Rimga sodiq qoldi. Karfagen bilan Makedoniya va Sirakuza ittifoq tuzdilar.

Rim o‘z harbiy kuchini bir necha frontga bo‘lishga majbur bo‘ldi. Rim senati vahimaga tushib qoldi. 17 yoshga yetgan fuqarolaridan boshlab barcha harbiy xizmatga chaqirildi. Senat hatto ikki legionni davlat sotib olgan qullardan tuzdi. Mil. avv. 212-yilda Gannibal Tarent shahrini ishg‘ol qildi.

Rimliklar ikki yillik qamaldan keyin mil. avv. 211-yilda Sirakuzani egalladilar. Shahar askarlarga talon-taroj qilishga berildi. Olim Arximedni ham rimlik askarlar o‘ldirdi. Sirakuzadan katta o‘ljalar olin-

di, qimmatbaho san’at asarlari Rimga tashib ketildi. Rimliklar diplomatik vositalar bilan Etoliya ittifoqini va bir necha yunon shaharlarini Makedoniyaga qarshi qo‘ydilar. Mil. avv. 201-yilda Makedoniyaga qarshi Rim va uning ittifoqchilari urush ochdilar. Bu birinchi Makedoniya urushi nomini oldi. Bu urush Makedoniya podshohi Filipp V ni Karfagenga yordam berishiga xalaqit berdi.

Mil. avv. 212-yilda Ispaniyada Karfagen armiyasi bilan urushda Rim armiyasining ikki korpusi karfagenliklar tomonidan yanchib tashlandi. Yangi Rim lashkarboshisi 27 yoshli Publiy Sitsipion mil. avv. 209-yilda karfagenliklarning Ispaniyadagi poytaxti Yangi Karfagenni bosib oldi va yarim orolning janubiy-g‘arbiy qismini egalladilar. Karfagen hukmronligidan norozi bo‘lgan bir necha iber qabilalari rimliklarga yordam berdi.

Italiyada Rim senati voyaga yetgan barcha erkin aholini harbiy xizmatga chaqirib, 230 ming kishilik armiyani to‘pladi. Natijada Italiya hududida Karfagen armiyasiga qarshi urushayotgan Rim legionlari asta-sekin yaxshi natijalarga erisha boshladilar. Kapuya shahrini Rim armiyasi qamal qildi. Kapuya Gannibaldan yordam kutdi. Gannibal Kapuya shahari yonida paydo bo‘ldi, lekin rimliklar qamalni to‘xtatmadilar. Gannibal rimliklarni chalg‘itish uchun Rim shahriga qo‘shin tortdi. U Rim yonidagi villalarga o‘t qo‘ydi va Janubiy Italiyaga yo‘naldi. Rimliklar Kapuyani taslim bo‘lishga majbur qildilar va shahardan shafqatsiz o‘ch oldilar. Kapuya shahar senatining ko‘pgina senatorlari qatl etildi, zodagonlar surgun qilindi, Kapuya aholisining katta qismi qul qilib sotib yuborildi. Bir qismi shahardan haydaldi. Shahar boshqaruv organlari tugatilib, boshqaruv Rim tayinlangan prefektlar qo‘liga o‘tdi.

Kapuyaning boy berilishi, Tarent shahrini 80 yoshli sarkarda Fabiy Maksim legionlari tomonidan ishg‘ol etilishi italiyalik ittifoqchilari orasida Gannibalning obro‘sini tushirib yubordi. Karfagen tomoniga o‘tgan shaharlar yana Rimni qo‘llab-quvvatlay boshladilar. Yosh rimlik sarkarda Publiy Korneliy Sisipion Ispaniyada karfagenliklarga qarshi g‘olibona urush harakatlarini olib bordi. Ispaniyada Sisipion mil. avv. 206-yilda Karfagen armiyasini mag‘lubiyatga uchratdi. Oqibatda, Ispaniyada Karfagenning hukmdorligiga chek qo‘yildi.

Gannibalning ukasi Gazdrubal mil. avv. 208-yilda akasiga yordam berish uchun Ispaniyadan Italiyaga o‘tdi. Gallar pul evaziga uni o‘tkazib yubordilar. Italiyada ligurlar 8000 askar bilan Gasdrubalga qo‘shilish uchun tayyor edilar. Gasdrubal Po vodiysiga kelib tushdi. Uning akasi Gannibalga qaysi yo‘l bilan unga qo‘shilishi to‘g‘ridagi xati rimliklar qo‘liga tushib qoldi. Rimning asosiy armiyasi konsul Neron boshchiligida Gannibalga qarshi turar edi. Bu xatni olgan Neron bir qism armiyani Gannibalga qarshi qo‘yib, o‘zi tezda 7000 askar bilan shimolga yurib, boshqa Rim legionlari bilan qo‘shilib, gallarning Sena daryosi bo‘yida Gasdrubal armiyasiga hujum qilib, uning armiyasini yanchib tashladi. Gasdrubalning o‘zi jangda halok bo‘ldi. Agar Gasdrubal qo‘shini Gannibal armiyasi bilan qo‘shilganda edi, bu Rim uchun halokatli tugar edi.

Gasdrubalning kesilgan boshi karfagenliklarning qo‘riqchi postiga tashlandi va Gannibal o‘zi kutayotgan yordam kelmasligini tushundi. Karfagen hukumati Gannibalning obro‘-e’tibori oshib ketganidan tashvishga tushib, o‘z qo‘mondoniga yetarli yordam ko‘rsatmadi. Ilojsiz qolgan Gannibal Italiyaning eng janubiga chekindi. Uning yana bir ukasi Magon mil. avv. 205-yilda Genuya yoniga qo‘shin bilan tushdi.

Magon Shimoliy Italiyada uch yil Rim armiyasi bilan natijasiz jang harakatlarini olib bordi. Janglarning birida Magon yarador bo‘lib halok bo‘ldi. Gannibal biror marta yengilmagan bo‘lsa-da, o‘z qo‘shinlari bilan o‘z yurtidan uzoqlashib, Janubiy Italiyada qamalib qoldi.

Kuchsizlanib qolgan Rim Italiyada Gannibalga qarshi faol urush harakatlarini olib bora olmadi. Gannibal armiyasi ham holdan toygan edi. Uning Rimga hujumi qaytarilgan edi. Endi tashabbus rimliklarga o‘tib, Afrikaga qo‘shin tushirish kerak edi. Lekin buning uchun na armiya, na mablag‘ bor edi. Ispaniyadan g‘alaba bilan qaytgan Sitsipion mil. avv. 205-yilda konsul etib saylandi. Rim senati Sitsipionni Ispaniyadagi o‘zboshimcha harakatlaridan norozi bo‘lib, unga Afrikaga yurish qilishga ruxsat bermas edi. Lekin senat Sitsipionni Sitsiliyadagi qo‘shinga bosh qo‘mondon etib tayinladi va uni Afrikaga yurish qilishiga qarshilik qilmadi. Sitsipion xususiy kishilar yordamida flotni jihozladi, uning Afrika safariga xayrixoh bo‘lgan ko‘p sonli kishilar keldilar. Sitsipion mil. avv. 204-yilda 30 ming qo‘shin bilan Afrikaga Utika yaqiniga tushdi. Karfagen armiyasi bir necha janglarda rimliklarga qarshi zarba berdi. Lekin mil. avv. 203-yilda Rim armiyasi bilan jangda Karfagenliklar mag‘lub bo‘ldilar. Rim bilan muzokaralar boshlandi. Lekin bu muzokaralarga qarshi bo‘lgan karfagenning bir qism aholisi urushni davom ettirishni talab qildi va Gannibalni Afrikaga chaqirdilar. Gannibal bu vaqtda Italiyada Makedon podshohi va’da qilgan yordamni kutib, Afrikaga qaytishni orqaga surdi. Buyuk lashkarboshi otlarini o‘ldirib, u bilan ketishni istamagan italiyalik askarlarni qatl etdi. Karfagen hukumatining buyrug‘i bilan Gannibal mil. avv. 203-yilda Afrikaga qaytdi. Gannibal 16 yil davomida rimliklarga dahshat soldi. 35 yil vatandan yiroqda Ispaniya va

Italiyada bo‘ldi. Unga dushman kayfiyatida bo‘lgan Karfagen hukumati yetarli yordamni bermadi. Agar Gannibal Karfagendan yetarli yordam olganida edi. Rimni tiz cho‘ktirishi mumkin edi. Endilikda Karfagenning magnatlari Gannibaldan vatanni qutqarishni so‘radilar. Gannibal Sitsipion bilan uchrashib, tinchlik shartnomasi tuzish uchun ma’lum bir yon berishlarga erishdi. Lekin Rim Karfagenni to‘la zaiflashtirishni maqsad qilgan edi. Muzokaralar to‘xtab, yana urush boshlandi. Gannibal harbiy tayyorgarligi past bo‘lgan shoshilinch yig‘ilgan armiya bilan urushga kirdi. Mil. avv. 202-yilda Karfagen shahri yaqinidagi Zam qishlog‘i yonida Rim armiyasiga qarshi hal qiluvchi jangda Gannibal o‘z hayotida birinchi va oxirgi mag‘lubiyatni boshidan kechirdi. Karfagenning qo‘shnisi Numidiya podshohi Masinissa rimliklarga ilg‘or otliq qismlari bilan katta yordam berdi. Karfagen armiyasi jangda to‘la tor-mor qilindi.

Mil. avv. 201-yilda Rim va Karfagen o‘rtasida sulh sharnomasi imzolandi. Sulh shartnomasi shartlariga ko‘ra, Karfagen Ispaniyadan va O‘rtayer dengizi orollaridagi barcha mulklaridan mahrum bo‘ldi, faqat Afrikadagi mulklarini saqlab qoldi. O‘z jangovar fillari va 20 ta kemadan boshqa barcha harbiy flotini Rimga berdi. Karfagen 50 yil davomida 10 ming talant to‘lashi, Rim va uning ittifoqchilari bilan va ruxsatsiz o‘zining afrikalik qo‘shnilari bilan urush olib borishi taqiqlandi. Rimning ittifoqchilari bilan kelib chiqadigan kelishmovchiliklarni Rim senati vositachiligida hal qilishi kerak edi. Tinchlik shartnomasining bu og‘ir shartlari Karfagenning harbiy-siyosiy qudratini uzoq muddatga zaiflashtirdi. Numidiya podshohi Masinissa Rimga ko‘rsatgan yordami uchun Karfagenning Afrika mulklarini bir qismi bilan taqdirlandi.

II Puni urushidan so‘ng, Rim Po daryosi vodiysida 30 yil urush olib bordi. Bu hududdagi gall va keltlar

rimliklarga qarshi ozodlik urushi olib bordilar. Lekin yaxshi qurollangan Rim armiyasi ularning qarshiligini bostirdi. Rim Italiya va Ispaniya oralig‘idagi dengiz qirg‘og‘ida yashaydigan Alp orti gall qabilalarining yerlarini bosib oldi. Bosib olingan hududlarda Alp oldi va Alp orti ikki gall provinsiyasi tashkil etildi. Shu tarzda mil. avv. II asrda butun Apennin yarim oroli Alp tog‘igacha va O‘rtayer dengizi g‘arbiy qismining barcha qirg‘oqlari Rim hukmronligi ostiga o‘tdi.

Etrusklar, sabellar Rimga qaram etildi. Bretti qabilalari yoppasiga qullikka mahkum etildilar. Kapuyaliklar o‘z yer mulklaridan mahrum etildilar. Rim Liguriya, Korsika va Sardiniyada o‘z hukmronligini mustahkamlash uchun urush harakatlarini olib bordi. Rimliklar bu urushlarda mahalliy aholiga nisbatan o‘ta shafqatsiz munosabatda bo‘ldilar. Bo‘lajak mashhur tribunlar Gay va Tiberiyning otasi Tiberiy Sempronіy Grakx sardlarning bir qismini qirib tashlab, 80 ming sardni asir oldi. Ular barchasi qul qilib, qul bozorlarida sotildi. Qul bozorlarida qullarning narxi nihoyatda tushib ketdi. Sardlar shunday past narxlarda sotildiki, Italiyada «sard kabi arzon» degan ibora paydo bo‘ldi.

Rim bilan urushdan keyin Gannibal Karfagenda sufet oliy mansabiga saylanib, mamlakatni 7 yil boshqardi. U Karfagenning o‘tmishdagi kuch-qudratini qayta tiklash maqsadida siyosiy islohotlar o‘tkazdi. Gannibal xalq yig‘inining qonunchilik funksiyalarini kuchaytirib, ijroiya hokimiyatni egallab olgan oligarx zodagonlar ustidan nazoratini yo‘lga qo‘ydi. Xalq yig‘ini moliya ishlari bilan shug‘ullanadigan mansabdorlar ustidan nazorat qilib, suiiste’mollik va korrupsiyani yo‘q qildi. Karfagenning haqiqiy xo‘jayinlari – qudratli zodagon oligarxlar Gannibalni Rim bilan urushda asosiy aybdor deb hisoblar edilar. Amalda esa, Gannibalning Italiyadagi g‘olibona

yurishini mustahkamlash uchun havodek zarur bo‘lgan yordamni aynan ana shu oligarx – zodagonlar bermagan edilar. Rimliklar Gannibalning faoliyatini kuzatib bordilar. Karfagenning oligarxlari Gannibal ustidan Rim senatiga chaquvlar, shikoyatlar qildilar. Rim senatiga bu shikoyatlar qo‘l keldi. Gannibalni Rimga tutib berishni talab qildi. Buyuk sarkarda Karfagen hukumati Rim talabini bajarishiga ko‘zi yetib, Gannibal mamlakatdan chiqib ketdi,

Buyuk sarkarda Salavkiylar podshohi Antiox III saroyidan panoh topdi. Gannibal Antiox III ning maslahatchisi bo‘ldi. U Salavkiylarni har qanday yo‘l bilan Rimga qarshi urushga chaqirdi. Bir necha urushlarda Antiox III Rimdan mag‘lub bo‘lib, tinchlik bitimini tuzishga majbur bo‘ldi. Rimning tazyiqi ostida Gannibal Salavkiylar saroyidan Armanistonga, keyin Kichik Osiyodagi Vifiniyaga ko‘chib o‘tdi. Vifiniyada u Rimning sodiq ittifoqchisi Pergamga qarshi urush uyushtirdi. Rim senati Vifiniyadan Gannibalni Rimga topshirishni talab qildi. Tabiiyki, kichik bir davlat bo‘lgan Vifiniya qudratli Rimning talabini qondirishga majbur qilindi. Buyuk sarkarda turgan qal’a Rim legionlari tomonidan qamal qilinganda, Vifiniya podshohi uni Rimga berishga tayyorligini bilib qolgan 70 yoshli Gannibal zahar ichib vafot etdi. (mil. avv. 183-yil).

II Puni urushidan so‘ng Karfagen koloniyalardan mahrum bo‘lib, tashqi savdo aylanmasi kamaydi. Endilikda uzumchilik va zaytun daraxtini ekish, vino va zaytun moyi ishlab chiqarish ko‘paydi. Podos va Sitsiliyadan vino va zaytun moyini tashib kelish asta-sekin kamaydi. Karfagen qo‘shni Liviya ustidan hukmronligini mustahkamlashga harakat qildi. Natijada Karfagen II Puni urushidan keyin 50 yil ichida o‘zining qulay geografik joylashuvi bilan o‘z iqtisodiy qudratini qayta tiklashga muvaffaq bo‘ldi. Karfagen

Shimoliy Afrikada yana xalqaro vositachilik savdosining yirik markaziga aylandi.

Qo‘shni Numidiya davlati Karagenning zaiflashuvidan foydalanib, Rimning yordami bilan tez kuchayib ketdi. Massinirsa 90 yil umr ko‘rdi, shundan 60 yilida Numidiyaga hukmronlik qildi hamda mil. avv. 147-yilda vafot etdi. Masinussa davrida mamlakat iqtisodiyoti rivojlandi. Yangi shaharlar qurildi. Qo‘shni mamlakatlar bilan savdo aloqalari kengaydi. Egey dengizi havzasiga g‘alla eksport qilindi. Karfagen bilan iqtisodiy aloqalar rivojlanib, Karfagen mahsulotlari Numidiyaga chiqarildi. Lekin Karfagen bilan numidiyaliklar o‘rtasida o‘zaro to‘qnashuvlar to‘xtamadi. Numidiya davlati Rim homiyligi ostida Karfagen bilan doimiy to‘qnashuvlarni keltirib chiqardi. Sabr-toqati tugagan Karfagen Numidiyani tiyib qo‘yishga qaror qildi. Karfagen qurollana boshladi. Rimning armiyani tarqatishi, flot zahiralarini tugatishi talabini xalq oqsoqollar kengashi bajarishiga yo‘l qo‘ymadi. Masinissa ishni ochiq to‘qnashuvgacha olib bordi. Rimga Karfagenni jazolash uchun bahona topildi.

III Puni urushi (mil. avv. 149 – 146-yillar). Rim Numidiyaning Karfagen bilan ixtilofini qo‘llab-quvvatladi. Rim savdo-hunarmandchilik tabaqalari O‘rtayer dengizi havzasi savdosida monopol mavqega ega bo‘lish uchun raqib Karfagenni yanchib tashlashni Rim senatidan qat’iy talab qildilar. Karfagen qirg‘oqlariga Rim armiyasi bilan kelib tushgan Rim konsullari og‘ir shartlarni qo‘ydilar. Karfagenda bu paytda hokimiyat tepasida Rim bilan murosa qilish tarafdorlari turib, ular Rimning har qanday shartlariga rozi edilar. Utika shahriga kelgan Rim konsullari barcha qurol-yarog‘ni topshirishni talab qildilar. Karfagen o‘zining ulkan qurol-yarog‘ zaxirasini rimliklarga topshirdi. Shundan so‘ng konsullar Karfagen shahrini to‘la buzib tashlab, ularga shaharni tark etib, den-

gizdan 15 km uzoqlikda joylashishni talab qildilar. Bu talab – Karfagenni dengiz savdosidan mahrum qilinishi uni halok qilish bilan teng edi. Xalq bu xabarni keltirgan xabarchilarni va shaharda shu vaqtda bo‘lgan rimliklarni burdalab tashladi. Rimning bu talabidan qahr-g‘azabga to‘lgan Karfagen 500 minglik aholisining o‘z ozodligi va erkini himoya qilishga ahd qildi. Rimliklarni chalg‘itish uchun karfagenliklar go‘yoki Rim senatidan shafqat so‘rab murojaat qilish uchun 30 kun muddat so‘radilar. Rim elchilari qurolsiz Karfagen hech qanday xavf tug‘dirmaydi deb o‘ylab, bu iltimosni qabul qildilar. Karfagen aholisi Rim armiyasidan o‘ta maxfiy mudofaaga tayyorlandi. Shaharda ish qaynab, qurol-yarog‘ yasalib, mudofaa uchun manjaniqlar tayyorlanib, jamoat inshootlari buzilib, shahar devorlari mustahkamlandi. Shu tarzda mil. avv. 149-yilda III Puni urushi boshlandi.

Tabiiyki, karfagenliklar bu talabni qat’iy rad qildilar va o‘z shaharlarini oxirigacha himoya qilishga ahd qildilar. Urush boshlanib, Rim armiyasi Karfagenni uch yil qamal qildi. Bunday qudratli davlat bilan qo‘shni bo‘lishdan cho‘chigan Masinissa rimliklarga hech qanday yordam ko‘rsatmadi. Rimliklar shaharni ikki yil qamal qildilar. Lekin hech qanday natija bo‘lmadi. Shunda senat shahar qamaliga boshchilik qilishni II Puni urushida Karfagen qamaliga rahbarlik qilgan Sitsipionning o‘g‘li Emiliy Sitsipionga topshirdi. Sitsipion shahar qamalini quruqlik va dengizdan to‘la qurshab olib amalga oshirdi. Nihoyat, qamalning uchinchi yili oxirida Rim armiyasi shaharga bostirib kirdi. Karfagen aholisi har bir ko‘cha va har bir uyni himoya qildilar. Sitsipion shaharni yoqib yuborishga buyruq berdi. Shu yo‘l bilan u shahar himoyachilarining qarshiligini tugatmoqchi edi. Shahar 16 kun o‘t ichiga qolib, barcha imkoniyatlar tugagandan so‘ng, qamal boshidagi aholining o‘ndan

biri – 30 ming erkak, 25 ming ayol shahardan chiqdi. Shahar mudofaasiga boshchilik qilgan Gasdrubal xotini va ikki voyaga yetmagan o‘g‘illari hamda 1000 ga yaqin kishi bilan farovonlik ilohi ibodatxonasiga yashirindilar. Rimliklar ularni ochlikka mahkum etdilar. Qamal qilinganlar oxirgi daqiqalargacha taslim bo‘lmay, o‘tda kuyib halok bo‘lish uchun ibodatxonaga o‘t qo‘ydilar. Oxirgi daqiqalarda Gasdrubal dosh bera olmay u faqat bir o‘zi ibodatxonadan yugurib chiqib, rimliklardan o‘ziga shafqat qilishni so‘radi. Buni ko‘rib turgan xotini uni qilmishidan nafratlanib, oldin ikki o‘g‘lini keyin o‘zini o‘tga tashlab halok bo‘ldi. Tirik qolgan shahar aholisi qul qilib sotib yuborildi. Karfagenni davlat sifatida yo‘q qilishni maqsad qilgan Rim senati unga senat komissiyasini jo‘natdi. Karfagenga kelgan senat komissiyasi shaharni to‘la buzib tashlash qarorini chiqardi. Shahar yer bilan yakson qilindi.

Karfagen davlati hududida Rimning Afrika provinsiyasi tashkil qilindi. III Puni urushidan so‘ng Rim G‘arbiy O‘rtayer dengizining eng qudratli davlatiga aylandi. Rim Italiyadan tashqari Sitsiliya, Sardiniya va Korsikaga egalik qildi. Mil. avv. 241-yil Sitsiliya Rimning birinchi provinsiyasi (qaram yer) bo‘ldi. Mil. avv. 227-yil Sardiniya, Korsika, mil. avv. 197-yil Iberiya hududida (rimliklar uni Ispaniya deb atadilar) ikki provinsiya tashkil etildi.

2.Illiriya urushlari. Karfagen bilan birinchi urushdan so‘ng Rim O‘rtayer dengizining g‘arbiy qismida xalqaro savdoda oldingi o‘rinlardan birini egalladi. Mil. avv. 229-yilda Bolqon yarim oroliga ko‘z tikildi. Bu vaqtda Adriatika dengizining shimoli-sharqiy qismida turli illir qabilalarini birlashtirgan Illiriya davlati kuchaydi. Adriatika dengizida dengiz qaroqchiligi mavjud edi. Italiya savdogarlari Rim hukumatiga shikoyat qildilar. Illiriya podshohi malika Tevtaga illir-

larni dengiz qaroqchiligida ayblab, bir necha talablar qo‘ydi. Malika bu talablarni bajarishdan bosh tortdi. Rim senati uchun Illiriyaga qarshi urush boshlashga bahona bo‘ldi. Rim Illiriyaga qarshi Axey va Etoliya ittifoqlari bilan ittifoq tuzib, mil. avv. 228-yilda urushga kirdi va g‘alabaga erishdi. Tinchlik shartnomasiga ko‘ra, Illiriya hududining bir qismini yo‘qotdi. Adriatika dengizida suzishdan mahrum etildi va tovon to‘lashga majbur bo‘ldi. Kerkira oroli va Epidam va Adriatika dengizi qirg‘og‘idagi boshqa shaharlar Rim bilan ittifoqqa kirishga majbur etildi. Ikkinchi Illir urushida ham Rim g‘olib chiqdi va Adriatika dengizi havzasida o‘z mavqeyini mustahkamladi. Rimning bu hududga ekspansiyasidan Makedoniya hushyor tortib, Rim agressiyasiga qarshi turish choralarini ko‘ra boshladi.

Makedon urushlari. II Puni urushidan so‘ng Rim Ortay Adriatika dengizi havzasiga ega bo‘lish uchun harakat boshladi. Misr, Salavkiylar, Makedoniya davlatlarining o‘zaro urushlari rimliklarni bu hududda o‘z hukmronligini o‘rnatishini yengillashtirdi. Kuchli Makedoniya davlati Rimning Yunonistonga suqilib kirishiga asosiy to‘siq bo‘lib, Rim bu davlatni zaiflashtirish uchun payt poylar edi. Adriatika dengizida dengiz qaroqchilarining ko‘payib ketishi va bir necha shaharlarning bu qaroqchilardan shikoyati Rim flotini mil. avv. 229-yilda Adriatika dengizi havzasiga kirishiga yaxshi bahona bo‘ldi. Bolqon yarim orolining g‘arbiy qirg‘oqlarida Rim garnizonlari paydo bo‘ldi. Shu sababli Rim o‘zining bu havzada hukmronligini o‘rnatish uchun jadal urush harakatlarini boshladi.

Birinchi rim-makedon urushi. Sitsiliya oroli bosib olingandan keyin Rim Bolqon yarim oroliga ko‘z tikdi. Bu hududda Rim agressiyasiga qarshi tura oladigan kuchli raqib qudratli Makedoniya davlati edi.

Rimliklar Makedoniyaga qarshi uch marta (mil. avv. 206, 197 va 168-yillar) urush olib bordilar. Makedoniya podshohi Filipp V Rimga qarshi Karfagen davlati bilan ittifoq tuzib, mil. avv. 216-yilda Illiriyada urush harakatlarini boshladi. Karfagen bilan urushda band bo‘lgan Rim Makedoniyaga qarshi urushga yetarli qo‘shin ajrata olmas edi. Shu sababli Rim senati diplomatik yo‘l bilan mil. avv. 212-yilda Etoliya ittifoqi, Sparta, Elida va Kichik Osiyodagi Pergamni Makedoniyaga qarshi ittifoqini tashkil etdi. Bu ittifoq Makedoniyaga qarshi urush harakatlarini boshladi. Rim tomonidan faqat kichik yordamchi harbiy qism bu urushga qatnashdi. Urush mil. avv. 205-yilda har ikki tomon kuchlarining zaiflashuvi bilan tugadi.

Ikkinchi rim-makedon urushi. Rim davlati mil. avv. 201-yilda qudratli dengiz davlati Karfagen bilan urushda g‘olib chiqib, katta miqdorda o‘ljalarga ega bo‘ldi. Rim g‘arbiy O‘rtayer dengizi havzasida kuchli davlatga aylandi. Endi rimliklar Bolqon yarim oroliga ko‘z tikdilar. Lekin bu hududda faqat Makedoniya davlati qarshi turar edi. Makedoniya Salavkiylar bilan ittifoqda bo‘lib, mil. avv. III asr oxirida zaiflashib qolgan Misrning Egey orollari, Kichik Osiyo va Suriya hududlarini bo‘lib olmoqchi bo‘ldi. Senat Rimni sharqning boy hududlariga bosqinchilik urushlariga rag‘batlantirdi. Xalq yig‘ini esa sharqqa yurishga qarshi chiqdi. Senat asosiy raqib Makedoniyaga qarshi ittifoqchilarni qidirdi. Pergam, Rodos va boshqa yunon shaharlari Makedoniyaning tazyiqidan qutulishni ko‘zlab Rimdan yordam so‘radilar. Rim senati Makedoniyadan bosib olingan Misrni yerlarini qaytarishni, yunon shaharlariga qarshi urushni to‘xtatishni talab qildi. Makedoniya podshohi Filipp Rimning bu talablarini bajarishdan bosh tortdi. Rim Makedoniyaga qarshi urush boshladi. Rim diplomatiyasi sharqda faol harakat qilib, Makedoniyaga qarshi it-

tifoqni shakllantirdi. Pergam podshohi Attal Kichik Osiyoda o‘z davlati mavqeyini kuchaytirish, Podos oroli Egey dengizi havzasi savdosida o‘z yetakchiligini ta’minlash uchun rimliklardan foydalanishga harakat qildi. Etroliya shaharlari ham o‘z mustaqilligini saqlab qolish uchun Rim salavkiylarni Misrning Suriyadagi mulklarini bosib olishiga qarshilik qilmadi. Antiox rimliklarga qarshi Makedoniyaga yordam bermaslikka va’da berdi. Rim diplomatiyasi Makedoniyani zaiflashtirish maqsadida faol harakat qildi. Makedoniyaning qo‘shnilari bilan Rim kuchli ittifoqni tashkil qildi.

Mil. avv. 200-yilda Rim Makedoniyaga qarshi urush boshladi. Fessaliyadagi mil. avv. 197-yil hal qiluvchi jangda Makedoniya mag‘lub bo‘ldi. Rim bu urushda hech qanday hududlarga ega bo‘lmadi.

Uchinchi rim-makedon urushi. Mil. avv. 171-yil III Makedon urushi boshlanganda faqat odrislar podshohi Kotis Makedoniyaning ishonchli ittifoqchisi bo‘ldi. Mil. avv. 168-yilda Pidna yonidagi jangda Rim qo‘shinlari Makedoniya qo‘shinlarini tor-mor qildi. Rim Makedoniyaning tarafdorlaridan shafqatsiz o‘ch oldi. Epirning 70 ta shahri talanib vayron qilindi va bu shaharlarning 150 ming aholisi qul qilib sotib yuborildi. Rim o‘zini yunon shahar-davlatlarini Makedoniya zulmidan ozod qiladigan xaloskor deb e’lon qildi. Amalda Makedoniya Yunonistondan haydab chiqarilganidan so‘ng, Bolqon Yunonistoni Rimga qaram bo‘ldi.

Bosib olingan hududlarda Makedoniya provinsiyasi tashkil topdi (mil. avv. 148-yil). Persey ustidan g‘alabadan so‘ng Rimga garovga olingan 100 ming yunon olib kelindi. Ularning ichida mashhur tarixchi Polibiy ham bor edi. Perseyning kutubxonasidagi nodir kitoblarni Rim konsuli o‘z o‘g‘illariga sovg‘a qildi. Tez orada Yunonistonga rimliklar zulmiga qarshi ha-

rakat boshlandi. Rimliklar bu harakatni shafqatsiz bostirdilar va mil. avv. 146-yilda Korinf shahrini vayron qildilar. Yunonistonda Axey provinsiyasi tashkil qilindi. Mil. avv. 133-yil Kichik Osiyoda Pergam podshohi vafot etdi va o‘z podshohligini Rimga vasiyat qildi. Rimliklar bu yerda yana bir Osiyo provinsiyasini tashkil qildilar.

2.Rimning Old Osiyoga ekspansiyasi. Rim g‘arbiy O‘rtayer dengizi havzasiga, sharq dunyosiga to‘la hukmronligini o‘rnatgach, ko‘z tikdi. Kichik Osiyo, Mesopotamiyadagi gullab-yashnagan shaharlar, serqatnov savdo yo‘llari Rimni o‘ziga jalb qildi. Zaiflashib borayotgan Salavkiylar davlati o‘zaro urushlar girdobida qolgan edi. Shunga qaramasdan, Salavkiylar Rimni sharqqa ekspansiyasini to‘xtatish uchun keskin harakat boshladilar. Podshoh Antiox III makedon urushidan so‘ng, sharqda Rimga qarshi ittifoq tashkil etishga urindi. Rimning ashshadiy dushmani Gannibal mil. avv. 196-yilda Antiox saroyidan panoh topdi. Gannibal Rimga qarshi bir necha davlatlarning ittifoqini tuzishni, bu ittifoqqa Karfagen ham kirib, Italiyaga bostirib kirishga taklif qildi. Lekin Antiox buning o‘rniga Yunonistonga yurish qilib yunonlar yordamiga umid qilib, urushni Yunonistonda boshladi. Faqat Etoliya va Beotiya ittifoqlari Antioxga bir oz yordam berdilar. Antioxni zaiflashtirish uchun rimliklar bor kuchlarini ishga soldilar. Axaya, Rodos va Pergam Rimga yordam berdilar. Zaif Makedoniya davlati eski shartnomaga amal qilib betaraf qoldi. Rim armiyasi Antiox qo‘shinlarini Yunoniston hududini tark etishga majbur qildi. Rimga ittifoqchi bo‘lgan yunon floti dengizda g‘alabaga erishdi. Kichik Osiyodagi Magnesiya yonida mil. avv. 190-yilda hal qiluvchi jangda rimliklardan Antiox III qo‘shinlari yengildi. Salavkiylar Yevropadagi hududlari, Osiyodagi bir qism hududlaridan mahrum bo‘ldilar. Anti-

ox 12 yil davomida 15 ming talant miqdorida to‘lov to‘lash, 10 kema bilan cheklangan flot saqlash va jangovar fillardan foydalanmaslik majburiyatini oldi. Antioxning ittifoqchilari galatlar va kappadokiyaliklarning bir qismi rimliklar tomonidan qirib tashlandi, qolgani qul qilib sotib yuborildi. U Gannibalni rimliklarga topshirishga va’da berdi. Gannibal mamlakatdan chiqib ketdi. Suriya urushi Salavkiylar davlatini zaiflashtirib, ikkinchi darajali davlatga aylantirdi.

Bu vaqtda makedon podshohi Persey Rimga qarshi ittifoqni tashkil etishga urinib ko‘rdi. U Salavkiylar va Vifiniya bilan sulolaviy aloqalarni mustahkamlashga urindi. Xalqning yordamini olish uchun qarzlardan kechishga, qamalganlarni amnistiya qilishga va‘da berdi. Lekin Persey Rimga qarshi ittifoqni tuza olmadi. Rimning sharqqa ekspansiyasining asosiy maqsadi bu – hududdagi savdo hunarmandchilik markazlari va xalqaro savdo yo‘llari ustidan o‘z nazoratini o‘rnatish edi. Shu bilan birga sharq mamlakatlarining mo‘l-ko‘l moddiy boyliklarini talash ilinji rimliklarda kuchli edi. Rimning sharqqa ekspansiyasi Mesopotamiya, Suriyadagi davlatlar va Misrni mustaqil davlat sifatida tugashiga olib keldi. Rimning sharq mamlakatlariga bosqinchilik urushlari bu hududlarda iqtisodiy-ijtimoiy hayotni izdan chiqishi, aholining qashshoqlashuvi, siyosiy parokandalik va misli ko‘rilmagan vayronaliklarga olib keldi. Rim agressiyasiga uchragan hududlar bir necha yuz yilliklarda davom etgan tushkunlikka uchradi.

Rim jamiyatini o‘zida ham keskin o‘zgarishlar ro‘y berdi. Birinchi navbatda talonchilik urushlaridan olingan moddiy boyliklar Rim jamiyatida tekin hayot kechirish turmush tarzini yuzaga keltirdi. Rimning hukmron tabaqalari urush o‘ljalarining katta qismiga ega bo‘ldilar.Oddiy fuqarolar urush o‘ljalari hisobiga yashaydigan tekinxo‘r marginal qatlamga

aylandi. Qul mehnati erkin mehnatni siqib chiqardi. Rimning oddiy fuqarolari ongida jismoniy mehnatni o‘ziga or deb bilib, bu mehnat bilan qullar shug‘ullanishi kerak degan tushuncha shakllandi. Rim jamiyatida bekorchi, kasbi va ishini tayini bo‘lmagan, qarzga botgan va tekin non va tomoshalarga o‘rganib qolgan qatlam paydo bo‘ldi. Misli ko‘rilmagan boylik, o‘ta qashshoqlik bilan yonma-yon turgan tushkun bir jamiyat yuzaga keldi. Rimlik yozuvchi Rim jamiyatidagi bu holatni shunday tasvirlagan edi. «Qachonki boylik hurmat-e’tiborga sazovor bo‘lganda, shon-sharaf, hokimiyat, kuch-qudrat uning hamrohlari bo‘lganda, faxr-g‘urur so‘liy boshladi, kambag‘allik uyat, beg‘arazlik – yomonlik hisoblana boshladi». Гай Саллюстий Крисп. Заговор Катилины, стр. 40. Изд-во Худ. Лит. – М., 1970.

4. Harbiy tashkilot. Rim – kichik bir shahar-davlatdan qudratli davlatga aylanishi va bu davlatning ming yildan ko‘proq vaqt yashashi, uning siyosiy tizimi va tuzilmasining barqarorligini ta’minlagan omillaridan biri – Rim davlatida yuqori darajada shakllangan harbiy tashkilotning mavjudligi edi. Harbiy qo‘shinning jangovar qobilyatini yuqori darajada saqlab turish uchun u bir necha marta isloh qilindi. Grakx Rim qo‘shinini to‘ldirish bo‘yicha islohot o‘tkazdi (mil. avv. II asr oxiri). Harbiy sarkarda va konsul Gay Mariy (mil. avv. I asr) o‘tkazgan harbiy islohot Rim armiyasini mustahkamladi. Qo‘shin tarkibida endilikda mulki bo‘lmagan fuqarolar ham qabul qilindi. Harbiylar ma’lum miqdorda ish haqi va qurol-aslaha olar edilar. Harbiy xizmat muddati tinchlik yoki urush paytiga qaramay 16 yil etib belgilandi. Shundan so‘ng askarlar iste’foga chiqib, odatda, yer ulushi olganlar. Qo‘shinni saflanish va jangga kirish tartibi o‘zgartirildi. Har bir legionga eski nishon o‘rniga kumush burgut berildi. Intizom ancha yaxshilandi.

Askarlar doimo mashq qilishlari, lagerda ishlashlari, yo‘llar, harbiy mudofaa inshootlari qurishlari majbur qilib qo‘yildi. Har bir Rim fuqarosi 16 yoshdan 46 yoshgacha zaruriyat tug‘ilganda harbiy xizmatni o‘tashga majbur bo‘lgan. Odatda, Rim qo‘shini 4 legiondan iborat bo‘lib, har bir legionni 4200 piyoda va 300 otliq tashkil qilgan. Piyodalar nayza, keng qilich, to‘rtburchak qalqon bilan qurollanib, temir qalpoq kiyar edilar. Har bir legionga lotinlar va ittifoqchilarning kogortalari yordamga biriktirilgan. Qo‘shin tepasida konsullar turgan. Ularga senatorlar yoki harbiy tribunlardan legatlar yordamchi sifatida berilgan. Rim legionida birinchi qatorda 24 yoshgacha bo‘lgan yigitlar nayza bilan, ikkinchi qatorda 24-30 yoshli, uchinchi qatorda keksa va tajribali 31-46 yoshgacha bo‘lgan harbiy triariylar saflanib jangga kirgan.

Sharq dunyosining bir necha ming yillik harbiy san’ati, qurol-yarog‘larni tayyorlashning yuksak texnologiyasi rimliklar tomonidan o‘zlashtirildi. Rim armiyasi qalqon, qilich, qalpoq va pichoq bilan qurollangan. Qalqon Kichik Osiyo, Ossuriya va keltlarnikiga o‘xshash bo‘lgan. Qadimda Rim qalqonlari to‘g‘ri burchakli bo‘lgan, keyin aylana etrusk qalqonlari tarqaldi. Uning o‘lchami: balandligi 1 m 20 sm, eni 75 sm bo‘lgan. Qalqonlar charmdan yoki jezdan yasalib, chetlari metall zey bilan aylantirilgan, qalqonning yassi o‘rtaligiga tasvir tushirilgan. Imperiya davrida oval qalqonlar keng tarqaldi. Ular juda yengil, diametri bor-yo‘g‘i 30 sm bo‘lib, metall zey bilan charmdan yasalgan. Qalqonning ichiga egasining nomi o‘yib yozib qo‘yilgan. Qalpoq jezdan yuzga tushadigan himoya niqobi sifatida yasalgan. Boshda rimliklar charm va jundan qalpoq kiyganlar. Mil. avv. IV asrdan rimliklar uchida bo‘yalgan patlar yoki ot yollari bo‘lgan po‘lat qalpoqlarga o‘tdilar. Imperator Adrian davrida suvoriylar temirdan, oltin bilan hal-

langan, katta qizil tutamli niqob bilan qalpoqlar kiyishgan. Har bir legioner o‘zi bilan belkurak va qoziq olib yurar edi. Qo‘shin harbiy yurishda injener qismlari barpo etgan maxsus harbiy qarorgoh – lagerda turgan. Harbiy lager to‘rtburchak shaklda qurilib, 4 darvozali ikki ko‘chadan iborat bo‘lgan.

Rim armiyasining dong‘i ketgan mustahkam intizomi Rimning bir necha asrlar davom etgan bosqinchilik urushlaridagi g‘alabalarining asosiy omili bo‘ldi. Qo‘shinda intizom juda qattiq jazo va mukofotlar bilan saqlab turilar edi. O‘zini ko‘rsatgan legionerning ko‘kragiga mis taxtacha (keyinchalik bu orden bo‘lgan) ta’qib qo‘yilar edi. Legioner qo‘lida uning xizmatini rag‘batlantiruvchi belgi 3-4 qator bilakuzuk taqilar edi. Legioner uchun eng oliy mukofot Rim fuqarosini o‘limdan saqlab qolgani uchun beriladigan daraxt barglaridan qilingan gulchambar edi. Qamal qilinayotgan dushman shahrining devoriga kim birinchi bo‘lib ko‘tarilsa, u oltin toj bilan taqdirlanar edi. Lashkarboshi uchun oliy mukofot bu Rim shahridagi «Muqaddas yo‘l» bo‘ylab Kapitoliy tepaligiga jang aravasida ko‘tarilish edi. Zafar huquqini senat g‘alaba qilgan lashkarboshiga berar edi. Agar g‘alaba unchalik katta bo‘lmasa, zafar o‘rniga «ovatsiya» (qarsak chalish bilan olqishlash) yoki kichik zafar belgilanar edi. Qo‘shinda harbiy tribunlar katta harbiy boshliqlar bo‘lib, dastlab ularni konsullar tayinlar edi. Keyinchalik esa harbiy tribunlarni xalq yig‘ini saylaydigan bo‘ldi. Rimning istilochilik urushlarida olingan o‘ljalarning bir qismi jang tugashi bilan legioner va sarkardalarga taqsimlab berilgan. Legionerlarga harbiy xizmatlari uchun yer ulushi ajratib berilgan. Antik mualliflardan Plutarx, Vegetiy va boshqalar Rim armiyasi to‘g‘risida ma’lumotlarni yozib qoldirganlar. Bu ma’lumotlar qadimgi Rim harbiy tashkiloti to‘g‘risida atroflicha tushuncha hosil qilishga yordam beradi.

Rim harbiy tashkiloti. Rim qo‘shinining tashkil etilishi

Polibiy (er. avv. 200 – 120-yillar atrofida) eng yirik yunon tarixchilaridan. O‘z manbalariga tanqidiy qaradi, tarixchini o‘zi o‘rganadigan mamlakatlar va xalqlar bilan, harbiy harakatlar teatri bilan shaxsan tanishishga katta ahamiyat berdi. O‘z ko‘zlariga, quloqlariga qaraganda ko‘proq ishonish kerak, deb hisobladi. Shuning uchun ko‘p sayohat qildi. Rimning Makedoniya bilan uchinchi [1]urushidan keyin garov sifatida Rimga yuborildi. Rimda u boshqa axey zodagonlari bilan birga 16 yil turdi. Polibiy 40 jildli «Umumiy tarix» asarini yaratdi, undan faqat 5 kitob qolgan.

...Qachonki belgilangan kun yangi olinganlar to‘planganda, tribunlar ulardan eng yoshlari va kambag‘allarini yengil qurollanganlarga, ulardan keyin gastatlarga[2], eng gullab-yashnagan yoshdagilar – prinsepslarga[3], eng katta yoshdagilarni – triariylarga kiritadilar. Rimliklarda faqat nomlanishi va yoshiga qarab emas, qurol turi bo‘yicha farqlanadigan har bir legion shunday bo‘lingan edi. Jangchilarning taqsimlanishi quyidagicha amalga oshirilar edi: triariylar deb ataladigan keksalar olti yuz kishi bo‘lishi kerak edi, prinseps bir ming ikki yuzta, gastat ham shuncha, yengil qurollanganlar turini eng yoshlar tashkil qilar edi. Agar jangchilar soni 4 mingdan oshsa, jangchilarni turlar bo‘yicha taqsimoti o‘zgarar edi, triariylar bundan mustasno edi, ularni muntazam soni o‘zgarmas edi.

Gastatlar – nayzachilar, eng yosh yengil qurollangan jangchilar qo‘shinning birinchi jangovar chizig‘ini tashkil qilganlar; prinsepslar (birinchi, bosh) ye-

[1] Uchinchi mil. avv. 171 – 167-yillar.

[2] Hastat – Gastatlar – yosh, yengil qurollangan jangchilar, ular qo‘shinning birinchi chizig‘ini tashkil qilganlar.

[3] Prinsepslar – birinchilar, asosiylar.

tuk yoshda bo‘lgan 1200 og‘ir qurollangan jangchilar ikkinchi jangovar chiziqni tashkil qilganlar; triariylar – og‘ir qurollangan tajribali jangchilar, uchinchi jangovar chiziqni tashkil etganlar.

Tribunlar eng yosh jangchilarga qilich, drotik (kalta nayza) va yengil qalqon bilan qurollanishni buyurar edilar, qalqon mustahkam ishlanib, mudofaa uchun yetarlicha katta edi. Ko‘rinishidan qalqon doirasimon va eniga 3 futni tashkil qilar edi. Bundan tashqari, yengil qurollanganlar boshlariga tekis qalpoq kiyadilar, ba’zida bo‘ri terisi yoki shunga o‘xshash narsa boshni yopish uchun qo‘llaniladi. Boshliqlarga bu belgi janglarda jasur bo‘lganlarni yalqovlardan ajratish imkoniyatini berar edi. Nayza[1]ning yog‘och sopi, odatda, ikki lokt[2] va qalinligi bir dyum edi. Uning uchi pyaden uzunligida bo‘lib, shunday ingichka va o‘tkirlangan ediki, birinchi zarbadan keyin albatta qayrilar edi. Raqib uni qaytib otmasligi uchun drotikdan har ikki tomon foydalanishi mumkin edi.

Ikkinchi yoshdagi gastat deb ataladigan jangchilarga to‘la qurol-yarog‘da yurishga buyruq beriladi. Gastatlarning quroli tarkibiga eng avvalo yassi qismiga kengligi ikki yarim fut, uzunligi 4 fut bo‘lgan katta o‘lchovdagi bir pyadendan uzunroq bo‘lgan qalqon kiradi. Qalqon ikki taxtadan yasalgan bo‘lib, bir-biriga buqa yelimi bilan yopishtirilgan va tashqi tomondan dastlab bo‘z, keyin buzoq terisi qoplangan edi. Qalqonning chetlari yuqori va pastdan maxsus temirdan yo‘llarga ega, qaysiki uni qilich zarbidan himoya qiladi va jangchiga qalqonni yerga qo‘yishga imkon beradi. Qalqon yana toshlar, sarissalar va har xil xavfli otiladigan snaryadlarning kuchli zarbalaridan jangchini himoya qiladigan temir qoplama bilan ta’minlangan. Qurol-yarog‘ tarkibiga qalqondan tash-

[1] Nayza – drotik.

[2] Lokt – 1 lokt – 0,5 metr.

qari, o‘ng songa taqiladigan iber[1] qilichi deb ataladigan qilich kiradi. Qilich qattiq va mustahkam tig‘ga ega, shuning uchun u yuqori darajada kesadi va har ikki tomoni bilan og‘ir zarba beradi. Bu qurollarga ikkita irg‘itiladigan nayzani, mis qalqon va pichoqni qo‘shish kerak. Nayzalar og‘ir va yengillarga ajratiladi. Dumaloq, og‘ir nayzalar eniga pyaden bo‘ladi, to‘rt qirralilari har tomonda shuncha bo‘ladi. Yengil nayza o‘rtacha kattalikdagi uzun dastali nayzaga o‘xshaydi va uni og‘ir nayza bilan birga taqadilar. Har ikki turdagi nayza yog‘ochining uzunligi uch lokt atrofida. Har bir nayza temir uch va nayza dastasi uzunligidagi ilmoq bilan ta’minlangan. Nayza uchi dasta bilan mustahkam birlashtirilgan va ish uchun juda qulay, shuning uchun uni yog‘och o‘rtasigacha tushiriladi va ko‘pgina temirchalar bilan mustahkamlaydilar, shuning uchun birlashtirilgan qismlar nayza ishlatilganda, temir sinmagan taqdirda, hech qachon buzulmaydi; shuningdek, nayza uchi asosidagi, qalinligi u yog‘och dasta bilan birlashgan joyda bor-yo‘g‘i bir yarim barmoq keladi. Rimliklar nayza qismlarini birlashtirishga shunday e’tibor beradilar. Barcha aytilganlardan tashqari, ular dubulg‘alarini uchta tik bo‘lgan qizil yoki qora rangdagi deyarli uzunligi loktgacha bo‘lgan pat bilan bezaydilar. Dubulg‘aning ustidagi patlar boshqa qurollar bilan birga, odam bo‘yini go‘yoki uzun qiladi va jangchiga chiroyli va basavlat ko‘rinish beradi. Ko‘pgina jangchilar uzunligi va kengligi pyaden bo‘lgan mis taxtachani – blyaxani (to‘g‘a) osib yuradilar, qaysiki ko‘krakga taqilgani uchun ko‘krak deb ataladi. Shu bilan qurol-yarog‘ tugallanadi. Senzorlar mulki 10 ming draxmadan ko‘p deb belgilangan fuqarolar qolgan aslahalarga ko‘krak o‘rniga sovut qo‘shadilar. Prinseps va triarilar ham

[1] Iber – Ispaniyada yashagan qadimiy qabila

aynan shunday qurollanganlar, faqat shu farq bilanki, triariy drotiklar o‘rniga nayza ega…

Rimliklar lager[1](qarorgoh)ni quyidagi ko‘rinishda qiladilar: hamma vaqt lager uchun maydon tanlanishi bilan, butun lagerni kuzatish va buyruqlar berish uchun eng qulay joy konsul chodiri uchun ajratiladi. Konsul chodiri bo‘lishi kerak bo‘lgan joyda bayroq o‘rnatilib, bayroq atrofida to‘rtburchakli bo‘shliq o‘lchanadi, shuningdek, uning har bir tomoni bayroqdan yuz fut masofada turadi, maydonni o‘lchangan yuzasi to‘rt plefra[2]. Har doim bu to‘rtburchakni bir tomonidan aynan lagerni suv va oziq-ovqatlar bilan eng yaxshi ta’minlanishi kutiladigan tomonidan Rim legionlari quyidagi tartibda joylashtiriladi: har bir legionda, biz hozir aytganimizdek, olti tribun bo‘ladi, ikki konsulning har biriga ikki legion bo‘ysunadi, shundan yaqqol ko‘rinadiki, konsullarni yurishda 12 tribun hamrohlik qiladi. Shunday qilib, barcha tribunlarni chodirlari yuqorida aytilganidek, to‘rtburchak tomonga parallel to‘g‘ri chiziqda, undan otlar, yuk hayvonlari va tribunlarni boshqa zaxiralari uchun yetarli joy qolishi uchun ellik fut uzoqlikda qo‘yiladi. Yuqorida aytilgan shakl chodirlar ortida turadi, to‘rtburchakni tashqi tomoniga qaratilgan; uni biz hamma vaqt butun lagerning tomoni deb hisoblaymiz. Tribunlarning chodiri biri ikkinchisidan teng masofada va shunday uzoqlikda Rim legionlarini butun kenglik bo‘yicha qamrab oladi.

Keyin yana tribunlarning chodirlarini davomiyligi bo‘yicha ularni oldidan to‘g‘ri chiziqdan bu keng maydonni cheklaydigan yuz fut bo‘shliq o‘lchanadi, legionlarning turar joylari bunyod qilinadi, yuqorida belgilangan to‘g‘ri ikkiga bo‘linadi, bo‘lish nuqtasi to‘g‘ri burchak ostida chiziq tortiladi, uning ikki to-

[1] Lager – qarorgoh.

[2] Plefra – taxminan 30, 83 m ga teng yunon o‘lchovi.

moni bo‘yicha ikki legionning otliqlari joylashtiriladi, bir-biriga qarama-qarshi ellik fut masofada, qiya chiziq o‘zaro o‘rtalik o‘rtasidan o‘tadi.

Shunday joylashuvda butun lager teng tomonli to‘rtburchak ko‘rinishida bo‘ladi, undan o‘tkazilgan ko‘chalar va boshqa qurilmalar lagerni shaharga o‘xshatadi. Chodirlar barcha tomondan val *(to‘siq)* dan 200 fut uzoqlashtirilgan. Bu erkin bo‘shliq katta va turli xil qulayliklar keltiradi. U lagerga qo‘shinni kirish va chiqarishga juda qulay, chunki alohida qismlar o‘z ko‘chasidan bu erkin bo‘shliqqa chiqadi, shu sababli jangchilar bir yo‘lda to‘qnashmaydilar va bir-birini ag‘darib tashlamaydi. Shu yerga rimliklar bosib olingan hayvonlarni olib keladilar, dushmandan olingan o‘ljani olib kiradilar va bular bu yerda tunda mustahkam qo‘riqlanadi. Rimliklar askar uchun quyidagi turdagi qilmishlarni qo‘rqoqlik va uyat-sharmandalik deb hisoblaydilar: agarda kim rag‘batlantirish olish ilinjida tribunlar oldida soxta jasoratni ko‘rsatsa, keyin yana kim o‘ziga topshirilgan postni qo‘rqoqlik qilib tashlab ketsa yoki jang qizg‘in paytda qo‘rqoqlik qilib, qandaydir qurolini tashlasa... Mana shuning uchun ayrim askarlar postda turganda ko‘p sonli dushmanni ko‘rib, jang maydonidan qaytganlaridan so‘ng jazo olishdan qo‘rqib, o‘z postini tashlab keta olmaydi. Jangda qalqon, qilich yoki qandaydir qurolni yo‘qotganlar, yo‘qotganlarini topish umidida yoki yuvilmaydigan sharmandalikdan, o‘z o‘rtoqlarining qiynoqlaridan faqat o‘lim xalos qiladi, degan fikrda dushman saflariga aqlsizlarcha tashlanar edilar.

Vegetiy. Harbiy ishning qisqacha bayoni

II kitob. 1-bob. Harbiy kuchlar… uch qismga bo‘linadi: otliqlar, piyodalar va flot. Otliqlar qismi qanotlar deb ataladi, chunki ular qanotlarga o‘xshab, u va boshqa tomondan jangovar safni to‘sib turadi… Boshqa turdagi legionar deb ataladigan otliqlarning turi bor, chunki ular legion tarkibiga kiradi. Flot ham ikki turdan tuzilgan: bir xil kemalar liburnlar, boshqalari kruserlar deb ataladi.

1. Suvoriylar bilan tekisliklar himoya qilinadi. Flot bilan dengizlar yoki daryolar, piyodalar bilan tepaliklar, shaharlar, tekis va darasimon joylar himoya qilinadi. Shundan tushunarliki, davlatga hamma joyda yaroqli bo‘lishi mumkin bo‘lgan piyodalar ko‘proq kerak; va bu askarlarning katta qismi kam xarajatlar bilan saqlanishi mumkin. «Qo‘shin»[1] nomi o‘zining asosiy mashg‘ulotlari, aynan mashqlar[2]dan oldi. Qaysiki u nima uchun bu nomni olganini hech qachon unutmasligi uchun. Piyodalarning o‘zi ikki turga bo‘lingan:

1. Yordamchi qismlar. 2. Legionlar.

Yordamchi qismlar ittifoqchilik va shartnoma munosabatlarida bo‘lgan qabilalardan yuboriladi; Rim jasorati esa, hamma vaqt o‘z kuchini doimiy legionlarda ko‘rsatar edi. «Legion» atamasi eligere[3] («tanlab olish») so‘zidan kelib chiqadi, bu so‘zni o‘zi askarlarni tanlab oladiganlardan sadoqat va harakat qilishni talab qiladi. Odatda, yordamchi qismlar bo‘yicha kam sonli ko‘ngilli askarlar, legionlarga ancha ko‘proq askarlar olinadi.

5. Shunday qilib, jasoratli, jismoniy kuchi bilan ajralib turgan yosh askarlarni sinchiklab tanlab olib, bu

[1] «Qo‘shin» – exercitus.

[2] Mashq – exercitum.

[3] Eligere – «tanlash».

yerga har kunlik mashqlarni, to‘rt yoki undan ko‘proq oy davomida qo‘shib, bizning baxtli, yengilmas hukmdorimiz buyrug‘i va rahbarligi bo‘yicha legion tashkil etiladi. Qachon askarlarning terisiga o‘chirib bo‘lmaydigan *(kuydirilgan)* nuqta[1] belgilangandan keyin, askarlar ro‘yxatga kiritiladilar va keyin, odatda, ularni qasam ichishga majbur qiladilar, bu harbiy qasam deb ataladi… Askarlar imperator nima buyursa, shuni sidqidildan qilaman, hech qachon harbiy xizmatni tashlab ketmayman, Rim davlati uchun o‘limdan qaytmayman deb qasam ichadilar.

2 …Endi men, legionlar va yordamchi qismlar o‘rtasidagi farq, mening fikrimcha qandayligini bayon qilaman. Yordamchi qismlar turli joydan turli miqdorda kelib, urushga borganda, bir-birlari bilan o‘rganish bilan ham, tanishlik bilan ham, malaka bilan ham o‘zaro bo‘g‘lanmaganlar. Ularda jang qilish usullari har xil, ular qurolni har xil ishlatadilar[2]. Va albatta, janggacha bir-birovlaridan kuchli farq qilganlar, g‘alabaga sekin keladilar. Nihoyat, yurishlarda barcha askarlar bir ishora va buyruq bo‘yicha harakat qilishi va saflanishi juda muhim, kim ilgari buni birgalikda va birdek qilmagan bo‘lsa, bu buyruqlarni birdaniga bajarishlari mumkin emas. Lekin bu qismlar ham, agar ularni deyarli har kun turli mashqlar bilan bir yil davomida o‘zlarini mustahkamlashga majbur qilsalar, ko‘p foyda keltirishlari mumkin. Yordamchi qismlar hamma vaqt legionlarga yengil qurollanganlar sifatida, jangovar safga qo‘shilar edilar. Jang vaqtida asosiy yordamdan ko‘ra,

[1] Nuqta – askarning qo‘liga qizdirilgan temir bilan tamg‘a bosilgan.

[2] ishlatadi – yordamchi qo‘shinlarning ko‘p qismi tribun va prefektlar qo‘mondonligi ostidagi piyoda kogorta va kavaleriyadan tashkil topgan edi. Qurollanishi, o‘rgatilishi va intizomi bo‘yicha bu qismlar legionlardan kam farq qilar edilar.

qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilar edilar. Legion esa, o‘zining og‘ir qurollangan kogortalari bo‘lgan prinsiplar, gastatlar, triarilar, antesignanlar[1] va yengil qurollangan piyodalar qismlari bo‘lgan, kalta nayza otuvchilar, tosh otuvchilar, balistariylar, o‘zlarining tarkibiga kiritilgan legionlar otliqlarga ega bo‘lib, bir xil ko‘rsatmalarga birdamlikda rioya qilib va lagerni mustahkamlab, jangovar safga tizilib, jang olib borib, barcha munosabatlarda yaxlit bo‘lib, hech qanday tashqi yordamga muhtoj bo‘lmasdan, bunday legion, odatda, har qanday dushman olomonini yengishi mumkin. 4. Barcha tarixchilarda topish mumkin, har bir konsul dushmanga qarshi yurish qilganda, ular ko‘p sonli bo‘lgan taqdirlarida ham, ittifoqchilarning yordamchi qismlari qo‘shimchalari bilan faqat ikki legionga qo‘mondonlik qilganlar. Ularning o‘rgatilganligi, o‘ziga ishonchi shunday ediki, har qanday urush uchun ikkita legion to‘la yetarli deb hisoblanar edi. Shu sababli, men qadimgi legionning tuzilishini harbiy qonunlar normalariga ko‘ra bayon qilaman.

6. Bilish kerak, bir legionda o‘n kogorta bo‘lishi lozim. Lekin birinchi kogorta harbiylarning soni bilan, qadr-qimmati bilan boshqalardan ustun turadi. U o‘ziga kelib chiqishi va ma’lumoti bo‘yicha tanlangan yerlarni kiritadi. U burgutni oladi: bu Rim qo‘shinining bosh bayrog‘idir, bir vaqtning o‘zida butun legionning bayrog‘i hisoblanadi. U imperatorlarning tasviriga e’tiqod qiladi, boshqacha aytganda, ilohiy va haqiqiy bayroqlar. Bu kogorta sovut kiygan 1150 piyodalar, 132 otliqga ega bo‘lib, «mingboshilar kogortasi» deb ataladi, u legionning boshi hisoblanadi, undan qachon jang boshlansa, front qurila boshlanadi. Ikkinchi kogorta 555 piyoda, 66 otliqlardan tashkil topib, «besh yuzlar kogortasi» deb ataladi. Bu o‘n ko-

[1] Antesignanlar – so‘zma-so‘z «bayroq oldida turadiganlar» – birinchi qatorda jang qiladigan tajribali saylanma jangchilar.

gorta bilan shunday tarzda 6100 piyodalar, 730 otliqlarga ega bo‘lgan butun legion yig‘iladi. Shunday qilib, bir legionda askar soni kam bo‘lishi mumkin emas: agarda mingtalik faqat bir kogorta emas, qolganlarini ham yig‘ishga buyruq berilsa, ba’zida ko‘p sonli ham bo‘ladi.

7. Legionni qadimdan tashkil etilishini bayon etib, endi men asl xizmat qaydnomalarini qo‘llab, askar – prinsiplarni, ularning haqiqiy aytilishi «prinsipiylarni» unvon va martabalarini ko‘rsataman. Katta harbiy tribun muqaddas ko‘rsatma kuchi bilan, imperatorning xohishi bilan tayinlanadi. Kichik tribun o‘z nufuziga ko‘p yillik xizmati bilan erishadi[1]. Burgutdorlar deb burgutni[2] ko‘taradiganlarga aytiladi. Opsion odoptare[3] («o‘g‘il qilib olish») fe’lidan aytilgan, chunki agar ularning boshliqlari kasal bo‘lib qolsa, ular o‘g‘il qilib olingan va o‘rinbosarlar sifatida, odatda, o‘ziga umumiy rahbarlikni qabul qiladi. Bayroqdorlar deb, bayroqni olib yuradiganlarga aytiladi. Tesserarilar deb, askar chodirlari bo‘yicha tesserlarni xabar qiladiganlarga aytiladi; tesser deb, boshliqning buyruqlariga aytiladi. Uning kuchi bilan qo‘shin qandaydir ishga yoki urushga chiqadi. Kampegenlar yoki antesignanlar deb aytilishiga sabab, ularning kuchi va botirligi bilan plas[4]da harbiy uquvi yaxshilanadi. Razmetchiklar[5] deb, oldinda borib lager uchun joy tayyorlaydiganlar aytilgan. Benefisiariylar deb, tri-

[1] Erishadi – Legionda olti tribun bor edi: bir tribun latiklav, senatorlar toifasiga tegishli bo‘lgan va besh tribun – avgustiklav suvoriylar toifasiga mansub bo‘lgan. Yosh senator uchun tribun – latiklav martabasi, uning mansab pog‘onasi boshlanishi edi, tribun avgustiklav martabasini suvoriy qoidaga ko‘ra bir necha yil yordamchi qism komandiri sifatidagi xizmatidan keyin olar edi.

[2] Burgut – bayroqni.

[3] Odoptare – «o‘g‘il qilib olish».

[4] Plas – maydon.

[5] Razmetchik – belgilovchilar.

bunlarni ularga moyilligi[1] tufayli yuqori ko‘tarilganlari uchun aytiladi.

Librariylar kitobga[2] (libri) askarlarga berilishi kerak bo‘lgan ratsionalni kiritadilar. Burg‘uchilar, gornchilar burg‘u yoki bukilgan mis asboblari va shoxlarda ovozlari bilan surnay chaladiganlar, ular jang boshlanganidan xabar beradilar. Qo‘shinda duplyarlar[3] ikki payok oladiganlar; simplyarlar faqat bir payok oladiganlar. Mensorlar – lagerda futlar[4] bo‘yicha joy o‘lchaydigan yoki shaharlarda turish uchun kvartira topadiganlar. Ikki zanjir taquvchilar bo‘lar edilar. Quyma oltin zanjir jasorat uchun mukofot edi; kim unga erishgan bo‘lsa, teng payok, seskviplyarlar bir yarim ulush olar edilar. Keyin nomzod – duplyarlar, nomzod – simplyarlar; bular hammasi imtiyozlar bilan mukofotlanadilar[5] prinsipallar. Qolganlar xizmatchilar[6] deb ataladilar, chunki ular *(umumiy)* xizmat majburiyatlarini bajaradilar.

8.Qadimgi odat belgilangan edi, legionning birinchi manipul[7]dan birinchi darajadagi senturion[8] (primi pili) oldinga chiqarilib, nafaqat burgut boshida turar edi, yana to‘rt senturionga: birinchi qatordagi 400 askarga qo‘mondonlik qilar edi. U butun legion boshlig‘i sifatida tegishli hurmat va imtiyoz olar edi. Keyin gastatlarning birinchi *(senturionni)* va ikkinchi qatorda ikki senturiy: 200 askarga qo‘mondonlik qilar edi *(prinsiplar),* birinchi kogortasi senturioni bir

[1] Moyillik – benefislum.

[2] kitob – libri.

[3] duplyar – oddiy askarlarni ikki oylik maoshiga teng ish haqi oladigan prinsipallarga aytiladi.

[4] fut – yuza o‘lchovi.

[5] mukofotlanadilar – odatdagi harbiy naryad va ishlardan ozod qilinganlar.

[6] Qolgan xizmatchilar – munifices.

[7] manipul – ikki senturiydan tashkil topgan qism.

[8] senturion – primi pili.

yarim senturiyga yoki 150 askarga qo‘mondonlik qilar edi. Uning ishi legionda barcha ishlarni tartibga solish edi. Shunga teng gastatlarning ikkinchi senturioni bir yarim senturiyga, 150 odamni boshqarar edi. Triarilarning birinchi senturioni yuz askarga rahbarlik qilar edi. Birinchi kogortani o‘n senturiysiga 5 ordinariylar rahbarlik qilar edi. Ular qadimda katta imtiyoz va hurmat bilan taqdirlanar edilar, shuning uchun legiondagi boshqa jangchilar ishga jon-jahdi bilan, mehnat va sadoqat bilan shunday mukofotga erishishga harakat qilar edilar. Alohida senturiyga ega senturionlar ham bor edi. Har o‘n askar boshiga qo‘yilgan o‘nboshilar bor edi. Endi ular chodir bo‘yicha katta deb ataladilar. Ikkinchi kogorta 5 senturionga ega edi; teng ravishda uchinchi va to‘rtinchi toki o‘ninchigacha. Legionda hammasi bo‘lib, 55 senturion bor edi. Imperatorlar qo‘shinga konsulyarlardan legatlarni yuborar edilar, legionlar va barcha yordamchi qismlar tinchlik yoki urush olib borishda ularga bo‘ysunar edilar. Lekin aslida barcha ishlarni hal qiluvchi legion prefekti edi, birinchi martabali oliy boshliq mavqeyiga ega bo‘lib, legion va uning muovini yo‘q bo‘lganda, oliy hokimiyat unga tegishli edi. Tribunlar, senturionlar va qolgan askarlar uning buyrug‘ini bajarar edilar. Parollar va qo‘riqchilar bo‘yicha yoki yurishga jo‘nash bo‘yicha topshiriqlar u tomonidan berilar edi. Agar askar qandaydir huquqbuzarlik qilsa, u legion prefektining sankiyasi bilan tribun tomonidan jazolash uchun jo‘natilar edi. Uning boshqaruviga quyidagilar tegishli edi: askarlar uchun qurollar, ularning otlari, kiyimi, oziq-ovqati (*payogi).* Uning ko‘rsatmalarini qo‘shindagi qattiq intizomni nafaqat piyodalar, balki legionga biriktirilgan otliqlar ham o‘rganishar edi. Uning o‘zi adolatli, harakatchan, kamsuqum bo‘lgan holda, doimiy mehnat bilan unga *(ishga*) sodiqlik, har qanday qobillik-

ni uqtira borib, qo‘l ostidagilarni sharafi prefektning shon-shuhratida aks etishini bilgani holda, o‘ziga topshirilgan legionni mukammallikga olib borar edi.

10. Lagerning prefekti ham bor edi, ammo martabasi bo‘lib, muhim ishlar bilan mashg‘ul edi; lager joylashgan joy, to‘siq va zovurlar hajmini belgilash uning vazifasiga kirar edi. Askarlar chodirlari, chaldevorlari va bor lash-lushi bilan u ruxsat bergach, bilan joylashtirilar edi. Bundan tashqari, kasal askarlar, ularni davolaydigan tabiblar[1] uning ixtiyorida edi.

QADIMGI RIMNING HARBIY TASHKILOTI. MILODIY II – III ASRLAR

Rimliklar o‘z davrining eng mukammal harbiy tashkilotini yaratdi. Uning eng oliy ko‘rinishi va asosi legionlar edi. Bu tashkilot bir necha asrlar davomida boshqa xalqlar, mamlakatlar va davlatlar ustidan harbiy yetakchilikni ushlab turishga imkoniyat berdi. Rim qo‘shinini tashkil etish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni antik mualliflarning bir qancha asarlarida, jumladan, Polibiyning «Umumiy tarix»ida, Yustinianning «Digestlar»ida», Flaviy Vechetsiy Renatning (IV – V asr boshlari) asarida uchratish mumkin.

Rim huquqshunoslari traktatlaridan parchalar (Yustinian Digeslari)

49. 16. 2.2. (Arriy Menandrning «Harbiy ish to‘g‘risida» birinchi kitobidan)

3. 1. Harbiy jazolar quyidagilar: tan jazosi, pul jarimasi, *(navbatdan tashqari*) naryadlar berish, boshqa qo‘shin turlariga o‘tkazish, misol uchun pretorian

[1] Tabiblar – unga bog‘liq xarajatlar.

gvardiyasidan legionlarga yoki legionlardan boshqa yordamchi qismlarga o‘tkazish ko‘zga tutiladi, lavozimidan tushirish, sharmandali iste’fo. *(Harbiy xizmatchilar)* tosh konlariga ham konlardagi ishga ham, hukm qilinmaydilar va qiynoqqa solinmaydilar.

4. 9-10. *(Arriy Menandrning «Harbiy ish to‘g‘risida» birinchi kitobi*). Biz imperator buyrug‘iga ko‘ra dezertirlikdan keyin ko‘ngilli yoki yollanma asosida harbiy qismga kirganlar, harbiy jazoga tortilishlari kerak.

Lekin yanada og‘irroq jinoyat harbiy xizmatga da’vo qilishga emas, undan qochish bo‘ladi. Qadimda (*ko‘ngilli qo‘shin*) chaqirilishdan bo‘yin tovlaganlar, ozodlikning xoini sifatida qullikka berilar edilar, ammo endi harbiy xizmatning xarakteri o‘zgarishi bilan o‘lim jazosi qo‘llashdan voz kechdilar, chunki qo‘shin saflarining ko‘p qismi ko‘ngillilar bilan to‘ldiriladi.

5 pr-§1[1]. Hamma dezertirlar bir xil jazoga tortilmaydilar. Qo‘shinning turi, xizmat muddati, unvoni, lavozimi, unga yuklatilgan majburiyatlar xarakteri va uning o‘tmishdagi yurish-turishi e’tiborga olinadi; shunga teng holda aybdor bir o‘zi qochdimi yoki birortasi bilanmi, yoki ko‘pchilik bilanmi va dezertirlik vaqtida qandaydir boshqa jinoyat qildimi va aybdorning keyingi xatti-harakati hisobga olinadi. Aybdorning taqdiri agar u «majbur qilinganligi bo‘yicha» *(qismga)* qaytgan bo‘lsa, taqdiri boshqacha bo‘ladi. Agar dezertirlik tinchlik vaqtida sodir etilgan bo‘lsa, suvoriy martabasida pasaytirilishi lozim, piyoda askar qo‘shinni boshqa turiga o‘tkazilishi lozim. Urush vaqtida sodir etilgan shunday *(jinoyat)* uchun o‘lim jazosi beriladi.

6 pr-§8[2]. Harbiy jinoyat deb, umumiy intizomni talablarini buzadigan hamma narsa bo‘ladi, masalan,

[1] 5 pr-1§ – o‘sha muallif, ikkinchi kitob.

[2] 6 pr-8§ – o‘sha joy, 3-kitobdan.

qo‘rqoqlik, bo‘ysunmaslik, bekorchilik. Komandirga qo‘l ko‘targanga,o‘lim jazosi berilishi kerak, jinoyatning og‘irligi komandirning unvoniga qarab o‘sib boradi. Qo‘mondonga yoki provinsiya noibiga har qanday bo‘ysunmaslik o‘lim bilan jazolanadi. Kim safda turib, birinchi bo‘lib qochsa, namuna maqsadida boshqa harbiylar ishtirokida qatl qilinishi kerak. Dushmanga *(harbiy)* sirlarini yetkazgan ayg‘oqchilar xoindirlar va boshlari bilan javob beradilar. Bu oddiy askarga ham tegishli, qaysiki u dushman oldiga qo‘rqqanidan o‘zini kasallikka solsa. O‘z xizmatdoshini tosh bilan yarador qilgan, qo‘shindan haydalishi kerak, qilich bilan o‘lim jazosi berilishi kerak. Agar kimdir o‘zini o‘zi yarador qilsa yoki boshqa usul bilan o‘zini o‘ldirishga urinsa, imperator Adrian reskriptiga ko‘ra bunday urinishning motivini aniqlash lozim, agar ayblanuvchi chidab bo‘lmaydigan azoblar, hayotdan ko‘ngli qolish, kasallik, telbalik, uyat hissi ta’siri ostida harakat qilgan bo‘lsa, u o‘lim hukmiga duchor qilinmaydi, lekin qo‘shin safidan sharmandalik bilan chetlatiladi; agarda o‘zini oqlash uchun yuqorida ko‘rsatilgan motivlarga suyana olmasa, o‘lim bilan jazolanadi. Shunday oliy jazo chorasi, mast bo‘lish yoki yengiltak cheksiz ehtiros *(ta’siri ostida)* ayblanganga qo‘llanmaydi; ular boshqa qo‘shin turiga ko‘chiriladilar.

Kim o‘z komandirini himoya qilish imkoniyatiga ega bo‘lsa-da, lekin himoya qilmasa, hujum qilganga tenglashtiriladi; agarda u qarshilik ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lmasa u afv qilinishi lozim.

11. (*Marsian «Qoidalar» 2-kitobidan).*

Qullarga o‘lim xavfi ostida har qanday harbiy xizmat ma‘qul ko‘rilmaydi.

12. 1-2. *(Makr «Harbiy ish to‘g‘risida» 1-kitobidan).*

Qo‘shin qo‘mondoni majburiyatiga nafaqat intizom o‘rnatish, balki unga amal qilishni nazorat qi-

lish ham kiradi. Paternning yozishicha, kim qo‘shinga qo‘mondonlik qilishni anglasa, ta’tilni favqulodda siyrak berishi lozim, provinsiyadan tashqariga harbiy otlarni olib ketishga yo‘l qo‘ymasligi, askarlarni xususiy ishlarga, baliq ovi yoki ovga yubormasligi lozim. Tribunlarni yoki kim harbiy qismga boshchilik qilsa, uning majburiyatlariga quyidagilar kiradi: askarlarni lagerda ushlab turish, ular bilan mashqlar o‘tkazish, (*lagerni)* darvozalarini kalitini saqlash, vaqti-vaqti bilan qo‘riqchi postlarini aylanib chiqish, askarlarga oziq-ovqat tarqatish vaqtida ishtirok etish, *(ularni)* ovqatini tekshirish va tarozibonlarni suiiste’mollarini oldini olish, jinoiy ishlarni o‘ziga berilgan vakolat doirasida jazolash, shtab-kvartirada tez-tez bo‘lib turish, xizmatdoshlarining shikoyatlarini qabul qilish, kasallar ustidan nazorat qilish.

13. 3-4. (Makr «Harbiy ish to‘g‘risida» 2-kitobidan).

Iste’foning uch asosiy turi mavjud: faxrli, sababli va sharmandali. Faxrli-xizmatni muddati tugashi bilan beriladi, sababli *(shunday hollarda bo‘ladiki)* qachonchi askar jismoniy yoki ruhiy kasal bo‘lganda, harbiy xizmatga yaroqsiz hisoblanadi; sharmandali – qachonki, askar u qilgan jinoyati uchun qasamdan ozod qilinadi. Sharmandali asoslarda iste’foga chiqarilgan, Rimda qolishi mumkin, u *(buyruqda*) uni obro‘sini to‘kadigan vaziyatlar ko‘rsatilmay ozod qilingan bo‘lsa-da, baribir u qo‘shindan sharmandali iste’foga chiqarilgan hisoblanadi. Hurmatsiz askar nafaqat tribun yoki senturion jazolab qolmay, hatto prinsipal ham jazolashi mumkin; qadimgilar senturion uni jazolash niyatida bo‘lganiga qarshilik ko‘rsatganga, sharmanda bo‘lishi kerak deb hisoblaganlar, agar u senturion jezli *(senturion – muntazam o‘zi bilan uni hokimiyatini ramzi bo‘lgan va bir vaqtning o‘zida ayb qilgan askarlarni jazolash quroli bo‘lgan uzum novdasidan qilingan tayoqni olib yurgan)*ga yopishsa va

agar u ataylab bu jezni sindirsa yoki senturionga qo‘l ko‘tarsa, qo‘shinni boshqa turiga ko‘chirilishi lozim.

14. 1. (*Pavel. «Askarlarni jazolash to‘g‘risida»).*

Qurolni sotish og‘ir jinoyat va dezertirlikka tenglashtiriladi, faqat shunday holdaki, agar barcha qurol-yarog‘ butunlay sotilgan bo‘lsa; agar *(aybdor)* qurol-yarog‘ning bir qismini sotgan bo‘lsa, (*jazo)* sotilganning qiymatiga ko‘ra *belgilanadi.*

MIL. AVV. II – I ASRLARDA RIM RESPUBLIKASINING IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI

1. **Rim iqtisodiyoti.**
2. **Agrar masala. Tiberiy Grakx va Gay Grakxlar islohotlari.**
3. **Provinsiyalar boshqaruvi.**
4. **Nobillar. Suvoriylar.**
5. **Qulchilik. Sitsiliyada qullar qo‘zg‘oloni.**
6. **Rimda siyosiy kurashning keskinlashuvi. Ittifoqchilar urushi.**

1. Rim iqtisodiyoti. O‘rtayer dengizi havzasida yuz yil davomida olib borilgan bosqinchilik urushlari natijasida Rim kichik shahar-davlat doirasidan chiqib, O‘rtayer dengizining qudratli davlatiga aylandi. Bu mamlakat iqtisodiyoti va Rim jamiyat hayotining boshqa sohalarida ham o‘zgarishlarga olib keldi. Ayniqsa, iqtisodiyotda muhim o‘zgarishlar yuz berdi.

Rim-Italiya xo‘jaligida klassik qulchilik munosabatlarining kirib kelishi chuqur o‘zgarishlarga olib keldi. Qishloq xo‘jaligining turli sohalarida o‘sish boshlandi. Uzumchilik, zaytun daraxtlari o‘stirish, bog‘dorchilik va sabzavotchilik rivojlandi. Yunoniston, Kichik Osiyo va Afrikadan uzumning yangi

navlari, meva daraxtlar keltirildi. Qishloq xo‘jaligida mehnat qurollarining turlari ko‘paydi. G‘allachilik takomilllashdi. Sifatli bug‘doy ekilib, hosildorlik o‘sdi. Yerlarga ishlov berish, o‘g‘itlash va boshqa agrotexnika qoidalariga rioya qilina boshlandi. Chorvachilikda ham muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Chorvachilik va parrandachilik o‘sha vaqtda eng daromadli sohalarga aylandi. Qishloq xo‘jaligining o‘sishini asosiy omillari tovar ishlab chiqarish xo‘jaligining tashkil qilinishi, kichik xo‘jaliklardan voz kechib, katta ekin maydonlarida xo‘jalik yuritish edi. Rimning g‘olibona bosqinchilik urushlari natijasida Italiyaga qullar oqib keldi.Bu davrda quldor xo‘jaligining asosiy turi 25-100 gektar yerga ega bo‘lgan 30-40 qul ishlaydigan villa edi. Villa o‘rta quldor xo‘jaligi hisoblanib, xo‘jalik ko‘p tarmoqli va intensiv yuritilar edi. Villa shahar yaqinida joylashgan bo‘lib, yetishtirilgan mahsulot shahar bozorlarida sotilgan. Villa xo‘jaligi mayda dehqon xo‘jaligidan birmuncha afzal bo‘lib, villada mehnat a’lo darajada tashkillashtirilgan, mehnat kooperatsiyasi qo‘llanib, turli ilg‘or agronomiya usullari va asbob-uskunalardan keng foydalanilgan. Villa bozor uchun mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan edi. Villalar bilan bir qatorda qishloqda erkin dehqonlarning kichik xo‘jaligi keng tarqalgan edi. Dehqon 10-30 yuger yerga o‘z oilasi bilan ishlab, ba’zida bir yoki ikki qul mehnatidan foydalanar edi. Rim davlati yerlarini foydalanuvchilari asosan nobillar edi.

Mil. avv. II asrgacha Italiyada qishloq xo‘jaligining asosiy sohalari g‘allachilik va chorvachilik edi. O‘rta xo‘jalik – 240 yuger yer maydoniga ega bo‘lgan villa ham avvaldan mavjud edi. Bu davrda zaytun daraxtlarini ekish, uzumchilik va chorvachilik asosiy qishloq xo‘jalik sohalari bo‘ldi. Ikkinchi Puni urushi vaqtida ekin yerlari tashlab ketildi, bo‘ysunmagan ittifoqchilarining yerlari tortib olinib davlat ixtiyori-

ga olindi. Bu yerlarni katta qismini katta yer egalari o‘zlashtirib oldilar. Kichik dehqon xo‘jaliklari izdan chiqdi. Katta yer egaligi latifundiyalar paydo bo‘ldi. Latifundiyalar qul mehnatiga asoslangan bo‘lib, ular asosan chorvachilikka ixtisoslashgan. Rimliklar Karfagen mualliflarining qishloq xo‘jaligi sohasida yozgan asarlaridan keng foydalandilar va ularni tarjima qildilar. Mil. avv. II asrda Katon Kattaning «Qishloq xo‘jaligi to‘g‘risida» nomli traktati Italiya qishloq xo‘jaligi to‘g‘risida muhim ma’lumotlarni beradi. Bu kitobda qishloq xo‘jaligi sohasida yer egalariga xo‘jalikni oqilona yuritish to‘g‘risida maslahatlar beriladi.

Ikkinchi mulk senziga kirgan suvoriylar toifasiga davlat yerlaridan foydalanishga ruxsat etildi. Kichik yer ulushlarini sotib olish va ulardan yaxlit xo‘jalik tashkil etish keng tarqaldi. Suvoriylar shaharda yashab hunarmandchilik, savdo va tadbirkorlik bilan shug‘ullandilar. Ijara munosabatlari keng tarqalib, tuz qazib chiqarish, o‘rmonlar, qatron ishlab chiqarish korxonalari ijaraga berilgan. Rimning O‘rtayer dengizi havzasida hukmron mavqeni egallashi natijasida dengiz orqali arzon g‘allani tashib kelishi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarga olib keldi. Rimning ijtimoiy tayanchi bo‘lgan o‘rta va kichik yer egalarining ahvoli yomonlashdi. Chetdan arzon g‘allaning kirib kelishi g‘allachilikning rivojiga ta’sir bo‘ldi.

Italiyada hunarmandchilikning gullab-yashnashi mil. avv. II – I asrlarga to‘g‘ri keladi. Rim va boshqa shaharlarda kichik ustaxonalar (ergasteriylar)da 10-20 hunarmand ishlar edi. Qul mehnatidan keng foydalanila boshlandi. Hunarmandchilikda ozod qilingan qullar mehnati ham sezilarli o‘rinni egalladi. Ularning o‘zlari ham uncha katta bo‘lmagan ustaxonalarga ega edilar. Hunarmandchilikning rivojlanishi metall, tosh, yog‘och, jun, teri, shisha va qurilish materiallariga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirdi. Sardi-

niya va Ispaniyada temir qazib chiqarish keng yo‘lga qo‘yildi. Tog‘-kon va metall quyishda yangi texnik o‘zgarishlar amalga oshirildi. Shaxtalar 150 m gacha chuqurlikda ishlana boshlandi. Konlarda ventilyatsiya, Arximed vinti, kondan suvni qochirish g‘ildiragidan foydalanila boshlandi.

Yunonistondan marmar, Misrdan granit Italiyaga import qilindi. Italiyaning o‘zida Shimoliy Etruriyadan marmar qazib olina boshlandi. Qurilish materiallari taqchil edi. Arzon, qulay, mustahkam qurilish materialiga ehtiyoj o‘sdi. Mil. avv. II asrda rimliklar bu talablarni qondiradigan qurilish xomashyosi – betonni kashf qildilar. Rimliklar pishirilgan g‘isht ishlab chiqarishni keng yo‘lga qo‘ydilar. Mil. avv. II – I asrlarda ma’lum ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yirik hunarmandchilik markazlari shakllandi: Puteola – temirni qayta ishlash, Kapuya – jez va qo‘rg‘oshin quymalari bilan, Manturin va Kaliy shaharlari qishloq xo‘jalik qurollarini tayyorlash, Arretsiy – kulolchilik, Tarent, Kanuziy – jun mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shuhrat qozondi. Rimliklar fuqarolik va injener me’morchiligini rivojlantirdilar. Rim suv quvurlari, ko‘priklari, termalari, amfiteatrlari, portlar, Rimdagi ko‘p qavatli uylar me’morchilik va qurilishning yutuqlari asosida bunyod qilindi.

O‘rtayer dengizi savdosi gullab-yashnadi. Rim, Puteola, Sirakuza eng yirik savdo markazlari bo‘lib qoldi. Kemasozlik, dengizchilik rivojlandi. 200 tonnagacha yuk ortiladigan savdo kemalari paydo bo‘ldi. Qo‘shimcha yelkanlar, kema boshqaruvi, mayoqlar, gavanlar qurildi. Dengiz savdosi bilan, hatto savdo qilish man etilgan nobillar ham shug‘ullana boshladilar. Ular qonunni chetlab o‘tib, dengiz savdosida vositachilar va o‘zlarining ozod qilingan qullaridan foydalandilar.

Quruqlikdagi savdo ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Shahar va qishloqlar o‘rtasida mahsulot almashuv maxsus qurilgan shahar bozorlarida va viloyatlararo yarmarkalarda amalga oshirildi. Viloyatlar o‘rtasida savdo-ayirboshlash aloqalarning mustahkamlanishi Italiyada qurilish san’atining noyob yutuqlaridan biri bo‘lgan yo‘llarning qurilishiga sabab bo‘ldi. Yo‘llar tosh to‘shalgan mustahkam to‘g‘ri chiziqda bunyod qilinib, boshda Italiyaning barcha viloyatlarini, keyinchalik provinsiyalarni qamrab oldi. Rim shahridan o‘tadigan eng yirik yo‘llar Italiyaning barcha viloyatlari va undan tashqari cho‘zilib ketdi. Italiyadagi barcha yo‘llarni qurilishida armiya jalb etildi. Rim forumida oltin suvi yuritilgan ustun qo‘yilib, undan Italiyaning bosh yo‘llarining masofasini hisoblash boshlandi. Ana shu yerdan «barcha yo‘llar Rimga boradi» atamasi tug‘ildi. Rim savdosining o‘sishi tanga – pul miqdorini ko‘paytirishni talab qildi. Rimning sestersiy va denariy kumush tangalari tezda O‘rtayer dengizi havzasida asosiy valyuta o‘rnini egallab, boshqa tangalarni siqib chiqardi.

Bosqinchilik urushlari natijasida Rimga moddiy boylik, pul mablag‘lari va qullar oqib keldi. I Puni urushidan so‘ng Rim xazinasiga 3200 talant kirim bo‘ldi. II Puni urushidan so‘ng Karfagenning tovon puli 10 ming talant, Salavkiylar hukmdori Antioxga yuklangan tovon to‘lovi 15 ming talantni tashkil etdi. Rim sarkardalarining harbiy o‘ljalari behisob edi. Makedoniya podshohi Perseyning g‘olibi Emiliy Pavelning Rimga zafarli kirishida bosib olingan qimmatbaho qurollar, san’at asarlari, oltin, kumush bilan to‘la katta xumlar jang aravalarida uch kun davomida olib o‘tildi. Antiox ustidan g‘alaba natijasida harbiy o‘lja sifatida 1280 fil tishi, 234 oltin chambar, 187 ming funt kumush (1 Rim funti 327 gramm), 224 ming yunon kumush tangasi, 140 ming make-

don tilla tangasi, ko‘p miqdordagi zargarlik buyumlari Rim xazinasiga kelib tushdi. Antioxga tegishli qo‘lyozma kitoblarni Pvel o‘g‘illariga sovg‘a qildi. Mil. avv. II asrgacha bosqinchilik urushlarida olingan o‘ljalar tufayli Rim kumush tangaga ehtiyoj sezmadi. Rimning g‘olibona istilochilik yurishlari, ayniqsa ispan kumush konlarining bosib olinishi Rim davlatini o‘z pul tizimini kumush xomashyosi bilan ta’minlash imkoniyatini yaratdi. Bu Rimda savdo, moliya-sud-xo‘rlik kapitali rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Rimda turli jamoat ishlari, provinsiyalarga soliqlarni ijaraga olgan moliyachi-tadbirkorlar paydo bo‘ldi. Istilochilik urushlaridan olingan o‘ljalar, qaram hududlardan olinadigan daromadning o‘sishi natijasida Pidna yonidagi jangdan so‘ng (mil. avv. 168-yil), Rim fuqarolari harbiy xarajatlar uchun olinadigan soliqni to‘lamay qo‘ydilar.

Qul mehnatidan ommaviy tarzda foydalanish, provinsiyalardan arzon g‘alla keltirilishi Italiya an’anaviy dehqon xo‘jaligini izdan chiqardi. Dehqonlar g‘alla o‘rniga uzum va zaytun daraxtlarini o‘stira boshladilar. Bog‘dorchilik, poliz-sabzavotchilik keng rivojlandi. Vinochilik tez orada katta daromad keltira boshladi. Koplab dehqonlar xonavayron bo‘lib, katta shaharlarga keta boshladilar va Rim hokimiyatidan tekin non va tomosha talab qila boshladilar. Ularning ba’zilari senatorlarning kliyentlariga aylandilar. Zodagon-patritsiylarning tayanchi bo‘lgan davlat hokimiyati mamlakatda barqarorlik va tinchlikni saqlab turish uchun Rim va boshqa shaharlarda to‘plangan, yeridan ajralgan oddiy fuqarolarni boqishga majbur bo‘ldi. Hokimiyat o‘z yer-mulkidan mahrum bo‘lgan ijtimoiy barqarorlikni izdan chiqarishga tayyor bo‘lgan bu xavfli, ishonchsiz fuqarolarni tinchlantirish uchun bu qatlamga muntazam oziq-ovqat mahsulotlarini tekin va arzon narxlarda tarqatishni yo‘lga qo‘ydi.

2. Agrar masala. Rim davlatining dastlab Italiya va keyin O‘rtayer dengizi havzasida bir necha yuz yillar davomida olib borgan bosqinchilik urushlari mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hayotida tub o‘zgarishlarga olib keldi. Bosqinchilik urushlari natijasida Rimga ulkan moddiy boyliklar oqib keldi. Urushda olingan o‘ljalar, eng avvalo, hukmron tabaqalarni boyishiga olib keldi. Urush o‘ljasi yurishlarda qatnashgan harbiy sarkardalarga va legionerlarga ish haqi sifatida berildi. Bir qism o‘ljalar oddiy fuqarolarning ko‘nglini olish uchun uyushtiriladigan bayramlar, tomoshalar va fuqarolarga tekin non-go‘sht tarqatishga hamda ayrim jamoat inshootlarini qurishga sarflandi. Istilochilik urushlarida olingan yuz minglab asirlarni qulga aylantirilishi natijasida qullarning soni keskin o‘sib bordi. Rim jamiyati o‘zga xalqlarni talash hisobiga yashaydigan iste’molchi jamiyatga aylandi.

Rim armiyasining asosiy qismi oddiy fuqarolar – dehqonlardan to‘ldirilar edi. Rimning ko‘p yillik bosqinchilik urushlari dehqonlarni harbiy xizmatda qolib ketishi natijasida yerlar qarovsiz qolib ketishiga va dehqon xo‘jaliklarini tushkinlikka yuz tutishiga olib keldi. Dehqon xo‘jaliklari qarzga botib, qarz evaziga dehqon yerlari katta yer egalari qo‘liga o‘tdi. Rim davlati doimo bosib olingan hududlardan yersiz va kam yerli dehqonlarga yer ulushi berib kichik dehqon xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlab kelar edi. Lekin mil. avv. II asrdan boshlab bu jarayon sekinlashdi, dehqonlarning yersizlanishi va noroziligi kuchaydi. Quldorlik munosabatlarining keng tarqalishi, dehqonlarning yersizlanib xonavayron bo‘lishining ommaviy tus olishi Rim jamiyatida ijtimoiy qarama-qarshiliklarni yanada kuchaytirdi. Qullar mehnatidan ulkan hajmlarda foydalanish qadimdan Rim davlatchiligining asosiy tayanchi bo‘lgan kichik dehqon yer egaligining yemirilishiga olib keldi.

Tiberiy va Gay Grakx islohotlari. Hukmron tabaqaning uzoqni ko‘ra oladigan vakillari Rim davlatchiligi uchun tahdidni ko‘rdilar va bu xavfni bartaraf qilish uchun islohotlar zarurligini tushundilar. Taniqli plebey urug‘i Semproniylardan bo‘lgan, Puni urushining qahramoni, ikki marta konsul bo‘lgan, senzor Sitsipionning nevaralari aka-uka 28 yoshli Tiberiy va 20 yoshli Semproniy Grakxlar Rimda agrar islohotlarni o‘tkazish uchun keskin kurash boshladilar. Yersiz qolgan dehqon fuqarolar Rim shahri devorlari va ustunlarini Tiberiy nomi bilan to‘ldirib tashladilar.

Mil. avv. 133-yilda Tiberiy Grakx xalq tribuni lavozimiga saylanib, o‘z agrar qonun loyihasini taklif qildi. Bu qonun loyihasi bo‘yicha yerga egalik qilish 500 yugergacha cheklanib, agar oilada ikki voyaga yetgan o‘g‘il bo‘lsa, har bir oila 1000 yugergacha yerga ega bo‘lishi mumkin edi. Qolgan ortiqcha yer pul mablag‘i bilan kompensatsiya qilish asosida davlatga qaytarilishi kerak edi. Yangidan tashkil etilgan yer jamg‘armasi 30 yuger (7,5 ga.) miqdorida chek yerga bo‘linib, yersiz va kam yerli fuqarolarga merosiy ijara huquqida taqsimlanishi kerak edi. Ularning egalari xazinaga uncha ko‘p bo‘lmagan miqdorda soliq to‘lashlari lozim edi. Qishloqdagi kichik ishlab chiqaruvchilarning yersizlanishi va xonavayron bo‘lishini to‘xtatish maqsadida davlatdan olingan yerlarni sovg‘a qilish yoki sotish taqiqlandi.

Agrar qonunga ko‘ra katta yer egalari qo‘lida to‘planib qolgan va ortiqcha jamoa yerlarining bir qismini yersizlarga va muhtojlarga taqsimlash taklif qilindi. Ammo nobillar va katta yer egalari – patritsiylarning tayanchi bo‘lgan senat yerni qayta taqsimlashga keskin qarshilik ko‘rsatdi. Qonun loyihasi qabul qilindi. Islohotni amalga oshirish uchun tarkibida Tiberiy va uning ukasi Gay a’zo bo‘lgan komissiya tashkil etildi. Islohotga qarshi bo‘lgan katta mulkdorlarning tayan-

chi bo‘lgan Senat tashkiliy xarajatlarga pul mablag‘ini berishdan bosh tortdi. Tiberiy Senatga qarshi bo‘lgan yana bir qonunni komissiyalarda qabul qilinishiga erishdi. U agrar komissiyaning ehtiyoji uchun vafot etgan Pergam podshohi Attal III ning xazinasini ajratilishiga erishdi. Komissiya yer taqsimotini qizg‘in boshlab yubordi. Lekin islohotga qarshi bo‘lgan katta yer egalari yashirincha o‘z tarafdorlarini qurollantira boshladilar, Tiberiy atrofida ham 3 ming kishilik qurolli kishilardan iborat guruh shakllandi.

Tiberiy Grakx keyingi mil avv. 132-yilda xalq tribuni lavozimiga yana o‘z nomzodini qo‘ydi. Uning dushmanlari ham harakatga kelib, kurash keskinlashdi. Senat Tiberiyni podshohlik hokimiyatini da’vo qilishda aybladi. Kapitoliyda xalq yig‘inida o‘tayotgan saylovda Tiberiyning tarafdorlari bo‘lgan kambag‘al plebeylar va uning dushmanlari o‘rtasida qurolli to‘qnashuv yuz berdi. To‘qnashuvda Tiberiy va uning 300 tarafdori o‘ldirildi. Bu voqea to‘g‘risida Plutarx shunday yozadi «Senatorlarni o‘rab olgan odamlar, uydan olib kelgan tayoqlar bilan, senatorlarning o‘zi olomon sindirgan o‘rindiqlarning oyoqlari va qoldiqlari bilan qurollandilar. Ularning barchasi Tiberiyni himoya qilganlarni kaltaklab, Tiberiyga tomon bostirib bordilar; bu yerda kaltaklash va yoppasiga qochish boshlandi. Tiberiy ham yugurdi, lekin kimdir uning kiyimiga yopishdi; u esa togani tashlab, birgina xitonda yugurdi, lekin qoqilib ketib, ilgari yiqilgan odamlar ustiga yiqildi, qachonki u turayotganda, tribunlardan biri Publiy Saturey hammani ko‘zi oldida, birinchi bo‘lib o‘rindiqning oyog‘i bilan Tiberiyning boshiga urdi». Хрестоматия по истории древнего мира. – М., 1991. 231 стр.

Bu to‘qnashuvda Tiberiy o‘ldirildi.

Gay Grakx islohotlari. Akasining o‘limidan so‘ng siyosatdan chetlashgan Gay Grakx 10 yildan keyin

mil. avv. 123-yilda xalq tribuni etib saylanib, islohotlar dasturini taklif qildi. U akasining tarafdorlari ustidan noqonuniy o‘lim hukmi chiqargan kishilarni sudga tortilib, jazolanishiga erishdi. Gay Grakx agrar sohadagi islohotlar bilan birga sud, ma’muriy tizim, qo‘shin va pul tizimida tegishli qator islohotlarni tizimli amalga oshirdi. Akasining achchiq tajribasidan xulosa chiqarib, faqat dehqonlarga tayanib qolmay, Rim shahri plebeylari va boy suvoriylarini o‘z tomoniga tortishga harakat qildi. Gay Grakx shahar plebeylari foydasiga bir necha qonunlarni o‘tkazdi (Arzon non sotish to‘g‘risidagi qonun), bu qonunga ko‘ra Rim shahri kambag‘allari davlat hisobidan har oy ma’lum miqdorda g‘allani arzon narxda yoki umuman tekin oladigan bo‘ldi.

Gay Grakx suvoriylar foydasiga Rim sudlarini isloh qildi: ilgari sud majlisini pretorlar olib borar edilar, hukmni esa senatorlar orasidan tayinlangan sudyalar chiqarar edi. Sudya-senatorlar o‘rnini suvoriylardan bo‘lgan sudyalar egalladilar. Suvoriylar toifasidan provinsiya noiblari suiist’emollarini ko‘radigan sud komissiyalari tashkil etildi. Rim shahrini g‘alla ta’minotini yaxshilash uchun Gay Grakx g‘alla omborlarini qurdi, tekis yo‘llar qurilib, ularga yo‘l ko‘rsatkich ustunlar o‘rnatildi. Gay Grakx bu ishlarning barchasini boshida o‘zi turdi.

Lekin shahar plebeylarining katta qismi va suvoriylar agrar islohotlardan manfaatdor emas edilar. Buning ustiga provinsiyalarda qishloq xo‘jalik koloniyalarini tashkil etilishi suvoriylarning norozi bo‘lishiga olib keldi. Gay Grakxni Italiyaning Rimdan tashqari hududlari aholisiga fuqarolik huquqini berish niyati Rim plebsini unga qarshi bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Rim shahridagi kambag‘al plebeylar o‘z imtiyozlari va oladigan xayr-ehsonni boshqalar bilan baham ko‘rishni istamas edilar. Mil. avv. 122-yilda-

gi Gay Grakx ikkinchi marta xalq tribuni lavozimiga saylangach raqiblari uni obro‘yini tushirishga harakat qildilar. Katta yer egalari Gay Grakxga qarshi o‘z nomzodlari Mark Liviy Druzni xalq tribuni etib saylanishiga erishdilar. L. Druz xalqqa mo‘l-ko‘l va’dalar berdi, masalan, G.Grakx yerga muhtoj fuqarolarni yer bilan ta’minlash uchun Afrikada ikkita koloniya barpo qilish taklifi bilan chiqqanda, Druz 12 koloniya barpo qilish, shu bilan birga bu koloniyalarni Italiyani o‘zida barpo qilishga o‘z nomidan emas, Senat nomidan va’da berdi. Holbuki, Italiyada bo‘sh yerning o‘zi qolmagan edi.

Druzning bunday takliflari fuqarolarning Senatga nisbatan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartirdi. Rim fuqarolari uzoq Afrikada barpo etiladigan koloniyalarga borishni istamas edilar. Asta-sekin Gay Grakxning o‘bro‘si tushib ketdi. Gay Grakx raqiblarining sa’y-harakati bilan uchinchi muddatga xalq tribuni saylovida mag‘lubiyatga uchradi. Uning ashaddiy dushmani konsul lavozimiga saylandi. Gay Grakxning hokimiyatga kelgan dushmanlari G.Grakx qonunlarini bekor qilish taklifi bilan chiqdilar. Natijada Rimda siyosiy vaziyat keskinlashdi.

Tomonlar o‘rtasida ommaviy to‘qnashuvda Gay Grakx va uning tarafdorlari halok bo‘ldi. Plutarx Gay Grakxning o‘limi to‘g‘risida shunday yozadi: «Dushmanlar qochib ketayotgan Gayni ta’qib qildilar, unga yog‘och ko‘prikda yetib oldilar, o‘sha ikki do‘st uni qochishga majbur qilib, o‘zlari dushmanga yuz o‘girib, ular bilan jangga kirishdilar, dushmanlarni ko‘prik oldida ikkalasi ham halok bo‘lib, qulaganlaricha tutib turdilar. Gayning Filokrat ismli quli u bilan birga qochdi, yo‘lda ularga uchragan odamlar qochoqlarni qandaydir musobaqada bo‘lgani kabi faqat dalda berdilar, lekin unga hech nima bilan yordam berishga urinmadilar va hatto dushmanlar unga ye-

tib olayotganini ko‘rib, Gay juda iltimos qilib so‘rasa-da, ulardan hech kim Gayga ot bermadi. Nihoyat, Gay Furiya[2]ga bag‘ishlangan uncha katta bo‘lmagan daraxtzorga qochib kirdi va u yerda sodiq quli Filokrat qo‘lidan ko‘ngilli ravishda o‘limni qabul qildi, u xo‘jayinini o‘ldirgach, o‘zini hayotdan mahrum qildi». Хрестоматия по истории древнего мира. – М., 1991. стр. 237-238.

Gay Grakxning o‘limidan so‘ng agrar qonunni hech kim bekor qilishga botina olmadi. Lekin yerlarni taqsimlovchi komissiya tugatildi va yer berish to‘xtatildi. Mil. avv. 111-yildagi agrar islohot ilgari 500 yugergacha egallangan yerlarni va islohotlar natijasida 30 yugerlik yerlarni o‘z egalariga xususiy mulk sifatida qonunlashtirdi.

Islohotchi aka-uka Grakxlarning tizimli amalga oshirgan ko‘pgina tadbirlari eng jiddiy natijalarga olib keldi. Gay Grakx o‘limidan so‘ng, oligarxiya o‘z mavqeyini qisman tikladi. Suvoriylar sud ishlarini o‘z qo‘llarida saqlab qoldilar. Agrar islohot o‘tkazish to‘xtatildi. Mil. avv. 121-yilda agrar islohotlar natijasida olingan yer ulushlarini begona qilmaslik bekor qilindi. Mil. avv. 119-yilda agrar komissiya faoliyati to‘xtatildi. Mil. avv. 111-yilda plebey tribuni Spuriy Toriy qonuniga asosan fuqarolar ijaraga olgan 500 yugergacha bo‘lgan barcha davlat yerlari xususiy mulk deb e’lon qilindi. Italiyada tashkil topgan 10 minglab dehqon xo‘jaliklar o‘nlab yillar mavjud bo‘ldi. Shahar plebsiga tarqatiladigan oziq-ovqat mahsulotlarining miqdori o‘sdi. Grakxlar faoliyati senatda va siyosiy hayotda nobillarning yagona hukmronligiga putur yetkazdi.

Aka-uka Grakxlarning ijtimoiy-siyosiy faoliyatlari natijasida Rimda Senat, suvoriylar va barcha boy toifalarning – optimatlar deb nomlangan partiyasi va nobillarga qarshi turgan plebey demokratiyasining

populyarlar partiyasi paydo bo‘ldi. Populyarlar va optimatlar atamasini birinchi bo‘lib mil. avv. 63-yilda notiq va siyosiy arbob Sitseron ishlatdi.

4.Provinsiyalar boshqaruvi. Rimda boshda «provinsiya» so‘zi oliy magistratga beriladigan topshiriq ma’nosini bildirgan. Keyin esa bu so‘z Rim tomonidan bosib olingan hududlarga nisbatan aytildi. Rimliklar bosib olingan o‘zga hududlarda provinsiyalar tashkil etildilar. Rim bosib olingan hududlarni rimliklarning mulki provinsiya (qaram) yer deb e’lon qildi. Rimdan pretor yoki konsullik muddatini o‘tab bo‘lgan sobiq konsullar provinsiyalarga noib etib tayinlandilar. Rimning birinchi provinsiyalari Sitsiliya (mil. avv. 241-yil), Sardiniya va Korsika (mil. avv. 227-yillar), mil. avv. 179-yilda Ispaniyada ikki provinsiya tashkil etildi. Mil. avv. 50-yilda rimliklarda 14 provinsiya mavjud edi. Respublika davrida bosib olingan hududlarda 20 provinsiya tashkil etildi.

Rimliklar bosib olingan hududlardagi ekin yerlari, chorva va boshqa mol-mulklarga o‘lja sifatida to‘la egalik qildilar. Provinsiyani talash uni bosib olinishidan boshlanar edi. Rim legionlari mag‘lub hudud hokimining xazinasini, ibodatxonalar boyligini, aholining oltin-kumush buyumlarini tortib olar edilar. Olingan o‘ljaning bir qismi Rim davlati xazinasi – erariyga, qolgan qismi askarlar va lashkarboshi ortasida taqsimlanar edi. Provinsiyalardagi ekin yerlarining bir qismi Rim xalqining jamoa yeri jamg‘armasi – ager publikusga o‘tkazilib, konlar, tuz konlari va boshqa boyliklar Rim xalqi hisobiga musodara qilingan. Provinsiyalar Rim noibi va Rim legionlarini o‘z hisoblaridan saqlashga majbur edilar.

Provinsiyalarni boshqarish tizimi asta-sekin shakllandi. Provinsiya noiblari hududning bir qismini boshqarishni prefekt yoki prokuratorlarga topshirishlari mumkin edi. Noib ixtiyorida yordamchilar

shtati, pul mablag‘i, va harbiy qismlar mavjud edi. Senar qarori bilan har bir noibga legatni yordamchi etib saylar edi. Legatlar noib yordamchisi bo‘lib uning har qanday topshirig‘ini bajarganlar. Urush vaqtida esa legatlar harbiy qismni boshqardilar. Noiblar edikt (provinsiya aholisi uchun qonun vazifasini o‘taydigan qaror)lar vositasida oliy harbiy, ma‘muriy va sud hokimiyatini amalga oshirganlar.

Rim senati tomonidan provinsiyalarni boshqaradigan pretorlar bir yil muddatga tayinlanar edi. Faqat ispan koloniyalarini boshqarish muddati 2 yil bo‘lgan. Provinsiyani boshqaruv muddatini uzaytirish Senatning maxsus qarori bilan amalga oshirilgan. Noib bilan birga, Rimdan provinsiyaga moliya-xo‘jalik ishlarini olib boradigan kvestor jo‘natilar edi. Sobiq konsullar, hali konsul bo‘lmagan yuqori mansabdorlar ham noib lavozimini egallar edilar. Oktavian davrida provinsiyalar promagistratlar boshqaradigan Senat provinsiyalari va legat yoki propretor unvoni bilan prokuratorlar boshqaradigan imperator (chegara) provinsiyalariga bo‘linib ketdi.

Noiblar o‘z mansablarini suiiste’mol qilib, shaxsiy boylik orttirish uchun provinsiyalarni talon-taroj qildilar. Provinsiyalar aholisi uchun yana bir kulfat bu – rimliklarning soliq yig‘ishdagi tovlamachiliklari bo‘ldi. Rim noiblari soliq yig‘ish huquqini xususiy kishilar («publikanlar») ga topshirdilar. Ular soliq summasini oldindan kelishilgan miqdorda Rim noibiga to‘lab, keyin uni mahalliy aholidan bir necha barobar ko‘paytirib yig‘ib olganlar. Bu ishlar bilan asosan keyinchalik moliya zodagonlariga aylangan yangi suvoriylar qatlamining vakillari shug‘ullangan. Rimda «boy provinsiyaga kambag‘al bo‘lib ketdi, kambag‘al provinsiyadan boy bo‘lib qaytdi» degan ibora ko‘p ishlatiladigan bo‘ldi. Rim senati noiblarning zo‘ravonligini tugatish maqsadida provinsiyalar to‘g‘risida qonun

qabul qildi. Lekin shundan keyin ham provinsiyalarni talash to‘xtamadi. Senat mil. avv. 149-yilda rimlik noib va amaldorlarning tovlamachigidan jabr ko‘rgan provinsiya aholisini shikoyat qilishga imkon beradigan Kalpurniy qonunini qabul qildi. Bu qonunga asoslanib provinsiya noiblari suiiste’mollariga qarshi Senat tribunallari tashkil qilindi. Noiblarni zo‘ravonligi va tovlamachiligini tekshiradigan maxsus senat komissiyasi tuzildi.

Nobillar (nuvorishlar). Nobillar Rim jamiyatining eng yuqori qatlami patritsiy va plebeylarning davlatni boshqarib kelayotgan saylanma toifasi edi. Nobillar oliy tabaqaning kam sonli vakillari bo‘lishlariga qaramasdan, yuz yillar davomida davlatni faqat o‘zlari boshqardilar. Ular mamlakat miqyosida o‘z obro‘-e’tiborlarini kuchaytirish maqsadida Italiya munitsipiylari boy zodagonlari bilan yaqin aloqada bo‘ldilar. O‘zlariga xizmat qiladigan ko‘p sonli kliyentlarni saqlab turdilar. Rim magistraturasidagi muhim lavozimlarga o‘z toifalaridan bo‘lgan yoki manfaatlarini himoya qiladigan kishilarni qo‘ydilar. Rimga bir necha patritsiy oilalari yuz yillar davomida senatorlar, konsullar, senzorlar va boshqa oliy mansabdorlarni yetkazib berdi. Oliy mansablarni egallash uchun nobilitet-zodagon-patritsiy-plebey oilalari o‘zaro ittifoq tuzib, mansablarni egallash uchun saylovlarda o‘zaro yordam uyushtirar edilar.

Rim davlati tomonidan bir necha asrlar davomida bosib olingan o‘zga yurt va xalqlarning yerlari, ulkan moddiy boyliklar Rimga oqib keldi. Bosib olingan hududlardagi oltin va kumush, tuz, tosh konlari va o‘rmonlar Rim davlati ixtiyoriga o‘tdi. Katta miqdordagi urush tovonlari, asirlarni qul qilib sotishdan kelgan daromadlar, harbiy o‘ljalar Rim davlatini dunyoda eng katta moliyaviy markazga aylantirdi. Ayniqsa, Rim Respublikasida oliy hokimiyat egasi bo‘lgan va azal-

dan katta yer-mulklarga ega bo‘lgan nobillar Rimning bosqinchilik urushlaridan yanada boyib ketdi. Nobillar qo‘shin qo‘mondonlari yoki provinsiyalar noiblari vazifasini bajarib, katta miqdorda boylik to‘pladilar.

Nobillar o‘z toifalariga yot bo‘lgan oddiy fuqarolarni davlatda nufuzli mansablarni egallashlariga yo‘l qo‘ymadilar, eng avvalo, begonalarni konsullik mansabiga yaqinlashtirmaslikga harakat qilar edilar. Mil. avv. 180-yilda nobillar tayanchi bo‘lgan Senat qabul qilgan qonunga ko‘ra, Rim fuqarosi uchun mansabga erishish o‘n yillik harbiy xizmatdan so‘ng, 28 yoshdan boshlanishi lozim edi. Dastlab kvestor, keyin qurul edilar, 40 yoshdan so‘ng pretorlik lavozimini egallash mumkin edi. Bu yoshda barcha mansab pog‘onalaridan o‘tgan 43 yoshdagi shuhratparast rimlik fuqaro konsul mansabiga da’vo qilishi mumkin edi.

Mil. avv. 218-yilda Senat qabul qilgan alohida qonun bo‘yicha senatorlarning savdo va moliya ishlari bilan shug‘ullanishlari taqiqlab qo‘yildi. Shu sababli, zodagon senatorlar ko‘p miqdorda yer maydonlarini sotib oldilar. Yirik xo‘jalik-latifundiyalar tashkil qilib, qullar mehnatidan foydalanib xo‘jalikdan yuqori daromad oldilar. Ular Rimning istilochilik urushlaridan Rimga oqib kelgan o‘lja va boyliklarning katta qismini o‘zlashtirib oldilar. Bir necha yuz yillar davomida Rim davlatining oliy lavozimlarini egallab davlatni boshqardilar. Nobillarning iqtisodiy-siyosiy qudrati zodagonlarning tashqi ko‘rinishida ham aks etdi. Ular keng qizg‘ish yo‘lli tunika (ko‘ylak) va maxsus poyafzal kiyib qo‘llariga maxsus senator uzugini taqar edilar. Bu ularning Rim jamiyatining boshqa qatlamlaridan ajratib turadigan ramziy belgisi edi. Tarixchi Polibiy Rimda birinchi marta senatorlarni ko‘rib, ularni hashamatli kiyingan ulug‘vor ko‘rinishlaridan hayratda qolgan edi. Polibiy senatorlarni podshohlar bilan tenglashtirdi.

Suvoriylar. Rimda qadimda o‘z jangovar oti bilan armiyaga harbiy xizmatga kelgan fuqarolar suvoriylar deb ataldi. Ular asta-sekin boyib borishlari va Rim jamiyatida salmoqli o‘rinni egallash jarayonida plebeylardan alohida toifa sifatida ajralib ketdilar. Mil. avv. III – II asrlarda Rimning istilochilik urushlari davrida, sudxo‘rlik, savdo-moliya ishlari bilan shug‘ullanib boyib ketgan suvoriylar yangi imtiyozli qatlamga aylandi. Suvoriylar soliqlar yig‘ish, qo‘shin ta’minoti va sudxo‘rlik ishlari bilan shug‘ullandilar. Ular nobillar bilan birga provinsiyalarni taladilar. Suvoriylar provinsiyalarda soliqlarni ko‘tara sotib olib, keyin uni aholidan ikki marta ko‘paytirib yig‘ib oldilar. Provinsiyalarda suvoriylar sudxo‘rlik bilan shug‘ullandilar, tashqi savdo ham ularning qo‘liga o‘tdi. Suvoriylar Italiya va provinsiyalarda yer-mulklarga ega bo‘ldilar. Ular moliya zodagonlariga aylandilar. Suvoriylar boy, imtiyozli tabaqa bo‘lsalar-da ular bilan an’anaviy senatorlar tabaqasi o‘rtasida kuchli ixtiloflar mavjud edi.

5.Qulchilik. Qulchilik Rimda eng qadimgi davrlardan mavjud edi. Klassik qulchilik nima u? Mamlakat iqtisodiyotida ustivor bo‘lgan dehqonchilik – hunarmandchilik sohalarida moddiy ne’matlar ishlab chiqarishda asosiy ishchi kuchi qullar bo‘lgan iqtisodiyot klassik qulchilikning ko‘rinishi, mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Mil. avv. III asrdan boshlab Rim iqtisodiyotida qullar asosiy ishlab chiqaruvchilar bo‘lib, moddiy ne’matlarni yaratuvchi asosiy ishchi kuchi bo‘ldi. Quldorlik xo‘jaligi bozor uchun mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashib, tobora ko‘proq mahsulot ishlab chiqarish uchun arzon qul mehnatidan keng foydalandi. Bu davrda qullarning soni fuqarolardan ko‘p edi. Bu ilmiy adabiyotda klassik qulchilik deb nomlandi. Rim zodagonlarining qul mehnatiga asoslangan yirik xo‘jaliklari – latifun-

diyalari paydo bo‘lishi bilan Italiyada qulchilik klassik shaklga kira boshladi. Qullarning mehnati juda arzon, o‘zlari esa qadrsiz edilar. Yirik latifundiyalar bozor uchun g‘alla va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradigan xo‘jalikka aylandi. Arzon qul mehnatiga asoslangan bunday quldor xo‘jaligi arzon va sifatli mahsulot ishlab chiqardi. Kichik yerga ega bo‘lgan minglab dehqonlar bunday xo‘jaliklar bilan bozorda raqobat qila olmadilar.

Rimning barcha istilochilik urushlari asir tushgan dushman aholisini qul qilib sotish bilan tugallanar edi. Jang natijasida olingan asirlar qo‘shinda turgan kvestor ixtiyoriga berilgan. Kvestor ularni kimoshdi savdosida sotishga mas’ul edi. Qul savdogarlari kimoshdi savdosida Rim armiyasidan asirlarni sotib olib, keyin qul bozorlariga chiqarar edilar. Rimning bosqinchilik urushlari natijasida yuz minglab asirlar qul qilib Italiyaga olib kelindi. Rim konsuli Regiy Karfagen urushlaridan Rimga 20 ming asirni qul qilib jo‘natdi. Mil. avv. 209-yilda Tarent ishg‘oli vaqtida 30 ming aholi qul qilindi. Agrigent qamali vaqtida 25 ming kishi asir olinib qul qilindi. Odatda, bosib olingan shahar yoki mamlakatning urushda omon qolgan barcha aholisi qul qilib sotib yuborish an’ana bo‘lgan. Mil. avv. 167-yilda Epir shahri qamal qilinganda, uning asir olingan 150 ming aholisi qul qilib sotib yuborildi. Rimliklar Sardiniyani bosib olib, uning tirik qolgan 80 ming aholisini Italiyaga olib kelib qul qilib sotdilar. Natijada Italiya qul bozorlarida qullarning narxi tushib ketdi, «sard kabi arzon» iborasi shundan kelib chiqdi.

Qullar safini to‘ldirishning yana bir manbasi dengiz qaroqchilarining dengizlarda qirg‘oqqa yaqin shahar-qishloqlarini talab, o‘z qurbonlarini qullikka sotishi edi. Ba’zi yillarda qaroqchi – piratlar bir necha yuz ming qullarni qul bozorlariga yetkazib berganlar.

Bu vaqtdagi Rim huquqi erkin kishini qulga aylantirishga ruxsat bergan. Ota o‘z farzandlarini qullikka sotishi mumkin edi, erkin kishi o‘g‘rilik sodir etganda, birovning mulkiga o‘t qo‘yganda, dezertirlik jinoyatlari uchun sud hukmi bilan qulga aylantirilgan. Qul ayoldan tug‘ilgan bola ham qul bo‘lgan. Rim fuqarolarini qarzi uchun qul qilish mil. avv. 326-yilda qabul qilingan Senat qonuni bilan bekor qilingan edi. Biroq Italiya va provinsiyalarning Rim fuqaroligi bo‘lmagan aholisi sababli qarzi uchun qul qilish o‘z kuchini saqlab qoldi.

Rimning har bir katta shahrida qul bozori mavjud bo‘lib, bu bozorda fuqaro qulni sotishi yoki olishi mumkin edi. O‘rtayer dengizidagi muntazam ishlaydigan eng katta qul bozorlari Delos (Egey dengizi) orolida, Akvileya shaharlarida (Shimoliy-Sharqiy Italiya), Tanais (Don daryosi yuqori oqimi)da mavjud edi. Delos qul bozorida bir kunda 10 minggacha qul sotilar edi. Bozorga kiritilgan qullar miqdoriga qarab qulning narxi o‘zgarib turar edi.

Provinsiyalarda rimlik soliqchilar mahalliy aholiga katta foizda qarz berib, ularni qul qildilar. Qullar safini to‘ldirishning yana bir manbasi ularni tabiiy ko‘payishi edi. Cho‘ri qullarning bolalarini ko‘paytirish va tarbiyalash ba’zi quldorlar tomonidan rag‘batlantirilgan. Go‘dakligidan qullikda tarbiyalangan qullarning bolalari kasb-hunarga o‘rgatilgan. Ma’lumotli qullar yoki malakali qullar (o‘qituvchi, aktyor, oshpaz, raqqosalar)ning narxi juda baland turgan. Italiya qishloq xo‘jaligi mamlakati bo‘lgani uchun qullar asosan qishloq xo‘jaligida ishlatildi. Qul mehnatidan qishloq xo‘jaligidan tashqari tog‘-kon, metallurgiya va qurilishda keng foydalanila boshlandi.

Qullarning ijtimoiy va huquqiy ahvoli og‘ir edi. Qul buyum va hayvonga tenglashtirildi. Xo‘jayin qul ustidan mutlaq hukmron bo‘lib, u qulni o‘ldirishi, yirtqich

baliqlar va yovvoyi hayvonlarga yem qilishi mumkin edi. Faqat qullarga va qaroqchilarga xochga tortib o‘lim jazosi berilgan. Boshqa obro‘li jinoyatchilarning boshi kesilgan. Ozod kishilarni qiynoqqa solib, so‘roq qilish taqiqlangan. Qullarni qiynoq ostida so‘roq qilishga ruxsat etilgan. Qul uchun eng og‘ir jazo tosh konlariga, gladiatorlar maktabiga sotib yuborish edi. Rimning deyarli barcha fuqarolari qullarga ega edilar. O‘rta darajadagi fuqaroning shahardagi uyida 5-10 qul, shahar tashqarisidagi qo‘rg‘onida 15-20 qul bo‘lgan. Qullarni erkinlikka chiqarish faqat imperiya davrida keng tus oldi. Qul qarib qolgach ko‘pincha uni boqmaslik uchun ko‘chaga haydab yuborilgan.

Qullarning qo‘zg‘olonlari. Qullarning og‘ir hayoti, ularga nisbatan shafqatsiz munosabat qullarning tez-tez qo‘zg‘olon ko‘tarishlariga sabab bo‘ldi. Qullar mil. avv. 196 – 195-yillarda Etruriyada, mil. avv. 185-yilda Apuliyada qo‘zg‘olon ko‘tardilar.

Sitsiliyadagi qullar qo‘zg‘oloni. Rim davlati va jamiyati asoslarini titratgan qullarning qo‘zg‘olonlaridan biri mil. avv. 138 – 132-yillarda Sitsiliyadagi qo‘zg‘olon bo‘ldi. Qo‘zg‘olon rahbari Evnoy «Antiox» nomini olib, yangi Suriya davlati tuzilganini e’lon qildi. Davlatni boshqarish uchun kengash va xalq yig‘ini tashkil etilib, Enna shahri davlat markazi bo‘ldi. Qo‘zg‘olonga Sitisiliyaning janubiy-g‘arbidagi qullar ham qo‘shildi. Bu yerda qo‘zg‘olonchilarga kilikiyalik qul Kleon boshchilik qildi. Tezda Evnoy va Kleon birlashib, Rim qo‘shinlarini yanchib tashladilar. Kleon «podshoh Antiox»ning strategi lavozimini oldi. Rimliklar bu qo‘zg‘olonni juda katta qiyinchiliklar bilan zo‘rg‘a mil. avv. 132-yilda bostirdilar.

Mil. avv. 104-yilda Sitsiliyada qul Salviy (Trifon) boshchiligida yana qullar qo‘zg‘oloni ko‘tarildi. Lilibey shahri yaqinida qul Afiniodn boshchiligida qullar qo‘zg‘olonining ikkinchi o‘chog‘i paydo bo‘ldi. Qo‘zg‘o-

lonchi qullar birlashib, Rim armiyasiga qarshi bir necha bor zarba berdi. Faqat mil. avv. 101-yilda konsul Manliy Akviliy bu qo‘zg‘olonni zo‘rg‘a bostirdi. Akviy Maniyning kelajagi ham yaxshi bo‘lmadi. Senat mil. avv. 90-yilda Akviy Maniyni sharqqa Mitridat IV Evpatorga qarshi urushga yubordi. Rim legionlari mil. avv. 88-yilda dushman qo‘shini tomonidan tor-mor qilindi. Akviy Maniyning o‘zi esa asir olinib og‘ziga qaynoq oltin quyib o‘ldirildi.

Sitsiliyadagi qullar qo‘zg‘oloni bilan bir vaqtda Pireney yarim orolida iber qabilalari Rim zulmiga qarshi urush olib bordilar. Ispaniyaning shimoliy-sharqiy qismidagi iber va kelt-iber qabilalari rimliklarni haydab chiqarishga qat’iy ahd qildilar. Bu harakatning tayanch markazi Numansiya shahri edi. Luzitanlar qo‘zg‘oloni bostirilganidan so‘ng, Viriat o‘ldirilib, rimliklar katta kuch bilan iber qabilalarining uyushgan ittifoqining qarshiligini bostirishga kirishdilar. Besh yil davomida Rim qo‘shini qo‘zg‘olonni bostira olmadi. Ochko‘z, qobiliyatsiz harbiy boshliqlar davlat manfaatlaridan ko‘ra, talonchilikni afzal ko‘rdilar. Ular o‘zlarining suiiste’mollari bilan ittifoqchi bo‘lgan qabila va mahalliy aholining qahr-g‘azabini qo‘zg‘atdilar. Mil. avv. 137-yilda Rim qo‘shini qo‘zg‘olonchilar qo‘shini qurshoviga tushib qoldi. Faqat kvestor Tiberiy Semproniy Grakxning harbiy san’ati tufayli Rim qo‘shini qirib tashlanmadi. Tiberiy Grakx bilan rimliklarni Ispaniyadan olib chiqib ketish to‘g‘risidagi iberlarning talabini bajarishga va’da berdi. Ammo Senat Tiberiy tuzgan shartnomani tasdiqlamadi va urushni davom ettirishga qaror qildi. Ispaniyaga eng yaxshi Rim harbiy boshliqlari yuborildi va 15 oy davomida qo‘zg‘olonchilar bilan olib borilgan urush rimliklarning g‘alabasi bilan tugadi. Yo‘lboshchi Viriat boshchiligida luzitan qabilalarining qo‘zg‘olonini bostirilishi yarimorolni to‘la tinchlantirishga olib kelmadi.

6. Rimda siyosiy kurashning keskinlashuvi. Mil. avv. I asrda Italiyada ittifoqchilar urushi boʻlib oʻtdi. Rimning italiyalik ittifoqchilari rimliklar bilan birga, harbiy xizmatning barcha majburiyatlarini oʻtab, bundan hech qanday yengillik, foyda olmadilar. Provinsiyalarda shaharlarning katta qismi mahalliy ishlarda qisman oʻz-oʻzini boshqarish huquqidan foydalanar edi. Bunday shaharlar qatorida keng avtonomiyadan foydalanuvchi erkin shaharlar ham bor edi. Rim provinsiyalarni boshqarishda «boʻlib tashla va hukmronlik qil» («dividtet imperia») siyosatidan foydalandilar. Dehqonlar yerga egalik qilish kafolatlariga muhtoj edilar. Yersiz dehqonlar va qoʻshinda harbiy xizmat muddatini oʻtagan veteranlar yer ulushi olish, shahar plebeylari esa, turli xayr-ehson, oziq-ovqat mahsulotlarini tekin olish ilinjida edilar.

Italiya aholisining turli toifalari Rim fuqaroligi huquqiga ega boʻlishga harakat qildilar. Rim davlati Respublikaning I asrlarida ittifoqchilarning ancha qismiga Rimga koʻchib oʻtib, Rim fuqarosi boʻlish huquqini berdi. Vaqt oʻtishi bilan bunday imkoniyatlar cheklandi. Rimning Oʻrtayer dengizi davlatiga aylanishi bilan Rim siyosatida Italiyadagi ittifoqchilar kamroq rol oʻynadi. Cnunki kuchayib ketgan Rim uchun endi Italiyadagi ittifoqchilar ortiqcha tashvish boʻldi. Rimda Italiya aholisiga past nazar bilan qarash an'anasi kuchaydi.

Xalq tribuni Apuley Saturnin mil. avv. 103-yilda Rim aholisiga favqulodda arzon narxlarda davlat tomonidan non sotish toʻgʻrisidagi qonunni oʻtkazdi. Saturnin dasturiga G.Mariy veteranlarini yer bilan ta'minlashni ham koʻzda tutdi. G.Mariy siyosiy hokimiyatga erishish va yangi konsullikga saylanish uchun populyarlarni qoʻllab-quvvatladi. Saturnin qonuni qabul qilingan boʻlsa-da, uni amalga oshirish mumkin boʻlmadi. Demokratik harakatning keng

ko‘lamga aylanib ketishi suvoriylarni qo‘rqitib yubordi. Natijada suvoriylar nobilitet bilan birlashdilar. Mil. avv. 100-yildagi siyosiy kurash qurolli to‘qnashuvga aylanib ketdi. G.Mariy ham nobillar tomoniga o‘tdi va Senatdan favqulodda vakolatlar olib, qo‘zg‘olonni tugatdi. Saturnin agrar qonuni mayda va katta yer egaligi o‘rtasidagi kurashning yangi bosqichi bo‘ldi.

Italiyadagi vaziyat juda keskin tus oldi. Yetarlicha siyosiy tajribaga ega bo‘lgan nobillarning ba’zi bir vakillari faqat o‘z vaqtida o‘tkarilgan islohotlar norozilikning oldini olishi mumkin deb hisoblar edilar. Bu islohotlarni o‘tkazish tashabbusi bilan mil. avv. 91-yilda xalq tribuni lavozimiga saylangan optimat Kichik Liviy Druz chiqdi. U Rim fuqarolari va italiyaliklarning keng qatlamlariga suyangan holda senat obro‘yini mustahkamlash, shu bilan bir vaqtda kuchayib ketayotgan suvoriylarni zaiflashtirish maqsadini ko‘zladi. U 4 qonun loyihasini taklif qildi:

1. Barcha italiyaliklarga fuqarolik huquqini berish;
2. Kampaniya va Sitsiliyadagi hali taqsimlanmagan jamoa yerlarida Rim fuqarolarining koloniyalarini tashkil qilish;
3. Senatorlarning sud komissiyasiga provinsiya noiblari suiiste’mollari to‘g‘risidagi ishlarni berish, shu bilan birga, senatni 300 suvoriy bilan to‘ldirish;
4. Eng kambag‘al fuqarolarga arzon non sotishni ko‘paytirish.

Birinchi qonun loyihasi keskin qarshilikka uchradi. Ittifoqchilar to‘g‘risidagi masala muhokama qilinadigan xalq kengashidan bir kun oldin Liviy Druz o‘ldirildi.

Ittifoqchilar urushi. Liviy Druzning o‘limi, uning qonun loyihasini rad etilganligi haqidagi xabar Rimga qarshi ittifoqchilarning urushini keltirib chiqardi (mil. avv. 91 – 88-yilllar). Katta yer egaligining o‘sishi Italiya aholisi foydalanib kelgan yerlarni okkupasi-

ya (bosib olinishi) qilinishiga olib keldi. Italiya aholisi Rim fuqaroligini olish uchun kurashdi. Rimga qarshi kurashda mars qabilalari faol harakat qildilar, kichik sabell qabilalari va samnitlar, O‘rta va Janubiy Italiyadagi boshqa qabilalar ularga qo‘shildi. Rimga faqat etrusk va umbrlar sodiq qoldilar. Qo’zg‘olon ko‘targan ittifoqchilar agar ularga Rim fuqaroligi berilsa, urushni to‘xtatishlarini taklif qildilar, lekin Rim bu takifni qabul qilmadi. Ittifoqchilar o‘z davlat tashkilotlarini tuzdilar: 500 a’zosi bo‘lgan senat, 2 konsul va 12 pretor boshqaruvi. Korfiniy shahri bu davlatning markaziga aylandi va tanga-pul ham zarb qilindi. Urushning boshlanishidagi janglarda ittifoqchilar rimliklar ustidan g‘alaba qozondilar. Rim tarafida bo‘lgan etrusk va umbrlar taraddudlanib qoldilar. Urushda og‘ir yo‘qotishlar va yangi qabilalarning ajralib ketishi xavfi rimliklarni yon berishga majbur qildi. Mil. avv. 90-yilda konsul Yuliy Sezarning taklifi bilan Rimga sodiq qolgan ittifoqchilarga fuqarolik huquqi beradigan qonun qabul qilindi. Xalq tribunlari P.Karbon va M.Silvanning takliflari bilan mil. avv. 89-yilda qabul qilingan qonunga ko‘ra ikki oy ichida qurolini tashlagan kishilarga Rim fuqaroligi berildi. Bu qonun ittifoqchilar o‘rtasida kelishmovchiliklarni keltirib chiqardi. Mil. avv. 89-yildagi alohida qonun bilan Shimoliy Italiya aholisiga lotin fuqaroligi huquqi berildi. Qo‘zg‘olon ko‘targan jamoa va qabilalarning ko‘pchiligi urushni to‘xtatdilar. Lekin marslar urushni davom ettirdilar. Rim bu urushga bor kuchini to‘pladi. Eng yaxshi sarkardalar Gay Mariy, Lutsiy Korneliy Sulla, Litsiniy Krass va hatto ozod qo‘yilgan qullar ham qo‘shinga safarbar qilindi. Urushni oxirigacha davom ettirmoqchi bo‘lgan mars qabilasining shahar va qishloqlari kultepaga aylantirildi. Mil. avv. 88-yilda urushni davom ettirayotgan ittifoqchilar Pont podshohi Mitridatdan yordam so‘radilar, lekin

u yordam bermadi. Itifoqchilar bir necha janglarda mag‘buliyatga uchradilar. Bu vaqtda Rim o‘zining asosiy maqsadi – Italiya federatsiyasini yemirib bo‘lgan edi. Ittifoqchilar urushi qator muammolarni hal qildi. Urush quyidagi asosiy natijalar bilan tugadi:

- Rim rasmiy jihatdan ham jamoa davlat sifatida yashashni to‘xtatdi;

- Ittifoqchi jamoalar mahalliy o‘z-o‘zini boshqaruvini saqlab qolgan yagona davlat tarkibiga kirgan shahar-munitsipiylarga aylandi;

- Munitsipiylar ichki qurilishda Rim tartiblarini o‘zlashtira oldilar. O‘z-o‘zini boshqaruvning bosh organi xalq yig‘ini saylagan sobiq magistrantlar, 100 dekurionlardan saylangan senat (kuriya) edi. Senat a’zolari, odatda, boy shaharliklar, o‘rta yer egalari – quldorlar edi;

- Italiyani Rim fuqaroligi bilan yagona davlatga birlashuvidan birinchi navbatda, boy italiyaliklar foyda ko‘rdilar. Jumladan, dekurionlar toifasi shu vaqtdan boshlab hukmron sinfning iqtisodiy va siyosiy jihatdan kuchli guruhi sifatida o‘rin egallay boshladi;

- Italiya iqtisodiyotida quldorlik munosabatlari jamoalararo doiradan chiqib, yanada jadal rivojlana boshladi;

- Asosan yersizlikdan azob chekkan Italiya dehqonlari veteranlar sifatida provinsiya yerlarini egallash imkoniga ega bo‘ldilar. Provinsiyalarda italiyalik savdogarlar, sudxo‘rlar, ijarachilar hamda hunarmandlar keng faoliyat ko‘rsata boshladilar. Eng kambag‘al italiyaliklar legionerlar va davlat yordamini oladigan Rim yo‘qsillari safini to‘ldirdilar;

Rim fuqarolari sonini 400 mingdan ikki millongacha o‘sishi ijtimoiy-toifaviy ziddiyatlarni tugatmadi, balki yanada kuchaytirdi. Ittifoqchilar urushida rimliklarning g‘alabasi juda qimmatga tushdi. Italiya shahar va qishloqlari vayron qilindi. Juda ko‘p qur-

bonliklar berildi. Iqtisodiy tushkunlik boshlanib, pul qadrsizlandi. Iqtisodiyotdagi tushkunlik Rim jamiyatida ijtimoiy ziddiyatlarni keskinlashuvi bilan birga bordi.

Mil. avv.I asr boshlarida Rim respublikasi chuqur ijtimoiy-siyosiy tanglik va qonli tashqi urushlar davriga kirdi. Oqibatda Respublika tizimi zaiflashdi, demokratik tuzumdan mutlaq hokimiyat tomoniga jadal siljish boshlandi. Agrar masala, Italiya shaharlarining huquqsizligi, oddiy xalq – plebsning ahvolining yomonlashuvi hamda hukmron tabaqalar o‘rtasidagi kurash respublika tuzumi asoslarini zaiflashtirdi. Rim respublikasi o‘z halokati tomon jadal yurishni boshladi.

Italiyadagi beqaror vaziyat senat hokimiyatining samarali boshqaruvi yo‘qligi, ichki siyosatning beqarorligi, siyosiy arboblarning o‘sib borayotgan roli, ularning ochiqdan-ochiq demagogiyasi kurashning zo‘ravonlik usullarini qo‘llashga tayyorligi yaqqol ko‘rindi.

Grakxlar va ularning eng faol tarafdorlarining o‘limidan so‘ng, oddiy fuqarolarni himoyachisi populyarlarning zaiflashuvi vaqtinchalik edi. Rim jamiyatidagi qarama-qarshiliklar bartaraf qilinmadi. Begona hududlarda urush harakatlari olib borayotgan Rim qo‘shinlariga qo‘mondonlik qilayotgan, nobillar homiyligi ostidagi qo‘mondonlarning muvaffaqiyatsizliklari norozilikni kuchaytirdi. Bu jarayon Rimda hukmron tabaqa bilan oddiy xalq ommasi o‘rtasidagi ziddiyatlar chuqurlashib, chuqur tushkinlikda bo‘lgan davlat hokimiyatining zaifligidan dalolat berar edi. Rim respublikasi mavjud beqarorlikni tugatish imkoniyatiga va kuchiga ega emasligi yaqqol ko‘rinib qoldi.

RIM RESPUBLIKASINING AGRESSIV TASHQI SIYOSATI (MIL. AVV. II ASRNING OXIRI – MIL. AVV. I ASR)

«Qanday sotqin shahar! Agar xaridor topilsa, u izsiz yo‘qoladi».

Yugurta, Numidiya podshohi

1. Yugurta urushi.
2. Kimvr va tevtonlarga qarshi urush.
3. Pont davlatiga qarshi urush.
4. Gall urushi.
5. Parfiyaga qarshi urush.

Rimning ichki siyosatidagi beqarorlik tashqi siyosiy masalada hukmron doiralar e’tiborini vaqtinchalik susaytirdi. Mil. avv. II asrning so‘nggi 10 yilligida Rimning xalqaro ahvoli keskin edi. Rim yaqin Sharqdagi eng kuchli davlat Misr bilan ittifoq tuzgan edi. Yaqingacha qudratli bo‘lgan Salavkiylar davlati yemirilish davriga kirib, sharqda o‘zi bosib olgan hududlardagi ozodlik harakatini bostirishga kuchi yetmadi. O‘rta Osiyodagi qudratli Parfiya davlati Old Osiyoda Salavkiylarga qarshi mahalliy aholini ozodlik kurashiga yordam berdi. Rim sharqda bosib olgan hududlarda rimlik sudxo‘rlar, noiblarning jabr-zulmi va zo‘ravonligiga qarshi kuchli qo‘zg‘olonlar va harakatlar kuchayib ketdi. Kichik Osiyoda Aristonik boshchiligidagi qo‘zg‘olon zo‘rg‘a bostirildi. Tashqi siyosatda bu vaqtda jiddiy muammolar tug‘ildi.Shimoliy Qoradengiz bo‘yidagi Pont davlati podshohi Mitridat VI Yevpator Rim zulmidan qutulish uchun urush boshladi. Shimoliy Afrikada ham Rim zulmiga qarshi mahalliy aholining noroziligi kuchli edi. Respublika davrida ham, imperiya davrida ham Rim davlatining tashqi siyosati bosqinchilik urush-

lariga asoslangan agressiv tashqi siyosat bo‘lib, bu siyosat Rim davlatchiligining so‘ngi davrigacha o‘z mazmunini o‘zgartirmadi.

1. Yugurta urushi. Rimning Afrika provinsiyasiga g‘arbdan, janub va sharqdan chegaradosh bo‘lgan Numidiya davlati Rimga qaram bo‘lgan davlat edi. Ikkinchi Puni urushida rimliklarga sodiq ittifoqchi bo‘lgan Numidiya davlatiga rimliklar Afrikada bosib olgan bir necha shahar va hududlar berdilar. Numidiya podshohi Masinissaning o‘g‘li Mastanabalning joriyasidan bo‘lgan o‘g‘li Yugurta joriyaning o‘g‘li bo‘lgani uchun Masinissa vafot etganda taxtga voris bo‘la olmas edi. Shu sababli Masinissaning o‘g‘li Misipsa taxtni egalladi. Misipsa Rimning Ispaniyada numantiya urushida rimliklarga yordam uchun yuborayotgan otliq va piyoda askarlarga sarkarda qilib Yugurtani yubordi. Yugurta bu urushda janglarda ko‘rsatgan jasorati, harbiy kengashlarda aqlli maslahatlari bilan rimliklarning olqishi va hurmatiga sazovor bo‘ldi.Yugurta haqiqiy jangchi edi. U nayza otish, chavandozlikda tengi yo‘q bo‘lib, ovda sherni va har qanday yirtgich hayvonni ovlashda doimo biriinchi edi. Yugurta aqlli, harbiy ishga qobiliyatli bo‘lib, xalq uni bu fazilatlari uchun yaxshi ko‘rar edi. Misipsa Yugurtaning qobiliyatini tan olib uni o‘g‘illari bilan bir qatorda taxt vorisi deb e’lon qildi.

Keksayib qolgan Numidiya podshohi Misipsa mil. avv. 121-yilda o‘z taxtini o‘g‘illari Giempsal, Adgerbal va jiyani Yugurta o‘rtasida taqsimlab berdi. Vorislar o‘rtasida ixtilof yuzaga kelib, Giempsal o‘ldirildi, Adgerbal Rimga qochib ketdi va Yugurta Numidiya taxtini egalladi. Adgerbal Rim senatiga Yugurta ustidan arz qildi. Rimliklarning kuchli va zaif tomonlarini bilgan Yugurta Rimga katta sovg‘alar va mablag‘ bilan o‘z elchilarini yubordi. Elchilar kerakli odamlarga katta miqdorda sovg‘a-salom va mablag‘lar berib, Yu-

gurtaning manfaatlari himoya qilinishiga erishdilar. Yugurta rimlik sarkardalarni, Rim senatining ayrim a'zolari va tribunlariga pora berib, ularni sotib oldi. U Rimning sotqin, ochko'z hukmron tabaqasi to'g'risida shunday so'zlarni aytgan edi: «Qanday sotqin shahar! Agar xaridor topilsa, u izsiz yo'qoladi». Yegan og'iz uyaladi, degandek porani olgan bir qism senatorlar Yugurtani himoya qildilar. Senat Yugurtaga yon bosib, Misipsaning podshohligini Adgerbal va Yugurta o'rtasida taqsimlash to'g'risida qaror qabul qildi.

Bir necha yildan keyin Yugurta bilan Adgerbal o'rtasida ixtilof chiqib, ikki o'rtada urush boshlandi va Yugurta Adgerbalni o'z poytaxtida qamal qildi. Adgerbal yana Rimga murojaat qilib yordam so'radi. Yugurta Adgerbalning poytaxtini ishg'ol etib, uni va u bilan birga shahardagi rimliklarni ham qatl etdi. Rim senati Yugurtaga qarshi urush e'lon qildi va kuchli Rim armiyasi Afrikaga tushdi. Yugurta Numidiya davlatini Rimga qaramlikdan ozod etib, kuchli davlatga aylantirishni maqsad qildi. Yugurta Rim qo'shinlari qo'mondoniga katta miqdorda pora berdi va natijada urush harakatlari to'xtadi. Rim armiyasi qo'mondoni va Yugurta o'rtasida unga foydali shartlarda tinchlik bitimi tuzildi. Rim zulmidan qutulishga intilgan Shimoliy Afrikaning bir necha qabilalari Yugurtani qo'llab-quvvatladilar. Rim senati tinchlik shartnomasini buzib, yana urush harakatlarini boshlab yubordi. Pora olgan birinchi qo'mondon urush harakatlarini nomiga olib bordi, Rimdan kelgan yangi qo'mondon esa mil. avv. 109-yilda Numidiyadagi Sutule yaqinidagi jangda Yugurta tomonidan tor-mor qilindi va tinchlik shartnomasini tuzdi. Bu shartnomaga ko'ra Rim armiyasi Numidiyadan chiqib ketadi, armiya sirtmoq ostidan o'tadi va Yugurta Numidiya podshohi deb tan olindi.

Sutule yonidagi g'alaba Yugurtaning Shimoliy Afrika qabilalari oldida harbiy-siyosiy mavqeyini ku-

chaytirdi. Rim zo‘ravonligidan norozi bo‘lgan ko‘p sonli gugul qabilalari, Mavretaniya podshohi Bokx Rim zulmidan ozod bo‘lish niyatida Yugurtaga yordam berishga va’da qildilar. Rimning Shimoliy Afrika mulklarini yo‘qotish xavfi yaqqol ko‘rindi.

Rimda xalq yig‘ini Yugurta bilan rimliklar uchun sharmandali «tinchlik» shartnomasini tasdiqlamadi. Rimda Yugurta bilan til biriktirgan qator kimsalar shahardan haydab yuborildi. Nihoyat, senat pora olmaydigan, obro‘-e’tiborli zodagon Kvint Metell va unga yordamchi etib Gay Mariyni tayinladi.

Mil. avv. 109-yilda Rim legionlari Afrikaga Yugurtaga qarshi urushga yuborildi. Numidiyaga qarshi yana urush boshlandi. Qo‘shinda tartib-intizom yo‘lga qo‘yildi. Bir muddatdan keyin Rim legionlari mil avv. 108-yilda Rim armiyasi Muful daryosi yoqasidagi jangda Yugurta armiyasi ustidan g‘alaba qildi. Yugurta sahroga chekinib, partizan urushiga o‘tdi. Urush cho‘zilib ketdi. Bundan norozi bo‘lgan xalq yig‘ini senatning irodasiga qarshi harbiy qobiliyati bilan obro‘-e’tibor qozongan, dehqonning o‘g‘li, 48 yoshli Gay Mariyni qo‘shin qo‘mondoni qilib tayinladi. Gay Mariy mil. avv. 107-yilda konsulligidan so‘ng, yaxshi qurollangan qo‘shin bilan mil. avv. 105-yilda Afrikaga keldi va Yugurtaga qarshi urush harakatlarini boshladi.

Yugurta rimliklar bilan urushda qaynotasi Mavretaniya podshohi Bokx bilan ittifoq tuzdi. Rimliklar Mavretaniya va boshqa urug‘-qabilalarini qo‘rqitish va turli va’dalar berish bilan Yugurtaga qarshi qo‘ydilar. Mavretaniya podshohi Mariyning vakili Sulla bilan Yugurtani asirga olish yuzasidan yashirin kelishib oldi, natijada xoinlik va makkorlik bilan rimliklar Yugurtani asir oldilar. Yugurta va uning bolalari Rimga olib ketildi. Yugurta turmaga tashlanib, ochlikka mahkum etilib o‘ldirildi. Numidiyaning bir qism

hududi Bokxga berildi. Zaif Numidiyaga hukmdor qilib Yugurtaning aqli zaif ukasi tayinlandi. Shu bilan Yugurtaga qarshi 7 yil olib borilgan urush mil. avv. 104-yilda tugadi.

Kimvr va tevtonlarga qarshi urush. Ayni shu vaqtda Rim uchun yana bir xavf tug‘ildi. Boltiq dengizi bo‘ylarida yashagan german qabilalaridan biri Kimvr qabilalari iqlim o‘zgarishlari bilan dengiz toshqinlari ro‘y berishi oqibatida joylaridan ko‘chdilar. Ular erksevar mag‘rur xalq bo‘lib, ozod va erkin yashash va qullikdan ko‘ra urushib halok bo‘lishni afzal ko‘rar edilar. Yutlandiya yarim orolida yashagan boshqa german qabilasi tevtonlar ham o‘z joylaridan ko‘chdilar va g‘arbga yurish boshladilar. Kimvrlar hozirgi Germaniya va Avstriya yerlarida ko‘chib yurdilar va mil. avv. 113-yilda ilk bor Rim legionlari bilan Akvileya yonida uchrashdilar. Ular rimliklarga hurmat ko‘rsatdilar va Rimga qaram bo‘lgan bu hududlaridan chiqib ketishlarini aytib, faqat o‘zlariga yo‘lboshlovchilar berishni iltimos qildilar. Lekin takabbur Rim konsulining yashirin buyrug‘i bilan kimvrlar pistirmaga duchor qilindilar. Pistirmada ularga konsul Karbon boshchiligida Rim legionlari hujum qildi. Bunday munofiqlikni kutmagan erksevar kimvrlar jangda Rim legionlarini yanchib tashladilar. Kimvrlar Alpdan shimolga o‘tib, Galliya hududiga kirdilar. Ular Galliyada boshqa Rim armiyasiga duch keldilar. Kimvrlar Rim konsulidan yashash uchun joy ajratishni iltimos qildilar. Lekin rimliklar kimvrlarlarga yer berishdan ko‘ra ularni qirib tashlashni afzal ko‘rdilar. Mil. avv. 109-yilda Rim armiyasi kimvrlar ustiga yopirildi. Kimvrlar uchun kutilmagan bu jangda Rim legionlarini yanchib tashladilar, Ular Italiyaga o‘tmay Galliya hududida turib qoldilar.

Kimvrlarning gelvetlar va Galliyaning o‘zida ularga qarindosh bo‘lgan tevtonlar bilan birlashuvi rim-

liklar uchun xavfli vaziyatni yana murakkablashtirdi. Rona daryosi vodiysida mil. avv. 105-yilda Rim armiyasi kimvrlar bilan yuzma-yuz keldi. Jangovar kimvrlar Rim legionlari bilan mardonavor jangga kirishdilar. Jang maydonida Kanna halokatidan ham ko‘proq 100 ming legionerning jasadi qoldi. Kimvrlar bu g‘alabadan keyin himoyasiz qolgan Italiyaga emas, Ispaniyaga o‘tib ketdilar.

Gay Mariyning harbiy islohoti. Rim xalqi vahimaga tushib dushman hujumini kutdi, kimvrlarda hech qanday talonchilik maqsadlari yo‘q bo‘lib, ular faqat yashash uchun yer izlayotgan edilar. Rim senati Rim legionlarining halokatiga sababchi bo‘lgan konsullarni jazoladi. Konsul Gay Mariy tashabbusi bilan harbiy islohot o‘tkazildi. Armiya qayta tuzildi, askarlar harbiy ishga o‘qitildi va armiyada qattiq tartib-intizom o‘rnatildi.

Kimvrlar Ispaniya hududidan g‘olibona yurib, Atlantika okeani qirg‘oqlari bilan shimolga yurdilar. Keyin tevton qabilalari bilan uchrashib, Italiyaga yurish qilib, bo‘sh yerlarni egallashga qaror qildilar. Kimvrlar sharqdan, tevtonlar g‘arbdan Alp tog‘lari orqali Italiyaga o‘tishga qaror qildilar. Rim armiyasiga Gay Mariy bosh qo‘mondon etib tayinlandi. U Italiyaning shimolida Rim zulmidan qutulishga harakat qilgan qabilalarga qarshi yurish qildi va ularni yana Rimga tobe qildi.

Mariy legionlari bilan tevton qabilasi o‘rtasida mil. avv. 102-yilda Sekstiy Akva yonida jang bo‘ldi. Bu qonli jangda tevtonlar yengildilar. Rim armiyasi tomonidan barcha erkak revtonlar, ularning ayol va bolalari qirib tashlandi. Bu vaqtda Italiyaga kirgan kimvrlardan vahimaga tushgan Rim legionlari qo‘rqib qochdilar. Kimvrlar qishlash uchun Po daryosining o‘ng qirg‘og‘ini egalladilar. Rim senati kimvrlarni Rimga hech qanday xavf tug‘dirmaganini ko‘rib tursalar-

da ularni qirib tashlashga qaror qildi. Mariy armiyasi mil. avv. 101-yilda Shimoliy Italiyadagi Vertsella yonida kimvrlar bilan uchrashdi. Har ikki tomon o‘rtasida jang kuni etib mil. avv. 101-yil 18-yul belgilandi. Jangda deyarli barcha kimvrlar – 150-200 ming kishi halok bo‘ldi. Yana shunchasi Italiya va O‘rtayer dengizidagi qul bozorlarida sotib yuborildi.

Rim armiyasining kimvr va tevtonlar ustidan g‘alabasining asosiy omili Gay Mariyning harbiy islohoti natijasida yuksak darajada jangovar qobiliyatga ega bo‘lgan kuchli armiyani shakllanishi bo‘ldi. Islohotgacha Rim qo‘shini zaruriyat bilan chaqirilgan fuqarolarning ko‘ngilli qismlaridan iborat bo‘lib, urush harakatlaridan so‘ng, ular o‘z tinch hayotlariga qaytar edilar. Qo‘shinda xizmat qilish ma’lum miqdorda mulkka ega bo‘lgan, o‘zini qurol-yarog‘ bilan ta’minlay oladigan fuqarolarning faxriy majburiyatlaridan biri edi. Bunday tarkibda tuzilgan qo‘shin Rim shahar-davlati sharoitida o‘zini oqlar edi. Endilikda Rim O‘rtayer dengizining turli qismlarida to‘xtovsiz istilochilik urushlari olib borayotgan bir paytda harbiy majburiyat nafaqat faxriy, aksincha, og‘ir bo‘lib, ayniqsa, ko‘ngillilarning asosini tashkil etadigan dehqonlar uchun xonavayron qiladigan majburiyat bo‘ldi.

Gay Mariy qo‘shinning tuzilishi, qurollanishi, jangni tashkil qilish, jangchilarning harbiy mashqlarini tashkil qilish, qismlarning tuzilishiga taalluqli bo‘lgan qator islohotlarni amalga oshirdi. Gay Mariy senatdan mulkiy ahvoliga qaramasdan, barcha fuqarolarni armiyaga harbiy xizmat olishga ruxsat oldi. Eng kambag‘al shaharlik va yersiz dehqonlar davlatdan qurol-yarog‘, harbiy xizmati uchun maosh, xizmat muddati tugaganidan so‘ng yer ulushi oladigan bo‘ldilar. Italiyaliklar va boshqa ittifoqchilar harbiy xizmatga ko‘plab jalb qilina boshladilar. Nati-

jada dehqonlardan tuzilgan ko‘ngillilar qo‘shini professional qo‘shinga aylana boshlandi. Bu qo‘shin o‘z ehtiyoj-manfaatlari bilan aholini boshqa tabaqalaridan ajralib turar edi hamda ular o‘z qo‘mondonlariga so‘zsiz va sadoqat bilan bo‘ysunar edilar. Chunki har bir legionerning taqdiri va farovon hayoti bu sarkardalarga bog‘liq edi. Rim qo‘shinida eng qadimgi davrdan bayroq yoq edi. O‘sha vaqtda faqat dalani belgilash uchun pichan tutami qistirilgan uzun tayoq ko‘tarilgan, Mariy qo‘shinga burgut tasvirini joriy qildi. Shu vaqtdan boshlab burgut tasviri legionning ramziga aylandi, bundan tashqari har bir kogorta ham o‘z ramziga ega bo‘ldi. Armiyadagi ijobiy o‘zgarishlar Gay Mariyni Rimda eng obro‘-e’tiborli kishiga aylantirdi. Mavjud qonunlarga zid ravishda Gay Mariy 5 yil davomida uzluksiz 5 marta, jami 7 marta konsul etib saylandi.

Mariy atrofida patritsiy – plebey zodagonlarining tayanchi senatga qarshi muxolifat to‘plandi. Muxolifat Rimda oliy mansablarni egallash uchun mil. avv. 100-yilda saylovlarda g‘olib chiqdi. Gay Mariy konsul, Saturnin – tribun, Glavsiy – pretor lavozimini egalladilar. G‘oliblar non narxini pasaytirish, askarlarga avvalgidan uch marta yer ulushi ko‘p olish mumkin bo‘lgan koloniyalar barpo etish, lotin huquqidagi fuqarolarni Rim huquqi bilan tenglashtirish uchun qonun loyihalarini taklif qildilar. Lekin senat bunga keskin qarshilik ko‘rsatdi, keyingi saylovlarda muxolifat oliy hokimiyatni yana o‘z qo‘lida saqlab qolishga urindi. Oqibatda Rim ko‘chalarida raqib nomzodlar tarafdorlari o‘rtasida to‘qnashuvlar boshlandi. Senat Mariydan konsul sifatida qonunchilik va tartib intizomni tiklash talabini qo‘ydi. Mariy o‘z tarafdorlariga nisbatan kuch ishlatishga majbur bo‘ldi.

2. Pont davlatiga qarshi urush. Pont podshohi Mitridat VI (mil. avv. 121 – 63) ulkan gavdali nihoyat-

da katta jismoniy kuchga ega, mohir chavandoz va ovchi, turli bazmlar, ichkilikbozliklar tashabbuskori edi. U yaxshi ma'lumotga ega bo'lib, 22 tilni bilar, mohir diplomat va kuchli lashkarboshi edi. Mitridat mil. avv. II asr oxirida Pont davlati hududini kengaytirdi. Bu vaqtda Pont davlati tarkibiga Kichik Osiyo (Paflagoniya, Kappadokiya), Armanistonning bir qismi, Kolxida va Bosfor podshohligi kirgan edi. Mitridat VI Pont davlatini harbiy salohiyatini mustahkamlab, mamlakat mudofaa qobiliyatini kuchaytirdi: 300 ming kishilik jangovar qo'shin, 400 kemadan iborat kuchli harbiy flotni tashkil qildi. Mitridat VI Rimning Shimoliy Qoradengiz bo'ylari va Kichik Osiyodagi talonchilik urushlariga chek qo'yish uchun 26 yil urush olib bordi. Rim Mitridatni taxtdan ag'darish uchun ochiq urush olib borish bilan birga turli fitnalar uyushtirdi. Mitridat shu sababli ko'p yillar davomida zaharga qarshi turli dorivorlarni ichib yurdi. Bu dorilar uni jismida zaharga qarshi kuchli immunitetni paydo qildi. Mitridat VI Rimning agressiv tashqi siyosatiga qarshi faol tashqi siyosat olib bordi. U qo'shni skif, sarmat va frakiyaliklar bilan do'stona munosabat o'rnatdi. Uzoq Ispaniyada Rimga qarshi qo'zg'olon ko'targan Sertoriy bilan aloqa o'rnatdi. Rimning zulmidan jabr tortgan Kichik Osiyo va boshqa qoshni xalqlar Mitridat VI ni qo'llab-quvvatladilar.

I. Mitridat urushi, mil. avv. 89 – 84-yillar. Pont davlati Mitridat davrida bosqinchi rimliklarga qarshi uch marta urush olib bordi. Bu urushlar Pont podshohi Mitridat VI nomi bilan shartli ravishda Mitridat urushlari deb ataldi. Mil. avv. 89 – 84-yillarda Pont davlati bilan Rim o'rtasida urush boshlandi. Mitridat Rim armiyasining Kichik Osiyo hududidan siqib chiqardi. Pont armiyasi bilan yaqin savdo-iqtisodiy aloqalarda bo'lgan. Yunonistonni Rim zulmidan ozod qildi. Sulla mil. avv. 87-yilda Yunonistonga qo'shin

tortdi, bir necha yillik urush harakatlaridan so‘ng Mitridat armiyasi Yunonistondan chiqib ketdi. Sulla yunon shaharlarini taladi, Afina qamal qilinib mashhur Litsey va Akademiya tepaliklaridagi xiyobonlardagi daraxtlar kesilib shahar qamali uchun ishlatildi. Afina shahri ishg‘ol qilinib, Rim askarlari shaharni ayovsiz taladilar. Rimliklar Mitridatga qarshi Kichik Osiyo va boshqa shaharlarni gij-gijladilar. Oqibatda ayrim shahar va hududlar rimliklar tomoniga o‘tdilar. Mil avv. 85-yilda Dardan shahrida Mitridat bilan Sulla o‘rtasida sulh shartnoma tuzildi. Rim 3 ming talant kontributsiya va pont flotining bir qismini oldi. Pont o‘zining mulklarini asosan saqlab qoldi. Bu sulh shartnomasi Pont uchun Rim ekspansiyasiga qarshi kurashdan voz kechish emas edi. Pont hali ham Rimning ekspansiyasiga qarshi turgan kuchli davlat edi.

II. Mitridat urushi. Mil. avv. 83 – 81-yillar. Pont davlati bilan Rim o‘rtasida ikkinchi urush boshlandi. Bu urushni rimliklar boshladilar. Mitridat Rim agressiyasiga qarshi sarmat, skif, frakiyalikllar va german qabilalari bilan ittifoq tuzib urush olib bordi. Rimga qarshi isyon ko‘targan Sertoriy bilan munosabatga kirishdi va Spartak qo‘zg‘olonini qo‘llab-quvvatladi. Dengiz piratlari bilan aloqa qildi.

III. Mitridat urushi. mil. avv. 74 – 63-yillar. Rimda Spartak boshchiligidagi qullar qo‘zg‘oloni bilan bir vaqtda Pont davlati bilan III Mitridat urushi urushi boshlandi. Mil. avv. 60-yilda Rim senati Lukull boshchiligida kuchli armiyani Pont davlatiga qarshi urushga yubordi. Rimning Pont bilan urushining dastlabki bosqichida Lukull Mitridatni u bosib olgan Rim hududlaridan siqib chiqardi va Vifiniyani egalladi. Lukull armiyasi urushni davom ettirib, Pont davlati hududiga bostirib kirdi. Lekin Lukull Mitridat VI qo‘shinlarini yengolmadi. Lukull Osiyo provinsiyasida moliyaviy ishlarga aralashib, Rim suvoriylarini

o‘ziga dushman qildi, yana armiyada qattiq intizom o‘rnatib, legionerlarning noroziligini keltirib chiqardi. Rimda Senat Lukullni faoliyatidan qoniqmay uni urushni cho‘zishda ayblab Rimga chaqirib oldi**.**

Senatning irodasiga qarshi xalq yig‘ini sharqda qo‘mondonlikni Gney Pompeyga topshirdi. Pompey qo‘shini mil. avv. 66-yilda Pont hududiga bostirib kirdi. Mitridat mudofaa urushi olib bordi, lekin Pompey Frot daryosi qirg‘oqlaridagi jangda Mitridat armiyasi ustidan g‘alabaga erishdi. Rim bu urush yakunida qo‘shni Armanistonni vassal davlatga aylantirdi. Rim bu urushda Pont podshohligining bir qismini bosib oldi va uning o‘rniga Vifiniya va Pont provinsiyalariini tashkil etdi. Shundan so‘ng Pompey mil. avv. 64-yilda Suriyaga yurish boshladi va Yahudiyada Rim hokimiyatini qayta tikladi.

Mitridat Bosforda rimliklarga qarshi urushga tayyorlana boshladi. Rim legionlari Qrim yarim oroli qirg‘oqlarini qamal qilishi bilan Mitridatga qarshi Fanagoriya va Feodosiyada qo‘zg‘olon ko‘tarildi. Qo‘shinda ham norozilik paydo bo‘ldi. Mitridat og‘ir ahvolga tushib qoldi. Mitridatnining o‘g‘li Farnak hokimiyatni egallah uchun otasiga qarshi chiqdi. Mitridat o‘zining Pantikapey shahridagi saroyida qamal qilindi. Dushmanga taslim bo‘lishni istamagan Mitridat butun oilasiga zahar ichishni buyurdi. Mitridatning onasi, ukasi, singillari, 3 o‘g‘li va 3 qizi zahar ichdi. O’zi ham zahar ichdi, lekin zahar ta’sir qilmadi. Chunki Mitridat uzoq vaqt zaharga qarshi turli dorilarni iste’mol qilgani uchun uning organizmi har qanday zaharga qarshi immunitetga ega bo‘lgan edi. Mitridat o‘z quli Keltga o‘zini o‘ldirishga buyruq berdi. Shu bilan Mitridatning Rim zulmiga qarshi kurashga bag‘ishlagan hayoti tugadi. Farnak rimliklarga to‘la taslim bo‘ldi. O‘z otasi va xalqiga xiyonati uchun Farnak rimliklar tomonidan munosib taqdir-

landi. Bosfor Farnakka qoldirildi va u Rimning do‘sti va ittifoqchisi deb e’lon qilindi.

Endilikda Rimning sharqiy chegaralari Parfiya davlati chegaralari bilan bevosita tutashdi. Rim doimo Parfiyaning manfaatlarini e’tiborga olmay sharqqa ekspansiyasini davom ettirishga urindi, lekin sharqning qudratli davlati bo‘lgan Parfiya Rimning sharqdagi bosqinchilik yurishlarini to‘xtatib qolgan yagona davlat bo‘ldi. Rim sharqning kuchli davlati bo‘lgan va kuchli armiyaga ega bo‘lgan Parfiyaning hududlariga bostirib kirishga jur’at qila olmadi. Lekin Parfiyaga qarshi yashirin urush olib bordi. Parfiyadagi sulolaviy nizolarga aralashdi, qo‘shni davlatlar va xalqlarni Parfiyaga qarshi gij-gijladi.

Pompeyning halokatidan so‘ng Rimning yangi xo‘jayini Yuliy Sezar Misrga yurish qildi. Misr bu vaqtda mustaqil davlat bo‘lsada, zaiflashib Rimga qaram bo‘lib qolgan edi. Sulola vakillarining taxt uchun kurashlari mamlakatni zaiflashtirdi. Misr hukmdori Ptolemey Avlet o‘limidan keyin uning vasiyatiga ko‘ra, hokimiyatni o‘g‘li Ptolemey Dionis va qizi Kleopatra birgalikda boshqardilar. Opa-uka o‘rtasida ixtilof chiqib, bu urushga aylandi. Kleopatra quvg‘in qilinib, ukasi o‘smir Ptolemey Dionis mamlakatni boshqardi. Sezar Ptolemeylar sulolasining taxt uchun kurashiga aralashdi. Quvg‘indagi malika Kleopatra Aleksandriyaga yashirincha kelib maxfiy holda Sezar bilan uchrashdi. Kleopatra o‘zining chiroyi, aqli va ma’lumoti bilan Sezarni o‘ziga maftun qildi. Sezarning sa’y-harakati bilan Kleopatra Ptolemey Dionis bilan birga Misr hukmdorlari deb e’lon qilindi.

Misrliklar Misr o‘z mustaqilligini yo‘qotib, Rimning zulmi ostiga tushib qolishi xavfi yuzaga kelganini tushunib yetdilar. Misrning vatanparvar aholisi podshoh Ptolemey Dionis boshchiligida Aleksandriyada mustaqillikni saqlab qolish uchun Aleksand-

riyada rimliklarga qarshi ozodlik urushini boshladilar. Lekin Rim bu boy mamlakatni to‘la bosib olishni ko‘zlagan edi. Nil daryosidagi jangda rimliklar Misr qo‘shini ustidan g‘alaba qildilar, podshoh Ptolemey jangda halok bo‘ldi. Urush vaqtida Sezar portda turgan kemalarni misrliklar bosib olishidan xavfsirab, kemalarni yoqishga buyruq berdi. Yong‘in chiqib, mashhur Aleksandriya kutubxonasining bir qismiga o‘t tushib, kutubxonadagi nodir qo‘lyozmalarning bir qismi yonib ketdi. Sezar misrliklarning ozodlik urushini Suriyadan chaqirilgan qo‘shin bilan zo‘rg‘a bostirdi. Ptolemey sulolasining so‘nggi vakili malika Kleopatra taxtga o‘tirdi, u Sezarga tayanib Misrni o‘tmishdagi qudratini tiklashni ko‘zlagan edi.

Bu vaqtda Pont podshohi Mitridat VI ning o‘g‘li Farnak Rim zulmiga qarshi ozodlik urushini boshladi. U tezlik bilan harakat qilib, Fanagoriya va Kichik Osiyoni rimliklardan ozod qildi. Lekin Sezar mil. avv. 47-yilda Misrdan armiya bilan chiqib Farnakga qarshi urush boshladi. Sezar Farnakka qarshi yurishni juda qisqa muddatda amalga oshirdi va bu to‘g‘risida Rim senatiga o‘zining «keldim, ko‘rdim, yengdim» deb qisqa maktub yubordi. Mil. avv. 30-yilda Misr o‘z mustaqilligini yo‘qotib, Rim provinsiyasiga aylantirildi.

3. Gall urushi. Mil. avv. I asrning 50-yillarida rimliklar Galliyaning bir qismini bosib olgan edilar. Lekin Galliyaning katta qismi (hozirgi Fransiya, Belgiya, Gollandiyaning bir qismi, Shvetsariyaning katta qismi) hali mustaqil edi. Bu hududda yashagan o‘nlab qabilalar doimo o‘zaro urushlar girdobida edilar. Senat Galliyaning qolgan ana shu qismini bo‘ysundirish uchun Sezarga qo‘shin to‘plashga ruxsat berdi. Galliyani istilo qilish yetti yil davom etdi. Boshda Sezar gelvet (hozirgi Shvetsariya hududida yashagan) qabilasiga qarshi, keyin esa, german qabilalaridan biri bo‘lgan svevlarni tobe qilish uchun urush olib bordi.

Svevlar Ariovis yo‘lboshchiligida Rim bosqiniga qarshi ozodlik urushini olib bordilar. Nihoyat, belg qabilalari bilan keskin kurashdan keyin Galliya bo‘ysundirildi va u mil. avv. 57-yil Rim provinsiyasi deb e’lon qilindi.

Mil. avv. 56-yil bahor oyida Sezarning Galliyadagi vakolati yana 5 yilga uzaytirildi. Sezar mil. avv. 55-yilda german qabilalariga qarshi Reyn ortiga, mil. avv. 54-yilda esa Britaniyaga yurish qildi. Lekin mil. avv. 54-yilda Rim zulmiga qarshi Buyuk gall ozodlik harakati boshlandi. Bu ozodlik urushi gallarning arvern qabilalari tashabbusi bilan boshlanib, harakatga qobiliyatli yo‘lboshchi Versingetorik boshchilik qildi. Bosqinchi rimliklar juda qiyin ahvolga tushib qoldilar. Sezarda 60 ming qo‘shin, qo‘zg‘olonchilarda 300 ming kishi bor edi. Sezar makkorlik bilan gall qabilalari orasida o‘zaro kelishmovchiliklar keltirib chiqardi. Gall urug‘-qabila boshliqlari o‘zaro nizolar girdobiga botib, asosiy xavf Rimning qulligiga tushib qolishlarini ko‘ra olmadilar. Oxir-oqibat Sezar Rimga qarshi turgan gall qabilalarini qarshiligini alohida alohida osongina bostirdi. Gall ozodlik harakatining so‘nggi o‘choqlari mil. avv. 51-yilda tugatildi.

Sezar Gallar mamlakatini vayronaga aylantirdi. Gall urug‘-qabilalarining barchasi Rimga qaram qilindi. 800 shahar qamal qilib bosib olindi. 1 mln. kishi asir olindi va qul qilib sotib yuborildi. Rim legionlari gullab-yashnagan gall shahar-qishloqlarini ayovsiz taladilar. Gallarning bor-yo‘q mol-mulklari tortib olindi. Gallardan o‘lja olingan oltin Rim shahrida qadoqlab sotildi va natijada oltin bahosi juda pastga tushib ketdi.

4.Parfiyaga qarshi urush. Bu vaqtda Rimning sharqqa ekspansiyasiga qarshi tura oladigan yagona davlat bu qudratli Parfiya edi. Mesopotamiyada Salavkiylar zaiflashib qolgandan so‘ng Rim bu boy hududni talashdan voz kechmadi. Rim Mesopotamiyaning savdo-hunarmandchilik va xalqaro savdo

markazlari bo‘lgan shaharlarni ulkan miqdorda soliq to‘lovlarini joriy qildi. Rim sudxo‘rlari va amaldorlari Suriya va Mesopotamiyaga yopirilib kirdilar. Rimning zo‘ravonligi mahalliy aholini qo‘zg‘olonlariga olib keldi. Rim qo‘shni Parfiya va Kavkaz ortiga ham suqilib kirishga harakat qildi. Parfiyani zaiflashtirish maqsadida hukmron Arshakiylar sulolasining saroy fitnalariga faol qatnashdi va Parfiya hududlariga bosqin uyushtirdi. Parfiya Rim bilan chegaralar masalasida kelishib olishga harakat qildi. Lekin sharqning boy savdo markazlari va xalqaro yo‘llariga ko‘z tikkan Rim aslo chegaralar muammosini hal qilishdan uzoq edi.

Parfiya elchilari qo‘shnichilik munosabatlari to‘g‘risida Sulla va undan keyin Lukull va Pompey bilan muzokaralar olib bordilar. Lukull Parfiyaning Frot daryosidan sharqdagi barcha hududlar Parfiyaga tegishli ekanini tan oldi. Lekin rimliklar Bosfor podshohligini o‘ziga qaram qilgandan so‘ng sharqda yana bosqinchilik siyosatini davom ettirishga harakat qildi. Rim kichik Armaniston davlatini Parfiyaga qarshi gij-gijladi. Rimda Parfiyaga qarshi urushga tayyorgarlik boshlandi. Mil. avv. 56-yilda Lukkada triumvrlar Krass, Sezar va Pompey o‘rtasida uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Bu uchrashuvda qur’a tashlanib qur’ada Krassga Suriya noibligi tushdi. Katta boylik va obro‘ga ega bo‘lgan Krass lashkarboshi sifatida Parfiyaga yurish qilib, Kaspiy dengizi va Hind okeanigacha Rimning hududlarini kengaytirib shon-shuhratga erishishni orzu qildi. Lekin Rimda uzoqni ko‘ra oladigan kishilar Parfiya davlatining Rim bilan shartnomaga ega ekanligi va Parfiya bu shartnomaga qat’iy rioya qilayotgani, bu yurish Rim uchun xavfli ekanligini tushunar edilar. Lekin Krass Parfiyaga qo‘shin tortib, katta o‘ljalar olish ilinjida Suriyaga noibligini birinchi kunidan Parfriyaga qarshi urushga tayyorlanishni boshladi. Mil. avv. 54-yilda Krassning legionlari

Mesopotamiyaga bostirib kirib, shaharlarni taladi va boy o‘lja bilan Suriyaga qaytdi.

Mil. avv. 53-yilda Krass yana Parfiyaga yurish boshladi. Cho‘l va dashtning noqulay tabiiy sharoitiga ko‘nikmagan Rim legionerlari yurishda Karra shahri yonigacha Parfiya qo‘shinlarini uchratmadilar. Parfiya armiyasi dushmanni kuzatib borib, rejalashtirilgan joygacha rimliklar bilan jangga kirishmadi. Karra yonida Parfiya armiyasi Krassning o‘g‘li boshchilik qilgan ilg‘or Rim legionlarini qurshab oldilar va bitta qo‘ymay qirib tashladilar. Bu jangda Krassning o‘g‘li Publiy ham halok bo‘ldi. Bu g‘alabadan so‘ng parfiyaliklar Krass boshliq Rim legionlari bilan jangga kirdilar. Parfiyaning jang san’atini a’lo darajada egallagan yengil otliq qo‘shini Rim legionlarini kamondan o‘qqa tutdi. Rim legionlari bir necha soat davomida o‘q yomg‘iri ostida qoldi. Parfiyaning boshqa otliq qismlari dushman saflariga hujum qilib chekinish taktikasini qo‘lladi. Rimliklar parfiyaliklar orqasidan quvishga tushdi. Lekin boshdan-oyoq zirhli temir sovut bilan himoyalangan, og‘ir qurollangan Parfiya otliq qo‘shini dushmanni o‘rab olib yanchib tashladi. Yuksak jang san’atini parfiyaliklarning jangovar otlariga ham rimliklar shikast yetkaza olmadilar. Chunki bu otlar ham maxsus metall yoping‘ichlar bilan himoyalangan, jang san’atiga mukammal o‘rgatilgan bo‘lib, hatto otliq egasini ham jang paytida himoya qilish ko‘nikmasiga ega edi. Rim legionlari to‘la qirib tashlandi, yaradorlarni jang maydoniga tashlab Krass shoshilib qolgan qutgan qo‘shin bilan chekindi. Parfiya qo‘shini jangda barcha Rim bayroqlarini qo‘lga tushirdilar hamda zobit va legionerlarni asirga oldilar.

Jangda omon qolgan Rim legionlari urushni davom ettirishdan bosh tortdilar va Krassdan parfiyaliklar bilan sulh tuzishni talab qildilar. Krass legionerlar tazyiqi ostida muzokaraga kirishga majbur bo‘ldi. Muzokara paytida Krass o‘ldirildi. Krassning

kallasi va qo‘li Parfiya podshohi Orod II ga jo‘natildi. Mesopotamiya rimlik bosqinchilardan to‘la tozalandi. Mil. avv. 51-yilda Parfiya urushni davom ettirdi va Suriyaga qo‘shin tortdi. Lekin Parfiyada sulolaviy kurash bu urushni davom ettirishga yo‘l bermadi. Mil. avv. 50-yillarda Parfiyaning Rim bosqinchilarini o‘z chegaralaridan uloqtirib tashlashi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Rimning mil. avv. II asrda boshlangan sharqqa ekspansiyasi nihoyat to‘xtatildi. Shu vaqtdan boshlab Rim sharqdagi qudratli davlat Parfiya bilan hisoblashishga majbur bo‘ldi. Shu vaqtdan boshlab rimliklarning sharqqa qilgan yurishlari aksariyat holda natijasiz tugadi. Lekin Rim Parfiyaga qarshi dushmanlik siyosatidan voz kechmay bu davlatni ichdan zaiflashtirish siyosatini davom ettirdi.

RIM RESPUBLIKASINING IJTIMOIY-SIYOSIY TUSHKUNLIGI VA RESPUBLIKA TUZUMINING QULASHI

«Boshda pulga chanqoqlik rivojlandi, undan so‘ng hokimiyatga chanqoqlik va har ikkalasi barcha kulfatlarning umumiy ildiziga aylandi».

Gay Sallyustiy Krisp

1. **Rim Respublikasining tushkunligi.**
2. **Sulla diktaturasining o‘rnatilishi.**
3. **Ispaniyada Luzitanlarning ozodlik urushi. Spartak boshchiligidagi qullar qo‘zg‘oloni.**
4. **I triumvirat. Rimda Yu. Sezar diktaturasining o‘rnatilishi.**
5. **II triumvirat. Respublikaning qulashi.**

1. Rim respublikasining tushkunligi. Yuz yillar davomida respublikaning o‘zga mamlakatlarga qarshi olib borgan istilochilik urushlari davomida Rim-

ga ulkan moddiy boyliklar oqib keldi. Rim jamiyati uzoq-yaqindagi mamlakat, xalqlarni talash hisobidan kun kechirishga o‘rganib qoldi. Misol uchun, mil. avv. I asrda Pompeyning sharqqa yurishi vaqtida Kichik Osiyo va unga qo‘shni hududlarlarda 900 shahar bosib olindi. Bu shaharlar Pompey legionlari tomonidan talon-taroj qilindi. Pompey Rim xazinasiga 20 ming talant kumush va oltin tanga topshirdi, bundan tashqari u o‘z legionerlarining har birini mukofot sifatida 15 ming draxm pul mukofoti bilan taqdirladi. Bundan tashqari Pompey yurishi davomida ishg‘ol etgan shahar va qishloqlarning minglab aholisi asir olinib, qul qilib sotib yuborildi va dengizda 800 kema bosib olindi. Bu vaqtga kelib Rim xazinasiga turli soliq va to‘lovlardan tushadigan daromad 50 million draxmni tashkil etgan bo‘lsa, bosib olingan yerlardan 80 million draxm daromad kelar edi. Qaram yerlar iqtisodiyoti tushkunlikni boshidan kechirib, aholisi xonavayron bo‘ldi. Rimning hukmron tabaqalari, konsullar, senatorlar talonchilik urushlarida afsonaviy boyliklarga ega bo‘ldilar.

Davlat hokimiyati talonchilik urushlaridan olingan o‘ljalarning bir qismini mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni saqlab turish va dahshatli kuch bo‘lgan kambag‘al fuqarolarni tinchlantirish uchun sarfladi. Kambag‘al fuqarolar davlat hokimiyati tarqatadigan tekin non va boshqa arzon oziq-ovqat mahsulotlari hisobiga mehnat qilmasdan kun ko‘rishga o‘rganib qoldi. Yer mulkidan ajralgan dehqon fuqarolar yengil hayotni izlab Rim shahriga oqib keldilar va o‘z haqlarini talab qila boshladilar. Jismoniy mehnat qilish erkin fuqaro uchun past ish deb hisoblana boshlandi. Oddiy xalqqa nisbatan zo‘ravonlik, zulm kuchaydi. Rim jamiyatining hukmron tabaqalari orasida ma’naviy buzuqlik kuchaydi. Davlat hokimiyati adolat, haqiqat tamoyillaridan chekindi. Katta yer

egalari qarzi evaziga mayda dehqon xo‘jaliklari yerlarini tortib oldilar, natijada Italiyadagi kop sonli oddiy fuqaro-dehqonlar o‘z yer-mulklaridan ajraldilar. Rim davlati hisobidagi zaxiradagi ekin yer maydonlari patritsiy zodagonlar tomonidan o‘zlashtirib olindi. Rim shahrida bir parcha yeridan ajralib xonavayron bo‘lgan dehqon fuqarolari soni ko‘payib bordi. Endi xonavayron bo‘lgan dehqonlar qishloqda qo‘lishni istamadilar. Ular og‘ir qishloq xo‘jaligi ishlaridan bo‘yin tovlab, poytaxt Rim shahriga to‘planib, hukmron tabaqadan va davlat hokimiyatidan «tekin non va tomosha» talab qildilar. Hashamatda yashaydigan Rim hukmron tabaqalari uchun bu qashshoq, ishsiz olomon dahshatli edi. Gay Grakx qonuni bo‘yicha bu qashshoqlar har oy xazinadan arzon narxlarda oylik g‘alla ulushi olar edilar. Hukmron tabaqa bu qonunni bekor qilishdan qo‘rqdi.

Mil. avv. I asrda yeridan ajralib xonavayron bo‘lgan dehqonlarning yer emas, tekin «non va tomoshalar»ni talab qilishi oddiy hol bo‘lib qoldi. Rim jamiyatining aynishini o‘sha davrda yashagan Gay Sallyustiy Krisp shunday ifodalaydi. O‘z mehnati bilan zo‘rg‘a kunini o‘tkazayotgan qishloqdagi yoshlarni xususiy va jamoaviy mo‘l-ko‘l xayr-sadaqalar o‘ziga tortdi va ular og‘ir mehnatdan ko‘ra shahardagi bekorsozlikni afzal ko‘rdilar va bu odamlar ham, boshqalar ham davlatning baxtsizligi bilan oziqlandi (Гай Саллюстий Крисп. Заговор Катилины. Историки Рима. Изд-во «Худ. лит-ра». – М., 1970, стр. 52). Hashamatli turmush tarzi, nozik mehnatsiz topilgan katta boyliklar ko‘pgina fuqarolarda or-nomus, oriyat, vijdon va burchni yo‘qotishlariga sabab bo‘ldi: o‘g‘rilik, poraxo‘rlik, tekinxo‘rlik, ijtimoiy jamiyat ishlariga loqaydlik, harbiy xizmatdan bosh tortish Rim jamiyatida keng tarqaldi.

Rim aslzoda patritsiylar respublikasi edi. Senat a’zolari, konsullar, oliy amaldorlar, odatda, nobillar

Rimning eng boy oilalaridan saylanar edi. Konsul hokimiyati rimliklarning o‘zlari aytganlaridek, eng boy patritsiy oilalar o‘rtasida «qo‘ldan qo‘lga» uzatilar edi. Patritsiy oilalarning qarshiligi tufayli oddiy nomzod konsul saylovlarida juda kam 20-30-yilda bir marta g‘olib bo‘lar edi. Senatni egallab olgan aslzodalar oddiy xalq ichidan chiqqan omadi chopgan bunday kishilarni «yangi odam» deb aytar edilar.

Rim respublikasi tuzumining tushkunligi siyosiy hayotning o‘zgarishida yaqqol ko‘rindi. Alohida shaxslar, butun-butun guruhlarning siyosiy faoliyatining asosiy maqsadi hokimiyat yoki boylikka ega bo‘lish edi. Pretor yoki konsul mansabini egallash uchun Rim shahrining ko‘p sonli kambag‘al fuqarolarining ovozi asosiy rol o‘ynar edi. Shu sababli, lavozimga nomzodlar oddiy fuqarolarning ovoziga ega bo‘lish uchun tekin non, vino yoki moy tarqatish bilan birga ko‘p xarajat talab qiladigan ko‘ngilochar tomosha, o‘yin va bayramlar uyushtirar edilar. Hatto saylovlarda bevosita saylovchilarning ovozi sotib olinar edi. Nomzodlar va saylovchilar o‘rtasida vositachilar bo‘lib, ular nomzod mablag‘idan saylovchilarga pul va tekin non-go‘sht, yog‘, vino tarqatib, ularning ko‘nglini olganlar. Nobillar va suvoriylarga shaharning quyi tabaqalari o‘z ovozlarini saylovlarda sotishlari odatiy hol bo‘lib qoldi.

Saylovlarga nomzodlar oldindan tayyorgarlik ko‘rib, o‘z tanish-bilishlari va obro‘-e’tiborli kishilarning qo‘llab-quvvatlashiga erishishga harakat qilganlar. Nomzodlar saylovlar vaqtida o‘zlariga ittifoqchilar izlab, turli xil kelishuvlar-murosalarga kelar edilar. Siyosiy kurash nutqlar so‘zlash, varaqalar tarqatish va raqiblarga qarshi sud da’volari bilan amalga oshirilar edi. Siyosiy raqiblarga qarshi turli xil sud jarayonlari qo‘zg‘atilar va siyosiy raqib turli yo‘llar bilan obro‘sizlantirilar edi.

Rim respublikasining so‘nggi davrida poraxo‘rlik, korrupsiyaning avj olishi, hukmron tabaqalarda axloqiy buzuqlik respublika ijtimoiy hayotining ayni-shidan dalolat berar edi. Rim davlati hokimiyatining oliy mansabdorlari korrupsiya botqog‘iga botgan edilar. Qadimgi Rim qadriyatlariga sodiq bo‘lgan senzor Katon shunday zaharxanda qilgan edi: «Oddiy o‘g‘rilar kishan va zanjirlarda baxtsiz hayot kechiradilar, davlatni talagan o‘g‘rilar esa oltin va hashamatda yashaydilar». Hatto Rimning tashqi dushmanlari ham Rim lashkarboshi va siyosatchilarini sotib olishga muvaffaq bo‘ldilar. Numidiya podshohi Yugurta Rimdagi senatorlarga va o‘ziga qarshi urushga yuborilgan Rim lashkarboshilariga pora berib, ularni uzoq vaqt keskin urush harakatlari olib borishdan tiyib turgan edi. Yugurta Rimdagi poraxo‘rlik to‘g‘risida mashhur so‘zini aytgan edi: «Rim sotqin shahar, kimki uni sotib olishni istasa, unga, albatta erishadi». Rim respublikasida oliy darajadagi amaldorlar uchun pora olish odatdagi hol bo‘lib qoldi. Misr podshohi Ptolemey Avlet taxtga o‘z huquqini tan olinishi uchun Sezar va Pompeyga 6000 talant miqdorida pora bergan edi. Suriyadagi Rim noibi Avl Gabiliy Ptolemeyni Misr taxtiga chiqarish uchun kerakli kishilarni sotib olish uchun 10 000 talant sarfladi. Korrupsiya Rim sudini ham chetlab o‘tmadi. Rimliklar Rimda mil. avv. 74-yildagi shov-shuvga aylangan sud ishini uzoq vaqt eslab yurdilar. Sudyalarning biri sudda boshqa sudyalarga taqsimlab berish uchun ayblovchi va ayblanuvchidan ham pora olgan edi. Korrupsiya Rim respublikasining ildiz tomirlarini yemirdi, natijada respublika yemirilish – halokat yoqasiga kelib qoldi.

Rim respublikasining so‘nggi yarim asrida sudxo‘rlik kapitali, moliyachilarning soni ko‘paydi. Mavjud qonunlarga ko‘ra senatorlarga tadbirkorlik bilan shug‘ullanish taqiqlangan bo‘lsa-da, senatorlar

boshqalar vositachiligida sudxo‘rlik bilan shug‘ullandilar. Rimga qaram bo‘lgan butun jamoalar, shaharlar, hatto podshohliklar ma‘muriyati amalda moliyachilar va sudxo‘rlar bilan birgalikda mahalliy aholini talar edilar. Qarz majburiyatlarining o‘sishi narx-navoning tez ko‘tarilib ketishiga, siyosiy vaziyatning beqaror bo‘lishi va respublika tartib-qoidalari, qonun ustivorligini buzilishiga olib keldi.

Rimda provinsiya noiblari va boshqa mansabdor shaxslarning suiiste’mollariga oid sud ishlari odatdagi hol bo‘lib qoldi. Provinsiyalarga noib etib tayinlanadigan sobiq konsullarning aksariyati uchun bosib olingan va provinsiyalarga aylantirilgan hududlar boylik to‘plash manbayi edi. Rimda provinsiyalar aholisini ayovsiz talash hisobiga boy bo‘lib qaytgan noiblar to‘g‘risida «Rimdan qashshoq holda boy provinsiyaga ketdi, qashshoq provinsiyadan boy bo‘lib qaytdi» degan ibora tez-tez ishlatiladigan bo‘ldi.

Mashhur notiq va siyosiy arbob Sitseronning boyligi 100 ming sestertsiyga yaqin edi. Bu hali chegara emas edi. Mashhur patritsiy Lukullning boyligi 100 mln sestertsiy, patritsiy Krassning boyligi 200 mln sestretsiyga (hozirgi kunda 210 milliard dollarga teng Krass bugungi kunda dunyodagi eng boy kishi bo‘lishi mumkin edi) baholangan. Rimda 100 ming sestertsiy daromad qilmagan kishini boy deb hisoblamas edilar. Rimliklarning oldingi ajdodlari bunday boylikni tushlarida ham ko‘rmagan edilar. Bu boyliklarning asosiy manbayi istilochilik urushlaridan olingan moddiy o‘ljalar g‘arb va sharqda bosib olingan hududlardan kelgan boyliklar, katta yer mulklarda qullarni mehnatidan kelgan foyda va yer ulushlari tortib olingan dehqonlarni xonavayron bo‘lishi edi.

Rim patritsiy – plebey zodagonlari, siyosiy arboblar jamoa oldida obro‘-e’tiborga ega bo‘lish va o‘z mavqelarini saqlab turish uchun juda katta sarf-xa-

rajat qilishga majbur edilar. Oqsuyak zodagonlar hashamatli saroylar qurishga ruju qo‘yib, to‘y-hasham, bazmlarga katta miqdorda sarf-xarajatlar qilar edilar. Ayrim patritsiylar kimo‘zarga har kuni ziyofatlar uyushtirdilar. Rimning bayonlaridan bo‘lgan Lukull uyushtirgan bazmlarda ko‘plab mehmonlar ishtirok etar, ziyofatda mingdan ortiq tansiq taomlar tortilar edi. O‘zga mamlakatlardan keltirilgan ekzotik mahsulotlardan tayyorlangan tansiq taomlar, bulbul tilidan pashtetlar tortilgan. Bunday bazmlar bir necha kunga cho‘zilgan. Juda katta boylikka ega bo‘lgan zodagonlar bilan bir qatorda, Rimda juda ko‘p patritsiy-zodagonlar qarzga botgan edi. Kambag‘allashib, qarzga botgan patritsiylar ham ziyofatlar berib, aysh-ishratga berilib, to‘la xonavayron bo‘ldilar.

Rim oilasi. Mil. avv. I asrga kelib qadimgi Rim urf-odatlari va qadriyatlariga sodiqlikda yashaydigan oila yemirilishi yaqqol ko‘rindi. Hukmron tabaqa vakillari o‘rtasida nikoh ko‘p hollarda siyosiy maqsadlarni ko‘zlab tuzila boshlandi. Ayollar er hokimiyati ostidan chiqa boshladilar. Rim ayollarining o‘z erlariga nisbatan xiyonati, buzuqligi ajralishlar odatdagi hol bo‘lib qoldi. Mustahkam, ahil oilalar siyrak hol bo‘ldi. Ba’zi senatorlar, suvoriylar oila qurish va farzand tarbiyasi majburiyatidan bosh tortib, huzur-halovatlarini ko‘zlab, aysh-ishratda yashashni afzal ko‘rdilar.

Fuqarolar urushi. Italiyadagi ko‘p shaharlar, hududlar Rim davlati tarkibida bo‘lsalar ham ular ittifoqchilar hisoblanib, Rim fuqarosi hisoblanmas va Rim fuqarolari foydalanadigan imtiyoz va yangiliklardan mahrum edilar. Mil. avv. 90-yillarda Italiya aholisi fuqarolik huquqini talab qilib, qo‘zg‘olon ko‘tardi (mil. avv. 90 – 88-yillar). Bu urush natijasida Italiya aholisi fuqarolik huquqini oldi.

Italiyada ittifoqchilar urushi tugamasdan Rimda birinchi fuqarolar urushi boshlandi. Ikki lashkarboshi zodagon Lutsiy Korneliy Sulla va oqsuyak zodagonlar uchun begona bo‘lgan «yangi odam» Gay Mariy o‘rtasidagi nizo urushning boshlanishiga bahona bo‘ldi. Gay Mariy lotin shaharchasi Arpin yaqinidagi suvoriy oilasidan bo‘lib, qattiqqo‘l odam edi. U harbiy xizmatni sidqidildan o‘tab, konsullik lavozimiga yetti marta saylandi. Mariy birinchi konsulligi davrida harbiy islohot o‘tkazdi. Ilgari 17 yoshdan 45 yoshgacha barcha Rim fuqarolari urush vaqtidagina harbiy xizmatga chaqirilar va o‘z hisoblaridan qurol-yarog‘ olar edilar. Gay Mariy qo‘shinga kambag‘allarni ham qabul qilishga ruxsat berdi. Endilikda askarlar davlat hisobidan qurol-yarog‘, davlat xazinasidan maosh oladigan bo‘ldilar. Harbiy xizmat muddati 16 yil deb belgilandi. Shu tarzda mil. avv. I asrda Rimda ko‘ngillilar qo‘shini muntazam qo‘shinga aylandi. Legioner endi o‘zini fuqarodan ko‘ra askar deb hisobladi. Askarlarning moddiy ahvoli davlatga va lashkarboshining saxiyligi, omadi chopishiga bog‘liq bo‘lib qoldi. Asta-sekin lashkarboshilarning buyrug‘i davlat hokimiyati obro‘sidan ko‘ra muhim bo‘la boshladi. Natijada mil. avv. I asrdan boshlab armiyaning Rim siyosiy hayotidagi mavqeyi kuchaydi.

2.Sulla diktaturasining o‘rnatilishi. Rim respublikasi mil. avv. 80-yil boshlarida Italiyada ittifoqchilik urushlari tugaganidan keyin moliyaviy tushkunlik, hunar-savdo degradatsiyasi va ichki siyosiy beqarorlik holatida edi. Shu bilan bir vaqtda Pont podshohi Mitridat VI ning Kichik Osiyo va Bolqon yarimorolini bosib olishi Rimni sharqda urush boshlashiga chaqiriq bo‘ldi. Mitridat VI Yevpator (mil. avv. 120-63-yillar) Ahmoniylar urug‘idan bo‘lib, ona tomonidan Salavkiylarga borib taqalar edi. Mitridat mashhur shaxs bo‘lib, baland bo‘yli, juda katta jismoniy kuchga ega

bo‘lgan. U har tomonlama ma’lumotli kishi bo‘lib, 22 tilni bilar, tabiiy tarixdan asar yozgan edi. Mitridat VI Bosfor, Kolxida, Kichik Armanistonni o‘z ichiga olgan davlatning hukmdori bo‘lib, Kichik Osiyoda o‘rnashib olgan rimliklarni haydab yubordi. Mahalliy aholi aholi Mitridatni xaloskor sifatida kutib oldi. Kichik Osiyoning barcha shaharlarida uning topshirig“i bilan bir kunda 30 ming rimlik o‘ldirildi

Mitridat Kichik Osiyodagi Kilikiya va Vifiniya podshohlarini haydab yuborib, ularning o‘rniga o‘z odamlarini qo‘ydi. Rim senatining topshirig‘i bilan Rim qo‘shini Vifiniya va Kappadokiyada Rimga qaramlikni tan olgan sobiq hokimlarni hokimiyatga qayta tikladi. Rimliklarning qutqusi bilan Vifiniya Mitridatga qarshi urush boshladi. Populyarlarning o‘tmishdagi ittifoqchisi, 6 marta konsul bo‘lgan shuhratparast, 68 yoshli keksa Gay Mariy qo‘mondonlik o‘rnini egallash da’vosi bilan chiqdi. Xalq yig‘inining alohida qarori bilan G. Mariy Mitridatga qarshi urushda qo‘mondon etib tayinlandi. Ikki harbiy tribun askarlar olomoni tomonidan burda-burda qilib tashlandi. Sulla armiya bilan Rimga yurish qilib, shaharni egalladi.

Rimda bu vaqtda siyosiy vaziyat keskinlashdi. Rim senati Mitridatga qarshi urushga Rim qo‘shiniga bosh qo‘mondonlikni mil. avv. 88-yilda konsul bo‘lgan 50 yoshli Lutsiy Korneliy Sullaga (mil. avv. 138-78-yillar) topshirdi. Kichik Osiyoning boy hududlarini faqat optimatlar talashiga qarshi bo‘lgan populyarlar va suvoriylar senatning bu qaroriga qarshi chiqdi. Xalq yig‘ini Sullani chetlatib, Sharqqa yurishga Gay Mariyni qo‘mondon etib tayinladi. Xalq yig‘inining bu qarorini Sullaga yetkazish va Sulladan qo‘shinni qabul qilib olish uchun ikki harbiy tribun Nola yaqinida Sullaning qarorgohiga keldi. Sulla o‘z askarlarini to‘plab, ularga bu qaror to‘g‘risida xabar berdi. Kichik Osiyoga yurishdan katta o‘ljalar kutayotgan askarlar

o‘zlarining o‘rniga boshqa qo‘mondon, boshqa askarlar olinishidan qo‘rqib ketdilar va ular ikki tribunni burda-burda qilib tashladilar.

Gay Mariyning raqibi Lutsiy Korneliy Sulla patritsiy oilasidan kelib chiqqan edi. Uning ajdodlaridan biri Rufin konsul bo‘lgan. Sulla patritsiylar avlodidan bo‘lgan, lekin kambag‘allashib qolgan oilada dunyoga keldi. U yoshligidan qashshoqlikda yashab, begona joylarda ijaraga turib muhtojlikda yashadi. Turli ko‘cha masxarabozlari o‘rtasida yashab, ular bilan ulfatchilik qildi. U 4 matra uylandi, to‘rtinchi xotini Rimning oliy kohini Metellning qizi edi. Sulla Nikopola nomli yengiloyoq, lekin boy ayol bilan yashab uning o‘limidan so‘ng bu ayolning mulkiga merosxo‘r bo‘ldi. Sulla o‘zining o‘gay onasini merosxo‘r bo‘lib moliyaviy ahvolini yaxshiladi va harbiy xizmatga kirdi. Tez orada u harbiy xizmatda o‘zini ko‘rsatib, kvestor, legat va propretor lavozimlarini egalladi. Sulla Afrikadagi Yugurta urushida Gay Mariyga yordamchi bo‘lgan edi. Sulla sharq diniy e’tiqodlari muxlisi edi. U Kappadokiyadagi Kommagenda mil. avv. 92-yilda propretor bo‘lganda mahalliy ma’buda Maaga bag‘ishlangan rasm-rusumlarda qatnashib, bu ma’budaga e’tiqod qildi. Sullaning raqibi G. Mariy ham sharq e’tiqodining muxlisi edi. U xudbin, sovuqqon bo‘lib, pulga juda o‘ch edi. Sulla ma’lumotli odam bo‘lib, adabiyot va falsafasini yaxshi bilgan. Bir qobilyatsiz shoir Sullaga bag‘ishlangan maqtov she’rini keltirganda Sulla uning she’rini eshitib katta miqdorda pulni berishga buyruq beradi. Lekin bu shoirga hech qachon she’r yozmaslik shartini qo‘yadi. Hashamatli hayotni xush ko‘radigan bu kishi o‘z faoliyati davomida hech qachon biror bir mag‘lubiyatni ko‘rmadi, doimo yutuq va zafarlarlarga erishdi. Sulla o‘z askarlariga saxiy bo‘lgani uchun katta obro‘ga ega edi.

Sulla o‘z legionlariga juda katta va’dalar berib, Rimga yurish qildi. Rim o‘zining ko‘p asrlik tarixi davomida birinchi bor Rim armiyasi tomonidan jang bilan egallandi. Gay Mariy Afrikaga yashirinishga majbur bo‘ldi. Sulla Rimda davlat boshqaruv tizimida o‘zi kerakli deb bilgan o‘zgarishlarni amalga oshirdi. Boshqalarni o‘z irodasiga bo‘ysundirish uchun hech qanday sudsiz 12 kishini, shu jumladan, oliy lavozimlardagi kishilarni qatl etdi. U xalq tribunlarining yangi qonun loyihalarini taklif etish huquqini bekor qildi. Endilikda tribunlarning har qanday takliflari boshda senatga taqdim etilib, senatning ma’qullashi bilan xalq yig‘ini tasdig‘iiga taqdim etilishi mumkin edi. Senat tarkibi Sulla tarafdorlari bilan to‘ldirildi.

Sulla mil. avv. 87-yilda o‘z legionlari bilan sharqqa yurishni boshladi. Bu vaqtda Rim bosib olgan hududlarda Rimning zulmiga qarshi kuchli harakat boshlangan, Pont podshohi Mitridat VI Yevpator Rimning zulmiga qarshi urush boshladi. U kuchli armiya bilan Old Osiyodagi rimliklarga qaram bo‘lgan ayrim hududlarni ozod qilgan edi. Sulla Old Osiyoda darz ketgan Rim hukmronligini qayta tiklashni maqsad etgan edi.

Sulla Rimni tark etishi bilan uning raqiblari eski tartib-qoidalarni tiklashni boshladilar, Sullaning raqiblari saylagan konsul Sinna eski qonunlarni tiklash uchun amaliy harakatni boshladi. Rimda Sullaning tarafdorlari bunga qarshi chiqdilar va Rimda to‘s-to‘polon boshlandi. Har ikki raqib taraf o‘rtasida Rimda qonli to‘qnashuv yuz berib, bu to‘qnashuvda 10 000 kishi halok bo‘ldi. Senat Sinnani konsullikdan mahrum etib u va yordamchilarini qonundan tashqari deb e’lon qildi. Sinna va uning tarafdorlar Italiyaning barcha hududlarida odamlarni to‘play boshladilar. Afrikaga qochib ketgan Mariy ham qaytib kelib Sinnaga qo‘shildi. Mariy bosh qo‘mondon

deb e'lon qilindi. Sinna va Mariy to'plagan olomon Rimga yurish boshladi. Senat ixtiyorida bo'lgan armiya ham tez orada Mariy tomoniga o'tdi.

Mariy va Sinna Rimga qo'shin bilan kirib, shahar darvozalari yopildi va 5 kun davom etgan qirgin boshlandi. Senat tarafdorlari deb ayblangan har qanday kishi o'ldirildi, 3 konsul, 3 konsulyar qatl etildi. Qullarga xo'jayinlarini o'ldirish imkoniyati berildi. Gay Mariy bir necha kundan so'ng kasalga chalinib vafot etdi. Mariyning tarafdorlaridan bo'lgan Serviliy Mariyning eng yaqin yordamchilari bo'lgan, ko'pchiligi qochoq qullarni tashkil etgan 4000 kishini mukofotlash bahonasi bilan chaqirib olib qirib tashladi. Bu voqealardan keyin Sinna mil. avv. 86 – 84-yillarda Rimda davlatni boshqardi va Sulla o'rnatgan tartib-qoidalarni bekor qildi. Sulla mil. avv. 83-yilda o'z qo'shini bilan Janubiy Italiyaga kelib tushdi. Sulla armiyasi Italiyada o'ziga qarshi turgan senat armiyasiga qarshi qat'iy urush harakatlarini olib bordi. Kampaniya viloyatidagi birinchi jangda Sulla armiyasi dushman kuchlari ustidan g'alaba qildi, 7 ming dushman askari o'ldirildi. Fidentin yonidagi jangda dushmanning ellik kogortasi yanchib tashlandi. Sullaga qarshi hali dushmanning katta kuchlari turar edi. Sulla ikkinchi konsul Sitsipion boshchilik qilgan senat armiyasini har xil va'dalar bilan o'ziga og'dirib oldi. Shundan so'ng Sullaga qarshi sobiq konsul, marhum Mariyning o'g'li kichik Mariy qo'mondon bo'lgan 85 kogortadan iborat senat qo'shini Sullani jangga chaqirdi. Jangda senat armiyasi yengildi. Prenesta shahri yonidagi navbatdagi jangda Sullaning sarkardalari Pompey, Krass, Metell, Serviliyning mohirona sa'y-harakatlari bilan dushmanning 20 minglik armiyasi tor-mor etildi, Sulla armiyasi faqat 23 kishini yo'qotdilar. Rim yonidagi jangda ham Sullaning qo'li baland keldi, dushman armiyasi shafqat so'rab tas-

lim bo‘ldi. Sulla dushmanning taslim bo‘lgan 6 ming kishilik askarlarini sirk yonida to‘planishga buyruq berdi. O‘zi esa Bellona ibodatxonasida senatorlar bilan kengashni boshladi. Sirk yonida to‘plangan asir askarlarni o‘rab olgan Sulla armiyasi ularni yoppasiga qilichdan o‘tkazishni boshladi. Senatorlar tashqaridan eshitilayotgan qirg‘in qilinayotganlarning oh-zoridan dahshatga tushgan senatorlarning Sulla o‘z so‘zlarini eshitishni talab qilib, pinagini buzmay tashqaridan kelayotgan shovqinga kelganda mening buyrug‘imga ko‘ra ayrim yaramaslarni aqli kiritilyapti dedi. Sulla o‘ziga qarshilik ko‘rsatgan Prenesta shaharini shaxsan jazoladi. U Prenestaga kelib shahar aholisining har biriga o‘lim hukmini o‘zi o‘qib qatl etishni boshladi. Keyin esa vaqtni tejash maqsadida shaharning barcha aholisini bir joyga to‘plab, (bu shaharning aholisi 12 ming kishi edi) ularning barchasini qatl etishga buyruq berdi. Sullaga faqat o‘ziga boshpana bergan uy egasiga omonlik berdi. Lekin uy egasi Sullaning oldiga kelib, uning bu marhamatiga tashakkur aytib, o‘z hamshaharlari jallodining marhamatiga muhtoj emasligini aytib, qatl etilayotgan hamshaharlari ichiga singib ketdi.

Urush harakatlari Sullaning g‘alabasi bilan tugadi. U Rimning yakka xo‘jayiniga aylandi. Sulla o‘z hokimiyatini mustahkamlash uchun proskripsiya tadbirini amalga oshirdi. Sulla tuzgan, mol-mulki tortib olinishi kerak bo‘lgan va o‘zi xoin deb hisoblagan kishilarning alohida ro‘yxati – proskripsiya deb ataldi. Rimda va Italiyaning har bir shaharida shunday ro‘yxat tuzilib, har bir shahar maydoni – forumga ilib qo‘yildi. Kim bu ro‘yxatga kiritilgan bo‘lsa, u qonundan tashqari deb e’lon qilinib, har qanday kishi uni o‘ldirishi, hatto o‘ldirgani uchun 2 talant mukofot olishi mumkin edi. Butun Italiyada zo‘ravonlik avj oldi. Alohida qaror bilan hukm etilganlarni o‘g‘il

va nevaralari ham fuqarolikdan mahrum etildi. Ko‘pchilik gunohi bo‘lmay, katta yer-mulk va boylikka ega bo‘lgani uchun proskripsiya ro‘yxatiga kiritildi va o‘ldirildi. G‘arazli maqsadlar, shaxsiy dushmanlik bilan ham ko‘pchilik begunoh kishilar o‘ldirildi. Ayrim kishilar shu bahona bilan o‘z shaxsiy dushmanlarini o‘ldirdilar. Shu yo‘l bilan 100 senator va 2500 suvoriy o‘ldirildi va ularning mol-mulki musodara qilindi. O‘ldirilganlarning boshi forumga qo‘yildi, mol-mulklari auksionda sotildi. Sullaning o‘zi musodara etilgan mol-mulklarni auksionda chiroyli ayollarga, aktyorlarga va ozod qo‘yilgan qullarga arzon, suv tekinga sotishga rahbarlik qildi. Sullaning yaqinlari, uning ozod qo‘yilgan qullari va veteran legionerlari katta mol-mulkka ega bo‘ldilar.

Sulla o‘z mavqeyini huquqiy rasmiylashtirdi. U senatga murojaat qilib, davlatda tartib o‘rnatish uchun bir kishini favqulodda vakolatlar bilan ta‘minlash zarurligini aytdi. Komissiyalar (mil. avv. 82-yil)da oliy hokimiyat to‘g‘risida qonun qabul qilinib, 120-yildan keyin diktator lavozimi qayta tiklandi. Senatning qarori bilan Sulla bo‘lib o‘tgan voqealarga hech qanday javobgar emas, kelajakda esa o‘lim jazosi berish, mulkdan mahrum etish, koloniyalar barpo etish, shaharlarga asos solish va buzish, podshohliklarni tortib olish va berish uchun to‘la hokimiyatni oladi. Ilgari diktatura muddati qat’iy (6 oygacha) cheklab qo‘yilar edi. Sulla esa, noma’lum vaqtgacha diktator etib tayinlandi. Qonunga ko‘ra, Sulla qonunlar chiqarish va boshqaruvni tashkil etish uchun cheklanmagan vakolatlarga ega bo‘ldi. Diktator barcha sohalarda fuqarolar hayoti va mulkiga o‘zi istagancha egalik qiladi; u alohida kishilarga oliy hokimiyatni berishi mumkin, koloniyalar barpo qilishi, tashqi siyosatni olib borishi mumkin, har qanday muammo bo‘yicha qonunlar chiqarishi mumkin.

Gay Grakx davridan muntazam bepul non tarqatishni Sulla bekor qildi, qarz foizlarini chekladi. Sulla davrida senatda patritsiy – plebey zodagonlari hukmronlik qila boshladilar. Mil. avv. 241-yilda bekor qilingan senturiy komissiyalari qayta tiklandi. Diktator plebey tribunlari va komissiyalarning qonunchilik hokimiyatini bekor qilib, bu vakolatni senatga berdi. Sullaning asosiy maqsadi, Rimda azaldan hukm surib kelgan patritsiy – plebey aslzodalarining hokimiyatini qayta tiklash edi.

Senat a'zolarining soni Sullaning xizmat ko'rsatgan harbiy boshliqlari hisobiga 300 dan 600 kishiga yetkazildi. Senat a'zolari ro'yxatini yangi qoidalar asosida tuzilishi amalda senator unvonini umrbod qildi. Sud hokimiyati suvoriylardan qaytarib olinib, senatga berildi. Magistratlar soni ko'paydi. 6 pretor o'rniga 8 pretor, 8 kvestor o'rniga 30 ta saylanadigan bo'ldi. Konsulning hokimiyati Rim shahri va Italiya bilan cheklandi. Bir yillik konsullik muddati tugagach, konsul va pretorlar provinsiyalarga noib etib jo'natilar edilar. Pretorlar bir yillik hokimiyatga turganlarida ularning faoliyati faqat sud hokimiyati bilan cheklandi. Magistratura lavozimlarini egallash tartib-qoidasi ishlab chiqildi: Kvestor lavozimini egallash uchun fuqaro 30 yoshga yetgan bo'lishi, pretor 39 yoshdan kam bo'lmasligi, konsul lavozimini egallash uchun fuqaroning yoshi 42 dan kam bo'lmasligi shart edi. Lavozimlarni egallash uchun oraliq kamida 2 yil, ikki marta bir lavozimga saylanish faqat 10 yil oraliqdan keyin bo'lishi mumkin edi. Senzorlar o'zlarining bosh vazifalaridan mahrum etildilar, senzura amalda tugatildi. Yangi qonunlarga ko'ra ilk respublika davrida bo'lganidek, xalq tribunlari qolgan plebeylar ishiga kafolatchi bo'lishlari kerak edi, ular faqat senat ko'rgan qonun loyihalarini xalq yig'iniga

olib chiqishlari mumkin edi. Sobiq tribunlar boshqa lavozimlarga da'vo qilishlari taqiqlandi.

Sulla saxiyligi bilan o'z legionerlari orasida katta obro'ga ega bo'ldi. Sulla hokimiyatining asosiy tayanchi Sullani hokimiyatga keltirgan uning legionerlari edi. Sulla o'zining 100 000 legioner-veteranlariga (harbiy xizmati tugagan askarlar) Italiya shaharlari va qishloqlaridan proskripsiya ro'yxati bo'yicha qatl etilgan «yangi fuqarolarning» yerlarini taqsimlab berdi. Jami 120 ming kishiga yer ulushi berildi. Shu tarzda Italiyada mayda yer egalari soni ko'paydi. Rim shahrining o'zida fuqarolar urushi vaqtida Gay Mariyning tarafdorlari bo'lgan, o'z xo'jayinlari ustidan chaqimchilik qilgan 10000 qullarni Sulla ozod qo'yib, ularni o'z homiyligi ostiga oldi. Bu qullar Sullaning urug'i nomi bilan Korneliylar deb ataldi.Sullaning ana shu qullari va yuz ming sobiq legionerlari Sulla o'rnatgan tartib-qoidalarning tayanchi bo'ldilar.

Sulla Rim davlatchiligi va jamiyatini mustahkamlash uchun qator tadbirlarni amalga oshirdi: Senatning mavqeyini ko'tardi, senatorlarni senatdan chiqarish huquqi bo'lgan senzurani va senatga tayinlash qoidasini bekor qildi. Endi faqat konsul, pretor yoki kvestor bo'lgan kishi senat a'zosi bo'lishi mumkin edi. Edillik senatga eshik ochmadi, kvestorlar soni 20 ga yetkazildi. Shu tarzda hukmron tabaqaning hokimiyati umrbod va almashmasligi ta'minlandi. Qonun chiqarish tashabbusi faqat senatga berildi. Faqat fuqarolar saylov asosida lavozimlarni egallashlari saqlanib qoldi. Lavozimga saylanish uchun ma'lum bir yoshga yetishi, quyi lavozimlardan yuqori lavozimga qarab borish, kvesturada boshlab oliy lavozimni egallash uchun ikki har xil lavozimni egallashda ikki yillik oraliq albatta bo'lishi va bir lavozimni egallash uchun oraliq ikki

yil va bir lavozimni ikki marta egallash uchun oraliq o‘n yilni tashkil etishi lozim edi. Tribun lavozimini egallagan kishi konsul, pretor va kvestor bo‘lishga da’vo qila olmas edi, oqibatda u senat a’zosi ham bo‘la olmas edi. Sud hokimiyati suvoriylardan qaytarib olinib, senatga berildi. Moliya ishlari konsullar zimmasiga yuklandi. Sulla mahalliy boshqaruvni isloh qildi. Davlat hokimiyatiga zarar keltirmaydigan boshqaruv funksiyalari mahalliy jamoalarga berildi, munitsipial boshqaruv joriy etildi.

Sulla o‘zi qabul qilgan va qonun tusiga kirgan barcha qarorlariga o‘zi ham qat’iy rioya qildi. Mil. avv. 79-yilda u qonunga ko‘ra ikkinchi marta konsullikka o‘z nomzodini qo‘yishni rad qildi va boshqa konsullarni saylashga buyruq berdi. Konsullar saylangach Sulla maydonga chiqib, o‘z vakolatlarini zimmasidan soqir qilganini e’lon qildi va shu zahoti o‘z tansoqchilarini tarqatib yubordi. Kimda-kim uni biror nimada ayblamoqchi bo‘lsa, hech nimadan qo‘rqmasdan ayblov bilan chiqishini so‘radi. Cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘lib, bu hokimiyatni amalda to‘la oshirgan, Rim davlati va jamiyatini fuqarolar urushidan olib chiqib tinchlik o‘rnatgan bu kishining o‘zi oddiy fuqarolarga shunday murojaat qildi. Ko‘plar Sullani yomon ko‘rsa-da, maydondagi hamma jim turdi va hech kim chiqmadi. Sulla o‘z ixtiyori bilan hokimiyatdan voz kechib, hurmat bilan unga yo‘l bo‘shatgan xalqning orasidan o‘tib, o‘z yaqinlari bilan villasiga yo‘l oldi.

Tuzalmas qichima kasalligiga yo‘liqqan Sullaning badaniga yiringli yaralar toshib ketgan edi, u faqat suvda cho‘milib, bir oz orom topar edi. Sobiq diktator bo‘sh vaqtida baliq oviga chiqib, memuarlar yozdi. Sulla mil. avv. 78-yilda 60 yoshida miyasiga qon quyilishi oqibatida vafot etdi.

Sulla o‘rnatgan tartib-qoidalar uning o‘limidan keyin yana 8 yil yashadi. Sullaning o‘limidan keyin uning raqiblari bosh ko‘tardilar. Sulla davrida imtiyoz va mavqeyidan mahrum bo‘lgan turli tabaqalar Sulla o‘rnatgan tartib-qoidalarga qarshi chiqdilar: Rim pleybsi Sulla davrida bekor qilingan tribun hokimiyatini va tekin non tarqatishlarni qayta tiklashni talab qildilar, suvoriylar sud hokimiyatini yana qaytib olish, proskripsiya natijasida qatl qilinganlarni vorislari o‘z mulklarini qaytarish va fuqarolik huquqlarini tiklash uchun kurash boshladilar. Nobillar Sullagacha o‘zlarini mutlaq hukmronligini ta’minlagan qonun-qoidalarni tiklash kerak deb hisobladilar. Mil. avv. 78-yilda konsul bo‘lgan Mark Emiliy Lepid Sulla tarafdori bo‘lib, proskripsiyalar vaqtida katta boylik to‘pladi, Sullaning o‘limidan keyin muxolifat tomoniga o‘tdi. Lepid Sulla xonavayron qilgan yer egalariga suyanib, Sulla tartib-qoidalarini bekor qilish uchun isyon ko‘tardi. Konsullik vakolatini topshirib, Lepid qo‘shin top‘lab Rimga yurish qildi. Lekin Mars maydonidagi jangda senat qo‘shinlaridan yengildi. Lepid Sardiniyaga qochib ketdi va shu yerda vafot qildi.

3.Ispaniyada luzitanlarning ozodlik urushi, mil. avv. 80 – 70-yillar. Italiyada proskripsiyalardan qochib Ispaniyaga kelgan jismonan zaif, lekin teran aql-zakovatga ga ega bo‘lgan Kvint Sertoriy mahalliy luzitan qabilalari bilan yaqinlashdi. Rim zulmiga qarshi qarshi ko‘tarilgan luzitanlar Sertoriyni o‘z saflariga qo‘shdilar. Sertoriy luzitanlar armiyasiga boshchilik qildi. Bu armiyaga 4 ming qochoq rimliklar ham kelib qo‘shildi. Luzitanlar Sertoriy boshchiligida mil. avv. 80 – 77-yillarda Rim legionlari ustidan bir necha marta g‘alaba qildilar. Sertoriyning rimliklar ustidan g‘alabalari qo‘shni gallarni ham Rim zulmiga qarshi ozodlik urushini boshlashga ruhlantirdi. Gallarning ozodlik urushini Sertoriy qo‘llab-quvvatladi.

Sertoriy Pont podshohi Mitridat VI ning Rimga qarshi kurashida harbiy instruktorlar bilan yordam berdi. Sulla tartib-qoidalariga sodiq bo‘lgan senat isyonchi Sertoriyga qarshi Gney Pompey boshchiligida katta qo‘shin yubordi. Sertoriy Pompey armiyasi ustidan 4 marta g‘alaba qildi. Luzitanlarning Rimga qarshi ozodlik urushi 8 yil davom etdi, lekin bu urush ularni nihoyatda holdan toydirdi. Sertoriy atrofidagi rimliklar Rim bilan kelishuvga kelishga qaror qilib, Sertoriyga qarshi fitna uyushtirdilar. Lekin fitna ochilib qolib, Sertoriy fitnachilarni shafqatsiz jazoladi. Tez orada Sertoriy bazmda o‘ldirildi va shundan so‘ng luzitanlarning ozodlik urushi so‘ndi.

Spartak boshchiligida qullar qo‘zg‘oloni. Qulchilik munosabatlarida ham bir qancha o‘zgarishlar ro‘y berdi. Qul mehnati foydasiz ekanligi yaqqol ko‘rindi. Mil. avv. I asrning I yarmidan qullar ozod qilina boshlandi. Ozod qo‘yilgan qullar dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug‘ullandilar. Ayrim uddaburon ozod qo‘yilgan qullar tadbirkorlik bilan shug‘ullanib, juda katta boylik, ko‘chmas mulk to‘pladilar.

Rim bir necha asrlar davomida g‘olibona urushlar olib borib, bosib olingan mamlakatlar va hududlarning aholisini bir qismi qul qilinib Italiyaga olib kelindi. Italiyada erkin fuqarolar 7 000 000 kishini, qullar 13 000 000 million kishini tashkil etdi.

Mil. avv. I asrda Rimda siyosiy vaziyat keskinlashgan vaqtda Spartak rahbarligida misli ko‘rilmagan qullar qo‘zg‘oloni Italiyani qalqitib yubordi (mil. avv. 74 – 71-yillar). Spartak kelib chiqishi Frakiyadan bo‘lib, Rim qo‘shinida yollanma askar bo‘lib xizmat qiladi va xizmatdan qochadi. Lekin qo‘lga tushib gladiatorlikka berilgan. Spartak o‘zining jismoniy kuchi, dovyurakligi uchun ozodlikka chiqadi. Kapuya shahridagi Lentul Batiatning gladiatorlik maktabiga qilichbozlik o‘qituvchisi bo‘lib ishga kiradi. Spartak

70 gladiator bilan maktabdan qochishga erishdi. Vezuviy tog‘ri atrofida joylashib, atrofdagi boy rimliklarni qo‘rg‘onlariga bosqinchilik qildi. Uning yordamchilari Enomay va Kriks o‘ziga o‘xshagan dovyurak gladiatorlar edi. Spartak qo‘li ochiq bo‘lib, qo‘lga tushgan o‘ljalarni o‘z atrofiga to‘planganlarga teng bo‘lib berar edi. Tez orada uning atrofida qullar va boshqa kambag‘al kishilar to‘plandi. Boshda Rim Spartak qo‘zg‘oloniga ahamiyat bermadi. Sarkardalik qobiliyatiga ega bo‘lgan shijoatli Spartak tez orada o‘z qo‘l ostida qullardan tuzilgan 120 ming kishilik qo‘shin to‘pladi. Bir necha bor rimliklar ustidan g‘alaba qildi. Ayniqsa, Shimoliy Italiyadagi Mutina shahri yonida Spartak yaxshi qurollangan ikki konsul boshchilik qilgan Rim qo‘shinlarini tor-mor qildi (mil. avv. 72-yil). Bu hol Rimni vahimaga tushirib qo‘ydi.

Senat Spartak qo‘zg‘olonini bostirish uchun 10 yangi legion tuzib, mil. avv. 72-yilda bu legionlarga qo‘mondonlikni cheklanmagan vakolatlar bilan Rimning eng boy kishisi Mark Krassga topshirdi. Krass harbiy emas edi, u legionlarda tartib-intizomni saqlash va legionerlarni jangda jasoratli bo‘lishga majbur qiladigan shafqatsiz choralarni qo‘lladi. Jangda qo‘rqoqlik qilib, jang maydonini tark etgan har o‘ninchi legionerni qatl etdi. Bu chora armiyada intizomni to‘la tikladi. Spartak tezlik bilan Rimni chetlab o‘tib, Italiyaning janubiga yurish qildi. Farazlarga ko‘ra, Spartak Sitsiliyaga o‘tishga harakat qilgan. Spartakning Sitsiliyaga o‘tishida kemalar bilan ta’minlashga va’da bergan Kilikiya dengiz qaroqchilari (piratlar) uni aldadilar. Qullar qo‘shini Bruttiya viloyatiga qamalib qoldi. Krass bu yerda 52,5 km uzunlikdagi okop – chuqur zovur qazishga buyruq berdi. Spartak qo‘shinlari rimliklarning bu to‘siqlarini buzib o‘tib, Brundiziy portiga qarab harakat qildilar. Spartak o‘z qo‘shinini kemalar bilan Yunonistonga olib

o‘tmoqchi edi. Tez orada Spartak qo‘shinlaridan bir necha qismlar ajralib ketdi. Bu Spartakning kuchini zaiflashtirdi. Krass qullar qo‘shinini ta’qib ostiga olib, ularning orqasidan izma-iz bordi.

Apuliya viloyatida Krass va Spartak qo‘shinlari o‘rtasida hal qiluvchi jang bo‘ldi (mil. avv. 71-yil). Jang boshlanishida Spartakka otini minishga hozirladilar, lekin u qilichini sug‘urib otni o‘ldirdi. Spartak g‘alaba qilgan taqdirda eng yaxshi otlarga ega bo‘lishi mumkinligi, yengilgan taqdirda hech qanday ot kerak emasligini aytdi. Jang juda shafqatsiz bo‘lib, rimliklar g‘alaba qildilar. Spartak va minglab qullar bu jangda qahramonlarcha halok bo‘ldi. Uch yil davom etgan qullar qo‘zg‘oloni bostirildi. Qo‘zg‘olonchi qullardan shafqatsiz o‘ch olindi, 6 ming qul Kapuyadan Rimga boradigan yo‘lda xochga mixlandi.

Gney Pompey fuqarolar urushi davrida Sullaga yaqinlashib, uning harbiy topshiriqlarini bajardi. Pompeyning otasi Strabon harbiy sarkarda edi. Lekin Strabon boylikka o‘ch bo‘lgani uchun uning askarlari o‘z sarkardalarini juda yomon ko‘rar edilar. Pompey otasi bilan yurishlarga qatnashib harbiy ishni o‘rgandi. U 23 yoshida Sulla tomonida turib Sitsiliya va Afrikada Mariy tarafdorlariga qarshi urush olib bordi. Afrikada Pompeyga uning legionlari «magn», ya’ni buyuk unvonini berdilar. (Qadimdan Rimda katta janglarda g‘alabaga erishgan lashkarboshi sharafiga Rim shahrida zafar (triumf) marosimi uyushtirilar edi. Rim uchun ahamiyati katta g‘alabaga erishgan lashkarboshi jang aravasida, kichikroq ahamiyatli g‘alabaga erishgan lashkarboshi piyoda yurib, Kapitoliy tepaligiga ko‘tarilib, qurbonlik keltirgan. (Rim fuqarolari triumfatorni qarsaklar bilan olqishlar (ovatsiya) edilar). Chunki ular triumfator hisobidan ziyofat va tekin tomosha bilan siylanar edilar. Rim qonuniga ko‘ra triumfga faqat Rim magistraturasi-

ning oliy mansabdorlari konsul va pretor haqli edilar. Lekin Pompeyning o‘z legionlari va Rimda obro‘-eti’bori oshib borayotgani uchun Sulla Pompeyning triumf o‘tkazishiga rozi bo‘lishga majbur bo‘ldi. Sulla obro‘-e’tibori o‘sib borayotgan Pompeyga shubha bilan qaradi, lekin unga dushmanlik qilmadi. Faqat o‘limi oldidan tuzgan vasiyatnomasida o‘z atrofidagi odamlarni o‘zining voyaga yetmagan o‘g‘liga vasiylar sifatida belgilab, ularga sovg‘a-salomlar belgiladi, lekin bu ro‘yxatga Pompeyni kiritmadi. Yana shuningdek, Sulla o‘ziga yaqin odamlariga turli miqdorda sovg‘alarni berish to‘g‘risidagi vasiyatiga Pompeyning nomini kiritmadi.

Senat Pompeyni Spartakka qarshi yuborilgan Krass qo‘shiniga yordamga yubordi. Pompey Ispaniyada luzitanlar ozodlik harakatini bostirgandan so‘ng Rimga qaytib, senatdan o‘z askarlariga yer ulushi ajratishni, o‘zi uchun konsullik va zafar yurishini talab qildi. Oligarxlardan iborat bo‘lgan senat o‘z orasidan biror bir a’zosining kuchayib ketishini istamas edi. O‘zining sharqdagi g‘alabalari bilan obro‘-e’tibori oshib ketgan Pompeyni Rimda hokimiyatni bosib olishidan xavfsiragan senat unga dushmanlik nazari bilan qaradi. Shu sababli senat Pompeyni konsullikka o‘z nomzodini qo‘yishga ruxsat bermadi. Pompeyning veteranlariga yer berilmadi. Senatda kuchli ta’sirga ega bo‘lgan yana bir taniqli patritsiy Lukull ham Pompeyga qarshi chiqdi. Shundan so‘ng Pompey senatga qarshi turgan guruhga qo‘shildi. Hukmron tabaqa Spartak qo‘zg‘oloni va boshqa ijtimoiy ziddiyatlardan xulosa chiqarib mavjud tuzumni barqarorligini ta’minlash uchun birlashdi. Senat yon berib, Pompeyga zafar yurishi va konsul lavozimini egallashiga ruxsat berdi. Mil. avv. 70-yil Pompey va Krass konsul etib saylandilar. Krass ovatsiya (piyoda

triumf)ga, Pompey triumfga sazovor bo‘ldi va Pompeyning legionerlari rag‘batlantirildi.

Pompey O‘rtayer dengizi qirg‘oqlarida dengiz qaroqchilarini tugatib, Rimda katta obro‘ga ega bo‘ldi. Pontning ozodlik urushini Lukull bostira olmadi. Lukull Osiyo provinsiyasida rimliklarning tovlamachiligidan og‘ir ahvolga tushib qolgan shaharlarning moliyaviy ishlariga aralashdi, bu Rimda suvoriylarning noroziligiga sabab bo‘ldi. Bundan tashqari armiyada qattiq intizom o‘rnatishi legionerlarning noroziligini keltirib chiqardi. Rimda Lukullni urushni ataylab cho‘zishda aybladilar. Senatning noroziligiga qarshi xalq yig‘ini Pompeyni Mitridatga qarshi urushga bosh qo‘mondon qilib tayinladi. Pompey Mitridatga qarshi urushda g‘olib bo‘ldi, Suriya va Yahudiyani istilo qilib, Kichik Osiyoda Rim hokimiyatini qayta tikladi. Pompeyning Old Osiyoga bosqinchilik urushi Misrdan tashqari bu hududda mavjud bo‘lgan mustaqil davlatlarni Rimga tobe qilishi bilan tugallandi.

Bu vaqtda Rimda qarzga botgan patritsiy Lutsiy Sergiy Katilina fitnasi bostirildi. Katilina qarzlarni bekor qilish va davlat hokimiyatini bosib olishni maqsad qilib qo‘ydi. Etruriyada Katilina va uning uch ming kishilik tarafdorlari jangda mag‘lub bo‘ldilar. Nobillar va suvoriylar Katilina fitnasi davrida o‘z hokimiyatlarini saqlab qolish uchun birlashdilar. Senat oqsuyak-patrisiylar respublikasi va an’anaviy Rim erkinligining himoyachisi sifatida chiqdi. Gay Sallyustiy Krisp Rimda vujudga kelgan vaziyat to‘g‘risida shunday yozadi: «XXXVIII. Gney Pompey va Mark Krassning konsulligidan keyin xalq tribunlari lavozimi qayta tiklandi, yoshi va axloqda cheklanmagan juda ko‘p yosh kishilar oliy hokimiyatga erishdilar va xalqni senatga qarshi gij-gijlay boshladilar. Keyin sadaqa va va’dalar bilan xalqni yanada qo‘zg‘adilar, shu tarzda ular mashhur bo‘lib kuch to‘pladilar.

Ularga zodagonlarning katta qismi bor kuchi bilan qarshilik ko‘rsatdi, go‘yoki senatni himoya qilgandek bo‘lib, aslida o‘z mavqeyini saqlab qolish uchun kurashdi». (Гай Саллюстий Крисп. Заговор Катилины. Историки Рима. Изд-во «Худ. лит-ра». – М., 1970 стр. 52-53). Rim davlatchiligi yemirilish pallasiga kirdi. Davlat anarxiya tomon jadal bordi. Korrupsiya kuchayib har qanday lavozimga da’vo qiladigan kishilar maydonga pul xaltalari bilan kelib, saylovlarda oddiy fuqarolarning ovozlarini sotib ola boshladilar. Ko‘pincha saylovlar qonli to‘qnashuvlar bilan tugadi.

Gay Yuliy Sezar (mil. avv. 100 – 44). Sezar taniqli Gay Mariyga qarindosh bo‘lgan qadimgi Patritsiy urug‘idan bo‘lgan Yuliylar oilasidan edi. Sezar harbiy xizmatni Osiyoda pretor Mark Terma xizmatchilari o‘rasida boshladi. Vifiniya podshohi Nikomed saroyida bo‘ldi, uning Nikomed bilan munosabati to‘g‘risida mish-mishlar tarqaldi. Lesbos orolidagi podshoh Mitridatni mulki bo‘lgan Mitilena orolini ishg‘ol etishda Sezar ko‘rsatgan jasorati uchun taqdirlandi. Sulla diktaturasi yillarida Sezar Rimdan uzoqda yurishga majbur bo‘ldi. Sullaning raqibi Gay Mariy Sezarning xolasiga uylangan edi, Sezarning Mariyga qarindoshligi uchun Sulla uni yoqtirmas edi. Sezar Rodos orolida taniqli notiq Molonning o‘g‘lidan notiqlik san’atidan dars oldi. U chiroyli so‘zlash qobiliyatiga ega edi. Lekin u notiqlikda birinchi bo‘lishdan ko‘ra qurol kuchi bilan birinchi bo‘lishni xohladi. Sezar Rodos orolidan qaytishda kilikiyalik dengiz qaroqchilari qo‘liga tushib qolib, ularning qo‘lida 38 kun garovda turdi va 50 talant evaziga ozod bo‘ldi. Plutarx Sezarning sifatlari to‘g‘risida shunday yozadi: «Sezar, xabar berishlaricha, tabiatan ham davlat ishlarida o‘ta qobiliyatli va chiroyli so‘zlash mahoratiga ega edi. Rimning o‘zida Sezar sudlarda o‘zining ajoyib himoya nutqlari bilan yorqin yutuqlarga erishdi, o‘zining xushmuo-

malaligi, yumshoq mulozamati bilan oddiy xalqning yaxshi ko‘rishiga erishdi».

Sulla diktaturasidan keyin Sezar Rimga qaytib, Rim siyosiy hayotiga sho‘ng‘ib ketdi. Sudlarda himoyachi sifatida nutq so‘zlab katta yutuqlarga erishdi, o‘zining xushmuomalaligi va oddiy odamlarga yumshoq muomalasi bilan xalqni o‘ziga tortdi. Rimda xalq yig‘inida u harbiy tribun lavozimiga saylandi va Sulla davrida bekor qilingan xalq tribuni hokimiyatini tiklashga faol qatnashdi. Sezarning lavozimi mil. avv. 68-yilda uzoq Ispaniya provinsiyasida kvestor lavozimida xizmat qildi. Mil. avv. 65-yilda Sezar lavozimiga saylanib Rim fuqarolari uchun hashamatli tomoshalar uyushtirdi. Amfiteatr sahnasiga kumush qurol-yarog‘lardagi 320 gladiatorni olib chiqdi. Gladiatorlarning amfiteatrga bunday hashamatli chiqishi Rim tarixida hali ko‘rilmagan edi. U tekin tomoshalar, katta bazmlar va xayr-ehson qilib Rim fuqarolarining ko‘nglini oldi. Sezar bunday katta xarajatlar bilan qarzga botdi. Mil. avv. 62-yilda pretor lavozimiga saylandi va bu lavozim muddati tugashi bilan Senat qaroriga asosan Ispaniya provinsiyasi noibligini oldi.

Lekin Sezarga qarz bergan sudxo‘rlar uni Ispaniyaga jo‘nab ketishga yo‘l qo‘ymadilar. Sezar Rimning eng boy kishisi bo‘lgan M. Krassdan yordam so‘radi. Krass azaliy raqibi Pompeyga qarshi turishda Sezardan foydalanish niyatida unga 820 talant miqdoridagi qarzini to‘lashga kafolat berdi. Natijada Sezar Ispaniyaga jonab ketish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Hikoya qilishlaricha, Ispaniyaga jo‘nab ketishda Sezar Alp tog‘lari orqali oshib, juda kam sonli aholisi bo‘lgan kambag‘al shaharcha yonidan o‘tayotganda, do‘stlari kulgi bilan undan so‘radilar: Nahot, bu yerda ham mansablarni egallash uchun musobaqalar, birinchilik uchun munozaralar, zodagonlar o‘rtasida kelish-

movchiliklar bo‘lsa? «Menga kelganda, – to‘la jiddiylik bilan ularga javob berdi Sezar, – Rimda ikkinchi bo‘lgandan ko‘ra, bu yerda birinchi bo‘lishni afzal ko‘rar edim». Sezar Ispaniyada faol harakat qilib, Rimning zulmiga qarshi bosh ko‘targan luzitan va kallaik qabilalarini tinchlantirdi va Luzitanlarning mol-mulkini bosib olib, o‘z moliyaviy ahvolini mustahkamladi. Ispan shaharlarida sudxo‘rlarning zo‘ravonligi oqibatida yuzaga kelgan vaziyatni yumshatish uchun sudxo‘rlar va qarzdorlarni o‘zaro murosaga keltirdi.

4. I Triumvirat. Mil.avv 60-yilda Yu. Sezar Ispaniyadan katta o‘ljalar olib Rimga qaytdi va shaharga kirmay o‘zi uchun zafar yurishi va sirtdan o‘z nomzodini konsullikka qo‘yish uchun senatning ruxsatini kutdi. Senat esa bunga qarshilik qildi. Sezar Rimdagi siyosiy vaziyatdan o‘z manfaati yo‘lida foydalandi. U senat qo‘llab-quvvatlamagan va o‘sha vaqtda bir-biriga dushman bo‘lgan raqiblar Pompey va Krassni murosaga keltirdi. Bu ikki qudratli kishining yordami bilan konsullik saylovida o‘z nomzodini qo‘ydi va mil. avv. 59-yil konsullikka saylandi. Sezar oddiy fuqarolarning ko‘nglini olish uchun senatga koloniyalar barpo etish va yerlarni taqsimlash to‘g‘risidagi qonun loyihalarini taklif qildi. Bu qonun loyihalarini qabul qilinishiga senat qarshilik ko‘rsatdi, lekin Sezar Pompeyning qurolli qismlarini forumga keltirishi bilan bu qonun loyihalarini tasdiqlanishiga erishdi. Rimdagi uch qudratli kishi. Pompey, Sezar va Krass norasmiy ittifoq tuzib, bir-birlariga yordam berish majburiyatini oldilar. Bu kelishuvtriumvirat (uch qudratli kishi ittifoqi, mil. avv. 59-yil) deb ataldi. Bu uch qudratli siyosiy arboblarning nobillardan do‘stlari, plebs orasida ko‘plab kliyentlari, Italiya va provinsiyalarda tarafdorlari bor edi. Kelishuv Pompeyning Sezarning qizi Yuliyaga uylanishi, Sezarni triumviratning taniq-

li bir tarafdorining qizi Kalpuriyaga uylanishi bilan mustahkamlandi.

Senat bu uch qudratli kishining ittifoqi bilan kurashda ojiz bo‘ldi. Bu kelishuv natijasida Rimda siyosiy hokimiyat uch qudratli kishi – Pompey, Krass va Sezar qo‘liga o‘tdi. Triumvirlarning eng kuchlisi Pompey bo‘lib, uning orqasida harbiy xizmatdan bo‘shagan legionerlar turar edi. Pompeyning ta’siri Rim shahri, Italiya va provinsiyarda kuchli edi. Ittifoqning asosiy vazifalaridan biri Pompeyning senat rad etgan takliflarini amalga oshirish bo‘ldi.

Sezar tez orada I triumviratning amaldagi rahbariga aylandi. U konsulligi vaqtida agrar qonun loyihasini amalga oshirdi. Bu qonun asosida Pompeyning sobiq legioner – veteranlari yer ulushlariga ega bo‘ldilar. Sezarning hokimiyat uchun kurashida shahar va qishloq plebeylari uning mustahkam tayanchi bo‘lib xizmat qila olmasligini tushunar edi. Buning uchun Sezarga yaxshi qurollangan sadoqatli qo‘shin kerak edi. Bunday qo‘shinga ega bo‘lish uchun biror bir provinsiyani boshqarib, zarur mablag‘ni topish kerak edi. Svetoniyning ma’lumotiga ko‘ra Sezar kuyovi va qaynotasi yordami bilan provinsiyalar orasida eng boy bo‘lgan Galliya provinsiyasi boshqaruvini oldi. Xalq tribuni Publiy Vatiniy qonuniga ko‘ra dastlab Sezar keng vakolatlar bilan va 2 legion tashkil etish huquqi bilan Siz alp Galliyasi va Illiriya provinsiyalari noibligini 5 yil muddatga oldi. Shundan so‘ng senat ikkinchi Galliya provinsiyasi boshqaruvini Sezarga bermasa, u xalq nomidan bu provinsiyani olishidan qo‘rqdi. Shu sababli senat Galliyadagi ikkinchi provinsiyani ham Sezar boshqaruviga berdi.

Galliyaning Rim bosib olgan hududlarida Rim zulmiga qarshi kuchli ozodlik harakati boshlandi. Gelvet, eduy, belg qabilalari Sezar legionlari bilan to‘qnashdi. Sezar mil. avv. 50-yillar o‘rtalarida Galliyada

o‘tkazgan 3 harbiy yurishda Pireneydan Reyn daryosigacha Galliyani Rimga yana qaram qildi. Mil. avv. 55-yilda uzipet, tenkter, svev va sugambr qabilalarining qarshiligini bostirdi. Galliyadagi urush davomida gallarning 800 shaharlari vayron etildi, bir million gall asir olindi. Italiyaga gall urishining birinchi kunlaridan behisob moddiy boyliklar oqib keldi. Birgina Rim davlat xazinasiga Galliyadan urushning har yilida 40 million sestersiy kirim qilindi. Italiyada oltinning narxi 25 foizga tushib ketdi. Sezarning o‘zi ham gall urushlarida olingan o‘ljaning katta qismini o‘zlashtirib oldi. Yu. Sezar Galliyada noiblik davrida va Galliyaning rimliklarga qaram bo‘lmagan qismini bosib olishda, qarshi urushlarda gallardan tortib olgan katta miqdordagi boylik va mablag‘ni Rim fuqarolarining ko‘nglini olish uchun tekin non va tomoshalar yushtirishga, bir qismini Rimdagi obro‘li senator va boshqa kerakli kishilarning og‘zini moylashga sarfladi. Bu saxovat Rimda Sezarning obro‘-e’tiborini oshirib yubordi.

Galliya qaram qilinganidan keyin bu hududga rimlik sudxo‘rlar, savdogar-tadbirkorlar va kolonistlar (Galliyada yer ulushi olgan rimlik fuqarolar) yopirilib kirdi. Sezar Britaniya orollarini istilo etish uchun uyushtirgan ekspeditsiyasi hech qanday natijaga erishmadi (mil. avv. 55-yil, kuz oyi). Ikkinchi yurishda (mil. avv. 54-yil) esa brittlar jang qilmay chekinib, rimliklarni mamlakat ichkarisiga kirishga majbur qildilar. Bu yurishda ham Sezar hech narsaga erishmay qaytishga majbur bo‘ldi.

Mil. avv. 58-yilda tiumvirlarning tarafdorlari konsullikka saylandilar. Xalq tribuni Klodiy Sezar bilan yaqin aloqada bo‘lib, Rimda Sezarning manfaatlari uchun ish olib bordi. Klodiyning sa’y-harakati bilan triumvirlarga qarshi chiqqan Sitseron, Katon Kichik va boshqalar ta’qib ostiga olindi. Xalq tribuni Klodiy

Rim plebsi manfaatlarini himoya qiladigan va senat oligarxiyasiga qarshi 4 qonun loyihasi qabul qilinishiga erishdi: birinchi qonunga koʻra Rim shahrining kambagʻal fuqarolariga har oy tarqatiladigan nonga pul toʻlovi bekor qilindi; osmon jismlarini kuzatish taqiqlandi; uchinchi qonunga koʻra mil. avv. 64-yilda tugatilgan kvartal kollegiyalari qayta tiklandi va yangilari tashkil etildi; toʻrtinchi qonunga koʻra senzorlar senat aʼzolari roʻyxatini tuzganda biror senatorni senat roʻyxatidan chiqarishi taqiqlandi.

Rim davlatining eski tartib-qoidalariga sodiq boʻlgan guruhda taniqli siyosiy arbob, notiq Mark Tulliy Sitseron (mil. avv. 106 – 43) obroʻ-eʼtibori kuchli edi. Mark Tulliy Sitseron (Sitseron soʻzi qadimgi lotin tilida noʻxat maʼnosini bildirgan)ning onasi zodagon oilasidan boʻlgan, otasining kelib chiqishi nomaʼlum. Aytishlaricha, boʻlgʻusi mashhur notiq va siyosiy arbob qandaydir movutsozlik ustaxonasida dunyoga kelib, shu yerda ulgʻaygan. Mark Tulliy maktab yoshidayoq oʻz qobiliyatini koʻrsatib, boshqa boquvchilarning ota-onalarini havasini keltirgan. Boshlangʻich maktabda falsafiy fikrlashga moyil boʻlgan yosh Mark oʻquv predmetlaridan koʻra shoirlik ijodiyotiga berildi va «Pontiy Glavk» poemasini yozdi. Boshlangʻich maktabni tugatib, notiqlik sanʼatining oʻqituvchilaridan taʼlim oldi va tanish davlat xizmatchilari, senatorlar yordami bilan davlat boshqaruvi va qonunlarni oʻrgandi. Mil. avv. 82-yilgacha fanlar bilan shugʻullandi. Respublikaning soʻnggi yillarida oʻzaro urushlar boshlanishi bilan siyosat sohasiga kirdi. U taniqli siyosatchi boʻlish uchun Osiyoda 3 notiqdan va Rodosda ikki notiqdan notiqlik sirlarini oʻrgandi. Tabiatan maqtovlarga oʻchlik va shuhratparastlik Sitseronni butun umr qaynoq faoliyatga tortib keldi. Tabiatan shuhratparastligi, doʻstlari va otasining qutqusi bilan sudlarda himoyachi sifatida chiqib

tezda tanildi. Sitseron notiqlar bellashuvida boshqa notiqlarni orqada qoldirdi. Sitseron deklamatsiyasida noqisliklar bo‘lib, bu kamchilikni yo‘qotish uchun komik aktyor Rotsiydan, tragik aktyor Ezopdan ta’lim oldi. Sitseron sud himoyachilariga xos bo‘lgan hazil va mazaxlarga singdiriladigan nozik aql va nafis usuldan tez-tez foydalanishi bilan Sitseron ko‘pchilikni xafa qildi va badjahl kishi deb nom chiqardi.

Sitseron pretor va konsul lavozimlarini egalladi. Bir necha sud ishlarida himoyachi sifatida chiqib, o‘zining notiqlik san’ati bilan Rim siyosiy hayotida juda katta obro‘ga erishdi. Sud jarayonida himoyachi sifatida qatnashib, hech qachon sovg‘a-salomlar va rag‘batlantiradigan pul mukofotlarini olmadi. Bunday halolligi bilan Sitseron xalqning hurmatiga sazovor bo‘ldi. Mil. avv. 63-yilda «yangi odam» Sitseron konsullik lavozimiga saylandi va shu lavozimda qarzga botgan patritsiy Katilinaning pespublika tuzumiga qarshi fitnasini bostirdi. Rimning eng boy kishisi Krass Sitseron bilan dushmanlik munosabatida edi. Sezar Galliyaga urushga hozirlanayotgani uchun Sitseron bilan yaqinlashishga harakat qildi. Sezar, Krass va Pompeyning kelishuvi asosida senatning maxsus qaror bilan Sitseron Rimdan haydalib, mol-mulki musodara qilindi. Sezar o‘zining dushmanlari Sirseron va Katon Kichik Rimdan haydalgach pronsiyaga jo‘nab ketdi.

Mil. avv. 56-yilda Sezarning tashabbusi bilan triumvirlar Etruriyadagi Luke shahrida uchrashdilar. Ularga 200 senatorlar, 120 liktorlar, ko‘pgina kliyentlar va qullar hamrohlik qildilar. Triumvirlar vaziyatni tahlil qilib, hokimiyat qayta taqsimlandi. Sezarning Galliyaga noibligi yana 5 yilga mil. avv. 49-yilgacha uzaytirildi. Noiblik vakolati tugashi bilan navbatdagi konsullik vakolati mil. avv. 48-yil 1-yanvar boshida

kelishib olindi. Pompey va Krass konsullik lavozimlari mil. avv. 55-yildan boshlanishi, bu konsullik muddati tugashi bilan Pompey Ispaniyada va Afrikada noibliklarni, Krass esa Suriyaga noiblikni olishi kelishib olindi. Senat triumvirlarning bu qarorlarini tasdiqlashga majbur edi.

I Triumviratning tugashi. Sezar va Pompey o‘rtasida hokimiyat uchun kurash. Galliyada urush harakatlari tugamasdan I triumvirat amalda tugadi. Krass mil. avv. 55-yil Parfiyaga yurish vaqtida halok bo‘ldi. Rimda Sezar gall urushlaridagi yutuqlari bilan Pompeyga tenglashdi. Sezar o‘zining yuksalishi bilan Pompeyga qarzdorligi va o‘zi istagan vaqtida uni bartaraf qilish qiyin bo‘lmaydi deb hisoblab, Pompey Sezarga mensimay qaradi. Rimda Sezaring obro‘-e’tibori oshib ketishi Pompey bilan munosabatlarda sovuqlik va dushmanlikka sabab bo‘ldi. Bu vaqtda Sezarning Pompeyga turmushga chiqqan qizi Yuliya vafot etdi. Pompeyning Rimda o‘bro‘yi oshib ketib, u Rimning yakka hukmdoriga aylandi. Pompey Rim tarixida birinchi marta bir o‘zi konsul etib saylandi. U Rimga qo‘shin kiritib anarxiyani tugatdi, shaharni turli qalang‘i-qasang‘ilardan tozaladi. Senatda zoravonlik va korrupsiyaga qarshi qonunlar qabul qilinishiga erishdi. Bu jinoyatlar bo‘yicha jazo kuchaytirildi. Pompey Rimda birinchi toshdan amfiteatr binosini qurdi (mil. avv. 55-yil).

Rimda ko‘pchilik faqat kuchli kishi o‘z hukmronligini o‘rnatib, Rimda tartibsizlik, zo‘ravonliklarga chek qo‘yib, turli tabaqa-guruhlar o‘rtasidagi ixtiloflarni tugatib, jamiyatda osoyishtalik o‘rnatib, davlatni qutqaradi, deb ochiqdan-ochiq ayta boshladilar. Bu rimning eng qudratli fuqarosi Pompeyga ishora edi. Pompeyning yaqinlari senatga Pompeyni yagona konsul sifatida saylab u boshqaradigan Ispaniya va Afrika provinsiyalarining boshqaruvini o‘z qo‘lida qol-

dirishni taklif qildilar. Buning evaziga Pompey diktatorlik hokimiyatini talab qilmasligi aytildi.

Sezar esa konsullik saylovlariga ishtirok etishga va gall provinsiyalariga noiblik muddatini uzaytirishni talab qildi. Pompey Sezarning bunday harakatlaridan norozi bo‘lib, Sezarni provinsiyalar boshqaruvidan ozod etib, o‘rniga boshqa noib tayinlashni talab qildi. Lekin Pompey Sezarga qarshi turish uchun qo‘shin to‘plamadi, faqat senatda Sezarga qarshi nutqlar so‘zlash va qarorlar qabul qilish orqali kurashni afzal ko‘rdi. Sezarning kuchayib borayotganidan xavfsiragan senatning ayrim a’zolari Sezarning Alp orti Galliyasi aholisiga fuqarolik huquqi berish taklifini rad qildi. Galliyada Sezarning noiblik vakolati tugadi. Senat Sezarning noiblik vakolatini o‘z vaqtida topshirishini talab qilib, uning o‘rniga Galliyaga yangi noib tayinladi va Sezarga qo‘shinni tarqatib yuborishini talab qildi. Lekin senat endi kechikkan edi.

Galliyada noibligi davridan boshlab Sezar Rimdagi siyosiy vaziyatni kuzatib, Rimda senatorlar va boshqa obro‘li kishilarga katta miqdorda pora berib, o‘z tarafdorlariga ega bo‘lishga harakat qildi. Mil. avv. 50-yilda xalq tribuni etib saylangan Gay Skriboniy Kurion Sezarning Rimdagi himoyachisi va uning irodasining ijrochisiga aylandi. Chunki Sezar Kurionning katta miqdordagi qarzlarini to‘lagan edi. Shu sababli Kurion xalq tribuni sifatida Pompeyga qarshi chiqdi. Sezar legionlarni tarqatib yubormadi, aksincha legionerlarga katta pul mablag‘lari berib, ularning sonini ko‘paytirdi. Rimda hokimiyatni egallash uchun faol harakatga tushdi. Sezarni kuch bilan Rimda hokimiyatni bosib olishidan xavfsiragan senat Sezarni Rimning dushmani deb e’lon qildi. Sezarga qarshi senat Pompeyga Italiyada qo‘shin to‘plashga topshiriq berdi.

Sezar Rimda hokimiyatni egallash uchun mil. avv. 49-yil yanvarida Galliyadan Shimoliy Italiyaning chegarasi bo‘lgan kichik Rubikon daryosidan o‘tdi. Qonunga ko‘ra, bu daryodan o‘tgan har qanday qurollangan qo‘shin Rimning dushmani hisoblanar edi. To‘g‘rimi, noto‘g‘rimi, aytishlaricha, daryodan o‘tish oldidan Sezar uzoq o‘ylanib turib, «qur’a tashlandi» deb xitob qiladi va qo‘shinga daryodan o‘tishga buyruq beradi. Shimoliy Italiyaning shaharlari Sezar qo‘shinlariga deyarli qarshilik ko‘rsatmadi. Hokimiyat Sezarga qarshi hech qanday harakat qilmadi. Senat Sezarning bunday tezkor harakat qilishini kutmagan edi. Rimda Sezarga qarshi turadigan harbiy kuch yo‘qligi sababli Sezar shaharni jangsiz egalladi. Pompeyning legionlari Ispaniyada edi. Pompey mil. avv. 49-yil 17-yanvarida janubga qo‘shin yig‘ishga jo‘nab ketdi. Uning orqasidan vahimaga tushgan konsullar va senatning ko‘pgina a’zolari Rimni tashlab ketdilar. Sezar Rimga kirib, 5000 funt tilla va kumush miqdoridagi davlat xazinasini bosib oldi. Rimdagi o‘ziga qarshi bo‘lgan raqiblariga qarshi hech qanday chora ko‘rmadi, ba’zi magistratlarlar o‘z ichlariga kirishdilar, ayrim senatorlar Rimga qaytdilar.

Sezar oltmish kun davomida hech qanday qon to‘kmasdan butun Italiyani egalladi. Sezar murosaga kelish uchun Pompey bilan muzokaralar olib borishga 3 marta urindi. Lekin Pompey 17-martda o‘ziga sodiq qo‘shin va tarafdorlari to‘planayotgan Yunonistonga jo‘nab ketdi. Sezar Rimda ko‘p turmadi, Italiyani boshqarishni gall urushlari veterani o‘z ichonchli kishisi Antoniyga topshirdi. Bu vaqtda Sezarning raqiblari Ispaniyada qo‘shin to‘pladilar. Pompeyga sodiq bo‘lgan yetti legion ham Ispaniyada turgan edi. O‘z raqiblarini Italiyaga yurish qilishini istamagan Sezar Ispaniyaga qo‘shin tortdi. U Ispaniyada o‘z raqiblarini bir yoqlik qilib, Bolqon yarim oro-

liga o‘tmoqchi edi. Ispaniyadagi Pompey tarafdorlari to‘plagan armiya Ilerda shaharchasi yonida mil. avv. 49-yil 2-avgustda Sezar armiyasi bilan bo‘lgan jangda tor-mor qilindi. Bu jangdan so‘ng ikki ispan provinsiyasi g‘olib Sezar tomoniga o‘tdi. Keyin esa Massiliya taslim bo‘ldi. Bu vaqtda Rimda Sezar diktator deb e’lon qilindi. Ana shu bilan Sezarning yakka hokimiyatiga ilk poydevor qo‘yildi. Afrikada esa Sezarning armiyasi mag‘lubiyatga uchradi. Sezar noyabr oxirida Rimga qaytib, diktator lavozimida faoliyatini boshladi. Keyingi yilda konsul lavozimini egallab, 11 kun ichida tezkorlik bilan qarzdor va kreditorlar o‘rtasidagi ajrim bo‘yicha arbitraj to‘g‘risidagi qonunni, provitsiyalar jamoalariga Rim fuqaroligini sovg‘a qilish, Pompey davrida quvg‘in qilinganlarni qaytarish to‘g‘risidagi qonunlarni qabul qildi.

Sezar Rim plebysiga non tarqatib, mil. avv. 48-yil yanvar oyi boshlarida Yunonistonga jo‘nab ketdi. Pompey va Sezar armiyalari o‘rtasida olti oy davomida urush harakatlari sust olib borildi. Ikki o‘rtada hal qiluvchi jang mil. avv. 48-yilda Yunonistondagi Farsal shahri yonida bo‘lib o‘tdi. Jangda 50 ming kishilik Pompey armiyasi 35 ming kishilik Sezar armiyasidan yengildi, 20 ming kishi asirga tushdi. Pompey boshda Lesbos oroliga chekindi, keyin Misrga yo‘l oldi. U bir vaqtlar o‘smir Ptolemeyga homiylik qilgan bo‘lib, endi yosh podshoh Ptolemeydan yordam olmoqchi bo‘ldi. Lekin Pompey qirg‘oqqa tushishi bilan Ptolemeyning buyrug‘i bilan o‘ldirildi.

Sezar Pompeyning halokatidan so‘ng Misrga yurish qildi. Tobora zaiflashib borayotgan Misr Rimga qaram bo‘lishni istamas edi. Bu boy mamlakatni rimliklar qo‘ldan chiqargilari kelmasdi. Ancha oldinroq Rim senatida Misrni mustaqil davlat sifatida tugatish va uni Rim provinsiyasiga aylantirish rejasi mavjud edi. Misrda bu vaqtda hukmron sulola va-

killari – aka-singil Dionis va Kleopatra o‘rtasida ixtilof kelib chiqqan edi. Kleopatra mil. avv. 51-yilda 18 yoshda otasining vasiyatiga ko‘ra ukasi Dionis bilan taxtga kelgan edi. Saroy fitnasi oqibatida Kleopatra quvg‘in qilindi. Rimga tobe bo‘lishni istamagan yosh podshoh Dionis va saroy ahli katta armiya bilan kelgan Sezarni sovuq kutib oldilar. Podshoh Dionisning otasi Ptolemey XII davrida Misr davlati Rimga 17 yarim million draxm qarz bo‘lgan edi. Sezar Misrning bir qism qarzidan voz kechib, 10 million draxmni o‘z armiyasining ta’minoti uchun qaytarishni talab qildi. Qudratli haram og‘asi Potin Misr qarzni keyinroq qaytarishiga va’da berib, Sezarga Misrni tark etishni taklif qildi. Sezar esa Misrdagi sulolaviy kelishmovchilikka aralashib, quvg‘indagi malika Kleopatra bilan maxfiy uchrashdi, Sezar malika Kleopatra bilan Dionisni murosaga keltirdi va ular birgalikda hukmronlik qilishga kelishib olishdi. Saroyda uyushtirilgan ziyofat paytida rimliklar haram og‘asi Potinni o‘ldirdilar. Misr armiyasi podshoh Dionis boshchiligida Rim armiyasiga qarshi urush boshladi. Bu urushda Misr xalqi, ayniqsa poytaxt Aleksandriya aholisi o‘z podshohlari Dionisni qo‘llab-quvvatladilar. Urush vaqtida Sezarning buyrug‘i bilan Aleksandriyada yong‘in uyushtirildi. Bu yong‘inda Museyon kutubxonasidagi qimmatli qo‘lyozmalarning katta qismi kuyib kul bo‘ldi. Sezar 9 oyga yaqin davom etgan bu og‘ir urushda mil. avv. 47-yilda zo‘rga g‘olib chiqdi. Podshoh Ptolemey XIII Dionis izsiz yo‘qoldi. Sezar 21 yoshli malika Kleopatrani Misrning yagona hukmdori deb e’lon qildi. Malika Kleopatra Sezarga turmushga chiqdi va tez orada Sezardan o‘g‘il ko‘rdi.

Sezar shundan so‘ng Suriyaga jo‘nab ketdi va bu yerda Rimning zulmiga qarshi bosh ko‘targan Pont podshohi Mitridatning o‘g‘li podshoh Farnak II (mil. avv. 63-47) boshlagan ozodlik harakatini bostirishga

kirishdi. Zele yonidagi jangda Farnak armiyasi yengildi. Sezar bu urush to‘g‘risida Rimga o‘z do‘sti Matiyga «keldim, ko‘rdim va g‘alaba qildim» deb qisqa xabar berdi. Sezar Italiyaga qaytishida Pompey tarafdorlaridan ajralgan Sitseron bilan uchrashdi. Sezar uni Rimga taklif qildi.

Farsal yonidagi jangdan keyin Pompeyning tarafdorlari Katon va Sitsipion Afrikada to‘plandilar. Numidiya podshohi Yuba ularga yordam berdi. Mil. avv. 46-yilda Afrika provinsiyasining sharqiy qirg‘og‘idagi Tais shahri yonida katta jang bo‘lib, Pompey tarafdorlari tor-mor etildi, jangda ular 10 ming askarni yo‘qotdilar. Shundan so‘ng Sezar armiyasi pompeychilarning tayanchi bo‘lgan Utika shahrini qamal qilib ishg‘ol etdi. Shahar mudofaasida Pompey tarafdorlarining ko‘pchiligi halok bo‘ldi, faqat Pompeyning o‘g‘illari Gney va Sekst jon saqlab o‘tib ketdilar. Numidiya davlati tugatilib, uning o‘rniga yangi Afrika provinsiyasi tashkil etildi. Utika va Taps shaharlari 400 million tovon to‘lashga majbur etildi. Lekin pompeychilar bilan kurash hali tugamagan edi.

Rimda Yu. Sezar diktaturasining o‘rnatilishi. Sezar mil. avv. 46-yilda Rimga qaytdi va Galliya, Misr, Pont va Numidiya ustidan g‘alabalari sharafiga to‘rt zafar triumfini bayram qildi. To‘rt kun davom etgan zafar yurishida Sezar urushda 65 ming talant miqdoridagi o‘ljalar, qimmatbaho buyumlarni ko‘z-ko‘z qildi va Numidiya podshohi Yubaning hali go‘dak bo‘lgan o‘g‘lini asir sifatida olib keldi. Bu zafar yurishidan so‘ng Sezar o‘z legionerlariga katta pul mablag‘larini tarqatdi. Rim xalqi uchun 22 ming stolda dasturxon yozib ziyofat uyushtirdi. O‘zining vafot etgan qizi Yuliya sharafiga gladiatorlar o‘yinlari va dengiz jangini tashkil etdi. Shundan so‘ng aholi ro‘yxati o‘tkazilib, ilgari hayot bo‘lgan 320 ming fuqaro o‘rniga 150 ming fuqaro qolgani ma’lum bo‘ldi. O‘zaro urushlar natija-

sida Rimning fuqarolarini yarmidan ko‘pi qirib yuborilgan edi. Sezar xalq oldiga nutq so‘zlab, o‘zi bosib olgan hududlardan davlat omboriga 200 ming medimn g‘alla va 3 million funt zaytun yog‘i yetkazilishini e’lon qildi.

Pompeyning yosh o‘g‘illari Gney va Sekst Ispaniyada katta kuch to‘pladilar. Sezar Ispaniyadagi Pompey tarafdorlarini tugatish uchun qo‘shin tortdi. Mil. avv. 45-yilda Munt yonida har ikki tomon armiyasi to‘qnashdi. Og‘ir jang boshlandi, boshda Sezarning armiyasi kuchli zarbaga uchradi, lekin juda qiyinchilik bilan ahvol yaxshilandi. Pompeyning o‘g‘illari bu jangda 30 mingdan ko‘proq askarni yo‘qotdi. Jang Sezarning g‘alabasi bilan tugadi. Jang juda qonli va keskin bo‘ldi. Sezarning o‘z so‘zi bilan aytganda u birinchi bor g‘alaba uchun emas, o‘z hayoti uchun jang qildi.

Sezar ikkinchi bor Rimda senat tomonidan 72 liktor saqlash huquqi bilan 10 yil muddatga diktator (senat birinchi marta Sezarni Ispaniyada bo‘lgan vaqtida diktator deb e’lon qilgan edi) deb e’lon qilindi. Sezarga 5 yillik konsullik hokimiyati, umrbod tribun hokimiyati, saylov komissiyalarida o‘z nomzodini tavsiya qilish huquqi hamda boshqa unvonlar va vakolatlar berildi. Senat laganbardorlik bilan Sezarga ikki konsul o‘rtasida qurul kreslosida o‘tirish huquqi va faxriy arava taqdim etdi, Rim forumida «Yarim ilohga» yozuvi bilan Sezarning haykalini o‘rnatdi. Sezar mil. avv. 44-yilda beshinchi marta konsul lavozimini egalladi. U podshoh kiyimini kiyish huquqiga ega bo‘ldi. Sezarning nomi bilan qasamyod qildilar. Sezarga xudo kabi sig‘inib, uning tasviri tangalarda zarb qilindi. Sezar o‘zining o‘rinbosari, otliq qismlar boshlig‘i etib yaqin safdoshi Antoniyni tayinladi. Diktator Rimda bo‘lmagan paytda otliq qism boshlig‘i Rim shahri va Italiyani boshqarar edi.

Sezar o‘z raqiblarini ta’qib qilmadi. Faqat Pompeyning va uning ashaddiy tarafdorlarining mol-mulkini musodara qildi. O‘ziga qarshi qurol ko‘targan kishilarni afv etdi, jumladan, Kassiy va Brutga faxriy pretor lavozimini berdi. Pompeyning tarafdorlari bo‘lgan taniqli senatorlarni Sezar mo‘l-ko‘l sovg‘alar bilan taqdirladi. Ular provinsiyalarga yuqori davlat lavozimlariga saylandilar, Sezardan yer-mulklarni hadyaga oldilar. Sezar turli ijtimoiy guruhlardan tayanch topishga urinib, ijtimoiy sohada turli islohotlarni o‘tkazdi.

Sezar davridan oltin tanga muntazam zarb qilina boshlandi. Denariy butun davlat uchun yagona tangaga aylandi. Sezar konsulligi vaqtida (mil. avv. 59-yil) provinsiyalarda poraxo‘rlikka qarshi qo‘nun qabul qildi. Davlatdan tekin non va boshqa mahsulotlar oladigan Rim kambag‘al fuqarolari sonini 320 mingdan 150 mingga kamaytirdi. Shaharlarga mahalliy muammolarni yechish uchun avtonomiya huquqini berdi. Soliq tizimi tartibga solindi, soliq yig‘uvchi – publikanlar faoliyati ustidan nazorat o‘rnatildi. Shaharlar boshqaruvi va obodonchiligi bo‘yicha minitsipial qonunni qabul qildi. Dehqonchilikni rivojlantirish uchun botqoqlarni quritish, yo‘llarni qurish loyihalarini Sezarning o‘zi ishlab chiqdi va qisman amalga oshirdi. Rim kalendarida yil hisobi Rim shahri paydo bo‘lgan afsonaviy 753-yildan boshlanar edi. Sezar kalendar islohotini o‘tkazdi. Misrlik matematik va astronom Sozigen tomonidan mil. avv. 45-yil 1-yanvardan yangi vaqt hisobi kiritildi. Laganbardorlarning taklifi bilan Rim kalendarida yettinchi oy kvintiliyga Sezar nomi berilib, iyul deb ataldi.

Sezar Parfiyaga qarshi yurishga tayyorlana boshladi. Rim nobillari orasida Sezarning dushmanlari ko‘p edi. Ular eski tartib-qoidalar va an’analarning buzilishi, davlat lavozimlaridan o‘zlarining chetlash-

tirilganlardan norozi edilar. Rimda fuqarolar erkinligi va ozodligi ustivor qadriyat edi. Shu sababli Sezar nobillar va boshqa zodagonlar, Rim plebsi va Italiya shaharlari aholisi manfaatlarini himoya qiladigan qonunlar qabul qilib, amalga tatbiq etgan bo‘lsa-da Sezarning yakka hukmronlikka intilishi hech kimga yoqmas edi. Shu sababli Sezarga qarshi fitna uyushtirib, bu fitnada 60 dan ko‘p senator ishtirok etdi. Fitna qatnashchilari tiraniyaga qarshi kurash va boshqarishning jamoaviy ko‘rinishini qayta tiklash shiori ostida harakat qildilar. Fitna boshida Gay Kassiy Longin, Mark Yuniy Brut va Detsim Yuniy Brut turdi.

Sezar mil. avv. 44-yil 15-martida senat majlisida Brut va Kassiy boshchiligidagi fitnachilar tomonidan o‘ldirildi. G. Svetoniy Sezarning o‘ldirilishi to‘g‘risida shunday hikoya qiladi: «U o‘rniga o‘tirdi, fitnachilar go‘yoki olqishlash uchun uni o‘rab oldilar. Shu zahoti birinchi rolni o‘ziga olgan Tilliy Simbr go‘yoki iltimos bilan unga yaqin keldi va Sezar uning iltimosini qabul qilmay kutib turishga ishora qildi. Simbr Sezarning tog‘asini tirsagidan balandda ushlab oldi. Sezar «Bu endi zo‘ravonlik» deb qichqirdi. Shunda orqada turgan Kaska unga tomog‘idan pastga xanjar bilan jarohat yetkazdi. Sezar Kaskani qo‘lidan ushlab, uni grifel bilan uradi, sakrab turishga urinadi, lekin ikkinchi zarba uni to‘xtatib qoladi. Qachonki barcha tomondan unga yalang‘ochlangan xanjarlar yo‘naltirilganini ko‘rganidan so‘ng u boshiga togani tashladi va barmog‘igacha o‘ralgan holda obro‘yini saqlab yiqilish uchun chap qo‘li bilan uning etaklarini tizzasidan pastga tushirdi. U yigirma uchta jarohat oldi, faqat birinchisida hatto qichqirmadi ham, faqat ingradi, ba’zilarning aytishicha, unga tashlangan Mark Brutga «sen ham mening o‘g‘lim?» deb xitob qildi. U 23 joyidan yaralandi, faqat bittasi o‘limiga sabab bo‘ldi. Vahimaga tushgan senatorlar qochib ketdilar,

fitnachilar yashirindilar. Bir muncha vaqt o‘tgach, Sezarning qullari qonga belangan murdani uning uyiga olib ketdilar».

Sezar 56 yil umr ko‘rdi. Sezar shuhratparast, g‘ayratli kishi edi. U bir vaqtning o‘zida suhbatdoshni eshitish, o‘qish va xat yozdirish qobiliyatiga ega edi. Sezar hashamat va nafislik shaydosi, haykallar, rasmlar va hashamatli villalar uchun katta miqdorda pul sarflar edi. Axloqan buzuq, shafqatsiz va makkor bo‘lib, odamlarga munosabati siyosiy manfaat asosida qurilgan edi. U jismonan zaif bo‘lib, tutqanoq kasali bor edi. Sezar 5 marta uylandi. Tepakal bo‘lgani uchun boshiga gulchambar kiyib yurdi.

5.II triumvirat. Respublikaning qulashi. Sezarni o‘ldirib, fitnachilar o‘zlarini yo‘qotib qo‘ydilar. Hech qanday rejaga ega bo‘lmagan fitnaning faol ishtirokchilari Brut va Kassiy shahardan qochishga majbur bo‘ldilar. Sezarning Rim plebsiga qilgan xayr-saxovati, uyushtirgan ziyofatlari, tekin non tarqatishlari va ko‘ngilochar tomoshalari uchun oddiy fuqarolar unga nisbatan ijobiy munosabatda edilar. Shu sababli fitnachilar Sezarni yomonotliq qilishdan qo‘rqdilar. Sezarning dafn marosimi dabdabali o‘tkazildi.

Sezarning yaqin safdosh do‘stlaridan biri, mil. avv. 44-yildagi konsul Mark Antoniy Rimning amaldagi xo‘jayiniga aylandi. Antoniy Sezarning safdoshi sifatida marhumning uyidan uning arxivi, 100 mln sestersiy miqdoridagi pul mablag‘ini o‘zlashtirib oldi. Antoniy aholining turli guruhlari o‘rtasida o‘z mavqeyini mustahkamlash uchun faol harakat qildi. Senatga yon berdi. Sezarning veteranlariga suyanishni ko‘zlab, ularga qonun bilan yer ulushi berdi. O‘z hokimiyatini kuchaytirish uchun boy Galliya provinsiyasini o‘z ixtiyoriga o‘tkazdi. Dafn marosimi arafasida Sezar vasiyatida o‘zining bosh merosxo‘ri qilib, asrandi o‘g‘li, singlisining 18 yoshli o‘g‘li Gay

Oktavian Furinni belgilagani ma'lum bo'ldi. Yosh Oktavianni Sezarning askarlari, ozod qilingan qullar va yer ulushi olgan fuqarolar olqishlar bilan kutib oldilar. Oktavian oddiy xalqni o'ziga moyil qilish uchun olgan merosi, oilasining barcha mol-mulkini va mablag'larini Sezar o'z vasiyatnomasida Rim xalqiga (har bir fuqaroga 300 sestersiy) vasiyat qilgan mablag'ni to'pladi va plebsga tarqatdi. Bu Oktavianning Rim xalqi oldida yana obro'sini oshirib yubordi. Yosh Oktavianning o'gay otasi Filipp va Sezarning singlisini eri Marsell Sitserondan Rim siyosatiga endigina kirib kelayotgan Oktavianni qo'llab-quvvatlashini iltimos qildilar. Buning evaziga Oktavianning pul va qo'shin bilan Sitseronni himoya qilishiga va'da berdilar. Sitseronning Antoniy bilan ixtilofi ham uni Oktavianni qo'llab-quvvatlashiga sabab bo'ldi. Sitseronning yordamidan minnatdor bo'lgan Oktavian uni o'z otasi deb tan oldi.

Antoniy yosh Oktavianni raqib o'rnida ko'rmay, unga mensimasdan qaradi. Oktavian senat bilan vaqtinchalik ittifoq tuzdi. Mutlaq hokimiyat o'rnatilishidan qo'rqqan Rim senati Sitseron boshchiligida Antoniyga qarshi muxolifatga o'tdi. Eski tartib-qoidalar tarafdori bo'lgan notiq Sitseron yangi tiran Mark Antoniyga qarshi Oktavianni qo'llab-quvvatladi.

Senatning topshirig'i bilan Oktavian Mark Antoniyga qarshi urush boshladi. Mil. avv. 43-yil aprelida Mutina yonidagi jangda Antoniy yengildi. Legionerlar Oktavianga imperator unvonini berdilar. Antoniy esa, respublika dushmani deb e'lon qilindi. Antoniy yengilgach, senat g'alabani bayram qildi. Sitseron boshchiligidagi senat oligarxiyasi Oktavianning o'z mutlaq hokimiyatini o'rnatishiga yo'l bermaslikka urindilar. Oktavianning konsul bo'lishiga qarshi chiqdilar va unga qo'shin qo'mondonligini topshirishga buyruq berdilar. Oktavian esa qo'mondonlikni topshirmadi.

U Antoniyni ta’qib qilmadi. Oktavian iyul oyida 8 legion bilan Rimga yurish qildi va shaharni jangsiz egalladi va Oktavian darhol konsullikka saylandi. Sezarning o‘limi sababchilarining amnistiyasi bekor qilindi. Legionerlar katta mukofot oldilar. Antoniy va Lepidni dushman deb e’lon qilingan qonunlar bekor qilindi.

Oktavian Mark Antoniy va Sezar tarafdorlaridan bo‘lgan Lepid bilan o‘zaro shartnoma tuzdi. Bu ittifoq II triumvirat (Bononi shahri yaqinida mil. avv. 43-yil) nomi bilan ma’lum. Bu ittifoq I triumviratdan farq qilgan holda xalq yig‘inida rasmiy tasdiqlandi.

Triumvirlar kelishuviga binoan Oktavian mil. avv. 41-yil 19-avgustida konsul etib saylandi. Italiyada ittifoqchilar o‘z raqiblarini ta’qib qildilar. G‘oliblar proskripsiya ro‘yxatiga nafaqat o‘zlarining dushmanlari bo‘lgan senatorlarni, balki Rimning katta mol-mulkka ega bo‘lgan boy fuqarolarini ham kiritdilar. Bu proskripsiya Sulla davridagi proskripsiyadan hajmi va shafqatsizligi bilan oshib tushdi. Askarlar ko‘chalarda izg‘ib yurib, uy va qo‘rg‘onlarga bostirib kirib, eski tartib-qoidalar tarafdorlarini o‘ldirdilar. E’lon qilingan proskripsiya natijasida 300 senator, 2 ming suvoriy va ko‘pgina oddiy fuqarolar halok bo‘ldi. Antoniyning qat’iy talabi bilan mashhur notiq va siyosiy arbob Sitseronga ayblov e’lon qilinib, mil. avv. 43-yil 7-dekabrda o‘limga hukm qilindi. Sitseron qochishga urindi, lekin yo‘lda tutib olinib qatl etildi. Sitseronning chopilgan boshi va qo‘li u nutq so‘zlagan Rim forumiga qo‘yildi (Sitseronning boshi dastlab Antoniyning ovqatlanadigan stoliga qo‘yildi. Antoniyning rafiqasi Fulviya notiqning tilini to‘g‘nog‘ich bilan teshgan edi).

Sekst Pompey Sitsiliya, Korsika va Sardiniyada o‘rnashib, kuchli armiya va flot bilan Italiyani blokada qilib, Rimni oziq-ovqat bilan ta’minlanishiga va dengiz savdosiga katta zarar yetkazdi. Mil. avv. 42-yil boshlarida Respublika tarafdori Brut Make-

doniya, Kichik Osiyo va Suriyani o‘z nazorati ostiga oldi. U Italiyaga yurishga tayyorlanayotgan edi. Mil. avv. 42-yil yozi va kuzida Antoniy va Oktavianning 20 legioni Makedoniyada Brut armiyasiga qarshi urush olib bordi. Oktabr oyida Brut armiyasi Filipp yonida mag‘lubiyatga uchradi, Brut va Kassiy halok bo‘ldi.Triumvirlar boshqarish uchun hududlarni qaytadan taqsimladilar: Antoniyga sharqiy provinsiyalar, Afrika va Galliya, Oktavianga g‘arbiy provinsiyalar berildi.

Antoniy sharqiy provinsiyalarni boshqarib, Kichik Osiyodagi Tars shahrida turib, qaram davlat va hududlardan soliq yig‘ishga kirishdi. Misr hukmdori malika Kleopatrani o‘z huzuriga kelishga buyruq berdi. Kleopatra katta sovg‘a-salomlar, ko‘p sonli a’yonlari bilan Antoniy huzuriga keldi. O‘ziga xos chiroyga ega bo‘lgan malika Antoniyni o‘ziga maftun qildi. Oqibatda Antoniy malika Kleopatraga uylanib, Misrda uning saroyida hashamatli hayot kechirdi. Oktavian mil. avv. 41-yil bahorida veteran legionerlarga yer ulushini taqsimlashga kirishdi. Buning uchun yerlarni eski egalaridan tortib olish kerak edi. Bundan tashqari veteranlarga va’da qilingan mukofot to‘lovlari uchun Italiyaning ko‘pgina shaharlarini favqulodda soliqlarga tortish kerak edi. Natijada hokimiyat amaldorlarining o‘z mansabini suiiste’mol qilishi Oktavian siyosatiga qarshi norozilik tug‘dirdi. Shaharlarning noroziligidan Antoniy tarafdorlari foydalanishga urindilar. Bu harakatga Antoniyning ukasi va rafiqasi Ful’viya boshchilik qildilar. Harakatning markazi Etruriyadagi Peruziya shahri bo‘ldi. Isyonchilar shaharlarni Oktavianga qarshi ommaviy chiqishini uyushtira olmadilar. Oktavian mil. avv. 40-yilda Peruziyani qamal qilib, shahar aholisidan shafqatsiz o‘ch oldi, shahar legionerlarga talashga berildi. Oktavian Antoniyning Galliyadagi legionlarini

o‘ziga og‘dirib oldi, oqibatda bunga javoban Antoniy Italiyaga qo‘shin tortdi. Har ikki tomon armiyasidagi veteranlar bir-birlari bilan urushishni istamay Oktavianni Antoniy bilan murosaga kelishga majbur qildilar. Natijada Brundiziyda triumvirlar Lepid, Oktavian va Antoniy o‘rtasida provinsiyalar yangidan taqsimlandi: Oktavianga G‘arbiy provinsiyalar Illiriya bilan birga berildi, Antoniy sharqdagi provinsiyalarga ega bo‘ldi, Lepidga Afrika berildi. Triumvirlar Italiyani dengiz qamalida ushlab turgan Sekst Pompey bilan mil. avv. 39-yilda shartnoma tuzdilar. Shartnomaga ko‘ra S. Pompeyning hokimiyati tan olindi, o‘zi pontifiklar kollegiyasi tarkibiga kiritildi. Otasi Pompeyning musodara etilgan mulklari uchun 70 million kompensatsiya oldi (Lekin Oktavian va Antoniy keyinchalik birlashib, Sekst Pompeyga qarshi urush harakatlarini olib bordilar. Mil. avv. 36-yilda Sekst Pompey armiyasi yengildi. Sekst Kichik Osiyoga ketishga majbur bo‘ldi, lekin mil. avv. 35-yilda ushlab olinib o‘ldirildi). Shartnoma sulolaviy nikoh bilan mustahkamlandi. Antoniy Oktavianning yaqinda beva qolgan singlisi Oktaviyaga uylandi.

Mil. avv. 36-yilda Antoniy Parfiyaga yurish boshladi, lekin bu yurish natijasiz tugadi. Antoniy mil. avv. 34-yilda Armanistonga yurish qilib, arman podshohini xoinlikda ayblab qatl qildi. Shundan so‘ng Misr hukmdori malika Kleopatra podshohlar podshohi deb e’lon qilindi. Antoniy va Kleopatra ma’lum bir siyosiy maqsadlarni ko‘zlagan edilar. Antoniy Misrning katta boyliklari Parfiyaga qarshi urushda g‘alabani ta’minlaydi, deb hisobladi. Kleopatra Antoniydan foydalanib, Ptolemeylar podshohligi hududini mil. avv. III asr boshlaridagi chegaralarda tiklashni reja qildi. Kleopatraning o‘g‘illari mustaqil hisoblangan yoki Rim provinsiyalari tarkibiga kirgan podshohliklarni Antoniydan sovg‘aga oldilar.

Rimda Antoniy to‘g‘risida turli mish-mishlar, g‘iybatlar tarqaldi. Rim senati Antoniyning faoliyatini Rimning manfaatlariga zid hisobladi. Oktavian rimliklarning Antoniyga nisbatan bu dushmanlik kayfiyatini yanada kuchaytirishga harakat qildi.

Oktavian Rimda Antoniyga qarshi urushga tayyorlanib, zimdan kuch to‘play boshladi. Tez orada triumvirlardan biri Lepid Sitsiliyada hokimiyatni qo‘lga olishga urindi, lekin uning legionlari Oktavian tomoniga o‘tib ketdi. Lepid oliy pontifik lavozimiga ega bo‘lgani uchun Oktavian uning hayotini saqlab qoldi. Shundan so‘ng Lepid siyosatdan chetlashib, 77 yoshida mil. avv. 12-yilda vafot etdi.

Antoniy tarafdorlaridan tozalangan senat uni «respublika dushmani» deb e’lon qildi. Mil. avv. 32-yilda Rim senati Misrga qarshi urush e’lon qildi. Oktavian 250 jangovar kema, 80 ming legionerlardan iborat quruqlikdagi qo‘shinga, Antoniy esa, 100 ming piyoda askar, 12 ming otliq va 500 kemaga ega edi. Mil. avv. 31-yil 2-sentabrda Epir qirg‘og‘idagi Aksiy burni yonida dengiz jangi bo‘lib, bu jangda Antoniy floti yengildi. Mil. avv. 30-yilda Oktavian Suriya va Misrga yurish qildi va hech qanday qarshiliksiz Iskandariya shahrini egalladi.

Jangda yengilib, hokimiyatdan ajralgan, umudsizlikka tushgan Antoniy o‘zini qilichga tashlab o‘ldirdi. Kleopatra esa, o‘lim to‘shagiga yotgan Antoniyga o‘z joniga qasd qilib, uning orqasidan borishni va’da qildi. Lekin Kleopatra Misrni mustaqil davlat sifatida saqlab qolish uchun Oktavian bilan murosaga kelishga umid qildi. Lekin g‘olib Oktavian uni kishanlab, Rimga olib borish niyati borligini bilib qolgan mustaqil Misrning so‘nggi hukmdori bo‘lgan mag‘rur malika Kleopatra qullikdan ko‘ra o‘limni afzal ko‘rdi. Aytishlaricha, malika o‘zini zaharli ilonlarga chaqtirib o‘ldiradi. Oktavianning buyrug‘i bilan Sezar va Kle-

opatraning o‘g‘li Sezarion hamda Antoniyning Fulviyadan bo‘lgan katta o‘g‘li Antull o‘limga hukm qilindi. Antoniyning qolgan 9 bolasini uning sobiq xotini Oktaviya (Oktavianning singlisi) o‘z tarbiyasiga oldi. Misr mustaqil davlat sifatida tugatilib, Rim provinsiyasiga aylantirildi. Sezarning asrandi o‘g‘li Oktavianning Rim davlatiga uzoq hukmronlik yillari boshlandi (mil. avv. 30-yildan milodiy 14-yiligacha). Oktavian davridan Rim tarixida yangi imperiya davri boshlandi. Bu davrda davlat boshqaruvining yangi ko‘rinishi – mutlaq monarxiya asta-sekin respublika davlat tuzumini o‘zgartirdi.

RIM DAVLATI VA JAMIYATI ILK IMPERIYA DAVRIDA

«O‘g‘irlash, o‘ldirish, talash – ularning yolg‘onchi tillari bilan aytganda boshqarish deb ataladi, qachonki barchasini sahroga aylantirishganda buni tinchlik deb aytadilar…»

(Хрестомания по истории древнего мира, стр. 257)

1. Oktavian prinsipati.
2. Rim imperiyasi milodiy I asrda.
3. Senat, xalq yig‘ini. Magistratura.
4. Imperator davlat apparatining shakllanishi.

1. Oktavian prinsipati. Aksiy yonidagi g‘alaba natijasida 33 yoshli Oktavian (mil. avv. 30-yildan milodiy14-yilgacha) ulkan davlatning yagona hukmdoriga aylandi. Ko‘p yillik fuqarolik urushlaridan so‘ng, nihoyat Rimda tinchlik o‘rnatildi. Oktavianning eng faol raqiblari fuqarolar urushlarida halok bo‘ldi. Sezarga qarshi guruhlarning tirik qolgan vakillari siyosiy jihatdan zaif va bo‘linib ketgan edi. Ular o‘z

mavqelarini saqlab qolish uchun Rimning mutlaq hokimiga aylangan Oktavian bilan har qanday murosaga kelishga tayyor edilar. Oktavian Yu.Sezarning fojiali nihoyasidan xulosa chiqarib, diktator va umrbod senzorlikdan voz kechdi. Hech kim Oktavianni podshohlik hokimiyatiga intilishda ayblamasligi uchun hushomadgo‘y senat taklif qilgan Romul nomi va dominus (janob) unvonini ham rad qildi.

Rim tarixining boshlanishida «imperiy» (imperiya) tushunchasi ostida oliy fuqarolik (qonunchilik, ijroiya, sud) hokimiyatini, harbiy va ma’naviy hokimiyatni Rim shahri jamoasi boshlig‘i bo‘lgan bir kishi qo‘lida to‘planishi ma’nosi yotar edi. Respublika davrida imperiyning 3 ko‘rinishi: katta, kichik, to‘la korinishlari mavjud edi. To‘la imperiyga diktator ega edi, katta, kichik imperiylarga xalq yig‘inida saylangan oliy magistratlar ega edilar. Imperiyning oliy egasi xalq – bu huquqni xalq yig‘inida saylanib, davlat boshqaruvi oliy hokimiyatiga ega bo‘lgan kishilarga vaqtinchalik berdi. Bu tushunchaga oliy davlat hokimiyati va urush vaqtida oliy bosh qo‘mondonlik ham kirar edi. Konsullar ham katta imperiyga ega edilar.

Mil. avv. 23-yilda Oktavian imperium majus hokimiyatini oldi, bu hokimiyat barcha provinsiylarga ham tarqalar edi. Rim respublikasida oliy magistrat (konsul, pretor, propretor, prokonsul)lar to‘laqonli hokimiyat – imperiyga ega edilar. Oktavian ana shu hokimiyatga ega bo‘ldi. Oktaviangacha imperator unvoni – lege kuriato de imperio jang maydonida lashkarboshiga imperium – ya’ni harbiy va sud hokimiyati berilgan. Bundan tashqari bu unvon askarlar jangda qozonilgan g‘alabani ta’minlagani uchun o‘z lashkarboshilariga beradigan unvon edi. Bu unvonga ega bo‘lgan lashkarboshi senatning ruxsati bilan dushman ustidan jangdagi g‘alabasini bayram qilishi – triumf – zafar yurishi o‘tkazish imtiyoziga ega

edi. Triumf – bu katta jangda g‘olib bo‘lgan lashkarboshini Rim shahriga tantanali kirishi edi. Triumfni o‘tkazishga ruxsat berish to‘g‘risidagi qarorni senat chiqargan. Triumfator shaharga harbiy hokimiyatga egalik vakolati bilan kirib, triumfator Kapitoliydagi Yupiter ibodatxonasida triumf yurishi tugashi bilan harbiy hokimiyatini o‘zidan soqit qilar edi.Rim qonuniga ko‘ra Rim shahriga harbiy hokimiyatga ega kishilarning kirishi man etilgan edi. Oktaviandan boshlab imperator deb oliy bosh qo‘mondonni emas, davlat boshlig‘i aytila boshlandi. Imperiy (oliy hokimiyat) so‘zidan imperiya, Rim imperiyasi tushunchalari kelib chiqdi. Bu davrda Rim xalqi uchun imperiy tushunchasi Rimning oliy hokimiyatini bosib olingan barcha hududlarda tarqalishi va amal qilishi tushunildi. Bosib olingan necha o‘nlab xalqlar va etnoslar yashaydigan katta hududlarga o‘z oliy hokimiyatini tarqatgan Rim davlatining nomini sinonimi sifatida Rim imperiyasi nomi qo‘llanildi. Hozir tarixiy adabiyotda tarqalgan «imperiya» so‘zi ana shu so‘zdan kelib chiqdi. Jahon tarixida eng yangi davr arafasida katta mustamlakalarga ega bo‘lgan Angliya davlati inglizlar tomonidan – Buyuk Britaniya imperiyasi deb aytila boshlandi.

Respublika an’analarini rasmiy saqlab qolgan holda Oktavian asta-sekin harbiy va siyosiy hokimiyatni o‘z qo‘lida to‘pladi. Oktavian mil. avv. 29-yilda senatdan qo‘shin qo‘mondoni, ichki va tashqi siyosat sohalarida oliy hokimiyatda egalikni bildiradigan imperator unvonini umrbod oldi. Senat mil. avv. 24-yilda rasmiy holda Oktavianni mavjud qonunchilikdan ustun qo‘ydi. Mil. avv. 19-yilda konsullik hokimiyati, mil. avv. 12-yilda buyuk pontifik lavozimiga ega bo‘ldi. 2 marta konsul, 3 marta senzor lavozimlarini egalladi, qonunlar va axloq vasiysi etib tayinlandi va «vatan otasi» unvoniga sazovor bo‘ldi. Vaqt o‘tishi

bilan Oktavian qabul qilgan qarorlar senatning qarorlari bilan tenglashtirildi, u oliy sud instansiyasiga aylandi. Senat a'zolarining yangi ro'yxatida Oktavianning nomi birinchi turar edi. Ana shundan uning prinseps senatus («birinchi» – lotin tilidan to'g'ridan-to'g'ri tarjimasi) unvoni kelib chiqdi. Respublika Rimida prinseps unvoni senatorlar ro'yxatidagi birinchi o'rinda turgan eng hurmatli va eng keksa senatorga nisbatan aytilar edi. Bu unvon faxriy bo'lib, konsullarning so'roviga ko'ra prinsepsga o'z fikrini birinchi bo'lib bildirish huquqidan boshqa hech qanday alohida vakolatlar bermas edi. Rimning O'rtayer dengizi havzasida yetakchilik uchun kurashi davrida ichki va tashqi siyosatga o'z faol harakati bilan katta ta'sir o'tkazgan obro'li kishilar prinseps deb ulug'landi (Kvint Fabiy Maksim, Sitsipion Katta va boshqalar). Sulla diktaturasidan so'ng, prinseps deb ulug'langan kishilar o'z mavqelarini yo'qotdilar. Oktavian senatorlar ro'yxatida o'zini birinchi qo'yib, go'yoki senat prinsepsining ilgarigi mavqeyini qayta tikladi. Bu unvon Oktavianga o'z fikrini birinchi bo'lib bildirish va senatning qaroriga ta'sir o'tkazishga imkon yaratdi. Endilikda davlat boshqaruvida birinchi bo'lgan shaxs nomiga prinseps so'zi qo'shib aytildi.

Oktavian mil. avv. 30-yildan hokimiyatning asosiy ko'rinishi bo'lgan xalq tribuni vakolatlariga ham umrbod ega bo'ldi. Oktavian oliy harbiy hokimiyatga egaligi, umrbod konsul, xalq tribuni bo'lganligi uchun «veto» (taqiq) huquqidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Senat mil. avv. 27-yil 16-yanvarda Oktavianga Avgust («Xudolar ulug'lagan») unvonini berdi. Ilgari bu ibora ibodatxona va ziyoratgohlarga nisbatan aytilgan. Oktavian «Imperator Sezar Avgust ilohiylik o'g'li» (Imperator caesar Augustas, divi filius) deb atala boshlandi. Avgust unvoni Oktavianning hokimiyati

muqaddas ekanligini ta’kidladi. Oktaviandan keyin barcha Rim imperatorlari nomlariga avgust unvonini qo‘shib aytish an’anaga aylandi. Oktaviandan keyin Rim imperatorlarining volida, rafiqa va qizlari nomiga ham avgusta so‘zi qoshib ulug‘lanadigan bo‘ldi. Sezar tomonidan isloh qilingan, lekin keyin loqaydlik oqibatida buzilgan kalendarni tartibga keltirdi, shu bilan birga sekstiliy oyini birinchi konsul bo‘lgan oyi va g‘alabalari sharafiga o‘z nomi bilan atadi (oktabr oyi). Rim shahrini okrug va kvartallarga bo‘ldi. Okruglar qur’a tashlash yo‘li bilan bir yil muddatga tayinlanadigan mansabdor tomonidan, kvartal shahar aholisidan saylanadigan oqsoqollar tomonidan boshqariladigan bo‘ldi. Yong‘inlardan himoya uchun postlar qo‘yib, tungi qo‘riqchilikni tashkil etdi. Toshqinlarni oldini olish uchun ko‘p yillar davomida loyqa, axlatlar bilan to‘lib qolgan Tibr daryosini tozaladi. Shaharga kirishni osonlashtirish uchun shaharga kiradigan yo‘llarni ta’mirladi.

Oktavian harbiy qobilyatga ega bo‘lmay, kasalmand kishi bo‘lsa-da, 44 yil hukmronlik qildi. Oktavianning hokimiyatini uzoq davom etishining sababi u eng avvalo diplomat edi. U hokimiyat uchun kurashayotgan turli guruhlar o‘rtasida turib, murosa qilish siyosatini olib bordi. O‘z hokimiyatini mustahkamlash uchun har qanday vositani ishga soldi. O‘ziga foydali bo‘lgan kishilarni atrofiga to‘pladi. Oktavian muzokaralar olib borishga juda usta bo‘lib, senat bilan hokimiyatni bo‘lishdi. Provinsiyalar imperator va senat o‘rtasida taqsimlandi. Boy va strategik jihatdan muhim bo‘lgan provinsiyalar imperatorning bevosita nazorati ostida bo‘lib, legatlar tomonidan boshqarilar edi. Senat ixtiyoridagi provinsiyalar ham amalda imperator hokimiyati nazorati ostida edi. Rimni g‘alla bilan ta’minlaydigan boy Misr provinsiyasi imperatorning shaxsiy mulki hisoblanar edi.

Ilk respublika davrida podshoh yoki konsullar o‘zlari Rim shahrida bo‘lmagan paytlarida boshqaruvni olib borish uchun o‘z o‘rinlariga shahar prefektini tayinlar edilar. Oktavian prefekt lavozimini qayta tiklab, bu lavozimga senatorlar toifasidan bo‘lgan kishini tayinladi. Oktavian davridan Misr va boshqa provinsiyalarni boshqarish uchun prefektlar tayinlandi. Oktavian uzoq tanaffusdan keyin senzorlarni tayinladi, pretorlar sonini ko‘paytirdi.

Oktavian hokimiyatining moddiy asosini unga shaxsan qaram bo‘lgan provinsiyalardan keladigan daromadlar va davlat xazinasi (erariy) bilan yonma-yon ta’sis etilgan prinseps xazinasi (fisk) tashkil qildi. Uning davrida respublika muassasalari – senat, konsul va kvestor lavozimlari saqlanib qolib, barcha mansabdor shaxslar cheklangan muddatga saylanar edi. O‘zining hokimiyati uchun tahdid tug‘diradigan katta yer egalari va zodagonlarning ijtimoiy ahvolini turli tadbirlar bilan mustahkamlab, ularning ko‘nglini oldi. Oktavian hokimiyatini tadbirkorlik – moliya ishlari bilan shug‘ullanadigan suvoriylar tabaqasi ham qo‘llab-quvvatladi. Prinseps bu tabaqaga muhim imtiyozlarni berdi. Suvoriylar uchun 400 000 sestersiy (sestersiy – Rim kumush tangasi, 1 sestersiy 4 asosga teng) mulk senzi belgilanib, eski respublika an’analari bilan bog‘lanmagan bu qatlam tarkibiga boylik orttirgan mulkdorlar kiritildi. Ba’zi bir yuqori mansablar suvoriylarga berildi. Oktavian shaharning quyi qatlamlarini ham o‘z tomoniga og‘dirib olish uchun ularga muntazam tekin non, arzon narxlarda go‘sht-yog‘ tarqatib, tomoshalar uyushtirdi. O‘sha davrda Rimda yashagan mln aholidan kamida 200000 kishi davlatdan bepul non olar edi.

Oktavian hokimiyatining harbiy tayanchi qo‘shin edi. Oktavian davrida muntazam yollanma qo‘shinga o‘tish tugallandi, uning hukmronligi yillarida Rim ar-

miyasi 25 legiondan tashkil topib, umumiy soni 250 ming kishini tashkil etdi. Qo‘shinning barcha sarkardalari shaxsan imperatorga bo‘ysundirildi. Legionni propretor unvoniga ega bo‘lgan legat boshqardi. Oliy qo‘mondonlik tarkibiga harbiy tribunlar kirdi. Tribun va legatlar senatorlar toifasidan, yordamchi qo‘shin sarkardasi bo‘lgan qo‘shin ta’minoti bilan shug‘ullanadigan prefektlar suvoriylar toifasidan edi. O‘rta sarkardalar tarkibiga yaxshi xizmat qilgan legionerlar orasidan chiqqan senturionlar kirar edi. Har bir harbiyga qayerda xizmat qilishidan qat’iy nazar, bir xil ish haqi va mukofot miqdorini belgiladi, Har bir harbiyga va xizmat muddatiga va iste’foga chiqishiga nafaqa belgiladi. Harbiylarga ish haqi va mukofot uchun mablag‘ doimo tayyor turishi uchun harbiy xazinani joriy etdi. Urushda jasorat ko‘rsatgan sarkardalarni doimo pul mukofoti bilan taqdirladi. Uning davrida 30 dan ortiq sarkarda triumfga sazovor bo‘ldi. Senatorlarning o‘g‘illari harbiy xizmatga kirganda an’anaga ko‘ra ularni faqat legion tribunlari etib tayinlamay, balki otliq qismlar prefektlari lavozimlariga ham tayinladi. Senatorlarning o‘g‘illaridan hech kim harbiy lager hayotidan chetda qolmasligi uchun ularni ikkitadan har bir otliq qismga qo‘ydi.

Rim fuqarosi harbiy xizmatga kirgan vaqtda shaxsan prinsepsga sodiqlik to‘g‘risida qasamyod qiladigan bo‘ldi. Harbiy xizmat 25 yil muddatga belgilandi. Provinsiyalardagi fuqarolar yordamchi qo‘shin tarkibida xizmat qilar edi. Lashkarboshilik qobiliyati bo‘lmagan va urushlar olib borishni yoqtirmagan imperator imperiyaning hududlarini kengaytirishni emas, balki mavjud hududlar chegaralarini mustahkamlashni afzal ko‘rdi.

Milodiy I asr oxirida Oktavianning vorislari davrida Alp tog‘lari va Dunay havzasidagi keng hududlar bosib olindi. Bosib olingan bu hududlarda Pannoniya va

Meziya provinsiyalari tashkil etildi. Imperiyaning shimoldagi chegaralari Reyn va Dunay daryolari orqali o‘tdi. Rimliklarning Reyn va Elba daryolari havzasida o‘rnashib, german provinsiyasini tashkil qilishga urinishlari to‘la mag‘lubiyat bilan tugadi. German qabilalari o‘z vatanlari mustaqilligini saqlab qolishga harakat qildilar. Rimliklar bosib olgan hududlarda rimliklarning zulmiga chek qo‘yish uchun kuchli harakat boshlandi. Germanlarning xerusk qabilalari yo‘lboshchisi Arminiy bu harakatga yo‘lboshchi bo‘ldi. Arminiy Rim armiyasida askar bo‘lib xizmat qilib, Rim fuqaroligi va suvoriylik mavqeyini olgan edi. Arminiy tajribali sarkarda bo‘lib, u germanlarni ozodlik urushiga uzoq tayyorladi. Milodiy 9-yilida Xerusk qabilalari yo‘lboshchisi Arminiy boshchiligida Tevtonburg o‘rmonida Rimning uch legionini to‘la yanchib tashladilar. Bu g‘alaba rimliklarning bosqinchilik harakatlariga chek qo‘ydi. Reyn va Elba daryolari oralig‘ida Rim hukmronligini o‘rnatish rejasi barbod bo‘ldi. Oktavian sharqda urush harakatlarini olib borishga jur’at eta olmadi. Sharqda qudratli Parfiya davlati rimliklarni sharqqa siljishiga yo‘l qo‘ymadi. Parfiya bilan diplomatik aloqalar o‘rnatildi. Mil. avv. 20-yilda parfiyaliklar bilan tinchlik shartnomasi tuzildi. Shartnomaga ko‘ra, Rim qo‘shinlarini mil. avv. 53, 40 va 36-yillardagi mag‘lubiyatlari natijasida bosib olingan asirlar, bayroqlar hamda garovga olingan zodagon rimliklar Rimga qaytarib berildi. Ikki davlat o‘rtasidagi chegara Frot daryosi bo‘yicha belgilandi. Oktavian Kichik Osiyo va Suriyaning sharqida Rimga vassal davlatlarning qaramligini saqlab qoldi.

Rim zulmidan ozod bo‘lish uchun kurashib kelgan Galliya mil. avv. 27-yilda to‘la qaram qilindi va rasman 4 provinsiyaga bo‘lindi: Narbon Galliyasi, Lugdun Galliyasi, Belgika va Akvitaniya. Rim Pireney yarim orolining shimoliy-g‘arbida jangovar astur va

kantabr qabilalarini bo‘ysundirish uchun mil. avv. 28-19-yillarda bosqinchilik urushini olib bordilar. Bu erksevar qabilalar bosqinchilarga qattiq qarshilik ko‘rsatdilar. Lekin urush yuqori jangovar qobiliyatga ega bo‘lgan bosqinchi Rim armiyasning mil. avv. 19-yildagi g‘alabasi bilan tugallandi. Shundan so‘ng Pireney yarim orolida uch provinsiya tashkil qilindi: Tarrakon Ispaniyasi, Luzitaniya va Betika. Rimliklar mil. avv. 25-15-yillarda salass, ret va vindelik qabilalarini bo‘ysundirib, Retsiya provinsiyasini tashkil qildilar. Rimda urush vaqtida ochib qo‘yiladigan Yanus ibodatxonasi eshiklarini bosh kohin sifatida Oktavianning o‘zi tantanali yopdi. Bu Rimda tinchlik davri boshlanganligini bildirar edi. Quruqlik yo‘llaridagi va dengizdagi qaroqchilik tugatildi.

Rimda lashkarboshini qo‘riqlaydigan yuqori harbiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan qism praetorian kogortasi deb atalar edi. Oktavian har biri 1000 kishidan iborat 9 kogorta tashkil etdi. O‘zining oldiga 3 kogortani qoldirdi. Bu 3 kogorta Oktavianning shaxsan o‘ziga bo‘ysunadigan, hayoti uchun mas’ul bo‘lgan shaxsiy qo‘riqchi – pretorian qismi (pretorian gvardiyasi) edi. Pretorian gvardiyasi sarkardasi lavozimi joriy etildi. Bu lavozimga suvoriylar qatlamidan ikki kishi bir vaqtning o‘zida tayinlangan. Pretorian gvardiyasi soni ko‘payib bordi va bu gvardiya keyinchalik Rim siyosiy hayotida muhim o‘rin tutdi. Keyinchalik pretorian gvardiyasi imperatorlarni taxtga chiqarishda yetakchi rol o‘ynadi.

Oktavian Rim shahrida tartib-intizomni saqlash uchun 3 kogortadan tashkil topgan shahar qo‘riqchilar qismini tashkil etdi. Yog‘ochdan qurilgan Rim shahrida tez-tez yong‘in chiqib turar edi. Uning davrida Rimda chiqadigan yong‘inlarni o‘chirish uchun ilk bor o‘to‘chirish qismlari tashkil etildi. Oktavian Rim shahrini qayta qurdi, an’anaviy g‘isht o‘rniga

qurilish xomashyosi sifatida marmarni ishlatdi va shaharni marmardan qurilgan ko‘plab jamoat inshootlari bilan bezadi.

Oktavian qadimgi Rim urf-odat va an’analarini qayta tiklashga harakat qildi. Rim jamiyati va oilasini mustahkamlashga qaratilgan, poraxo‘rlik va hukmron tabaqaning hashamat va isrofgarchiligini cheklashga oid bir qancha qonunlarni qabul qildi. Bu qonunlar fohishabozlik, erga xiyonat va isrofgarchilikni qattiq jazoladi. O‘z qizi Yuliyani va uning nevarasini axloq qoidalarini buzganlari uchun orolga surgun qildi. Yana bir nevarasi Agrippani axloqsizligi uchun umrbod surgunga mahkum etdi. Qizi Yuliyaning surgunda tug‘ilgan farzandini tan olmadi. Rim xalqining o‘z qizi va nevaralariga jazoni yengillatish to‘g‘risidagi iltimoslariga rad javobini berdi. Mil. avv. 18-yilda Oktavian chiqargan qonunga ko‘ra oilaga xiyonatda ayblangan er-xotinlar quvg‘in etilib, ularning mol-mulklarining bir qismi musodara qilinar edi. Lekin Oktavianning o‘zi to‘rt marta uylangan bo‘lib, axloq qoidalariga o‘zi rioya qilmas edi. Oila mustahkamlanib, ko‘p bolali oilalar rag‘batlantirildi. Senator va suvoriylarga ozod qo‘yilgan qullar bilan nikoh tuzish taqiqlandi. Bu vaqtga kelib hukmron tabaqa vakillari ma’lum bir majburiyatlarni yuklaydigan oilaviy hayotdan ko‘ra yengil-yelpi yashashni, bo‘ydoq hayotni afzal ko‘rdilar. Oktavian barcha ijtimoiy toifalar uchun nikoh qoidalari to‘g‘risida qonun chiqardi. Qonunga ko‘ra endi senator va suvoriylar toifasi oila qurishga majbur edilar. Qullarni ozodlikka chiqarish cheklandi. Vasiyat bo‘yicha ozod qilinadigan qullar soni kamaytirildi. Boshqa bir qonunga ko‘ra, xo‘jayin qul tomonidan o‘ldirilgan taqdirda shu vaqtda uyda bo‘lgan barcha qullar o‘lim jazosiga hukm qilinar edi.

Oktavian qadimgi Rim diniy an’analarini tiklashga harakat qildi. Buzilgan ibodatxonalar qayta tikladi va

ularga katta hadyalar berdi. Kapitoliydagi Yupiter ziyoratgohiga o‘n olti ming funt oltin va 50 million sestersiy qiymatiga ega bo‘lgan marvarid va qimmatbaho toshlarni tortiq qildi. Shu bilan birga, sharqdan kirib kelgan yangi xudo va ma’budalarni ta’qib ostiga oldi. Rimda magiya va astrologiya taqiqlanib, bu kasb egalari quvg‘in qilindi. Oktavian oshiq o‘yini ishqibozi, korinf vazalari va hashamatli ashyolarga o‘ch edi.

Milodiy I asr oxirida yashagan rimlik yozuvchi Gay Trankvill Svetoniy yozuvchi imperator Klavdiyning devonxonasida ishladi. Svetoniy Rimning birinchi 12 imperatori hayot faoliyati to‘g‘risida «O‘n ikki sezar hayoti tasviri» nomli asar yozdi. Asar Yuliy Sezar va Oktavian tarjimayi hollaridan boshlanadi. Yozuvchi bu asarida Oktavianning tashqi ko‘rinishi va xarakteri tasvirini shunday beradi: U ko‘rinishdan chiroyli bo‘lib, har qanday yoshda o‘ziga tortar, hech qachon o‘zini bezamas edi. U o‘z sochlariga nisbatan kam g‘amxo‘rlik qildi, tezlik sababli bir necha sartaroshlarga sochini tarash uchun imkon berar edi. Uning yuzi har doim tinch va ochiq edi.

Dastlab u Rim forumi yaqinida, keyin esa Palatinda yashadi, bu uy kamtarin edi. O‘zining kattaligi, bezalishi bilan ko‘zga tashlanmas edi – xonalarda marmar ham, parket pollar ham yo‘q edi. U 40-yildan ko‘proq bir yotoqxonada qishda ham, yozda ham uxladi. Lekin bu vaqtda shahar uning sog‘lig‘i uchun zararli ekanligiga ishonch hosil qilsa ham qishni u hamma vaqt Rimda o‘tkazdi. Agar u maxfiy yoki hech kim xalaqit bermasligi uchun shug‘ullanishni istasa, alohida yuqori xonacha bor edi, qaysiki u bu xonani o‘zining «ustaxonachasi» deb atadi. U katta va hashamatli uylarni yoqtirmas edi va qizini hatto juda katta pul turgan saroyini asosigacha buzishni buyurdi. Juda kamtarona bo‘lgan shaxsiy yozgi uylarini u

haykallar va suratlar bilan bezamadi. Terrasa (ayvon) va xiyobonlar bilan bezadi va u yerda qadimgi va juda nodir buyumlarni to‘pladi... Aytishlaricha, u past va qattiq to‘shalgan to‘shakda uxlar edi. Kiyimni faqat xonaki tayyorlanganini kiydi, xotini, singlisi, qizi yoki nevara qizlari ishlov bergan kiyimlarni kiydi, ularni na tor, na keng bo‘lmaganini kiydi. Baland ko‘rinish uchun oyoq kiyimiga qalin poshna qo‘ydirdi.

Ziyofatlarni muntazam bermadi, dasturxonga u boshqalardan keyin kelib, boshqalardan oldin ketdi, shuning uchun u kelguncha mehmonlar ovqat yeyishni boshlar edilar. U ketganidan keyin ham dasturxon atrofida qolar edilar. Dasturxonga 3 taom, eng ko‘p 6 taom berilar edi, ularning barchasi oddiy, lekin ulug‘vor quvonch bilan taklif qilinar edi. Kim jim o‘tirsa yoki sekin suhbatlashsa, ularni umumiy suhbatga chaqirar edi, ko‘ngil ochish uchun musiqachilar, aktyorlar va hatto daydi raqqoslar, ko‘proq ertak aytuvchilarni chorlar edi.

U bayramlar va tantanalarni juda katta hasham bilan, ba’zida kulgi bilan o‘tkazar edi. Ovqatga kelganda esa, u juda kam va oddiy ovqatlanar edi. Dag‘al nonni, mayda baliq, nam pishloq, ko‘k anjirni yaxshi ko‘rar edi, vinoni juda kam ichar edi, ochligida faqat sovuq suvda ivitilgan non yoki bodring bo‘lagi, yoki vino mazasini beradigan quruq olmalar, yoki yangi olma yer edi (Н. Н. Трухина. История древнего Рима. – М., 1996. 189-191 стр.). Oktavian milodiy 14-yilida Nola shahrida 76 yoshda vafot etdi. Svetoniyning yozishicha, o‘limidan oldin Oktavian o‘z do‘stlaridan u hayot komediyasida o‘z rolini yaxshi o‘ynagan yoki o‘ynamaganini so‘ragan. Oktavian hashamat va dabdaba bilan dafn etildi va senat qarori bilan ilohiy deb tan olindi.

2. Rim imperiyasi milodiy I asrda. Milodiy 14-yilida Avgust o‘limidan so‘ng, uning merosxo‘rlari Ti-

beriy Klavdiy Neron (14 – 37-yillar), Gay Sezar Kaligula (37 – 41-yillar) va Klavdiy Neron Germanik (41 – 54-yillar)lar imperatorlik taxtini egalladilar. Lekin bu hukmdorlarning hukmronligini so‘nggi yillarida siyosiy raqiblar bilan qonli kurash prinsepslarning o‘limi bilan tugallandi. Aqlsiz Kaligula fitna qurboni bo‘ldi, shafqatsiz Neron o‘z joniga qasd qildi.

Tiberiy Klavdiy Neron (14 – 37-yillar). Oktavianning o‘limidan so‘ng hokimiyatini birinchi xotini Liviyaning birinchi nikohidan bo‘lgan o‘g‘li Tiberiy Klavdiy Neron egalladi. Oktavian shakllantirgan boshqaruv tizimi o‘z samarasini bergani sababli Oktavianning o‘z vorisiga hokimiyatni topshirishiga hech kim qarshilik qilmadi. Tiberiy shijoatli lashkarboshi va qobiliyatli boshqaruvchi edi. Boshda Tiberiy Oktavianning siyosiy yo‘li va qoidalarini davom ettirib, senat bilan to‘la kelishuv asosida davlatni boshqardi. Tiberiy komissiyalardan saylov va sud funksiyalarini olib, senatga berdi. Tiberiy provinsiyalar boshqaruvini yaxshilashga urindi va ularni qo‘llab-quvvatladi, davlatning moliyaviy ahvoli og‘ir bo‘lishiga qaramay provinsiyalarning soliq to‘lovlarini oshirmadi. Provinsiyalar noiblarining suiiste’mollarri va tovlamachiliklariga chek qo‘ydi. Plebsga arzon g‘alla tarqatish saqlanib qoldi. Lekin hashamatli bayram va tomoshalar qisqartirildi.

Tiberiy davlat va jamiyat ma’naviy hayotini sog‘lomlashtirishga harakat qildi. Tiberiy biror bir qo‘shimcha vakolat va unvonlarni qabul qilmadi. Laganbardorlik va xushomadgo‘ylikka, o‘zining oldiga qullarcha bukilishga qarshi turdi. Senat taklif qilgan vatan otasi faxriy unvonini qabul qilmadi va faqat qullarga o‘zini janob deb aytishlariga ruxsat berdi. O‘z imtiyoz va hashamatli hayot kechirish tarzidan voz kechishni istamagan hukmron tabaqa barcha is-

lohotlarga norozilik bildirib, qarshilik ko‘rsatdi. Tiberiy iqtisodiy tejamkorlik siyosatini olib bordi (o‘zidan keyin xazinada 2 mlrd 700 mln sestersiy qoldirdi).

Mamlakatning moliyaviy ahvoli og‘irlashdi. Italiyada asosan natural xo‘jalik u hukmron bo‘lib, eksportdan ko‘ra import yuqori edi. Chegarani qo‘riqlaydigan bir necha legionlar o‘zlarining og‘ir hayotlaridan norozi bo‘lib, qo‘zg‘olon ko‘tardilar. Provinsiyalar va qaram hududlarda Rim zulmiga qarshi kuchli norozilik harakati boshlandi. Galliyada va qaram Frakiya davlatida 21-yilda soliqlarning og‘irligidan qo‘zg‘olon boshlandi. Afrikaning Rimga qaram hududlarda va Numidiyada milodiy 17-yilda Rim zulmiga qarshi ozodlik harakati boshlandi. Rim qo‘shini bu norozilik harakatlarini zo‘rg‘a bostirdi.

Rim huquqida davlat ayblovchilari sud amaliyotida mavjud emas edi, bu vazifani xususiy kishilar o‘z zimmalariga oldilar. Bunday tizim o‘zini ko‘rsatmoqchi bo‘lgan kishilarga qandaydir bir taniqli kishini qonunni buzishda ayblab, unga nisbatan sud ishi qo‘zg‘atish mumkin edi. Agar ayblanuvchi sudda jazoga hukm qilinsa, senat aybdor mulkining 25 foizini ayblovchiga ajratishi mumkin edi. Tiberiy va keyingi imperatorlar Rim huquqining bu o‘ziga xosligidan o‘z raqiblari va taniqli zodagonlarni yo‘q qilish uchun unumli foydalandilar. Provinsiyadan chiqqan shuhratparast yoshlar olomoni hokimiyat, boylikka intilib tuhmat qilish, chaqimchilik va sudda guvohlik berishdan toymadilar. Chaqimchilardan ko‘pchiligi senatga a’zo bo‘ldi va imperator hokimiyatining tayanchiga aylandi. Uch marta konsul bo‘lgan Vibiy Krisp, pretor prefekti Tigellin va taniqli yozuvchi Siliy Italik ko‘p hollarda chaqimchi sifatida chiqdilar. Tit Klodiy Enrill Marsell notiq, konsullikka erishgan chaqimchi edi, Mark Akviliy Regul ham sud notig‘i va chaqimchi edi. U milodiy 67-yilda o‘zining chaqimchiligi bilan

eski zodagonlardan bo‘lgan bir necha taniqli senatorlarni halok qildi. Neron uning bu xizmati uchun kohinlik lavozimi va katta miqdorda pul mukofoti bilan taqdirladi. 70-yilda u senat a’zosi va kvestor bo‘ldi. Mark Akviliy Flaviylar davrida ham chaqimchilik faoliyatini davom ettirdi, va Trayan davrida ham tamagirlik bilan shug‘ullanib boylik orttirdi.

Tarixchi Tatsit Tiberiyga «ikkiyuzlamachi, shafqatsiz, o‘z yaqinlariga ishonchsizlik va gumonsirash bilan qaraydigan shaxs» deb ta’rif beradi. Tiberiy davlat maslahatchisi sifatida Rimning eng obro‘li kishilaridan 20 kishini tanlab oldi. Tiberiyning o‘zi har xil bahonalar bilan ayblashi natijasida bu yigirma maslahatchidan 17 tasi oxir-oqibatda qatl etildilar. O‘zining asrandi o‘g‘li Germanikning ikki farzandini vatan dushmanlari deb e’lon qilib, ularni ochlikka mahkum etib o‘ldirdi. Barchadan gumonsiraydigan Tiberiy o‘z onasi va oila a’zolari, yaqinlaridan gumonsiradi va barchasini o‘limga mahkum etdi. Tiberiy pretorian gvardiyasining prefekti Lutsey Eliy Seyanni o‘ziga yaqinlashtirdi. Shuhratparast Seyan o‘z g‘arazli maqsadlarini ko‘zlab, Tiberiyning o‘g‘li Druzni zaharlab o‘ldirdi. Oqibatda taniqli senatorlar ustidan tergov va ta’qiblar boshlanib, qator senatorlar ustidan jinoyat ishi qo‘zg‘aldi, ularning mol-mulklari musodara qilinib, o‘zlari quvg‘in qilindi. Barchadan gumonsiraydigan Tiberiy o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun 27-yilda Kapri oroliga ko‘chib o‘tdi va umrini oxirigacha (37-yilgacha) shu orolda yashadi va davlatni boshqardi. O‘zining yaqin kishisi Seyanning fitnasi ochilib qoldi, Seyan qatl etildi, uning hamtovoqlari shafqatsiz jazolandi.

Tiberiy badavlat odamlarni har xil bahonalar bilan ayblab, ularning mol-mulkini tortib oldi. Respublika davridan qolgan imtiyozlaridan biri bo‘lgan konlardan, soliq tushumlaridan daromad olish huquqidan

ko‘pgina shaharlar va xususiy kishilar mahrum etildi. Parfiyaning sobiq podshohi Vonon quvg‘in qilingach, Rimdan himoya istab rimliklarga qaram Antioxiyada xazinasi bilan yashab turgan edi. Tiberiy Vononning ulkan xazinasini tortib oldi va o‘zini qatl etdi. Galliya, Ispaniya, Suriya va Yunonistondagi mahalliy hokimlar o‘z mol-mulklarining bir qismini naqd pulda saqlab turganlari bahonasi bilan ayblanib, ularning mol-mulklari tortib olindi.

Axloqan buzuq bo‘lgan Tiberiy behayo bazmlar uyushtirdi, hirsga berildi. Qarib qolgan, kasal Tiberiyni 37-yil mart oyida pretor prefekti Makron bo‘g‘ib o‘ldirdi. Tiberiy 78 yoshda, hukmronligining 23-yilida vafot etdi. Tiberiyning o‘limini eshitgan xalq xursand bo‘ldi. Svetoniyning yozishicha, Tiberiyning o‘limiga sababchi Gay Kaligula bo‘lgan. Gay pretorian gvardiyasi boshlig‘i, imperatorning eng yaqini bo‘lgan Makronning rafiqasi bilan intim aloqaga kirishadi. Gay Kaligula shuhratparast Makronga imperator taxtiga erishgandan so‘ng uning rafiqasiga uylanishga va’da berib tilxat beradi. Makron Gay Kaligulaning maslahati bilan Tiberiyga zahar berib boradi. Jon berayotgan Tiberiyning qo‘lidagi uzugini yechishga buyruq beradi, lekin Tiberiy qarshilik ko‘rsatadi. Shunda Gay uning yuziga yostiqni yopishni buyurib, o‘z qo‘llari bilan bo‘g‘adi; bu yovuzlikni ko‘rib qichqirib yuborgan ozod qo‘yilgan qulni Gay Kaligula shu zahotiyoq xochga torttiradi.

Gay Yuliy Sezar (Kaligula) (**37 – 41-yillar).** Senat Tiberiy o‘z vasiyatida Gay bilan birga taxtga merosxo‘r etib o‘zining balog‘atga yetmagan nevarasini ko‘rsatdi. Lekin Tiberiyning vasiyatiga qarshi senat bir ovozdan Gay Kaligulaga oliy hokimiyatni to‘la topshirdi. Shu tarzda Germanikning 6 o‘g‘lidan uchinchisi bo‘lgan 24 yoshli Gay Yuliy Sezar Kaligula (Kaligula – askar etigi ma’nosini bildiradi. Gay bolaligida Reynda-

gi qo‘shin qarorgohida turganida askarlar kiyadigan etikni kiygani uchun shu laqabni oldi. Kaligula Gayning rasmiy ismi emas. Bu ism bilan Gay hech qaysi manbada tilga olinmaydi. Faqat yangi davrda Kaligula nomi tarixchilar tomonidan ishlatildi) imperatorlik taxtiga chiqdi. Rim xalqi yangi imperatorning taxtga chishini uzoq bayram qildi. To‘liq bo‘lmagan uch oyda 160 ming qoramol so‘yildi.

Milodiy I asrda Rim imperiyasida ikki sulola Yuliylar – Klavdiylar va Flaviylar hokimiyatni boshqardilar. Yuliylar sulolasining uchinchi imperatori Gay Yuliy Sezar edi. Tiberiyning vorisi, Germanikning o‘g‘li 24 yoshli Gay Sezar (Kaligula) (37 – 41-yillar) badjahl, axloqan buzuq, o‘ta mag‘rur va takabbur shaxs edi.

Dastlab Kaligula senat bilan kelishgan holda ichki va tashqi siyosatni olib bordi. Lekin tez orada senat bilan munosabat keskinlashdi. Kaligula o‘ziga Imperator Tiberiydan meros qolgan 2 milliard 700 millon sestersiyni turli bo‘lmag‘ur ishlarga sarflab sovurib yubordi. Misli ko‘rilmagan ziyofatlar yushtirdi. Qaynoq va sovuq xushbo‘y moylarda cho‘mildi, sirkada eritilgan turli qimmatbaho marvaridlarni ichdi, hamtovoqlariga sof oltinda non va taomlarni taqdim etdi. Bir necha kun qatorasiga xalqqa katta miqdorda pul mablag‘larini sochdi. Turli xil keraksiz inshootlarni qurdi.

Aholidan soliqlarni bir qadar kamaytirdi. Bir necha oy ichida u isrofgarchilik bilan Tiberiydan qolgan xazinani turli tomosha, mo‘l-ko‘l sovg‘alar tarqatish bilan talon-taroj qildi. Kaligula o‘zini «Janob» (Dominis) va «Xudo» deb e’lon qilib, omma oldida iloh Yupiter qiyofasidagi kiyimlarda chiqdi. Kaligula o‘ziga xudolarga sig‘ingandek sajda qilishni talab qildi. Senatorlar toifasini ta’qib ostiga oldi. Bo‘shab qolgan xazinani to‘ldirish uchun hukm qilinganlarning mol-mulkini musodara qildi, provinsiyalar katta miqdorda soliqlar to‘ladilar. Kaligula 40-yillar atrofida

Afrikadagi kichik Mavretaniya davlati podshohi Ptolemeyni qatl etdi, Mavretaniya Rim davlati tarkibiga kirdi. Kaligula sharqda Parfiya bilan tinchlik munosabatlarini o‘rnatdi. Germaniyada mudofaa inshootlari – limesni bunyod qildi.

Gay Kaligula «mayli nafratlansinlar, faqat qo‘rqsalar bo‘ldi» qabilida davlatni boshqardi. U o‘ta shafqatsiz bo‘lib, inson hayotini bir pulga olmadi. Tomoshalar uchun saqlanadigan hayvonlarga beriladigan qoramol go‘shti narxi qimmatlashgani uchun bu hayvonlarga ovqat uchun qamoqxonadagi jinoyatchilarni tashlashga amr qildi. Hukmron toifadan bo‘lgan ko‘pgina kishilarni qizigan temir bilan tamg‘aladi, shaxtalarga surgun qildi yoki yirtqich hayvonlar oldiga burdalashga tashladi. Otalarni o‘g‘illarini qatlida qatnashishga amr qildi. Boshqa bir odamning o‘g‘lini qatl etib, uning otasini o‘g‘lini qatlidan keyin dasturxonga taklif qilib va xushmuomalalik bilan hurmatini joyiga qo‘yib, xursandchilik qilishga majbur qildi. Yirtqich hayvonlar oldiga burdalashga tashlangan bir rimlik suvoriyning aybdor emasligi to‘g‘risidagi qichqiriqlari to‘xtamagani uchun uni qaytarib chiqarib, tilini kesib, yana yirtqich hayvonlar oldiga tashladi.

Mavretaniya podshohi Ptolemeyni Rimga taklif etib, izzat-hurmat bilan kutib oldi. Lekin bir kuni Ptolemey gladiatorlar jangiga kelib, olovrang yoping‘ichi bilan hammaning diqqatini o‘ziga tortgani uchun uni qatl ettirdi. Rimda xalqqa osh beriladigan vaqtda qaysidir bir qul dasturxondan kumush buyumni o‘g‘irlagani uchun qulning qo‘lini chopishga va chopilgan qo‘lini bo‘yniga ilib, aybi nima ekanligi yozuvi bilan ovqatlanayotganlarning oldidan o‘tkazishga buyruq berdi. Axloqan nopok Kaligula barcha opa-singillari bilan axloqiy buzuq munosabatda bo‘ldi.

Bu hukmdor ot poygalariga ishqiboz bo‘lib, o‘z otini har qanday shovqin-surondan himoya qildi. Hamma vaqt poyga boshlanishidan oldin askarlarni oti saqlanadigan qo‘ra yonidagi qo‘shni qo‘ralarda shovqin chiqarmay tinchlik saqlash uchun yubordi. Oti uchun marmardan saroy – fil suyagidan yotoqxona qurdi. Hatto sevimli otiga xizmatkorlar, ro‘zg‘or ashyolari ajratdi va bu saroyga otining nomidan mehmonlarni taklif etdi. Aytishlaricha, u yana otini konsul qilish niyatida edi. Bu telba imperatorning hukmronligi uch yil davom etib, 41-yil yanvar oyida unga qarshi pretor tribuni Kassiy Xerey va Korneliy Sabin fitna uyushtirdilar. Bu ikki kishining orqasida ko‘plab senator va zodagonlar turar edi. Kaligula yer osti yo‘lidan o‘tayotganda Xerey orqasidan kelib, qilich bilan uning yelkasini chopdi. Korneliy Sabin uning ko‘kragiga qilich sanchdi. Kaligula yiqildi va qolganlar 30 marta qilich sanchib uni o‘ldirdilar. U bilan birga rafiqasi Sezoniya halok bo‘ldi. Go‘dak qizini devorga urub o‘ldirdilar. Uning jasadini yashirincha bog‘da dafn gulxanida chala yarim yoqdilar. Kaligula 3 yil-u 10 oy 8 kun hukmronlik qildi va 29 yoshida hayotdan ko‘z yumdi.

Tiberiy Klavdiy Neron (41 – 54-yillar). Senator-suvoriylarning an’anaviy elitasining siyosiy tushkunligi bilan pretorian gvardiyasi boshliqlarining mavqeyi kuchaydi. Agar Tiberiyni senat hokimiyat tepasiga keltirgan bo‘lsa, 33-yildan so‘ng, uning jiyani Klavdiy Neronni pretorian gvardiyasi imperator deb e’lon qildi. Buning evaziga yangi imperator har bir pretorian gvardiyachisiga 15 ming sestersiy miqdorida mukofot berdi. Senat hukmdorning shaxsiy qo‘riqchilari (pretorian gvardiyasi) qabul qilgan qarorlarni tasdiqlaydigan oddiy tashkilotga aylandi. Qo‘shin tomonidan imperator taxtiga o‘tqazishning bunday an’anasi keyin ham davom etdi.

Pretor qismlari Kaligulaning 50 yoshli tog‘asi Tiberiy Klavdiy Neronni (41 – 54-yillar) imperator deb e’lon qildilar. Klavdiy senat bilan munosabatni yaxshiladi. Klavdiy hokimiyatni boshqarishda armiya, turli tekin tomosha va xayr-sadaqa beriladigan Rim plebsiga hamda provinsiyalarning zodagonlariga tayandi. Boshqarishda ozod qo‘yilgan qullardan ham foydalandi. Ozod qo‘yilgan qullar Narsiss va Pallant Klavdiy saroyida kuchli mavqega ega bo‘ldilar (Bu qullardan biri 4 million, ikkinchisi 3 million sestersiy boylikka ega edi).

Provinsiyalarga nisbatan yuritilayotgan siyosat o‘zgardi. Senat bilan prinsepsning qarama-qarshiligi eski Rim nobilitetini munitsipal va provinsiya zodagonlari tomonidan siqib chiqarish jarayonini o‘zida aks ettirdi. Klavdiy Galliya provinsiyalari aholisiga Rim senatiga saylanish huquqini berishni taklif qildi. Galllardan birinchi bo‘lib eduy qabilalari bu huquqdan foydalandilar. Provinsiyalarining taniqli kishilari Rim senati a’zosi bo‘lish huquqiga ega bo‘ldilar. Ma’lum bir shaharlarning barcha aholisiga Rim fuqaroligi huquqi berildi. Klavdiyning bu siyosati Rim oqsuyak-zodagonlari o‘chog‘i bo‘lgan senatga yoqmadi. Senatorlarning ayrimlarini imperator hokimiyatiga qarshi muxolifatda turishi ularning mol-mulkini musodara qilish va o‘zlarini qatagon qilishi bilan tugadi. Bu tadbirlar hokimiyatning markazlashuviga, imperator mutlaq hokimiyatining kuchayishiga, hokimiyatning ijtimoiy tayanchi kengayishiga sabab bo‘ldi. Klavdiy o‘zining senatdan mustaqil bo‘lgan boshqaruv ma’muriyatini tuzdi. Imperator ma’muriyati bir necha muassasalardan tashkil topib, ularni imperatorning iqtidorli, ozod qo‘yilgan qullari boshqardilar. Ularning orasidan Narsiss va Pallant nafaqat imperator devonini boshqarib qolmadilar, balki imperator saroyining ichki ishlariga faol aralashdilar.

Rim davlati endilikda tashqi siyosatida istilochilik urushlari olib borish uchun harbiy va moliyaviy resurslari tugadi. Rim tashqi siyosatda endi «bo‘lib tashla va hukmronlik qil» qabilida siyosat yuritib, Rim ekspansiyasiga qarshi turgan xalqlar va davlatlarni ichdan parokanda qilish siyosatini yuritdi. Klavdiy german qabilalariga nisbatan «bo‘lib tashla va hukmronlik qil» siyosatini yuritdi. German qabilalari o‘rtasidagi kelishmovchiliklar Rim tomonidan qo‘llab-quvvatlandi, oqibatda, qabilalar orasidagi o‘zaro urushlar alanga oldi. Germaniyada Rim legionlari friz qabilasi bilan bir necha yil urush olib bordi. Ubiy qabilalari hududida Agrippa koloniyasi (zamonaviy Kyoln shahri) barpo qilindi. Klavdiy 43-yilda Britaniyaga harbiy ekspeditsiya uyushtirib, orolning katta qismini egalladi. Orolning janubiy qismi Rimga qaramligini tan olib, o‘z qabiladoshlari bilan urushda rimliklarga yordam berdi. Bosib olingan hududlarda veteran legionerlarning Kamulodun (hozirgi Kolchester) va Landiniy (hozirgi London) koloniyalari barpo qilindi. Ko‘plab rimliklar bu koloniyalarga ko‘chib bordilar. Afrikada rimliklar bosqinchilik yurishlarini davom ettirdilar. Mavretaniya podshohligi 45-yilda tugatilib, prokurator boshqaradigan Tingitin Mavretaniyasi va Sezar Mavretaniyasi provinsiyalari tashkil etildi. Klavdiy davrida Frakiya davlati ham tugatildi (46-yil), uning bir qismi Meziya provinsiyasiga qo‘shildi, qolgan qismi prokurator boshqaradigan provinsiyaga aylandi.

Qo‘rqoq, hech kimga ishonmaydigan, irodasi zaif Klavdiy rafiqalari, saroyda kuchli mavqega erishgan ozod qo‘yilgan qullari Narsiss va Pallantning ta’siri ostiga tushib, ularning har birining xohish-istaklari va foydasi uchun kimnidir lavozimga tayinladi, jazoladi yoki rag‘batlantirdi. Hatto yaqinlaridan birining xohishi bilan o‘z qaynotasi Silanni pretor lavozimini

topshirib, o‘z joniga qasd qilishga buyurdi, o‘z qizining eri Gney Pompeyni va kenja qizining bo‘lajak rafiqasini qatl etdi. O‘z rafiqasi Agripinna bilan to‘yini nishonlagan yangi yilda 45 senator va 300 rimlik suvoriy loqaydlik bilan qatl etildi.

U tez-tez hashamatli bazmlar berdi, bunday bazmlarda 600 kishigacha mehmonlar ishtirok etar edi. Klavdiy bazmda taniqli mehmonni oltin tovoqni o‘g‘irlashda gumon qildi, ertasi kun bu mehmonning oldiga sopol tovoq qo‘yildi.

Klavdiy beva qolganidan so‘ng jiyani, o‘z ukasi Germanikning qizi 33 yoshli Agripinnaga uylandi. Rim qonunlariga ko‘ra tog‘a-jiyanning nikohi taqiqlangani sababli Klavdiy senatning maxsus qarori bilan bu nikohni amalga oshirdi. Imperator Oktavianning evarasi Klavdiygacha ikki marta erga chiqqan Agripinna shuhratparast ayol bo‘lib, hokimiyat uchun o‘ziga yoqmagan yoki unga qarshi turgan kishilarni yo‘q qildi. Astrolog unga fol ochib, o‘g‘li imperator taxtiga chiqishini, lekin onasini o‘ldirishini bashorat qilganda Agripinna «mayli o‘ldirsin, faqat hukmronlik qilsa bo‘ldi» deb javob berdi. Agripinnaning tazyiqi ostida Klavdiy o‘z o‘g‘li Britanik o‘rniga Agripinnaning o‘g‘li Lutsiy Domitsiy Agenobarbni asrandi o‘g‘li deb e’lon qildi. Asrandi o‘g‘il Klavdiy Neron nomini oldi. Svetoniyning aytishicha, Klavdiy hayotining oxirida Agripinna bilan nikohga kirganidan va uning o‘g‘li Neronni asrandi o‘g‘il qilganidan pushaymon bo‘lgan.

Agripinna davlat boshqaruvida o‘z ta’sirini saqlab qolish va o‘g‘lini tezroq hokimiyat tepasiga keltirish uchun 54-yilda Klavdiyni oq qo‘ziqorindan tayyorlangan ovqatiga zahar qoshib zaharlab o‘ldirdi. Klavdiy 64 yoshda, 14 yillik hukmronligidan so‘ng vafot etdi. Taxtga nomzod aniqlangunga qadar uning o‘limi sir tutildi. Pretor gvardiyasi Agripinnaning o‘smir o‘g‘li

Neron Klavdiy Sezarni (54 – 68-yillar) imperator taxtiga chiqardi.

Neron Klavdiy Sezar (54 – 68-yillar). Neron Yuliy – Klavdiylar sulolasining so‘nggi vakili edi. Neron o‘z boshqaruvining boshlanishida provinsiylar boshqaruvini yaxshilashga urindi; bir necha noiblar lavozimini suiiste’mol qilgani uchun jazolandi; provinsiyalarda savdo ishlarini yaxshilash uchun shart-sharoit yaratildi. Neron ba’zi to‘g‘ri soliqlarni bekor qilmoqchi bo‘ldi, lekin senat bu davlatni zaiflashtiradi deb, bunga yo‘l qo‘ymadi. Neron senat bilan murosa qilishni istamadi. Uning davrida imperator saroyi xarajatlari haddan tashqari oshib ketdi. Neron davlat xazinasidan 2 milliard 200 million sestersiyni o‘z yaqinlari va zodagonlarga hadya qildi. Podshoh Tiridatga Rimga tashrif buyurganda uning kunlik xarajatiga 800000 sestersiy kumush xarj qildi, ketishida esa 7 million sestersiy hadya qildi. Qimor o‘yinlari ishqibozi bo‘lgan Neron har bir qimor o‘yinida bir tikishda 400000 sestersiy qo‘yar edi. Baliqni oltin bilan hallangan to‘rlarda ovlar, mingta arava bilan sayohatga chiqar edi; xachirlar kumush taqalar bilan taqalangan edi.

Neron uchun Rimdagi katta yong‘indan so‘ng, juda katta xarajat bilan Palatin va Eskvilin tepaliklari o‘rtasida 270 ga. maydonga hashamatli «oltin» saroy qurildi. Saroy devorlari va shipi oltin bilan qoplanib, qimmatbaho toshlar va marvaridlar bilan bezatilgan edi. Saroy devorlari va shipi oltin plastinalar bilan qoplanib,qimmatbaho toshlar va marvaridlar bilan bezatilgan edi. Bu saroy bitib, Neron ko‘chib kirganda u «va nihoyat odamga o‘xshab yashar ekanman», deb xitob qilgan edi.

Neron pulga muhtoj bo‘lgani uchun juda ko‘p senatorlar va zodagonlarni qatl etib, ularning mol-mulkini musodara qildi. Katta Pliniyning yozishicha, Afrika provinsiyalarining yarim boyligini egasi bo‘lgan uch

kishi Neron tomonidan qatl qilindi. Rimda 64-yil juda katta yong‘in bo‘lib, u bir hafta davom etdi va shaharning 14 kvartalidan 10 tasi to‘la yonib ketdi. Xalq ommasi o‘rtasida Rimdagi yong‘inning asosiy sababchisi Neron ekanligi to‘g‘risida mish-mish tarqaldi. Neron yong‘inga Rimdagi nasroniylar jamoasini aybdor deb topib, ularning ommaviy qatlini uyushtirdi.

Rimning jabr-zulmiga qarshi qaram Britaniyada, Yahudiya provinsiyalarida qo‘zg‘olonlar ko‘tarildi. Britaniyada isen qabilasining zodagonlarining yer-mulklari rimliklar tomonidan tortib olinib, o‘zlari qulga aylantirildi.Isenlar yo‘lboshchisining qizi kuchli irodaga ega malika Boudika isen, trinobant va boshqa britt qabilalarining Rim zulmiga qarshi ozodlik urushiga rahbarlik qildi. Boudika armiyasi rimliklarning tayanch nuqtalari bo‘lgan Kamoludun (hozirgi Kolchester) va Londinium (hozirgi London) va Verulamni qamal qilib, yordamga kelgan Rim armiyasi yanchib tashlandi. Ozodlik urushi davomida Rim bosqinchilaridan 70 ming kishi halok bo‘ldi. Brittlarning ozodlik urushi bir necha yil davom etdi. Lekin Britt qabilalari o‘rtasidagi kelishmovchiliklar natijasida intizomli Rim armiyasi g‘olib chiqdi. Malika Boudika zahar ichib halok bo‘ldi, lekin brittlarning ozodlik harakati yana bir necha yil davom etdi. Rim Britaniyani to‘la bo‘ysundira olmadi. Yahudiya provinsiyasida mil avv. 66-yilda rimliklarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarildi. Bu qo‘zg‘olon sarkarda Tit Flaviy Vespasian tomonidan bostirildi.

Neron taxtga chiqishi bilan sharqda yangi hududlarni bosib olishga kirishdi, Rim legionlari Armanistonga bostirib kirdi, lekin mag‘lub bo‘lib, sharmandali bo‘lgan dor sirtmog‘i ostidan o‘tdi. Sharqning qudratli davlati bo‘lgan Parfiya Rimning sharqqa ekspansiyasiga keskin qarshi turdi. 62-yilda Rim Parfiya bilan tinchlik shatnomasi tuzishga majbur bo‘ldi

va shartnomaga koʻra Rim legionlari Armanistondan chiqib ketdi. Neron hukmronligining soʻnggi yillarida Efiopiya va Old Osiyoga keng qamrovli Rim ekspansiyasini rejalashtirgan edi. Qaram Pont podshohligi Rimga qoʻshib olindi. Parfiya bilan Rim oʻrtasida Armaniston uchun uzoq davom etgan urush Rimning magʻlubiyati bilan tugadi (66-yil).

Britaniyada urush davom etib, 66-yilda Yahudiyada qoʻzgʻolon boshlandi. Rimda 61-yilda shahar prefekti Pedaniy Sekund oʻz uyida oʻz quli tomonidan oʻldirildi. Eski qonunga koʻra xoʻjayin oʻldirilgan paytida u bilan bir tom ostida boʻlgan barcha qullar qatl etilishi lozim edi. Bu ish senatgacha borib yetdi. Koʻpchilik senatorlar bu qonun saqlanishi uchun ovoz berdilar. Shaharda bu shafqatsiz qatlga qarshi norozilik bildirib, katta olomon toʻplandi. Neron olomonni toʻplanishiga qarshi farmon chiqardi, qurolli qoʻriqchilar hukm qilinganlarni qatl joyiga kuzatib bordilar. Pedaniy Sekundning 400 quli qatl etildi. Mamlakatda vabo kasali tarqalib, 30 ming kishining yostigʻini quritdi.

Provinsiyalarda soliqlarning koʻpayishi aholi noroziligini keltirib chiqardi. Neronning shafqatsizligi va zoʻravonligi zodagonlarning keskin noroziligiga sabab boʻldi. Neronga qarshi fitna uyushtirildi (65-yil). Fitna fosh etildi va fitnachilar shafqatsiz jazolandi. Ularning orasida faylasuf-stoik Lutsiy Anney Seneka, uning jiyani shoir Mark Anney Lukan va yozuvchi Gay Petroniy Arbitrlar bor edi. Neronning yaqinlari ham axloqsizlik, zoʻravonlikda hukmdordan qolishmadilar. Neronning yaqin doʻsti va ishongan kishisi Oton hukm qilinganlardan jazodan qutqarib qolgani uchun ulkan miqdorda pora oldi, Neronning onasi Agripinnani oʻldirishda asosiy rolni oʻynadi, Neron unga nikoh oldidan ishonib topshirgan boʻlgʻusi rafiqasi Poppeya Sabinani oʻz maʼshuqasiga aylantirdi.

Neron musiqa va qo‘shiqchilik ishqibozi bo‘lib, o‘zini buyuk artist deb hisobladi. Ko‘pincha u xalq oldida o‘z she’rlari bilan chiqar, askarlar esa qatorlar orasida kaltak bilan yurib, tomoshabinlardan uzluksiz qarsaklar talab qilar edilar. Neron o‘z she’rlarini o‘qigan paytda mizg‘ib qolgan kishi o‘z hayoti bilan xayrlashishi hech gap emas edi. U Yunonistonda shoirlar bellashuvida qatnashib g‘olib bo‘ldi.

Neron axloqan buzuq, shafqatsiz kishi edi. Neron aysh-ishratda vaqtini o‘tkazdi u kun yarmidan bazmni boshlab, tun yarmida tugatdi. Neron Rimdagi katta sirkda xalqning ko‘z oldida butun Rimdan to‘plangan aktrisalar va suyuqoyoq ayollar xizmat qilgan bazmlar qildi. Neron do‘stlari hisobidan ham bazmlar uyushtirdi, ana shunday bazmlardan biri 4 million sestersiyga tushdi, boshqasi esa atirgul suvlari bilan yanada qimmatga tushdi.

Neron imperator hokimiyatini cheklaydigan har qanday an’ana va huquqiy normalarni tugatib, cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘lishga harakat qildi. Neronni taxtga keltirgan onasi shuhratparast Agripinna davlat ishlarida yetakchi rolni o‘ynashga harakat qildi, bunga o‘g‘li Neron keskin qarshilik ko‘rsatdi. Volidasi Agripinna Neronning qarshiligini sindirish niyatida aslida taxtga qonuniy voris imperator Klavdiyning o‘g‘li Britanikga murojaat qilishi mumkinligi bilan tahdid qildi. Oqibatda Neron bazmda Agripinnaning ko‘zi oldida Britanikni (55-yil) zaharlab o‘ldirdi. Neron o‘z hukmronligiga xavf solayotgan volidasi Agripinnani o‘ldirish uchun uch marta urindi, faqat uchinchi marta (62-yil) bu maqsadiga erishdi. Qotil Sardiniyaga surgun qilindi va bu yerda umrini oxirigacha badavlat yashab dunyodan o‘tdi.

Neron shafqatsizlik bilan rafiqasi Oktaviyani (62-yil), ikkinchi xotini Poppeya Sabinani qorniga tepib (65-yil) o‘ldirdi. Rafiqasi Poppeyaning vafotidan keyin

o‘zining o‘gay otasi marhum imperator Klavdiyning qizi Antoniyani qo‘lini so‘radi, lekin Antoniya rad javobini berdi. Neron Antoniyani davlat to‘ntarishida ayblab, qatl etdi. Antoniyaning boshqa qarindoshlari ham qatl etildi. Ulardan biri yosh Avl Plavtiyni qatli oldidan xo‘rladi. Cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘lgan Neron ko‘ngliga kelgan noma‘qulchiliklarni qildi. Tunda u kiyimlarini almashtirgan bir guruh askarlar bilan Rim shahrining qorong‘i ko‘chalarida daydib yurib, o‘tkinchilarni kaltaklab va talab, keyin esa tushgan «o‘lja»ni auksion uyshtirib sotdi.

Neron qachonlardir hukmronligi davrida o‘ziga yordamchi va maslahatchi bo‘lgan, endilikda keksayib qolgan katta pul mablag‘lariga ega bo‘lgan ozod qo‘yilgan qullarini ovqat va ichimlikka qo‘shilgan zahar bilan o‘ldirdi. Rafiqasi Poppeyaning birinchi eridan bo‘lgan o‘smir o‘g‘li Rufriy Krispin o‘ynab yurgan vaqtida o‘zini lashkarboshi, imperator deb ataganini eshitib qolgan Neron qullarga yosh bolani baliq ovi paytida dengizga cho‘ktirib o‘ldirishga buyruq berdi. O‘z enagasining o‘g‘li Misrda prokurator bo‘lganida Neron tashrifi uchun qurilgan hammomda Nerondan oldin yuvingani uchun surgun qildi. O‘zining ustozi Senekani o‘z joniga qasd qilishga majbur qildi. Pretorian gvardiyasi boshlig‘i Burrga tomog‘i uchun dori yuborishga va’da berib, unga dori o‘rniga zahar yubordi. Neron arzimagan sabablar bilan yuzlab odamlarni zaharlab o‘ldirdi. Bu hukmdor insonga xos bo‘lgan va xos bo‘lmagan barcha illatlarni o‘zida jamladi. Davlat xazinasini talon-taroj qildi. U o‘z yaqinlari va zodagonlarga ikki milliard ikki yuz million sestesiy mablag‘ni in’om qildi. O‘zi uchun katta mablag‘ sarflab, Rimda Oltin saroy deb atalgan hashamatli qarorgoh qurdi.

Neron hukmronligining so‘nggi ikki yilida davlat boshqaruvidan umuman chetlashdi. Mamlakatda si-

yosiy vaziyat keskinlashdi. Neron hukmronligiga qarshi ommaviy noroziliklar boshlandi. Galliya, Germaniya va Ispaniyada 68-yil bahorida Neronga qarshi legionlar qo‘zg‘olon ko‘tardilar. Hatto Rimda hukmdor xavfsizligini ta’minlash vazifasi bo‘lgan pretorian qismlari ham Heronga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tardi. Neronni hech kim himoya qilmadi. Neron Rimdan qochib, o‘zining ozod qo‘yilgan qulining villasida yashirindi. Qo‘zg‘olonchilar nima qilib bo‘lsa-da Neronni tirik qo‘lga tushirishni maqsad qildilar. Dushmanlar qo‘liga tushmaslik uchun Neron iltimoslar bo‘yicha maslahatchisi Epafrodit yordamida tomog‘iga qilich sanchib o‘zini o‘ldirdi. 32 yoshli Neronning o‘limi bilan Yuliylar – Klavdiylar sulolasi hukmronligi nihoyasiga yetdi.

Serviy Sulpitsiy Galba (68 – 69-yillar). Neronning o‘limidan so‘ng taxt uchun kurash boshlandi. Bu vaqtda Ispan va gall qo‘shinlari Tarrakkon Ispaniyasi provinsiyasi legati keksa senator, tajribali sarkarda va hokim Serviy Sulpitsiy Galbani imperator deb e’lon qildi. Senat Serviy Sulpitsiy Galbani mil. avv. 68-yil iyun oyida imperatorlik taxtiga tasdiqladi.

Galba senat bilan tez aloqani tikladi, lekin 68 – 69-yillarda qisqa vaqt imperator bo‘ldi. Galba Neron davrida bo‘shab qolgan xazinani to‘ldirishga va izdan chiqqan iqtisodiyotni tiklashga hamda sarf-xarajatlarni qisqartirishga harakat qildi. Marhum imperator zodagonlarga tarqatgan mo‘l-ko‘l hadyalarni qaytarib olishga urindi. Galba o‘zini taxtga chiqargan tarafdorlari pretorian qismiga va’da qilingan pul hadyalarini to‘lashdan bosh tortdi, bundan tashqari o‘ziga shubhali ko‘ringan ba’zi pretorian sarkardalarini ishdan bo‘shatdi. Oliy tabaqadan bo‘lgan ayrim fuqarolarni kichik bir gumon bilan qatl ettirdi. Provinsiyalardagi legionlar va Galliyaning janubiy va sharqiy viloyatlari aholisi Galbadan norozi bo‘ldi. Galba hatto o‘zi

mansub bo‘lgan senatorlar toifasi a’zolarining ham ko‘nglini topa olmadi.

Galbaning Rim davlatini mustahkamlash siyosati faqat o‘zining tor manfaatlariga sodiq bo‘lgan hukmron tabaqaga yoqmadi. Oqibatda armiya va hukmron tabaqa tomonidan Galba baxillik va ochko‘zlikda ayblandi. Taxtga da’vogar Vindeks va gallarga qarshi kurashgan yuqori german legionlari o‘zlari kutgan mukofotlarni olmaganlari uchun nihoyatda g‘azablanib, Galbaga qarshi isyon ko‘tardilar. Mil. avv. 69-yil 15-yanvarida isyon natijasida pretorian askarlari tomonidan Galba o‘ldirildi. Galba hukmronligining yettinchi oyida 73 yoshida o‘ldirildi. Galbaning boshini kesib olgan legionerlar uning boshini 100 oltinga baholadilar. Bir vaqtlar Galba qatl etgan bir kishining ozod qo‘yilgan quli Galbaning kesilgan boshini 100 oltinga sotib oldi. Keyinchalik boshqaruvchi Argiv o‘z bog‘ida Galbaning boshini uning murdasi bilan dafn etdi. Aytishlaricha, Galba bo‘kib ovqatlanishni yaxshi ko‘rgan. U tong otmasdan ovqatlanishni boshlagan, tushlikda shunchalik ko‘p ovqat yeganki, o‘zidan qolgan ovqat qoldiqlarini yig‘ishtirib, atrofdagi xizmatchilarga berishni buyurgan.

Oton. Imperatorlik taxti uchun sarkardalar, Neronning yaqinlaridan biri Luzitaniyadagi legat Oton va legat Avl Vitelliy kurash boshladilar. Pretorian gvardiyasi taxtga da’vogar Otonni, german legionlari Vitelliyni qo‘llab-quvvatladilar. Imperator Neronning bazmlaridagi hamtovog‘i, qarzga botgan 37 yoshli Mark Salviy Oton taxtni egallash uchun yo‘l qidirdi. Oton imperatorning bir qulidan boshqaruvchi lavozimiga tayinlashga yordami uchun bir million sestersiy pora oldi. U o‘zining besh tansoqchisiga 10 ming sestersiy pul berib, yana 50 ming sestersiydan va’da qildi. Bu tansoqchilar legionerlar o‘rtasida

Otonni taxtga chiqarish uchun qizg‘in targ‘ibot-tashviqot ishlarini boshladilar. Oton armiya qarorgohida legionerlar tomonidan imperator deb e’lon qilindi va u Rimga yurish qildi. Italiya raqiblar uchun urush maydoniga aylandi. Bu urushlardan oddiy aholi kilfat chekdi. Otonning askarlari shahar va qishloqlarni qamal qilib taladilar. Askarlar qishloqlarda o‘lja izlab izg‘ib yurib, hech vaqosiz dehqonlarni ham asir olib, qullikka sotib yubordilar. Oton Rimga kirishi bilan shoshib qolgan senat uni imperator deb tan oldi. Oton Neron davrida prokuratorlar va boshqa lavozimlarga ega bo‘lgan kishilarni o‘z lavozimiga qaytardi, Neronning oltin saroyini chala qolgan qurililishini tugatish uchun 50 million sestersiy mablag‘ ajratdi. Xuddi shu vaqtda german legionlari Vitelliyni imperator deb e’lon qilib, unga qasamyod qildilar. Oton elchilar orqali Vitelliyga birgalikda mamlakatni boshqarish va o‘ziga kuyov bo‘lish taklifini berdi. Lekin ikki o‘rtada urush boshlanib, bu urushda Oton uch marta kichik g‘alabalarga erishdi, lekin hal qiluvchi jangda mag‘lub bo‘ldi. Mil. avv. 69-yil aprel oyida Kremona shahri yaqinidagi jangda Oton yengildi va o‘z joniga qasd qildi. U 95 kun hukmronlik qilib, 38 yoshida hayotdan ko‘z yumdi.

Vitelliy. Taxtga da’vogar Vitelliy Rimga kirdi va senat tomonidan imperator deb e’lon qilindi. Vitelliy o‘ta shafqatsiz bo‘lib, kimnidir jazolash uning uchun huzur bag‘ishlar edi. Qachonlardir bergan qarzini qaytarib olgan qarz beruvchini, qachonlardir undan yo‘lda boj to‘lovini undirgan kishilarni bitta qoldirmay qatl etdi. Zodagonlar, o‘z tenqurlari bilan hokimiyatni bo‘lishdi, lekin keyin turli makkorlik yo‘llari bilan ularni o‘ldirdi. Qatlga hukm qilingan bir kishini ikki o‘g‘li otalariga shafqat qilishni Vitelliydan iltijo qildilar, u esa ularni otasi bilan birga qo‘shib qatl etishga buyruq berdi.

Vitelliyning hukmronligining sakkizinchi oyida Meziya va Pannoniyada, keyin Yahudiyadagi legionlar isyon ko‘tardilar. Bir qism legionlar Vespasianga imperator sifatida qasamyod qildi. Vitelliy qo‘shinlari bir necha janglarda mag‘lub bo‘ldi. Ilojsiz qolgan Vitelliy Vespasianning ukasidan yuz million sestersiy evaziga hayotini saqlab qolishni iltijo qildi. Rimga kirgan Vespasianning legionerlari Vitelliyni sazoyi qilib, qiynoqlar bilan forumda ukasi va o‘g‘li bilan birga qatl etdilar, bu vaqtda Vitelliy 58 yoshda edi.

Vitelliy maishatparast va axloqsiz bo‘lib, atigi ikki oylik hukmronligi vaqtida 2 milliard sestersiy mablag‘ni ko‘kka sovurdi. Uning legionlari Italiya aholisini taladi. U hukmronligi vaqtida o‘z atrofiga yaramas aktyorlar va aravakashlarni to‘pladi. Ayniqsa, ozod qo‘yilgan qul Aziatikni axloqsizlik bilan yo‘ldan ozdirdi. Vitelliy o‘ta mechkay bo‘lib, bir kunda uch marta: ertalabki nonushtada, tushlikda va kechki ovqatda katta ziyofatlar uyushtirdi. O‘z yaqinlarini bir kunda har xil vaqtda mehmonga taklif qilishga majbur qilar edi. Bunday mehmondorchilik uy egasiga 400 000 sestersiydan kamga tushmas edi. Uning sharafiga uyushtirilgan bir ziyofatda ikki ming saylanma baliq, yetti ming parranda dasturxonga tortilgan edi. U yo‘lda ham, ibodatxonada ham, ko‘chadagi har qanday tamaddixonada ham ovqatlanib ketaverar edi. Vitelliy o‘zi uchun narxi 1 million sestersiy bo‘lgan tovoq yasatdi. U bir necha oylik hukmronligi davrida faqat ovqat uchun davlat xazinasidan 900 million sestersiy xarj qildi.

Tit Flaviy Vespasian (69 – 79-yillar). Yahudiyada turgan armiya qo‘mondoni Tit Flaviy Vespasian Aleksandriyada 69-yil 1-iyulda legionlar tomonidan imperator deb e’lon qilindi. 69-yil oxirida senat Vespasianni imperator sifatida tan oldi.

Vespasian yangi Flaviylar sulolasini boshlab berdi. Bu sulolaga yana ikki imperator – Vespasianning o‘g‘illari Tit (79 – 81) va Domitsian (81 – 96) kirdi. Vespasian uzoqni ko‘ra biladigan aqlli hukmdor sifatida imperiyaning iqtisodiy va moliyaviy kuchini nisbatan tez va samarali tikladi. Flaviy va uning birinchi merosxo‘rlari davrida Rim davlati ma’lum darajada mustahkamlandi. Imperator davlat mablag‘larini tejab-tergashga kirishib, xarajatlarni qisqartirdi.

Imperator Rim fuqaroligi huquqini mo‘l-ko‘l tarqatdi, senatorlar, suvoriylar toifasini provinsiya zodagonlari va tadbirkor bo‘lib boyib ketgan ozod qo‘yilgan qullar bilan to‘ldirdi. Davlat boshqaruvida Vespasian provinsiyalar aholisiga bevosita tayana boshladi. Flaviylar sulolasi senat bilan murosa qilgan holda ichki va tashqi siyosatni olib bordi. Senatorlar toifasi imperatordan sovg‘a-salomlar olib turdi. Vespasian pul mablag‘iga ehtiyoji bo‘lgan oliy mansabdorlarga har yili 500 ming sestersiy miqdorida yordam korsatdi. U lotin va yunon notiqlariga har yili 100 ming sestersiy miqdorida ish haqi belgiladi. San’at va fanda yutuqlarga erishgan va ixtirolar qilgan kishilarga homiylik qilib, ularni mablag‘ bilan ta’minladi.

Vespasian juda tejamkor, xasis va tadbirkor hukmdor edi. Davlat xarajatlarini qoplash uchun 40 mlrd sestersiy kerak edi. Bu mablag‘ni topish uchun Vespasian provinsiyalardan olinadigan soliqlarni oshirdi. Rimdagi jamoat hojatxonalariga ham soliq soldi. O‘g‘li Tit hojatxonalarga soliq solinganda Vespasianni ta’na qilganda Vespasian hojatxonalardan olingan birinchi foyda pulini o‘g‘lining burniga tutib, badbo‘y hid kelyaptimi deb so‘raydi. Tit yo‘q deb javob beradi. Axir bu pul siydikdan-ku deb xitob qiladi Vespasian. Vespasian buyumlarni arzon narxda olib, qimmatiga sotdi. Eng tovlamachi va ochko‘z amaldorlarni yuqori mansablarga ataylab tayinladi. Keyin esa bu poraxo‘r

amaldorlarni noqonuniy, tovlamachilik yo‘li bilan boylik orttirishlarini kutib turdi, ma’lum muddatdan keyin ularning noqonuniy to‘plagan boyliklarini sud orqali tortib oldi.

Vespasian o‘ziga yomonlikni ravo ko‘rganlardan hech qachon o‘ch olmadi. O‘tmishda Vespasian Neron saroyidan quvilganda shoshib qolib, uni saroydan jo‘natayotgan qabulxona noziridan qayerga borishi, nima qilishni so‘raganda nozir «to‘rt tomoning qibla» deb javob bergan edi. Shu odam Vespasian imperator taxtiga chiqqanda undan kechirishni so‘raganda Vespasian bu odamning aytgan so‘zlarini qaytarish bilan cheklanadi. Imperator taxtiga da’vogar bo‘lgan o‘zining raqibi Vitelliyning qiziga munosib kuyov topib, unga loyiq sep berdi va yaxshi uy bilan ta’minladi.

Kunlardan bir kuni Vespasianning ishonchli xizmatchilaridan biri undan o‘zining akasiga biror bir yaxshi lavozim berishini iltimos qildi. Imperator xizmatchiga kutib turishni buyurdi va lavozimga da’vogar kishini o‘z oldiga chaqirib, undan vositachilik uchun xizmatchisi va da’vogar o‘rtasida kelishilgan pulni o‘zi oldi va shu lahzadayoq da’vogarni lavozimga tayinladi. Keyinroq bu xizmatchi yana bu ishga aralashganda «sen boshqa akangni izla, bu odam endi mening akam» dedi. Bir kuni imperator Vespasian aravada ketayotganda yo‘lda arava haydovchisi xachirlarni taqalash uchun to‘xtashga ruxsat so‘radi. Imperator bunga ruxsat berdi. Shunda bir arzgo‘y Vespasianga o‘z arzini eshitishni so‘radi. Vespasian haydovchini arzgoyni imperatorga arz qilishga vaqt ajratishida va’da berishda gumon qildi va haydovchidan xachirlarni taqalash qancha foyda keltirganini so‘rab, undan o‘z ulushini ajratishni talab qildi.

Vespasian Neronning hashamatli saroyi o‘rnida xalq uchun ulkan amfiteatrni (bo‘lgusi Kolizey) bun-

yod qildi. Bu inshootni qurish uchun 5 futbol maydoniga teng bo‘lgan ko‘l quritildi. Amfiteatr qurilishida Rimning to‘rtdan bir aholisi ishtirok etdi. Kolizey qurilishida yangi texnika va texnologiya tatbiq etildi. Milodiy 75-yilda vulqon qumi bilan ohaktosh qo‘shilib, namlikka chidamli mustahkam birikma hosil qilindi. Bu toshdan ko‘ra bir necha marta yengil va mustahkam bo‘lgan sement – beton edi. Rim injenerlari arklarni qurishda doirasimon ko‘rinish berdilar, chunki arklar og‘ir yukni ko‘tarishga mo‘ljallangan edi. Inshootda jami 240 arka bo‘lib, ular orasidagi bosh arkaning balandligi 7metrni tashkil etdi. Xomashyo sifatida travertin toshi ishlatildi va 6 yil davomida har kuni 200 aravada tosh tashildi. Amfiteatr o‘rindiqlari qulay joylashtirildi. Oldingi qator o‘rindiqlar senatorlar uchun, ularning orqasida 9 qator tadbirkorlarga, Kambag‘al-qashshoqlar uchun 5 qatorda yog‘och o‘rindiqlar ajratildi. Bu inshoot Rim xalqiga tomoshalar, gladiatorlar o‘yinlari, tantanali marosimlar va xayr-ehson tarqatiladigan joy vazivasini bajardi.

Vespasian Kichik Osiyodagi Kommagen va tog‘li Kilikiya davlatlarining mustaqilligiga chek qo‘yib, ularni Rim provinsiyalariga aylantirdi. Axaya, Likiya, Samos, Rodos va Vizantiyning mustaqilligiga chek qo‘ydi. Flaviylar davrida imperiyaning shimoli-sharqiy chegaralarida dak, sarmat, roksolan va markomann qabilalari Rim zulmiga qarshi harakatga keldilar. Rim legionlari Dakiya (hozirgi Ruminiya hududi) podshohi Detsebal qo‘shinlari bilan urushda yengildilar va oqibatda Rim daklarga o‘lpon to‘lashga majbur bo‘ldi. Vespasian 79-yil iyunida 69 yoshida vafot etdi. Bu xasis va tejamkor imperatorni dafn marosomiga senat 10 million sestersiy sarf qildi.

Tit Flaviy milodiy 79 – 81-yillarda davlatni boshqardi. Bo‘lg‘usi imperator Tit yoshligidan otasi Vespasian bilan yonma-yon turib, davlatni boshqarish

ishlariga qatnashdi. Otasi davrida tribun etib saylandi, 7 marta konsul lavozimini egalladi. Keyin esa pretor gvardiyasi boshlig‘i bo‘ldi. Tit bu lavozimda o‘ta shafqatsizlik bilan ish ko‘rdi. O‘ziga shubhali ko‘ringan kishilarni ayovsiz jazoladi. U katta bazmlar uyushtirib, axloqsizlikda nom chiqardi. Uning hukmronligi davrida Kolizey amfiteatri qurilishi tugallandi. Vezuviy vulqoni otilib, Pompey va Gerkulanum shaharlari kul ostida qoldi (79-yil). Tit vulqon otilishi oqibatida egasiz qolgan mol-mulklarni vulqon otilishidan jabr ko‘rgan fuqarolarga taqsimlab berdi. Rimdagi yong‘indan jabr ko‘rgan aholiga o‘zining shaxsiy mablag‘laridan katta pul ajratdi. Chaqimchi va gap tashuvchilarni vaqti-vaqti bilan jazolab turdi.

Imperator hokimiyatini egallashga uringan ikki patritsiy fosh etilganda ularni jazolamadi va ularga imperator hokimiyatini egallashga urinish befoydaligini uqtirib, imperator hokimiyati taqdirda bitilgan bo‘ladi deb aytdi. Tit o‘ziga nisbatan doimo fitna, turli ig‘vogarlik – bo‘htonlar qilib yuradigan ukasi Domitsianga nisbatan hech qanday jazo chorasini ko‘rmadi, aksincha, hukmdorligining birinchi kunidan o‘zining vorisi sifatida ko‘rdi. Tit ikki yillik hukmronligidan keyin 81-yilda 42 yoshga yetmasdan bezgak kasalligidan vafot etdi. Titni o‘z ukasi Domitsian zaharlab o‘ldirgani to‘g‘risida mish-mishlar tarqadi.

Vespasianning kenja o‘g‘li Domitsian (81 – 96-yillar). Domitsian akasini hech qanday hurmat ko‘rsatmay dafn etdi. U otasi va akasi soyasida yurgan, hech nimaga arzimaydigan, maqtanchoq o‘rtamiyona odam edi. O‘z hukmronligi davrida 3 marta Rim fuqarolarining har biriga 300 sestersiydan pul tarqatdi. Yetti tepalik bayrami vaqtida senatorlar suvoriylarga va plebeylarga mo‘l-ko‘l tortiqlar qildi. Rim shahrida bir necha inshootlarni qurdi. Sud ishlarida adolatni joriy qilishga harakat qildi. Jamiyatda ye-

mirilib borayotgan axloq qoidalarini tiklashga o‘zini mas’ul hisoblab, suyuqoyoq ayollarga taxtiravondan foydalanish va vasiyatga ko‘ra sovg‘a va meros olishni taqiqladi. Rimlik suvoriyni o‘z rafiqasini vafosizlikda ayblab haydab yuborgani va keyin yana sobiq xotiniga qayta uylangani uchun sudyalar ro‘yxatidan o‘chirdi. Aslzoda erkak va ayollarning obro‘yini to‘kadigan, qo‘ldan qo‘lga o‘tib yuradigan har xil yozuvlarni yo‘q qildi. Turmushga chiqmaslik qasamini buzgan Vesta ibodatxonasi kohinalarini o‘limga hukm qildi. Vesta ibodatxonasi kohinalarini jazolashning qadimgi odatiga ko‘ra aybdor kohina ozgina ozuqa bilan yer ostiga dafn etilgan. Bu rasman o‘lim qatli deb hisoblanmagan. Ilgari oqlangan, ko‘p vaqt o‘tib yana qasamini buzgani uchun hukm qilingan Korneliya nomli katta kohinani tiriklayin ko‘mishga, bu kohinaning o‘ynashlarini o‘lguncha savalashga buyruq berdi.

Domitsian cheklanmagan hokimiyatga intilib, senatni o‘zini xudo va hukmdor deb e’lon qilishga majbur qildi. O‘zi raqib deb hisoblagan bir necha senatorlar va sobiq konsullarni hamda boshqa zodagon fuqarolarni qatag‘on qildi. Sentabr va oktabr oylari nomini Germanik va Domitsian nomlariga o‘zgartirdi. Chunki u bu oylarning birida tug‘ilib, ikkinchisida imperator tojini kiygan edi. Turli qurilishlar, tomoshalar va askarlarga ish haqi sifatida katta mablag‘larini sarflab, davlat xazinasini bo‘shatdi. Qo‘shin sonini kamaytirdi. Xazinani to‘ldirish uchun turli ayblovlar qo‘yib, aholining turli tabaqalarining mol-mulkini tortib oldi. Domitsian 96-yilda hukmronligining o‘n beshinchi yilida, 45 yoshida fitnachilar tomonidan o‘z yotoqxonasida o‘ldirildi. Senat Nerondan keyin ikkinchi marta vafot qilgan imperatorning nomini la’natladi va unga bag‘ishlangan barcha haykal va yozuvlarini yo‘q qilishga buyruq berdi.

Milodiy I – II asrlarda Rim imperiyasining tashqi siyosati bosib olingan hududlarni saqlab qolish bo‘ldi. Keyinchalik imperiya hududlari bir qadar kengaydi. Britaniya oroli Rim imperiyasi provinsiyasiga aylandi. Afrika va Bolqon yarim orolida yangi provinsiyalar paydo bo‘ldi. Ammo bepoyon hududlarda barqarorlikni saqlab turish, provinsiyalarda tez-tez ko‘tarilgan qo‘zg‘olonlar faol istilochilik siyosatini olib borishga xalaqit berdi. Rim davlatining qaram hududlarda zulmining kuchayib ketishi Galliya va Yahudiyadagi kuchli qo‘zg‘olonlarda aks etdi. Quyi Dunaydagi daklar, shimoldagi german qabilalari bilan urushlar, sharqda esa, Parfiyaning o‘z chegaralarini himoya qilishi Rimning agressiv tashqi siyosatiga inqirozini bildirar edi.

Milodiy I asrda imperatorlarning cheklanmagan hokimiyati Rim davlati va jamiyati uchun fojiali oqibatlarga olib keldi. Hech qanday cheklovlar qo‘yilmagan hokimiyat egasi, ruhiy nosog‘lom, axloqi buzuq, dunyoqarashi cheklangan imperatorlar ko‘ngillariga kelgan noma’qulchiliklarni qildilar, mavjud tartib-qoidalarni buzdilar. Minglab begunoh odamlarning yostig‘ini quritdilar, adolat tushunchasini toptadilar. Senat bu aqlsiz hukmdorlarning xohish-irodasini qullarcha bajardi. Cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘lib, insoniy qadriyatlarni toptagan bu imperatorlar Rim tarixida mudhish iz qoldirdilar. I asrda hukmronlik qilgan 11 imperatordan 8 tasi o‘ldirildi. Bu imperatorlarning faoliyati natijalari bir kishining cheklanmagan hokimiyati davlat va jamiyat uchun naqadar xavfli ekanligini va Rim davlati va jamiyatining halokati o‘z ichida ekanligini ko‘rsatdi.

3.Senat. Imperiya davrida senat o‘z mavqeyini to‘la yo‘qotdi. Lekin uning tashqi hashamatli shakli kuchaydi. Senat imperator irodasini qullarcha bajaradigan tashkilotga aylandi. Imperatorlar senator

unvonini umrbod qildilar, ularning soni 900 taga yetkazildi. Rim imperiyasining oxirida konsul, pretor va edil lavozimlari faxriy unvonga aylandi. Oktavian fuqarolikni endigina olgan bir necha fuqarolarni va bir necha gallarni senatga a'zo qildi. Flaviylar sulolasi davrida senatorlar asosan Italiyadan edi. 28 yoshga yetgan Rim fuqarosi senator bo'lishi mumkin edi. Oktavian senat a'zosi bo'lish uchun 25 yoshni belgiladi. Senat a'zosi bo'lish uchun 1-asr boshlarida 400 ming sestersiy miqdorida mulk senziga ega bo'lishi mumkin edi.

Oktavian hukmronligidan boshlab, senatning funksiyalari cheklana boshladi (ayniqsa moliya, harbiy ish, tashqi siyosat, provinsiyalar boshqaruvi). Imperiya davrida senat o'z mustaqilligini yo'qotdi, lekin uning tashqi hashamati kuchaydi. Senat imperator irodasiga qullarcha bo'ysundi. Imperator senator unvonini merosiy qilib, ularning sonini 600 taga tushirdi. Senatorlar uchun mulk senzi 1 000 000 sestersiy belgiladi. Oktavian senatda tozalash o'tkazdi va senatning avvalgi soniga va hashamatiga qaytardi. Svetoniy Oktavianning bu faoliyati to'g'risida shunday ma'lumot beradi: Senat allaqachon o'sib ketib, yaramas va tartibsiz olomonga aylandi – unda mingdan ortiq a'zo bor edi va ularning ichida Sezarning o'limidan keyin oshna-og'aynichilik yoki pora bilan qabul qilingan eng noloyiq – rasvo odamlar bo'lib, ular xalq orasida «qabr ortidagi» senatorlar deb atalar edilar. Oktavianning shaxsan o'zi senatda ko'ylagi ostidan sovut kiyib, to'la qurol-yarog' bilan atrofida senatdagi o'zining tarafdorlaridan bo'lgan kuchli o'n kishi qurshovida raislik kreslosida o'tirib, har bir senatorni alohida qabul qildi. Uning oldiga senatorlarni bir kishidan tintib kiritdilar. Oktavian senatga tasodifiy kirib qolganlarni vijdonli bo'lishga chaqirib, ko'ngilli ravishda senatorlik unvonidan voz kechish-

larini so‘radi. Senator unvonidan ko‘ngilli voz kechganlarga senatorlik kiyimlari, tomosha joylarida senatorlik o‘rinlarini ham qoldirdi. Senatning hisoboti xalqqa e’lon qilinmaydigan bo‘ldi. Senatdan barcha ozod qo‘yilgan qullarni chiqarib, unga Italiya munitsipiylari va koloniyalarining zodagonlarini kiritdi. Senatning majlisi oyida ikki marta o‘tkaziladigan bo‘ldi. Senatda har yili Oktaviandan tashqari yana ikki konsul saylanadigan bo‘ldi. Bu ikki konsulning vakolati 4 oy bilan cheklangan edi. Oktavian senatorlar ro‘yxatini xalq ko‘radigan joyga ilib qo‘yishga buyruq berdi. Imperiyaning so‘nggi davrida konsullik, pretor, edil lavozimlari faxrli unvonga aylandi.

Xalq yig‘inining bir necha funksiyalari senatga o‘tib, senatning vakolatlari kengaydi. Qonunchilik va sud hokimiyati ham senat ixtiyorida edi. Senatorlarning o‘g‘illari ertaroq davlat ishlari bilan tanishishlari uchun balog‘atga yetishlari bilan senator togasini kiyib, senat majlislarida ishtirok etishlariga ruxsat berdi.

Oktavian davrida provinsiyalar imperator va senat provinsiyalariga bo‘lindi, Davlat moliyasi boshqaruvini yangi tartibi belgilandi. Senat provinsiyalaridan tushgan daromadlar eski xazina – erariyga tushadigan bo‘ldi, imperator provinsiyalaridan tushadigan daromadlar yangi tashkil etilgan imperatot xazinasi – fiskka tushadigan bo‘ldi. Amalda erariy ham imperator hokimiyati tomonidan boshqarildi. Senat qarori qonun tusiga kirdi. Senat a’zolarining soni 600 kishi etib belgilandi. Amalda senat imperator takliflarini so‘zsiz qabul qiladigan tashkilotga ega bo‘ldi. Prinseps oldida tuzilgan kengash prinseps takliflarini ishlab chiqar edi. Kengash a’zolari qur’a tashlash yo‘li bilan senat a’zolari orasidan saylangan. Mil. avv. 23-yildan Oktavian tashqi ishlarning barchasini o‘z qo‘lida to‘pladi.

Xalq yig‘ini. Xalq yig‘ini Oktavian davrida saqlanib qoldi. Komissiyalarda Oktavianning o‘zi taklif qilgan qonun loyihasi yoki boshqa magistratlar takliflari muhokama qilindi. Komissiyalarda Oktavian ko‘rsatgan nomzodlar saylanadigan bo‘ldi. Komissiyalar Oktavian o‘limidan keyin o‘z funksiyalarini to‘xtatdi.

Magistratura. Oktavian davrida barcha magistratura (lavozimlar) saqlanib qoldi. Konsullik lavozimi ham saqlanib qoldi, lekin bir yil muddatga ikkita emas, balki bir necha konsullar saylanadigan bo‘ldi, ulardan ikkitasi yanvar oyida lavozimga kirishib, yilga o‘z nomlarini berdilar, ulardan keyin boshqaruvga boshqa juftlar chiqdilar. Senzura o‘z ahamiyatini yo‘qotdi, mulk senzi va senatorlar ro‘yxatini Oktavianning o‘zi tuzdi. Pretorlar soni 10 tagacha kamaytirildi, lekin ularning funksiyalari kengaytirildi. Ular davlat xazinasi – erariyga boshchilik qildilar. Magistratura to‘la imperator irodasiga bog‘liq bo‘lib qoldi. Muhim jinoiy iishlar doimiy sud komissiyalarida ko‘rila boshlandi.

4.Imperator davlat apparatining shakllanishi. Ilk imperiya davrida respublika muassasalari bilan bir qatorda davlat apparatining yangi ko‘rinishi asta-sekin shakllandi. Oktavian oliy davlat lavozimlariga oliy tabaqa vakillarini tayinladi. Senatorlar orasidan shahar prefekti saylandi. Uning vazifasi Rim shahrida tartib-intizomni saqlash edi. Senatorlar orasidan imperator provinsiyalari noibi etib, propretor darajasidagi legatlar tayinlandi.

Oktavian mil. avv. 27-yilda imperator kengashini tuzdi, uning vazifasi senatda ko‘riladigan ishlarni ko‘rib chiqish edi. Adrian davrida bu kengash oliy davlat organiga aylandi va uning tarkibiga imperator maslahatchilari, yetakchi yuristlar, markaziy muassasalar boshliqlari kirar edi. Inshootlar, qurilishlar ustidan nazorat qiladigan kuratorlar lavozimi joriy

etildi, bu lavozimlarni senatorlar egalladilar. Oktavian davrida alohida topshiriqlarni bajaradigan prokuratorlar lavozimi keng tarqaldi. Ular moliya ishlarini, alohida kichik provinsiyalarni boshqarishda ishtirok etdilar. III asr o‘rtalarida prokuratorlar soni 182 kishiga yetdi. Imperator saroyining keng tarmoqli devonxonasi – kanselyariya yuqori tashkilotga aylandi. Davlat muassasalarining har birida hisob-kitob bo‘limi mukammal tashkil etilgan edi.

Oktavian suvoriylar uchun mulk senzini 400 000 sestersiy miqdorida belgiladi. Imperiya davridan suvoriylar qatlami vakillari davlat boshqaruv apparatida muhim o‘rinlarni egalladilar. Suvoriylar uchun eng oliy lavozim pretorian gvardiyasi qo‘mondoni – prefekt propretori lavozimi edi. Pretorian kogortalari Oktavianning shaxsiy xavfsizligini, Rim shahri va Italiyada tartib-qoidalarni saqlashga xizmat qildilar. Suvoriylar orasidan imperatorning mulki hisoblangan Misr provinsiyasi prefekti tayinlandi.

Ilk imperiya davrida imperatorlar o‘z boshqaruv apparatiga ega emas edilar. Imperatorning oila a’zolari, xizmatchilari va ozod qo‘yilgan qullari boshqaruvda yordam berdilar. Imperator davlat apparatining quyi lavozimlari Imperatorning ozod qo‘yilgan qullaridan to‘ldirildi. Klavdiy davrida imperatorning ozod qo‘yilgan qullari yuqori lavozimlarni egallab oldilar va o‘z lavozimlarini suiiste’mol qildilar. Imperatorlar o‘zlarining tashkilotchi ozod qo‘yilgan qullaridan boshqaruvda foydalandilar. Bunday ozod qo‘yilgan qullar hukmdorga katta ta’sir o‘tkazdilar va ulkan hokimiyatga ega bo‘ldilar. Kaligula davrida ozod qo‘yilgan qul Kallist cheklanmagan hokimiyatga ega edi, Klavdiyning ozod qo‘yilgan quli Pallant imperatorning rafiqasini qatl etilishiga erishdi. Pallant imperatorni Agripinnaga uylantirdi. Bularning har ikkalasi ham prinsepsdan ko‘ra boy edilar. Neron o‘z quli Geliy bi-

lan amalda hokimiyatni birgalikda boshqardi. Imperatorlar Galba, Vitelliyning ozod qoyilgan qullari ham katta ta'sirga ega bo'ldilar. Ozod qo'yilgan qullarning cheklanmagan hokimiyatiga faqat imperator Adrian chek qo'ydi.

Prokurator. Prokuratorlar uncha katta bo'lmagan provinsiyalarga noib bo'ldilar, soliqlarni yig'dilar, turli xo'jalik vazifalarini bajardilar. Ular provinsiyaga bevosita imperator tomonidan tayinlanadigan kishi bo'lib, ular imperatorning shaxsiy mulkini boshqarib, imperator xazinasiga soliq to'lovlarini tushirganlar. Imperator provinsiyalarida ayniqsa kichik provinsiyalarda prokuratorlar noib vazifasini bajarganlar. Noiblikka faqat senatorlar tarkibidan tayinlanadigan senat provinsiyalaridan farq qilgan holda imperator provinsiyalarida prokurator etib suvoriylar, qisman imperatorning ozod qo'ygan qullari ham tayinlangan.

Harbiy-ma'muriy sohani prefektlar boshqardilar. Milodiy 6-yilda Rimda yong'in xavfsizligi kogortalariga boshliq etib prefekt tayinlandi. Milodiy 6-yilda Rimda yong'in xavfsizligi kogortalariga boshliq etib prefekt tayinlandi. Rim respublikasi davrida bosib olingan shaharlarning ayrimlarini Rimdan yuborilgan prefektlar boshqardi. Misr davlati tugatilganidan keyin Misrni suvoriylar toifasidan bo'lgan prefekt boshqardi. Misr Rim shahrini g'alla bilan ta'minlaydigan asosiy hudud edi. Rimdan yuborilgan prefekt Misrning ma'muriyati va moliyasini boshqarib, bu yerda joylashgan 2 legionga qo'mondon edi. Misr prefekti ayrim diniy marosimlarida Misr fir'avni sifatida chiqar edi. Shu tarzda prefekt mahalliy hokim, prokurator, propretor legati, prokonsul lavozimlarini o'zida birlashtirgan Rim amaldori sifatida chiqar edi. Suvoriylar toifasidan chiqqan mansabdor uchun Misr prefekti lavozimi mansablarning eng cho'qqisi hisoblanar edi.

RIM IMPERIYASINING OLTIN DAVRI (MILODIY II ASR)

Rim imperatorlari o‘z hokimiyatlarini mustahkamlash, Rim xalqi ko‘nglini olish uchun bosqinchilik urushlarini olib bordilar. Gullabyashnagan mamlakatlar, hududlar talon-taroj qilindi, o‘nlab etnoslar qul qilindi yoki qirib yuborildi. Rim imperiyasining oltin davri mazmuni shundan iborat edi.

1. **Rim imperiyasining oltin davri (milodiy II asri).**
2. **Imperium Romanum.**
3. **Ijtimoiy-iqtisodiy hayot.**
4. **Rim va uning qo‘shnilari.**

1. Rim imperiyasining oltin davri (milodiy II asri). Domitsian o‘ldirilganidan so‘ng, imperatorlar 100 yil davomida senat bilan kelishgan holda davlatni boshqardilar. Imperatorlar provinsiyalar ravnaqi uchun qator tadbirlarni amalga oshirdilar. Imperatorlar bosqinchilik urushlari olib bordilar. Shuningdek, ular Rimning qadimgi urf-odatlari va an’analariga hurmat bilan qaradilar va san’atga homiylik qildilar. Ayniqsa, Italiyadan tashqarida tug‘ilgan birinchi Rim askar-imperatori Mark Ulpiy Trayan (98 – 117-yillar) va imperator-faylasuf Mark Avreliy (161 – 180-yillar) davlat hokimiyati va jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun o‘zlarining namunali ichki va tashqi siyosatlari bilan shuhrat qozondilar.

Milodiy II asr Antoniylar sulolasi hukmronlik qilgan yuz yil Rim imperiyasining oltin davri hisoblanadi. Bu davrda Rim davlati chegaralari Frot, Dunay va Reyn daryolari bo‘yicha o‘tdi. Frot daryosi ortida qudratli Parfiya davlati turar edi. Dunay bo‘yida hozirgi Ruminiya hududida Dakiya davlati tashkil topdi.

Rim armiyasi mil. avv. II asrda Old Osiyo sharq davlatlarining zaiflashuvi oqibatida yaqin sharqda katta hududlarni bosib oldilar. Rimga qarshi sharqda faqat O‘rta Osiyodagi qudratli Parfiya davlati qarshi tura oldi. Milodiy II asrdagi Rim imperiyasi to‘g‘risida O.Shpengler shunday yozadi: «Rim imperiyasining tashkil topishi qachonlardir Karfagenga qarshi kurashda barcha harbiy va moliyaviy resurslarni favqulodda safarbar qilinganidek paydo bo‘lmadi, Aksincha Qadimgi Sharqning tashqi o‘z-o‘zini belgilashdan voz kechishi natijasida sodir bo‘ldi. Ajoyib harbiy yutuqlar bilan maqtanish xayoli bilan aldanmaslik kerak. Lukull va Pompeyning yomon tayyorlangan, yomon boshqarilgan, yomon kayfiyatda bo‘lgan legionlari bilan butun bir podshohliklarni bo‘ysundirdilar» (О.Шпенглер. Закат Европы, стр 42. ОСР. 2007).

Reyn daryosi Rimga qaram Galliyani german qabilalari yerlari ajratib turar edi. Bu davrda Rim imperiyasi istilochilik urushlarini olib bormadi, lekin chegaralarni mustahkamladi.

Imperator Trayan (mil. 98 – 117-yillar), Adrian (117 – 138-yillar) va Mark Avreliy (161 – 180-yillar) davrida yaxlit mudofaa liniyalari shakllandi. Mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hayoti barqaror rivojlanishni boshdan kechirdi. Rimning barcha hududlarida qonunchilik, sud hokimiyati, soliq miqdori bir xil tartibga tusha boshladi. Provinsiyalar ham huquqlarda Italiya bilan tenglasha boshladi. III asr boshlarida (212-yil) Rim imperiyasining barcha hududlari aholisi huquq va majburiyatlarda tenglashtirildi.

Mark Koksey Nerva (96 – 98-yillar). Domitsian o‘limidan so‘ng, senat 66 yoshli senator Mark Koksey Nervani imperator etib sayladi. Nerva qadimgi senator urug‘idan bo‘lib, uning saylanishi senat va imperator o‘rtasidagi kelishuvning ramziy belgisi edi. Nerva agrar qonun qabul qilib, eng kambag‘al fuqa-

rolarga 60 mln sestersiy baholangan yerni taqsimlab berdi. Kam ta'minlangan fuqarolarning farzandlari uchun aliment jamg'armasi tashkil etdi. Rim plebsining ko'nglini olish uchun tarqatiladigan tekin pul mablag'i miqdorini ko'paytirdi. Xarajatlarni kamaytirish maqsadida bir necha diniy bayramlarni tugatdi, tejamkorlik bilan xarajatlarni kamaytirib davlat xazinasini tartibga keltirdi. 97-yilda pretor qismlari isyon ko'tardilar. Nerva qo'shinda tayanchga ega bo'lish uchun Germaniya provinsiyasi noibi Mark Ulpiy Trayanni taxt vorisi etib tayinlashga majbur bo'ldi. Trayan askarlar o'rtasida obro'-e'tiborga ega edi. Nerva 98 yil birov bilan gaplashib turganda qon bosimi oshib ketib, tutqanoq tutib qolishi oqibatida to'satdan vafot etdi.

Adrian davrida Rim fuqaroligiga ega bo'lmagan provinsiya aholisi ham legionlarga harbiy xizmatga qabul qilina boshlandi. Milodiy I – II asrlarda prinsepslar hokimiyatining moddiy asoslari kuchaydi. Provinsiyalarning ko'pchiligining daromadlari imperator xazinasi (fisk)ga tushdi.

Imperator Mark Ulpiy Trayan (mil. 98 – 117-yillar) Trayan Ispaniyadagi boy zodagon oilasidan bo'lib, otasining rahbarligida armiyada oddiy zobitdan reyn legionlari qo'mondonigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. Imperator Nerva 45 yoshli Trayanni asrandi o'g'li deb e'lon qildi. Trayan haqiqiy harbiy bo'lib, safarda armiya oldida piyoda yurdi, oddiy askar ovqatini yedi. Trayan davrida Rimning oxirgi istilochilik urushlari olib borildi. Rim imperatorlari o'z hokimiyatlarini mustahkamlash uchun eng avvalo Rim xalqini tekin non-yog' va tomoshalar bilan ko'nglini olishlari kerak edi. Buning uchun katta miqdorda mablag' kerak edi. Natural xo'jalik hukmronligi sharoitida bunday katta mablag'larni faqat o'zga xalq va hududlarga bosqinchilik urushlari bilan topish mumkin edi. Olingan

o‘ljalarning bir qismi plebs uchun tekin non va bayramlarga xarj qilinar edi. Shu sababli Rim hukmdorlari muntazam ravishda bosqinchilik urushlarini olib bordilar. Gullab-yashnagan mamlakatlar, hududlar talon-taroj qilindi, o‘nlab etnoslar qul qilindi yoki qirib yuborildi. Rim imperiyasining oltin davri mazmuni shundan iborat edi.

Trayan faol tashqi siyosat olib borib, imperiya hududlarini kengaytirdi. Trayan davrida legionlar soni 30 taga yetkazildi. Rim armiyasi 101 – 103 va 105 – 107-yillardagi ikki urushda Dunay bo‘ylaridagi kuchli Dakiya podshohligini bo‘ysundirdi. Dakiyaning podshohi Detsebal o‘z joniga qasd qildi va Dakiya Rim provinsiyasiga aylandi. Dakiyaning oltin va tuz konlari Rim uchun katta o‘lja bo‘ldi. Dakiya g‘alabasiga bag‘ishlab bu mamlakatni talash natijasida olingan o‘ljalar hisobiga Rimda 123 kun tomoshalar uyshtirildi. Plebeylarga urush o‘ljalari hisobidan mo‘l-ko‘l sadaqa ulashildi. Olingan o‘ljaning katta qismiga Trayanning termalari (hammomlari), yangi suv quvuri hamda balandligi 30 metrli Trayan kolonnasi bunyod etildi. Rim 106-yilda Arabistonda savdo yo‘lida joylashgan Nabatey davlatini bosib oldi.

Trayan sharqda bosqinchilik urushlarini davom ettirdi. Sharqda bu vaqtda Rim istilosiga qarshi tura oladigan yagona davlat Parfiya edi. Rim Parfiya tarkibidagi boy Mesopotamiya va Armanistonni tortib olish uchun 113-yilda urush boshladi. Keyingi yil Armanistonni bosib olib, uni Rim provinsiyasiga aylantirdi. Imperator 115 – 116-yillarda Parfiya podshohi Vologes IV qo‘shinlarini tor-mor qilib, Parfiyaning poytaxtlaridan biri bo‘lgan Ktesifon shahrini ishg‘ol qildi. Mesopotamiya Fors qo‘ltig‘igacha vaqtincha bo‘lsa-da rimliklar qo‘liga o‘tdi. Mahalliy aholi bosqinchi rimliklarga qarshi ozodlik urushini to‘xtatmadi. Mahalliy aholining ozodlik urushi natija-

sida Trayanning legionlari Frot daryosi qirg‘og‘idan haydab chiqarildi.

Italiyaga qaytishda Kichik Osiyodagi Kilikiyada Trayan kasal bo‘lib, 117-yil avgustida vafot etdi. Trayan hukmronligi yillarida imperiya o‘z iqtisodiy-siyosiy va madaniy taraqqiyotining eng yuqori cho‘qqisiga chiqdi (96 – 196-yillar). Bu imperiyaning oltin davri edi. Shundan so‘ng Rim imperiyasining turg‘unlik va tushkunlik davri boshlanib, bu tushkinlikdan chiqish uchun III siyosiy-iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. Lekin bu islohotlar o‘zga xalqlar, mamlakatlarni talash hisobiga yashashga asoslangan imperiyani halokatdan saqlab qola olmadi.

Publiy Eliy Adrian (117 – 138-yillar). Taxtga Trayanning jiyani, 41 yoshli asrandi o‘g‘li Publiy Eliy Adrian chiqdi (117 – 138-yillar). Bu davrga kelib Rim davlatining istilochilik urushlarini olib borishga holi qolmadi. Istilochilik urushlari uchun kerakli mablag‘ va odam kuchi zaxiralari tugadi. Adrian Trayanga loyiq yaxshi ma’lumot olgan, ajoyib boshqaruvchi, tajribali sarkarda, aqlli va uzoqni ko‘ra oladigan siyosatchi sifatida o‘z oldida turgan muammolarni juda yaxshi tushunar edi. Adrian davlat resurslari to‘la tugagani va Sharqda bosqinchilik siyosatining samarasizligini anglab yetdi va qudratli Parfiya davlati Frot daryosi bo‘yicha chegaralarni tiklash sharti bilan tinchlik shartnomasini tuzdi. Bu shartnoma asosida Parfiya davlati bilan tinchlik 44 yil saqlandi. Adrian imperiyaning sharqiy chegaralarida kuchli mudofaa inshootlarini bunyod qildi.

Imperiyaga qo‘shni bo‘lgan german qabilalari rimliklarning zulmiga qarshi turgan kuchli raqib edi. Ular Rim bosib olgan o‘z hududlarini Rimdan tortib olish uchun harakatga tushdilar. Shu sababli Adrian Yevropa va Afrikada bosib olingan hududlarda Rim hukmronligini saqlab qolish uchun chegara is-

tehkomlarini qurish bo‘yicha ulkan ishlarni amalga oshirdi. Adrian tomonidan barpo etilgan ana shunday istehkomlardan biri Adrian vali (istehkomi) qo‘ldiqlari Britaniyada hozirgacha saqlanib qolgan.

Adrian armiyani yuqori jangovar holatda saqlab turishga katta e’tibor berdi. Bu vaqtda qo‘shinga xizmat qilishga xohish bildirgan fuqarolar soni keskin qisqardi. Shu sababli Adrian legionlar safini Rim fuqarosi yoki lotin fuqaroligi bo‘lmagan provinsiya aholisidan to‘ldirishga ruxsat berishga majbur bo‘ldi. Rim armiyasi safida German xalqlari vakillari soni o‘sib bordi. Adrian davlat boshqaruvi tizimini mustahkamlashga qaratilgan qator tadbirlarni amalga oshirdi. U prinseps kengashini qayta tashkil qildi. Kengash tarkibiga oliy amaldorlar, muassasa rahbarlari va taniqli yuristlar jalb qilindi. Senatning mavqeyini ko‘tardi, juda kamdan-kam yangi senatorlarni tayinladi, senatorlik unvonini Rim fuqarosi uchun eng oliy mukofot deb hisobladi. Adrianning o‘zi shaharda bo‘lganida ham, yoki o‘zi yo‘qligida ham sud hokimiyatiga ega bo‘lgan suvoriylarga senatorlarni sud qilishga ruxsat bermadi. Rim qonunchiligi tartibga solindi, Taniqli yurist Salviy Yulian qonunchilikni tartibga solishda Adrianga yordam berdi. Tartibga keltirilgan qonunlar abadiy edikt nomini olib, davlat kodeksi deb e’lon qilindi. Bu kodeksga faqat imperatorning reskripti (maxsus qaror) bilan o‘zgartirishlar kiritish mumkin edi. Adrian sud ishlarini senatorlar va suvoriylarlarni taklif qilgan holda ko‘rib, sud ishi bo‘yicha o‘z qarorini ular bilan maslahatlashib chiqardi. Adrian davrida davlat boshqaruvida suvoriylar toifasining vakillari ko‘payishi kizatildi.

Qullarning ahvoli bir qadar yengillashdi, Adrian qullarni qatl qilishni taqiqladi. Uning vorisi Antonin Piy qullarga ibodatxona mehrobi va imperatorlar haykallari oldida panoh izlash huquqini berdi. Davlat

pochtasi joriy qilindi. Provinsiyalar boshqaruvi qayta tuzilib, noiblar faoliyati ustidan doimiy nazorat o‘rnatildi. Adrian katta qurilish ishlarini olib bordi: Rimda Venera va Roma ibodatxonalari, barcha ilohlarga bag‘ishlangan mashhur Rim panteonini bunyod qildi.

Adrianning umri mamlakat bo‘ylab safarlarda o‘tdi. U deyarli barcha provinsiyalarga safar qildi. Safar davomida aholining turmush tarzini o‘rgandi, joylarda turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qildi. Yordamga muhtoj, kambag‘al provinsiyalarga moliyaviy yordam ko‘rsatdi. Rim shahri aholisi bilan provinsiyaliklar o‘rtasidagi farq yo‘qoldi. Provinsiya noiblari faoliyati ustidan qat’iy nazoratni amalga oshirdi. Mamlakatning barcha hududlarida bir xil sud-qonunchilik tartibi, bir xil soliqlarni joriy qilishga harakat qildi. Provinsiya zodagonlari Adrianning siyosatini qo‘llab-quvvatladilar. Provinsiyalarning ko‘pchiligini daromadlari imperator xazinasi (fisk)ga tushdi. Milodiy I – II asrlarida prinsepslar hokimiyatining moddiy asoslari kuchaydi.

Adrian adabiyot va san’atga homiylik qildi, o‘zi ham adabiyot sohasida ijod qildi. Sharq diniy e’tiqodlariga qiziqdi va astrologiyaga ishondi. Saroylarini hashamatli bunyod etib, san’at asarlari bilan bezadi. Adrian kuchli irodaga ega bo‘lib, har qanday qiyinchiliklarni yengishga o‘zini o‘rgatdi. Charchamasdan uzoq piyoda yurar va qo‘rqmas ovchi edi. Ammo o‘z rafiqasi Sabinaga nisbatan yomon munosabatda bo‘lib, injiqliklari bilan rafiqasini o‘zini o‘zi o‘ldirishiga sabab bo‘ldi.

Adrian 138-yil og‘ir kasallikdan vafot etdi. Uning tantanali dafnidan so‘ng, kuli solingan idish maxsus qurilgan mavzoleyga qo‘yildi.

Antonin Piy (mil. avv. 138 – 161-yillar). Adrianning vorisi, kelib chiqishi Gall shahri Nimdan bo‘l-

gan, boy senatorlardan biri Antonin Piy (mil. avv. 138 – 161-yillar) edi. Antonin Piyning boshqaruv tamoyili aeguetas, felieitas, fides (adolat, baxt, sadoqat) g‘oyasiga asoslandi. Antonin Piy davrida Italiyada iqtisodiy o‘sish davom etdi. U davlat hokimiyatini mustahkamlashda Trayan va Adrian erishgan yutuqlarni mustahkamladi. Antoniy Piy ma’muriy islohot o‘tkazib, davlat hududini 4 okrugga bo‘ldi. Britaniyada Adrian davrida qurilishi boshlangan mudofaa chizigi (vali)ning qurilishini davom ettirdi.

Antonin Piyning hukmronligi davrida Misr (mil. avv. 155 – 152-yillar)da Rimning zulmiga qarshi norozilik harakatlari, yahudiylar qo‘zg‘oloni (mil. avv. 152-yil) yuz berdi. Dakiyada o‘z davlatchiligi va ozodligini qayta tiklash uchun kuchli ozodlik harakati boshlandi. Tashqi siyosatda Adrianning hamkorlik siyosati davom etdi. Parfiya, Hindiston va Girkaniyadan Rimga elchilar keldi. Rim bilan Parfiya o‘rtasida boshlangan urush harakatlari muzokaralar bilan to‘xtadi. Antonin Piy Mavretaniyadagi rimliklar zulmiga qarshi norozilik harakatini bostirdi va Britaniyada urush olib bordi.

Mark Avreliy (161 – 180-yillar). Antoniylar sulolasining taniqli vakillaridan biri, tarixga taxtdagi faylasuf sifatida kirgan Mark Avreliy (161 – 180-yillar) edi. Mark Avreliyga 19 yoshida konsullik unvoni berildi, 39 yoshida konsul etib tayinlandi, 49 yoshida imperator taxtiga o‘tirdi. Mark Avreliy uchun davlat manfaatlari hamma narsadan yuqori bo‘lib, imperiya taqdiri uchun o‘z mas’uliyatini to‘la anglab yetgan edi. U senator va suvoriy toifalari bilan yaqin hamkorlikda ish olib bordi. Senat tarkibiga ko‘pgina provinsiya zodagonlarini, ayniqsa, kelib chiqishi Sharqdan va Afrikadan bo‘lgan nufuzli kishilarni kiritdi. Mark Avreliy Rimning ekspansiv tashqi siyosatini olib bordi, uning butun umri urushlar bilan o‘tdi. Sharqda

Parfiya bilan urush olib bordi. 162-yilda Rim armiyasi Mesopotamiya va Kavkaz ortiga bostirib kirdi. Rim armiyasida boshlangan vabo kasali 166-yilda urush tugashiga sabab bo‘ldi. Parfiya o‘zining bir qism hududini qaytarib oldi, faqat Mesopotamiyaning shimoli-g‘arbiy qismi Rim zulmi ostida qoldi.

Dunay bo‘yi hududlarida 167-yilda germanlarning kvad markoman qabilalari va sarmatlar Rimning zulmiga qarshi kurash boshladilar. Rim armiyasi qiyinchilik bilan bu qabilalar qo‘zg‘olonini bostirdi. 172-yilda Misrda «bukollar» (cho‘ponlar) qo‘zg‘oloni boshlandi, bu qo‘zg‘olon Suriya noibi tomonidan bostirildi. Kvad va markomannlar 177-yilda Rim zulmiga qarshi yana ozodlik urushini boshladilar. Mark Avreliyning o‘zi Rim armiyasiga boshchilik qilib yurishga chiqdi va German qabilalarini ozodlik urushini bostirdi.

Mark Avreliy Rim imperatorlaridan birinchi bo‘lib, Rimning o‘zga xalqlar va hududlarga istilochilik urushlari ularni talash va zo‘ravonlik siyosati abadiy davom etmasligi va Rimning qo‘shni xalq va mamlakatlarga ekspansiyasi nihoyasiga yetayotganini angladi. Rimning bosib olgan hududlarni o‘z egalariga qaytarib berish kerakligi, boshqa xalqlar bilan murosa-muzokaralar yo‘li bilan muloqot qilish kerakligini tushunib yetdi. Rim armiyasida 180-yilda vabo kasalligi tarqaldi. Mark Avreliy ham bu kasallikka chalinib, 59 yoshida Vindobana (Vena) shahrida vafot etdi. Rimda uning sharafiga kolonna bunyod etildi. Mark Avreliy «O‘z o‘zimga» nomli falsafiy asar muallifi. U Antoniy Piyning qiziga uylanib, undan 12 qiz ko‘rdi, lekin ulardan faqat to‘rt qiz voyaga yetdi.

Kommod (180 – 192-yillar). Mark Avreliyning vorisi, uning 18 yoshli o‘g‘li Kommod (180 – 192-yillar) imperator taxtiga o‘tirdi. Antoniylar sulolasining so‘nggi vakili Kommod qo‘pol, shafqatsiz va maishat-

parast hukmdor edi. Otasining o‘limidan keyin Kommod kvad va markomann qabilalari bilan urushni tugatib, 180-yilda Rimga qaytdi. Davlat boshqaruvini o‘zining ochko‘z yaqinlariga topshirib, o‘zi kayf-safoga berildi. O‘z rafiqasini qatl etib, buzuqlik yo‘liga kirdi. Katta jismoniy kuchga ega bo‘lgan imperator o‘zini rimlik Gerkules deb e’lon qildi. U xalq ommasi oldiga arslon terisini yopinib, yelkasida kaltak bilan paydo bo‘lar edi. Amfiteatr sahnasidagi tomoshalarda gladiator sifatida chiqdi. Cheklanmagan hokimiyat, atrofdagi laganbardorlarning qullarcha uning har qanday istagini so‘zsiz bajarishi tor dunoyqarashga ega Kommodni aynitdi. Oxir-oqibatda es-hushini yo‘qotib, kalendarning barcha oylarini o‘z nomiga o‘zgartirdi. Hatto Rim shahrining nomini o‘zgartirib, uni «Kommod» shahri deb atashga buyruq berdi.

Kommodga qarshi 183-yilda singlisi Anniya Lusilla boshchiligida fitna uyushtirildi, lekin u amalga oshmadi. Shundan so‘ng, senatorlar toifasiga qarshi ta’qib – qatllar avj oldi. Lusilla Kapri oroliga surgun qilindi. Pannoniya va Britaniyada norozilik harakatlari, daklar va markomannlarning Rim zulmiga qarshi qo‘zg‘olonlari qo‘shin tomonidan zo‘rg‘a bostirildi. 193-yilga o‘tar kechasi Kommod ma’shuqasi Marsiya va pretor gvardiyasi boshlig‘i fitna uyushtirdilar. Marsiya Kommodga zaharlangan vino berdi, lekin zahar ta’sir etmadi. Shundan so‘ng Kommod bilan kurash mashqlarini o‘tkazadigan qul – atlet Narsiss Kommodni gladiatorlar kazarmasida bo‘g‘ib o‘ldirdi. Kommod keyingi kun gladiator kiyimida konsullikni qabul qilishi kerak edi. Senat aqlsiz hukmdor o‘ldirilganidan mamnun bo‘ldi va Kommodni vatan dushmani deb e’lon qildi. G‘azablangan olomon senatdan Kommodni o‘ligini ilmoq bilan sudrab Tibr daryosiga tashlashni va uning nomini barcha inshootlardan o‘chirishni talab qildi. Keyingi imperator Septi-

miy Sever taxtga kelganda, Mark Avreliy oilasining ko‘nglini olish uchun Kommodning tug‘ilgan kunini bayram qilishga farmon berib, uning yaqini Narsisni sherlar oldiga yemishga tashladi.

2. Imperium Romanum. Milodiy I asrga kelib Rim asrlar davomida kichik bir shahar davlatdan bepoyon hududga ega bo‘lgan davlatga aylandi. Bu vaqtda deyarli butun O‘rtayer dengizi davlatlari Rimga bo‘ysunar edi. Provinsiyalar Rim davlatining bir qismi emas, balki Rim xalqining pomestesi (ya’ni daromad oladigan yeri) (praedia populi Romani), uning qonunchilik va sud hokimiyati (imperium) tarqaladigan qaram hududlar deb qaraldi. II asrga kelib qachonlardir Rim qonunchilik va sud hokimiyatini bildirgan Imperium Romanum tushunchasi Rim imperiyasi ma’nosini oldi; bu so‘zning ostida Rim hokimiyati qamrab olgan bepoyon hudud tushunildi. Boshda imperator unvoni jang paytida askarlar tomonidan urushda muhim g‘alabaga erishgan Rim qo‘shini qo‘mondonlariga berilgan. Rim respublikasi o‘rnida mutlaq monarxiya qaror topgach, hokimiyatni egallagan har bir hukmdor o‘zini harbiy qo‘shin bilan aloqasini ko‘rsatish uchun imperator unvonini oldi. Chunki mutlaq monarxiyaning ishonchli tayanchi armiya edi. Boshqaruv tizimi va apparati imperator qo‘lida to‘plana boshladi. Senat o‘z siyosiy mavqeyini yo‘qotishi bilan uning tarkibi ham o‘zgardi.

Respublika davrida yuqori mavqega ega bo‘lgan qadimgi zodagon oilalari fuqarolar urushi va proskripsiyalarning qurboni bo‘ldilar. Qolganlari esa, kambag‘allashib qoldi. Prinsipatning birinchi yillarida ularning o‘rnini suvoriylar, munisipiylardan chiqqan boy zodagonlar egalladilar. Klavdiy davrida senat tarkibiga gall qabilasi ekvlarning romanlashgan zodagonlari uchun yo‘l ochildi. Vespasian davrida senatga munisipiylar, koloniyalar va provinsiyalardan yangi

kishilar kiritildi. Milodiy I asri so‘nggida kelib chiqishi gallardan bo‘lgan kishilar senatga kiritildi. Keyingi 100 yillik boshida senat tarkibida Kichik Osiyo va Afrikadan kelgan senatorlar, ko‘pgina yunonlar uchraydi. Qadimgi Rim nobilitetining vakillari senatda deyarli qolmadi va ular bilan birga senatdagi muxolifat kayfiyati ham yo‘qoldi.

Prinsepslar hokimiyatining yana bir tayanchi suvoriylar toifasi edi. I – II asrlarda suvoriylar savdo-moliya zodagonlari mavqeyini saqlab qoldi. Lekin bu davrda suvoriylar xizmatdagi odamlarga aylana boshladi. Ularning ijtimoiy tarkibi ham o‘zgardi. Yangi suvoriylarning kelib chiqishi Italiya munitsipiylari va provinsiyalardan edi. Suvoriylarning yuqori qatlamini, eng avvalo, boyib ketgan moliya zodagonlari, o‘rta qatlamni esa davlat xizmatiga ko‘tarilgan amaldorlar tashkil qildi. Suvoriylarga prokuratorlar lavozimi, provinsiyalardagi prinseps mulklarining boshqaruvi, pretorian gvardiyasi prefekti, politsiya xizmati qo‘riqchilarining prefekti kabi lavozimlar ajratildi. Adrian davrida suvoriylar prinsepsning shaxsiy devonxonasida xizmat qila boshladilar. Shu vaqtgacha prinsepsning shaxsiy devonxonasida barcha ishlarni imperatorlarning ozod qo‘yilgan qullari bajarar edi. Avgurt davridan suvoriylar toifasining vakili uchun eng oliy daraja pretor prefekti lavozimi bo‘lib, undan keyingi o‘rinda Misr prefekti turar edi. Suvoriylar toifasi imperator hokimiyatining mustahkamlanishiga va imperator boshqaruvining oqilona bo‘lishiga yordam berdi.

Rim shaharlari byudjeti turli boj to‘lovlari, ijaraga berilgan yerlardan olngan ijara puli hisobidan shakllantirilgan. Nerva va Trayan davrlarida shahar prokuratorlari lavozimi joriy qilinib, ular keng vakolatga ega bo‘lib, shahar moliyasini ham nazorat qilganlar. Shaharlarda shahar senati, (keyinchalik kuriya deb

atalgan) boshqaruv organi bo‘lgan ikki odil shahar obodonchiligi, o‘yinlar va bayram uchun mas‘ul bo‘lganlar.

Rim shahrining aholisi mil. avv. II asrda 1 mln kishi, Rim dunyosining barcha aholisi 50-60 mln kishini tashkil etgan. Rim imperiya poytaxti sifatida hashamatli jamoa binolari bilan bezaldi. Har bir imperator o‘z nomini abadiylashtirish uchun terma, ibodatxona yoki zafar arki, bazilika (ayvon) bunyod qildi. Tomoshalarni uyushtirishga ulkan mablag‘lar sarflandi. Rim shahrining 200 mingga yaqin plebsi muntazam bepul non olar edilar; deyarli har bir imperator davrida favqulodda pul tarqatilar edi (congiaria). Imperiya davrida Rim olomonining asosiy talabi shoir Yuvenal aytganidek «non va tomosha» edi. Rim plebsi sirk va amfiteatrlarda tomoshalar vaqtida ba’zi paytda hukmronlik qilayotgan imperatorga uning faoliyatini yoqlab olqishlar yoki boshqa talablarni qo‘yar edilar. Rimdagi ko‘pchilik plebs kambag‘al bo‘lib, ularning bir qismi ishlab-chiqarish bilan band bo‘lib, o‘z patronlarining xayr-ehsoni bilan yashar edilar. Boshqalari davlatdan tekin non olib, zodagonlarning uylarida kliyent majburiyatini bajarar edilar. Poytaxt Rim iste’molchi markaz bo‘lib, g‘alla Afrika va Misrdan keltirilgan. Shahar oziq-ovqati va ayniqsa, kambag‘allar uchun asosiy yemish bo‘lgan g‘alla ta’minoti bilan prinseps farmoniga ko‘ra alohida amaldor shug‘ullanar edi. Rim shahrining kambag‘al aholisi hamma vaqt tinchlikka tahdid tug‘diradigan tartibsiz olomon bo‘lib, davlat hokimiyati ularning kayfiyatini doimo kuzatib borar, shoir Yuvenal aytganidek «non va tomosha» siyosatini qo‘llab, ularni tinchlantirar edi. O‘tgan respublika davridagidek imperiya davrida ham milodiy I – II asrlarda Rim shahrida 200 ming kishiga tekin non yoki g‘alla tarqatilar edi.

Imperator Tiberiy davrida mansabdor kishilarni komissiyalarga saylash taqiqlandi. Shu vaqtdan boshlab Rim shahri oddiy aholisi yoki proletariat siyosiy huquqlardan mahrum bo‘ldi. Rim proletariatining bir qismi hunarmandchilik, savdo va boshqa xizmat ko‘rsatish sohalarida (oshxona, sartaroshxona, hammollik, qorovul, uy xizmatchisi va boshqalar) mehnat qilib tirikchilik qildilar. Lekin bu yerda ular qullar va ozod qo‘yilganlar bilan shafqatsiz raqobatda edilar. Qolgan ko‘pchilik esa davlatdan tekin non olib, boy patritsiy va plebey-patronlarga kliyent bo‘lib qoldilar. Endilikda patron Respublika davrida bo‘lganidek, lavozimga saylanishda ularning ovoziga muhtoj emas edi. Patronlar o‘z obro‘-e’tiborlarini saqlab turish uchun kliyentlar bilan aloqani saqlab qoldilar, lekin kliyentlarga juda oz haq to‘ladilar. Faqat ayrim kliyentlargina uzoq muddatli sadoqat bilan xizmat qilgandan so‘ng, patrondan bir parcha yer ulushi olishga erishganlar. Rim shahrining oddiy aholisining og‘ir hayotini imperator hokimiyati tashkil etadigan hashamatli bayramlar va tomoshalar bir qadar bezar edi. Hozirgi zamonaviy jamiyatdagi ayrimlar sport o‘yiniga ishqiboz bo‘lganlaridek, qadimgi Rim shahri aholisining barcha tabaqalari ot poygalariga juda qiziqganlar. To‘rt ot qo‘shilgan arava – kvadriga haydovchilari katta sirkda uyushtiriladigan ot poygalarida katta miqdorda pul ishlab olganlar. Ana shunday haydovchilardan biri Skorp bir soatda 15 hamyon oltin ishlab olgan. Poyga «qizillar», «yashillar», «oqlar», «ko‘klar» deb nomlangan komandalar o‘rtasida musobaqa shaklida o‘tkazilgan. Imperatorlar ham bu poygalarga ishqiboz bo‘lganlar va sirkda tomoshabin sifatida poygani tomosha qilganlar. Svetoniy Kaligula to‘g‘risida shunday ma’lumot beradi: Imperator Kaligula poygada g‘olib bo‘lgan arava haydovchisi Yevtixga 2 mln, sestersiy hadya qiladi. Im-

perator Neronning o‘zi sirkda yashil kiyimda poygaga ishtirok etib, «ko‘klar»ni ta’qib qilgan.

3. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Milodiy II asr Rim imperiyasining «oltin davri» hisoblanadi. Bu vaqtda imperiya eng katta hududga ega edi. Uning chegaralari shimolda Shotlandiyadan, janubda Nil ostonalarigacha, g‘arbdan Atlantika qirg‘oqlaridan, sharqda Fors qo‘ltig‘igacha cho‘zilgan edi. Quldorlik tizimi o‘z taraqqiyotining yuqori cho‘qqisiga chiqdi. Ko‘p quldorlik xo‘jaliklari bozor uchun mahsulot ishlab chiqarishga o‘tdi. Qullarga nisbatan shafqatsiz zulm kuchayib ketdi. Bu davrda provinsiyalarning iqtisodiyoti va bu yerdagi shahar hayoti o‘z taraqqiyotida yuqori bosqichga ko‘tarildi. Milodiy I – II asrlarida O‘rtayer dengizi hududidagi barcha xalqlar tarixda birinchi bor yagona davlat – Rim imperiyasi tarkibiga kirdilar. Rim provinsiyasiga aylantirilgan alohida davlatlar o‘rtasidagi chegaralar tugatildi. Pul tizimlari ma’lum darajada unifikatsiya qilindi. Urushlar va dengiz qaroqchiligi tugatildi. Rim imperiyasidagi xalqlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining turli darajalarida yashar edilar. Misr, Suriya, Kichik Osiyo, Bolqon va Makedoniya iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning yuqori darajasiga erishdi. Pireney yarim orolidagi va Galliyadagi iberlar, keltlar, Shimoliy Afrikadagi numidiyaliklar, liviyaliklar, Dunay bo‘yidagi pannonlar, illiriyaliklar va mezlar hali arxaik davrning so‘nggi bosqichida edilar.

Rim istilolariga qadar g‘arbiy provinsiyalarda qishloq xo‘jaligi qoloq bo‘lib, asosan g‘alla ekilgan. Yerga ishlov berish ibtidoiy holatda edi. Apennin yarim oroli aholisi qishloq xo‘jaligining rivojlangan shaklini g‘arbiy provinsiyalarga olib kirdilar. Gall vinolari, ispan zaytun moyi Italiya va yunon navlari bilan raqobat qila boshladi. Imperiya hududida quldorlik xo‘jaligi tez rivojlandi. O‘rta va yirik quldor xo‘jaliklari (villa)

yetakchi o‘ringa chiqdi. Quldorlik xo‘jaliklarida qul mehnatidan keng foydalanildi. Barcha provinsiyalarda imperator yer egaligi keng tarqaldi. Milodiy II asrida imperator yerlari va xususiy katta latufundiyalar yetakchi yer egaligi shakli edi. G‘arbiy provinsiyalarda o‘rta quldor pomestelari, mayda yer egaligi keng tarqaldi. Ayniqsa, kichik yer egaligi Pannoniya, Dalmatsiya, Meziya, Frakiya va Fokeyada keng tarqaldi.

Afrika provinsiyalarida quldorlik xo‘jaliklarida asosiy ishchi kuchi sifatida qullar mehnati keng tarqaldi. Misr imperiyaning g‘alla ombori edi. Quldorlik latifundiyalari Galliya va Ispaniyada keng tarqalgan bir paytda Ispaniya va Afrikaning sharqiy provinsiyalarida kolonlar mehnatiga asoslangan latifundiyalar ko‘paydi. Qullarga ish qurollari va chek yerlar ajratib berila boshlandi. Lekin qul xo‘jayinning mulki bo‘lib qolaverdi. Qulni mulk (pekuliy) bilan ta’minlash mil. avv. III asrdayoq ma’lum edi. Keyinchalik bu odatdagi hol bo‘lib qoldi. Qul pekuliydan foydalangan holda o‘ziga o‘rinbosar sotib olishi mumkin edi. O‘rinbosar qul uning xo‘jayiniga ishlab berishi kerak edi. Imperiya davrida qullarni ozodlikka chiqarish kuchaydi. Ozod qo‘yilgan qullar o‘z patronlari bilan aloqani uzmas edi, patron o‘zining tadbirkor bo‘lgan ozod qo‘yilgan quliga homiy bo‘lib qolaverdi. Ozod qo‘yilgan qullar Rim fuqaroligi yoki lotin fuqaroligi huquqini olganlar. Lekin ularning bolalari hech qanday cheklovsiz erkin fuqarolar bo‘lganlar. Imperator saroyidagi iqtidorli ozod qo‘yilgan qullar maxsus topshiriqlarni bajarganlar, hatto yuqori martabalar berilib, prokurator etib tayinlanganlar. Ozod qo‘yilgan qullar ko‘p hollarda tadbirkorlik bilan shug‘ullanib, boyib ketar edilar. Ular o‘z xo‘jayinlariga zarurat tug‘ilganda turli xil xizmatlarni ko‘rsatganlar. Misol uchun, diktator Sullaning ozod qo‘yilgan quli Xrisogon Rim davlatidagi eng qudratli kishilardan biri bo‘lib, hat-

to uning oldida senatorlar ham titrab-qaltirar edilar. Ammo ko‘pchilik ozod qo‘yilgan qullar o‘rta darajadagi mulkka ega bo‘lib, hunarmandchilik va savdo bilan shug‘ullanar edilar. Shaharlarda oshxona – tavernalar egalarining ko‘pchiligi ozod qo‘yilgan qullarga tegishli bo‘lgan.

Quldor – latifundistlar (yirik yer egalari) o‘z yerlarini chek yerlarga bo‘lib, kolonlarga ijaraga berganlar. Milodiy II asrida kolonlar o‘zlari yetishtirgan bug‘doy, tariq va zaytun moyining 1/3 qismini yer egasiga berishi kerak edi. Bundan tashqari, kolon quldorning yerida bir necha kun ishlab berar edi. Yerga ishlov berish takomillashdi. G‘alla va boshqa ekinlarning yangi navlari, o‘g‘itning yangi navlari joriy qilina boshlandi. Qishloq xo‘jaligi takomillashdi. G‘alla latifuniyalarida g‘allani yig‘adigan mexanizm, g‘ildirakli plug, suv tegirmoni kashf etildi. Provinsiyalarda shaharlar va shahar aholisining o‘sishi, qishloq xo‘jalik mahsulotlarining Italiya va imperiyaning boshqa viloyatlariga chiqarish imkoniyatining paydo bo‘lishi provinsiya qishloq xo‘jaligida yerdan unumli foydalanish va tovar xo‘jaligining kirib kelishi uchun shart-sharoit yaratdi.

Quldor xo‘jaligi endilikda bozor bilan yanada yaqin bog‘landi. Qishloq xo‘jaligida tovar munosabatlarining rivojlanishi latifundiyalarda hunarmandchilikni vujudga keltirdi. Latifundiya egalari kulolchilik, to‘quvchilik, duradgorlik, oshpazlik kabi hunarmandchilik ustaxonalarini ochdilar. Ba’zi gall latifundiyalarida konlardan temir rudasi qazib olinib, metall ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Milodiy I asrlarda qishloq xo‘jaligi bilan birga, hunarmandchilik va savdo keng rivojlandi. Rim hunarmandchiligi uchun Ispaniyadagi qo‘rg‘oshin va mis konlari, Galliyaning temir va qalay konlari, Norika, Dalmatsiya, Kilikiya va Kap-

padokiyaning boy temir konlari xomashyoni yetkazib berib turar edi. Ayniqsa, temir rudasini qazib chiqarish keng yo‘lga qo‘yildi.

Temir rudasi Norika va Dalmatsiya, Galliya va Ispaniya, Kappadokiya va boshqa sharqiy hududlarda qazib chiqarildi. Barcha konlar imperatorning mulklari bo‘lib, ko‘pincha ijaraga berilar edi. Hunarmandchilikning rivojlanishi qul mehnatidan keng foydalanish imkoniyatini berdi. Agar o‘tgan asrlarda hunarmandchilik ustaxonalarida ishlagan qullar soni 10 tagacha bo‘lsa, milodiy II asrida ularning soni 50 taga yetdi.

Hunarmandchilik ustaxonasining kengayishi, mehnat taqsimotining o‘sishi uning iqtisoslashuvini o‘sishiga olib keldi. Ammo hunarmandchilikda erkin mehnat yetakchi rol o‘ynar edi. Tog‘-kon ishlarida, qurilish, tosh konlari, marmar konlarida qul mehnatidan keng foydalanilar edi. Ustaxonalarda eng og‘ir mehnat qullar zimmasida edi. Hunarmandchilik taraqqiyoti oshpazlik, g‘isht kuydirish kabi yangi sohalarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Qurilishda betondan foydalanish keng tarqaldi. Milodiy II asrda provinsiyalarda hunarmandchilik ayniqsa yuksaldi. Bir qancha provinsiyalar o‘z mahsulotlarini boshqa provinsiyalarga, shuningdek, Italiyaga eksport qila boshladilar. Ayniqsa, Gall shaharlari nihoyatda rivojlandi. Gall hunarmandlarining kanop gazlamalari, jun yopingichlar va kulolchilik mahsulotlari g‘árbiy provinsiyalar va Italiyada keng tarqaldi. Suriya shaharlari esa, zarbof gazlamalar, zargarlik buyumlari, rangli shisha va gazlamalarni ishlab chiqaradigan asosiy markazlarga aylandi.

Milodiy II asrda hunarmandchilik markazlari yarim oroldan Shimoliy Italiyaga ko‘çhdi. Puteola, Kapuya, Arretsiya kabi an’anaviy hunarmandchilik markazlari tushkunlikka uchradi. Ularning o‘rniga

gall provinsiyalari, Norika va Dalmatsiyaning temir konlariga yaqin Milan, Akvileya va boshqa hunarmandchilik markazlari vujudga keldi. Ayniqsa, Akvileya shahri metall buyumlar va qurol-yarog‘, shisha, zargarlik buyumlari, cherepitsa ishlab chiqaradigan yirik hunarmandchilik markaziga aylandi.

Milodiy I – II asrlarida barcha provinsiyalarda savdo aloqalari keng rivojlandi. Italiya savdogarlari Ispaniya, Suriya, Dakiya, Misr, Mavritaniya va Britaniyaga kirib bordilar. Gall kemalari egalari, savdogarlari Italiya, Reyn viloyatlari va Ispan provinsiyalari bilan faol savdo qildilar. Palmira savdogarlari Dakiya va Misrga kirib bordilar. Shaharlarda ko‘plab savdo do‘konlari va omborxonalar qurila boshlandi.

Milodiy II asrda Rimda ulkan besh qavatli Trayan bozori qurildi. Savdo-sotiqning rivojlanishi provinsiyaning mahsulot ishlab chiqarishining ixtisoslashuviga olib keldi. Ispaniya zaytun moyi va vino, Galliya vino, shisha idishlari, jun mahsulotlari, Misr g‘alla, papirus, granit, shisha buyumlari, Suriya vino, zarbof gazlamalar va zeb-ziynat buyumlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan edi.

Savdogar va hunarmandlar kollegiyalarga birlashdilar. Savdo taraqqiyoti sarroflik va sudxo‘rlikning rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Tashqi savdo rimliklar uchun foydali edi. Rim imperiyasi Qora dengiz hududlari, Sharqiy Yevropa, Eron, O‘rta Osiyo va Hindiston bilan muntazam savdo aloqalarini o‘rnatdi. Milodiy II asrda Sharqdan 3 ta savdo yo‘li O‘rtayer dengizi qirg‘oqlariga borar edi: 1.Petra – Transiordaniya – Damashq – O‘rtayer dengizi; 2.Frot – Palmira – Damashq – O‘rtayer dengizi; 3.Hindiston – Arabiston – Iskandariya.

Afrika provinsiyalaridan Rim savdogarlari Efiopiya, Mavretaniya va hatto Markaziy Afrikagacha kirib bordilar. Imperiya davrida yangi tanga – «au-

reus» zarb qilina boshlandi. O‘ng tomonida hukmdor – imperator tasviri tushirilgan edi. Rim tilla tangasi yuqori baholanar edi. Ko‘p tarqalgan Rim tangalaridan biri kumush denariy edi. Milodiy I asrida denariy sof kumushdan, milodiy II asrining oxiridan esa, mis qo‘shib, tarkibida 50% kumush bilan zarb qilina boshlandi. Mis tanga asosan mahalliy muomalada foydalanilar edi. Mayda savdoda asosan mis tanga sestersiy (4 ass) va dupandiy (2 ass) ishlatilar edi.

Milodiy I – II asrlarida Rim jamiyati turli bir-biriga manfaatlari qarama-qarshi bo‘lgan ijtimoiy tabaqa va qatlamlardan tashkil topgan edi. Jamiyatning hukmron tabaqasi katta yer egalari – quldorlar bo‘lib, ularning yerlarida qullar mehnat qilar edi. Qullar ko‘p sonli bo‘lib, ular asosiy ishlab chiqaruvchi kuch bo‘ldi. Quldor va qullardan tashqari mayda ishlab chiqaruvchilar, kichik chek yerlarning egalari yoki ijarachilar, kichik hunarmandchilik ustaxonalari egalari, mayda savdogarlar qatlami mavjud edi. Tabaqalar o‘rtasida kuchli ijtimoiy ziddiyatlar mavjud edi. Jamiyatda asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlar qullar edi. Milodiy I – II asrlarigacha quldorlik xo‘jaliklarida qullarga bo‘lgan ehtiyoj urushlar natijasida qondirilgan edi. Milodiy II asrda istilochilik urushlarining nihoyasiga yetishi qullar oqimining Rimga kelishini keskin kamaytirdi. Lekin quldorlik xo‘jaliklarida qul mehnatiga ehtiyoj juda kuchli edi. Bu hol qullar narxining keskin o‘sishiga olib keldi. Qul mehnatininng unumdorligidan manfaatdor quldorlar qullarning maishiy turmush sharoitini o‘zgartirishga majbur bo‘ldilar. Qishloq pomestelari va shaharlarda qul cho‘rilar soni o‘sib bordi. Qullarga oila qurishga ruxsat berildi va ular rag‘batlantirildi.

Qullikda tug‘ilgan bolalar (ular vernlar deb atalgan) biror-bir hunarga o‘rgatilgan. Bunday qulning narxi qul bozorlarida yuqori edi. Qullarning oila qu-

rishini rag‘batlantirgan quldorlar qul oilasi uchun chek yer, mehnat qurollari, kulba, kichikroq do‘kon va bir necha qoramol ajratar edilar. Quldor tomonidan ajratilgan bunday mulk «pekuliy» deb atalgan. Milodiy I – II asrlarida pekuliy keng tarqaldi. Quldor sovg‘a qilgan yerini istalgan paytida tortib olishi mumkin edi. Qullarning huquqiy holati ham o‘zgardi. Imperator Adrian qullarni sababsiz o‘ldirishni taqiqladi. Milodiy II asrda yerni ijaraga berish va kolonat keng tarqaldi.

Mil. avv. I – II asrlarda qullar ozodlikka chiqarila boshlandi. Ozod qo‘yilgan qullar o‘zlarining sobiq xo‘jayinlari bilan aloqani uzmadilar, u patron bo‘lib qolaverdi. Ozod qo‘yilgan qullar Rim fuqaroligi huquqi yoki Lotin fuqaroligi huquqini olganlar. Ularning farzandlari hech qanday cheklovsiz ozod fuqaro bo‘lganlar.

Kolon huquqiy jihatdan erkin kishi bo‘lib, yer egasidan shartnoma muddati tugagandan so‘ng ketishi mumkin edi. Shartnoma, odatda, 5 yil muddatga tuzilgan. Kolon 5 yil davomida qarz va boshqa turli majburiyatlar ostida qolib, huquqiy jihatdan o‘z yeridan ketishi mumkin emas edi. U noiloj bu yerda uzoq muddat ishlagan. Erkin, o‘z yerini yo‘qotgan dehqon, batrak va ozod qo‘yilgan qul, yerga ishlashga qaytgan shahar plebeyi kolonga aylanishi mumkin edi. Yerga biriktirilgan qullar ham kolonga aylanar edilar. Kolonatning yana bir manbasi chegara provinsiyalarda asir olingan, yerga joylashtirilgan varvarlar edi. II asr boshlarida yordamga muhtoj qatlamlarga mablag‘ ajratilib, ijtimoiy ta’minot – jamg‘arma tizimi asoslari yaratildi.

3.Rim va uning qo‘shnilari. Milodiy I asr boshlarida Rimning asosiy qo‘shnilari kelt va german qabilalar bo‘lib, ular O‘rta, Shimoliy va Sharqiy Yevropada joylashgan edilar. Eng g‘arbni keltlar egallab,

hozirgi janubiy Germaniya, Bogemiya va Avstriyani egallab, Dunay oqimi bo‘ylab Karpatgacha tarqaldilar. Germanlar ularni siqib borib, bir qismini o‘zlariga qo‘shib oldilar, boshqasini g‘arbga Reyn daryosining ortiga chiqarib yubordilar. Hozirgi Fransiya va Shveytsariya hududidagi kelt yerlarini rimliklar bosib oldilar. Keyin belglar, hozirgi Angliyadagi brittlarning yerlarini ham rimliklar bosib oldilar. Rimliklar istilosidan faqat hozirgi Shotlandiya va Irlandiya hududlarida keltlarning yerlari qoldi. Janubiy Fransiyadagi Gallar Rim bilan yaqin aloqaga kirishdilar, bu hududda gall shaharlari paydo bo‘ldi va rivojlandi. Rim 300 yil egalik qilgan Britaniya yerlari e’tibordan chetda qoldi.

Keltlar va germanlar o‘rtasidagi chegara Reyn daryosi bo‘ylab o‘tdi, germanlar Reynning so‘l qirg‘og‘ini egallashga harakat qildilar. Milodiy I asr boshlarida germanlar O‘rta Yevropa yerlarini Shimoliy va Boltiq dengizlariga quyiladigan yerlar oqimi bo‘yicha joylashdilar. Janubda germanlarning chegaralari Dunay daryosi bilan tugadi. Shimolda german qabilalari to‘siq bo‘lmagani uchun Shimoliy va Boltiq dengizlari qirg‘oqlarini va hozirgi Skandinaviya mamlakatlarini egalladilar. Germanlarni uch guruhga bo‘lish mumkin; sharqiy, g‘arbiy va shimoliy Skandinaviyada joylashgan shimoliy germanlar hozircha tarix sahnasiga chiqmadilar, Reyn va Elba daryosi oralig‘ida yashagan g‘arbiy germanlar iqlim o‘zgarishi oqibatida hozirgi Fransiyaning janubiga siljidilar. Sezar va imperator Trayan bu qabilalarni Rim yerlariga kirishini to‘sib qoydilar. Sharqiy germanlar Dunay orqali o‘tib, Pannoniya, Dakiya, Illiriya va Meziya (Bundan tashqari ular sharqqa hozirgi Visla orqali Karpat, Dnestr va Dnepr daryolari havzalariga chiqdilar. Avstriya, Vengriya, Bolqon yarim oroli, Ruminiya, Bolgariya) hududlariga kirdilar. Germanlarning

turmush tarzi, ijtimoiy-siyosiy tuzumi Yu. Sezar, Velley Paterkul va Tatsit asarlarida yoritilgan. Sezarning yozishiga ko‘ra, germanlar uquvsiz dehqonlar bo‘lib, ko‘proq chorvachilik bilan shug‘ullanganlar. Ularning asosiy ovqati pishloq, sut, go‘sht bo‘lgan. Qabilaning bir qismi qo‘shnilarni talashga ketganda qolgan qismi dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Keyingi yil esa qolgan qismi urushga borgan oldin borganlari esa xo‘jalik bilan shug‘ullangan. Germanlar o‘troq hayotga ko‘nikib qolmasliklari, harbiy ishni dehqonchilikka almashganligi hamda ixtiloflar bo‘lmasligi, o‘zaro dushmanlikka olib keladigan boylik – pulga ochko‘zlik paydo bo‘lmasligi uchun bu ishlar qilingan.

Sezar germanlar bilan mil. avv. 57-yilda Galliyani bosib olishda uchrashdi. Sueblarni Ariovist boshchiligida Galliyaning sharqiy qismidan siqib chiqardi. Va uch marta Reyn daryosidan o‘tdi. Sezar «bo‘lib tashla hukmronlik qil» ma’nosida keyinchalik germanlarning otliq harbiy qismlaridan Rimliklarning zulmiga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan gallarni bostirish uchun foydalandi. Oktavian va Tiberiy davrida Rimliklar Germaniyaning ichkarisiga kirib, friz, xatt va xerusklarni yerlarini bosib olish uchun yurish qildilar. Milodiy 9-yilda xerusklar yo‘lboshchi Arminiy boshchiligida bosqinchilarni Tevtonburg o‘rmonida bitta qolmay qirib tashladilar. Shundan so‘ng Rim Reyn daryosining shimolidagi germanlarni yerlarini bosib olishdan voz kechishga majbur bo‘lib, Elba daryosidan chekindi. Reyn daryosi Rim bilan germanlar o‘rtasidagi chegara bo‘ldi. Flaviylar davrida (79 – 96) rimliklar janubiy Germaniyada o‘rnashib qolish uchun mudofaa chizigini Reyn daryosidan Dunaygacha birlashtirmoqchi bo‘ldilar.

Rim markaziy, janubiy va g‘arbiy Yevropada bosib olingan hududlarni saqlab qolish bu hududlardagi german qabilalarini Reyn ortiga chiqarishga harakat

qilib keldi. Chegaralarda qal'a va yo'llar, mudofaa inshootlari qurildi. German qabilalari doimo rimliklar bosib olgan keng hududlarni o'zlashtirish uchun 3 asrdan 6 asrgacha faol harakat qildilar. G'arb tarixiy adabiyotida bu davr german, ya'ni varvar qabilalarini Rim davlati hududiga bostirib kirishi va xalqlarning buyuk ko'chishi deb aytiladi. Aslida bu german qabilalarida iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarda o'zgarishlar va iqlim o'zgarishlari hamda boshqa elat va qabilalarning migratsiyasi oqibati va yaqin o'tmishda rimliklar bosib olgan o'z hududlarini ozod qilish uchun boshlangan harakati edi.

III ASRDA RIM IMPERIYASINING TUSHKUNLIGI HAR QANDAY SIVILIZATSIYANING HALOKATI UNING O'Z ICHIDAGI SABABLAR ASOSIDA YUZ BERADI

1. III asrda Rim imperiyasining tushkunligi.
2. Askar – imperatorlar davri.

Kommod o'ldirilishi bilan Antoninlar sulolasi tugadi. Turli guruhlar o'rtasidagi kurash fuqarolar urushiga olib keldi (193 – 197-yillar). Avvalgi to'ntarishlar kabi yangi imperatorni tanlashda pretor gvardiyasi yetakchi rolni o'ynadi. Kelib chiqishi zodagon bo'lmagan, lekin tajribali sarkarda va senatorlar orasida o'bro'li bo'lgan Publiy Geliy Pertinaks legionlar tomonidan imperator deb e'lon qilindi. Pertinaks Senatga tayanib, davlat moliyasini qayta tiklash, soliqlar yukini kamaytirish va askarlar orasida intizomni mustahkamlashga kirishdi. Uniing faoliyati pretor gvardiyasiga yoqmadi va u o'ldirildi (192-yil).

Olomonga aylangan pretor gvardiyasi imperatorlik taxti uchun o'ziga xos auksion uyushtirdilar. Badavlat senator Mark Didiy Yulian har bir askarga 25 000

ming sestersiy va'da qildi va imperator taxtiga o'tirdi. Turli provinsiyalardagi legionlar pretor gvardiyasiga hukmdorni tanlash imtiyozini qoldirishni istamadilar. Provinsiyalardagi askarlar o'z nomzodlarini imperator deb e'lon qildilar: Suriyada legat Gay Pessenniy Niger imperator deb e'lon qilindi. Sharqdagi provinsiyalar uni tan oldi; Britaniyada legionlar Klodiy Albinni imperator deb e'lon qildilar, gall zodagonlari ham bu nomzodni qo'llab-quvvatladilar. Pannoniyada askarlar Dunay provinsiyalari bilan birgalikda legat Lusiy Septimiy Severni imperator deb e'lon qildilar.

Severlar sulolasi (193 – 235-yillar). Da'vogarlar o'rtasidagi kurashda Septimiy Sever g'olib chiqdi va imperatorlik hokimiyatini egalladi (193 – 211-yillar). Didiy Yulian o'ldirildi. Shimoliy Afrikada tug'ilgan ma'lumotli, g'ayratli sarkarda va tashkilotchi Septimiy Severlar sulolasiga asos soldi (193 – 235-yillar). Septimiy Sever hukmronligi davridan davlat boshqaruvida harbiylarning mavqeyi kuchayib ketdi. Armiyada qator islohotlar o'tkazildi. Shu vaqtdan boshlab askarlar uzoq yillik xizmati bilan yuqori harbiy mansablar va suvoriy unvoniga ega bo'lish huquqini oldi. Natijada askar nafaqat harbiy sohada balki davlat xizmatida ham yuqori mansablar cho'qqisiga erishishi mumkin edi. Shu vaqtdan boshlab askarlar yordamida harbiylar imperatorlik tojini kiya boshladilar. Septimiy Sever jon taslim qilayotganda o'z o'g'illariga «askarlarni boyiting, boshqalarga e'tibor bermang» deb vasiyat qilgan ekan. Septimiy Sever qo'shinda bir necha islohotlar o'tkazdi. Rim qo'shinlari Dunay va Suriya legionlaridan tashkil topa boshladi. Qo'shinning varvarlashuv jarayoni chuqurlashdi. Legionerlar, turli lavozimdagi harbiylar qator imtiyozlarga ega bo'ldilar. Oddiy legioner xizmat davomida yuqori harbiy lavozimlargacha ko'tarilishigacha suvoriylar toifasi tarkibiga kirish, qonuniy oila qurish huquqlariga

ega bo‘ldi. Legioner hukumatdan oziq-ovqat ulushi, ijarachi sifatida yer olar edi. Imtiyozlar, sovg‘alar va turli yengilliklar qo‘shinda intizomning susayishi va aynishiga olib keldi.

Imperator o‘z ma’muriyatini suvoriylar, asosan Afrika va Sharqdagi provinsiya shaharlarining katta amaldorlari bilan to‘ldirdi. Boshqaruv apparatida harbiylarning soni ko‘payib ketdi. Eski muassasalarga yangilari qo‘shildi. Ularning shtatlari yildan yilga oshib bordi. Eski magistrat lavozimlar (kvestura, pretura va konsulat) byurokratik amalparastlik bosqichlari bo‘ldi.

Septimiy Sever kichik va o‘rta tabaqalar manfaatini ko‘zlab ish olib bordi. Agrar muammo va qo‘shin saflarini to‘ldiradigan ijtimoiy qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida davlat jamg‘armasi ixtiyoridagi yerlarni hadya qilish va sotishni yo‘lga qo‘ydi. Tashqi siyosatda u Parfiya bilan 195 – 199-yillarda g‘olibona urush olib bordi. Mesopotamiya bosib olinib, Ktesifon talandi. Britaniyada 208 – 211-yillarda Kaledon qabilalari bilan muvaffaqiyatli urush olib borildi.

Mark Avreliy Antonin Karakalla (211 – 217-yillar). Severlarning navbatdagi vakili qo‘shin va boshqaruv xarajatlarini qoplash maqsadida soliq to‘lovchilar sonini oshirishni ko‘zlab, 212-yil provinsiyalarning barcha erkin aholisini Rim fuqarosi deb e’lon qildi. Lekin ular immunitetdan mahrum qilinib, soliq to‘lovchilarga aylandilar. Senatning mavqeyini pasaytirish va qo‘shinga tayanishni imperator Karakalla davom ettirdi. Karakalla 212-yil imperiyaning barcha erkin aholisiga Rim fuqarolik huquqini bergan mashhur ediktini e’lon qildi.

Karakalla 213-yilda germanlarning xatti va alleman qabilalari yerlariga bostirib kirdi. Ochiq jangda erksevar qabilalarni yenga olmay pora berish yo‘li bilan tinchlikga erishdi. Dunayda yazig va karp qa-

bilalari yerlariga bosqin qildi Imperator 215-yil Aleksandriyaning undan norozi bo‘lgan aholisidan qattiq o‘ch oldi. Keyingi yili Karakalla Parfiyaga tinchlik va do‘stlik shartnomasini taklif qidi. Lekin munofiqlik bilan Parfiyaga qarshi dushmanlik harakatlarini davom ettirdi. Do‘stlik shartnomasi imzolanishiga qaramasdan, Rim davlatining makkor basharasini ko‘rsatdi. Rim legionlari to‘satdan Parfiyaga bostirib kirdilar, Parfiyaning ko‘pgina zodagonlari qirib tashlandi. Arbela shahri talon-taroj qilindi.

Karakalla otasi davrida boshlangan hammom (terma)lar qurilishini tugalladi, bu hammomlar Rim tarixidagi eng ulug‘vor va ulkan hammomlar edi. Pul mablag‘iga ehtiyoj kuchaygani uchun past qiymatli tangalar zarb qilish boshlandi. Karakalla 35 yoshida 217-yilda pretor gvardiyasi prefekti Makrin uyushtirgan fitna qurboni bo‘ldi. Makrin Severlar sulolasini chetga surib, Rimda imperator taxtini egalladi. Karakallaning onasi Yuliya Domnani Antioxiyaga surgun qildi. Yuliya Domna Antioxiyada o‘zini o‘ldirdi.

Geliogabal (Variy Avit Bassian 218 – 222). Suriyaning Emes shahridagi quyosh ilohi Geliogabal (Eligabal) kohini bo‘lgan 14 yoshli Geliogabal (Variy Avit Bassian shu nom bilan tarixga kirdi) Karakallaning uzoq qarindoshi edi. Emes shahri yaqinida turgan Rim legionerlari Quyosh ibodatxonasiga kelib uning bashang kiyingan, chiroyli kohini bo‘lgan 13 yoshli o‘smirni ko‘rib hayratlanar edilar. Yuliya Domnaning singlisi Yuliya Mesaning ikki beva qizi Soemiya va Mameya bo‘lib, Soemiyaning o‘g‘li 13 yoshli Variy Avit Bassian edi. Shuhratparast Yuliya Mesa imperatorlik taxtiga jiyanini o‘tqazish uchun Bassianni Karakallaning nikohsiz tug‘ilgan o‘g‘li deb shov-shuv tarqatdi. U xolasi Yuliya Domnaga tegishli katta mablag‘ni legionerlarga mo‘l-ko‘l tarqatdi. Makrin tarafdorlari bo‘lgan pretor gvardiyasi bilan Antioxiya shahri yoni-

da Suriyadagi legionerlar o‘rtasida jang bo‘ldi. Pretor qismlari shunday jang qildilarki, ular g‘alabaga bir bahya qolganda Makrin qo‘rqoqlik qilib, jang maydonini tashlab qochdi. Pretor qismlari Makrinni qaytishini yana bir kun kutib, u kelmagach faxrli shartlarda taslim bo‘ldilar. Makrin bir necha kundan so‘ng qo‘lga olinib, yangi imperator tomonidan qatl etildi. Severlar sulolasiga sodiq bo‘lgan legionlar 218-yil 16-mayda Bassianni imperator deb e’lon qildilar.

Shu tarzda imperator Karakallaning o‘gay onasining singlisi Mezaning nevarasi imperator taxtini egalladi. Variy Avit Bassian Variy Avit Bassian (218 – 222-yillar) Rimga kelib, eng avvalo, o‘zining sevimli xudosi Geliogabalga ibodatxona qurib, har kun unga qurbonliklar keltirdi. Axloqi buzuq, kaltafahm o‘smir davlat ishlari bilan shug‘ullanishni istamay, ko‘ngil ochishga berilib ketdi. Rim an’anasiga ko‘ra senat majlisi o‘tadigan kuriya (bino) ga hech qachon ayollar qo‘yilmas edi. Lekin senatning birinchi majlisida Geliogabal onasini chaqirishni buyurdi. Imperatorning onasi konsullar yoniga taklif etilib, ular bilan birga senat qarorini tuzatishda ishtirok etdi. Dion Kassiyning ma’lumotlariga ko‘ra Geliogabalning onasi va buvisi Yuliya Mesa senatda Geligabalning Aleksandr Severni tutingan o‘g‘il qilish marosimida ishtirok etganlar. Geliogabaldan keyin senat eng avvalo ayol hech qachon senatda so‘zga chiqmasligi chorasini ko‘rdilar. Agar kimning aybi bilan bu sodir bo‘lsa, aybdor yer osti ilohlariga bag‘ishlangan, boshqacha aytganda o‘limga hukm qilingan.

Davlat ishlari bilan buvisi Mesa va uning qizlari shug‘ullandilar. Ziyofat zallari pollariga atirgul yaproqlari to‘shab, maishat qilayotgan do‘stlariga misli ko‘rilmagan qimmatbaho sovg‘alar qildi. U quyon terisi yoki qirg‘ovul patlari bilan qoplangan so‘rida yastanib yotdi. Geliogabal tuya tovoni, xo‘roz toji,

tovus va bulbullar tilini yedi. Baliq va tryufelning ustiga tuz o‘rniga marvarid sepdi. Uning bir tushlik ovqati 100 ming sestersiydan kam turmas edi.

Imperator-kohin jamoaning g‘ashini keltirib, oltin iplar bilan tikilgan, qimmatbaho toshlar bilan bezalgan ipak tunika (ko‘ylak) kiyib, boshiga baland kuloh, bo‘yniga marjon tizmasi, qo‘liga bilakuzuklar taqib, upaga belanib, fuqarolar oldiga chiqar edi. Eliogabal Rim senatida ana shu kiyimda o‘z haykalini G‘alaba ilohasidan balandga o‘rnatdi, senatorlar ana shu haykalga sajda qilar edilar. U aktyor, aravakash va turli firibgarlarni oliy davlat mansablariga tayinlab, qullar va ozod qo‘yilganlarni provinsiya noiblari etib tayinladi. Imperatorning buvisi Yuliya Mesa nevarasining aqlsiz qilmishlari halokat sari yetaklayotganini ko‘rib, hokimiyatni sulola qo‘lida saqlab qolish uchun aqlsiz imperatorni taxtdan tushirib, boshqa qizi Yuliya Mameyaning o‘g‘li Aleksandr Sever bilan almashtirishga qaror qildi. Buvisi Geliogabal yaxshi kayfiyatda bo‘lganida Aleksandrga Sezar, ya’ni birgalikda davlatni boshqarish uchun imkon beradigan unvonni berishga ko‘ndirdi. Tez orada yaxshi ta’lim-tarbiya ko‘rgan Aleksandr senat va pretor qismlarining hurmat-e’tiboriga sazovor bo‘ldi. Geliogabal Aleksandrni o‘ziga xavfli raqib bo‘lishini his qilib, uni o‘ldirishga urindi. Geliogabalning bu harakati buvisi va Mameya tomonidan Aleksandrga tarafdor qilingan pretor qismlarining g‘azabini qo‘zgadi. Pretor qismlari isyon ko‘tarib, barchaning nafratiga sazovor bo‘lgan Geliogabal va uning onasi Soemiyani 222-yil 10-mart kuni o‘ldirdilar. Aqlsiz hukmdorning jasadi Rim ko‘chalarida ilmoq bilan sudrab yurildi, keyin axlatga cho‘miltirilib, Emiliy ko‘prigidan Tibr daryosiga tashlandi.

Aleksandr Sever (222 – 235-yillar) 17 yoshida taxtga chiqdi, buvisi bir necha oydan keyin vafot

etdi. Aleksandr aqlli, xushmuomalali hukmdor edi. Fuqarolarning arz-shikoyatlari uchun saroy eshiklarini ochib qo‘ydi va shafqatsizlik qilmaslikka harakat qildi. Aleksandrga onasi Mameya davlatni boshqarishda yordam berdi. Mameya butun umri davomida davlat boshqaruvida va Aleksandrga o‘z ta’sirini saqlab qoldi. Aleksandrning rafiqasini eriga ta’siri kuchayganida imperator rafiqasini Afrikaga surgun qildi. Imperatorning otasini davlat ishlariga aralashuvidan norozi bo‘lib, fitnada ayblab sudga tortib qatl ettirdi. Mameya boshqaruvda Geliogabal oliy mansablarga tayinlagan barcha buzuq va betayin kishilarni o‘rniga halol, ma’lumotli, mard va qat’iy kishilarni qo‘ydi. Adrianning tajribasiga tayanib, 16 senatordan iborat davlat kengashini tuzdi. Bu kengashning raisi etib tajribali yurist Ulpianni tayinladi. Ulpian pretor gvardiyasi prefekti vazifasini bajarib, imperatorni to‘g‘ri yo‘lga yonaltirdi va uni laganbardorlar ta’siriga tushib qolmasligi uchun g‘amxo‘rlik qildi. Ulpian pretor qismlarida harbiy intizom zaiflashuviga qarshi chora-tadbirlarni belgiladi va amalga oshirishga harakat qildi. Bundan g‘azablangan pretor qismlari isyon ko‘tardilar. Isyon ko‘targan pretor qismlari Aleksandrning Ulpianning hayotini saqlab qolish to‘g‘risidagi iltijosiga qaramay Ulpianni uning ko‘z oldida o‘ldirdilar (228-yil). Pannoniyadagi legionlarda tartib-intizomni tiklashga harakat qilgan mashhur tarixchi Dion Kassiyning hayoti xavf ostida qoldi. Imperator Aleksandr uni qutqarib, konsullik mansabi bilan taqdirladi.

Sharqda Parfiya davlati o‘rnida paydo bo‘lgan Sosoniylar davlati Rimning sharqda bosib olgan hududlardan chiqib ketishini talab qilib, Rim bosib olgan hududlarni ozod qilish uchun kuch to‘play boshladi. Sosoniy hukmdori Ardasher Rimdan bosib olingan hududlarni qaytarish talabi bilan 400 kishilik elchi-

larni Rimga jo‘natdi. Aleksandr sharqda Sosoniylar davlatiga qarshi urush boshladi. Yurish boshlanishida yo‘lda Sosoniylarning elchilari Aleksandrga duch keldi. Aleksandr Sosoniy elchilarini qabul qilmadi, ularning ustidagi qimmatbaho kiyimlarini yechib olib, Frigiyada yer chopishga majbur qilishga buyruq berdi. Urush 231 – 233-yillar davom etdi va ikki o‘rtada tinchlik bitimi bilan tugadi. Rim imperiyasining shimolida Reyn va Dunay daryosi havzasida germanlar harakatga keldilar. Aleksandr bilan birga onasi Mameya ham germanlarga qarshi yurishga chiqdi. Urush vaqtida kelib chiqishi frakiyadan bo‘lgan oddiy askardan sarkarda darajasiga ko‘tarilgan Maksimin armiyada fitna uyushtirib, 235-yil 19-martda Mayns shahri yaqinida Aleksandr va onasi Yuliya Mameyani o‘ldirdi.

2.Askar imperatorlari davri. Tarixshunoslikda 235 – 285-yilgacha bo‘lgan oraliqqa askar imperatorlari davri deb aytiladi. Severlar sulolasining so‘nggi imperatori Aleksandr Sever (222 – 235-yillar) 235-yilda o‘ldirilganidan so‘ng, qo‘shin davlat nazoratidan chiqdi. 236-yilda bir yil davomida 6 imperator almashdi. Tarixshunoslikda legionerlar «askar imperatorilari» deb atalgan hukmdorlarni birin-ketin taxtga chiqardilar. 235-yilda imperator Aleksandr Sever o‘ldirilishi bilan hokimiyat uchun turli da’vogarlar o‘rtasida kurash boshlanib, bu siyosiy tushkunlik yarim asr davom etdi. Oddiy jangchilar orasidan ham imperatorlikka da’vogarlar chiqdi. Jangchi-imperatorlar bir-birlarini tez-tez almashtirdilar. Odatda, ularning barchasi o‘ldirilar edi. Taxtga askar imperatorlarning barchasini armiya keltirmadi, ularning ayrimlarini senat tayinladi. Armiya tayinlagan imperatorlar davlatni uzoq boshqara olmadilar. Ularda davlat boshqaruvi uchun na bilim, na amaliy tajriba bor edi.

Gay Yuliy Ver Maksimin (235 – 238) Aleksandr Sever o‘limidan so‘ng imperator taxtini egalladi. Maksimin frakiyalik oddiy dehqonning o‘g‘li bo‘lib, o‘z qobiliyati bilan oddiy askardan oliy harbiy unvonlarga erishdi. Aleksandrga qarshi harbiylar fitnasiga boshchilik qildi. Maksimin qisqa hukmronligi davrida o‘ziga qarshi muxolifatda turgan harbiylar va zodagon fuqarolarni qatl qildi, askarlarni ko‘nglini olishga urindi. Germanlar, sarmatlar va daklarga qarshi urush olib bordi. Manbalar ma’lumotiga ko‘ra yonida biror bir oqsuyak zodagonni ko‘rishni istamagan. Maksimin biror marta Rimda bo‘lmadi va senatda o‘z hokimiyatini tasdiqlashiga urinmadi. 238-yilda Maksimin o‘g‘li bilan birga o‘z chodirida Meziyada askarlar imperator deb e’lon qilgan Gay Messiy Trayan Detsiy tomonidan o‘ldirildi.

Imperator Filipp Maksimin Arab (244 – 249-yillar). Kelib chiqishi Frakiyadan bo‘lgan sobiq cho‘pon, katta jismoniy kuchga ega bo‘lgan Filipp (laqabi kelib chiqishi bilan bog‘liq bo‘lgan). Arab oddiy askardan imperatorgacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi. O‘zining uch yillik hukmronligi davrida bir kun ham Rimda bo‘lmadi. Filipp alleman, sarmat va daklarga qarshi urush olib bordi. Forslar bilan urushda Rim sharqda bosib olgan hududlarni saqlab qoldi. Filipp Arab davrida 248-yil aprelida abadiy shahar Rimning 1000 yilligi hashamatli bayram qilindi. Gay Messiy Trayan Detsiy (249 – 253) Rim davlatchiligini qayta tiklashga urindi. Detsiy davrida gotlar Frakiya va Makedoniyani bosib oldilar. Ularga qarshi boshlangan urushda Detsiy o‘zi ishtirok etdi va jangda halok bo‘ldi. Keyingi imperator Gostilian 251-yilda vabo kasalidan vafot etdi. Birgalikda hukmronlik qilgan Trebonian Gall va Voluzian halokatidan so‘ng Emilian imperator taxtini bosib oldi, lekin u ham o‘dirildi (253-yil). Shundan so‘ng 60 yoshli zodagon Publiy Litsiniy Valerian (253

– 260) va uning o‘g‘li Gallien (253 – 268) taxtni egalladilar.

Publiy Litsiniy Valeriyan (253 – 260-yillar) va uning o‘g‘li 35 yoshli Gallien (253 – 268-yillar) davrida tushkunlik eng yuqori cho‘qqisiga chiqib, imperiya amalda bir necha qismlarga parchalandi. Galliya, Ispaniya va Britaniyada hokimiyatni Kassian Postum (258 – 268-yillar) bosib olib, Gall imperiyasini, Sharqda Septimiy Odinat (261 – 267-yillar) qudratli Palmira podshohligini tuzdi. Dunay provinsiyalari, Bolqon va Misrda ham markazga bo‘ysunmagan hokimlar paydo bo‘ldi. Gallien qo‘l ostida faqat Italiya qoldi. Bunday og‘ir vaziyatda Gallien davlat ishlarini tashlab qo‘ydi va kayf-safoga berildi. U atirgul gullari yaproqlaridan bo‘lgan to‘shakda uxladi, mevalardan istehkom qurdi, sochiga oltin kukuni sepdi. Ammo oldiga oltin tugmalar qadalgan qizg‘ish ko‘ylakda chiqdi. Gallenni daydilar, joriyalar va masxarabozlar qurshab oldilar. Gallien 268-yilda fitnachilar tomonidan o‘ldirildi.

Mark Avreliy Klavdiy (268 – 270-yillar) imperator bo‘lganidan so‘ng, imperiyani qayta tiklash boshlandi. Mark Avreliy alleman va gotlarning hujumlarini qaytardi. Dunay provinsiyalarini qayta tuzdi. Tez orada Klavdiy vabo kasalligidan vafot etdi. Uning o‘rniga yana bir illiriyalik 55 yoshli harbiy boshliq Lusiy Domitsiy Avrelian (270 – 275-yillar) taxtga o‘tirdi. Avrelian uzoqni ko‘ra oladigan g‘ayratli siyosatchi bo‘lib, 271-yil u Shimoliy Italiyaga bostirib kirgan german qabilalari hujumini qaytardi. Rim atrofida 18 km uzunlikdagi mustahkam mudofaa istehkomlarini qurishga buyruq berdi. Shu yilda imperator Dakiya provinsiyasiga safar qilib, imperiyaning Dunay chegaralarini barqaror qilishga harakat qildi.

Sharqda Suriyadagi Palmira hokimi Odenat sosoniy Shopur armiyasini Mesopotamiyaga yurishi-

ni to‘xtatdi. Hokimiyatni bosib olishga uringan mahalliy da’vogarlarni tugatdi. Gallien uchun sharqda Rimning hukmronligini saqlab turish uchun Odenat bilan do‘stona munosabatda bo‘ldi. Gallien uchun Suriyada katta obro‘ga ega bo‘lgan Odenat Rimning ichonchli tayanchi edi. Yaxshi diplomat Gallien Odenatni qo‘llab-quvvatlab, unga Sharq yo‘lboshchisi unvoni, keyin imperator unvoni va sharqdagi Rim armiyasining qo‘mondonligini topshirdi. Odenat Suriyada o‘z mavqeyini mustahkamladi. Palmiraning oliy hukmdori sifatida o‘z tangasini zarb qildi va o‘zini podshohlar podshohi deb ulug‘ladi. Odenatning o‘limidan so‘ng Suriyada amalda mustaqil davlat bo‘lgan Palmirani uning go‘dak o‘g‘li nomidan g‘ayratli rafiqasi Zenobiya boshqardi. Zenobiya Palmira podshohligini Rim zulmidan ozod qilib, mustaqil davlatga aylantirishga harakat qildi. Qulay xalqaro vaziyatdan foydalanib, qo‘shni hududlar bilan yaqin aloqa o‘rnatdi. Rim bosib olgan sharqdagi hududlarning katta qismini, jumladan, Misrni bosib oldi. Palmirani Rim tazyiqidan himoya qilish uchun Zenobiya Sosoniylar bilan ittifoq tuzdi.

Lekin Rim sharqning boyliklaridan voz kechishni istamas edi. Imperator Avrelian armiyasi Zenobiya qo‘shinlarini Kichik Osiyodan siqib chiqardi, keyin esa Palmiraga qo‘shin tortdi. Avrelian 272-yilda Zenobeya qo‘shinlarini Edessa yaqinida tor-mor qilib, poytaxt Palmirani bosib oldi va Zenobiyani asir oldi. Palmirada Rim garnizoni qoldirildi. Rim armiyasi chiqib ketishi bilan Palmira aholisi Rimga qarshi yana ozodlik urushini boshladi. Rim armiyasi 273-yilda yana Suriyaga qaytib, Palmirani bosib olib, uni yer bilan tekislab tashladi. Palmirada Rim boshqaruv tartibi o‘rnatildi. Rim zulmidan ozod bo‘lgan Misr Zenobiyaga sodiq qolib, yana Rimga tobe bo‘lishni istamadi. Misr Rim imperiyasi uchun muhim ahamiyatga ega

edi, Rim shahri uchun Misr g‘alla va boshqa oziq-ovqat bilan ta’minlovchi asosiy manba edi. Boy savdogar Firm boshchiligida misrliklar bosqinchi Rim armiyasiga qarshi mustaqillik urushi olib bordi. Lekin Rim armiyasining qo‘li baland keldi. Misr yana Rimga qaram qilindi.

Avrelian Gall imperiyasini ham nisbatan qiynalmay bo‘ysundirdi. Shundan so‘ng, Rim imperiyasining yaxlitligi tiklandi. Imperiyani avvalgi chegaralarida tiklashga Rimning kuchi yetmadi. Dakiyada ozodlik urushi boshlanib, daklar Rim zulmini uloqtirib tashladilar. Rim legionlari va Rimdan ko‘chib kelganlar shoshilinch Dakiyani tark etishga majbur bo‘ldilar. Dakiyadan haydalgan Rim legionlari va Rim fuqarolari Meziyaga joylashtirildi. Avrelian o‘z hokimiyatini mustahkamlash uchun barcha choralarni ko‘rdi. O‘zining ilohiy homiysi sifatida «yengilmas quyosh» xudosini joriy qilib, unga e’tiqod qilishga buyruq berdi (274-yil). Avrelianning hokimiyati mutlaq edi. U «janob va xudo» deb ulug‘lanib, «davlatni qayta tiklovchi» unvoniga ega bo‘ldi. Qattiqqo‘l imperator forslarga qarshi yurish vaqtida uyushtirilgan fitna natijasida 275-yil o‘ldirildi.

Senat qarib qolgan senator konsulyar Mark Klavdiy Tatsitni (275 – 376-yillar) taxtga chiqardi, lekin u tez orada askarlar tomonidan o‘ldirildi. Kelib chiqishi illiriyalik bo‘lgan Mark Avreliy Prob 276 – 282-yillarda imperator taxtini egalladi va Klavdiy Avrelianning siyosatini davom ettirdi. U german qabilalarining Rim zulmiga qarshi chiqishlarini bostirdi, Galliyadan frank va allemanlarni siqib chiqardi va Reyn havzasida chegaralarni mustahkamladi. Sharqda Kichik Osiyo va Misrda Rim hukmronligini saqlab qolish uchun urush olib bordi. Senat bilan murosaga keldi. Lekin Probning armiyada intizomni tiklashga urinishi askarlarning noroziligiga olib kelib, o‘zi o‘ldirildi.

Probdan keyin taxtga chiqqan Mark Avreliy Kar (282 – 283-yillar) chegaralarni mustahkamlash uchun sarmatlar bilan urush olib bordi, Sosoniylarga qarshi yurish boshladi. Bu yurish vaqtida yashin urishidan halok bo‘ldi. Uning o‘g‘illari hokimiyatni saqlab qola olmadilar va o‘ldirildilar.

3. Iqtisodiy-ijtimiy ahvol. Ichki o‘zaro nizolar, german qabilalarining Rim zulmiga qarshi kurashi davlat tizimining yemirilishiga olib keldi. Avrelian (270 – 275-yillar) iqtisodiy ahvolni yaxshilash uchun pul islohotini o‘tkazdi. Rimda uzilib qolgan g‘alla ta’minoti vaqtinchalik bo‘lsa-da uzluksizligi qayta tiklandi. III asrda sharqda tashkil topgan qudratli Sosoniylar davlati Rimning sharqqa ekspansiyasiga qarshi keskin zarba berdi, natijada rimliklarning sharqqa yurishlari natijasiz tugadi. Rim iqtisodiyoti salbiy jarayonlarni boshdan kechirdi, ishlab chiqarish hajmlari keskin kamayib ketdi. Imperiyaning turli hududlari o‘rtasidagi iqtisodiy-savdo aloqalar zaiflashdi. Ishlab-chiqarish vositalari ibtidoiy holatda qolib, xo‘jalik natural holda edi. Mamlakatda hunarmandchilik sohasi faqat ichki bozorga xizmat qildi. Rim davlati asrlar davomida o’ziga kerakli bo‘lgan xomashyo va boshqa narsalarni o‘ziga yurtlarni talash hisobiga qondirib kelgan edi. Milodiy I asr oxirida Rim armiyasining faol istilochilik yurishlarining tugashi bilan o‘zgalar hisobiga yshab turgan Rim jamiyati og‘ir ahvolga tushib qoldi. Xo‘jalik tobora natural xususiyat kasb eta boshladi. Markaziy hokimiyatning boshqaruv apparati va qo‘shinni saqlab turish uchun juda katta sarf-xarajatlari davlat xazinasini barbod qildi.

Davlat hokimiyati moliyaviy qiyinchilikni tugatish uchun pulni qadrsizlantira boshladi. Pulning qadrsizlanishi yer-mulkni sotib olishda katta miqdorda pul sarflashga majbur qilar edi. Denariyda kumush

miqdori 50% ga kamaytirildi. III asr oxiriga kelib kumush denariy mis tanga qiymatiga teng bo‘lib qoldi. Oltin tanga juda kam miqdorda zarb qilina boshlandi. Pul aylanmasi qisqardi, to‘laqonli tangalar muomaladan yo‘q bo‘ldi, ular jamg‘arilib yaxshi kunlar uchun yerga xazina sifatida ko‘mildi. Pulning qadrsizlanishi iqtisodiyotga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Kolonat. Iqtisodiyotdagi qiyinchilik kolonat tizimi rivojlanishida ko‘rinadi. II asrda Rim imperiyasi hududida 10 mlndan ko‘proq qul mavjud edi. Rimda kasal va tuzalishdan umid bo‘lmagan qullar Eskulap oroliga jo‘natilar, sog‘aysa o‘z xo‘jayiniga qaytar edi. Klavdiyning topshirig‘iga ko‘ra Eskulap orolida sog‘aygan qullar ozodlik huquqiga ega bo‘ldilar. Adrian qullarni o‘ldirishni taqiqladi, Antonin Piy farmoniga ko‘ra sababsiz qulni o‘ldirgan quldor jazoga tortiladigan bo‘ldi. Yirik quldorlik xo‘jaliklarda mavjud bo‘lgan qullar qamaladigan xususiy qamoqxonalar tugatildi, qullarni doimiy kishanda saqlash taqiqlandi. Yirik quldor xo‘jaligida mavjud bo‘lgan qullar qamaladigan xususiy qamoqxonalar bekor qilindi. Quldorlar qullarning samarasiz mehnatidan voz kechdilar. Ba’zilar qullarni mardikorlikka jo‘natib, ular ishlagan bir qism ish haqini qulning o‘ziga qoldira boshladi. Ko‘pincha qullarga bir qism mulk – pekuliy ajratib berildi: bu yer ulushi yoki hunarmandchilik ustaxonasi, yoki savdo do‘koni bo‘lishi mumkin edi. Qul o‘ziga berilgan bu mulkdan olgan daromadining bir qismini xo‘jayinga berishi kerak edi. Rimda kolonlar deb yer ulushini ijaraga olgan erkin kishilar aytilar edi. Endilikda yirik quldor xo‘jaligida yerni mayda bo‘laklarga bo‘lib, kolonlarga ijaraga berish amaliyoti keng tarqaldi. II asr oxirida kolonlar, yerga biriktirilgan qullar yoki ozod qo‘yilgan qullar o‘rtasida farq yo‘qola boshladi. III asrdan boshlab kolonlar yerdan olgan hosilni 1/3

ni xo‘jayinga berishi va yida 6 kundan 12 kungacha xo‘jayinning dalasida ishlab berishi kerak edi.

Savdo-sudxo‘rlik va hunarmandchilikning rivojlanmasligi yerga mablag‘ sarflash va yer sotib olishni kuchaytirdi. Dehqonlar va kolonlarga soliqlar, turli to‘lov va majburiyatlar yuki kuchaydi. Yerga ijara haqi keskin oshdi. Bu kolonlarning xonavayron bo‘lishiga olib keldi. Qarz majburiyati oshdi. Ijtimoiy ziddiyatlar kuchayib, provinsiyalarda dehqonlar va boshqa oddiy aholining qo‘zg‘olonlari ko‘tarildi. Jumladan, III asrning 60-yillarida Galliyada dehqonlar va qullar qo‘zg‘oloni, Shimoliy Afrikada dehqonlarning qurolli chiqishlari yuz berdi. Soliq-to‘lovlarning haddan tashqari oshib ketishi kolonlarning ommaviy holda yerlarni tashlab ketishiga olib keldi. Doimiy tirikchilik manbayidan mahrum bo‘lgan kolonlar yo‘llarda qaroqchilik bilan shug‘ullandilar.

Hukumat bo‘sh qolgan yerlarga urushda asir olingan german qabilalari vakillarini joylashtirishga majbur bo‘ldi. Mamlakatning turli hududlarida juda ko‘p yerlar qarovsiz qoldi. Imperator buyrug‘i bilan bo‘sh yotgan yerlar qo‘shni shahar yoki magnatlar mulkiga qo‘shib berildi. Shaharlar savdo-hunarmandchilik markazlari sifatida o‘z ahamiyatini yo‘qotdi. Davlat hokimiyati g‘arbiy provinsiyalarning magnatlariga urushda olingan asirlarni ishchi kuchi sifatida ishlatish uchun taqsimlab berdi. Bu asirlar kolonlarga aylantirildi. Katta yer egalari dehqonlarni qarzga botirib, o‘z yerlariga biriktirib qo‘yishga urindilar. Qullarning soni kamayib, ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyoj ortdi. Kolonat tizimi III asrda kuchayib bordi.

III asrning 70 – 80-yillarida german qabilalarining rimliklar bosib olgan hududlarga ko‘chishi kuchaydi. Rimliklar germanlarni bu hududlarda o‘rnashuviga aslo rozi bo‘lmadi. Rim qo‘shinlari germanlarning got,

sarmat va markomann qabilalariga qarshi urushni davom ettirdi.

Hunarmandchilik-savdoning kasodga uchrashi shaharlarning ahvolini og‘irlashtirdi. Munitsipal shaharlarning boshqaruvi xususiy kishilarning ko‘ngilli mablag‘lari hisobidan amalga oshirilar edi. III asrda bu mablag‘lar tushumi keskin kamaydi. Ba’zi provinsiyalarda yangidan lavozimga kirishadigan magistrat ma’lum bir miqdorda mablag‘ni shahar xazinasiga to‘lash an’anasi joriy etildi, lekin bu tadbir samara bermadi. Shaharlarda yo‘llar, ko‘priklar, jamoatchilik binolari qurilishi va ta’miri, obodonchilik ishlari to‘xtadi. Shahar xo‘jaligi izdan chiqdi. Shaharlar turg‘unlik bosqichiga kirdi, shaharliklarning bir qismi qishloqqa ko‘chib ketdi.

DOMINAT DAVRIDA RIM DAVLATI VA JAMIYATI. G‘ARBIY RIM IMPERIYASINING QULASHI (IV – V ASRLAR)

1. **Gay Avreliy Valeriy Diokletian (284 – 305-yillar) islohotlari.**
2. **Rim imperiyasining ikkiga bo‘linishi.**
3. **Xunnlar va Rim imperiyasi.**
4. **G‘arbiy Rim imperiyasining qulashi.**

1.Gay Avreliy Valeriy Diokletian (284 – 305-yillar) islohotlari. Imperator Numerianning halokatidan so‘ng 284-yil kuzida Mark Avreliy Diokletianning hukmronligi boshlanishi bilan Rim imperiyasining Dominat (284 – 476-yillar) davri boshlandi. Gay Valeriy ozod qo‘yilgan qulning o‘g‘li, Illiriyaning Solun shahridan bo‘lib, oddiy askardan oliy darajali harbiy lavozimigacha ko‘tarildi. Keyin imperator maslahatchisi, konsul va hukmdor qo‘riqchilari boshlig‘i la-

vozimlarini egalladi. Aqlli va shafqatsiz bo‘lgan imperator Gay Avreliy Valeriy Diokletian hukmronligi vaqtida Rimda «dominat» (lotincha dominus – «janob», «xo‘jayin») nomini olgan siyosiy tizimning asoslari yaratildi. Rim davlatining bosqinchilik urushida o‘zga mamlakat va hududlarni talash natijasida ulkan moddiy boyliklarning oqib kelishi davlat xazinasini tushumi va davlat xarajatlarining barchasini manbasi edi. Milodiy I asr oxirida bu bosqinchilik urushlari tugashi bilan xazina bo‘shab qoldi va moliya tizimi ishdan chiqdi.

Diokletian va uning vorislari davrida Rim davlatining cheklanmagan monarxiyaga o‘tishi tugallandi. Imperator hokimiyati ilohiylashtirilib, unga iloh sifatida sig‘inish joriy qilindi. Hukmdorga ta’zim bajo keltirish, hukmdorning oldiga tiz cho‘kish, boshini yerga qo‘yib, kiyimi etagini o‘pish rasm bo‘ldi. Imperatorning ko‘pchilik oldida namoyon bo‘lishi haqiqiy diniy bayram, an’anaga aylandi. Kaligula va Domitsiandan keyin aynan Diokletian o‘zini janob, xo‘jayin deb atashga, o‘zini iloh kabi ulug‘lashga rasmiy ruxsat berdi. Diokletiandan boshlab hukmdorlar qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan, hashamatli zarbof kiyim va poyafzal kiya boshladilar. Avval hukmdor boshqalardan faqat olovrang qizg‘ish kiyimi bilan ajralib turar edi.

Senat o‘z siyosiy mavqeyini yo‘qotdi. Umumdavlat ishlari endilikda senatda muhokama qilinmaydigan bo‘ldi. Senat faqat sport o‘yinlari va senatorlarga tegishli ishlarni ko‘rib, uning qarorlarini imperator tasdiqlashi lozim edi. Bu davrda konsul, pretor, kvestor lavozimlari faqat faxriy bo‘lib qoldi.

Soliq tizimi islohoti. Diokletian soliq tizimini isloh qildi. Qadri tushib ketgan pul o‘rniga natural soliq to‘lovi joriy etildi. Ilgari soliqlar pul bilan emas, mahsulot bilan ko‘proq olinar edi. Imperator soliqqa

tortish tizimini unifikatsiya qildi. 289 – 290-yillarda imperiya aholisi yalpi ro‘yxatdan o‘tkazildi. Ro‘yxatga olish har 15 yilda bir marta takrorlanishi kerak edi. Soliq kvotalari 5 yilda bir marta qayta ko‘riladigan bo‘ldi. Ekin yerlari va yaylov, o‘tloqlar kadastri (hujjat) tuzildi. Qishloq aholisi ekin yeri, yaylovlar sifati, chorva va boshqa mulkka qarab yer solig‘i to‘lar edi. Hunarmand-savdogarlar esa qator soliqlarni to‘lar edilar.

Ma’muriy-hududiy islohot. Diokletian mohir tashkilotchi va xushyor siyosatchi bo‘lgani uchun bir qator provinsiyalarning separat kayfiyatlarini hisobga olgan holda imperiyani 4 qismga bo‘ldi va o‘ziga uch yordamchi (tetrarxiya) belgiladi. Bundan tashqari, imperiya 101 provinsiyaga bo‘linib, bir necha provinsiyalar yana kattaroq ma’muriy birlik – dioses (jami 12 dioses)ga birlashtirildi. Diokletian qancha ko‘p boshliq bo‘lsa, shuncha ko‘p tartib bo‘ladi deb hisobladi. II asr boshlarida Trayan davri provinsiyalarining soni 45 ta bo‘lsa, endilikda eski bepoyon provinsiyalarni bo‘lish yo‘li bilan ularning soni 108 taga yetdi. Diokletian markazi Nikomediya bo‘lgan imperiyaning sharqiy qismini boshqardi. Markazi Mediolan (Milan, Shimoliy Italiya) bo‘lgan imperiyaning g‘arbiy qismini Maksimian boshqaruviga topshirdi. Ko‘p tarmoqli davlat boshqaruv apparati shakllandi. Imperator davlatni o‘zi tayinlaydigan amaldorlar yordami bilan boshqardi. Poytaxtda imperator davlat idorasi, provinsiya va shaharlarda noib, shahar hokimi mahkamalari shakllandi. Barcha amaldorlar davlat hisobidan ish haqi olib yashadilar. Naqd pul taqchil bo‘lgani uchun amaldorlarga mahsulot bilan haq to‘lash joriy etildi.

Diokletian va Maksimian «Avgust» unvonini olib, o‘zlariga yordamchi olib, ularga «Sezar» unvonini berdilar. Diokletian Sezarlar Avgustlarning davom-

chisi bo‘ladi deb hisobladi. Bu tartib imperiya yaxlitligini saqlashga yordam berishi, viloyatlarda hokimiyatning zo‘ravonlik bilan tortib olinish imkoniyatiga yo‘l qo‘ymasligi va shuningdek, Rim davlat chegaralarini qo‘riqlashni ta’minlashga xizmat qilishi lozim edi. German qabilalarining Rim hududiga doimiy ravishda bostirib kirishi harbiy islohot o‘tkazishga majbur qildi.

Ijtimoiy islohotlar. Diokletian imperiyaning siyosiy ahvolini nisbatan barqaror holatga keltirib, iqtisodiyot va davlat moliyasini sog‘lomlashtirishga qaratilgan qator tadbirlarni amalga oshirdi. 301-yil imperator Diokletion edikti bilan chayqovchilik va sudxo‘rlikka qarshi kurash boshlandi. Oziq-ovqatga qat’iy baholar belgilandi. Davlat hokimiyati narx-navo va ish haqining o‘sishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatdi. Hunarmand va yollanma ishchilarning ish haqining qat’iy stavkalari belgilandi.

Pul muomalasi unifikatsiya qilindi. Provinsiyalarda pul zarb qilish taqiqlandi va 286-yilda to‘laqonli tilla, kumush va mis tangalar zarb qilina boshlandi. Bir vaqtning o‘zida soliq va pul islohotlari o‘tkazilishi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy tushkunlik vaqtinchalik bartaraf etildi. III asr oxiri IV asr boshlarida o‘tkazilgan ma’muriy-harbiy va iqtisodiy islohotlar ulkan Rim davlatining umrini yana yuz yildan ko‘proq vaqtga uzaytirdi.

Diokletian juda ko‘p inshootlarni bunyod qildi. Uning davrida Rimda saroylar, sirk va termalar, Illiriyadagi Salonika shahrida (hozirgi Bosniyadagi Split shahri)gi ulkan qasr – saroy ansambli bunyod qilindi. 303 – 304-yillarda keksa va kasal Diokletian yordamchisi Galeriyning tazyiqi ostida nasroniylarga qarshi o‘zining 4 ediktini (farmon) e’lon qildi.

Armiya. Azaldan Rim davlatining kuch-qudratining asosi yuqori jangovar qobiliyatga ega bo‘lgan

kuchli armiyaning mavjudligi edi. Halokat yoqasigagi Rim davlatini faqat harbiy kuch bilan qayta tiklash mumkin edi. Birinchi navbatda Diokletian armiyani mustahkamlshga kirishdi. Endilikda armiya ta'minoti, yo'llar, qal'alarni saqlab turish, askarlarni moddiy ta'minoti davlat hokimiyatining birinchi darajali ishi bo'ldi.

Qo'shinning soni ko'paytirildi. Chegarada turadigan legionlar soni oshdi. Chegara qo'shinlari imperiyaning mustahkamlangan qal'alari va chegaralarida joylashtirildi. Harakatdagi yoki zaxiradagi qo'shin urush xavfi bo'lgan chegara hududiga yuborish uchun doimo jangovar holatda saqlab turildi. Endilikda yirik yer egalari kolonlar va ozod qo'yilgan qullardan jangchilar berishga majbur edilar. Lekin endi Rim armiyasi faqat Rim fuqarolaridan to'ldirilmay, provisiyalar va german xalqlari vakillari bilan to'ldirilishi muntazam tus oldi. Harbiy xizmatga german qabilalarining qismlari – federatlar qabul qilina boshlandi. Bundan tashqari, qo'shinning tezkor harakat qilishini ta'minlash uchun armiya chegara qo'shinlari va harakatdagi qo'shinlarga bo'lindi.

Rim imperiyasining ikkiga bo'linishi. Diokletian imperator deb e'lon qilinganda onasi unga shunday xat yozgan edi: «sen 43 yoshdasan, seni so'yishga ulgurmaslaridan hokimiyatni boshqaga uzat». Aqlli Diokletian onasining maslahatiga quloq tutib, 60 yoshga yetishi bilan Maksimian bilan birga 305-yil 1-mayda hokimiyatdan voz kechdi. Diokletian Adriatika bo'yidagi Salonika (Split shahri)da o'zi qurgan saroyda gul va sabzavot yetishtirish bilan shug'ullanib, 313-yil 68 yoshida vafot etdi. Bu saroy Misr ibodatxonalaridan keltirilgan ikki ming yillik tarixga ega bo'lgan nafis ustunlar va sfinks bilan bezatilgan edi.

Diokletianning rejasiga ko'ra Maksimian ham taxtdan voz kechib, ularning o'rniga sezarlar Galeriy

va Konstansiy Xlor ularning o‘rniga taxtga chiqishlari kerak edi. Konstansiy I Xlor va Galeriy imperator deb e’lon qilindi, lekin ular o‘rtasida taxt uchun kurash boshlandi (306 – 324-yillar). 306-yilda Konstansiy Xlor vafot etdi, Konstansiyning askarlari uning 20 yoshli o‘g‘li Konstantinni sezar va imperator deb e’lon qildilar. Lekin Maksimian taxtdan voz kechgandan so‘ng qisqa muddatdan keyin yana imperator taxtini bosib oldi. Maksimian Konstantin bilan ittifoq tuzib, uni o‘z qizi Fustaga uylantirdi. Konstantin qaynotasi uning askarlarini o‘z tomoniga ag‘darilib olishga urinayotganini bilib qolib, uni qatl etdi. Konstantin (286\306 – 337) Rimga tahdid solayotgan alleman va frank qabilalarini Reyn daryosi ortiga siqib chiqardi. 311-yilda Galeriy vafot etdi. Konstantin 312-yilda kuchli armiya bilan Maksimianning o‘g‘li Maksensiyning hududiga bostirib kirdi va Rim shahri yonida raqib ustidan g‘alaba qildi. Maksensiyning o‘zi Tibr daryosiga tashlandi. Rim senati Konstantinni avgust deb tan oldi.

313-yilda Rim imperiyasi Konstantin va Galeriyning vorisi Likiniy (Galeriyning o‘g‘li) o‘rtasida ikkiga bo‘lindi. Italiya imperiya markazi sifatida imtiyozini to‘la yo‘qotdi. Konstantinga imperiyaning g‘arbi – Italiya, Ispaniya, Galliya, Alp viloyatlari, shimoli-g‘arbiy Afrika va Bolqon yarim orolida Illiriya berildi, Likiniy imperiyaning sharqiy qismi – Yunoniston, Frakiya, Kichik Osiyo, Suriya va Misrga egalik qildi.

Konstantin o‘z ulushi bilan cheklanib qolmay, 314-yildagi urushda Likiniydan Dunay bo‘yi viloyatlari Pannoniya va Meziyani tortib oldi. Konstantin 324-yilda Adrianapol yaqinidagi jangda Likiniyning armiyasini yengib, imperiyaning yaxlitligini tikladi. Likiniy asir olinib surgun qilindi, ko‘p o‘tmay xiyonatda ayblanib qatl etildi. Konstantin boshqaruvni birov bilan baham ko‘rish tizimini yo‘q qildi. Endilik-

da imperiya qismlarini Konstantinga bo‘ysunadigan prefektlar boshqardilar.

Konstantin Osiyo va Yevropa qit’alari o‘rtasida dengiz va quruqlik yo‘llari kesishgan Bosfor qirg‘og‘ining sharqiy qismidagi qulay Frakiyadagi Vizantiy shahrini qayta qurib kengaytirdi. Konstantin 330-yil 11-may kuni poytaxtni Vizantiy shahriga ko‘chirdi. Yangi poytaxtning qurilishi va bezatilishi uchun ulkan miqdorda mablag‘ sarflandi. Saroylar, stadion, ippodrom (ot poygalari o‘tkaziladigan joy), termalar va kutubxonalar qurildi. Rimdan katta miqdorda haykallar olib kelindi. Shahar imperator sharafiga yangi nom bilan Konstantinopol deb ataldi. (Tarixiy adabiyotda Vizantiya nomi Rim imperiyasining sharqiy qismini belgilash uchun 476-yilda imperiyaning g‘arbiy qismining halokatidan keyin 476/ 1453-yillar bosqichini belgilash uchun ishlatildi. Vizantiyaliklarning o‘zlari o‘z davlatlarini «Rim imperiyasi» deb, o‘zlarini esa «romeylar», ya’ni rimliklar deb atadilar). Poytaxtning sharqqa ko‘chirilishi tasodif emas edi. Sharqiy provinsiyalar g‘arbdagilarga qaraganda, madaniyat yuqori va boyroq edi. Sharqdagi hududlar azaldan savdo-hunarmandchilik markazlari bo‘lgan shaharlar va sug‘orma dehqonchilik asosida mo‘l-ko‘l hosil olinadigan dehqonchilik o‘choqlar edi. Rimliklar mil. avv. II asrdan bu hududlarni bosib olgach, bu hududlar Rimni g‘alla, oziq-ovqat va boshqa xomashyo bilan ta’minlaydigan asosiy markaz bo‘lib qoldi. Rim davlati xazinasiga tushadigan soliq-to‘lovlarning salmoqli qismi sharqiy hududlardan tushar edi.

Konstantin ichki siyosatda Diokletian boshlagan islohotlarni davom ettirdi. Diokletian amalga oshirgan o‘rta va kichik provinsiyalarga, okruglarga bo‘linish, moliya tizimi saqlanib qoldi. Diokletian davrida shakllangan ko‘p sonli katta-kichik darajadagi amaldorlarni tashkil etgan boshqaruv shakli saq-

lanib qoldi. Imperiya aholisining o‘z kasbiy faoliyati va o‘z yashash joylariga biriktirib qo‘yilishi oqibatida natural majburiyatlar, to‘lovlar va mahsulot yetkazib berish tizimiga o‘tildi. Konstantin davrida hunarmandlar o‘z kasblari bo‘yicha korporatsiyalarga biriktirildi. Hunarmandlar armiya va davlat ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan mahsulotni yetkazib berishlari majburiy bo‘lib, korporatsiyalar hunarmandlar uchun kafolatchi vazifasini o‘tadilar. U yoki bu kasb bilan shug‘ullanish majburiy merosiy majburiyat bo‘lib qoldi. Shahar kengashlari a’zolari shahardan chiqish huquqidan mahrum edilar. Ular o‘z mulklari va shaxslari bilan o‘z vaqtida soliq to‘lovlarini to‘lash uchun javobgar edilar. 312-yildagi qonun kolonlarni yerga biriktirib qo‘yildi. Bu qonunga ko‘ra dehqonlar o‘zlari biriktirilgan qishloq yoki qo‘rg‘ondan «bir daqiqa ham» chiqib ketishlari mumkin emas edi.

Konstantin uzoqni ko‘ra oladigan aqlli siyosatchi edi. U eski ilohlarga tegishli ibodatxonalarni yopdi, ularning mol-mulki va qimmatbaho buyumlarini tortib oldi. Barcha kohinlarni lavozimidan mahrum etdi va xazinadan qurbonlik berish uchun mablag‘ ajratishni bekor qildi. Konstantinning eng yaqin maslahatchisi xristian yepiskopi bo‘ldi. U xristian e’tiqodini kuch-qudratidan davlat hokimiyatini mustahkamlashda foydalanishga harakat qildi. Konstantin 313-yil o‘zining Milan edikti (qonuni) bilan xristian dinini boshqa dinlarga tenglashtirdi. Shu lahzadan boshlab xristian cherkovi imperator hokimiyatining ittifoqchisi va himoyachisiga aylandi. Konstantinning o‘zi umrining oxirigacha qadimgi Rim diniy e’tiqodining oliy kohini unvonida qoldi.

Imperator Konstantinning o‘limidan so‘ng hokimiyat uning uch o‘g‘li qo‘liga o‘tdi: Konstantin II (337 – 340), Konstant (337 – 350), Konstansiy II (337 – 361). Konstansiy II Konstantinopolni bosib olib, otasining

barcha qarindoshlarini, uning aka-ukalarini va jiyanlarini shafqatsizlik bilan qatl qildi, faqat Konstantinning ukasini o‘g‘li Yulian va Konstantinning ukasi Gall qutulib qoldi. Lekin Gall ham Konstansiyning buyrug‘i bilan 354-yilda qatl etildi. Konstantin II Konstantdan Afrikani tortib olish uchun 340-yilda urush boshladi, lekin urush vaqtida pistirmaga tushib halok bo‘ldi. Konstantin II ning Galliya, Ispaniya va Britaniyadagi mulklarini Konstant egalladi. Lekin Konstant imperatorlik hokimiyatiga da’vo qilgan Magnetsiy tomonidan o‘ldirildi. Italiya va Galliya Magnetsiyning hokimiyatini tan oldi. Konstansiy II bu soxta imperatorga qarshi urush ochdi va 353-yilda uning ustidan g‘alaba qildi, Magnetsiy o‘zini o‘ldirdi. Konstantinning 3 o‘g‘lidan hayot bo‘lgan o‘rtanchi o‘g‘li Konstansiy 351-yilda butun imperiya hududida hokimiyatni o‘z qo‘lida to‘pladi (353 – 361-yillar).

Konstansiy g‘arbda allemanlar bilan, sharqda Sosoniylar bilan urush olib bordi. Allemanlarga qarshi urushga Konstansiyning amakivachchasi Flaviy Klabdiy Yulian yuborilgan edi, Yulian allemanlar va franklar ustidan g‘alaba qildi, Rim zulmiga qarshi chiqqan Galliyada amaldorlarning zulmiga chek qo‘ydi, soliqlarni kamaytirdi va mahalliy aholi hurmatiga sazovor bo‘ldi. Konstansiy II forslarga qarshi urushda biror bir natijaga erisha olmadi. Imperator Konstansiydan norozi bo‘lgan Reyn armiyasi Yulianni 361-yilda imperator taxtiga o‘tqazdi. Flaviy Klavdiy Yulian (361 – 363-yillar) qobiliyatli yozuvchi, layoqatli sarkarda va boshqaruvchi bo‘lib, qator islohotlarni o‘tkazishni boshladi. Saroy a’yonlari va xizmatchilari sonini kamaytirdi, saroy xarajatlarini qisqartirdi, soliq yukini kamaytirdi, pochta aloqasini qayta tuzdi va shahar hayotini qayta tiklash shart-sharoitlarini yaratdi. Yulian eski Rim e’tiqodini qayta tiklash-

ga urinib, 313-yilda Mediolan edikti bergan xristian cherkovining imtiyozlarini bekor qildi. Shu sababli xristian dini peshvolari Yulianni apostata (dindan qaytgan) deb e'lon qildi. Yulian xristian diniga nisbatan zo'ravonlik va ta'qib siyosatini qo'llamadi, o'zi xristian e'tiqodiga qarshi yozma va og'zaki tashviqot-targ'ibot olib bordi.

Imperiyaning tashqi ahvoli og'irlashdi. G'arbiy chegaralarda germanlar rimliklar zulmiga qarshi turib, Rim bosib olgan hududlarga bostirib kirishni kuchaytirdilar. Konstansiy 361-yilda Yulianga qarshi qo'shin tortdi, lekin u to'satdan kasal bo'lib 45 yoshida vafot etdi.

Sharqiy chegarada qo'shini Sosoniylar davlati rimliklar bosib olgan sharqdagi hududlarni qaytarib olishga harakat qildilar. Rim sharqda o'zi bosib olgan boy hududlardan voz kechmoqchi emas edi. Shu sababli 32 yoshli Yulian armiya bilan 363-yilda Frot daryosidan kechib o'tdi va forslar bilan bo'lgan jangda halok bo'ldi. Sosoniylar qo'shini Rim legionlarini Frot daryosi ortidan haydab chiqardi. Askarlar Yulianning o'rniga uning vorisi Iovian (363 – 364)ni imperator taxtiga o'tqazdilar. Iovian Sosoniylar bilan sulh shartnomasi tuzib, forslarga Diokletian sharqda bosib olgan hududlarni qaytarib berdi. O'zi xristian bo'lgan Iovian xristianlarning Yulian davrida yo'qotgan barcha huquqlarini qayta tikladi.

364-yil boshlarida Iovian vafor etdi. Rim qo'shini saylagan imperator Valentinian I (364 – 375) imperiyaning g'arbiy qismini, uning ukasi Valent (364 – 378) imperiyaning sharqiy qismlarini boshqardilar. Ularning davrida germanlarning hujumi kuchaydi. Valentinian vafotidan so'ng uning o'g'li Gratsian imperiyaning g'arbiy qismini boshqardi. Gratsian (375 – 383) butparast va shakkoklarga qarshi qat'iy qonunlarni qabul qilib, ularni ta'qib ostiga oldi. U an'anaviy

Rim e'tiqodi bosh kohini lavozimidan voz kechib, eski diniy e'tiqodni davlat homiyligidan mahrum qildi.

Bu vaqtda imperatorlar Rim chegaralarini himoya qilish uchun mamlakat aholisidan harbiy qo'shin to'play olmadilar. Katta miqdordagi soliqlar, amaldorlarning tovlamachiligi va katta yer egalari zulmi ostida azob chekkan aholi harbiy xizmat qilishdan bosh tortdi. Imperatorlar Rim chegaralarini qo'riqlashni germanlardan shakllantitirilgan yollanma harbiy qismlarga topshirdilar. Rim armiyasining asosiy qismi ham germanlardan tashkil topdi. Harbiy qobiliyati kuchli bo'lgan germanlar endilikda oddiy askarlikdan xizmatni boshlab, oliy harbiy mansablarni ham egallay boshladilar. Gratsian german va alanlarning qobiliyatli vakillaridan unumli foydalandi. U imperiyaning g'arbida davlat boshqaruvini frank Marobadga topshirdi, o'z qo'riqchilari etib alanlarni tayinladi.O'zi alanlarning kiyimini kiydi. Gratsianning germanlarga xayrixohligi rimliklarning noroziligini keltirib chiqardi va u fitna qurboni bo'ldi. Gratsianni Britaniyada imperator deb e'lon qilingan Maksim taxtdan tushirdi.

Bu vaqtda Meziyaga (hozirgi Bolgariya) ko'chib kelgan vestgotlar Rim amaldorlarining zo'ravonliklari natijasida qo'zg'olon ko'tardilar. Anatoliyada turgan Valent tezda Frakiyaga kelib, Gratsiandan yordam kelishini kutib o'tirmasdan, vestgotlarga qarshi urush harakatlarini boshladi. Frakiyadagi Adrianopol shahri yonida 378-yilda vestgotlar Rim qo'shinlari ustidan g'alaba qildilar. Imperator Valent jang maydonida halok bo'ldi. Bu jangda eng yaxshi zobitlar ham qurbon bo'ldi.

Bu og'ir vaziyatda Gratsian Bolqonda Rim hukmronligini saqlab qolish uchun shoshilinch choralarni ko'rdi. Gratsian Bolqonda Rim legionlariga bosh qo'mondon va imperiyaning sharqida imperatorlik

vakolati bilan kelib chiqishi ispan bo‘lgan salohiyatli sarkarda Feodosiyni jo‘natdi. Rim armiyasi vestgotlarni kuch bilan tinchlantira olmas edi. Shu sababli Feodosiy kelishuv-muzokaralar bilan vestgotlarni tinchlantirdi. Vestgotlar federatlar, ya’ni Rimning ittifoqchilari deb tan olindi. Ular Meziya, Frakiya va Makedoniyada joylashdilar.

Rim bosib olgan Afrika – hozirgi Tunis, Jazoir va Marokko hududlarida bosqinchi rimliklar zulmiga qarshi kuchli norozilik harakati hech qachon to‘xtamadi. Eski Karfagenning tili, shevalari mahalliy aholi orasida to‘la saqlanib qoldi, mahalliy ilohlarga sig‘inish ham davom etdi. Kam sonli katta yer egalari bo‘lgan rimliklar mahalliy aholi karfagenliklar, liviyaliklar, numidiya va arab qabilalarining an’anaviy madaniyati va turmush tarziga ta’sir qila olmas edilar. Mahalliy aholining aksariyat qismi rimlik amaldor, katta yer egalari va sudxo‘rlarga nafrat bilan qarar edilar. Rimlik katta yer egalari, amaldorlar va sudxo‘rlarlar zulmi va soliqlar yuki ostida qolgan aholi so‘nggi imperiya davrida bosqinchilarga qarshi uzluksiz g‘alayon va qo‘zg‘olonlar ko‘tarib, boy rimliklarning qo‘rg‘onlariga hujumlar uyushtirdilar. Ezilgan mahalliy aholining norozilik harakatini Rim bostira olmadi. Mahalliy aholi V asrda german qabilasi vandallarining bosqiniga hech qanday qarshilik ko‘rsatmadi.

Imperator Feodosiy I (379 – 395) Rim imperiyasining so‘nggi kuchli hukmdori edi. Feodosiy qadimgi Rimda mavjud bo‘lgan «reks» unvonini qabul qildi va imperiyaning boshqa hududlariga da’vo qilishdan voz kechib, Italiyani boshqardi. Feodosiy vestgotlarga Illiriya viloyatini bo‘shatib berib, shu bilan Konstantinopolni bosib olinishidan saqlab qoldi. Britaniyada qo‘shin imperator deb e’lon qilgan Maksim Valentiniandan hokimiyatni tortib olish uchun Italiyaga

yurish qildi. Italiyada Maksim qo‘shini Feodosiy armiyasi tomonidan tor-mor qilinib, o‘zi o‘ldirildi, Valentinian II ning hokimiyati qayta tiklandi. G‘arbda boshqaruvchi etib frank Argobast tayinlandi. Argobast qattiqqo‘llik bilan boshqardi, lekin Valentinian bu qattiqqo‘l boshqaruvchidan qutulib, hokimiyatni to‘la o‘z qo‘liga olishni reja qildi. Argobast Valentinianni o‘ldirdi va 392-yilda taniqli amaldor va notiq Yevgeniyni imperator etib tayinladi. Yevgeniy eski Rim e’tiqodini qayta tiklashga urindi. G‘alaba haykalini yana senat binosida qayta o‘rnatdi, an’anaviy Rim bayramlari yana o‘tkazila boshlandi. Feodosiy Yevgeniyni tan olmay, unga qarshi Italiyaga qo‘shin tortdi. Qonli jangda Feodosiy g‘alaba qildi, Argobast o‘zini o‘ldirdi, Yevgeniy asir olinib qatl etildi.

«Samoda quyosh yagona bo‘lganidek, yerda ham bitta imperator bo‘lishi kerak», deb Feodosiy 394-yil tarixda so‘nggi marta imperiyaning har ikkala qismini birlashtirdi, lekin u 4 oydan keyin 395-yilda vafot etdi. U o‘limi oldidan imperiyani g‘arbiy va sharqiy qismga bo‘ldi. Feodosiy Imperiyaning g‘arbiy qismini 11 yoshli o‘g‘li Gonoriy (395 – 423)ga berib, unga boshqaruvchi etib vandal Stilixon, sharqiy qismini 28 yoshli ukasi Arkadiyga topshirib, unga boshqaruvchi etib gall Rufinni tayinladi. Konstantipolda Arkadiy saroyida cheksiz ta’sirga ega bo‘lgan pretor prefekti gall Rufin bilan Stilixon o‘rtasida kelishmovchilik kelib chiqib, bu Rufinning o‘limi bilan tugadi.

Zaiflashib qolgan imperiyaning zulmidan ozod bo‘lish uchun germanlar harakatga keldilar. Qo‘zg‘olon ko‘targan got federatlari Alarix boshchiligida 395 – 396-yillar Makedoniya va Yunonistonni taladilar. Rim sarkardasi Flaviy Stilixon (360 – 408-yillar) Sharqiy imperiyaga yordamga keldi. U Yunonistonning janubida Alarix qo‘shinlarini tor-mor qildi. Lekin Konstantinopol saroyi Stilixonga ishonchsizlik bilan

qaradi. Sharqiy imperiya Alarix bilan shartnoma tuzdi va bu xavfli qo‘shnidan qutulish uchun Alarixni Italiyaga yurish qilishga yo‘naltirdi.

Alarix 401-yilda Italiyaga yurish qildi. Stilixon raqib Vizantiyaga qarshi urushda ittifoqchi sifatida foydalanish uchun Alarix bilan kelishmoqchi edi. Shu sababli Alarix bilan tinchlik bitimini tuzdi. Alarix 5 ming funt oltin, 30 ming funt kumush miqdorida tovon olib qaytib ketdi.

Stilixon Alarix boshchiligidagi gotlarni 2 marta tor-mor qildi va Italiyadan haydab chiqardi. Rimda gotlar ustidan g‘alaba sharafiga so‘nggi marta triumf o‘tkazildi. Baribir Rim gotlarni Illiriyada yashashlariga ruxsat berishga majbur bo‘ldi.

Kelib chiqishi vandal bo‘lgan Stilixon Feodosiy davrida tanilgan bo‘lib, Feodosiy bu qobiliyatli sarkardani o‘zining asrandi qiziga uylantirdi. Stilixon kuchli sarkarda va diplomat edi. U imperiyani himoya qilishga harakat qildi va Rim davlatini harbiy jihatdan himoya qilish maqsadida german qabilalarini harbiy xizmatga tortish va ularning yo‘lboshchilari bilan shartnomalar tuzishga harakat qildi. Italiya 405-yilda Dunay ortidan konung Radagays boshchiligidagi germanlar bosqiniga uchradi. Stilixon bu kuchli dushmanga qarshi Britaniya, Galliya, Reyn ortidan va Osiyo xunnlaridan yollanma qo‘shin to‘pladi. Radagays Florensiyani qamal qildi, Stilixon Florensiyada Radagays armiyasini qurshab olib, uni taslim bo‘lishga majbur qildi, asirga olingan germanlarning katta qismini qullikka sotib yubordi.

Alarix 408-yil Pannoniya (Vengriya) va Norikani egalladi va keyin Italiyaga qo‘shin tortdi. Alarix 4 ming funt oltin miqdorida tovon pulini talab qildi. Stilixon Alarix bilan kelishishni mo‘ljallab undan Konstantinopolga qarshi kurashda va imperatorlik taxtiga da’vo qilayotganlarga qarshi foydalanmoqchi edi.

Stilixon Alarix talab qilgan mablag‘ni topish uchun Rimda senator – katta yer mulk egalariga soliq soldi. Lekin Rimning aslzoda tabaqalari vatanni qutqarish uchun o‘z mablag‘laridan voz kechishni istamadilar. Rim zodagonlari Stilixonni davlatga xiyonat qilish va oliy hokimiyatni egallashda aybladilar. Imperator Gonoriy Stilixonni hibsga olish va qatl qilishga buyruq berdi. Stilixondan keyin Rimni himoya qiladigan biror bir qobiliyatli sarkarda qolmadi. Alarix bilan tuzilgan shartnoma bekor qilindi.

Stilixonning o‘limidan keyin Alarix uchun Rimga yurishga to‘siq bo‘ladigan biror kuch qolmadi. 410-yilda Alarix boshliq gotlar Rimni qamal qildilar. Alarix tovon puli sifatida bir necha ming funt oltin va kumush, qimmatbaho ziravor bo‘lgan qalampir va askarlari uchun 3000 ta qizil rangga bo‘yalgan po‘stin berishni va 40 ming qulni ozod qilishni talab qildi. Rim taslim bo‘ldi va gotlar shaharni talab, katta o‘lja va asirlar bilan chiqib ketdilar.

410-yil 24-avgustida qullar shahar darvozasini Alarixga ochib berdilar va gotlar shaharni 3 kun talon-taroj qildilar. So‘ng Alarix boshchiligidagi qo‘shin janubga yurish qildi. Yo‘lda kasallangan Alarix 40 yoshida vafot etdi. Vestgotlar bir necha yildan keyin (419-yil) Akvitaniyada o‘z qirolliklarini tuzdilar. Stilixonning o‘limidan so‘ng Rimni himoya qiladigan birorta qobiliyatli sarkarda va qo‘shin qolmagan edi.

Juda tez kuchsizlanib borayotgan Rim britan orollarini qaramlikda ushlab tura olmas edi. 407-yil rimliklar Britaniyadan chiqib ketishga majbur bo‘ldilar. Orollarda brittlar, pikt va skottlar o‘z azaliy turmush tarzida yashab qolaverdilar, lekin tez orada orollarga german qabilalarining kuchli migratsiasi boshlandi. Vandal, svev va alan qabilalari 409-yil Ispaniyaga hujum qilib, ayrim viloyatlarni egallab oldilar. Vandal va alanlar 420-yilda Pireney yarim orolining ja-

nubida o‘rnashib, 429-yil Afrikaga o‘tib, Numidiya va unga qo‘shni hududlarning katta qismini egalladilar hamda o‘z davlatlarini tuzdilar. Vandal qiroli Geyzerix 445-yil Italiyaga bostirib kirib, Rim shahrini talon-taroj qildi. Rim legionlari 407-yilda Britaniyani tark etdilar, 449-yilda esa Britaniyaga ango-sakslar bosqini boshlandi.

2.Xunnlar va Rim imperiyasi. Buyuk cho‘llar atrofida xunnlardan tashqari Minusin chuqurligida dunlim, janubiy Manjuriyada syanbi va Sharqiy Baykalda tabgachlar yashar edilar. Xitoyning chegara hududlarida Xitoy amaldorlarining zulmi natijasida aholi xunnlar hududlariga qochib keldilar. Xunnlar bu qochoqlarni o‘z urug‘lariga qabul qila olmas edilar, lekin ularni alohida manzilgohlarga joylashtirdilar. Xunnlar ularni qul deb atadilar, faqat qul og‘ir mehnat qiladigan, qaram, shaxsiy ozod bo‘lmagan, birovning mulki ma’nosida emas, begona yurtda boshqa xalq hukmdoriga tobe ma’nosini bildiradi. Qullar xunnlar bilan yonma-yon yashab, ularning tili va urf-odatlarini o‘rgandilar.

Xunnlarning Yevropa tomon siljishi tasodifiy emas edi. Xitoyda Xan sulolasi (mil. avv. 206-yil – mil. avv. 221-yillar) xunnlar davlatiga keskin zarba berdilar va xunnlarning Xitoyga hujumiga chek qo‘ydilar. Xunnlarning bir guruhi O‘rta Osiyo va shimoliy Hindistonga tomon siljidilar. Ikkinchi guruhi esa janubiy Sibir, Ural orqali sharqiy Yevropaga yopirildi. Volganing quyi oqimida yashagan sarmatlarning bir qismi bo‘lgan alanlar tor-mor qilindi. Ularning bir qismi xunnlarga qo‘shildi, qolganlari Kavkazda boshpana topdi (ularning qoldiqlari hozirgi osetinlar). 370-yilda alanlar tobe etilgandan so‘ng xunnlar Kavkaz tog‘laridan Azov dengizigacha Shimoliy Kavkazning cho‘l zonalarini nazorat qildilar. Bir kuni 371-yilda xunnlarning bir guruhi ov qilib yurib, Taman yarim oroliga

o‘tib qoldi. Bu yerda xunnlar o‘tlab yurgan buguni ko‘rib qolib, uning orqasidan quvdilar. Bug‘u dengiz qirg‘og‘iga ta’qib etib borilganda u birdan suvga kirib, Qrim yarim oroliga o‘tib ketdi va xunnlarga yarim orolga o‘tadigan joyni ko‘rsatdi. Xunnlar bo‘g‘ozdan o‘tish joyini aniqlab oldilar. Ular Qrim yarim orolining shimoliga yurish qilib, gotlarning orqa tomoniga chiqdilar. Gotlarning qarib qolgan yo‘lboshchisi Ermanarix (manbalar ma’lumotiga ko‘ra Germanarix bu paytda 110 yoshda bo‘lgan) mudofaani uyushtira olmadi. Gotlarga qaram bo‘lgan vizigotlar, gepidlar va venedlar gotlar zulmidan ozod bo‘lish umidida edilar. Ros qabilasidan bo‘lgan rafiqasi Sunilda Germanarixga xiyonat qilgani uchun yovvoyi otlarga bog‘lab burdalab tashlashga buyurdi. Sunildaning akalari Sar va Ammiy Germanarixning biqiniga qilich sanchib o‘ch oldilar. Germanarix o‘lmadi, lekin endi gotlarni kasal holida boshqardi. 375-yilda Germanarix hayotining nihoyasiga yetayotganini sezib, o‘z joniga qasd qildi.

Xunnlar Don daryosidan Karpat va Quyi Dunaygacha bo‘lgan hududlarni egallagan sharqiy german qabilasi gotlarni bo‘ysundirdilar. Gotlardan bir qismi ostgotlar (sharqiy) xunnlarga ergashdi, vizigotlar (g‘arbiy) yana g‘arbga chekindilar. Ermanarixning vorisi Amal Vinitariy IV asr oxirida antlarga hujum qilib, ularning yo‘lboshchisi Boj va uning o‘g‘illarini hamda 70 ta oqsoqollarini qatl qildi. Antlar gunnlarning ittifoqchisi edi. Boj oldirilganidan bir yil o‘tgach xunn yo‘lboshchisi Balamber Vinitariyga qarshi yurish qilib, Quyi Dneprdagi jangda Vinitariy qo‘shinlari ustidan g‘alaba qildi. Bu jangda Vinitariy halok bo‘ldi.

Xunnlar Qoradengiz cho‘llaridan g‘arbda yurib Dunay bo‘ylarida chiqdilar. Ular hozirgi Ruminiya, Moldaviya, Vengriya va Avstriya hududlarida o‘rnashib, bu hududlar ustidan nazorat o‘rnatdilar. Daki-

yada german qabilasi gepidlar o‘rnashdilar, ularning yo‘lboshchisi Ardarix Atillaning yaqin do‘sti edi. Yo‘lboshchilar Alatey va Safrax ostrogotlarni 378-yilda Pannoniya (hozirgi Vengriya hududi)ga olib keldilar va Dunay qirg‘oqlariga o‘rnashdilar. Xunnlar 400-yilda Pannoniyaga kelib, bu yerdagi boshqa qabila va xalqlarning qarshiligisiz tinch yo‘l bilan o‘rnashdilar. Xunnlar ko‘plab urug‘-qabilalar bilan yaqin aloqalarni yo‘lga qo‘yganlari uchun ittifoqchi qabilalar ularni Pannoniyaga joylashishiga yordam berdilar. Lekin xunnlarning do‘stlari bilan birga dushmanlari ham bor edi. Alanlar, svevlar... Bu qabilalar xunnlar tazyiqi ostida o‘z joylaridan ko‘chgan edilar. Shu vaqt oralig‘ida Rim sarkardasi Gaudensiyning o‘g‘li Aetsiy xunnlarda garovda turdi..

Xunnlar 408-yilda Frakiyani, 415-yilda Illiriyani egalladilar. Xunn hukmdori aqlli va ehtiyotkor Rugila Rim bilan diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘ydi. Xunnlar Rim bilan kelishuvga binoan germanlardan imperiya hududlarini himoya qildilar. 402-yilda Alarixni Pollensiya yonidagi jangda yanchib tashlashda rimliklar xunnlardan foydalandilar. Radagaysning hujumini qaytarishda 406-yilda Etruriya yonidagi jangda xunnlar armiyasi ishtirok etdi. 434-yilda burgundlar imperiya hududiga bostirib kirganda Rim yana xunnlarga yordam so‘rab murojaat qildi. Xunnlar yo‘rdamida burgundlar hujumi qaytarildi. Xunnlar sharqiy Rim imperiyasi yerlariga bostirib kirdilar. Imperator xunnlarga 6000 funt tilla o‘lpon to‘lab, har yili to‘lov majburiyatini oldi. Xunnlar 375-yilda imperiyaning sharqiy qismida, 395 – 397-yillarda Suriyaga kirib bordilar, Kappadokiya va Mesopotamiyani egalladilar.

434-yilda xunnlarning hukmdori Rugila vafot etdi. Hokimiyat Rugilaning akasi Munzukning o‘g‘illari Atilla va Bledga o‘tdi. Atilla o‘rta bo‘yli, keng yelkali, qora sochli, yassi burunli bo‘lib, siyrak soqolli

edi. Tor ko‘zlari bilan shunday tikilib qarar ediki, unga qarab turganlar unda anglangan kuchni ko‘rib qaltirar edilar. G‘azablanganda qo‘rqinchli bo‘lib, dushmanlarga shafqatsiz, o‘z safdoshlariga marhamatli edi. Xunnlar Atillaning jasoratiga ishonar edilar, shu sababli Volgadan Reyngacha bo‘lgan hududlardagi barcha qabilalar uning hokimiyati ostida birlashdilar. Atillaning bayrog‘i ostida xunnlardan tashqari germanlardan ostrogotlar, gepidlar, tyuringlar, gurullar, turklinglar, ruglar, bulg‘orlar, akatsinlar hamda Rim davlati zulmidan bezigan yunon va rimliklar jang qildilar.

Atilla boshda hokimiyatni Bled bilan bo‘lishdi, 445-yilda uni o‘ldirib, hokimiyatni to‘la o‘z qo‘liga oldi. 448-yida sharqiy viloyatlarda separat kayfiyatdagi xunnlarning bir qismi bo‘lgan akasirlarning qarshiligini sindirdi. Atilla 447-yilda Sharqiy Rim imperiyasiga yurish qildi va Konstantinopol shahri devorlari yonigacha yetib bordi. Sirmiyadan Naisgacha bo‘lgan hududda xunnlar 70 shaharni egalladilar. Vizantiya imperatori Feodosiy II 447-yilda Atilla bilan sulh tuzdi, bu sulhga ko‘ra Vizantiya har yili xiroj to‘lash majburiyatini oldi va Dunayning janubiy qirg‘og‘i Singidundan Naisgacha bo‘lgan hududlarni xunnlarga bo‘shatib berdi. Feodosiydan keyingi imperator Markian sovg‘alar do‘stlar uchun, dushmanlar uchun qurol borligini aytib, bu shartnomani 450-yilda bekor qildi..

Atilla g‘arbiy Rim imperiyasiga yurishga tayyorlandi. By yurishning sababi bor edi: o‘z taxtidan mahrum etilgan frank qirollaridan birining yordam so‘rab murojaat qilishi, vandal qiroli Geyzerixning iltimosi va malika Gonoriyaning Atilla bilan hikohga kirish to‘g‘risidagi iltimosi edi. Atilla Ioanning vafotidan so‘ng yangi imperator Valentinian III (425 – 455-yillar)ni xunnlarning talablarini bajarmaslikda

ayblab, Galliyaga yurish qildi. Xunnlar burgundlar ustidan g‘alaba qildilar, burgund qirolligi tugatildi. Atilla yo‘l-yo‘lakay Mets, Strasburg, Vorms, Mayns va boshqa shaharlarni bosib oldi va Orlean shahrini qamal qildi. G‘arbiy Rim imperiyasi lashkarboshisi Aesiy vizigot va franklar bilan ittifoq bo‘lib, jadal suratda xunnlarga qarshi hal qiluvchi jangga tayyorlandi.

Flaviy Aetsiy xunnlarga qarshi frank, alan, burgund, vestgot va boshqa qabilalar ittifoqini tuzdi. Hal qiluvchi jang 451-yil iyunida Ispaniya va Fransiya chegarasidagi Katalun dalasida bo‘lib o‘tdi. Bu jangda har ikki tomondan juda katta qurbonliklar berildi (Got tarixchisi Iordanning ma’lumotiga ko‘ra jangda har ikkala tomondan 300 ming kishi halok bo‘lgan). Jangda og‘irlikni ittifoqchilar emas, asosan, xunnlarning eng ilgor qismlari ko‘tardilar. Vizigotlar sardori Teodorix halok bo‘ldi va vizigotlar jangni to‘xtatdilar. G‘alaba na xunnlarga, na rimliklarga nasib qildi. Atilla qo‘shini Dunay bo‘ylariga qaytdi.

Atilla 452-yilda yana Italiyaga yurish boshladi. Shahar va qal’alarni qamal qilish san’atiga ega bo‘lgan ostrogot va gepidlar xunnlar bilan bu yurishda qatnashdilar. Atilla eng kuchli mustahkamlangan Akvileya qal’asini egalladi. Xunnlar Po daryosi vodiysi bo‘ylab harakatlandilar. Paviya va Mediolan shaharlari qamal qilindi, bu shaharlar taslim bo‘lib, katta miqdorda to‘lov to‘ladilar. Zaif Ga‘rbiy Rim imperiyasi xunnlarga qarshi tura olmas edi. Rim hukumati Atilladan tinchlik so‘rab katta to‘lov evaziga xunn qo‘shinlarini Italiyadan chiqib ketishini iltimos qildi. Papa Lev I xunnlar oldiga elchilar boshlig‘i bo‘lib keldi. Xunn armiyasida yuqumli kasallik tarqalishi Atillani rimliklarning taklifini qabul qilishga majbur qildi. Katta sovg‘a-salomlar bilan Atilla Dunay bo‘yidagi poytaxtiga qaytdi.

Atilla 453-yilda burgund malikasi Ildikaga uylandi. Katta to‘y marosimi o‘tkazildi. Nikoh to‘yi kechasi kelin Atillani zaharlab o‘ldirdi. Xunnlar urf-odatlar asosida o‘z yo‘lboshchilarining dafn marosimini o‘tkazdilar. Ular Dunay daryosini ulkan to‘g‘on bilan to‘sib qo‘ydilar. Atilla jasadini tilla tobutga, tilla tobutni kumush tobut ichiga, uni yana temir tobut ichiga joylashtirdilar. Dunayning ochilib qolgan o‘zanini qazib, tobutni uning qa’riga qo‘yib, daryo to‘g‘onini buzib tashladilar. Daryo yana eski o‘zanidan oqa boshladi. Atillaning o‘limidan so‘ng uning o‘g‘illari o‘rtasida taxt uchun kurash boshlandi. Shimoliy Qora dengiz bo‘yidagi akasirlar xunnlarga ishonchsiz ittifoqchi edi. Xunnlar Pannoniyada turli qabila va etnoslar qurshovida yashadilar. Xunn davlatini himoya qiladigan asosiy kuch bo‘lgan xunn armiyasining zarbdor kuchlari Italiyaga yurishlar davrida odatiy bo‘lmagan iqlim, yuqumli kasalliklar tufayli zaiflashib qolgan edi.

Gepidlar yo‘lboshchisi Ardarix o‘ziga yetarli darajada hurmat ko‘rsatilmaganini bahona qilib, xunnlarga qarshi isyon ko‘tardi. Xunn davlatida boshlangan o‘zaro urushda Atillaga bo‘ysungan barcha xalq va qabilalar ishtirok etdilar. Hal qiluvchi jang Nedao daryosi (Sava daryosining irmog‘i)da bo‘lib o‘tdi. Yozuvchi Iordan bu jang to‘g‘risida yozib qoldirgan. Bu jangda Atillaning suyukli o‘g‘li Ellak va 30 ming xunn va ularning ittifoqchilari halok bo‘ldilar. Ellakning ukalari Dengizix va Irnik jangda tirik qolgan xunnlarni sharqqa, Dunayning quyi o‘qimiga – gotlarning eski yerlariga olib ketdilar. Ostrogotlar bo‘shab qolgan Pannoniyani egalladilar.Vizantiya hududiga ketgan ruglarning qolganlari Norika (Avstriya)ga joylashdilar. Bolgarlar xunnlarning orqasida turgan va xunnlarning ittifoqchisi akasir-

lar ustidan g‘alaba qildilar. Katta yo‘qotishlarga qaramasdan xunnlarning hukmdori Dengizix gotlarga qarshi urushni davom ettirdi. Dengizixni uch xunn qabilalari (ultzinzurlar, bittogurlar, bardorlar) va gotlarga dushman bo‘lgan german qabilasi angiskirlar qo‘llab-quvvatladilar. Pannoniyada qolgan xunn qabilasi sadaglar ham Dengizixga yordam berdilar. Gotlar V asrning 60-yillarida sadaglarga hujum qildilar. Dengizix sadaglarga yordam berish maqsadida janubiy Pannoniyadagi gotlarning tayanchi Basian shahriga hujum uyushtirdi. Gotlar sadaglarga hujumni to‘xtatib, qo‘shinni xunnlarga qarshi tashlashga majbur bo‘ldi. Xunnlar esa o‘z vazifalarini bajarib, Dnepr bo‘yi cho‘llariga chekindilar. Dengizix 468-yilda Vizantiya imperiyasi bilan ittifoq va savdo aloqalarini tiklash uchun Vizantiyaga elchi yubordi. Lekin Vizantiya rad javobini berdi. Endi Vizantiya uchun xunnlar kerak emas edi. Gotlar yuz yil atrofida Vizantiya imperiyasining hududlarini taladilar. Lekin gotlarning yollanma askarlari Vizantiya harbiy kuchini eng zarbdor qismi bo‘lib, imperiyada xalq harakatlarini bostirishda imperatorning ishonchli tayanchi ham edi. 471-yil alan Aspar Dengizix qo‘shini ustidan g‘alaba qildi. Xunn hukmdori Dengizix o‘ldirildi. Shu tarzda xunnlar tarixi tugadi. Xunnlarning avlodi turkiy xalqlar: bulg‘orlar, Volga bo‘yi ugrlari, chuvashlar, kavkaz oldi alanlari tarkibiga kirdi, alohida xunnlar german qabilalari tyuring va franklar tarkibiga qo‘shildi. Dengizix atrofida qolgan so‘nggi xunnlar Vizantiya imperiyasi tomonidan Kichik Skifiya (Dobruja)ga joylashtirildi.

Atilla xunnlarning uzoqni ko‘ra biladigan aqlli hukmdori bo‘lib, Yevropada kuchli davlat birlashmasiga asos soldi. Uzoqni ko‘ra biladigan Atilla birlashmaga nafaqat xunnlarni, balki ular atrofida xunn

bo‘lmagan turli etnos, xalq va urug‘-qabilalarni birlashtirdi. Sharqiy va G‘arbiy Rim imperiyalari bilan siyosiy-diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘ydi. Nomadlar orasida o‘zaro ixtiloflarni hal qilib, ularni murosaga keltirdi. German qabilalarining ko‘pchiligi bilan yaqin ittifoqchilik aloqalarini yo‘lga qo‘ydi. Ma’lum darajada germanlar va Rim imperiyasi o‘rtasida vositachi vazifasini o‘tadi. G‘arbiy Rim imperiyasining halokatini vaqtinchalik orqaga surdi. Atillaning o‘limidan so‘ng buyuk xunnlar davlatini birlashtirishga loyiq yo‘lboshchi topilmadi. Xunnlar davlati parchalanib ketdi. Xunnlar Yevropaga o‘ziga xos madaniyatni olib kirdilar.

4. G‘arbiy Rim imperiyasining qulashi. Imperiyaning qulashi na germanlar, na xunnlarning hujumlari edi. Uzoq asrlar davomida muntazam istilochilik urushlari olib borgan davlat hokimiyatining kuch-qudrati tugadi. Endilikda imperiyani saqlab qolish uchun o‘zida kuch topa olmadi. Rim jamiyatining o‘zi tuzalmas kasallik – ma’naviy aynish va yemirilish fazasiga kirdi. Rim imperiyasining to‘la ikkiga bo‘linishi O‘rtayer dengizining ikki hududi romanlashgan G‘arb va sharqning tarixiy taraqqiyotini o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan sharqiy Rim davlati bilan belgilanar edi. G‘arbiy provinsiyalarda shaharlar, tovar ishlab chiqarish va savdo-hunarmandchilik tushkunlikka yuz tutdi. Aholining xonavayron bo‘lishi, umumiy iqtisodiy turg‘unlik kuzatildi. Markaziy hokimiyat zaiflashib, magnatlar kuchaydi. Germanlar, xunnlar va boshqa xalqlarni Rim bosib olgan o‘lkalar va Italiyada joylashuvi bu hududlarda etnik tarkibning o‘zgarishiga olib keldi. Rim davlatchiligining mustahkam tayanchi bo‘lgan harbiy tashkilotning buzilishi yuz berdi.

Har qanday sivilizatsiyaning halokati uning o‘z ichidagi sabablar asosida yuz beradi. Rim davlatini mil. avv. V asrdan boshlangan talonchilik maqsadida-

gi g‘arb va sharqqa istilochilik yurishlari Rimga ulkan boyliklarning oqib kelishini ta’minladi. Rim davlati va jamiyati bu ulkan o‘ljalar hisobidan yashay boshladi. Mamlakatda bosqinchilik urushlari natijasida 10 milliondan ko‘proq qullar asosiy ishlab-chiqaruvchilarga aylandi. O‘zga xalqlar yerlari, hududlarni talash hisobiga yashash Rim davlati jamiyati yemirilishi va halokati bilan tugadi. Imperiyaning sharqiy qismida savdo-hunarmandchilikka ixtisoslashgan shaharlarning mavjudligi va dehqonchilikning rivojlanishi davlat hokimiyatini mustahkamladi. G‘arbda shaharlar, savdo-hunarmandchilik bir qadar rivojlandi, lekin bu g‘arbiy Rim imperiyasini qutqarib qolmadi.

Gonoriy davri imperiyaning g‘arbiy qismini to‘la yemirilish davri bo‘ldi. Imperator saroyidagi fitnalar, Rim qo‘shinida xizmat qilayotgan german qabilalaridan chiqqan harbiylarning xoinligi, qul va kolonlarning norozilik harakatlari davlat tushkunligini yanada chuqurlashtirdi. Diokletian va Konstantinning islohotlari imperiyaning yemirilishi jarayonini sekinlashtirdi, lekin uni to‘xtata olmadi. IV asrda jonlangan ichki savdo to‘xtadi. Ko‘p shaharlar tushkunlikka yuz tutdi. Butun imperiya bo‘ylab natural xo‘jalikka qaytish boshlandi. Sharqiy Rim imperiyasining hukmdorlari germanlarning hujumlarini bartaraf qilib, o‘zboshimcha qo‘mondonlarni yo‘q qildilar. Sharqiy Rim imperiyasi 453-yilgacha yashab, tarixga Vizantiya imperiyasi nomi bilan kirdi.

G‘arbda pul tizimi izdan chiqdi. Soliqlarni to‘lash qiyinlashdi. Shaharlardan aholi ko‘chib keta boshladi. Konstantin shahar aholisining ko‘chib ketishi va kolonlarning o‘z yerlarini tashlab ketishlarini rasman taqiqladi. Imperator yirik yer egalari latifundistlarga barcha soliqlarni natural tarzda to‘lash majburiyatini qo‘ydi. Katta yer egalarining hokimiyati kuchaydi.

Shaxsiy erkin kolonlarning ahvoli qullarning ahvolidan kam farq qildi. So‘nggi imperiya davrida yirik yer egalari o‘zlariga qaram bo‘lgan mahalliy aholi ustidan o‘z amaliy hokimiyatlarini amalga oshirdilar. Ular o‘z qo‘shin va qamoqxonalarini tashkil qildilar. Ijtimoiy aloqalarning bunday yangi ko‘rinishining shakllanishi so‘nggi Rim jamiyatining yangi ijtimoiy-iqtisodiy tuzum va tuzilmaga asta-sekin o‘tish jarayonini boshdan kechirayotganidan dalolat berar edi.

Keksayib qolgan imperiya o‘lim talvasasida edi. Feodosiy sulolasining so‘nggi vakili zaif imperator Valentinian obro‘-e’tiborli Aetsiyni ko‘ra olmay, obro‘li lashkarboshini qabul qilish bahonasi bilan saroyga chaqirib, o‘z qo‘li bilan uni o‘ldirdi. Rimliklar bu to‘g‘risida imperator chap qo‘li bilan o‘ng qo‘lini chopib tashladi deb aytdilar. Valentinianning o‘zi ham Aetsiyning harbiy yaqinlari tomonidan o‘ldirildi. Haqiqatan ham shunday bo‘ldi. Aetsiydan so‘ng Rimni himoya qiladigan biror bir kuchli sarkarda qolmadi. Germanlar va Atillaning V asr o‘rtalarida Galliyani va Italiyaning shimoliy qismini bosib olishi bilan G‘arbiy Rim imperiyasi o‘zining boy provinsiyalaridan ajralib qolishiga sabab bo‘ldi. Endilikda imperator hokimiyati faqat Italiya bilan cheklanib qoldi. Biror bir imperator davlatning yemirilishini to‘xtata olmadi. Imperiyaga yollanma harbiy xizmatda bo‘lgan german qabilalari yo‘lboshchilari g‘arbiy Rim imperiyasining ichki va tashqi siyosatini amalga oshirdilar va o‘z kishilarini taxtga o‘tqazdilar. Shundan so‘ng 20 yil ichida bir necha imperatorlar almashdi. Imperatorlar german qabilalarining sarkardalari qo‘lida o‘yinchoq bo‘lib qoldilar. Provinsiyalar bilan aloqalar uzildi, maoshsiz qolgan Rim garnizonlari tarqalib ketdi; ilgari xavfsiz bo‘lgan Rim yo‘llari mahsulot tashish va yurish uchun o‘ta xavfli bo‘lib qoldi, yo‘llarda german qabilalari va boshqa qaroqchilar izg‘ib yurar edilar.

Rim shahri imperiya poytaxti mavqeyini yo‘qotdi, Ravenna shahri imperatorlarning doimiy qarorgohiga aylandi. Rim xristian cherkovi boshlig‘i Papa qarorgohi bo‘lib qoldi. Aholi Rim shahrini tashlab keta boshladi. Natijada abadiy shahar huvillab qolib, xarobaga aylandi. Italiyadagi aholi ham zulmdan norozi bo‘lib, germanlar egallagan hududlarga kelib o‘rnasha boshladilar, chunki germanlar mahalliy aholiga nisbatan do‘stona munosabatda bo‘ldilar.

Ispaniya va Galliya zodagon tabaqalari uzoqdagi Ravenna imperatoridan najotsiz yordam so‘ragandan ko‘ra, o‘zlarining hududlarini bosib olgan va hukmronlikni qo‘lga olgan german qabilalari yo‘lboshchilariga bo‘ysunishni afzal ko‘rdilar.

Shimoliy Afrikada o‘rnashib qolgan germanlarning vandal qabilalari bu hududda o‘z davlatlarini tuzdilar. Ular Ravenna imperatorlarining zaifligidan foydalanib, Sitsiliya, Sardiniya va Korsikani bosib oldilar. 455-yilda Italiyaga yurish qilgan vandal qiroli Geyzerix Rim shahrini bosib oldi va shaharni o‘z askarlariga ikki haftaga talashga ruxsat berdi. Vandallar Rim shahrini 14 kun davomida talon-taroj qildilar. Rim shahri yong‘in ichida qoldi. Imperator xazinasi, saroy-ibodatxonalardagi barcha qimmatbaho buyumlar olib ketildi. Vandallar o‘zlari olib keta olmagan haykallar, noyob san’at namunalarini yo‘q qildilar, saroy va ibodatxonalarga o‘t qo‘ydilar. Shu voqeadan keyin insoniyat sivilizatsiyasiga mansub bo‘lgan osori-atiqalar, san’at va madaniyatga vahshiyona munosabat vandallik iborasi bilan aytila boshlandi.

German qabilalari va qirolliklari o‘lim talvasasida bo‘lgan imperiya bilan hisoblashmay qo‘ydilar. 475-yilda Atillaning sobiq kotibi, patritsiy ayolga uylangan Orest o‘zining 14 yoshli o‘g‘li Romul Avgustul-

ni imperator taxtiga o‘tkazib, o‘zi hokimiyatni boshqardi. So‘nggi imperator Rim shahri va imperiyasini barpo qilgan Romul, afsonaviy Avgustul ismlarini oldi. Balog‘atga yetmagan o‘smir imperatorni rimliklar mazax qilib, Avgustcha deyishar edi. Orest qo‘l ostida bo‘lgan german qabilasidan bo‘lgan askarlar Orestdan Italiyada o‘zlariga yer ulushi va daromad talab qildilar. Orest bu talablarni bajarishdan bosh tortdi. Isyon ko‘targan 476-yil germanlarning rugiy yoki skir qabilasidan bo‘lgan imperator gvardiyasi qo‘mondoni Odoakr imperatorning otasi Orestni o‘ldirdi. Romul Avgustul 476-yil 23-avgustda taxtdan tushirilib, Neapol yaqinidagi Lukull villasiga surgun qilindi va shu yili vafot etdi. Odoakr G‘arbiy Rim imperiyasi imperatori unvoni tugatilgani to‘g‘risida senatning rasmiy qarorini olishga erishdi. Imperatorlik ramzlari Konstantinopolga yuborildi. Odoakr o‘zini Italiyaning hokimi deb e’lon qildi. Odoakr davlatini 493-yilda ostgotlar bosib oldilar, uning o‘zi o‘ldirildi.

Antik dunyo tarixining oxirgi sahifalari Sharqiy Rim imperatori Yustinian (527 – 565-yillar) nomi bilan bog‘liq. U VI asr o‘rtalarida Rim huquqini kodifikatsiya qildi. Yustinian kodeksi qadimgi Rimda huquqning uzoq yillardagi taraqqiyotini tugallangan holda o‘zida aks ettirdi. Shu bilan bir vaqtda Yustinian tomonidan antik tafakkur markazi bo‘lgan Afinadagi Platon akademiyasining tantanali yopilishi yangi davrning antik davr bilan ramziy xayrlashuvi bo‘ldi.

QADIMGI RIM MADANIYATI

«Falsafa va san'atga hech qanday qobiliyati bo'lmagan, beparvo, hayvoniy instinkt bilan faqat moddiy yutuq orqasidan quvadigan rimliklar ellin madaniyati va hech nima o'rtasidagi chegarada turadilar».

О.Шпенглер

1. **Diniy e'tiqod.**
2. **Huquq.**
3. **Adabiyot.**
4. **Me'morchilik va haykaltaroshlik.**
5. **Ta'lim va fan.**
6. **Tarix**.

Qadimgi Rim madaniyati o' z taraqqiyotida bir necha bosqichlarni bosib o'tdiю Rim Italiya, Yunoniston va Sharq mamlakatlarining madaniy yutuqlarini o'zlashtirib oldi. Rim madaniyati asra-sekin shakllandi va nihoyasida yuqori darajada rivojlangan madaniy-ma'naviy yutuqlarni o'zida aks ettirdi. Respublika davridagi Rim madaniyati imperiya davri Rimi madaniyatining asosi bo'ldi. Rim imperiyasining madaniy markazlari Rim, Iskandariya, Pergam, Rodos, Afina va Massiliya shaharlari edi. Bu shaharlarda kutubxonalar, teatrlar va maktablar mavjud edi. Har bir shaharning o'z madaniy muhiti bo'lib, shaharlar Rim shahri madaniy inshootlariga taqlid qilib, hashamli jamoa inshootlari barpo qilingan.

1. Diniy e'tiqod. Rimliklarning an'anaviy e'tiqodida totemizm, fetishizm va animizmning qoldiqlari mavjud edi. Rim e'tiqodi diniy qonun-qoidalariga rasman rioya qilish bilan cheklangan bo'lib, chuqur diniy his-tuyg'udan mutlaq mahrum edi. Kohinlar odamlar va xudolar o'rtasidagi vositachi ro'lni o'ynar edilar.

Rim dinida urug‘ va oila e’tiqodlari muhim o‘rin tutar edi. Har bir uyda oila e’tiqodining markazi o‘choq, oilaning otasi kohin edi. Har bir kishida o‘zining ruhiy homiysi bo‘lib, u erkaklarda geniy, ayollarda yunona edi. Rimliklarning e’tiqodiga ko‘ra, vafot etgan ajdodlar xudo – homiylarga aylanar edilar.

Rimda har biri qandaydir bir aniq funksiyani bajaradigan kichik xudolar juda ko‘p edi. Misol uchun, xudo Forkul uy eshigi qo‘riqchisi, Liment ostona, Kardiya eshik zulfinlarining qo‘riqchisi edi. Lekin asosiy e’tiqod qilinadigan qudratli xudolar alohida o‘rin tutar edi. Ularning orasida eng birinchisi chaqmoq xudosi Yupiter bo‘lib, uning ibodatxonasi Kapitoliyda Tarkviniy Mag‘rur davrida qurilgan edi. Uning xotini Yunona nikoh va onalik hamda ayollar homiysi edi. Ularning qizi Minerva – hunar, san’at va urushlar ma’budasi; Vesta – fuqarolik jamoasi homiysi va uy o‘chog‘i ma’budasi; Mars – urush xudosi; Yanus – o‘tmish va kelajak, kirish va chiqish, boshlanish va tugallanish, ikkiyuzlamachilik xudosi; Venera – sevgi va hosildorlik ma’budasi; Serera – ekinlar va hosil ma’budasi; Neptun – dengiz xudosi; Merkuriy – savdo va o‘g‘rilar homiysi; Vulkan – temirchilar xudosi; Pluton – narigi dunyo, zulmat xudosi; Baxus – vinochilik xudosi; Diana – oy va ovchilik xudosi; Silvana – o‘rmon xudosi va boshqalar. Rimliklar biror bir muhim ishni boshlashdan oldin bu ish to‘g‘risida xudolar irodasini bilmasdan bu ishni boshlamaganlar. Shu sababli avgurlar (kohinlar) qushlarning uchishi va o‘zini tutishi, qurbonlikka keltirilgan hayvonlarni ichki organlari (ayniqsa jigari)ga, yashin chaqnashiga qarab, xudolarning irodasini o‘qiganlar. Har bir toifa ma’lum bir ma’budga e’tiqod qilgan (suvoriylar – otliq Neptun va Diosnuraga, plebeylar Sestsera, liber, liberaga), alohida kasblar (savdogarlar – Merkuriyga, hunarmandlar, yozuvchilar, o‘qituvchilar – Minerva)

ga sig‘inganlar. Har bir familiya – oila o‘z homiy xudosiga ega bo‘lgan.

Rim e’tiqodiga o‘z vaqtida etrusk e’tiqodi o‘z ta’sirini o‘tkazdi (Yunona, Minerva, Vulkan). Etrusklardan hayvonlarning ichki a’zolariga qarab fol ochish o‘zlashtirib olingan edi. Yupiter – Zevs, Yunona – Gera, Minerva – Afina, Mars – Ares, Venera – Afrodita, Serera – Demetra, Merkuriy – Germes, Baxus – Dionis.

Mil. avv. III – I asrlarda Italiyaga sharqdan Serapis, Isida, Mitra va boshqa diniy e’tiqodlar kirib keldi. Rim imperiyasiga turli Sharq e’tiqodlari – Misrdan Isida, O‘rta Sharqdan zardushtiylik ilohi Mitra va boshqa ilohlar kirib keldi. Pompeyning sharq yurishlari bilan Mitraga sig‘inish Rim shahri, Britaniya va Dunay bo‘ylarida tarqaldi. Mitraga sig‘inuvchilar kohinlar boshchiligida jamoalar tuzdilar. G‘orlar va yer osti galereyalarida Mitraga sajda qilib, uning marosimlari o‘tkazildi. Mitraga qurbonlik qilinadigan bunday inshootlar Mitreum deb atalib, ular butun imperiya bo‘yicha tarqalgan. Mitraga sig‘inish III asrning II yarmida imperatorlar Diokletian va Maksimian davrida keng tarqaldi. Imperator Maksimian harbiy yurishlari vaqtida Mitraga davlat homiysi deb hurmat bajo keltirdi.

Rim jamiyatining mafkuraviy tushkunligining ifodasi sifatida nasroniylik e’tiqodi milodiy I asrida Falastin hududida paydo bo‘ldi va II asrdan imperiyaning barcha hududlariga tez tarqala boshladi. Eski diniy e’tiqodlar, ma’bud va ma’budalar, ularning marosimlari jamiyatning ma’naviy ehtiyojini qondirmadi. Nasroniylik ham shu tarzda kirib keldi. Yangi e’tiqod dastlab kambag‘allar va qullar orasida tarqaldi. Uning rasm-rusumlari sodda, tenglik va u dunyoga ishonch bilan odamlarni o‘ziga jalb qilar edi. Rasmiy hokimiyat nasroniylarga shubha bilan qarab, ularni ta’qib qildi. II asrdan nasroniylik aholining

turli qatlamlari orasida jadal tarqaldi. Bu e'tiqodning kuchli tashkiloti shakllandi. Hukmron tabaqa asta-sekin yangi e'tiqodning davlat hokimiyatiga foydasini tushunib yetdi va uni rasmiy din sifatida e'tirof etdi. Imperator Konstantin 313-yilda o'zining Milan edikti (qonuni) bilan nasroniylik diniga e'tiqod qilishga ruxsat berdi. Konstantin 330-yilda nasroniylikni qabul qildi. Imperator Feodosiy 381-yilda nasroniylikni davlat dini deb e'lon qildi.

Davlat hokimiyati diniy e'tiqodga katta e'tibor bergan. Kohinlar davlat xizmatchilari hisoblansa-da, lekin hech qachon qadimgi Sharqdagidek alohida toifaga birlashmagan edilar. Rimda bir qancha kohinlik kollegiyalari mavjud edi. Kohinlar elitasi oliy pontifik (barcha ilohiy va insoniy ishlar sudyasi), pontifiklar kollegiyasining bevosita rahbari va uch bosh flamin (ular Yupiter, Mars va Kvelin e'tiqodlarini boshqarar edilar)dan iborat edi. Pontifiklar dastlab 6 ta bo'lib, Sezar davrida 16 taga yetdi. Pontifiklar diniy marosimlarning qat'iy bajarilishini nazorat qilar edilar. Oliy pontifik taqvim tuzib, diniy bayramlar o'tkazilishiga mas'ul edi. Unga 15 flamin bo'ysunib, flaminlar alohida xudolarga qurbonlik keltirar edilar. Avgurlar fol ochish bilan shug'ullanar edilar. Rim diniy kalendarida 70 ga yaqin diniy bayramlar mavjud edi. Bu bayramlar mo'l-ko'l qurbonlik keltirish, marosimlar va quvnoq tomosha – bazmlar bilan tantanali o'tkazilar edi. Respublikaning oxirida bayramlar bir yilda 115 kunni tashkil qilgan. Fuqaro diniy marosimlarda ishtirok etishi majbur edi.

Vesta ibodatxonasi kohinalari. Qadimgi Rimda fuqarolik jamoasi homiysi va uy o'chog'i homiysi bo'lgan ma'buda Vesta ibodatxonasi kohinalari alohida mavqega ega bo'lganlar. Kelajakda Vesta ibodatxonasida xizmat qiladigan kohinalar 6-10 yoshdan erkin fuqaro oilasida tug'ilgan 6-10 yoshli va hech

qanday jismoniy nuqsoni bo‘lmagan qizlardan tanlab olingan. Vesta ibodatxonasiga xizmatga kirgan qiz 10 yil katta kohinalardan saboq olib, o‘zini oliy xizmatga tayyorlagan. Keyingi 10 yilda u ibodatxonada kohina bo‘lib xizmat qilgan va turmushga chiqmay, ma’budaning mehrobida olovni saqlab turgan. Keyingi 10 yilda kohina yangi kelgan qizlarga saboq bergan. Kohina 30 yildan keyin Vesta ibodatxonasida xizmatni tugatgandan so‘ng oila qurish huquqiga ega bo‘lgan. Lekin 36-40 yoshga kirib, so‘lib qolgan qariqiz kamdan-kam holda o‘ziga turmush o‘rtog‘ini topolgan. Shu sababli Vesta ibodatxonasi kohinalarini turmush qurishi juda siyrak bo‘lgan. Lekin bu kohinalarning ijtimoiy mavqeyi juda yuqori bo‘lgan. Kohinani yo‘lda tasodifan uchratgan konsul ham unga yo‘l bo‘shatgan. Kohinaga duch kelgan jinoyatchi qatldan ozod etilgan. Kohinaga oliy davlat sirlari, vasiyatnomalarni saqlash ishonib topshirilgan. Kohinaning guvohligi qasamyodsiz qabul qilingan. Katta lavozimdagi davlat amaldorlari kohinalarning homiyligini olishga intilganlar. Kohinani haqorat qilgan kishi o‘lim jazosiga hukm qilingan. Kohinalar o‘z mulk senzlarining to‘la egasi bo‘lganlar, ular teatrlarda eng faxrli o‘rinlarga o‘tirganlar. O‘z aravalarida yurganlar, piyoda yurganlarida liktor yo‘lni boshatib yurgan. Lekin Vesta ibodatxonasi kohinalari ko‘rsatilgan bunday faxrli hurmat uchun ibodatxonada katta mas’uliyat bilan xizmat qilganlar. Lekin vestalkalar tegishli qoidalarni buzganlarida shafqatsiz jazolanganlar. Agar mehrobda olov o‘chib qolsa, aybdor kohina bosh kohin tomonidan shafqatsiz savalangan. Turmushga chiqmaslik ahdini buzgan vestalka qat’iy jazoga tortilgan. Bunga aybdor bo‘lgan kishini qamchi bilan o‘lguncha savalaganlar. Kohinani esa sochlarini kesib, tiriklayin o‘raga ko‘mganlar, bu o‘rada u

ochlik bilan o‘limga yuz tutgan. Bu marosim tantanali amalga oshirilgan.

2. Huquq. Rim huquqi antik sivilizatsiyaning eng katta yutuqlaridan bo‘lib, asrdan asrga yuridik tafakkurning klassik namunasi bo‘ldi. Rim huquqining manbalarini odatdagi huquq, senat qabul qiladigan qonunlar, magistratlarning ediktlari va yuristlarning faoliyati tashkil qilar edi. Rim tarixida huquqiy normalarni kodifikatsiya qilish natijasida mil. avv. IV asrda XII qonunlar jadvalining yaratilishi bo‘ldi. Mil. avv. 366-yilda xususiy kishilar o‘rtasidagi huquqiy qarama-qarshiliklarni tartibga solish uchun Rimda shahar pretori lavozimi joriy etildi. Pretorlarning yuridik amaliyotidan fuqarolik prosessual huquqi paydo bo‘ldi. Kvent Musey Stsevola (mil. avv. 159 – 83-yillar) o‘zining «Sivil huquqi» asarida O‘n ikki jadval qonunlarini sharhlash bilan birga vasiyatlardan boshlanib va jarayon bilan tugaydigan Rim huquqining to‘la tizimini yaratdi. Mashhur huquqshunos Kvint Servidey Stsevola mil. II asr oxiri III asr boshlarida 40 kitobdan iborat «Digest», «Javoblar» 6 kitob, «Savollar» 20 kitob tuzdi.

I – III asrlar Rim huquqi tarixi davrida klassik davr hisoblanadi. Rim imperiyasida 212-yilgacha huquq va sud amaliyotining ikki shakli: kvirit (Rim) huquqi va xalqlar huquqi mavjud edi. Bundan tashqari, ba’zi provinsiyalarda mahalliy huquqiy tizimlar va Rim noiblarining ediktlari amal qilar edi. Imperator Adrianning abadiy ediktining e’lon qilinishi imperiya hududida yagona huquqiy kenglikni yaratish yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. II asrning ikkinchi yarmida Gay 4 jilddan iborat huquq darsligi (institutsiyalar) to‘plamini tayyorladi. II asr oxiri III asrning boshlarida mashhur huquqshunoslar Emiliy Papian, Domisiy Ulpian va Yuliy Pavel faoliyat ko‘rsatdilar. 429 – 438-yillar im-

perator Feodosiy II buyrug‘i bilan «Feodosiy kodeksi» nomi bilan imperator qonunlari to‘plami tayyorlandi. 529-yilda «Yustinian kodeksi», 533-yilda «Digetslar» – Rim huquqshunoslarining asarlaridan olingan ma’lumotlar to‘plami 50 jildda e’lon qilindi.

Notiqlik san’ati. Qadimgi davrda Rimda notiqlik maktablari mashhur bo‘lib, 15-16 yoshli qobiliyatli o‘quvchilar notiqlik san’atini o‘zlashtirganlar. Bizgacha mashhur siyosat arbobi va notig‘i Sitseronning bir necha notiqlik san’ati to‘g‘risidagi asarlari va nutqlari, Dion Xrizotomning 78 nutqi, Eliy Aristidning 55 nutqi yetib kelgan. IV asr ritorika – notiqlikning yangidan gullab-yashnagan davri bo‘ldi. O‘rtayer dengizining notiqlik maktablarida bo‘lg‘usi oliy amaldorlar va xristian targ‘ibotchilari tarbiyalandi. Bu davrda Afinada Gimeriy, Konstantinopolda Femistiy kabi mashhur ritorlar dars berdilar.

Eng kuchli notiq va notiqlik san’ati o‘qituvchisi Libaniy (314 – 391-yillar) edi. U Antioxiyada vaqti-vaqti bilan imperatorlar, lashkarboshilar va oliy amaldorlarga qarata ijtimoiy dolzarb muammolar yuzasidan erkin nutqlar bilan murojaat qilgan. Libaniy «Kichik Demosfen» taxallusini oldi. Majusiy dinga e’tiqod qilgan Libaniy imperator Yulianning ashaddiy muxlisi bo‘lib, Yulian ham unga homiylik qiladi. Ko‘pgina taniqli xristian targ‘ibotchilari, jumladan, nazianlik Grigoriy va Ioann Zlatous Libaniyning maktabidan chiqqan. O‘sha davrdagi Rim notiqlaridan IV asr oxirlarida oliy davlat mansablarini egallagan Kvint Avremiy Simmaxni aytish mumkin. Imperiya davrida siyosiy notiqlarga o‘rin qolmagani uchun notiqlik maktablari faxrli va daromadli kasb bo‘lgan advokatlarni tayyorladi.

3. Adabiyot. Rim adabiyotining shakllanishi va taraqqiyotida xalq og‘zaki ijodi va yunon adabiy an’analari muhim o‘rin tutadi. Rim adabiyoti tarixi mil. avv. III asr o‘rtalarida yunon janrlariga taqlid qilish

bilan boshlandi. Tarentlik ozod qo‘yilgan qul, yunon Liviy Andronik (mil. avv. 280 – 204-yillar) birinchi lotin muallifi edi. U Gomerning «Odisseya»sini lotin tiliga tarjima qildi. Shuningdek, u yunon dramalarini erkin tarjima qilish va badiiy qayta ishlash bilan shug‘ullandi. Liviy Andronikdan Rim badiiy adabiyoti boshlanadi. Andronik Rim patritsiylarining bolalari uchun maktab ochib, yunon tili va adabiyotini o‘qitishni boshladi.

Andronikning zamondoshlari shoirlar Neviy va Enniy edi. Giney Neviy (mil. avv. 201-yilda vafot qilgan) Rim syujetlariga asoslangan birinchi tragediyalarni yaratdi. Yunon mualliflari syujetlaridan o‘zlashtirib, dramalar yozdi. Neviy I Puni urushi to‘g‘risida 7 jildda epik poema yaratdi. Kvint Enniy (mil. avv. 239 – 169-yillar) Rim tarixiga bag‘ishlangan «Annallar» epik poemasini 18 jildda yozdi. Bu shoirdan 1100 dan ortiq she’rlar meros qoldi.

Tit Maksetsiy Plavt (mil. avv. 250 – 184-yillar) birinchi Rim komediografi bo‘lib, uning 130 komediyasidan 21 tasi saqlanib qolgan. Ikkinchi buyuk Rim komediografi afrikalik Publiy Terensiy (mil. avv. 185 – 159-yillar) bo‘lib, uning pyesalaridan 6 tasi bizgacha yetib kelgan.

Rimda tragediya keng tarqalmadi. Rim tragiklari Mark Pakui (mil. avv. 220 – 130-yillar) va Lusiy Aksiy (mil. avv. 170 – 90-yillar) o‘z tragediyalarini yaratish uchun buyuk yunon dramaturglarining asarlaridan foydalandilar. Rimda keng tarqalgan adabiy janr satira (she’r, masal, latifa va dialoglar aralashmasi) edi. Vaqt o‘tishi bilan u bizga yaxshi tanish bo‘lgan satiraga aylandi. Birinchi Rim satirigi Gay Lutsiliy (mil. avv. 180 – 102-yillar) 30 kitobdan iborat satiralar to‘plamini yaratdi. Lotin prozasining ilk namunalaridan biri Mark Porsiy Katon Kattaning (mil. avv. 234 – 249-yillar) «Dehqonchilik to‘g‘risida» nomli asari edi. Uning 7

jildli Rimning qadimgi davrlaridan II Puni urushigacha bo‘lgan tarixi yoritilgan kitobi, tibbiyot bo‘yicha traktatlari, notiqlik san’atiga bag‘ishlangan asarlari, 150 nutqlari bizgacha yetib kelmagan. So‘nggi respublika davrining lotin poeziyasi Tit Lukretsiy Kar (mil. avv. 95 – 51-yillar) va Gay Valeriy Katull (mil. avv. 87 – 54-yillar) kabi taniqli vakillari bilan mashhur. «Narsalarni tabiati to‘g‘risida» nomli 6 jildli falsafiy poema Lukretsiyga tegishli. Katull mashhur Rim lirik shoiri bo‘lib, u 116 she’rdan iborat to‘plam qoldirgan.

Lotin madaniyatining mashhur vakillari Mark Terensiy Varron (mil. avv. 116 – 27-yillar) va Mark Tulliy Sitseron (mil. avv. 106 – 43-yillar) adabiyot sohasida muhim iz qoldirdilar. Varron 620 jildda 74 asar muallifi bo‘lgan ensiklopedist yozuvchi edi. Uning asosiy asarlari «Qadimiyatlar» (41 jild) va «Lotin tili to‘g‘risida» (25 jild) kitob edi. Sitseron qadimda notiqlik san’atining nazariyotchisi va amaliyotchisi, davlat arbobi, huquqshunos va advokat, faylasuf va filolog-tarjimon, adabiy tanqidchi va san’atshunos edi. Sitseronning 58 siyosiy va sud sohasidagi nutqlari, 12 ta falsafiy to‘plami, notiqlik san’ati bo‘yicha 7 traktati, 800 xatlari, ko‘pgina nutqlari va poetik asarlari ma’lum. Bizgacha Sitseronning 70 suddagi nutqlari va siyosiy nutqlari, do‘stlari va yaqinlariga yozgan 37 xati hamda notiqlik san’ati va falsafadan yozgan traktatlari yetib kelgan.

Imperator Oktavian (mil. avv. 30-milodiy 14-yillar) davri lotin poeziyasining «oltin asri» hisoblanadi. Bu davrda buyuk shoirlar Publiy Vergiliy Maron (mil. avv. 79 – 19-yillar), Kvint Goratsiy Flakk (mil. avv. 65 – 8-yillar) Publiy Ovidiy Nazon (mil. avv. 49-yil – milodiy18-yillari) yashab ijod qildilar. Vergiliy dehqonlar mehnatiga bag‘ishlab 14 jildli didaktik poema, 12 jildli «Eneida» poemasi va «Bukolika» she’riy to‘plamini yaratdi.

Goratsiy imperator kotibi lavozimini rad etdi. U shoir sifatida erkinlik va mustaqillikni afzal ko‘rdi. Harbiy tribun unvoniga sazovor bo‘ldi. Kvestor kotibi lavozimida ishlab tirikchilik qildi. Goratsiy o‘z ijodini satira va munozara janrida boshladi (Epodlar, 2 jildda satiralar). Keyin esa 4 jildli «Odalar», «Maktublar» kitobini, 5 jildli elegiyalar, parodiya-didaktik janrda «Sevgi fani», «Sevgi da’vosi» asarlari, 15 jildli «G‘amgin elegiyalar», 4 jildli «Pontdan maktublar» asarlarini yozdi. Publiy Ovidiy Nazon (mil. avv. 43-yil – milodiy 17-yili) mifologik syujetlarga murojaat qildi. Uning asosiy asarlari «Fastlar», «Metamorfozalar», «Pontdan maktublar». Qobiliyatli lirik shoirlar Albiy Tibull (mil. avv. 50-yil – milodiy 19-yili) va Sekst Propersiy (mil. avv. 49 – 15-yillar) elegiyalar yozdilar. Tibul Rim suvoriysining o‘g‘li edi. Tibull o‘zidan elegiyalarning ikki to‘plamini, Propersiy bir to‘plamini qoldirdi. Imperator Oktavianning o‘zi proza va she’riyatda asarlar yozdi.

Satirik janrda Kichik Seneka (mil. avv. 4-yil – milodiy 65-yillari) va Petroniy Arbitr mashhur edilar. Petroniyning mashhur romani «Satirikon» bo‘lib, uning 20 bobidan 3 bobi bizgacha yetib kelgan. Persiy Flakk (34 – 62-yillar), Mark Valeriy Marsial (40 – 102-yillar), Detsiy Yuney Yuvenal (60 – 127-yillar) hamda Lukian (120 – 190-yillar) satira janrida ajoyib asarlar yaratdilar.

Apuliyning «Oltin eshak», «Afnis va Xloya»; Geliodorning «Efiopika» asarlari sarguzasht roman janriga mansub. Bu davrda dramatik janr to‘la tushkunlikka uchradi. Undan faqat pantomima, atellan va mim shakllari qoldi. Bizgacha yunon klassik obrazlariga taqlid qilib yozilgan Senekaning 10 tragediyasi yetib kelgan.

IV – V asrlarda poeziyada klassik namunada asarlar yaratish an’anaga aylandi. Bu davrning eng mashhur mifologik eposiga misrlik Nonning «Dionis to‘g‘risida»gi dostonini aytish mumkin. Bu asar boy fantaziya, ifodali obrazlarga ega bo‘lib, epik tarzda yozilgan.

IV – V asrlarda lotin shoirlari mifologiyadan tashqari, tabiatni tasvirlashga jiddiy e'tibor berdilar. Ana shunday lotin shoirlaridan biri Detsim Magin Avzoniy edi. U tajribali ritor, yunon, lotin tillari va adabiyotining bilag'oni, salohiyatli shoir edi. So'ng ikki mashhur Rim shoirlari: iskandariyalik Klavdiy Klavdian, kelib chiqishi Galliyadan bo'lgan Klavdiy Rutimiy Namasian she'rlari Rim davlatini sharaflovchi ruhda bo'lib, ularda Rimga murojaat qilinib, uning buyuk o'tmishi va g'alabalari madh etilgan. Klavdian imperator Gonoriy saroyida yashab, hukmdorning yaqinlaridan biri Stilixonga bag'ishlab «Stilixonga maqtov» va «Gotlar bilan urush to'g'risida» poemasida Rimga buyuk kelajakni bashorat qildi.

4. Me'morchilik va haykaltaroshlik. Rim me'morchiligi va haykaltaroshligi yunon va etrusklarning kuchli ta'siri ostida rivojlandi. Rimliklar etrusklardan qurilish texnikasining ba'zi usullarini o'zlashtirib oldilar. Mil. avv. II asrda beton kashf qilindi. Binolar qurilishida g'isht, tuf, travertin toshlari va marmar ishlatila boshlandi. Rim qurilish san'atining ko'p asrlik tajribasi Mark Vitruviy Pollionning 10 jildlik «Arxitektura to'g'risida» (mil. avv. I asrda) asarida umumlashtirildi. Bu vaqtda Rimda ko'p qavatli uylar, ko'priklar, termalar, zafar arklari qurildi. Mil. avv. 55-yilda Mars maydonida toshdan qurilgan birinchi amfiteatr «Pompeya» qurildi.

Respublika davrida Rimning jamoatchilik markazi forum – maydon bo'ldi. Forumda davlat xazinasi va arxivi (Tabulyariy), notiqlar minbari (Rostra), senat majlislari o'rni (Kuriya), davlat qamoqxonasi (Tullianium) binolari qurilgan. Ellin davrida Rim yunon haykallari va boshqa san'at asarlari bilan bezatila boshlandi. Imperiya davrida forum, ibodatxona, bazilika, portik, zafar arklari me'morial kolonnalar va otliqlar haykallari bilan bezatildi. Ularning ichida

daklar bilan urushga bag‘ishlangan Trayan bunyod etgan kolonna va hashamatli forum ajralib turadi. Imperator Adrian barcha xudolar ibodatxonasi – Panteonni bunyod qildi. Panteonning ulkan gumbazi diametri 9 metr bo‘lgan aylana teshik bilan tugaydi. Bu teshik orqali quyosh nurlari pastga g‘aram bo‘lib tushib, marmar polda sinib, atrofga mayin va bir tekis yorug‘likda taraladi.

Rim hammom (Terma)lari Italiyaning barcha shaharlarida Rim davlatining ilk davrida gigiyenik maqsadlarda qurilgan, keyinchalik katta hajmdagi inshootlarga aylangan. Milodiy II asrdagi Rimdagi eng mashhur termalarni Imperator Trayan qurdi. Imperator Karakalla (mil. 211 – 217) hammomi (terma)da bir vaqtning o‘zida 2500 kishi yuvinishi mumkin bo‘lgan. Terma (hammom) sovuq, iliq va qaynoq suvli uch bo‘lim va bug‘ beradigan xonadan iborat edi. Termada yugurish yo‘lakchalari, gimnastika zali, gimnaziya (sport bilan shug‘ullaniladigan zal), kutubxona, sayr uchun xiyobon, gulzor, suhbatlashadigan joy va rasm galereyasidan iborat bo‘lgan. Konstantin davrida bunday hammomlar Rim shahrida 10 ta bo‘lgan, kirish uchun ozgina haq to‘langan. Rim shahrining o‘zida IV asrda 1000 ta jamoa hammomlari bor edi. Rim hammomlarining ayrimlari yuvinish joyi, kutubxona, dam olish, muloqot va bitim tuziladigan joy va stadion edi. Barcha shaharlarda hammomlar qurilgan edi.

Rim va boshqa shaharlarda me’morlar bir tomoni yoki uch tomoni ayvon bilan o‘ralgan portilklar, to‘g‘ri burchakli uzun, ichkarisida o‘nlab ustunlar bilan ko‘tarilgan inshoot – bazilikalar qurilgan. Rimda katta g‘alabaga erishgan sarkardalar, imperatorlarga bag‘ishlangan zafar arklari va ustunlar bunyod etilgan. Rimda eng mashhur zafar arklari imperatorlar Tit, Septimiy Sever va Konstantin sharafiga bunyod etilgan. Rimda imperator Trayan sharafiga ustun qurilgan.

Boy rimliklarning hashamatli saroylari marmar kolonnalar, san'at asarlari, mozaika, haykallar bilan bezatilgan va isitgichlarga ega edi. Kambag'al fuqarolar esa, ko'p qavatli hech qanday qulayliklarga ega bo'lmagan, rejasiz qurilgan uylarda yashar edilar.

Rim shahrini ichimlik suvi bilan ta'minlashga katta e'tibor berilgan. Rim shahrini ichimlik suvi bilan ta'minlaydigan 11 suv quvuri, 600 ga yaqin favvora (fontan) bo'lib, eng uzun suv quvuri 90 km uzunlikdagi Marsiy quvuri bo'lgan, bu quvur hozir ham ishlab turadi. Mil. avv. III asrda bir kunda suv quvurlari orqali daryo va tog' buloqlaridan Rimga 1 mln. kub suv oqib kelgan. Rimliklar me'moriy inshootlardan ulkan tosh akveduk – suv quvurlarini qurdilar. Appiy Klavdiy rahbarligida mil. avv. 312-yilda rimlik injenerlar o'sha vaqtda mashhur bo'lgan suv quvurini o'tkazdilar. Oktavian davrida Rimda suv quvurlari soni ko'paydi. Akveduklardan suv katta hovuzlarga quyilgan, bu hovuzlarning devorlarining tashqi tomoni haykallar va ustunlar bilan bezatilgan. Bu hovuzlardan suv quvurlar orqali termalar va aholiga yuborilgan. Oktavian davrida Agrippa tomonidan Rimda 700 hovuz qurilib, ulardan 105 tasi favvora bo'lib, bu favvoralar 300 haykal va 400 ustunlar bilan bezatilgan. Eng katta akveduk milodiy II asrda qurilgan bo'lib, uzunligi 132 km, uning ikki qavatli arkining balandligi 40 metr edi. Ispaniyaning Segoviya shahridagi akveduk hozir ham ishlaydi. Imperiya davrida 100 ga yaqin shahar akveduklar yordamida suv bilan ta'minlandi.

Rim va boshqa hududlarda qurilgan ko'priklar me'morchilik san'atining namunalariga aylandi. Arianning Rim shahrida qurgan ko'prigining kengligi 11 metr bo'lib, u haykallar bilan bezatilgan edi. Me'mor Gay Yuliy Laser Ispaniyada Taxo daryosida suvdan 45 metr baland bo'lgan ko'prik qurdi.

Rimda imperiya davrida hashamatli saroylar, ippodrom, sirklar, zafar arklari, kolonnalar, termalar stadionlar, forumlar va ibodatxonalar bunyod etildi. Me'morlar bu inshootlarni qurishda tosh, g'isht, beton va marmar xomashyosidan unumli foydalandilar. Flaviylar sulolasi Rimda jamoat binolarini katta hajmda qurdilar. Ular Tinchlik forumini (115m X 125 m) bunyod etdilar. Imperator Vespasian Rim shahrida milodiy 70-yilda sun'iy ko'l o'rnida ulkan amfiteatrni (hozirgi hajmi 156 m X188 m. Keyinchalik bu inshoot ulkan bo'lgani uchun Kolizey deb ataldi) qurishni boshladi. Qurilishda Rim aholisining 25 foizi ishtirok etdi. Imperator hunarmandlar uyushmasi ko'magida yuqori malakali hunarmandlarni qurilishga jalb qildi. Xomashyo sifatida tosh va tuf (yumshoq tosh) ishlatildi. Qurilishning beshinchi yilida vulqon qumi va ohak qo'shib, sement hosil qilindi, u toshdan yengil bo'lib, Kolizey arklarini juda yengil og'irlikda qurishga erishildi. Arklarning birinchi qavati toshdan bo'lib, keyingi qavatlar ohaktosh va sementdan ko'tarildi. Qizil rangli g'isht kashf qilindi. 200 ming tonna ohak tashib kelindi, I mln dona g'isht ishlatildi. G'isht zavodlari qurilib, ular tinimsiz konveyer usulida ishlatildi. Qurilishning o'ninchi yili imperator Vespasian vafot etdi. Uning vorisi imperator Tit qurilishni ikki yil muddatda tugatdi. Ulug'vor inshootning balandligi 50 metr bo'lib, 80 minggacha tomoshabin kirishi mumkin edi. Amfiteatrda birinchi qatorlarda senatorlar, zodagonlar, suvoriylar uchun o'rindiqlar ajratilib, keyin oddiy fuqaro uchun qatorlarda yog'och o'rindiqlar, eng oxirgi qatorlar kambag'allar uchun ajratilgan. Amfiteatrda beshta kirish yo'li bo'lib, har bir kirish ma'lum bir ijtimoiy qatlamga mo'ljallangan. Kirib joylashuv yarim soat vaqtga mo'ljallangan bo'lib, kirish uchun bir necha yo'laklar qilingan edi. Vespasianning o'g'li Tit Kolizey yaqinida hammom – termalar bunyod

qildi. Vespasianning ikkinchi o‘g‘li Domitsian Rim forumi yaqinida hashamatli Ilohiy Vespasian ibodatxonasini, ukasi Tit arkini bunyod etdi. Rimda o‘sha vaqtda otlar poygasi uchun ippodrom – sirklar qurildi. Kaligula sirk binosini qurdi. Imperator Klavdiy 140 mingdan 385 minggacha tomoshabinni sig‘diradigan katta sirkni ta’mirladi.

Imperator Trayan davrida Rimda damashqlik me’mor Apollodor tomonidan 107 – 113-yillarda Trayan Forumi (maydoni – 300 m X 185m) ansamblini qurildi. Bu ansambl Trayan kolonnasi (balandligi 39, 83 metr), Trayanning otliq haykali, ayvonlar va kutubxona binolaridan iborat edi. Bundan tashqari Mars maydonida stadion qurildi.

Imperator Adrian birinchi bo‘lib Rimni abadiy shahar deb atagan edi. Bu imperator o‘z hukmronligi davrida katta qurilish ishlarini olib bordi. Adrian Rim tarixida eng katta Venera ibodatxonasi va Roma ibodatxonasini qurdi. O‘zi uchun mavzoley bunyod etdi, bu inshoot o‘rta asrlarda qal’a vazifasini o‘tadi. Adrian eski inshootlarni qayta qurib, ularga hayot bag‘ishladi. Mars maydonida mil. avv. 27 – 25-yillarda barpo etilgan barcha ilohlarga bag‘ishlangan Panteon ibodatxonasi milodiy 120-yilda me’mor Apollodor loyihasi asosida qayta qurildi. Panteon hashamatli marmardan ishlangan ilohlar haykallari (inshoot markazida Yupiter haykali) bilan bezaldi. Inshootning 43 metr diametrli radiusga ega bo‘lgan gumbazining markazida 9 metrli diametrli ochiq tomi ibodatxonani yorug‘lik bilan ta’minlar edi. Gumbaz beton qorishmasida singdirilgan g‘ishtlardan bunyod etilgan edi. Panteon binosi hozirgi kunda mashhur kishilar dafn qilinadigan mavzoley hisoblanadi.

II asrda Rimda imperator Mark Avreliyning otliq haykali va uning 176 – 192-yillarda germanlarga qarshi urushlariga bag‘ishlangan 30 metrli kolonna

barpo qilindi. Rim san'atining eng katta yutuqlaridan biri haykal-portretlar edi. Yunon haykallari barkamol fuqaro obrazini yaratgan bo'lsa, Rim haykalida inson har qanday ideallashtirishdan xoli holda tasvirlangan. Qadimgi odatga ko'ra, rimliklar uylarida ajdodlarining mum niqoblarini saqlaganlar. Ilk davrda etrusklar jez haykallarni yaratdilar. Mil. avv. I asrdan haykaltaroshlikda jezning o'rniga marmar ishlatila boshlandi. Rim haykaltaroshligining so'nggi respublika davrida yaratilgan asarlaridan «Orator», «Togatus» va «Brut» haykallarini hamda Mariy, Pompey, Sitseron, Kichik Katon va Sezarning byustlarini ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari, imperator va malikalar, amaldor, sarkarda, shoir va faylasuflarning ko'plab marmar byustlari saqlanib qolgan.

Karfagenning dengizdagi cheksiz hukmronligi, etrusklar bilan dengizdagi raqobatda mag'lub bo'lish va istilochilik urushlar natijasida Rim chegaralarini dengizga chiqishi Rimda kemasozlikning jadal rivojlanishiga turtki bo'ldi. Rim shahrida olti burchakli Ostiya dengiz porti qurildi. Ostiya porti ulkan Rim shahrini oziq-ovqat va boshqa xomashyoga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda yetakchi o'rinni egalladi. Ostiya portida kemalar turadigan joy, verflar (kema quriladigan, ta'mirlanadigan), doklar (port xo'jaligi),- va omborlarga ega edi. Imperiya davrida dengiz bo'yidagi har bir shaharning o'z flotiliyasi mavjud edi. Rimliklar dengiz portlari, gavanlarni yaxshi jihozladi. Rim davlati portlaridan chiqqan kemalar O'rtayer dengizi, Adriatika, Qora dengiz va boshqa dengizlarda kezib, tranzit savdo bilan shug'ullanar edilar.

Rimliklar mustahkam qal'alar, shahar devorlari va boshqa mudofaa inshootlarini bunyod qildilar. Mamlakat hududida harbiy qo'shinlarning harakat qilishi va savdo-hunarmandchilikni rivojlantirish maqsadida tekis tosh yo'llar qurildi. Mil. avv. 312-yilda senzor Ap-

piy Klavdiy Seka davrida rimliklar ilk bor tosh to‘shalgan Appiy yo‘lini qurdilar. Odatda, rimliklar yo‘llarni 5 qatlamli tuzilma bilan qurar edilar. Yo‘llarning ko‘pi Rim shahriga olib borar edi. Bir necha asrlar davomida 372 ta yo‘l qurilgan, odatda, yo‘lning kengligi 8 metr bo‘lib, har bir chaqirimda ustunlar qo‘yilgan. Yo‘l qurilishida asosan askarlar va qullar mehnatidan foydalanilgan. Rimda 9 ta tosh ko‘prik qurilgan. Ispaniyada imperator Trayan qurgan uzunligi 180 metr bo‘lgan ko‘prik hozirgacha saqlanib qolgan.

4.Ta’lim. Rimda ta’limning birinchi bosqichi boshlang‘ich maktab edi. Maktablar xususiy bo‘lib, davlat ta’lim jarayoniga aralashmas edi. O‘qituvchining ish haqi juda kam bo‘lib, tirikchiligini o‘tkaza olmagani uchun boshqa ishlarni ham qilishga majbur bo‘lgan. Maktabda ishi yurishmagan, kelib chiqishi noma’lum bo‘lgan kimsalar va ozod qo‘yilgan qullar dars bergan. Boy oilalarda bolaga 7 yoshidan yollangan qul-pedagog mashg‘ulot olib borgan. Boshlang‘ich maktabda 7-12 yoshli bolalar o‘qish-yozish, og‘zaki sanashga o‘rgatilar, o‘qish faqat bir semestrni tashkil etgan. O‘quvchilar boshlang‘ich maktabda o‘qishni alfavitdagi harflarni yodlashdan boshlab, keyin harflarni yozishni o‘rganganlar. Shu sababli o‘qish bir necha yillarga cho‘zilib ketgan. Maktabda tan jazosi qo‘llangan. Dars xonalari tor va noqulay bo‘lib, guruhlar katta bo‘lgan.

Boy oila farzandi grammatikadan ta’lim olishi mumkin bo‘lgan. Grammatika o‘qituvchisi rahbarligida o‘quvchilar qadimgi yozuvchilarning asarlaridan parchalarni o‘qish va sharhlashni o‘rgandilar. O‘smir 12-16 yoshda grammatika va adabiyotni o‘qitadigan maktabga borganlar. Bundan tashqari logika, arifmetika, geometriya, astronomiya fanlari va musiqaning ayrim unsurlarini o‘rganganlar.

Notiqlik san’ati fanlar orasida eng obro‘li fan hisoblangan. 16 yoshdan o‘smirlar notiqlik san’ati bo‘yicha

notiq – o‘qituvchilardan saboq olganlar. Ritor nutq so‘zlash sir-sinoati bilan o‘quvchilarni tanishtirgan. Oquvchilar nutqlarni tuzish va o‘ziga xos, hafis nutq so‘zlashga o‘rgatilgan. Notiqlik san’ati darslari taniqli huquqshunosning Rim huquqidan mashg‘ulotlari bilan to‘ldirilgan. Imperiya davrida o‘qituvchilar, ayniqsa, notiq-ritorlar professor deb aytilgan. Rimlik notiqlik o‘qituvchisi Kvintilian (milodiy I asr) birinchi professor bo‘lgan. Milodiy 68-yildan davlat hokimiyati huquqshunos o‘qituvchi va notiqlarga ish haqi to‘lagan. O‘rta asrlarda professor unvoni universitet o‘qituvchilari – doktor va magistrlarga oliy malaka unvoni bo‘lib o‘tdi. Kvintilin «Notiqni o‘qitish» nomli 12 jildli notiqlik nazariyasi to‘plamini, Sitseron notiqlik san’ati nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha qator asarlarni yaratdilar.

Rimda ilk kutubxonalarni xususiy kishilar ochdi. Ular o‘z kutubxonalaridan fuqarolarga foydalanishga ruxsat berdilar. Omma uchun birinchi kutubxonani Oktavian ochdi. Misr papirusiga yozilgan kitob qimmat bo‘lgani uchun fuqarolar kutubxonalardan foydalandilar. Kitob sotish ham yaxshi yo‘lga qoyilgan edi. Kitob uchun papirus xomashyosi Misrdan keltirilar edi.

Aniq va tabiiy fanlar. Rimda tabiiy fanlar rivojlanib, qator ilmiy asarlar yaratildi. Texnik bilimlarning nazariy asoslari yaratildi. Vitruviyning 10 jildli «Arxitektura to‘g‘risida», Sekst Yuliy Frontinning «Akveduklar to‘g‘risida», Aleksandriyalik Geronning «Mexanika» asarlarida texnika sohasining nazariy asoslari tavsiflandi. Tiniq shisha kashf etilib, shishasozlik sohasi rivojlandi. Binolarni isitish tizimi yaratildi. Qurilishda sement kashf qilinib, qishloq xo‘jaligida suv tegirmonlari, vintli press va hosilni o‘radigan mexanizm ixtiro qilindi.

O‘z davrining taniqli mexanigi, matematigi va astronomi Arximed (mil. avv. 287 – 212) Sitsiliyadagi Si-

rakuza shahrida o‘z qarindoshi Sirakuza tirani Gieronning uyida yashadi. Imperator Oktavian davrida yashagan mexanik va arxitektor Vitruviy shunday guvohlik beradi: Sirakuza shahar – davlatida o‘z mutlaq hokimiyatini o‘rnatgan Gieron ma’budlarga o‘z minnatdorchiligi sifatida ibodatxonalarning biriga oltin toj in’om qilmoqchi bo‘ladi, Gieron bir zargarni chaqirib, ma’lum haq evaziga oltin tojni tayyorlashga buyurtma beradi. Zargarga tegishli miqdorda oltinni o‘lchab beradi. Shartnomada belgilangan muddatda zargar o‘zi tayyorlagan, berilgan miqdordagi oltindan nafis ishlangan oltin tojni Gieronga olib keladi. Oz vaqt o‘tib, tojni tayyorlashda berilgan miqdordagi oltinning bir qismi yashirib qolinib, uning o‘rniga shuncha miqdorda kumush qo‘shilgani to‘g‘risida xufiya xabar keladi. G‘azabga mingan Gieron haqiqatni aniqlab berishni so‘rab Arximedga murojaat qiladi. Arximed bu muammo ustida bosh qotira turib, hammomga borib vannaga o‘tiradi. Vannaga o‘tirayotib Arximed o‘z tanasiga teng miqdorda suv vannadan oshib ketayotganini ko‘radi. Suvni bunday oshib ketishi muammoni yechish usulini ko‘rsatdi. Arximed sevinib ketib, vannadan tura solib, qip-yalang‘och uyi tomon yuguradi va yugurayotib vaqti-vaqti bilan topdim, topdim – yunoncha evrika-evrika deb qichqirib boradi. Shu tarzda Arximed go‘yoki gidrodinamikaning ikkinchi qonunini ochadi. Bu qonun asosida Arximed tajriba o‘tkazib, oltin tojda kumush qo‘shilmasi borligini aniqlab, zargarning qalloblik qilganini asoslaydi.

Klavdiy Ptolemey nazariy astronomiya va astrologiyani matematika bilan birlashtirdi. Bu olim Harakatsiz Yer kurrasi atrofida boshqa planetalar aylanadi (deb geotsentrik nazariyani ilgari surdi. Ptolemey yerni o‘z o‘qi atrofida aylanishini inkor qildi. Olim musiqa nazariyasi, optika, xronografiya va geografiya fanlari bilan shug‘ullandi. Olim o‘zining 13 jildli «Ma-

tematik to‘plam» nomli asarida o‘zining ilmiy qarashlarini bayon qildi.

Strabon (mil. avv.63 – milodiy 19-yil) kelib chiqishi Qoradengiz janubidagi Amasiyadan bo‘lib sayohat qilib, geografik ma’lumotlarni to‘pladi. Ilgari rimliklarga kam ma’lum bo‘lgan Galliya, Germaniya va Britaniya hududlari to‘g‘risida yangi ma’lumotlarni yig‘di. Strabon ko‘pchilik uchun 17 tomli «Geografiya» asarini yozdi. Olim tarix fanidan bizgacha yetib kelmagan 43 jildli asar yozdi. Strabonning zamondoshi Pomponiy Mela «Yer tuzilishi to‘g‘risida» nomli 3 jildli geografik to‘plam muallifi edi.

Italiyaning milodiy birinchi asrdagi qishloq xo‘jaligi to‘g‘risida Kolumellaning argonomiyaga oid «Qishloq xo‘jaligi to‘g‘risida» nomli 12 jildli asari va Katta Pliniy (24 – 79-yillar)ning «Tabiiy tarix» nomli 37 jildli asarining 14, 19-kitoblari asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Katta yer egasi bo‘lgan Kolumella o‘tmishdagi agronomiyaga oid ma’lumotlarni umumlashtirib agromadaniyat nazariyasini yaratadi. U yana g‘allakorlik, bog‘dorlik va uzumchilik to‘g‘risida asarlar yozdi. Pliniy qishloq xo‘jaligining ahvoli to‘g‘risida ma’lumot beradi. Bu asar ensiklopedik mazmunda bo‘lib, fizika, geografiya, botanika, zoologiya, mineralogiya va boshqa fanlar bo‘yicha ma’lumotlar beradi. Qadimgi Rimda qishloq xo‘jaligi to‘g‘risidagi fan ko‘pgina sohalarni o‘z tarkibiga olgan: tuproqning turli ko‘rinishlarini o‘rganish, ekish va yer haydash; turli daraxt va osimliklari va ularni yerga o‘tqazish va parvarish qilish; mevali daraxtlarni payvand qilish, sabzavotlarni ekish, atirgul va zaytun yetishtirish texnikasi; chorva mollarini parvarish qilish va xo‘jalik yuritish.

Meditsina. Rim tibbiyoti boshda yarim diniy, yarim xalq tibbiyotiga asoslandi. Ilk Rim tibbiyoti vakillari Katon va Pliniy Katta bo‘ldilar. Davolash ma’budi

Eskulap bo‘lgan. Medicus – meditsina atamasining kelib chiqishi Rim qishloq familiyasi bilan bog‘liq. Qishloqda quldor xo‘jaligida ko‘p kishi ishlagan. O‘z xo‘jaligida ishlaydigan qullar va oila a’zolarini sog‘lom bo‘lishidan manfaatdor bo‘lgan oila boshlig‘i – pater zaruriy dori-darmonga ega bo‘lib, zaruriyat tug‘ilganda kasalni davolash ko‘nikmasiga ega bo‘lgan. U qishloqda davolashning an’anaviy vositalari bo‘lgan yog‘, moy, qo‘yning toza juni va dorivor o‘simliklardan foydalangan. Qadimgi sharqda tarqalgan kasallikni davolashdan ko‘ra, uni oldini olish yengilroq, eng yaxshi dori bu jismoniy mehnat tushunchalari Rimga ham kirib keldi. Tabiblik bilan erkaklar, ayollar va ozod qo‘yilgan qullar shug‘ullanganlar. Vrachlarning ijtimoiy ahvoli og‘ir bo‘lgan.

Umum qabul qilingan vrachlik kasbiga qo‘yilgan mezonlar mavjud bo‘lmagan.Yagona mezon bu vrachlik tajribasi edi. Ilk imperiya davrida tibbiy ta’lim tizimli emas edi. Vrachlarning bilim saviyasi va kasbiy malakasi har xil bo‘lgan. Vrach anatomiya, fiziologiya va farmakologiyani bilishi shart bo‘lgan, bilimli vrach Rimda katta obro‘ga ega bo‘lgan. Kasallar vrachning kundalik tajribasi asosida va xudoga ishonish va sehr-afsun bilan davolanganlar. Ko‘pchilik tibbiy vosita va dorilar qadimgi Sharqdan kirib kelgan. Jarrohlar urushda olingan yaralarni, singan suyaklarni davolaganlar, tajribali jarrohlar hatto bosh miya qopqog‘ini ochib operatsiya qilganlar. Operatsiya vaqtida og‘riqni qoldirish uchun ko‘knorining suti ishlatilgan.

Lekin Rimda aksariyat vrachlar tibbiyot fanlarini yaxshi bilmaganlar. Uncha bilimli bo‘lmagan vrachlar o‘z amaliyotlarida asosan xalq tabobatidan foydalanganlar. Odatda, vrach kasalni ko‘rib, plastir qo‘yib, klizma qilgan. Davolash uchun qirq oyoq, odam va hayvonning axlatidan foydalanganlar. Kliyent uchun vrachlar orasida kuchli raqobat bo‘lgan.

Kliyent uchun kurashib, vrachlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri maydon va ko‘chalarda «ilmiy» ma’ruzalar o‘qishgan. Metodik maktabning izdoshi Fessal tibbiyot san’atini xohlovchilarga, ayniqsa, uy qullarini qisqa vaqt – 6 oyda o‘rgatishini aytib odam to‘plagan. Vrachlar ko‘p hollarda bemorni ko‘chada topib olib, arzon narxlarda davolashga va’da berganlar. Tibbiyotda tibbiyot ilmidan xabarsiz qalloblar ham bo‘lib, ular qimmatbaho kiyimlarda, tibbiyot asboblari bilan bemorning uyiga kelishgan. Qul egalari xo‘jalikda o‘z vrachiga ega bo‘lish uchun qullarni bajonudil vrachlikka o‘qitishga berganlar. Qullarga tibbiyot bilan shug‘ullanishga Trayan maxsus edikt bilan yo‘l ochdi. Shu bilan bir vaqtda bu edikt bilan vrach va o‘qituvchilarga Vespasian tomonidan berilgan soliq imtiyozlari bekor qilindi.

Imperiya davrida Antoniy Piy dekreti bilan har bir shaharning kattaligiga qarab yirik shaharlarga 10 ta vrach, o‘rta aholiga ega shaharga 7, uncha katta bo‘lmagan aholi joylariga 5 ta vrach belgilangan. Bu vrachlar shahar hokimiyati ta’minotida bo‘lib, ular harbiy xizmat majburiyatidan va majburiy ishlardan ozod etilgan. Bunday imtiyozlarga vrachlardan tashqari yurist va o‘qituvchilar ega bo‘lganlar. Imperiya davrida jarrohlar, terapevtlar, okulistlar, akusher, stomotaloglar, harbiy vrachlar, kutubxona va gladiator maktablarida vrachlar bo‘lgan. Tibbiy xizmat oliy tabaqaga ko‘rsatilgan xolos. Vrachlar kasb bo‘yicha kollegiyalarga birlashganlar. Rimda sanitariya va gigiyenaga alohida e’tibor berilgan. Botqoq yerlar quritilgan, shaharlar toza ichimlik suv bilan ta’minlangan va hammomlar qurilgan. Rim shahrining o‘zida IV asrda mingta katta-kichik hammom bo‘lgan. Rim hammomi yer osti isitish tizimi orqali isitilgan. Quvurlarda suv o‘rniga qaynoq havo aylangan. Hammomda isitish va namlik har xil bo‘lgan xonalar bo‘lgan. Bug‘ xonasi (kal’dariy), iliq vannalar va dushlar bilan bir ne-

cha xona (tepidariy), sovuq xona (frigidariy), yuvinish uchun hovuz – basseyn va echinish xonalari mavjud bo‘lgan. Hammomdan kelib chiqishi va lavozimidan qat’iy nazar shaharning barcha aholisi foydalangan.

Rimda tibbiyot nazariyasi va amaliyoti anatomiya, fiziologiya, diagnostika, dietika va profilaktikada ancha yutuqlarga erishdi. Tibbiyotning asosiy markazlari Kichik Osiyo shaharlari va Aleksandriya shahri edi. Kichik Osiyodagi Pergamda tug‘ilgan fiziolog Klavdiy Galen (129 – 199-yillar) 8 yil tibbiyotni o‘rganib, vrachlik faoliyatini Pergamda gladiatorlar maktabidan boshladi. U poytaxt vrachlari davolay olmagan malyariya kasalini davolashi bilan ilk bor tanildi. Galenga imperator Mark Avreliy homiylik qildi. Galen matematika va falsafa fanlari sohasida 125 asar yozdi. Akusher va pediatr Soran amaliyoti bilan shuhrat qozondi. Avl Korneliy Sels «Fanlar» asarida dehqonchilik, ritorika, harbiy ish va tibbiyot to‘g‘risida turli ma’lumotlarni jamladi. Rimlik vrach Marin anatomiyada yunonlik Gippokratdan o‘tib ketdi, Rimda yashagan Efeslik Ruf ko‘rish nervlari to‘g‘risida, Efeslik Soran akusherlik va Aretey keskin va uzluksiz kasalliklar to‘g‘risida turli qo‘llanmalar yozdilar.

6. Tarix. Ilk imperiya davrida tarixiy asarlar va tarjimayi hollar yozish janri keng rivojlandi. Mil. avv. 59-yil – milodiy 17-yillarida Paviya shahrida yashagan notiq Tit Liviy lotin tilida «Shaharning asos solinganidan Rim tarixi» nomli 142 jildli tarix asarini yozdi. Tit Liviy voqealar bayonini mil. avv. 9-yilgacha olib bordi. Yangi era boshlarida Pompey Trog «Jahon tarixi» asarini 44 jildda lotin tilida yozdi. Yahudiya podshohi Irod I ning maslahatchisi damashqlik Nikolay tomonidan yana bir «Jahon tarixi» asari yunon tilida 144 jildda yozildi. Asarda voqealar mil. avv. IV asrgacha yoritilgan.

Mil. avv. I asrda Korneliy Nepot «Mashhur kishilar to‘g‘risida» biografik asarini yozdi. Mil. avv. I asr oxi-

rida galikarnaslik Dionisiy «Rim qadriyatlari» nomli tarixiy asarini yozdi. Bizgacha bu asardan faqat 9 tasi yetib kelgan. Italiya va uning provinsiyalari tarixi va geografiyasi to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar Strabonning «Geografiya» asarida (17 kitob) beriladi. Strabonning yana bir asari «Tarixiy yozishmalar» bizgacha yetib kelmagan.

Milodiy I asrida Velley Paterkulning «Jahon tarixi» nomli 2 jildli kitobi, notiq Valeriy Maksimning «Mashhur ishlar va so‘zlar» nomli 9 kitobda tarixiy latifalar keltiriladi. Kvint Kursiy Ruf «Makedoniyalik Iskandar tarixi» nomli 10 jildli kitob yozdi. Imperatorlar Vespasian va Titning kliyenti yahudiy Iosif Flaviyning 7 jildli «Yahudiya urushi tarixi», 20 jildli «Yahudiya qadimiyatlari» asarlari sharqiy provinsiyalar to‘g‘risida boy ma’lumotlar beradi. Davlat arbobi, tarixchi, yozuvchi Gay Pliniy Sekund (24 – 79-yillar) san’at, madaniyat va fan sohalarida noyob ma’lumotlar to‘plami – «Tabiiy tarix» nomli 37 jildli ensiklopedik asar yozdi. Bu ulkan asarda 500 muallifning 2 ming kitobidan olingan ma’lumotlar umumlashtirilgan. Tarixchi Publiy Tatsit (mil. avv. 58 – 120-yillar) prokurator oilasida tug‘ilgan, pretor (88-yil), konsul (97-yil), Osiyo provinsiyasi prokonsuli (112/113-yillar) lavozimlarida ishlagan. Tatsit 16 jildli «An’analar», 14 jildli «Tarix» asarlarini yozdi. Bu asarlar Yuliy Klavdiy va Flaviylar sulolalarining milodiy 14 – 96-yillardagi davrini aks ettiradi. Tatsitning «Germaniya» asari german qabilalarining ijtimoiy tuzumi, dini va turmushi to‘g‘risidagi tarixiy-geografik qissa hisoblanadi.

Imperator Adrian davrida imperator devonining «yozishmalar bo‘yicha» maslahatchi lavozimida ishlagan Gay Svetoniy Trankvill (70 – 140-yillar) «O‘n ikki Sezar hayoti tasviri» asarida Sezardan Domitsiangacha bo‘lgan Rim imperatorlarining tarjimayi hollari to‘plamini yaratdi. Svetoniy 12 Rim imperatorining tarjimayi holi-

ni batafsil dalillarga asoslanib yoritadi. Har bir hukmdorning tug‘ilishi, nasl-nasabi, hokimiyatga kelishi va hukmdorligi vaqtidagi faoliyatining ayrim tomonlari to‘g‘risida ma’lumotlar beriladi. Hukmdorlarning xulq-atvori, faoliyatining ijobiy va salbiy jihatlari bayon qilinadi. Asar orqali Rim siyosiy hayotining asosiy ishtirokchilari bo‘lgan imperatorlarning hayot faoliyati tahlil etiladi. Svetoniyning asarini to‘rt bo‘limga bo‘lish mumkin: imperatorning hokimiyatga kelgunga qadar hayoti; hukmdorlik faoliyati; xususiy hayoti; o‘limi va dafn etilishi. Muallif hukmdorlar faoliyatini xolisona va dalillarga asoslanib yoritgan.

Tatsitning zamondoshi, 46 – 126-yillarda yashagan yunon yozuvchisi Plutarx 210 ta turli asarlar yozgan. Bizgacha ulardan 150 tasi yetib kelgan. Plutarx mashhur yunon-rim arboblarining 50 biografiyasi, bitta makedon – Iskandarning, bir fors – Artakresks I ning biografiyasini yozadi.

Makedoniyalik Appian 160 – 165-yillarda 24 jildli «Rim tarixi» asarini, senator Dion Kassiy Koksian (155 – 235-yillar) yunon tilida 80 jildli «Rim tarixi»ni yozdi. Bu kitobdan 25 jildi va ko‘p sonli parchalar bizgacha yetib kelgan. Dion Kassiyning kichik zamondoshi Gerodian «Markdan keyin imperator hokimiyati» (Mark Avreliyning o‘limidan so‘ng Gordian III hukmronligigacha, 180 – 238-yillar) 8 jildli tarix kitobini yunon tilida yozdi.

Mashhur davlat arbobi Gay Yuliy Sezar (mil. avv. 100 – 44-yillar) Rim tarixiga oid bir necha asarlar yozdi. Bizgacha uning faqat «Galliya urushlari to‘g‘risidagi yozuvlar» (7 kitob) va «Fuqarolik urushi to‘g‘risidagi yozuvlar» (3 kitob) asarlari yetib kelgan. Tarixiy monografiya janrining asoschisi Gay Sallyustiy Krisp (mil. avv. 86 – 35-yillar) keksalik paytida «Katilina fitnasi», «Yugurta urushi» hamda mil. avv. 78 – 67-yillar voqealarini qamrab olgan «Tarix» asarini yozgan.

III – IV asrlarning ikkinchi yarmida Rim tarixshunosligi tushkunlikka yuz tutdi. IV asrda «Imperatorlar tarixi yozuvchilari» nomi bilan II – III asrlar imperatorlari biografiyalari to‘plami paydo bo‘ldi. Bu to‘plam materiallarida Antoniylar boshqaruv davridan imperiyaning yemirilish davriga o‘tishi yaqqol ko‘rsatiladi. So‘nggi mashhur Rim tarixchisi Ammian Martsellin (330 – 400-yillar) edi. Uning kelib chiqishi yunon bo‘lib, lotin tilida «Faoliyat» nomli 31 jildli tarixiy asarini yozdi. Bu asar Tatsit «Tarix»ini davom ettirib, 96 – 378-yillardagi voqealarni o‘z ichiga oladi. IV asrda so‘nggi imperiya davrining siyosati va mafkurasi tarixi bo‘yicha imperatorlarga maqtovlar, notiq Libaniyning nutq va xatlari paydo bo‘ldi. IV asrda xristian tarixshunosligining shakllanishi boshlandi. Xristian cherkovi tarixi bo‘yicha «Cherkov tarixlari» lotin va yunon tilida paydo bo‘ldi. Ularning orasida kesariyalik taniqli tarixchi va ilohiyotshunos Yevseviyning «buyuk Konstantin tarjimayi holi» va «Cherkov tarixi» asarlari alohida o‘rin tutadi. Rimning tushkunlik sabablarini xristian tarixchilari ham o‘z nuqtayi nazarlarida yoritdilar. Yepiskop Avgustin ispan diakoni Oroziy, marsellik prisviter Salvian o‘z asarlarida «Xudoning shahari to‘g‘risida» Rimning halokatini uning o‘tmishi, o‘zaro urushlar, hukmdorlarning adolatsizligi, birinchi xristianlarning ta’qib qilinishidan keltirib chiqardilar.

Rimliklarning turmush tarzi. Boy rimliklar hashamatli uylarda yashaganlar. Bu uylarning pollari mozaika bilan qoplanib, devorlariga tasvirlar tushirilgan. Faqat boylargina o‘z xususiy uylariga ega bo‘lganlar. Qolgan rimliklar ko‘p qavatli uylarda ijarada yashaganlar. Rim shahrida uylar 7 qavatgacha qurilgan, lekin bu uylar hech qanday kanalizatsiyaga ega bo‘lmay, sanitariya va gigiyena holati juda yomon bo‘lgan. Aksariyat uylar yog‘ochdan qurilgan

va yong‘inlarning chiqishi odatdagi hol bo‘lgan, shu sababli dunyo tarixida ilk bor yong‘inga qarshi kurashadigan qismlar qadimgi Rimda tuzilgan va ular o‘t o‘chirish uchun maxsus mexanizm-asboblar va transport bilan ta’minlangan.

Amfiteatrlarda o‘tkaziladigan gladiatorlik janglarini rimliklar yaxshi ko‘rganlar.Gladiator (gladius – lotin tilida – qilich) janglari Rimda ilk bor mil. avv. 264-yilda o‘tkazilgan. Gladiator janglari etrusklarda kelib chiqqan. Boshda etrusklarda bu o‘ziga xos dafn o‘yinlari bo‘lgan. Vafot etgan kishi sharafiga o‘limga hukm etilgan jinoyatchilar, qullar yoki harbiy asirlarning qabri atrofida oqibati o‘lim bilan tugaydigan janglari uyushtirilgan. Gladiatorlik o‘yinlari Rimda keyinchalik katta va tantanavor rasmiy qonunlashtirilgan o‘yinlarga aylangan. Gladiatorlik o‘yinlarini o‘tkazish uchun boshda yog‘ochdan, keyin toshdan amfiteatr qurilgan. Gladiatorlik maktablari paydo bo‘lgan, bu maktablarda shafqatsiz, qat’iy intizom asosida bo‘lg‘usi gladiatorlarda odamni shafqatsiz o‘dirish psixologiyasi shakllantirilgan. Gladiatorlar qurol turi va jang bo‘yicha bir necha toifalarga bo‘lingan. Metall simdan to‘qilgan to‘r va uch shoxli nayza bilan qurollangan gladiator retiariy deb atalgan. Amfiteatr sahnasiga gladiatorlarning yuzga yaqin juftligi chiqqan. Sahnaga yovvoyi yirtqich hayvonlar – sherlar, yo‘lbars va qoplonlar chiqarilgan, ular bir-biriga gij-gijlangan yoki ular tomoshabinlar ko‘z oldida o‘ldirilgan. Rimning taniqli arbobi G.Pompey tashkil etgan 5 kunlik o‘yinlarda bir tomoshada sahnaga birdan 500 sher chiqarilgan, 410 qoplon va leopard o‘ldirilgan. Yuliy Sezar vaqtida birdan sahnaga 50 sher chiqarilgan. Imperator Oktavian davrida sahnada birdan 3500 fil o‘ldirilgan. Tomoshabinlar sherlarning o‘lim lahzalaridan rohatlanib qichqiriqlar, gulduros qarsaklar bilan o‘z his-hayajonlarini

ifoda qilganlar. Tomoshalarda junbishga kelgan yovvoyi hayvonlar oldiga qurolsiz odamlarni ham tashlaganlar. Rimliklar shafqatsiz bo‘lganlar, ular jangda o‘layotgan gladiator yoki yirtqich hayvonni o‘lim lahzalaridan lazzat olib, junbishga kelganlar. Rimliklar gladiator janglarini muhokama qilganlar, jang g‘oliblari uchun mukofotlar belgilangan. Rimliklarda sirkda o‘tkaziladigan jang aravalarida poyga juda keng tarqalgan.Poygada chavandozlar 4 guruhga bo‘linib bellashganlar va ularning muxlislari yashil, qizil, zangori va oq rangdagi kiyimlarni kiyganlar.

Ovqat. Rim kuni 12 soatdan tashkil topgan. Boylar so‘rida yonboshlab ovqatlaib, ovqat qo‘l bilan yeyilgan. Vilka-sanchqi keyinroq 1400-yillarda paydo bo‘lgan, Angliyada 17-asrda ham sanchqi bo‘lmagan. Qoshiq kamdan-kam ishlatilgan. Nonning qattiq joyi qoshiq bilan bosilgan. Boy rimlik uchun nonushta non hamda suv aralashtirilgan vino, ba’zida asal, pishloq va mevalardan iborat bo‘lgan. Kambag‘alning nonushtasi bo‘tqa yoki bir parcha non va nordon vinodan iborat bo‘lgan. Boy rimlik uchun tushlik issiq yoki yaxna taomlar, baliq, meva, non va vinodan tashkil topgan. Asosiy ovqat kechki ovqat bo‘lgan. Taom salat yoki chig‘anoqlardan boshlanib, cho‘chqa, buzoq, tovuq yoki g‘ozning qovurilgan go‘shti hamda desertga mevali yoki asalli pechenye yeyilgan.

Hashamatli ziyofatlarda maxsus boqilgan hayvonlarning go‘shti, sayroqi qushlar, flamingo, buzoq miyasidan va shipovnik mevalaridan ko‘pchitilgan krem tortilgan. Desertga shirinlik, mevali yoki shirin pechenye tanovul qilingan. Rim oqsuyak zodagonlari kimo‘zarga ziyofatlar berganlar. Bunday ziyofatlarda tansiq taomlar, Afrika, Osiyo provinsiyalaridan keltirilgan noyob hayvonlar, parrandalar va tirik olib kelingan baliqlardan taom tayyorlab dasturxonga tortilan. Mil. avv. I asr o‘rtalarida Rimning eng boy

zodagonlari – nobillardan bo‘lgan Lukull o‘zining ziyofatlari bilan mashhur bo‘lgan. Lukull bergan ziyofatlarda 1000 kishidan ko‘proq kishilar taklif qilingan va mingdan ortiq taom tortilib, noyob vinolar qo‘yilgan. Ziyofat bir necha kunga cho‘zilgan. Bu patritsiyning ziyofatlaridan «Lukull bazmi» iborasi kelib chiqqan. Rimda tansiq taomlarni iste’mol qilishga ishqiboz kishilar – gurmanlar ishtahani qo‘zg‘atish uchun g‘oz patlari bilan og‘iz bo‘shliqlarini qitiqlab, yeyilgan ovqatni qusib yana ovqat tanovul qilganlar. Ovqatga quyuq qilib ziravorlar qo‘shilgan, ovqat ko‘pincha baliq sousi bilan tortilgan. Vinoga suv aralashtirgan, ba’zida asal yoki ziravorlar qo‘shganlar. Mehmonlar ziyofatdan qolgan har qanday yog‘li luqmani o‘zlari bilan olib ketishlari mumkin bo‘lgan.

Rimlik oqsuyak zodagonlar o‘zlarining hashamatli uylarida mehmonlar uchun kubikulyariy deb ataladigan – gladiatorlarning uy janglarini yushtirganlar. Ziyfat o‘tayotgan zalda shirakayf mehmonlar qonli gladiatorlar jangini tomosha qilganlar.

Termalar. Har bir Rim shahrida hammomlar (terma), jamoat hojatxonalari bo‘lgan. Hammom nafaqat cho‘milish joyi, balki uchrashuvlar, bitimlar tuziladigan, sport bilan shug‘ullanadigan joy bo‘lgan. Teatrlarga borish rimliklarning sevimli ishi bo‘lgan.

Rimliklar hayotida oila muhim o‘rin tutgan. Oilaning boshlig‘i – pater (ota) oila a’zolari ustidan cheksiz hokimiyatga ega bo‘lgan. Oila boshlig‘i pater familiasga oilanining barcha mulki, uning hokimiyati ostidagi xotini, o‘g‘illari, o‘z xotinlari, o‘g‘illari va qullari tegishli bo‘lgan. Ulardan birortasining hech qanday mulkka egalik huquqi bo‘lmagan, ularning topgani ham otaning mulki hisoblangan. Ota ishchi kuchi bilan o‘z xohishiga ko‘ra sotish, ijaraga berish, jazolash, toki o‘lim jazosi berishgacha huquqqa ega bo‘lgan. XII jadval qonunlari otaning o‘g‘lini sotish

huquqini birmuncha chekladi: agar o‘g‘ilni sotib olgan kishi unga ozodlik bersa, o‘g‘il ota hokimiyati ostiga qaytgan. Lekin uch marta ota tomonidan sotilib ozodlikka chiqqandan so‘ng ota hokimiyatiga qaytmay, mustaqil kishi bo‘lgan. Keyinchalik ota tomonidan bolalarini sotish noqonuniy deb topildi. Lekin ota hokimiyati ostidagi bolalarning iqtisodiy qaramligi abadiy saqlanib qoldi. O‘g‘il yuqori mansablarga ko‘tarilishi mumkin, lekin u qul kabi biror bir mulkka ega bo‘lishi mumkin emas edi. Agarda fuqaroning oti, quli va o‘g‘li musobaqa va poygalarda g‘alaba qilganda, beriladigan mukofot oila boshlig‘i – otaga tegishli bo‘lgan. Qizlar 13 yoshda, o‘g‘il bolalar 14 yoshda unashtirilgan, o‘rtacha umr ko‘rish – 50 yoshga bormagan.

Qadimgi rimliklar qimor o‘yinlarini yaxshi ko‘rganlar. Ular ot poygalari, xo‘roz urushtirishlarga va kubik tashlashda pul tikkanlar. Lekin qimor o‘yinlari bayramlardan tashqari paytda qonun bilan taqiqlangan. Rimdagi katta sirkda aravalarda o‘tkaziladigan poygalarga tomoshabinlar sig‘magan.

Rimlik boy ayollar uchun yuzlarini oqargan bo‘lishi moda bo‘lgan. Shu sababli rimlik olifta ayollar yuzlarini oqartirish uchun yuzlariga bo‘r yoki hatto zaharli oq qumni ishqalaganlar. Ayollar sochlarini did bilan turmaklaganlar, erkaklar sochlarini kalta qirqib, yuzlarini silliq qirib yurganlar. Ayollar bilakuzuk, baldoq, marjon va munchoqlar taqqanlar.

Rimliklarning ko‘p kiyimlari jundan qilingan. Hind ip matolari, xitoy ipagi juda taqchil va nodir hisoblangan. Odatda, ko‘pchilik birdaniga bir yoki ikkita uzun yengli yoki umuman yengsiz tunika – ko‘ylak kiygan. Oktavian davrida 4 tunika kiyish rasm bo‘lgan. Tunika beldan pastda belbog‘ bilan bog‘langan. Obro‘li fuqarolar 6 metrli matodan toga kiyganlar. Qizlar turmushga chiqquncha oq rangda kiyinganlar, keyin esa yorqin bo‘yalgan kiyim kiyganlar. Senatorlar qizil yo‘l o‘tgan

toga kiyganlar. Diktator ham shunday kiyim kiygan. Hokimiyatning boshqa vakillari: pretor, sudya, kvestor – xazinachilar va senzorlar ham oq toga kiyganlar.

Dafn. Avval mayit tobutda dafn etilgan, lekin vaqt o‘tishi bilan rimliklar mayitni yoqishni afzal ko‘rganlar. Dafn kuni alohida jarchi mayitga hurmat bildirishni istagan kishilarni baland ovoz bilan chaqirgan. Vafot etgan kishining jasadi yuvilib, xushbo‘y moylar sepib, gullar qo‘yib, uyning tashqi devoriga uyda mayit borligini bildiradigan kiparis daraxti novdasini ilib qo‘yganlar. Mayitning jasadi uyda bir hafta turgan. O‘lgan paytda uyda o‘choqdagi olov o‘chirilgan va faqat mayit dafn etilgandan keyin yoqilgan. Uyda mayitni oyoq tomoni chiqishga qaratib qo‘yilgan. Mayitni yoqish uchun qalangan o‘tin juda qimmat turgan. Tartib bilan qalangan o‘tin ustiga mayit ko‘zi ochiq holda yotqizilib, uni yana bir marta xushbo‘y moylar sachratib, gulchambarlar va turli narsalar bilan o‘raganlar. Mayitning yaqin qarindoshi teskari qarab, gulxan yoqqan. Dafn musiqasi sadosi va go‘yandalarning yig‘isi ostida gulxan yongan. Mayitdan qolgan kul o‘lgan kishining soyasini chaqirish bilan yig‘ib olinib, bu kulga vino va sut sepganlar. Keyin esa kulni quritib, dafn urnasiga solib qo‘yganlar.

Rimliklarda mayitlar tiriklarning ishlariga ta’sir qiladilar, o‘zlari uchun belgilangan udumlarga tirik qarindoshlar mensimay qarasa, vafot etgan kishi o‘ch oladi deb hisoblangan. Vafot etgan ota, o‘g‘illari uchun xudoga aylangan. O‘g‘il dafn gulxanidan otasining suyagini ko‘tarib, o‘lgan otasi xudoga aylanganini e’lon qilgan. Erkaklar togasini kiymagan o‘smirlar hech qanday marosimsiz tuproqqa dafn qilingan. Rim qonuniga ko‘ra dafn marosimi va krematsiya shahar devoridan tashqarida o‘tkazilgan. Rimliklar qabrlar ustiga yozuvlar bilan sag‘ana va mavzoleylar barpo qilganlar, marhumlarning haykallari va byustlarini qo‘yganlar.

Rim imperatorlari ro‘yxati

Oktavian – Avgust – mil. avv. 27-yil – milodiy 14-yil
Tiberiy – mil.14 – 37-yillar
Kaligula – mil. 37 – 41-yillar
Klavdiy (I) – mil. 41 – 54-yillar
Neron – mil. 54 – 68-yillar
Galba – mil. 68 – 69-yillar
Oton – mil. 69-yil
Vitelliy – mil. 69-yillar
Vespasian – 69 – 79-yillar
Tit – 79 – 81-yillar
Domitsian – 81 – 96-yillar
Nerva – 96 – 98-yillar
Trayan – 98 – 117-yillar
Adrian – 117 – 138-yillar
Antonnin Piy – 138 – 161-yillar
Mark Avreliy – 161 – 180-yillar
Lusiy Ver –161 – 169-yillar
Kommod – 180 – 192-yillar
Pertinaks – 193-yil
Didiy Yulian – 193-yil
Septimiy Sever – 193 – 211-yillar
Klodiy Albin – 193 – 197-yillar
Pesenniy – 193 – 194-yillar
Karakalla – 211 – 217-yillar
Geta – 211 – 212-yillar
Makrin – 217 – 218-yillar
Elagabal – 218 – 222-yillar
Aleksandr Sever – 222 – 235-yillar
Maksimin – 235 – 238-yillar
Gordian (I) – 238-yil
Gordian (II) – 238-yil
Pupien – 238-yil
Balbin – 238-yil
Gordian (III) – 238 – 244-yillar
Filipp Arab – 244 – 249-yillar

Filipp kichik – 247 – 249-yillar
Detsiy – 249 – 251-yillar
Detsiy – 251-yil
Gostilian – 251-yil
Trebonian Gall – 251 – 253-yillar
Voluzian – 251 – 253-yillar
Emilian – 253-yil
Valerian – 253 – 268-yillar
Gallien – 253 – 268-yillar
Postum – 258 – 268-yillar
Viktorin – 268 – 270-yillar
Gotlik Klavdiy (II) – 268 – 270-yillar
Tetrik – 270 – 273-yillar
Kvintill – 270-yil
Avrelian – 270 – 275-yillar
Tatsit – 275 – 276-yillar
Florian – 276-yil
Prob – 276 – 282-yillar
Kar – 282 – 283-yillar
Karin – 283 – 285-yillar
Numerian – 283 – 284-yillar
Diokletian – 284 – 305-yillar
Maksimian – 286 – 305-yillar, 307 – 310-yillar
Galeriy – 293 – 311-yillar
Konstansiy (I) – 293 – 306-yillar
Karausiy – 286 – 293-yillar
Allekt – 293 – 296-yillar
Flaviy Sever – 305 – 307-yillar
Maksimin Daya – 305 – 313-yillar
Maksensiy – 307 – 312-yillar
Aleksandr – 308 – 311-yillar
Litsiniy – 308 – 324-yillar
Konstantin (I) – 306 – 337-yillar
Konstantin (II) – 337 – 340-yillar
Konstant – 337 – 350-yillar
Konstansiy (II) – 337 – 361-yillar
Magnensiy – 350 – 353-yillar

Yulian – 361 – 363-yillar
Iovian – 363 – 364-yillar
Valentinian (I) – 364 – 375-yillar
Valent – 364 – 378-yillar
Gratsian – 367 – 383-yillar
Valentinian (II) – 375 – 392-yillar
Magn Maksim 383 – 388-yillar
Flaviy Viktor – 384 – 388-yillar
Yevgeniy – 392 – 394-yillar
Yustin (I) – 518 – 527-yillar

(Alarixning buyrug‘i bilan shimoliy Yustinian (I) – (527 – 565-yillar) Italiyada 409 – 410-yillar imperator deb e’lon qilingan; 414-yilda ikkinchi marta Galliyada imperator deb e’lon qilingan, Gonoriydan hokimiyatni da’vo qilgan.)

Konstansiy (III) – 421-yil
Ioann – 423 – 425-yillar
Valentinian (III) – 425 – 455-yillar
Petroniy Maksim – 455-yillar
Avit – 455 – 456-yillar
Mayorian – 457 – 461-yillar
Libiy Sever (III) – 461 – 465-yillar
(Prokopiy) Antemiy – 467 – 472-yillar
Olibriy – 472-yillar
Glitseriy – 473 – 474-yillar
Nepot – 474 – 475-yillar
Romul Avgustul – 474 – 476-yillar

Birinchi imperator Oktaviandan (mil. avv. 27-yildan – milodiy 14-yilgacha) so‘nggi imperator Romul Avgustul (474 – 476-yillar) bilan birga g‘arbiy Rim imperiyasida 90 ta imperator taxtga chiqqan. Sharqiy Rim imperiyasida Arkadiydan (395 – 408-yillar) Yustinian-gacha (527 – 565-yillar) 9 imperator taxtga chiqqan.

Feodosiy (I) – 379 – 395-yil

G‘arbiy Rim imperiyasi va Sharqiy Rim imperiyasi

Gonoriy 395 – 423-yillar; Arkadiy 395 – 408-yillar; Konstantin (III) 407 – 411-yillar; Feodosiy (II) – 408 – 450-yillar (Britaniyada imperator deb e’lon qilingan, Galliyani boshqargan, Gonoriydan Lev (I) – 457 – 474-yillar; Marsian 450 – 457-yillar hokimiyatni da’vo qilgan). Lev kichik 474-yil; Zenon – 474 – 491-yil; Prisk Attal 409 – 410, 414 – 415-yillar; Yustin (I) – 518 – 527-yillar (Alarixning buyrug‘i bilan shimoliy Yustinian (I) – 527 – 565-yillar Italiyada 409 – 410-yillar imperator deb e’lon qilingan; 414-yilda ikkinchi marta Galliyada imperator deb e’lon qilingan, Gonoriydan hokimiyatni da’vo qilgan).

Konstansiy (III) 421-yil
Ioann – 423 – 425-yillar
Valentinian (III) – 425 – 455-yillar
Petroniy Maksim – 455-yillar
Avit – 455 – 456-yillar
Mayorian – 457 – 461-yillar
Libiy Sever (III) – 461 – 465-yillar
(Prokopiy) Antemiy – 467 – 472-yillar
Olibriy – 472-yillar
Glitseriy – 473 – 474-yillar
Nepot – 474 – 475-yillar
Romul Avgustul – 474 – 476-yillar.

Rim provinsiyalari ro‘yxati

1. Sitsiliya (mil. avv. 227-yil)
2. Sardiniya va Korsika (mil. avv. 227-yil)
3. Uzoq Ispaniya – Betika (mil. avv. 197-yil)
4. Yaqin Ispaniya – Tarrakon Ispaniyasi (mil. avv. 197-yil)
5. Makedoniya (mil. avv. 148-yil)
6. Afrika (mil. avv. 146-yil)
7. Osiyo (mil. avv. 130-yil)
8. Narbon Galliyasi (mil. avv. 120-yil)
9. Kilikiya (mil. avv. 92-yil)
10. Krit va Kirenaika (mil. avv. 75-yil)
11. Pont va Vifiniya (mil. avv. 74 – 66-yillar)
12. Suriya va Falastin (mil. avv. 63-yil)
13. Lugudun Galliyasi (mil. avv. 52-yil)
14. Belgika (mil. avv. 52-yil)
15. Akvitaniya (mil. avv. 52-yil)
16. Yangi Afrika – Numidiya (mil. avv. 46-yil)
17. Misr (mil. avv. 30-yil)
18. Illiriya (mil. avv. 27-yil)
19. Axaya (mil. avv. 27-yil)
20. Galatiya (mil. avv. 25-yil)
21. Luzitaniya (mil. avv. 19-yil)
22. Retsiya (mil. avv. 15-yil)
23. Norika (mil. avv. 15-yil)
24. Meziya (mil. avv. 25-yil)
25. Pannomiya (mil. avv. 10-yil)
26. Dalmatsiya (mil. avv. 6-yil)
27. Yuqori Germaniya (mil.16-yil)
28. Quyi Germaniya (mil. 16-yil)
29. Kappadokiya (mil.17-yil)
30. Kungitan Mavritaniyasi (mil. 40 – 41-yillar)
31. Sezar Mavritaniyasi (mil. 40 – 41-yillar)
32. Likiya va Pamfiliya (mil. 43-yil)
33. Britaniya (mil. 44-yil)
34. Frakiya (mil. 44-yil)
35. Arabiston (mil. 105-yil)
36. Dakiya (mil. 107-yil)

GLOSSARIY

A

Annallar (lot.) – solnoma, yilnoma, voqealar yilma-yil yozib borilgan tarixnoma.

Antik (lot.) – qadimgi Yunoniston va Rim tarixi, madaniyati va san'atiga oid; antik san'at.

Areopag (yun.) – qadimgi Afinada oliy sud va nazorat organi. Majlislar o'tkaziladigan joy «Ares tepaligi» nomiga ko'ra shunday atalgan.

B

Braxman (hind.) – bramin, braxman-majuslar kohini. Hindistonda oliy kohinlar kasrasi.

Bule (yun.) – qadimgi yunon quldorlik shahar-davlatlarida ijro etuvchi hokimiyatning oliy organi bo'lib, u davlat nazorati va moliyani boshqarish, savdoni nazorat qilish va tartibga solish, mansabdorlar faoliyatini kuzatish kabi turli ma'muriy vazifalarni bajargan. U boy va zodagon urug'lardan tashkil topgan. Afinada Bule 500 a'zodan tuzilgan (Besh yuzlar kengashi).

D

Dem (yun.) – Qadimgi Attikada o'z-o'zini idora qiluvchi jamoa okruglari.

Diktator (lot.) – Qadimgi Rimda urush yoki qo'zg'olonni bostirish kabi favqulotda voqea ro'y berganda Senatning qarori bilan konsul tomonidan tayinlanadigan to'la huquqli hukmdor. Uning vakolati 6 oydan oshmas edi.

G

Gerutsiya (yun.) – bir qancha qadimgi yunon davlatlarida oqsoqollar kengashi bo‘lib, davlat hayotida asosiy masalalarni hal qilgan. Spartada gerutsiya – oliy siyosiy organ.

I

Ilotlar (yun.) – qadimgi Spartaning doriylar tomonidan bo‘ysundirilgan dehqonlar aholisi. Ilotlar davlat mulki hisoblanib, spartaliklar egallagan yerga biriktirib qo‘yilgan.

K

Kasta (lot. – portugal.) – toza, benuqson, boshqa toifa bilan aralashmagan toifa, tabaqa. Hindiston va Sharqdagi boshqa ba’zi mamlakatlarda nasab va imtiyozli huquqlari, urf-odatlari va kasb-hunarlariga qarab alohida tabaqaga ajralgan ijtimoiy guruh.

Kvestor (lot.) – qadimgi Rimda davlat xazinasini boshqargan mansabdor shaxs.

Kliyentlar (lot.) – qadimgi Rimda gallar va ba’zi qabilalarda ijtimoiy tabaqa bo‘lib, mil. avv. VII asrda vujudga kelgan. To‘la huquqli bo‘lmagan kliyentlar patritsiylarga qaram bo‘lib, ularning homiyligidan foydalanganlar.

L

Lotin Ittifoqi – mil. avv. VII asrda an’anaga ko‘ra, tashkil topgan qadimgi Italiya 30 shahar (Latium) federatsiyasi. Lotin ittifoqida Rim shahri ham kirib, mil. avv. VI asrda ustunlikka ega bo‘lgan.

liktorlar (lot.) – qadimgi Rim respublikasida oliy mansabdor konsullar va diktatorni kuzatib borgan faxriy soqchilar. Qonunga ko‘ra konsulga 12 liktor va diktatorga 24 liktor hamrohlik qilgan.

O

Olimpiya o‘yinlari (yun.) – mil. avv. 776-yildan an’anaga ko‘ra har 4 yilda bir marta Olimpiya shahrida

xudo Zevs sharafiga o‘tkaziladigan bayram. Olimpiya o‘yinlari yugurish, disk uloqtirish, sakrash, poyga, kurash musobaqalaridan iborat bo‘lgan.

Ostrakizm (yun.) – badarg‘a, surgun, qadimgi Afinadagi xalq yig‘inlarida ovoz berishning maxsus shakli. Davlat uchun xavfli deb hisoblangan fuqarolarni yashirin ovoz berish yo‘li bilan badarg‘a qilish. Bunda surgun qilinadigan kishilarning nomlari yozilgan sopol parchalari (ostrakonlar)ni tarqatish orqali ovoz to‘plagan. Kimning nomiga 6 ming va undan ortiq sopol parchasi to‘g‘ri kelsa, u 10 muddat bilan Afinadan badarg‘a qilingan. Ostrakizm mil. avv. 509 – 417-yillarda qo‘llanilgan.

P

Patritsiy (lot.) – qadimgi Rimda zodagon, aslzoda, oqsuyak. Qadimgi Rimda butun hokimiyatga ega bo‘lgan yerli boy va zodagonlar urug‘ining a’zosi.

S

Satrap (yun. – qad. fors.) – qadimgi fors podshohligida cheklanmagan hokimiyatdan foydalanuvchi viloyat noibi.

Senat (lot.) – qadimgi Rimda respublika davrigacha urug‘ oqsoqollarining yig‘ini. Respublika davrida Senat oliy hokimiyatning davlat organi, hukmron-quldor aslzodalar quroli.

Sfinks (yun.) – qadimgi Misrda odam boshli, sher tanali ulkan tosh haykal. U fir’avn qudratini gavdalantirgan.

Qadimgi Rim tarixi bo‘yicha tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar

1. Гай Светоний Транквилл. Жизнь двенадцати цезарей. – М. Издательство «Наука», 1993.

2. Плутарх. Избранные жизнеописания, том I, том II. – М., Издательство «Правда», 1987.

3. Корнелий Тацит. Том первый. Анналы. Малые произведения. Издательство «Наука», Ленинградское отделение, 1989.

4. Корнелий Тацит. Том второй. Издательство «Наука». Ленинградское отделение, 1989.

5. Сергеев И.П. Государственные учреждения древных римлян. Поздняя республика и ранняя империя. – Харков. 2013.

6. Rajabov.R. Qadimgi dunyo tarixi. – T., Fan va Texnologiyalar, 2009.

7 Rajabov R. Jahon tarixi: Qadimgi Sharq, Yunoniston, Rim. – T., Yangi asr avlodi, 2015.

8. Qadimgi dunyo tarixi xrestomatiyasi. Tuzuvchi R. Rajabov. – T., Istiqlol. 2013.

9. Машкин Н.А. История древнего Рима. – М., «Высшая школа» 2006.

10. Моммзен Т. История Рима. Т.И.М. 1999.

11. Куманецкий К. История культуры древней Греции и Рима. – М., 1990.

12. История древнего мира: Восток, Греция, Рим./И. А. Ладынин и др. – М., 2004.

13. Искусство Этрурии и Древнего Рима. (Памятники мирового искусства) – М., 1982.

14. Соколов Г.И. Искусство этрусков. – М., 2002.

15. Седаков С.Ю. Римское право. – М., 2001.

16. Горьков С.Ю. Рим и Карфаген. Великая морская война. – М., 2003.

17. Дельбрюк Г. История военного искусства в рамках политической истории. I-II. – М., – Л., 1936 – 1937.

18. Конноли П. Греция и Рим: энциклопедия военной истории. – М., 2000.

19. Махлаюк А.В. Армия Римской империи. – Нижний Новгород: 2000.

20. Дементьева В.В. Римская магистратура военных трибунов с консульской властью. – Ярославль, 2000.

21. Утченко С. Л. Кризис и падение Римской республики. – М., 1965.

22. Грант М. Римские императоры. Биографический справочник правителей Римской империи. 31 г. до н.э. – 476 г. н.э. – М., 1998.

23. Источники Витрувий Поллион, Марк. Десять книг об архитектуре/ Пер. Ф.А.Петровского. – М., 2003.

24. Колосовская Ю.К. Рим и мир племен на Дунае – М., 2000.

25. Буркхардт Я.Век Константина Великого. – М., 2003.

26. Аппиан. Гражданские войны. – Л., 1935.

27. Веллей Патеркул. Римская история. – Вестник древней истории, 1983, №1, 2.

28. Луций Анней Флор. Эпитомы, с. 115-123.

29. Плутарх. Сравнительные жизнеописания, т. 3. Биографии Тиберия и Гая Гракхов. – М., 1986.

30. Кнабе Г. С. Корнелий Тацит. – М., 1981.

31. Утченко С. Л. Политические учения древнего Рима. – М., 1977.

32. Античная литература. Рим. Хрестоматия. – М., 1981.

33. Античная литература/Под ред. А. А. Тахо-Годи. – М., 1980.

34. История Римской литературы/Под ред. Н. Ф. Дератани. – М., 1954.
35. Культура Древнего Рима. (Под ред. Е. С. Голубцовой. – М., 1985. Т. I-II.
36. Соколов Г. И. Искусство Древнего Рима. – М., 1971.
37. Лосев А. Ф. Эллинистически-Римская эстетика I-II вв. н. э. – М., 1979.
38. Сергеенко Н. Е. Жизнь Древнего Рима. Очерки быта. – М., – Л., 1964.

MUNDARIJA

I BO‘LIM

I bob. Qadimgi Yunon tarixiga kirish 3
Qadimgi Yunoniston 7
Egey madaniyati 24
«Qorong‘i asrlar» (mil.avv. XI – IXasrlar). Yunon shahar-davlatlarining shakllanishi (mil.avv. VIII – VI asrlar)..... 42
Sparta davlati va jamiyati 67
Mil. avv. VII – VI asrlarda Afina shahar-davlati..... 88
Mil.avv. V asrda Yunon shahar-davlatlari..... 108
Mil.avv. V asrning so‘nggi choragi – IV asrda yunon shahar-davlatlarning tushkunligi 130
Qadimgi yunon madaniyati 149
Yunon yozuvchilarining aforizmlari. 181
II bob. Makedoniyaning yuksalishi. Makedoniyalik Aleksandr faoliyati 182
Mil. avv. III – I asrlarda Old Osiyo 214
Bolqon yarim oroli, Shimoliy Qoradengiz bo‘yi mil. avv. III – II asrlarda..... 246
Mil.avv. III – I asrlar madaniyati (Ellin madaniyati) 266
Qadimgi Yunoniston tarixi bo‘yicha tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar..... 280

II BO‘LIM

I *bob.* Qadimgi Rim
Rim tarixiga kirish. Italiya va uning qadimgi aholisi. .. 283
Etrusk davlati va jamiyati 298
Rim podshohlik davrida (mil.avv. 753 – 510-yillar). 311
Rim ilk respublika davrida..... 332
Respublika davrida davlat qurilishi: 356
So‘nggi respublika davri (mil.avv. III asr o‘rtalaridan I asr o‘rtalarigacha). O‘rtayer dengizi havzasida Rim hukmronligining o‘rnatilishi 375

Rim harbiy tashkiloti. Rim qo‘shinining
tashkil etilishi 402
Vegetiy. Harbiy ishning qisqacha bayoni 407
Qadimgi Rimning harbiy tashkiloti.
Milodiy II – III asrlari..... 413
Rim huquqshunoslari traktatlaridan
parchalar (Yustinian Digeslari)..... 413
Mil. avv. II – I asrlarda Rim respublikasining ijtimoiy-
iqtisodiy hayoti. 417
Rim respublikasining agressiv tashqi siyosati
(mil.avv. II asrning oxiri – mil. avv. I asr.). 443
Rim respublikasining ijtimoiy-siyosiy tushkunligi va
respublika tuzumining qulashi. 459
Rim davlati va jamiyati ilk imperiya davrida..... 504
Rim imperiyasining oltin davri
(milodiy II asr)..... 546
III asrda Rim imperiyasining tushkunligi. Har qanday
sivilizatsiyaning halokati uning o‘z ichidagi sabablar
asosida yuz beradi 569
Dominat davrida Rim davlati va jamiyati.
G‘arbiy Rim imperiyasining qulashi (IV – V asrlar) 584
Qadimgi Rim madaniyati..... 611

Rim imperatorlari ro‘yxati 642
Glossariy 647
Qadimgi Rim tarixi bo‘yicha tavsiya
etiladigan manba va adabiyotlar 649

O‘quv-uslubiy nashr

RAVSHAN RAJABOV

JAHON TARIXI
II Qism
QADIMGI YUNONISTON, RIM

Darslik

Muharrir
Gavhar MIRZAYEVA

Badiiy muharrir
Dilfuza SALIXODJAYEVA

Kompyuterda sahifalovchi
Dildora JO‘RABEKOVA

Texnik muharrir
Umidbek YAXSHIMOV

Litsenziya raqami: ÀI № 252. 2014-yil 02.10 da berilgan.
Bosishga 07.07.2020-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 1/32.
Bosma tabog‘i 20,5. Shartli bosma tabog‘i 34,44.
Garnitura «Bookman Old Style». Ofset qog‘oz.
Adadi 200 nusxa. Buyurtma № 87.
Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi
«Yoshlar matbuoti» MCHJda chop etildi.
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko‘chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:
Nashr bo‘limi – (78) 147-00-14; (78) 129-09-72.
Marketing bo‘limi – (98) 128-78-43.
faks – (71) 273-00-14;
e-mail: yangiasravlodi@mail.ru